

**O‘ZBEKISTON AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**J.TULENOV, G.TULENOVA,  
K.TULENOVA**

# **FALSAFA**

**TOSHKENT – 2016**

**UO‘K: 101 (075)**  
**KBK 87.3 (50‘)ya7**  
**T-83**

**T-83 J.Tulenov, G.Tulenova, K.Tulenova. Falsafa. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. – T.: «Fan va texnologiya», 2016, 344 bet.**

**ISBN 978–9943–998–75–9**

Mazkur darslikdan falsafa fani, uning predmeti va xususiyatlari, falsafiy dunyoqarash va uning tarixiy turlari, qadimgi Sharq va antik dunyodagi ilk falsafiy fikrlar, Markaziy Osiyo, G‘arbiy Yevropa, Rossiyadagi falsafiy fikrlarning rivojlanish tarixi, shuningdek, borliq hamda olamni falsafiy anglash muammolari, olamni bilish nazariyasi, jamiyatni falsafiy onglash asoslari, taraqqiyotining omillari, insoniyat istiqboli bilan bog‘liq dolzarb muammolar o‘rin olgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

**UO‘K: 101 (075)**  
**KBK 87.3 (50‘)ya7**

***Taqrizchilar:***

**I.Karimov** – falsafa fanlari doktori, professor;  
**J.Ramatov** – falsafa fanlari doktori, professor

***Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-uslubiy Kengashining 2016-yil 13-yanvardagi 5(86)-sonli qaroriga asosan chop etildi.***

**ISBN 978–9943–998–75–9**

---

---

## KIRISH

Falsafa – insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatining ajralmas tarkibiy qismidir. Afsuski, biz ko'p yillar mobaynida eski mafkura ta'siri ostida jahon xalqlarining buyuk ma'naviy boyligi bo'lgan falsafa fanini uning bittagina shakli, ya'ni XIX asrning o'rtasida vujudga kelgan – dialektik va tarixiy materializm bilan uyg'unlashtirib, undagi soxtalashgan mavhum g'oyalarga sajda qilib keldik. Natijada yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik madaniyati, boy falsafiy fikrlaridan mahrum qilib qo'ydik. Mustaqillik tufayli bunday salbiy hodisalarga endilikda chek qo'yildi.

Mustaqil davlatimizning erkin va hur fikrlash imkoniyatiga ega bo'lgan fuqarolari, ayniqsa, yosh avlod ayni kunlarda mazmunan yangilangan, hozirgi davr talabiga javob beradigan falsafaga muhtoj bo'lmoqdalar. Mazkur darslik ana shunday ehtiyoj asosida yuzaga keldi.

Darslik quyidagi tamoyillarga asoslanib yozilgan:

1. Ma'lumki, dialektik va tarixiy materializm falsafasi ma'muriy-buyruqbozlik tizimining siyosati bilan chambarchas bog'liqholda, o'zining fan sifatidagi xususiyatini asta-sekin yo'qotib, mafkuraviy g'oyalar yig'indisiga aylanib qolgan edi. Endilikda biz falsafani siyosiy lashmagan mustaqil fan sifatida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldik. Shuning uchun biz eng avvalo, ko'p yillar davomida to'planib qolgan rasmiylashgan mafkuraviy g'oyalardan voz kechib, yangi tafakkur asosida falsafani sinfiy va partiyaviy ta'limot sifatida emas, balki umuminsoniy qadriyatlarga javob beradigan fan sifatida rivojlantirishimiz kerak.

Shuningdek, falsafa fanining nazariy asoslarini ham qayta ko'rib chiqib, ulami yangi g'oyalar bilan boyitishimiz lozim. Har qanday fanning jamiyatda tutgan o'rni, istiqboli, uning nazariyasining boyligidadir. Fanning nazariy asoslari qanchalik puxta, mukammal, atroflicha va chuqur ishlangan bo'lsa, uning mavqesi ham shu darajada yuksak bo'ladi.

Ma'lumki, falsafa fanining asosiy negizini dialektika nazariyasi tashkil etadi. Shunday ekan, dialektika nazariyasini ijodiy rivojlantirib, uni hozirgi davr talabalariga muvofiqlashtirib, umuminsoniylik darajasiga ko'tarish kerak. O'tmishda dialektika nazariyasi turlicha falsafiy

ta'limotlarda shakllanib va rivojlanib kelgan. Dialektika hozirgi vaqtda ham jahon falsafasida markaziy o'rinni egallab kelmoqda. Shunday ekan, endilikda biz dialektika nazariyasini ham umuminsoniy qadriyatlar darajasidagi fan sifatida rivojlantirishimiz dardkor.

2. Yangilangan falsafa fani – umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini e'tirof etish bilan bir qatorda buyuk mutafakkirlarimizning ko'pgina asarlarida taraqqiy ettirilgan Sharq xalqlarining falsafiy qarashlarini chuqur va atroflicha ochib bermog'i kerak. «Asrlar mobaynida, – deydi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, – xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimizdahosidan bahra olib boyib bordi».<sup>1</sup>

Dialektika va tarixiy materializm falsafasi G'arbiy Yevropada vujudga kelib, keyinchalik Rossiya xalqlarining ehtiyojlariga moslashtirilgan falsafa ekanligi hammamizga ayon. Unda Markaziy Osiyo xalqlarining boy falsafiy merosi, qarashlari o'z aksini topmagan edi. Endilikda bizning asosiy vazifamiz – o'z xalqimiz tafakkuriga mos, tushunarli va yaqin bo'lgan Sharq falsafasidan bekamu ko'st foydalanigan fanni bunyod etishdir.

3. Mazmunan yangilangan mazkur falsafaning asosiy vazifasi insonning ichki dunyosini, ma'naviyatini, tafakkurini, dunyoqarashini shakllantirishga va rivojlantirishga qaratilmog'i lozim.

Mustaqillikka erishganimizga qadar, biz olimlar dialektik va tarixiy materializm ta'limotining ta'siri tufayli, falsafaning asosiy vazifasi – dunyoni izohlabgina qolmasdan uni qayta qurishdan iborat deb keldik. Islom ta'limoti esa aksincha, insonning ichki dunyosini, uning ma'naviy kamolotini takomilashtirishga qaratilgan edi. Shuning uchun ham hanuzgacha u inson qalbiga chuqur ildiz otib kelmoqda.

Endilikda biz falsafa faniga insonning o'z-o'ziga, uning fikrlash madaniyatini, tafakkurini, ma'naviy dunyosini takomilashtirishga qaratilgan fan deb qaramog'imiz lozim. Falsafaga bunday yondashishning e'tibor markazida inson muammosi turadi deb qarashga imkon beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, falsafaning ham, jamiyatimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ham asosiy maqsadi inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilganligidan dalolatdir.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1995, 9-bet.

4. Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy dunyoqarashi – o'zining xilma-xilligi va sarmazmunligi bilan ajralib turadi. U ko'p qirrali milliy madaniyat, urf-odat, an'analarimizda, axloq-odob, imon-e'tiqod va boshqa olijanob fazilatlarimizda mujassamlashgan. Shunday ekan, yangi davr falsafasida milliy madaniyatimiz, qadriyatimiz, milliy merosimizda, ayniqsa, islom ta'limotidan, undagi qimmatbaho falsafiy fikrlardan unumli foydalanmog'imiz lozim.

5. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov qayd qilganidek, davr xalqimiz dunyoqarashini milliy ruhda isloh qilishni qat'iy talab qilmoqda. Yangicha falsafani istiqloq g'oyalari bilan uyg'unlashtirib rivojlantirishimiz darkor. Yangi davr falsafasi – hayotdan ajralib qolgan mavhum nazariy masalalari bilan chegaralanib qolmasdan, balki mustaqil davlatimizni mustahkamlashga oid bo'lgan masalalar bilan shug'ullanishi kerak. Har qanday fanning asosiy vazifasi – jamiyatga xizmat qilishdan, uning oldida turgan muammolarni echishga ko'mak berishdan iboratdir.

Mustaqillik sharoitida xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar va ularning falsafiy jihatlari, milliy va millatlararo munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlarning kelib chiqishi va ularni bartaraf etish shakllari, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash, inson va insoniyat taqdirining mush-tarakligi, hozirgi davrda butun insoniyatga daxldor bo'lgan umum-bashariy muammolar shular jumlasidandir.

Ana shundagina falsafa fani yosh alodni barkamol va fidoyi inson qilib tarbiyalashda qudratli ma'naviy kuchga aylanadi.

Mazkur darslik olti bo'limdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limida – falsafa fani, uning predmeti va muammolar doirasi, ikkinchi bo'limda – falsafa va uning tarixi; uchinchi bo'limda – borliq falsafasi; to'rtinchi bo'limda – falsafada ong muammosi, beshinchi bo'limda – bilish nazariyasi; oltinchi bo'limda esa jamiyat falsafasiga oid masalalar yangicha fikrlash asosida o'rin olgan.

Darslik Oliy o'quv yurtali talabalari, magistrleri uchun mo'ljallangan.

---

---

## BIRINCHI BO‘LIM. FALSAFA FANI, UNING PREDMETI VA MUAMMOLAR DOIRASI

### IMAVZU: FALSAFA FANI, UNING PREDMETI VA XUSUSIYATLARI

#### Reja:

1. Falsafa fanining predmeti, muammolar doirasi va vazifasi.
2. Falsafa va boshqa fanlar.
3. Falsafaning mafkura va siyosat bilan aloqadorligi.

#### 1. Falsafa fanining predmeti, muammolar doirasi va vazifasi

Fan – inson va jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Uning yordamida kishilar voqelikdagi narsa va hodisalarning kelib chiqishi, rivojlanishi haqida xolisona ma'lumotlar to'playdilar, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratadilar. Mavjud fanlar o'zining xilma-xilligi bilan ifodalanadi. Shularning ichida eng qadimiysi falsafadir. «Falsafa» atamasi ikkita yunoncha so'zdan («fileo» – sevaman va «sofia» – donolik) olingan bo'lib, «donolikni sevaman», degan ma'noni anglatadi. Mazkur fanga bunday nom tasodifan berilgan emas. Falsafa paydo bo'lishi bilan kishilar fikrini band etgan turli-tuman savollarga javob qidirishga harakat qilgan. Xususan, bizni qurshab turgan dunyo qanday paydo bo'lgan, u qanday rivojlanadi? Inson ongi, ruhiyatini materiyaga, tabiatga munosabati qanday? Inson dunyoni bilishga qodirmi yoki yo'qmi? Jamiyat qanday paydo bo'lgan va uning harakatlantiruvchi kuchlari nimalardan iborat? kabi savollar shular jumlasidandir. Falsafaning e'tibor markazidagi savollarning xilma-xilligi va rang-barangligini e'tiborga olib, yunonlar uni «donolik fani» yoki «donishmandlik» deb ataganlar.

Falsafa mavjud narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning tub mohiyatini bilishga qaratilgan fandir. Bu haqda Forobiyning quyidagi so'zlari alohida e'tiborga sazovordir: «Mavjudot haqidagi bilim qo'lga kiritilsa, shu haqidata'lim

berilsa, mavjudotdan bo'lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli dalil, hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo'lsa, mana shu ma'lumotga doir fanni falsafa deymiz...»<sup>1</sup>.

Shuni alohida eslatib o'tish joizki, voqelikning eng umumiy tomonlari, aloqalarini aks ettiruvchi qarashlar falsafiy darajaga ko'tarilishi uchun ular inson tomonidan mavhum tafakkurlash yo'li bilan qayta ishlab, umumlashtirilib, sistemalashtirilgan nazariy g'oyalar tizimini tashkil etishi lozim. Shundagina ular falsafiy dunyoqarashni hosil qiladi.

Falsafaning paydo bo'lishi qadimgi Yunonistonda eramizda avvalgi VI asrga to'g'ri keladi, chunki fanning taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy zaminlar aynan ana shu davrda vujudga kelgandi.

Har qanday falsafa o'z davrining mahsuli sifatida shu davr ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlarini ifodalaydi. Shuning uchun insoniyat tarixining turli bosqichlarida turli falsafiy qarashlar mavjud bo'lgan va shunga mos ravishda uning predmeti va vazifalari ham o'zgarib borgan.

Dastavval, aniq fanlar mustaqil taraqqiy etmagan paytda, falsafa barcha bilimlarni umumlashtiruvchi, fanlarning fani, «umumiy tizim» vazifasini bajarib kelgan edi. Shu davrning buyuk mutafakkir olimlari Demokrit, Arastu, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Ulug'bek va boshqalar, ayni vaqtda tabiat fanlarining ham asoschilari bo'lganlar. Shuning uchun dastlabki kezlarda falsafa bir butun ta'limot ko'rinishida mavjud bo'lgan edi.

Falsafani maxsus bilimlar bilan birlashtirish qadimgi davrga xos xususiyat bo'lgani uchun u tabiat falsafasi, ya'ni «naturfilosofiya» deb ham hisoblangan. U tabiiy fanlar tushunchalariga asoslangan holda tabiatni yaxlit tasvirlab berishga qaratilgan bo'lib, kishilik jamiyatining ilk bosqichida keng taraqqiy etgan mifologik tasavvurlarni siqib chiqarishga asos yaratadi.

Qadimgi davr falsafasida olamni yaxlit izohlab berish bilan bir qatorda narsa va hodisalarning taraqqiyot qonunlarini o'rganish usullari, bilish nazariyasi hamda ijtimoiy fikrlar (axloq-odob, davlatni boshqarish masalalari) ham katta o'rin olgan.

Tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarning rivojlanib borishi alohida fanlar paydo bo'lishiga, mustaqil tadqiqot sohalari ajralib chiqishiga olib keldi. Uyg'onish davridan, ayniqsa, XVII asrdan boshlab tabiat haqidagi

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 183–184- betlar.

fanlar, jumladan, tajribaga asoslangan tabiatshunoslik, astronomiya, matematika, fizika, mexanika, kimyo muvaffaqiyatli rivojlana boshladi. Ijtimoiy tajribaning xo'jalikning, ayniqsa, sanoatning rivojlanishi, savdo ishlarining o'sishi va aniq fanlar bilan bir qatorda bir qancha ijtimoiy-gumanitar fanlarning: tarix, til, adabiyot, san'at, iqtisod, huquq va hokazolarning ham rivojlanishiga zamin yaratadi.

Endilikda falsafa fani tabiatni yaxlit o'rganish muammolari bilangina emas, balki fan taraqqiyotida ilmiy bilishning ahamiyati, bilish jarayonining asosiy bosqichlari, ilmiy bilishda aniq fanlarda qo'llanadigan uslublarning roli, fan taraqqiyotida mantiqiy tafakkurlashning qonuniyatlari va shakllari kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Shuningdek, inson va jamiyat insonning erki va huquqlari, axloq-odob, davlat muammolari ham keng o'rin oladi.

XIX asrdan boshlab boshqa fanlar tomonidan hosilqilingan bilimlarni birlashtirish va umumlashtirishga ehtiyoj kuchaya bordi. Xususiy fanlarning erishgan muvaffaqiyatidan kelib chiqqan holda borliq va bilishning falsafiy masalalariga bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi. Faylasuflar orasida falsafiy tizim yaratishga intiluvchilar ko'payib ketdi. Bunga misol sifatida nemis klassik falsafasining yirik vakili Gegel tomonidan yaratilgan falsafiy tizimni ko'rsatib o'tishimiz o'rinlidir. U o'zining «Mantiqilmi» asarda dialektika qonunlariga asoslangan yaxlit falsafiy tizimni yaratgan edi. Gegelning bu ta'limoti hanuzgacha falsafa faniga o'zining ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Fan va texnikaning doimiy ravishda taraqqiy etishi hamda jamiyatning turli sohalarida ro'y berayotgan jarayonlar falsafa fanining rivojlanishiga va uning muammolar doirasini kengaytirishga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Falsafa yaxlit ilmiy bilim tizimini tashkil etib, muayyan fundamental qoidalarining yig'indisiga asoslanadi. Bu qoidalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi uch turqum, yirik muammolarni qamrab oladi.

1. Borliq va uning rivojlanish muammolari. Borliq – mavjudotni ifodalovchi tushunchadir. U murakkab va ko'p qirralidir. Moddiy borliq, ideal borliq, inson borlig'i va boshqalar shular jumlasidandir.

Borliq, uning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy mushohada qilish insonni doimo qiziqtirib kelgan va hozirda ham qiziqtirib kelmoqda. Borliqni ilmiy izohlash, anglashga qaratilgan xilma-xil falsafiy yo'nalishlar va fikrlar mavjuddir. Ularni atroflicha va



batafsil o'rganib chiqish insonning falsafiy dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

2. Falsafa fani borliq muammosi bilan bir qatorda voqelikning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlari, ularni inson ongida aks ettirish to'g'risidagi ta'limotidir. Narsa va hodisalarning bir-biri bilan aloqadorligi va ularning doimiy rivojlanib turishi falsafa fanida uning asosiy qonun va kategoriyalari sistemasida o'z aksini topadi. Demak, falsafa fani borliqdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va rivojlanishini aks ettirish uchun qonun va kategoriya tizimini yaratadi va uning yordami bilan inson atrofini qurshab turgan voqelikni aks ettiradi. Inson tafakkurining shakli bo'lgan falsafiy qonun va kategoriyalar yordamida borliqni o'rganish katta falsafiy muammodir.

Falsafa – nazariy fikrlarning shakli va qonuniyatlarini ham o'rganuvchi ta'limot bo'lib hisoblanadi. Tafakkur shakllari va qonunlari formal mantiq va falsafa fanlarida o'rganiladi.

Formal mantiqnarsa va hodisalarni harakatsiz, barqaror, ziddiyat-sizlikda tahlil etishni talab etadi. Unga muvofiq, bir faktda, bir jihatdan olingan ikkita qarama–qarshi fikrlar haqiqat bo'lishi mumkin emas. Bundanfarqli o'laroq, falsafiy tafakkurlash narsa va hodisalarni harakatda, hamma tomonlarini, ziyadditlar birligida tahlil etishni talab etadi. Ziddiyatlarni hisobga olgan tafakkurlash mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, ziddiyat vatasodif va boshqa kategoriyalar (tushunchalar) hamda falsafiy qonunlar yordamida tahlil etilayotgan narsaning barcha tomonlarini chuqur va atroflicha bilib olish imkoniyatini yaratadi.

Empirik bilish formal mantiq qonun-qoidalari asosida fikrlash bilan kifoyalansa, nazariy bilish falsafiy (dialektik) fikrlashni talab etadi.

3. Voqelikni bilish nazariyasi. Borliqni inson ongida aks ettirish - murakkab dialektik jarayondir. Uni atroflicha va chuqur bilish uchun falsafa fani – in'ikos nazariyasini ishlab chiqdi. Falsafaning in'ikos nazariyasi bilish jarayonida subyekt bilan obyektning aloqadorligi, bilishning asosiy bosqichlari va shakllari, haqiqatga erishish dialektikasi va shunga o'xshash ko'pgina murakkab masalalarni atroflicha anglab olishga yordam beradi. Ilmiy bilish va inson amaliyoti uchun bu katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolar falsafasining barcha tarixiy tiplari va yo'nalishlari markazida turgan muammolardir. Antik davr, o'rta asr, yangi davr va hozirgi zamon faylasuflarining barchasi o'z asarlarida borliq, uning kelib chiqishi va rivojlanishi qonuniyatlari

to'g'risida, inson-ning borliqqa munosabati, voqelikning rivojlanish manbalari, uni bilish qoidalari va shu kabi murakkab falsafiy masalalar to'g'risida turlicha fikrlar aytganlar va aytib kelmoqdalar. Bu esa, falsafaning fundamental muammolari davomiyligi va ularning umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

4. Insonning dunyoqarashini, uning ongini falsafa qoidalariga muvofiq lashtirib shakllantirishda jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishi qonuniyatlarini anglab olish katta ahamiyatga ega. Jamiyatda ro'y berayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy hodisalar, ularning kelib chiqishi, rivojlanish yo'nalishlarini falsafiy anglash mazkur jarayonlarni atroflicha va chuqur mushohadaetish bilan bir qatorda, insonning ularga qanday munosabatda bo'lishini aniqlab olish imkoniyatini tug'diradi. Shuning uchun bu masalalar ham falsafiy tahlil qilishni taqozo etadigan muammolar qatoriga kiradi.

Hozirgi davrda inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi, insonning istiqboli, fan va texnika yutuqlaridan barcha insoniyat manfaati yo'lida oqilona foydalanish har qanday urushning oldini olish, tabiatni muhofaza etish, ocharchilikning oldini olish, insoniyatni, uning madaniyatini saqlab qolish, jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish va shu kabi masalalar ham falsafaning dolzarb muammolari hisoblanadi.

Falsafa doirasidagi masalalar hayotdan ajralgan mavhum masalalar emas, balki, ular inson va uning hayotidan kelib chiqadigan dolzarb, umuminsoniy xususiyatga ega muammolardir. Hegel ta'biri bilan aytganda, falsafa – inson tafakkurida aks etgan davrdir. Falsafa fani vujudga kelgandan boshlab to hozirgi kungacha ham hayot yuzaga keltirgan turli-tuman masalalar, insonni avvaldan qiziqtirib kelayotgan muammolar doimo uning diqqat markazidadir.

Yuqorida aytilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, falsafa fanining predmeti, muammolari doimo o'zgarib, yangilanib turadi.

Falsafaning vazifasi xilma-xil bo'lib, uning eng muhim xususiyati - kishilarda olam haqida bir butun dunyoqarashni shakllantirishga qaratilganidir. Shuningdek, falsafa aniq fanlar vakillarini ilmiy bilishning asosiy shakllari, uslublari va tamoiyllari bilan qurollantiradi.

Falsafa gnoseologik vazifani ham bajaradi, ya'ni tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni bilishning qonuniyatlarini, bilish jarayonida obyekt va subyekt dialektikasini atroflicha ochib beradi.

Falsafa shaxsning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini shakllantiradi. Shu bilan birga, u shaxsda jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyat hissini uyg'otadi.

Ma'naviy qadriyatlarning ajralmas qismini tashkil etuvchi falsafa fani, o'z navbatida madaniyat, qadriyatlarining mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, shuningdek, ma'naviy etuk komil insonlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini atroflicha asoslab beradi. Bu uning tarbiyaviy vazifasini yanada kuchaytiradi.

## 2. Falsafa va boshqa fanlar

Falsafani o'rganish chog'ida asosiy e'tiborni ikki narsaga qaratish lozim. Birinchidan, falsafa – bu eng avvalo, fan. Barcha boshqa fanlar singari u ham o'zining predmetiga ega bo'lib, doimo rivojlanishdadir. Ikkinchidan, falsafa, ayni paytda mafkura hamdir, u mafkuraviy vazifalarni ham bajaradi. Shuni ochiq-oydin aytish kerakki, uzoq yillar davomida falsafaning mafkuraviy xususiyatiga birinchi darajali ahamiyat berildi-yu, ammo uning mustaqil fan ekanligiga unchalik e'tibor berilmadi.

Bu esa, o'z navbatida, ayrim olimlar tomonidan falsafa fan emas, u mafkura degan fikrni olg'a surishga turtki bo'lmoqda. Lekin bunday xulosa qilishga hech qanday asos yo'q.

Falsafa fanga xos bo'lgan barcha xususiyatlarga ega. Ma'lumki, har bir fanning o'ziga xos obyekt va predmeti mavjuddir. Bu falsafa faniga ham daxldordir.

Bizni qamrab olgan, cheksiz va doim rivojlanishda bo'lgan olamni, uning qonuniyatlarini bilish aniq fanlar bilan bir qatorda falsafaning ham vazifasini tashkil etadi. Falsafaning ham, aniq fanlarning ham obyekt bitta, u ham bo'lsa bizni qurshab olgan olamdir. Ammo ularning tadqiqot predmetlari turlichadir. Rang-barang dunyo va undagi hodisalarda bir vaqtning o'zida umumiy va xususiy qonunlar namoyon bo'ladi.

Dunyoning alohida olingan va cheklangan sohaslarida amal qiluvchi xususiy qonunlarni aniq, fanlar o'rganadi. Ular orasida amal qiladigan eng umumiy qonunlar falsafaning o'rganish sohasiga kiradi. Masalan, miqdoriy munosabat va fazoviy o'rinlarni – matematika, issiqlik, nurlanish, elektromagnit va yadro jarayonlarini – fizika, o'simlik va hayvonot olamini – biologiya fanlari, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarini, ishlab chiqarish usuli va taqsimlash kabilarni – iqtisod fani o'rganadi. Falsafa alohida fanlar singari dunyoning u yoki bu tomonini emas, balki uni bir butunligicha o'rganadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonu-

niyatlarini tadqiq qilib, kishilarning dunyoqarashini hosil qilib ularning nazariy va amaliy faoliyatini to'g'ri yo'lga soladi.

Fan tizimlashtirilgan bilimlar yig'indisi bo'lib, u o'z navbatida fanning nazariya, qonun, tushunchalar turqumida ifodalanadi, aniq fanlar kabi falsafa fani ham o'zining nazariyasiga, qonun va kategoriyalariga (umumiy tushunchalariga) ega. Ularning yordamida kishilar ongida voqeliqdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va taraqqiyot qonuniyatlari aks ettiriladi.

Fanning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u tadrijiy ravishda taraqqiy etib, o'z mazmunida ilgari to'plangan ma'lumotlarni saqlab qolib, unga doir yangi bilimlarni qo'shib turadi. Falsafa fani ham, shuningdek, o'tgan avlodlar tomonidan to'plangan g'oyalarni ulotqirib tashlamasdan, ularni saqlab qolib, doimo mazmunan boyib, rivojlanib turadi. Eski va yangi falsafiy g'oyalar o'rtasida vorisiy bog'liqlik mavjud. Buni biz falsafa tarixidan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Fanning barcha qoidalari bir-birini to'ldirib, bir-biridan mantiqiy jihatdan kelib chiqish imkoniyatiga egadir. Falsafa fanining nazariyalari, qonun va kategoriyalari ham bir-biridan kelib chiqadigan, bir-birini mantiqiy to'ldiradigan yaxlit ilmiy tizimdir.

Fan o'z qoidalarini asoslab berish imkoniyatiga ega. Bu falsafa faniga ham tegishlidir. Ammo agar aniq fanlar o'z qoidalarini kundalik amaliy tajriba yordamida asoslab bersa, falsafa mantiq yo'li bilan asoslab beradi. Forobiy ta'kidlaganidek, «odamlar falsafa yo'li bilan isbot etilgan mavjud narsa haqida to'la ishonch va qanoatga ega bo'ladilar»<sup>1</sup>.

Har bir fan olamning aniq bir tomonini o'rganadigan ekan, demak, bu fanning yolg'iz o'zi olam haqida bir butun ilmiy tasavvur hosil qilish uchun etarli bo'la olmaydi. Olam haqidagi yaxlit ilmiy tasavvurni tabiatshunoslik fanlarining barchasi ham hosil qila olmaydi. Tabiatshunoslik fanlari tabiat va uning rivojlanish qonunlarini o'rganadi. Olam haqidagi yagona ilmiy tasavvur esa, jamiyat va inson tafakkuridagi bilimlarini ham o'z ichiga oladi. Demak, olam haqidagi eng umumiy bilim barcha fanlar o'rganadigan muammolarni sistemalashtirish, bir-biriga bog'lash va umumlashtirish natijasida hosil bo'ladi. Ana shu vazifani falsafa fani bajaradi. Bu fan barcha fanlarning amaliy faoliyati jarayonida to'plangan dalillarni bir tizimga solish, uni bilish va unga amaliy ta'sir qo'rsatish yo'llarini ochadi.

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 189-bet.

Falsafa – aniq fanlarning yutuqlariga befarq qaramaydi, balki eng yangi kashfiyotlarni chuqur o'rganish, nazariy umumlashtirish zaminida o'sib, ijodiy rivojlanib boradi. Shu ma'noda falsafaning ijodiy boyishi va rivojlanishi bu fanlarning taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq.

Falsafa tabiatshunoslik uchun voqelikni o'rganishda eng umumiy ilmiy usul bo'lib xizmat qiladi, o'z navbatida, tabiat ilmi yutuqlari ham falsafaning qonun-qoidalarini tasdiqlashda katta rol o'ynaydi.

Ko'rinib turgandek, falsafiy ta'limotga asoslanish aniq fanlar mohiyatini bilishga, ularning kashfiyotlarini to'g'ri umumlashtirishga imkon beradi. Ilmiy falsafiy nazariya bilan qurollangan olim boshqalarga nisbatan o'z fanining istiqbolini, mohiyatini chuqurroq bila oladi. Agar har bir fan o'z icharivojlana borsa, kashfiyotlar bir-biri bilan bog'lanmasa va umumlashtirilmasa u vaqtda olam haqida yagona bilim hosil qilish, uning mohiyatini qonun va qonuniyatlarini chuqur bilish mumkin bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham aniq fanlar bilan falsafaning o'zaro aloqadorligiga bo'lgan zaruriyat doim saqlanib va kuchayib boraveradi.

### 3. Falsafaning mafkura va siyosat bilan aloqadorligi

Falsafa – insoniyatning buyuk ma'naviy boyligidir. U ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy, tarixiy merosning barcha durdonalaridan bekamu-ko'st foydalanish, tabiiy, texnikaviy, ijtimoiy-gumanitar fanlar erishgan ulkan muvaffaqiyatlarga suyanish asosida shakllanib va rivojlanib borish bilan birga, kishilarda olam haqida bir butun, yaxlit dunyoqarash shakllanishida nazariy poydevor vazifasini o'taydi. Shuning uchun barcha ijtimoiy tuzumlarda hokimiyat egalari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar falsafa fanidan o'zlarining manfaatlarini ta'minlash maqsadida mafkuraviy qurol sifatida faol foydalanib kelganlar. Ayniqsa, sho'rolar davrida 70 yildan ortiq vaqt mobaynida falsafa ma'muriy-buyruqbozlik tizimining siyosati bilan chambarchas bog'liq holda, o'zining fan xususiyatini asta-sekin yo'qotib, asosan siyosiy tashkilotlar, partiyalar, o'zlarining maqsadlarga javob beradigan falsafiy fikr va g'oyalarni nazariy qurol qilib oladilar.

Falsafa fani turli-tuman oqimlarning, yo'nalishlarning, xilma-xil g'oyalarning tizimlashtirilgan yig'indisidan iboratdir. Shuni e'tiborga olgan holda, siyosiy tashkilotlar, partiyalar, o'zlarining maqsadlarga javob beradigan falsafiy fikr va g'oyalarni nazariy qurol qilib oladilar.

Falsafa bilan siyosatning yana bir bog'liq tomoni bor. Falsafa fani sifatida nisbiy mustaqillikka ega, chunki falsafiy muammolarning

doiras i, ularning kelib chiqishi, turli falsafiy maktablarda, yo'nalish va o'qimlarda xilma-xil hal etilishi, ilmiy va amaliy ahamiyati va shu kabi masalalar siyosatdan kelib chiqib emas, balki bu fanning o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlar asosida belgilanadi. Lekin siyosat boshqa fanlar kabi falsafa fanining rivojlanishiga ham faol ta'sir etadi.

Falsafa fanining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mablag', uning hajmi, ilmiy-texnikaviy uskunalar, moddiy negiz, ishchilar soni va ularga beriladigan maosh hajmi, ijtimoiy sharoitlar va shu kabi masalalarning hal bo'lishi, u yoki bu jamiyatni boshqarib turuvchi hokimiyat, ijtimoiy partiyalarning siyosati bilan uzviy bog'liqdir.

Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, falsafa bilan siyosat bir-biri bilan aloqadorliqdadir. Bularo'rtasidagi aloqadorlik shakllari va darajalari har bir jamiyatga bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu tufayli turli jamiyatlarda falsafaga bo'lgan munosabat va uning siyosati bilan aloqadorlik darajasi turlichadir. Buni biz o'z tariximizdan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, o'tmishda jamiyatimizda bitta partiya, bitta mafkura, bitta dunyoqarash yakka hokimlik qilib keldi. Davlat, partiya va hukmron guruhlarining manfaatlari inson manfaatlaridan ustun qo'yildi. Natijada inson huquqlari va erkinliklari, demokratiya, ijtimoiy adolat qoidalari qo'pol ravishda buzildi va yo'qqa chiqarildi. Davlatimizning moddiy asosini tashkil etuvchi mulkni yaratuvchi kishilar o'z mehnati bilan ishlab chiqargan mahsulotlardan begonalashtirib qo'yildi. Ma'muriy-buyruqbozlik davlat tizimi joylarda o'z hukmini o'tkazib, hamma narsani oldindan belgilab, mahalliy hokimiyatlarning huquklarini cheklab qo'ydi.

Madaniy sohada ham ko'pgina ma'naviy yo'qotishlar sodir bo'ldi. Xalqimizning milliy madaniyati, tili, urf-odatlari, an'analari oyoq osti qilindi, fuqarolar vijdon va din erkinliklaridan mahrum bo'ldilar. Fan va madaniyatga, jumladan, ijtimoiy fanlarga ham marksizm-leninizm qoidalarini poydevor qilib singdirish uchun salbiy ishlar amalga oshirildi. Rasmiy mafkuraga zid fikr yuritgan olimlarni partiyaviy jazolash, ularni partiyaviylikdan, g'oyaviylikdan chekinishda, sinfiy xushyorlikni yo'qotishda va boshqa kamchiliklarda ayblash odatga aylanib qolgan edi. Bunday vaziyat, albatta ijtimoiy fanlarning, shu jumladan, falsafa fanining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va ijodiy fikrlashga imkoniyat bermadi. Ijtimoiy fanlar hayotidan kelib chiqadigan

dolzarb muammolar bilan shug'ullanish o'rniga sobiq ijtimoiy-siyosiy tizimning qo'lidagi mafkuraviy qurolga aylanib qoldi.

Mustaqillik tufayli jamiyatimizning hamma sohalarida, shu jumladan, madaniy-ma'naviy sohada ham ro'y berayotgan tub o'zgarishlar ijtimoiy fanlarning rivojlanishi uchun ham qulay imkoniyatlarni tug'dirdi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Falsafa atamasining lug'aviy ma'nosi nima? Bu haqda Forobiy fikrlarini ayting.
2. Falsafaning asosiy muammolari tarkibiga nimalar kiradi?
3. Falsafa bilan xususiy fanlarning o'zaro munosabati qanday?
4. Falsafaning sobiq ijtimoiy-siyosiy tuzumning mafkuraviy quroliga aylanib qolganligi va uning salbiy oqibatlari nimalardan iboratligini qanday izohlaysiz?

### **Tayanch tushunchalar**

**Falsafa** – (yunoncha «fileo» – sevaman va «sofia» – donolik) donolikni sevaman.

**Dunyoqarash** – olam haqidagi umumiy qarashlar, maslaklarning majmui.

**Gnoseologiya** – bilish nazariyasi.

**Mafkura** – (arabcha «mafkura») – nuqtai nazar, e'tiqodlar tizimi, majmui.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: «O'zbekiston», 2000, 34–36-betlar.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 184–283-betlar.
3. Tulenov J. Hayot falsafasi. – T.: «O'zbekiston», 1993, 5–58-betlar.

---

---

## II MAVZU: DUNYOQARASH VA UNING TARIXIY TURLARI

### Reja:

1. Dunyoqarash tushunchasi va uning xususiyatlari.
2. Mifologik dunyoqarash.
3. Diniy dunyoqarash.
4. Falsafiy dunyoqarash.

### 1. Dunyoqarash tushunchasi va uning xususiyatlari

Falsafa insonning tafakkur madaniyatini, dunyoqarashini shakllantiruvchi fan. *Dunyoqarash* esa, kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va hokazo qarashlari va tasavvurlari majmuasidan iborat. Demak, dunyoqarash – olam haqidagi yaxlit umumiy lashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ma'lumotlarga, bilimga ega bo'lsa, ularning dunyo-qarashi ham shu darajada mukammal va puxta bo'ladi.

Dunyoqarashning yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u insonni qurshab turgan voqelikni anglash, tushunish bilan bir qatorda uni baholashi hamdir.

Ilmiy bilimlar dunyoqarash tarkibiga qo'shilib baholangach, insonning tevarak-atrofdagi ijtimoiy va tabiiy reallikda bevosita amaliy yo'l tutish maqsadiga xizmat qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash insonning dunyodagi o'z o'rni va rolini belgilab beradigan, ongli ravishda to'plangan, izohlangan va baholangan bilimlar majmuidir.

Dunyoqarash tarkibiga kishilarning olamni bilish va baholashga oid bo'lgan ishonch va e'tiqodlari, maqsadlari, ideallari, orzu-umidlari, ular faoliyatiga ma'lum yo'nalish beruvchi barcha qadriyatlar ham kiradi.

Dunyoqarashning subyektini ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar, jamiyatni harakatlantiruvchi turli ommaviy kuchlar, davlatlar tashkil etadi. Ular o'z manfaatlaridan kelib chiqib,



voqelikdagi jarayonlarga turlicha yondashadi, baholaydi va ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, dunyoqarash kishilarda olam haqidayaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar turqumini hosilqiladigan, ularni o'z orzu-umidlari, ideallari maqsadidan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o'z o'rmini, amaliy faoliyat yo'nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko'p qirrali va sermazmun tushunchadir.

Dunyoqarash tushunchasi, «dunyoni his qilish», «dunyoni tushunish» iboralari bilan uzviy bog'liqdir. Bu bejiz emas, albatta. Olamdagi narsa va hodisalar bizning hissiy organlarimiz orqali kishilarda turli-tuman hissiyotlarni, kayfiyatlarni yuzaga keltiradi. Ular bizning tafakkurimiz yordamida mujassamlashtiriladi va nihoyatda ma'lum fikrlar, tasavvurlar, tushunchalar, qarashlar hosil bo'ladi.

Demak, dunyoqarash o'z ichiga dunyoni his qilish, dunyoni tushunish jarayonlarida hosil bo'ladigan idrok, kayfiyatlarni ham qamrab oladigan tushunchadir.

Dunyoqarashning ikkita darajasi mavjuddir. Uning birinchisini, kishilarning kundalik hayoti amaliy tajribasi hamda kasbiy faoliyati asosida to'plangan bilimlar, tasavvurlar, qarashlar tashkil qilsa, ikkinchisini esa ilm-fan tufayli to'plangan nazariy bilimlar, g'oyalar yig'indisi tashkil etadi. Ularning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Barcha ijtimoiy hodisalar kabi dunyoqarash ham, ijtimoiy shart-sharoitlar, ijtimoiy munosabatlar majmui bilan bevosita bog'liqdir. Turli ijtimoiy tuzumlarga har xil dunyoqarash shakllari mos keladi. Ijtimoiy mulkka asoslangan ibtidoiy jamoa tuzumining oddiy ishlab chiqarish usuli rivojlanmagan mistik, kollektiv dunyoqarashini tug'dirdi, u orqali ibtidoiy odamning o'rab olgan muhitidagi hodisalarni in'ikos etishi va fikrlab olishi amalga oshadi. Fransuz olimi L.Levi-Bryul, ibtidoiy odamlar tafakkuri o'z asosiga ko'ra mistiqdir «ilohiydir», degan edi.

Xususiy mulkning kelib chiqishi va jamiyatdagi manfaatlari turlicha bo'lgan kishilarning katta guruhlariga bo'linishi atrofda mavjud narsa va hodisalarni aks ettirish va fikrlab olish ibtidoiy jamiyatdagidek mistik, kollektiv tasavvurlar orqali emas, balki muayyan mafkura shaklida gavalangan tasavvurlar, dunyoqarashlar orqali amalga oshishiga olib keladi.

Olam mohiyati va uning asosida yotgan qonuniyatlarni bilish zaruriyati turli falsafiy dunyoqarashning vujudga kelishiga olib keladi.

Ular insonga olamni va uning rivojlanish qonuniyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirib olishga xizmat qiladilar.

Eski tuzumning emirilib, mustaqil davlatning vujudga kelishi o'z navbatida, yangi tasavvurlar, yangi dunyoqarashning shakllanishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki, u yoki bu dunyoqarashning vujudga kelishi va hukmronlik qilishi ijtimoiy shart-sharoitlar bilan uzviy bog'langan.

Dunyoqarash qotib qolgan, hech qachon o'zgaraydigan o'lik g'oyalar yig'indisi emas. Jamiyatning o'zgarishi bilan bir qatorda u ham doimo rivojlanib, mazmunan o'zgarib turadi. Buni biz o'z jamiyatimiz hayotidan yaqqol ko'rib turibmiz. Mustaqillik tufayli endilikda umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga asoslangan, hozirgi davr talabiga javob beradigan yangi maskura yaratilmoqda va uning asosida kishilarda yangicha tafakkur, dunyoqarash shakllanib rivojlanmoqda. Dunyoqarashning doimo o'zgarib rivojlanib turishi esa uning tarixiy turlarining almashuvda yaqqol namoyon bo'ladi.

## 2. Mifologik dunyoqarash

*Mifologik dunyoqarash* (yunoncha – mifos – naql, rivoyat – tushuncha, ta'limot) – ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi – naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.

Mifologik dunyoqarash ilm-fan taraqqiy etmagan vaziyatda keng tarqalagan ijtimoiy ongning shakli bo'lib, uning kelib chiqish sababining asosini insonning o'zini qurshab turgan olamdan ajralib qarashga o'zligi tashkil etadi. Shuning uchun ham mifologik dunyoqarashda jamiyat bilan tabiat, jonli bilan jonsiz narsalar bir xil tarzda ifodalanadi.

Rivoyat, afsonalar tashqi olamni izohlashga qaratilgan bo'lib, unda dunyo qanday paydo bo'ldi, uning asosini nima tashkil qiladi, narsa va hodisalarning bir-biri bilan aloqadorligi va bir-biriga aylanishi haqida so'z yuritiladi. Buni biz bushmenlarning oyni paydo bo'lishi haqidagi mifologiyasidan yaqqol ko'rishimiz mumkin. Rivoyat qilishlaricha, «yomg'irdan keyin sehrgar gulxan yoqib, oyog'idagi namlangan sandalni quritishga qo'yadi. Ko'p o'tmasdan qarasa, bitta sandali batamom quyib kulga aylanib qolibdi, ikkinchisining esa yarmi quyib bitibdi. Sehrgar zarda bilan yarim kuygan sandalini osmonga uloqtirib yuboradi. U esa, fazoga parvoz etib osmonda oy bo'lib osilib qolgan emish».

Qadimgi Misr mifologiyasida Ra, Shu, Geb, Osiris nomli Xudolar nur, havo, er, suvni ifodalaydi. Marhumning qabriga bitilgan yodgorlikda shunday so'zlarni o'qiydiz: «Ra senga nur beradi. Shu senga havo beradi. Geb senga yashash uchun zarur bo'lgan har xil mahsulotlarni beradi. Osiris senga hayot kechirish uchun Nilni baxshida etadi».

Miflarda inson va tabiat masalalari katta o'rin tutadi. Ularga ko'ra, inson tabiat bilan munosabatda bo'lar ekan, u ayni paytda tabiatni sevadi ham, undan qo'rqadi ham, tabiatni sevishning boisi shundaki, inson tabiat beshigidan chiqqan, undan qo'rqishning sababi, inson tabiat sirlarini bilib olishga ojizdir.

Mifologik dunyoqarashda qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi, boshqa sivilizatsiyalar va ularda hayotning mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Qadimgi Xitoydagi mifologik afsonalarga muvofiq dunyo taraqqiyoti ikkita kosmik qarama-qarshiliklarning In va Yan kurashlari bilan belgilanadi. In qorong'ulik, sovuqlik, namlik, o'lim manbai, Yan esa yorug'lik, issiqlik, olov manbai. In ayollik, Yan erkaklik ramzi. Ularning bir-biri bilan birlashishi tufayli koinot vujudga kelgan. In va Yanning uyg'unligi koinot, davlat, oiladagi jismoniy va ruhiy muvozanatni tashkil etadi.

Bularning hammasi mifologik dunyoqarashda falsafiy fikrlarning mavjudligi, boshqacha qilib aytganda, mifologik dunyoqarash falsafiy dunyoqarashning dastlabki shakli ekanligidan dalolat beradi. Arastuning fikricha, kimki afsonalarni sevsa, u muayyan darajada faylasufdir, chunki afsonalar hayoliy fikrlash asosida tashkil topadi.

Mifologik dunyoqarashning dastlabki ko'rinishlarida narsa va ularning joni, ruhi, bir-biridan ajralmagan yaxlit holda aks ettirilsa, keyinchalik ular bir-biridan ajratilib, alohida tasvirlanadigan bo'ladi. Kishilarning olam haqidagi tasavvurlarining tobora kengayib borishi voqealiqadagi narsa va hodisalar shuningdek, ularning obrazlari (xudolari) barcha insonga xos bo'lgan hissiyot, kayfiyatlar bilan bir qatorda aql-idrok va boshqa insoniy fazilatlariga mansub deb tasvirlanish odatga aylanib qoladi.

Mifologik dunyoqarashning xususiyati shuki, unda fazo, tabiat va jamiyatdagi barcha jonli va jonsiz narsalar va hodisalar biri ikkinchisida ishtirokchi sifatida idrok etiladi. Buning natijasida tabiat kuchlari jonlantiriladi, ularga insondagi xususiyatlar tarqatiladi. Shuning uchun ham u hayolga keng maydon ochib beradi va bu

maydonda mifologik tarza fikr qiluvchi kishi har qanday o'zgarishlar va jasoratlar ko'rsatishi mumkin bo'ladi.

Mifologik dunyoqarashda tabiat va jamiyatning, olam va odamning, bir butun borliqning umumiy birligi, ichki va tashqi aloqadorligi, inson ichki dunyosining manzarasi o'zining dastlabki ifodasini topadi.

Mifologik dunyoqarashda badiiy dunyoqarashning kurtaklarini ko'rishimiz mumkin, chunki, undagi voqealar badiiy obrazlar yordamida tasvirlangan.

Har bir xalqda o'zining o'tmishiga, boy tarixiga, an'alariga, madaniyatiga xos rivoyat va afsonalari mavjud. Ularda shu xalqlarning dastlabki dunyoqarashlari, ma'naviy dunyosi o'z aksini topgan. Bunga misol sifatida yunon afsonalari «Iliada», «Odissey», hindlarning «Rama-yana», karelo-finlarning «Kalevala», Eron va O'rta Osiyo xalqlarning «Avesto» kabilarini ko'rsatib o'tishimiz joyizdir.

Mazkur afsonalarda dunyoning kelib chiqishi, uning taraqqiy etish qonuniyatlari, fazo, tabiat, jamiyatdagi narsa va hodisalarning uyg'unligi, bir-biri bilan bog'liqligi, ularning abadiyligi haqida so'z yuritiladi. Ularda olamning kelib chiqishi tajribiy yo'l bilan noma'lum kuch tufayli yaratilgan, degan g'oya olg'a suriladi. Ayrim afsonalarda dunyoning o'tkinchi, u muayyan vaqtda yo'q bo'lib ketishi va qaytadan tiklanishi bayon etiladi.

Shuningdek, barcha xalqlarning mifologiyasida jamiyat, inson, ularning kelib chiqishi, qiyinchiliklar haqida hikoya qilinadi.

Afsonalarda yana bir asosiy mavzusi insonning ma'naviy yutuqlari, jasoratiga bag'ishlangan bo'lib, olov-otashni qo'lga kiritishi, hunarmandchilik, dehqonchilik ishlari tasvirlanadi. Odatda, afsonalarda o'tmish bilan hozirning hamda kelajakning bog'lanishi haqida, ular o'rtasidagi uzviy aloqa qayd qilingan bo'ladi.

Afsonalarda ifodalangan voqealar kishilar tomonidan aniq voqea tarzda qabul qilingan, chunki ibtidoiy jamoa kishilarning tushunchalariga ko'ra, ulardan oldingi avlodlar tomonidan dunyoni his qilish va bilish jarayonida to'plangan tajribalar, ma'lumotlar mujassamlashtirilgan. Ularga shubha bilan qaramasdan mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish uqtirilgan.

Mifologik dunyoqarashning yana bir xususiyati shundan iboratki, undagi voqealar, turli hodisalar, afsonaviy xudolar, qahramonlar obrazlari jozibali va jonli turda kishilarning hissiy azolari va tasavvurlariga qattiq ta'sir ko'rsatadigan shakilda berilgan. Yunon mifologiyasidagi xudolarning xudosi Zevs, barcha dengiz, daryolarning xudosi Poseydon,

uning o'g'li Antey, hosildorlik va dehqonchilik xudosi Demetra, muhabbat va go'zallik xudosi Afrodita, donishmandlik, ilm-fan, san'atning xudosi Minerva va boshqalarning obrazlari shular jumlasidandir.

Afsonalarda kishilarning voqealikka bo'lgan qarashlarida tashqari ularning turli hatti-harakatlari, raqsi, urf-odat, an'analari ham tasvirlangan. Ma'lumki, urf-odat, udumlar, afsonalar bilan bir qatorda kishilik jamiyatning ma'naviy qadriyatlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. Dastlabki vaqtlarda afsonalar diniy an'analardan, udumlar bilan uzviy bog'liq bo'lib diniy dunyoqarashni rivojlantirishga asos solgan. Keyinchalik mifologik dunyoqarashlarda kishilarning falsafiy, siyosiy, huquqiy, badiiy va boshqa qarashlar kurtaqlari ildiz otadi va rivojlanadi. Bu esa mifologik, diniy, falsafiy, siyosiy, badiiy qarashlarning o'zaro tutashib ketganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, badiiy obrazlarda mifologik qarashlar ko'proq o'z aksini topgan. Shuning uchun ham og'zaki ijodning mahsuli bo'lgan o'rta asr xalqlarining «Alpomish», «Manas», «Go'ro'g'li» kabi eposlarda badiiy obrazlar afsonaviy obrazlar bilan tutashib ketgan. Mifologik dunyoqarashning ko'rinishlari hozirgi davrda ham turli badiiy asarlarda uchray turadi.

Afsonalar bu xalqlarning dastlabki ma'naviy madaniyatining shakli bo'lib, ularda dastlabki bilimlarning kurtaqlari, falsafiy, diniy, siyosiy, badiiy qarashlar o'z aksini topgan. Afsonalar ijtimoiy ongning yaxlit va umumiy shakli sifatida namoyon bo'lgan. Unda xalqlarning o'z davriga mos keladigan dunyoni his qilishi, bilishi, qarashlari mujassamlangan. Miflarda barcha xalqlarning madaniy boyligi, tafakkuri, donoligi, hayotiy tajribalari o'z aksini topgan.

Mifologik dunyoqarashda diniy dunyoqarashning ham ko'rinishlari mavjud. Buni shundan ko'rishimiz mumkin, mifologiya ham, diniy ta'limotlar ham, dunyoning yaratilishini afsonaviy xudolar bilan bog'lab ko'rsatadi, lekin ularning o'rtasida farq ham mavjud. Mifologiyada narsa va uning obrazi, moddiylik va manaviylik bir-biridan ajralmagan yaxlit holatda tavsiflansa, diniy dunyoqarash ularni bir-biridan ajratib tavsiflaydi. Din yagona dunyoni tabiiy va g'ayri-tabiiy turlarga ajratib qarasa, mifologiyada haqiqiy va g'ayri-tabiiy olam bir-biri bilan qo'shib ketgan.

### 3. Diniy dunyoqarash

*Diniy dunyoqarash* mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini hayoliy obrazlar, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir.

Diniy dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati, shundaki, u tabiiy va ijtimoiy hodisalar mohiyatini xudoning qudrati bilan tushuntiradi. U hamma narsada va har qayerda ilohiy kuchlarning ta'siri, mo'jizaviy kuchi bor deb uqtiradi.

Diniy dunyoqarashning mohiyati dindorlar uchun muqaddas bo'lib hisoblangan adabiyotlarda o'z aksini topgan.

Diniy dunyoqarashning shakllanishi tadrijiy va jiddiy jarayon bo'lib, u o'z ichiga fetishizm, sehrgarlik, totemizm, animizm kabilarni qamrab oladi. Jamiyat taraqqiyotida politeizm (ko'pxudolik) va monoteizm (yakkaxudolik) dinlari paydo bo'ladi: buddizm (mil.avv.VI-V asrlarda Hindistonda); xristianlik (mil. I asrda Rim imperiyasida), islom (mil. VII asrida G'arbiy Arabistonda) kelib chiqadi.

Diniy dunyoqarashning asosini diniy e'tiqod tashkil qiladi. Diniy e'tiqod bu ilohiy mavjudodlarga sig'inishdir. Diniy e'tiqod dinga ishonuvchi kishilar ruhiyatining tarkibiy qismi sifatida intellektual, hissiy va iroda tomonlarini o'z ichiga qamrab olgan murakkab hodisalar. Diniy e'tiqodning ma'naviy ko'rinishi bu – dinga ishonuvchi kishilar ongida mavjud bo'lgan diniy tasavvurlar, obrazlardan tashkil topadi va ular dinga ishonuvchi kishilar tomonidan hayotiy zarur narsa sifatida qabul qilinadi.

Diniy e'tiqodda hissiyot tushunchalari katta rol o'ynaydi. Kishining turli hissiyotlari (emotsiyasi) qo'rqish, muhabbat, zavqlanish, eqtiroq, quvonch, umid va hokozolar diniy tasavvurlar bilan qo'shilib ketib, tegishli yo'nalish, ma'no, mazmun kasb etishi mumkin, ana shunday hollarda ular «xudoga muhabbat», «gunohkorlik, itoatkorlik», «bandaliktuyg'usi», «xudo bilan muloqotda bo'lish quvonchi», «narigi dunyodagi ajrga umid» vahokazolar kechinmalariga aylanadi. Hissiyot tushunchasini ilohiyotchilar inson ongining oliy darajadagi ko'rinishi, oliy axloqiy qadriyat, bilishning ishonchli shakli deb uqtiradi.

Diniy dunyoqarashning asosiy yo'nalishlarini ifodalovchi diniy aqidalar dindorlar uchun majburiy hisoblangan, muhokama yuritmasdan ishonish lozim bo'lgan diniy e'tiqod talablarida o'z aksini topgan. Islom dinining aqidalariga muvofiq, suniylkda shakllangan va diniy an'analarda e'tirof etiladigan aqidalar yoki imon talablari 7 ta: Allohning yagonaligiga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxiratga, taqdirning ilohiyligiga va inson o'lgandan keyin qayta tirilishiga ishonish. Shia yo'nalishidagi musulmonlar 5 ta aqidaga: yakka xudo, payg'ambarlik, taqdir, oxirat va imomatga ishonadilar.

Har bir dinning, shu jumladan, xristian dinining ham o'ziga xos aqidalari mavjuddir. Aqida qaysi dinda, qanday ko'rinishda bo'lmasin, olam hodisalarini mutlaq ilohiy kuch irodasi va ixtiyori bilan bog'lab ko'rsatadi.

Diniy dunyoqarashning yana bir tarkibiy qismni diniy sig'inish tashkil etadi. Sig'inish bu odamlarning kundalik hayotda ular ustidan hukmronlik qiluvchi diniy obrazlar shaklidagi ilohiy kuchlarga toat-ibodat qilishdir. Sig'inish kishilar tomonidan yakka jamoa bo'lib bajariladigan ramziy xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Qurbonlik qilish, xudoyi qilish, Qur'on o'qitish, diniy bayramlarni nishonlash kabilar islom dinida keng tarqalgan marosimlardir. Sig'inish tufayli kishilarning diniy ehtiyoj-lari qondiriladi.

Diniy e'tiqod diniy ongning umumiy belgisi, mezoni bo'lib, u diniy g'oyalar, tasavvurlar, tushunchalar, afsonalarni haqiqiy deb hisoblash hamda ilohiy kuchning mavjudligiga ishonishni o'z ichiga oladi.

Diniy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishida diniy dasturlarning ishlab chiqilishi, shuningdek, turlicha diniy bayramlar, marosimlarning o'tkazilishi katta ahamiyat kasb etadi. Din o'zining tantanali bayramlari, har turli marosimlari bilan kishilar ko'nglida kayfiyat, xursandchilik, xushfe'llik, rahmshafqat, sabr-toqat, qanoatlilik, hamkorlik, vijdon, burch, poklik, odamiylik va shu kabi insoniy fazilatlarini shakllantiradi, ma'naviy kamol toptiradi.

Diniy dunyoqarashning tarkibiy qismida «Muqaddas joylar»ni ziyorat qilish katta o'rin tutadi. Masalan, islom dinida Makka, Madinaga borib u erdagi «Muqaddas joylar»ni ziyorat qilib, turli diniy urf-odat va marosimlarni bajarish hamda qurbonlik qilish, barcha musulmonlarga farzdir. Shuningdek, islom dinida payg'ambarlar va ularning sahobalari, diniy ulamolar, so'fiylik, shayxlar kabi muqaddas zotlarni, ularning mozorlari, qadamjolarini ziyorat qilish ham keng tarqalgan. O'rta Osiyo hududida bunday joylar ko'p. Samarqanddagi Shohizinda, Go'ri Amir, Ismoil Buxoriy, Buxorodagi Qiz bibi, Xoja Bahovuddin, Toshkent viloyatidagi Zangi ota, Turkistondagi Ahmad Yassaviy, Sayramdagi (Chimkent viloyati) Ibrohim ota, Qorasoch bibi maqbaralari shular jumlasidandir.

Bunday muqaddas joylar, qadamjolar, maqbaralar xristian, buddizm va boshqa dinlarda ham mavjud. Ular hanuzgacha kishilar ongiga o'z ta'sirini ko'rsatib, diniy dunyoqarashning, diniy e'tiqodning taraqqiy etishiga sabab bo'lib kelmoqda.

Diniy dunyoqarashning yana bir afzallik tomoni shundaki, unda har bir inson tomonidan amal qilinishi lozim bo'lgan axloqiy me'yor va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, chunki islom va shariat talablari mavjud shaxsiy hayotdagi va umuminsoniy eng zarur va go'zal fazilatlarini o'zida aks ettirgan.

Diniy dunyoqarashning xalq ongiga singib, uning qalbida chuqur ildiz otib ketishining boisi shundan iboratki, ular oddiy kishilarning ruhiyatiga moslashtirilib, ularning hissiyoti, tafakkuriga katta ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsona va rivoyatlar shaklida izhor qilinishidadir. Islom ta'limotidagi har bir afsona va rivoyatlarda katta xikmat, falsafiy fikr, ma'no mavjuddir.

Shuning uchun ham ular barhayot bo'lib, avloddan-avlodga o'tib ketavergan va bizning davrimizgacha etib kelgan. Bunday katta ma'naviy boylikka biz albatta zo'r ehtiyotkorlik bilan qarashimiz kerak.

Din kishilarning ongiga o'z ta'sirini o'tkazish bilan bir qatorda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham doimo katta rol o'ynab kelgan. Hozirgi davrda, ham u katta siyosiy kuchni tashkil qiladi.

Dinlarning orasida keng tarqalgan islom dinidir. Hozirgi kunda 30 dan ziyod Osiyo va Afrika mamlakatlarida islom davlat dini sifatida rasmiy ravishda qabul qilingan bo'lsa, yana qariyb 30 mamlakatning siyosiy hayotida u muhim rol o'ynamoqda. Ularning ichida Turkiya, Misr, Afg'oniston, Eron, Iroq, Suriya, Saudiya Arabiston, Jazoir va boshqa mamlakatlarni alohida tilga olish joiz. Xristianlik va boshqa dinlar ham turli mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynamoqda.

Bugungi kunda dinning fanga, uning yutuqlariga bo'lgan munosabati haqida ham yangicha fikr hosil bo'lmoqda. O'tmishda biz din bilan fan bir-biriga zid bo'lgan, bir-birini tubdan istisno qiluvchi ijtimoiy ongning shakli, insoniyat madaniyatining tarixi din bilan fan o'rtasidagi kurashdan iborat deb kelgan edik. Ammo hayot shuni ko'rsatadiki, fanning din bilan o'zaro munosabati hamma vaqtda bir xil va bir tekis bo'lgan emas.

«Uyg'onish davri»da yashagan G'arbiy Yevropa olimlari, jumladan, Jordano Bruno, Galileo Galiley, Kopernik, XVIII asr fransuz olimlari Pol Golbax, Klod Gelvetsiy, Deni Didro va boshqalar xristian diniga ochiq oydin qarshi chiqib, uning ta'limotini inkor etgan bo'lsalar, O'rta Osiyo mutafakkirlari fan bilan islom ta'limotini bir-biriga qarama-qarshi qo'ymasdan ikkalasidan ham bahramand bo'lib kelganlar.



Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sinolar dunyoni yaratgan Allohni e'tirof qilsa, Mirzo Ulug'bek o'zining «To'rt ulus tarixi» asarida dunyoni Tangri Taolo bino qilgan, odamni ham u yaratgan degan fikrni olg'a surgan<sup>1</sup>.

Hozirgi vaqtda ham G'arbiy Yevropa mamlakatlarida diniy e'tiqod bilan fanni muvofiqlashtirib rivojlantirishga da'vat etib kelayotgan olimlar bor. Masalan, katolik cherkovning rasmiy falsafasi deb e'tirof etilgan neotomizm ta'limotining namoyondalari Mariten, Jelson (Frantsiya), Vetter (Avstraliya), de Remekr (Belgiya) va boshqalar diniy e'tiqod va fan haqiqatga erishishning ikki manbai, shuning uchun ular bir-birini istisno etmaydi, aksincha, to'ldiradi degan g'oyani ilgari surib kelmoqdalar. Ularning fikricha, diniy e'tiqod va bilim o'rtasida to'la uyg'unlik mavjud.

Neotomistlar bilim bo'lmagan joydagina e'tiqod kerak deb tan oladi, ularni ko'r-ko'rona irratsional e'tiqod qoniqtirmaydi.

Din va diniy dunyoqarash xususida so'z borganda shuni aytish kerakki, o'tmishda biz dinga bir tomonlama yondashib, uning inson manfaati sohasida, kishilarning axloqiy munosabatlarini takomillash-tirishdagi ijodiy rolni to'g'ri tushunmay keldik. Dinga qarshi kurashish niqobi ostida xalqimiz asrlar mobaynida amal qilib kelgan marosim va urf-odatlar ta'qiqlanadi, qanchadan-qancha masjid va madrasalar asossiz ravishda buzib tashlandi. Necha minglab jildlarni tashkil etadigan nodir kitoblar shaxsga sig'inish va qatag'on avj olgan yillarda kuydirib tashlandi.

Hozirgi paytda o'tmishda ro'y bergan haddan oshishlar tuzatil-moqda, ijtimoiy adolat tiklanmoqda. O'zbekiston fuqarolarining vijdon erkinligini kafolatlash va amlda ro'yobga chiqarish maqsadida mamlakatimizda diniy maskanlar ochilib, ularda diniy bilimlarni o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi, yopib qo'yilgan masjidlar ochildi, ko'plab yangi masjidlar qurilmoqda, diniy adabiyotlarni nashr etish ijobiy hal etildi.

Ma'lumki, mamlakatimizda o'n oltita diniy konfessiya erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Diniy arboblari odamlarni tinchlikni saqlashga, urushning oldini olishga insoniyat va uning tili, qadimiy tarixi va madaniyatini, madaniy merosi va ijobiy urf-odat va an'alarini avaylab-asrashga va qadrlashga, ekologik va demografik muammolarni ijobiy hal etishga da'vat etmoqdalar.

<sup>1</sup> Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – T., 1994, 15–22-betlar.

YOshlarda sharqona axloq-odob madaniyatini tarbiyalashda islom dini alohida o'rin tutadi. «Islom dini, – deydi I.A.Karimov, – bu otabobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig'indisi emas. Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'g'itlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtiro m tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar»<sup>1</sup>.

Asrlar davomida din odamlarni eng ulug' maqsadlar yo'lida birlashtirishga, hamjihat bo'lishga undagan. U har doim kishilarni o'z-o'zini zdora etishga, yaxshi hislatlarini ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan, har bir alohida insonga, oila, jamoa, mintaqa, umumxalqqa rahnamo bo'lgan, uni og'ir-og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan.

«Demak, din xalq ma'naviyatining, ma'rifatining yuksalishiga katta hissa qo'shib kelgan ekan, bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzganda dinni, eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborda tushunishimiz lozim»<sup>2</sup>.

Islom madaniyati jahon madaniyatining ajralmas bir tarkibiy qismidir. Uni o'rganishga va oqilona, tanqidiy, ilmiy, ijodiy foydalanishga arziydigan juda ko'p ijobiy tomonlari bor.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 31-moddasida belgilanganidek. respublikamizda «hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»<sup>3</sup>.

Din iymon, e'tiqod erkinligini unutmagan holda, diniy qadriyatlar ni hurmat qilgan holda, fuqarolarni, ayniqsa, yosh avlodni zamonaviy, dunyoviy fanlar asosida tarbiyalash mutlaqo zamon talabi ekanligini unutmazlik kerak. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «biz bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy davlatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishga yo'l

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1995, 54-bet.

<sup>2</sup> O'sha asar, 55-bet.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2014, 8-bet

qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavfxatar deb hisoblaymiz»<sup>4</sup>.

#### 4. Falsafiy dunyoqarash

Diniy dunyoqarash falsafiy dunyoqarash bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki tabiat, jamiyat, dunyoni bilish, insoniyat istiqboli kabi masalalar dinning ham, falsafaning ham diqqat markazida turgan muammolar bo'lib hisoblanadi. Lekin bularning o'rtasida farq ham mavjud. Agar diniy dunyoqarash o'zining asosiy e'tiborini inson e'tiqodiga, insoniy tashvishlarga, inson va uning umidlariga qaratsa, falsafiy dunyoqarash esa, dunyoni aql va bilim asosida tushuntiruvchi ma'naviy tomonlariga ko'proq e'tibor beradi. Bundan, falsafiy dunyoqarash mavhum qoidalardan iborat degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Falsafiy dunyoqarash hayotiy muammolar bilan bevosita bog'liq bo'lgan, fan va texnika yutuqlariga asoslangan bilimlar turqumidan iborat. Bunday dunyoqarash o'zining mazmuni, mohiyatiga ko'ra aslida ilmiy-falsafiy dunyoqarashdir.

Mifologik va diniy dunyoqarashlardan farqli ravishda, falsafiy dunyoqarash tabiiy qonuniyatlarni ilmiy asosda tushuntirib beradi. Falsafiy dunyoqarashga muvofiq butun, organik va noorganik dunyo doimo o'sish, o'zgarish va rivojlanishdadir. Falsafiy dunyoqarash asosida kishilar mavjud olamdagi hamma narsa va hodisalar, jarayonlar o'zidan boshqa narsalar bilan ichki, zaruriy, muhim va asosiy aloqadorlikda, ta'sir va aks ta'sirida ekanligini chuqur anglab oladilar.

Falsafiy fikrlash mavjud dunyoning narsa va hodisalarni faqat o'zaro aloqada va bir-birini taqozo qilishda olib qolmasdan, balki doimo harakatda, o'zgarishida va rivojlanishida deb qarashni ham talab qiladi. Dunyoni inson ongida bir yaxlit, uzviy aloqadorlik va rivojlanish tarzida in'ikos etish falsafiy dunyoqarashning asosiy xususiyatlaridan birini tashkil etadi. emas.

Falsafiy dunyoqarash narsa va hodisalarni inson ongida yaxlit aks ettirish bilan bir qatorda, u kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ichki ma'naviy dunyosini shakllantiradi va boyitadi. Shuningdek, falsafiy dunyoqarash kishilarga xos bo'lgan rostgo'ylik, poklik, insonparvarlik va boshqa olijanob fazilatlarini, axloqiy me'yorlar, qadriyatlarini mujassamlashtiradi.

---

<sup>4</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1995, 55-bet.

*Falsafiy dunyoqarash* asosida kishilar jamiyatining tabiat bilan uzviy birligi, inson va insoniyat taqdirlarining mushtarakligi, turli-tuman xalqlar madaniyatining xilma-xilligi va birligi haqida ishonch hosil qiladi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining fikricha, barcha insonlarda xos bo'lgan olijanob fazilatlar eng avvalo, faylasuflarda o'z aksini topmog'i lozim. Forobiyning fikricha, «faylasufning xulq-atvori, axloqi ham o'z kasbiga loyiq bo'lishi kerak. Shuningdek, o'z xalqining ra'yini va o'z xalqida bo'lgan eng yaxshi urf-odatlarini qattiq tutgan bo'lishi kerak».

Faylasuf bo'lmoqchi bo'lgan odam o'z axloqi va hislatlari bilan aytilgan bu shartlarga javob bera olsa, shundan keyin u falsafa bilimini o'rganishgava uniboshqarishga, ishlashga kiritishuvi mumkin.

Falsafa tomonidan insonlarda hosil qilinadigan barcha axloqiy fazilatlar ularning o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan intilishlarining ilmiy asosini tashkil etishi lozim. Inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini eng avvalo, axloqiy me'yorlaridan kelib chiqib baholashi kerak.

Yirik nemis faylasufi I.Kant ta'kidlaganidek, insonning o'z faoliyatida axloqiy qadriyatlarni asosiy mezon qilib olishi, falsafaning qimmatini yanada oshiradi.

Falsafiy dunyoqarash o'zining xilma-xilligi bilan ifodalanadi. Har bir davrda va turli mamlakatlarda u yoki bu muammo falsafaning markazida turadi. Falsafa o'z mavzusining xilma-xilligi bilan turli falsafiy g'oyalarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida, olam haqida rang-barang manzaralarni yaratishga olib kelmoqda. Dunyoni ilmiy bilish va ilmiy boshqarishda falsafa fanining roli tobora oshib bormoqda.

Hozirgi zamon ilmiy-texnika inqilobi natijasida fan mavjud olamning eng murakkab sohalariga tobora chuqur kirib bormoqda. Shuning uchun ham xususiy fan vakillari oldida falsafiy dunyoqarashni ijodiy egallash vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi.

Falsafiy dunyoqarashni mukammal egallab olish ijtimoiy fanlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tabiat taraqqiyot qonunlari inson ongida to'g'ri aks etishi favqulodda murakkab va qiyin jarayon bo'lib, ijtimoiy hodisalarning unda aks etishi esa undan ham qiyindir.

Ijtimoiy hayotdagi murakkab hodisalarni chalkashtirib yubormaslik uchun ijtimoiy fan vakillari falsafiy dunyoqarash bilan qurollanishlari lozim. Har bir olim o'z sohasidagi to'g'ri yo'ldan bormog'i, ilmiy tadqiqotning o'ziga xos yo'li va metodlarini belgilamog'i uchun uning o'z falsafiy dunyoqarashi bo'lishi kerak.

Chunki falsafa taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan bo'libgina qolmasdan, balki tafakkur taraqqiyoti haqidagi, insonni qurshab turgan bu dunyoni bilish qonunlari haqidagi fan hamdir.

Falsafiy dunyoqarash faqat nazariy bilish jihatidagina emas, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga egadir. Dunyoqarash amaliyot uchun qo'llanmadir. Falsafiy dunyoqarash tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini tushunish uchun yordam beradi. Kishining amaliy faoliyatida tutgan yo'li, uning dunyoqarashi qanday ekanligiga bog'liq.

Dunyoqarash kishilarning amaliy faoliyat yo'nalishini belgilab beradigan qudratli ma'naviy kuchdir. Shuning uchunham hozirgi vaqtda jamiyat a'zolari, birinchi navbatda yoshlar qalbini egallash, uning dunyoqarashiga muayyan maqsadlarki ko'zlab ta'sir etish avj olib bormoqda.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda»<sup>1</sup>.

Ana shunday vaziyatda aholini, birinchi navbatda yosh avlodni kamol toptirish, ularning dunyoqarashini rivojlantirish, qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. «Biz, – deydi I.A.Karimov, – kishilar dunyoqarashini boshqarish fikridan yiroqmiz, balki biz odamlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish tarafdorimiz»<sup>2</sup>.

Shunday ekan, biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosini, zamonaviy dunyoqarashi, ma'naviy kamoloti uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur.

Inson o'z amaliy faoliyati va ilmiy bilish jarayonida falsafa fanining rang-barangligini, barcha tomon va xususiyatlarini hisobga olishi, ularni aniqlashi va anglashi lozim. Tabiat va ijtimoiy fanlarning eng keyingi yutuqlari mavjud, olamdagi o'zaro aloqalar, ular asosida

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-Jild. – T.: «O'zbekiston», 1999, 85-bet.

<sup>2</sup> O'sha asr, 298-bet.

yotuvchi qonunlar va juda murakkab va ko'p qirrali ekanligi, shuningdek, bu jarayonlar to'g'risidagi bilimlarimiz nisbiy o'zgaruvchan ekanligidan dalolat bermoqda. Moddiy olamdagi bu umumiy aloqa va qonuniyatlarning murakkab shakllari falsafaning qoidalarida mumkin qadar to'la va chuqurroq aks etishini hisobga olish lozim. Bu ilmiy bilishning yagona, to'g'ri va zaruriy shartidir.

Falsafiy dunyoqarash qotib qolgan aqida emas, balki doimiy ravishda o'zgarib, boyib va takomilashib boradigan dunyoqarashdir. Tabiatda, jamiyatda bo'ladigan o'zgarishlar tufayli, birinchi navbatda, tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlardagi kashfiyotlar, ijtimoiy hayotda to'xtovsiz ravishda ro'y berib turadigan muhim o'zgarishlar natijasida kishilarning mavjud olam haqidagi ilmiy bilim va tasavvurlar, xususan falsafiy dunyoqarashlari oldingiga nisbatan ancha rivojlanadi, boyiydi va chuqurlashadi. Hozirgi zamon ilmiy-texnika inqlobitufayli inson bilimlari doirasining behad kengayib, mazmuni chuqurlashib va murakkablashib borayotganligi bunga yaqqol misoldir.

Falsafiy dunyoqarashning to'g'ri va ilmiyligini insoniyatning butun amaliy tajribasi, moddiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati ochiq-oydin ko'rsatib va isbotlab turibdi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Insonning tafakkurlash madaniyati, dunyoqarashini shakllantirishda falsafaning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Dunyoqarash va uning asosiy xususiyatlari haqida fikr-mulohazalaringizni bayon eting.
3. Dunyoqarashning asosiy turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Mifologik dunyoqarash to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Diniy dunyoqarashning mohiyati, asosiy elementlari nimalardan iboratligini ayting.
5. Diniy e'tiqod erkinligi, din va siyosat nisbati haqida nimalarni bilasiz?
6. Falsafiy dunyoqarash va uning xususiyatlari nimalardan iborat?

### **Tayanch tushunchalar**

**Mif** – afsona, rivoyat.

**Neotomizm** – katolik cherkovining rasmiy falsafasi.

**Irratsionalizm** – g‘ayri aqliy.

**Diniy aqidalar** – dindorlar uchun majburan hisoblangan diniy e‘tiqod talablari.

**Tafakkur** – voqelikni tushunchalar, muhokamalar, nazariyalar asosida inson ongida in‘ikos etish jarayoni.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7- jild.– T.: «O‘zbekiston», 1999, 85–298- betlar.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.:«Xalq merosi», 1993, 184–186-betlar.
3. Ulug‘bek Mirzo. To‘rt ulus tarixi. – T., 1994, 15–22-betlar.

---

---

## IKKINCHI BO'LIM. FALSAFIY FIKRLAR TARIXI

### III MAVZU: QADIMGI SHARQ VA ANTIK DUNYODAGI ILK FALSAFIY FIKRLAR

#### Reja:

1. Sharq xalqlarining ilk falsafiy fikrlari.
2. Markaziy Osiyodagi dastlabki falsafiy fikrlar.
3. Antik dunyo falsafasi.

#### 1. Sharq xalqlarining ilk falsafiy fikrlari

Jahon madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan falsafa fani turli davr va sharoitlarda yashagan, yashab kelayotgan barcha xalqlarning, butun insoniyatining ma'naviy boyligi, umumiy yutug'i, bashariyatining asrlar jarayonida shug'ullangan, rivojlanib, sayqal topib kelgan aql-idrok va tafakkurlari mahsulidir. Falsafa fani rivojlanishiga dunyodagi barcha xalqlar kabi Sharq xalqlari ham o'zlarining bebaho ulushlarini qo'shganlar.

Qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va madaniyati, ilk siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy, falsafiy qarash va tasavvurlari, ularning mazmun va mohiyati haqida antik zamon mualliflarining asarlarida, arxeologik manbalarda, xalq og'zaki ijodiyoti, afsona, miflar, dostonlar va rivoyatlarda aks etgan.

Dastlabki falsafiy tasavvurlar Sharqning Babil (Vaviloniya)da eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillik boshlarida paydo bo'lgan. Bu davrda odamlarning dunyoda ro'y berib turadigan xilma-xil hodisa va jarayonlariga bo'lgan munosabatlari va qiziqishlarini garchi sodda, yuzaki, ibtidoiy shaklda bo'lsada, o'zida aks ettirgan falsafiy qarashlari namoyon bo'la boshlagan.

Qadimgi Babil adabiyotining ko'zga ko'ringan mashhur asarlaridan biri «Gilgamesh haqidagi doston» bo'lib, unda tuproq, suv, havo, issiqlik inson hayoti va tiriklikning adabiy manbai ekanligi, Gilgameshning obihayot qidirib, boshidan kechirgan sargo'zashtlari va chekkan azob-uqubatlari, odamlarning tabiiy qonunlari asosida yashashi



zarurligi, hayot va o'simlik sirlarini bilishga azaldan intilib kelganligi hikoya qilingan.

Gilgamesh haqidagi Bobil afsonasida qadimgi kishilarning baxtli hayot va farovonlik, salomatlik va bardamlik, o'limni engib, mangu hayot kechirishga intilishi, abadiy umr ato qiluvchi «obihayot», o'simlik va turli xil meva va mevalardan izlab topishi haqidagi orzu-niyatlari o'z ifodasini topgan.

«Adapa haqidagi doston»da esa, insoniyatning adabiy hayot to'g'risidagi fikrlari, abadiy yashashga bo'lgan intilishlari o'z ifodasini topgan. Unda «o'lgan va qayta tirilgan» xudolarga, jumladan, Bobil xudosi Marduqqa nisbat berilgan.

Inson o'zini qurshab olgan tabiiy muhit bilan o'zaro aloqador. U shu muhit, koinot haqida o'ylaydi, fikr yuritadi, yer yuzidagi hodisa va jarayonlarni koinot bilan bog'lashga intiladi, samoviy «sir-asrorlar» haqida hayol suradi, faraz qiladi, har xil ertaklar, rivoyatlar, afsonalar to'qiydi. Bobilliklarning «Etap haqidagi afsona»lari ana shu zaminda paydo bo'lgan.

«Etap haqidagi afsona» ham yuqorida aytib o'tilgan dostonlarda bo'lgani kabi odamlarning Quyosh bilan, Oy va sayoralar bilan qiziq-qanligi, samoviy hodisalarning sir va asror sabablarini bilishga qiziqishlarini, Bobil xalqining tabiiy hodisalar mohiyatini, yilning fasllarga bo'linib, o'zgarib turishini, yil davomida tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar boisi nimadan iborat ekanligini tushunib olishga bo'lgan intilishlarini, shuningdek, ularning din va axloqqa doir falsafiy qarashlarini ilgari surgan asardir.

Qadimgi bobilliklarning yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik, boyluk bilan qashshoqlik, hurlik bilan xo'rlikning bir-biriga tubdan zid, qarama-qarshi va murosasizligi haqidagi falsafiy g'oyalar «Jafokash avliyo haqida doston» va «Xo'jayinning qul bilan suhbat» degan asarlarda o'z aksini topgan.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi o'rta qo'ygan talablar va inson amaliy faoliyati ehtiyojlari asosida Bobilda tabiat hodisalari mazmunini tushunib olish va ulardan turmushda foydalanish zaruriyati tobora kuchayib borgan. Mahsulot va mollarning miqdorini, og'irligini o'lchash, ishchi kuchlari sonini aniqlash, binolar hajmini belgilash, dalalarning er sathini hisoblab chiqish zaruriyati eng qadimgi matematik hisoblarning paydo bo'lishiga va bu sohada tegishli bilimlar to'planishi hamda dastlabki arifmetika va geometriya fanining paydo bo'lishiga olib kelgan, vaqtini hisoblash zaruriyati taqvim paydo bo'lishiga sabab

bo'lgan. Bu esa odamlardan astronomiya sohasida ma'lum bilimlarni talab qilgan. Bobilliklar Quyosh soatini, Quyosh ko'rsatkichini va kunning 12 bo'lakka bo'linishini azaldan bilishgan. Antik davr ma'lumotlariga ko'ra, Bobilda matematika, arifmetika, geometriya, astronomiya bilan bir qatorda, tibbiyot, tarix va filologiya, musiqa, tasviriy san'at, astrologiya ham sekin-asta kurtak ota boshlagan.

Qadimgi Sharq xalqlarining madaniyatlari singari Bobil xalqi madaniyati, falsafasi, axloqi, urf-odatlari, dunyoqarashi ham asosan diniy g'oyalar bilan sug'orilgan. Odamlarda diniy e'tiqod kuchli bo'lgan. Quyosh, Oy, yulduzlar xudo hisoblangan, ibodatxonalarda ularga topinganlar. Xalqlarning, davlatlarning, hukmdorlar va odamlarning kelgusidagi taqdirini yulduz va sayyoralarining vaziyatiga qarab «oldindan aytib berish» qadimgi Mesopotamiya va Bobilda astrologiya nomini.

Bobilliklarning qadimgi madaniyati, diniy e'tiqodlari, falsafiy qarashlari, adabiy asarlari, afsona va rivoyatlari ajdodiardan avlodlarga o'tib Sharqdagi ko'pgina xalqlarning madaniy ma'naviy taraqqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlari rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan.

Misr madaniyatijahon madaniyatining eng qadimgilaridan bo'lib hisoblanadi, Qadimgi Misrda ilk madaniy yodgorliklar eramizdan to'rt ming yil ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Sharq madaniyatining boshqa namunalari singari Misr madaniy yodgorliklarining ertak, rivoyat, gimn, duo, didaktik asarlar, masal, epos, ishqiy lirika, xullas, xalq donishmandchiligining boshqa turlarida ham o'sha davrdagi ijtimoiy muhit, iqtisodiy hayot, tabobat, urf-odatlar, tabiat hodisalari, diniy, axloqiy, huquqiy, falsafiy qarashlar garchi yuzaki tarzda bo'lsada, o'z ifodasini topgan.

Qadimgi Misr mifologiyasida hamma narsa suvdan paydo bo'lgan va hamma narsada havo bor, deyiladi. Shuning uchun ham misrliklar suvni odamga oziq-ovqat beruvchi dastlabki ulug' ne'mat, deb bilganlar. Suv ularga butun tabiatning asosi bo'lib ko'ringan. Misrliklar, hayot suvdan boshlanadi deb bilib, suvsiz hech qanday hayot bo'lmasligini ko'rib, suvni ulug'lovchi qanchadan-qancha rivoyat va afsonalar to'qiganlar. Ular Nil daryosini ilohiylashtirganlar, uni «odamlarga hayot baxsh etish uchun toshib turadigan Nil», deb ulug'laganlar. Shuning uchun misrliklar marhumlar ruhiga afsunlar o'qib, uning abadiy yashashini ta'minlamoqchi bo'lganlarida xudoga quyidagicha nola qilganlar: «Sen ulug' xudoga – Ozirisga marhamat aylaganingda unga Nil keladigan bo'ldi, uning uchun yaylovlarda paydo bo'ldi va papirus

o'sadigan bo'ladi. Xuddi shu singari unga-marhumga ham marhamat aylaganki, u sening suvingdan bahramand bo'lsin, u sening oqar suvlaringdan icha olsin»<sup>1</sup>.

Misrliklar o'zlarining dunyoviy va diniy-falsafiy poeziyalarida odamlarni bu dunyoning butun noz-ne'matlaridan to'la bahramand bo'lib yashashga, quvonch, shodu-hurram hayot kechirishga, o'lim, oxirat haqida hadeb o'ylayvermaslikka chaqirgan.

Misrliklarning ilk falsafiy tasavvurlari haqida birmuncha ma'lumot beradigan qadimiy manbalardan biri – «Nasihatnoma»da bilimning xosiyati haqida, bilimdon kishining qadr-qimmatini to'g'risida aytib o'tilgan. «Agar sen bilimdon odam bo'lsang, aytganing-aytgan, deganing-degan bo'ladi. Yozish-o'qishni chuqur egallab, ko'nglingga mahkam jo qilib ol, ana shunda har bir aytgan gaping hammaga manzur bo'ladi. Mirzoni qanday lavozimga quymasini, u hamma vaqt kitob bilan ish ko'radi»<sup>2</sup>.

Qadimgi misrliklarning xalq og'zaki ijodiyotida, ayniqsa, diniy-mifologik asarlarida tabiat hodisalari va tabiat kuchlari ilohiy-lashtirilgan. O'simlik va daraxtlarga topinish Misrda eng qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan.

«Hayot osmoni daraxti» to'g'risidagi qadimgi afsonada o'simliklar ramzi bo'lgan daraxt insonning er yuzidagi hayoti uchun zarurdir, degan fikr ilgari surilgan. Misrliklarning tabiatni, dunyoni uning o'ziga asoslanib turib tushuntirish uchun qilgan urinishlari, har holda sodda bo'lsada, o'z davri uchun katta ahamiyatga egadir.

Qadimgi Misrda falsafiy fikr kurtaklarining shakllanishi va rivojida tabiatshunoslik fanlarining paydo bo'lishi ham sabab bo'lgan. Bundan bir necha ming yillar ilgari qadimgi misrliklar falaqiyot sohasida ba'zi bir bilimlarga ega bo'lganlar. Osmondagi yulduzlarni doim kuzatish natijasida sayyoralarni yulduzlardan ajrata bilganlar va hatto, ular yulduzlar xaritasini ham tuzganlar.

Misrliklar o'zlarining falaqiyotiga oid bilimlari asosida alohida taqvim tuzganlar. Taqvim yili 12 oyga bo'lingan, har bir oy 30 kundan iborat bo'lgan, yil oxiriga esa yana 5 ta bayram kuni qo'shilgan. Shunday qilib, bir yil jami 365 kun bo'lgan.

Kasalliklarni keltirib chiqargan, avj oldirib, kuchaytirib yuborgan sabablarini aniqlash, ularning oldini olish, inson salomatligini tiklash va mustahkamlashga bo'lgan zaruriyat qadimgi Misrda tibbiyot fanini

<sup>1</sup> Avdiyev V.I. Qadimgi Sharq tarixi. — T., 1964, 329–330- betlar.

<sup>2</sup> O'sha asar, 367-bet.

yuzaga keltirdi. Qadimgi misrliklar kasalliklarning juda ko'p turlaridan, masalan, bosh og'rig'i, dizenteriya, sariq kasali, yo'tal, ziqnafas, qon ketish, bod, moxov, suvli temiratki va boshqa har xil kasalliklardan xabardor bo'lganlar. Misr tabiblari miyaga, umurtqa pog'onasiga va ko'krak qafasiga alohida e'tibor berganlar va ularni kasalliklar uyasi deb bilib, tabib bu erdagi kasalliklarni topib yo'qotishi kerak, deb hisoblanganlar. Misrliklar diagnostika – tashhis sohasida katta tajriba to'plaganlar.

Misrda jarrohlik va ko'z kasalliklarini davolash ancha rivojlangan. Ular insondagi ko'pgina kasalliklar yurak qon aylanish tizimining qandayligiga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlashgan. Misrda tabiblikning siri yurak harakatini bilishdan boshlanadi, tomirlar butun a'zoyi badanga shundan tarqaladi, deb hisoblashgan.

Bashariyat tarixida sivilizatsiya beshigi hisoblangan Hindiston ham o'zining juda qadimiy va boy tarixiga ega. Eramizdan uch ming yil avval bu erda erni sun'iy sug'orish taraqqiy etgan, anhorlar qazilgan, qulolchilik yog'ochsozlik, to'qimachilik, zargarlik rivojlangan, yog'och va metallardan jang aravalari yasashgan, pishiq g'ishtdan ko'p qavatli binolar qurishgan, yung va zig'ir tolasidan matolar tayyorlashgan, mis va temirdan, qalay va qo'rg'oshindan qurol-aslahalar yasashgan.

Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» nomli asarida aytilishicha, Hindistonda eramizning birinchi asrlaridayoq, tib, riyozat, ilmi nujum, din, kimyo, musiqa, poeziya, tarix, san'at, falsafa kabi ilmlar rivojlangan.

Ayniqsa, noyob tabiatga, saxiy zaminga, ajoyib hayvonot va tabobat olamiga boy bo'lgan qadimiy Hindistonda falsafa, badiiy adabiyot o'tmish davrlaridan boshlab vujudga kelgan va rivojlangan. «Ramayana», «Mahobhorat», «Kalila va Dimna» kabi mashhur asarlar shular jumlasidandir.

Yuksak nafosat va mangu hikmat xazinasi bo'lgan ana shu asarlarda hind xalqining urf-odatları va an'analari, odob-axloqi va madaniyati, dini va tarixi, milliy qadriyatlari, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy, falsafiy, diniy qarashlari o'zining yorqin ifodasini topgan.

Hind madaniyati va falsafasining ana shu bebaho yodgorliklarining har birida aql-idrok, insof-diyonat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, milliy totuvlik, to'g'riso'zlik, va'daga vafodan qo'rqin qilish to'g'risida, zulm va zo'ravonlikka, xiyonat va riyokorlikka, nafs buzuvchilik va ochko'zlikka, fitnachilik va qalloblikka, xudbinlik va munofiqlikka qarshi kurashish zarurligi haqida juda muhim va foydali falsafiy g'oyalar, hikmatlar,

rivoyatlar, maqol va naqlar bayon etilganki, ular shak-shubhasiz, ham milliy, ham umuminsoniy, ahamiyatga molikdir.

Hindistonning eramizdan oldingi birinchi ming yilliklaridagi dastlabki falsafasini o'rganishda qadimgi hindlarning «Veda» deb ataladigan diniy to'plamlari va ikkita katta epik dostoni – «Ramayana» va «Mahobhorat» hamda Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asari muhim ahamiyatga egadir.

Hindistonning «Veda» deb ataladigan muqaddas kitobining «ma'nosi bilmagan narsani bilishdir. Hindlar «Veda» kitobini, oliy tangrining Barohim og'zidan aytilgan so'zi, deyдилar»<sup>1</sup>.

«Veda» kitobi Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atharvaveda deb ataladigan to'rt katta bo'limdan iborat. To'rt bo'limdan har birining o'ziga xos o'qish yo'li bor. Mazkur bo'limlarning har birida muayyan bir falsafiy g'oya ilgari surilgan.

«Veda»da borliq, fazo, vaqt, dunyoning paydo bo'lishi, insonhayotining tabiiy asoslari, tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, ilohiy kuchlar haqida fikr yuritiladi. «Veda» kitobi yaxshi ishlarga targ'ib qilish, yomon ishlardan qaytarish, amallarning chegarasini aniq ko'rsatib qiziqtirish, yaxshi mukofot va yomon jazolarni bayon qiladi. «Veda»ning ko'p qismi turli duolar va olov uchun qilinadigan turli qurbonliklar ustidagi so'zlardan iboratdir. U qurbonlik turlari sinab bo'lmaydigan darajada ko'p va (qoidalari) qiyindir»<sup>2</sup>.

«Veda» kitobini tashkil etgan bo'limlarning eng qadimiysi Rigvedada hindlarning xudolari bo'lgan parilar to'g'risidagi afsonalar bilan bir qatorda dunyodagi har bir narsa va tabiiy ravishda paydo bo'lgan, degan g'oyalar bor. «Rigveda»dagi dunyo suvdan yaratilgan, degan fikr e'tiborga sazovordir.

Qadimgi Hindiston dini va falsafasida suvning muqaddaslashtirilishi, uni dunyoni tashkil etgan unsurlardan biri ekanligi asoslangan. Bu haqda «Veda» va «Rigveda»da alohida e'tibor berilganligi bejiz emas, albatta. «Hindlar fikricha, – deyiladi Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida, – «yaratilgan narsalarning oldingisi suvdur: chunki ular to'zonga aylangan hamma narsa suv bilan birikadi, hamma undagi narsa suv bilan unib chiqadi va hamma jon egasi suv bilan tirik turadi, suv san'at egasi, biron moddadan ma'lum bir narsa ishlatmoqchi bo'lganida unga suv vosita bo'ladi»<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. II-jild. – T.: «Fan», 1965, 106-bet.

<sup>2</sup> O'sh joyda.

<sup>3</sup> O'sha asar, 77-bet.

«Veda»da borliqning bosh manbai, moddiy ibtidosi deb hisoblangan suv, olov, havo, yorug'lik, tuproq hamda oziq-ovqat, fazo, vaqt haqidagi, shuningdek, olamning tuzilishi va uni boshqaruvchi qonunlar, inson bilimlarining manbalari va turlari, insonning ijtimoiy majburiyatlari kabi qator falsafiy masalalar yoritilgan. Unda ta'kidlanishicha, tana jonning qobig'i bo'lib, jon esa – dunyoviy ruhning bir bo'lagidir. «Veda»lar shu tariqa butun qadimiy Hind falsafasining keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilganligi va sharoit yaratib berganligi tufayli alohida ahamiyat va ilmiy qimmatga ega.

Milodgacha VIII–VII asrlarda Hindistonda *Lokayati* (faqat shu lokani tan oluvchi kishilarning qarashlari) falsafiy ta'limoti shakllana boshlaydi. Bu ta'limot asoschisi Brixaspati va uning izdoshlari erdan boshqa tarzda qastning bo'lishi mumkin emas, degan fikrni olg'a suradilar.

*Charvaka* nomi bilan ataladigan qadimiy Hind falsafiy oqimi tarafdorlari, dunyoni, tabiat hodisalarini qanday bo'lsa shunday tushuntirmoq kerak, degan talabni ilgari surgan edilar. Ular nuqtai nazaricha, butun olam olov, suv, havo, tuproq yig'indisidan iborat, inson ham ana shu to'rt unsur birikmasidan tashkil topgan.

Charvaqlar dunyoni hech kim yaratgan emas, balki uning zaminida moddiy elementlar birikishi yotadi, deb hisoblaydilar. Ular «o'tni kim issiq haroratli qildi, suvni kim sovuq qildi?» – degan savol berib, «bularning hammasini shu hodisalarning o'zidan qidirish kerak», deb javob beradilar.

Xitoydagi dastlabki falsafiy ta'limotlarda dunyo abadiy va u besh unsur – olov, suv, er, daraxt va metaldan tashkil topgan, deb uqtiriladi.

Eramizdan oldingi VII–VI asrlarda Xitoyda «dao» qonuniga binoan harakat qiluvchi «tsi» elementining mavjudligi haqida fikr yuritilgan. Xitoy mutafakkirlari fikricha, tabiat hodisalari «tsi» moddiy zarralardan tarkib topib «dao» obyektiv tabiiy qonuniyatga bo'ysunadi. Xitoyliklarning tabiat hodisalari qonuniyatli asosda taraqqiy qiladi, degan tasavvurlari, dunyo moddiydir, degan ta'limotga bog'liqdir. «Dao» haqidagi ta'limot falsafadagi qonun tushunchasini hosil qilishdagi dastlabki o'rinidir.

«*Daosizm*» so'zining o'zi «dao» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «yo'l», «taraqqiyot», «dunyo negizi» degan ma'nomi bildiradi. Daosizmning asoschisi Lao-tszi bo'lib, u dunyo abadiy harakat va o'zgarishda bo'ladi, deb hisoblangan. Masalan, Lao-tszi bu haqda bunday degan: «Ulug' dao hamma yoqqa qarab oqadi. U o'nga ham

so'lgæ ham yoyilgan. U tufayli jami mavjudot tug'iladi, bu mavjudot hamisha o'zgarishda bo'lib bir joyda to'xtab qolmaydi».

Daosizm dunyoda qarama-qarshiliklarning bir-biriga bog'liqligi amal qiladi, tabiathodisalari o'z-o'ziga zid holatda, aylanib rivojlanadi, degan fikr yuritiladi. Ta'kidlanishicha, go'zallik va xunuklik, balandlik va pastlik, yaxshilik va yomonlik, borliq va yo'qlik, o'zun bilan qisqalik bir-birini tug'diradi, birin-ketin keladi, bir-biriga bog'liq bo'ladi, tabiatdagi barcha mavjudot, barcha hodisalar qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi.

Daosizm vakillari bilishda hissiy va mantiqiy jihatlarning mavjudligi masalasini o'rta qo'yib, bilishda hissiyot va amaliyotning ahamiyatini kamsitib, aqlni bo'rttirib yuborganlar.

Miloddan avvalgi V–III asrlarda vujudga kelgan konfutsiychilik qadimgi Xitoyda keng tarqalgan falsafiy ta'limotlardan bo'lib hisoblanadi. Uning asoschisi Xitoy mutaffakiri Konfutsiy miloddan oldingi 551–479-yillarda yashagan. Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, odamlarning hammasi tug'ma xususiyatlarga ko'ra bir-birlariga yaqindir. Tug'ilgandan keyin hosil qilgan xususiyatlarga ko'ra, ular bir-biridan farq qiladilar.

Konfutsiy, agar podsho osmon va dengiz kabi ulug'vor bo'lsa, xalq uni hurmatlaydi, uning aytganlariga quloq soladi va uning ishlariga xayrixohlik qiladi, deb podshohni ilohiylashtiradi. U to'g'ridan-to'g'ri, imperator – Osmon o'g'li, uning erdagi ko'rinishi – osmonning jonli timsolidir. Yer sharidagi quruqlikning markazi Osmon o'g'lidir. Har qaysi xalq o'z chegarasida bir knyazga itoat qiladi. Osmon o'g'li amni osmondan oladi, tobe knyazlar esa, buyruqni Osmon o'g'lidan o'ladilar, deydi.

Konfutsiyning ta'limoticha, har bir kishi o'z zimmasidagi vazifani halol ado etmog'i lozim. Hukmdor davlatni boshqaradi, hunarmand o'z hunari bilan band bo'ladi, ota o'zining otalik burchini ado etadi. Agar hayotning mana shunday oddiy qonunlari buzilsa, davlat ichichidan irib-chirib ketadi. Tartib-intizom, o'zaro hurmat yo'qoladi. Mamlakatda urush janjal, fitna avj oladi. Misli ko'rilmagan yong'in ham kichik uchqundan chiqadi.

Aytib o'tilganlarning hammasi Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy singari qadimgi Sharq mamlakatlari va boshqa davlatlarda paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan, dastlabki falsafiy bilim va tasavvurlarning ildizlari, boshlang'ich asoslari jahon xalqlari tarixi va madaniyatining o'zoq o'tmishiga borib taqalishini ko'rsatib va isbotlab turibdi.

## 2. Markaziy Osiyodagi dastlabki falsafiy fikrlar

O'rta Osiyo jahonning' ilm-fan, falsafa, din, adabiyot va san'ati qadimdan rivojlangan, tarixi nihoyatda boy mintaqalardan biridir. Ko'plab hujjatlar, muhim og'zaki va yozma manbalar, turli asori-atiq obidalaridan ma'lum bo'lishicha, Dneprdan Oltoygacha bo'lgan, jumladan, O'rta Osiyoda skiflar, Kaspiy orti tekisligida massagetlar, ulardan sharqda esa saqlar, so'g'dlar, baktriyaliklar, xorazmiylar, parkanaliklar yashaganlar. Ular bir necha ming yillar ilgari sug'orishga asoslangan dehqonchilik hamda chorvachilik, ovchilik-baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Hozirgi tojik, o'zbek, turkman ajdodlarining sug'orma dehqonchilik madaniyati shu qadar rivoj topganki, hatto birgina Araks (hozirgi Amudaryo) havzalarida juda ko'plab sun'iy sug'orish inshootlari qazilib, cho'l va sahrolarga suv chiqarilgan. Shu tariqa moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilgan. Ajdodlarimiz yashagan hududlarda qadimdan xilma-xil madaniyat o'choqlari tarkib topgan va rivojlangan.

Miloddan avval III ming yillikda mintaqamizning markaziy va shimoliy hududlarida qishloq xo'jaligi bilan birga hunarmandchilik, konchilik, mis va temir eritish, metallardan har xil harbiy va mehnat qurollari yasash, kemasozlik, tikuvchilik, binokorlik, zargarlik ham taraqqiy eta boshlagan. Sug'diyona, Baqtriya, Xorazm kabi davlatlar, Toshkent, Xiva, Marokand (Samarkand), Kiropol (hozirgi O'rtatepa) va boshqa shaharlar paydo bo'lgan. O'rta Osiyo xalqlarining buyuk madaniy muvaffaqiyatlaridan biri yozuvning ixtiro qilganligi bo'ldi. YOzuvning ixtiro qilinishi, inson bilim doirasi va dunyoqarashining kengayishi va chuqurlasha borishiga xizmat qilgan.

Avlodu ajdodlarimizning hayoti, urf-odatlari va an'analari, madaniyati, tili va tarixini badiiy-falsafiy jihatdan o'ziga xos tarzda aks ettiradigan og'zaki ijodiyoti nihoyatda boy va rang-barangdir. Miflar, afsonalar, qahramonlar to'g'risidagi dostonlar, to'y-sayillar, xalq yig'inlari, bayramlar, safarlarda aytilgan qo'shiq va laparlar, lirik she'rler, maqol va matallar, masal va topishmoqlar xalq og'zaki ijodiyoti madaniyatining o'zoq tarixga ega bo'lgan sohalaridir. Ularning ijodkori-barcha ha moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratgan xalq ommasidir.

O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodiyotining eng qadimgi tur va janrlaridan biri – asotir-mifdir. Yaxshilik bilan yomonlik, nur bilan zulmat, baxt bilan baxtsizlik o'rtasidagi kurash va bu kurashda



ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqidagi g'oyalar O'rta Osiyoda vujudga kelgan miflar uchun ham xosdir.

Qayd etilishicha, yaxshilik olamiga Axuramazda yomonlik olamiga esa Axriman boshchilik qiladi. Ezgulik miflarida Mitra kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat baxt etadigan, dushmanlarga dahshat soladigan, kishilarni ofatdan qutqaradigan Quyosh xudosi sifatida, Anaxita esa er, suv va unum ma'budasi, qahramonlarga kuch-quvvat va muvaffaqiyat baxsh etuvchi tarzda tasvirlanadi. Sharq xalqlaridagi yovuzlik, zulmat kuchlari miflarda ko'pincha dev, ajdar, jinlar qiyofasida tasvirlanadi. Bular ofat va zulmat, qabohat va razolat, o'lim va qo'lfat, baxtsizlik, xonavayronagarchilik, ochlik-qahatchilik timsolidir.

O'rta Osiyoda bir necha asrlar osha yuzaga kelgan mif va afsonalar insoniyat ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga, xususan, qahramonlik haqidagi dostonlar paydo bo'lishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. «To'maris», «Shiroq», «Zariadr va Odatida», «Zarina va Striangiya», «Uch og'a-ini botirlar», «Manas», «Qaxramon», «Malikai Husnobod» kabi qissalar, «Alpomish», «Qirqqiz», «Go'ro'g'li», «Avazxon», «Chambil qamali», «Oysuluv» singari dostonlarda ham milliy, ham umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy g'oyalar ilgari surilgan.

Qahramonlik haqidagi dostonlar, ertaklar, rivoyat va afsonalarning falsafiy mohiyatini belgilaydigan, ularning asosiy negizini tashkil etadigan umumiy g'oya – inson uchun jondan aziz hisoblangan muqaddas dargoh – Vatanning istiqloli, erki va mustaqilligi uchun ajnabiy dushmanlarga qarshi murosasiz kurashish jamiyat har bir a'zosining oliy insoniy burchi ekanligi haqidagi fikr-mulohazalardir. O'rta Osiyo xalqlarining Eron ahmoniylari bosqiniga qarshi kurashini badiiy aks ettiruvchi To'maris va Shiroq to'g'risidagi rivoyatlar aytib o'tgan fikrimizga misol bo'ladi.

To'maris haqidagi qissada massagetlar malikasi To'maris timsolida Eron bosqinchilariga qarshi kurashdagi mardligi, dovyuraqligi, jasorati, donishmandligi, Vatanga sadoqati, dushmanlarga nisbatan ziyrak va xushyorligi chuqur bayon etilgan. Vatani himoya qilish, erksevarlik, vatanparvarlik ajdodlarimizning qon-qoniga singib ketganligi Shiroq to'g'risidagi tarixiy rivoyatda ham chuqur va har taraflama ochib berilganligini e'latib o'tish mumkin.

O'rta Osiyoda yashagan avlod-ajdodlarimizning falsafiy fikrlari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimizda «Avesto», «Behis-

tun», «Bundaxishn», «Denkard» singari yozma yodgorliklar muhim tarixiy hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega.

Ko'xna Xorazm zaminida bundan qariyb uch ming yil ilgari yaratilgan eng mo'tabar, qadimgi nodir qo'lyozma – «Avesto» Amu va Sirdaryo oralig'ida yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy, falsafiy, huquqiy merosidir». «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirkim, uni hech kim inkor eta olmaydi»<sup>1</sup>.

«Avesto»da aks etgan asosiy falsafiy g'oyalar, diniy e'tiqodning etakchi tushunchalari tarixiy shaxs Zardusht (Zardust) nomi bilan bog'liq. Uning nomiga nisbatan din ham shunday nom bilan, ya'ni zardushtiylik deb ataladi. Zardusht, manbalarning ko'rsatishicha, taxminan miloddan avvalgi 570-yillarda tug'ilgan bo'lib, etmish etti yoshida ibodat qilayotgan chog'ida dushman xo'inlaridan biri tomonidan orqasidan xanjar sanchib o'ldirilgan. Zardushtga qadar ajdodlarimiz turli xil diniy odatlarga e'tiqod qilib yashaganlar.

Diniy e'tiqodlarning turli-tumanligi ibtidoiy munosabatlar o'rni sinfiy jamiyat, qadimgi quldorchilik jamiyati paydo bo'la boshlagan paytda barcha qabilalarning yagona mafkura asosida uyushishlariga allaqachon qagona bo'lib qolgan edi. O'lkaning turli qabilalarini birlashtirish, ularni ilk buyuk davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirish zaruriyati tug'ilib qolgan edi. Ana shunday zaruriyatni tushunib etgan ilg'or kishilardan biri sifatida Zardusht tarix saxnasida paydo bo'ldi.

Zardusht ko'p xudolilik tasavvurlari, tabiat hodisalariga sig'inishga qarshi chiqib, vakka xudolik g'oyasinitarg'ib qildi. Zardushtiylik dinining qonun-qoidalari «Avesto»da bayon etilgan. «Avesto» kitobi eramizdan bir necha asrlar ilgari yuzaga kelgan. Manbalarning ko'rsatishicha, «Avesto» o'n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan ekan.

Abu Rayxon Beruniyning «O'tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar» asarida bu haqida shunday deyilgan: «Doro ibn Doro xazinasida o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nushasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni hamda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun «Avesto»ning beshdan uch qismi yo'q bo'lib ketdi. «Avesto» o'ttiz nask (qism) edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi».

<sup>1</sup> Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «O'zbekiston», 1998, 10-bet.

«Avesto»da o'tmish ajdodlarimizning diniy tasavvurlari, koinot va erdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq, afsona va rivoyatlar, O'rta Osiyo, Eron va Ozorbayjonning tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, geografiyasi, tabiati, nabototi, ilm-fani o'z aksini topgan. Unda qadimgi Turon o'lkasining iqlimi, suvi, hayvonot dunyosi, er tuzilishi, sahrolari, tog'lari haqidagi qimmatli ma'lumotlar berilgan.

G'arazguylik, hasad, manmanlik, fitna-fasod «Avesto»da qattiq qoralansa, va'daga vafo qilish, ahdga sadoqat, samimiyat, xolislik, o'zaro izzat-ikrom kabi odamlar o'rtasidagi ustuvor bo'ladigan axloqiy qoidalar ulug'lanadi. «Avesto» dunyoni inson uchun sinov maydoni deb tushuntiradi.

«Avesto»da odamlarni iymonli bo'lishga, doimo pok, toza yurishga, tanani ozoda tutishga, har qanday yomon niyat va so'zlardan tiyilishiga, yomon amallardan voz kechishga, nojuya ishlardan yuz o'girishga da'vat etadigan axloqiy qoidalar, diniy o'gitlar, falsafiy g'oyalar nihoyatda ko'p.

«Avesto»da qayd etilgan eng muhim falsafiy fikrlardan biri—insonlarni mehnat qilishga, o'z qo'llari bilan moddiy boyliklar yaratib tuk, farovon hayot kechirishga da'vat etilganligidadir. Zardushtiylikda chorvaning ko'payishiga, yaylovlarning gullab-yashnashiga yordam bergan taqdirda, tinmay mehnat qilgandagina xudoning inoyatiga noil bo'ladi, deyiladi. Zardusht xudo Axuramazdadan er yuzidagi eng yaxshi joy qaerda, deb so'raganda u, inson qaerdaki o'ziga uy tiklab, oilasi (xotini va farzandlari)ga, podalariga o'rin ajratib bersa, ern-xashagi ko'p bo'lib, chorvasi va itlari to'q, yashasa, uyda noz-ne'matlar muhayyo bo'lib, xotini va farzandlari faravon yashasa, uyda e'tiqodi sobit, olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil, o'sha go'sha ulug'dir, muhtaramdir, deb javob beradi.

«Avesto» mehnat qilib, boylik yaratib, yangi joylarni obod qilib, qo'riq va bo'z erlarni haydab, sug'orib o'zlashtirgan, sut go'sht, yog', don-dun etishtirib jamiyat taraqqiyotiga yo'l ochib bergan, farovonlikni ta'minlagan dehqonlar, chorvadorlar, ovchilarni ulug'laydi. Unda, masalan, erga mehr qo'yib mehnat qilish zarurligi haqida aytilgan. Kimda-kim, ham o'ng qo'li bilan, ham chap qo'li bilan erga ishlov bersa, erga foyda keltiradi. Er ham undan o'zining har xil noz-ne'matlarni, ziroatlarini, mo'l-ko'l hosilini ayamaydi, deyiladi kitobda.

Kimki erga vaqtida ham o'ng qo'li, ham chap qo'li bilan ishlov bermagan, mehnat qilmagan bo'lsa, unday kimsalarga zamin: «O sen, odam, menga topilmaydigan, mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatan

ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta'zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Haqiqatan ham sening yoningdan xilma-xilzirotlarni olib o'tadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mehnat qilayotgan: to'q va faravon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadulabad shunday bo'lajak!» – deb mehnatga da'vat qiladi.

Zardushtiylik dini va uning «Avesto» kitobida dunyoning moddiy asosi deb hisoblangan er, tuproq, havo, muqaddaslashtiriladi. Er va havo shunday e'zozlanganki, havoni bo'g'ish, ifloslashtirish, hayvonlar o'ligi u yoqda tursin, odamlar jasadini ham erga ko'mish, suvni oqizish, olovda yoqish gunohi azim hisoblangan. Marxumlar erni, suvda, havoni zaharlab qo'ymasliklari uchun ularning jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan.

Zardushtiylik diniga amal qilgan O'rta Osiyodagi kabilalar suvga va olovga sajda qilganlar, quyoshni ilohiy mavjudot darajasiga ko'targanlar. Xorazmda, Samarqandda olib borilgan arxeologik qazilmalar guvohlik berishicha O'rta Osiyo xalqlari Quyosh xudosi hisoblangan Mitraga, er, suv, unumdorlik xudosi Anaxitaga sig'inganlar.

«Avesto»da dehqonchilik bilan shug'ullanish o'n ming marotaba ibodat qilish va yuzlab jonivorlarni qurbonlikka keltirishdan afzal hisoblangan. Unda aytilishicha, ekin ekish-erdagi yovuzliklarga barham berish demaqlir. G'alla erdan unib chiqqanda, – deyiladi «Avesto»da, – devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod qiladi, g'alla yanchib un qilinayotganda, ular qocha boshlaydi, hamir qilinayotganda esa devlar mahv bo'ladi. G'allaning mo'l-ko'l bo'lishi, go'yo devlarning labiga qizitilgan temir bosganday ularni tumtaraqay qiladi.

Islomgacha O'rta Osiyoda buddizmning, hatto nasroniylik dinining ma'lum darajada tarqalganiga qaramay, diniy e'tiqod bobida zardushtiylik dini asosiy o'rin tutgan. Jahon dinlari keyingi 2-2,5 ming yil ichida qanchalik takomillashgan, ularning marosimlari, urf-odatlari nechog'li xilma-xillashgan, boyigan bo'lmasin, ular barchasi zardushtiylik dinining vorislari hisoblanadi.

Avval qayd etganimizdek, «Avesto» va boshqa yozma yodgorliklar qadimgi O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, tili, qadriyatlarini, falsafiy, axloqiy, diniy qarashlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Yozma yodgorliklar faqat o'tmishni tushunish uchungina emas, balki bizning bugungi

kunimizning ma'naviy masalalarini hal etish, milliy istiqloq mafkurasini ishlab chiqish uchun ham foydalidir.

Miloddan avvalgi I minginchi asr hamda eramizning I-II asrlarida manixeylik harakati va ta'limoti vujudga kelgan. Uning asoschisi **Moniy** (216–217-yy.) hisoblanadi. Moniylik zardushtiylik va xristianlikning sintezidir. Mazkur ta'limotga ko'ra, borliqning ikkita substansiya asosini – yorug'lik, yaxshilik, ruh olami va zulmat, yovuzlik, materiya olamini tashkil qiladi. Moniylik ta'limoti hukmron ruhoniylar zodagonlar ta'limotidan farqli ularoq, muhim ma'naviy qadriyatlar – boshlang'ich adolat, erkinlik, mehnatga intilish kabilarni targ'ib qildi.

Ijtimoiy-falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va namoyon bo'lishi xususida yuqorida qayd etib o'tilganlarning hammasi ayrim tadqiqotchilarning, falsafiy tafakkur Sharq xalqlarida bo'lgan emas, falsafiy ta'limot ular uchun mutlaqo yot, falsafa to'la ma'nosi bilan G'arbda boshlangan, degan da'volarning puch va tarixiy haqiqatga tamomila zid ekanligini ko'rsatib va isbotlab turibdi.

### 3. Antik dunyo falsafasi

Falsafa fanining taraqqiyotiga Sharq mutafakkirlari bilan bir qatorda, G'arbiy Yevropa olimlari ham katta hissa qo'shganlar. Sharq bilan G'arb xalqlarini bog'lovchi «Ipak yo'li» markazida joylashgan «O'rta Osiyo mintaqasi Hindiston, Xitoy, Mesopotamiya, Yunon, Rim davlatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini rivojlantirib kelgan. Shuning natijasida o'lkamizga boshqa mamlakatlarning, jumladan Yunoniston xalqlarining madaniyati ham ma'lum darajada kirib kelgan va aksincha, O'rta Osiyoning madaniyati qadimgi yunon xalqlari madaniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, Aleksandr Makedonskiy, Kliment Aleksandriyskiy, Ksenofont, Sgrabon, Ptolomey, Gerodot esdaliklari asarlarida O'rta Osiyo xalqlariga xos madaniyat, urf-odat va an'analar, afsonalar keltiriladi.

Sharq va G'arb mamlakatlari o'rtasidagi bunday o'zaro aloqadorlikni falsafa fani sohasida ham kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa, Sharq mutafakkirlari, allomalari tomonidan IX–XII asrlarda rivojlangan boy va rang-barang madaniy, ilmiy, falsafiy meros G'arb mamlakatlarida XV–XVII asrlarda Yevropa Renessansning vujudga kelishiga zamin yaratib beradi.

G'arbda falsafa mustaqil fan sifatida eramizdan oldingi VI asrda Yunonistonda ibtidoiy jamoa quldorlik jamiyati bilan almashgan davrda

shakllanadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar, savdo, hunarmandchilik, san'at, fizika, matematika, astronomiya, geografiya, adabiyot, falsafa va boshqa fanlarning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Qadimgi Yunonistonning dastlabki faylasuflari Yer, Quyosh, yulduzlar, hayvonlar va odamning kelib chiqishini bir butun, yaxlit tasavvur etishga harakat qilgan mutafakkir edilar. Shuning uchun ham ularni fiziklar – tabiatshunoslar (yunoncha, *physis* – tabiat) deb ataganlar. Ular mifologik va diniy dunyoqarashlarga qarshi kurash olib bordilar. Ma'lumki, yunon mifologiyasida asosiy e'tibor dunyoning kelib chiqishini izohlab berishga qaratilgan bo'lib, unda asosiy o'rinni dunyoni kim yaratgan degan savol egallab kelgan edi. Yunon faylasuflari esa asosiy e'tiborni dunyo nimadan yaratilgan degan savolga javob berishga qaratganlar.

Qadimgi Yunonistonda yirik savdo va madaniyat markazi bo'lib kelgan Milet shahrining vakillari taniqli mutafakkir *Fales* (mil. avv. 640–545-yy.) hamma narsa suvdan kelib chiqqan va suvga aylanadi, deb hisoblangan bo'lsa, *Anaksimandr* fikricha, (mil. avv. 610–546 yy.) dunyo noaniq materiya – apeyrondan tashkil topgan. Narsalar, uning fikriga ko'ra apeyron harakati hamda sovuqlik va issiqlik, namlik va quruqlik kabi qarama-qarshiliklarning natijasida paydo bo'ladi. *Anaksimening* (mil. avv. 588–525-yy.) fikricha, hamma narsa havodan hosil bo'lgan va havoga aylanadi. Efes shahrining vakili *Geraklit* (mil. avv. 544–480-yy.) olamidagi barcha narsa va hodisalarning asosi olovdan deb hisoblangan.

«Dunyoni xudolar ham, odamlar ham, hech kim yaratmagan, u qonuniyatli tarzda alanganadigan va qonuniyatli tarzda uchraydigan abadiy barhayot olov bo'lib kelgan, hozir ham shunday va bundan keyin ham shunday bo'ladi», deb ta'kidlaydi Geraklit. Tabiat olovdan hosil bo'lgan, doimo o'zgarib, rivojlanib turuvchi abadiy jarayondir. Olamda mavjud bo'lgan barcha narsa va hodisalar olovdan paydo bo'ladi va yo'q bo'lib, yana qayta olovga aylanadi. Geraklit fikricha, olovning yo'q bo'lishi havoning tug'ilishidir, havoning yo'q bo'lishi, suvning tug'ilishidir, suvning yo'q bo'lishi havoning tug'ilishidir, havoning yo'q bo'lishi – olovning tug'ilishidir va aksincha.

Geraklit ta'limotining ahamiyati shundaki, u o'zining dunyoning moddiyligi haqidagi fikrini narsa va hodisalarning o'zgarishi va rivojlanishi kabi qonuniy jarayon, deb e'tirof etishdadir. Mazkur abadiy va eng umumiy qonuniyatni ulogos deb tasvirlaydi. Geraklitning logos

haqidagi fikri Xitoy falsafasidagi Dao g'oyasining yangicha tavsifi desak haqiqatga xilof bo'lmaydi.

Geraklit falsafasining yana bir muhim tomoni voqelikdagi narsa va hodisalarga dialektika nuqtai nazaridan yondashuvidadir. Uning fikricha, narsa va hodisalar doimiy o'zgarishda, o'zaro aloqadorlikda, bog'liqlikda, bir-biriga o'tib turadi. Olamda o'zgarmaydigan, doimiy bo'lgan biron-bir narsani topish mumkin emas. «Oqib turgan daryo-ning suvi doim yangilanib turadi, shuning uchun bir daryoning suvi o'ziga ikki marotaba tushishi mumkin emas».

Narsa va hodisalarning doimiy o'zgarib, rivojlanib turishining manbai qarama-qarshiliklarning birligi va ularning o'zaro kurashidadir. Geraklitning fikricha, qarama-qarshiliklar o'zaro o'rin almashib turadi, hamma narsa muvjuddir va ayni zamonda mavjud emasdir, chunki hamma narsa oqib turadi, hamma narsa doimo o'zgarib turadi, hamma narsa doimo paydo bo'lish va yo'qolish jarayonidadir. Sovuqlik isiydi, issiqlik soviydi, namlik quriydi, quruqlik namlanadi va h.k. Shuning uchun har bir mavjud narsaga ma'lum tomondan yondashish zarur. Dengizning suvi toza ham, iflos ham, baliqlarga u toza va foydali, odamlarga esa u iflos va zararli.

Geraklit ong (jon, ruh) bilan materiya (tana) bir-biri bilan chambarchas bog'langan deb hisoblab, uni olovning ko'rinishidan biri degan edi. Anglash tufayli inson dunyoni bilishga qodir. Bilish hissiy organlaridan boshlanib tafakkur bilan yakunlanadi. Hissiy organlarning yordamida biz narsa va hodisalarni bir-biridan ajratib turadigan tomonlarini bilamiz, ularning mohiyati va taraqqiyot qonuniyatlarini bilishga tafakkur orqali erishamiz.

Milet va Efes mutafakkirlarining mazkur fikrlari falsafaning keyingi rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Samos orolining vakili *Pifagorning* (mil. avv. 580–500-yy.) fikricha, butun olam raqamlarining uyg'unligidan va o'zaro munosabatlaridan iborat. U raqamlarga jon bag'ishlab, turli xossalar, adolat, aql, idrok, muvaffaqiyat va hokazolar raqamlarga tegishli deb hisoblangan. Sonlar koinotdagi tartibning ifodasidir. Dunyoni bilish uni boshqaruvchi sonlarni bilishdir.

Pifagorchilar sonni materiyadan ajratib uni ilohiylashtirgan bo'lsalarda, matematika fanining rivojlantirishlari, mashhur Pifagor teoremasining yaratilishi bilan fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

Eley faylasufi *Parmenid* (mil. avv. VI asrning oxiri V asrning boshi) dialektik tasavvurga zid keluvchi g'oyalarni olg'a surib, qo'zg'a-

tolmaydigan umumiy yagona borliq haqiqiy mavjudlikdir, deb hisoblangan. Bu haqiqiy, mavjudlik, uningcha, fikr bilan ayniydir. Tabiatda o'zgarib turadigan, turli-tuman ko'rinishdagi hodisalar, Parmenidning ta'limotiga ko'ra, yolg'on fikrlarning mahsulidir, bilim esa faqatgina aql yordamida hosil qilinishi mumkin.

**Zenon** (mil. avv. V asrning o'rtalari) ham Parmenid singari «haqiqiy borliq» harakatsiz bo'ladi va uni aql bilan bilish mumkin, deb hisoblaydi. Eramizdan oldingi V asrda pifagorchilar va eleatlarning falsafiy qarashi kuchaygan faylasuflar orasida Empedokl, Anaksagor, Levkipplarning alohida o'rni bor.

**Anaksagor** (tax. mil. avv. 500–428-yy.) Klazomen shahri vakili dunyoning asosini kichik zarrachalar – gomeomeriyalar tashkil qiladi, ular sifat jihatidan bir-biridan farq qilib, doimiy harakatda bo'ladi, deb aytgan.

**Empedokl** (tax. mil. avv. 490–430-yy., Sitsiliya orolidan). U o'zining «Tabiat to'g'risida» nomli asarida voqelikdagi barcha narsalarning asosini to'rtta unsur, ya'ni tuproq, suv, havo, olov tashkil qiladi degan g'oyani olg'a surgan. Mazkur unsurlarning bir-biri bilan qo'shilishi va ajralishining sababi ularning o'zaro tortilish va itarilishlaridadir deb hisoblaydi.

**Levkippl** (tax. mil. avv. 500–440-yy.) dunyoning asosini mutlaq bo'shliq, atom va sababiyat tashkil etadi deb hisoblagan. Uning fikricha olamda barcha narsa va sababiy bog'liklikda yashaydi. Hech narsa sababsiz paydo bo'lmaydi, hamma narsa ma'lum bir asosga muvofiq, qonuniy ravishda vujudga keladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Anaksagor, Empedokl va Levkipplai dunyoni materialistik nuqtai nazardan izohlab berish bilan bir qatorda narsa va hodisalarning kelib chiqishi va rivojlanishiga dialektika nuqtai-nazaridan yondashganlar.

Qadimgi Yunonistonning eng mashhur faylasuflaridan biri **Demokrit**dir (mil. avv. 460–370-yy.). Uning asosiy asari «Buyuk diakosmos» bizgacha saqlanib qolmagan. Demokritning nuqtai nazaricha, dunyo moddiy bo'lib, ruh, ong materiyaning mahsulidir. U Levkipplning qarashlarini rivojlantirib, dunyoning asosi atomlar va bo'shliqlaridan iborat, narsa va hodisalarning rang-barangligi atomlar birikish usullarining turli-tumanligidan kelib chiqadi, deb hisoblaydi.

Demokrit materiya va harakatning ajralmasligi, harakat, fazoning ham huddi materiya singari obyektiv mavjud ekanligini tan olish lozim deydi. Lekin u harakatni atomlarning bo'shliqdagi oddiy o'rin alma-



shishi deb qaraydi. Harakatning o'zini esa atomlarning fazoda to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladi deb hisoblaydi. Demokrit atomistik va determinizm tamoyilini o'zining kosmogonik nazariyasiga ham tatbiq etadi. Atomlar o'zlarining fazodagi tartibsiz harakatlari jarayonida bir tomondan, o'zaro to'qnashib, bir-birini parchalab boradi, ikkinchi tomondan, bir-biriga qo'shilib, tuproq, suv, havo, olov va ulardan quyun shaklida harakatlaniruvchi ko'p dunyolarni vujudga keltiradi.

Demokrit tabiatdagi hamrna vokea, hodisalarning doimo o'zgarib turishini zaruriyat hisoblab, tabiatdagi tasodifni tan olmas edi. Uning fikricha, narsa va hodisalar o'rtasidagi sababiyatni bilmaslik tasodifini tan olishga olib keladi. Sababiy bog'lanishlarni tekshirishni u fanlarning asosiy vazifasi deb hisoblar edi.

Demokrit ong va ruh ham atomdan iborat deb hisoblagan. Demokrit olamni bilish mumkinligini ta'kidlab, uni qorong'i va haqiqiy bilimlardan iborat deydi. U bilish jarayonida hissiyot va tafakkurning rolini ham ko'rsatib o'tadi.

Hissiy bilish orqali biz narsalarning (atomlarining qo'shilishi tufayli mavjud bo'lgan) sifat va xususiyatlarini bilsak, aqliy bilish orqali sezgilarimiz bilan bevosita sezib bo'lmaydigan hodisalarni bila olamiz. Aql yordami bilan atomlar(narsalar)ning mohiyati belgilanadi. Demokrit falsafa tarixida birinchi bo'lib bilish jarayoni in'ikos jarayoni ekanligi haqida fikmi asoslaydi. Uningcha, kishilarning besh turli sezgilari va tushunchalar narsalarning obrazidir.

Demokrit qadimgi Yunonistonning qomusiy olimi edi. U fanning turli sohaları: falsafa, fizika, matematika, biologiya, tibbiyot, pedagogika, ruhshunoslik, filologiya, etika, san'at, siyosat, mantiq, ijtimoiy hayot masalalariga doir fikrlarni bayon etgan edi. Demokritning merosida insonni har tomonlama kamol toptirish, unda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ulari shakllantirish, odob-axloq, e'tiqod, vijdon va boshqa olijanobinsoniy fazilatlarini shakllantirishga oid qimmatbaho fikrlar mavjuddir. Ular hozirgi kunda harn o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Qadimgi yunon faylasuflarining bir qismi diniy ta'limotga zid bo'lgan fikrlarni ilgari surgan bo'lsalar, ikkinchisi esa uni qo'llab-quvvatlashadi. Quldorchilik jamiyati davri vakili *Aflotun* (mil. avv. 427-347-yy.) edi. U o'z asarida yunon faylasuflarining, ayniqsa, Geraklit va Demokrit fikrlarini qattiq tanqid qiladi. Aflotun olamda «g'oyalar dunyosi» birlamchi bo'lib, moddiy dunyo esa ikkilamchi, «g'oya dunyosi»ning mahsuli, soyasidir, deb hisoblaydi. Uningcha, «g'oyalar

dunyosi» fazo va vaqtga bog'liq bo'lmaydi, u abadiy, harakatsiz va o'zgarmasdir, u «haqiqiy dunyo»dir.

Aflotunning bilish nazariyasiga ko'ra, bilish obyekti «g'oyalar dunyosi»dir, moddiy dunyo va undagi narsa va hodisalar hissiy bilishning manbaidir. Hissiy bilish haqiqat emas, chunki u orqali kishilar g'oyani emas, balki moddiy buyumlarni sezadilar, ular to'g'risidagi tasavvurga ega bo'ladilar. Moddiy buyumlarning asosi va mohiyati bo'lgan «g'oyalar dunyosi»ni faqat sof tafakkur yordamida bilish mumkin.

Aflotun Yunonistondagi quldorlar aristokratiyasi davlatini eng adolatli va ideal deb hisobladi. U jamiyatni uch tabaqaga bo'ladi. 1. Davlat arboblari – faylasuflar; 2. Soqchilar (harbiylar); 3. Dehqonlar va hunarmandlar; Uning fikricha, davlat faylasuf-aristokratlar qo'lida bo'lishi lozim, harbiylar esa aristokratiya davlatini mustahkamlash uchun xizmat qilishlari kerak, davlat zurlik va zulm majmuidan iborat bo'lib, quldor uchun zarur sharoitni yaratishdan iborat.

O'z navbatida Aflotunning g'oya haqidagi ta'limoti qadimgi dunyoning eng buyuk mutafakkiri *Arastu* (mil. avv. 384–322-yy.) tomonidan tanqid ostiga olinadi. Uning ko'rsatishicha, moddiy olam abadiy va obyektiv xususiyatga ega bo'lib, u hech qanday «g'oya»larga muhtoj emas. Tabiat moddiy asosga ega bo'lgan narsa va hodisalar yig'indisidan iborat, u har doim harakat va o'zgarishdadir. Arastu ham Demokrit singari moddiy dunyoni, tabiatni bilishning predmeti va sezgilarimizning obyektiv manbai, kishi ongidan tashqaridagi moddiy olam sezgilarni vujudga keltiradi, deb ta'kidlaydi.

Arastu o'z asarlarida hamma narsaning asosida materiya yotadi, deb moddiy dunyoning obyektiv mavjudligini e'tirof etadi. Narsalar materiya va shakldan paydo bo'ladi. Har bir narsa shakllangan materiyadir va shakl borliqning mohiyatidir. Materiyaning o'zida rivojlanishning faqat imkoniyati bor xolos, u shakllantirishga muhtojdir. Shakl tufayligina materiya imkoniyatdan voqelikka aylanadi. Haqiqiy borliq, uning fikricha, materiya va shaklning birligidir. Bular bir-biriga o'tib turadi, shaklsiz materiya yo'q. Demak, shakl va materiya tushunchalari nisbiy xarakterga ega.

Arastu fikricha, dunyo to'rt xil sabab bordir: 1. Moddiy sabab yoki materiya (masalan, uy bunyod etish uchun zarur bo'lgan qurilish materiallari); 2. Shakliy sabab yoki shakl (uy tarxi); 3. Vujudga keltiruvchi sabab (uy quruvchi binokorlik san'ati); 4. So'nggi sabab yoki maqsad (bitkazilgan bino).

Arastu qadimgi dunyodagi sodda dialektik fikrni eng yorqin ifodalangan mutafakkirlardan biri edi. Qadimgi yunon faylasuflarning hammasi olamning umumiy manzarasini to'g'ri izohlab bergan sodda materialistik hamda tug'ma stixiyali dialektik edilar. Ular orasida Arastu dialektikasi alohida ajralib turar edi.

Arastu tabiatni ongli o'zgarishda, rivojlanishda ekanligini ko'rsatadi: buni u materiyaning shaklga ega bo'lish jarayoni, imkoniyatni voqelikka aylana borishi deb tushunadi. Biroq uning ta'limotida dialektikaga zid fikrlar, qarashlar ham mavjud. Arastu materiya passiv, shaklsiz narsa, shakl esa aktiv bo'lib, narsani narsa qiluvchidir, deb hisoblaydi.

Arastu shaklning aktivligi haqidagi qarashni davom ettirib, hamma shakllarning shakli – xudoning, dunyoviy ruhning, «dastlabki turtkning» ijodiy rolini ta'kidlaydi. Bu masalada u Platonga yaqin edi.

Bilish nazariyasida Arastu Demokritning tarafdori edi. Uningcha, moddiy dunyo bilishning, sezgilarning, tajribaning asosidir. Sezgilari bizga ayrim aniq narsalar haqida ma'lumot bersa, aqlimiz umumlashtirilgan ma'lumotlar berishga qodir degan edi.

Arastu mantiq fanining barcha muhim masalalarini ishlab chiqdi. U mantiq bilish uchun zarur bo'lgan tafakkur shakllari va isbotlash to'g'risidagi fandi, deb yozgandi. Fikrlar bog'liqligi Arastu nuqtai nazaricha, mavjud obyektiv olam hodisalari bog'lanishlarining in'ikosidir.

Arastu kategoriyalar, tushunchalar, mulohaza va xulosalar to'g'risidagi ta'limotlarni kashf etdi, falsafa tarizida birinchi bo'lib kategoriyalar tizimini ishlab chiqdi. Shu bilan birga, u kategoriyalarning bir-biri bilan aloqlarligi, bir-biriga o'tishini isbotlab berdi.

Arastu qadimgi yunon faylasuflari orasidagi eng etuk olim sifatida siyosat, davlat, jamiyat hayotiga oid masalalarni o'rganib chiqdi.

Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasufi *Epikur* (mil. avv. 341–270-yy.) Demokritning atomistik nazariyasini rivojlantirdi. Demokrit atomlarning asosan shakl va miqdor jihatdan farqini ta'kidlagan bo'lsa, Epikur esa ularning hajmi va og'irligi jihatidan farqini ko'rsatadi. Epikur fikricha, atomlar doimo bo'shliqda harakat qiladi, harakat esa mangudir.

Atomlar og'irlikka ega bo'lgani sababali hamma vaqt pastga qarab to'g'ri harakat qiladi. Bundan tashqari ular o'zaro to'qnashuv oqibatida to'g'ri yo'ldan chekinib, yon tomonga ham harakat qilishi mumkin.

Epikur olam cheksiz, son-sanoqsiz dunyolardan iborat bo'lib, ularning ba'zilari biz yashayotgan dunyoga o'xshaydi. U dinning ashaddiy dushmani bo'lib, Xudo haqidagi turli fikrlarni qoralagan.

Qadimgi yunon o'z siyosiy mustaqilligini qo'ldan bergach, falsafa ilmining rivojlanishi jarayonlari Rimda kuzatila boshladi. Rimdagi ilg'or faylasuflardan *Lukretsiy Kar* (mil. avv. 95–55-yy.) Demokrit va Epikurning atomistik nazariyasini qo'llab-quvvatladi va ko'p jihatdan uni to'ldirdi.

Lukretsiyning fikricha, hamma narsa abadiy mavjud bo'lgan materiyadan paydo bo'ladi. Materiya bo'shliqda harakat qiluvchi atomlardir. U bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Lukretsiy materiyaning saqlanish qonuni haqida faraz qilgan edi. Materiyaning miqdori o'zgarmaydi, u hamma vaqt bir xildir. Hech nimadan hech nima paydo bo'la olmaydi.

Lukretsiy ong va sezgini moddiy hisoblab, jon mayda harakatchan atomlardan iborat, jon tashqi ta'sirni qabul qilib, kishi tanasiga ta'sir o'tkazadi, jon bilan tana doim birgadir deydi. Jon, ruh kishi tanasi bilan birga o'lib, yo'q bo'lib ketadi. U Aflotunning «o'lmas jon» haqidagi ta'limotini rad etadi.

Lukretsiy diniy g'oyalarning asosini tabiat qonuniyatlarini bilmaganlikda deb hisoblab, tabiat abadiy, o'z qonuniyatlari bilan rivojlanadi. Xudo haqidagi gaplar uydirmadan bo'lak narsa emas degan edi.

Lukretsiy ta'limotiga zid keluvchi g'oyalarni tanqid qilib *Plotin* (mil. avv. 270–204-yy.) Rimda o'zining falsafiy maktabini yaratadi. Plotin butun borliqning asosi va manbai deb yagona ilohiy kuch – Xudoni hisoblaydi, qolgan narsalar shu ilohiy kuchning birin-ketin oqishining (emanatsiyasining) natijasidir. Plotinning fikricha, Quyosh o'zidan nur chiqargani kabi ilohiy kuch (Xudo) ham o'zidan koinotning butun borligini chiqarib yuboradi, bunga ruh ham, materiya ham kiradi. Inson jon va tana birligidan iborat. Inson hayotining oliy maqsadi – o'z jonining ilohiy kuch (Xudo) bilan kushilishiga erishuvidir. Kishi bunga ekstaz holatida erishadi, bu holatda kishining joni, ruhi hissiy dunyodan va tanadan xolos bo'ladi.

Qadimgi yunon faylasuflarining xilma-xil fikrlari G'arbiy Yevropa va Sharq mamlakatlarining ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Masalan, Arastu falsafasi Forobiy uchun katta ma'naviy ozuq neoplatonizm islom dinidagi tasavvuf (sufizm) uchun manbalardan biri bo'lgan.

## Takrorlash uchun savollar

1. Sharqning eng qadimiy mamlakatlaridan biri Vaviloniyada dastlabki falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi haqida so'zlang.
2. Qadimgi Misrdagi falsafiy g'oyalar haqida so'zlang.
3. Hindistondagi dastlabki falsafiy fikrlar, lokayata va charvaka falsafasidagi asosiy g'oyalar nimalardan iborat?
4. Eramizdan oldingi IX–VII asrlarda Xitoydagi falsafiy ta'limotlar, daosizm, konfutsiychilik haqida fikr-mulohazalaringizni bayon eting.
5. Mintaqamizdagi dastlabki falsafiy fikrlarning misllari, rivoyatlar, To'maris va Shiroq haqidagi dostonlarda ifodalanishi haqida so'zlang.
6. Zardushtiylilik falsafasi, «Avesto» kitobida ilgari surilgan g'oyalar nimalardan iborat? Ularning tarixiy ahamiyati haqida nimalar bilasiz?
7. Falsafaning fan sifatida mil.avv. VI asrda Yunonistonda shakllanishi va unda dunyoning asosi nimalardan iborat?
8. Demokrit, Aflotun, Arastu falsafiy qarashlari haqida bayon eting.

## Tayanch tushunchalar

**Veda** – qadimgi hind xalqining muqaddas kitobi.

**Charvaka** – hindcha so'z bo'lib olamning asosini to'rt unsur (tuproq, suv, havo va olov) dan iborat deb qarovchi qadimgi falsafiy ta'limot.

**Dao** – Xitoy falsafasida «yo'l» taraqqiyot ma'nosida ishlatiladigan tushuncha.

**Konfutsiychilik** – qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ta'limot.

**Avesto** – Zardushtiylilik dinining qonun-qoidalari bayon etilgan kitob.

**Logos** – yunoncha – fikr, aql, so'z.

**Dialektika** – yunoncha bahs yuritish, muhokama qilish usuli.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. –T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Yuldashev S.A. Antik falsafa. – T., 1999.

---

---

## IV MAVZU: O'RTA OSIYODA FALSAFIY FIKRLARNING RIVOJLANISHI

### Reja:

1. O'rta Osiyoda o'rta asr davridagi falsafiy ta'limotlar.
2. Tasavvuf falsafasi.
3. XVI—XX asrlarda O'zbekiston hududidagi ijtimoiy falsafiy fikrlar.
4. Hozirgi davr O'zbekiston falsafasi.

### 1. O'rta Osiyoda O'rta asr davridagi falsafiy ta'limotlar

V–VI asrlarga kelib hukmron ruhoniylarga, zardushtiylikka qarshi qaratilgan *Mazdak* (770–529-yy.) boshlab bergan Mazdak ta'limoti shakllandi. Eronda keng tarqalgan Mazdakiylik ta'limotiga binoan, olamda bo'ladigan jarayonlar ongli va biror maqsadni ko'zlab harakat qiluvchi ezgulik, yorug'lik manbai bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong'ulik (johillik) manbai o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash «yaxshilik»ning ustidan muqarrar g'alabasi bilan tugallanadi. Mazdakizm dehqonlar, ularning huquqlarini himoya etib, tenglik, adolat o'rnatishga xizmat qildi.

Tarixdan ma'lumki, VI–VII asrlarda shimolda Turk xoqonligi vujudga kelib, u Erondagi sosoniylar bilan o'zoq, kurash olib bordi va O'rta Osiyo xalqlarini o'ziga qaratdi. Bu erda qadimgi turk tili tarqqa boshladi. VIII asrga kelib mintaqamizni arablar istilo qiladilar va ular o'zlari bilan Islom dinini olib keladilar va bosib olgan xalqlar orasida turli yo'llar bilan uni tarqata boshladilar. Arab bosqinchiligiga qarshi Abu Muslim, Muqanna, Hamza as Xorij, Rabi ibn Leylar boshchiligida qator xalq qo'zg'alonlari bo'lib o'tdi. IX asrning oxiriga kelib O'rta Osiyo mustaqillikka erishdi va bu yerda somoniylar hukmronligi shakllandi. So'ng bu hududda Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Saljukiylar, Qoraxoniylar davlatlari faollik ko'rsatadi. Buxoro, Samarqand, Marv, Ko'xna Urganch, Xiva kabi shaharlar o'z davrining madaniyat markazlari sifatida dunyoga tanildi.

IX–XV asrlarda Sharq mamlakatlari, birinchi navbatda, O'rta Osiyo xalqlarining madaniy-ma'naviy taraqqiyotida, ijtimoiy-siyosiy,

axloqiy, diniy, falsafiy ta'limotlar rivojlanishida keskin o'zgarish, tub burilish davri bo'ladi. Bu madaniy jonlanish va yuksalish jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bordi, ma'naviy hayotni qamrab oldi. Ijtimoiy taraqqiyotning ana shu davrlarda Markaziy Osiyo xalqlari dunyo madaniyati taraqqiyotining yirik va markaziy o'choqlaridan biriga aylanishi xuddi shu davrga to'g'ri keladi.

Shu davrlarda O'rta Osiyo xalqlari safidan o'zining aql-idroki va tafakkuri, qomusiyligi bilan insoniyatni lol qoldirgan fan va madaniyatning so'nmas yulduzlari, jahonga mashhur bo'lgan matematik, astronom, kimyoshunos, mineorolog va tibbiyotchilar, shoir, yozuvchi va san'atshunoslar, faylasuf va tarixchi olimlar, adabiyotchi va tilshunoslar, g'azal mulkining sultonlari, «muallimi soniy» va «Shayxur rais»lar saf-saf bo'lib etishdilar.

Buyuk tafakkur egalarining butun bir avlodi etishib chiqqan, olam uzra dovrug' taratgan, jahonni ilm, ma'rifat va ma'naviyat nuri bilan yoritgan davr, adolat talabiga ko'ra, Sharq tarixida oltin asr yoki uyg'onishdavri deb ataladi.

Uyg'onish davri mutafakkirlari ayni vaqtda ham faylasuf, musiqashunos, mantiqshunos, jamiyatshunos va tarixchi ham shoir, adabiyotchi, matematik, xullas, ilmning hamma sohasidan xabardorliklari, ijodning bir necha sohalarida o'zlarining ahamiyatli fikrlarini bildirishga muvaffaq bo'lganliklari bilan ajralib turadilar. Sharq ulug' siymolarining kishini lol qoldiradigan jihatlaridan biri ularning bir necha tillarda bema'lol so'zlashlari, o'sha tillardagi ilmiy manbalar, asarlardan foydalana olganliklaridir.

Donishmand bobolarimizning ilmiy-falsafiy ta'limotlari umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ta'limotlardir. Shunisi e'tiborga sazovorki, Sharq mutafakkirlari o'z davri dolzarb hayotining markazida bo'ldilar, xalq va Vatan manfaatini himoya qildilar. Bu ularning haqiqiy barkamol inson, otashin vatanparvar, xalqparvar va buyuk alloma ekanliklarining belgisi va bosh sababidir. Ushbu buyuk zotlar, qomusiy aql egalari yashagan va ijod qilgan davrlardai boshlab Sharq, xususan O'rta Osiyoda, ilm-fan va madaniyat, falsafa yanada rivojlana boshladi. Bu rivojlanish, to'xtovsiz takomillashib borishi bir necha yuz yillarni o'z ichiga qamrab oldi.

O'rta Osiyoning jahonga mashhur olimlaridan biri *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy* bo'lib, u taxminan 783-yilda Xorazmda tug'ilgan va IX asrning ikkinchi yarmida, aniqrog'i 850-yilda Bog'dodda vafot etgan. Xorazmiy ilmiy-ijodiy faoliyatining alohida davri arab

xalifaligining poytaxti Bog'dod shahri bilan uzviy bog'liqdir. Xorazmiy xalifa Ma'mun rahnamoligida islom Sharqning Fanlar akademiyasi – «Baytulhikma» («Donishmandlar uyi»)da ishladi. Bu ilm dargohida u ko'plab astronomik ko'zatislar olib bordi, matematik va astronomlarning katta bir ilmiy jamoasiga ustozlik qildi hamda o'zining ko'pgina shoh asarlarini yozdi. Xorazmiyning Bag'dodda yashab ijod etgan zamondoshlari orasida Ahmad Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy kabi allomalar, O'rta Osiyolik olimlar O'rta asr ilm-fan rivoji va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan edilar. «Baytulhikma»da xizmat qilgan ushbu yirik olimlar qadimda hisoblab chiqilgan er aylanasi o'z unligini tekshirish maqsadida Er meridiani bir gradusining o'z unligini o'lchashgan. Barcha tadqiqotlarni o'tkazishda Xorazmiy bevosita ishtirok etgan.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ko'p qirrali ilmiy qiziqishlari matematika, nazariy va amaliy astronomiya, geografiya, tarix va boshqa ko'plab fanlarga oiddir. Uning nomi-ni tarixda abadiy qoldirgan asarlaridan biri – «Al-jabr va al-muqobala»dir. Bu esa, G'apb va Sharq olimlariga algebra fani bo'yicha dasturi amal bo'lib xizmatqiladi. «Algoritm» va «Algebra» degan atamalar al-Xorazmiy nomi bilan borliqdir.

Allomaning algebra, arifmetika, matematika, geometriyaga oid asarlari asrlar davomida avlodlar qo'lida merosni taqsimlashda, vasiyatnomalar tuzishda, mol-mulkni bo'lib olishda, sud ishlari, savdosiq muammolarida, shuningdek, erlami o'lchashda, kanallar qazishda, bino qurishda katta xizmat qiladi.

Xorazmiy aytib o'tilgan asarlaridan tashqari «Kitob sur'at al arz» («Er sur'ati») degan risola ham yozadi. Asarda u Ptolemeining «Geografiya» nomli kitobini butunlay qayta ishlab chiqdi, Sharq mamlakatlari va xalqlari to'g'risida ko'pgina qimmatli ma'lumotlar berdi. Unda mamlakatlar, shaharlar, ularning nomlari ko'rsatilgan va bir necha izohlar berilgan, xaritalar mavjud. Bu kitobda Orol dengizining tasviri ham berilgan. Asarda bundan tashqari 637ta muhim-joylar, 209ta tog'ning geografik tafsiloti, dengizlar va okeanlar havzasining shakli, ularda joylashgan orollarning muhim koordinatalari bayon etilgan. Olimningbu kitobi Sharq mamlakatlarida geografiya fani rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

«Astronomik jadvallar», «Quyosh soati to'g'risida risola», «Hind kitobi haqida risola», «Usturlab qurish haqida kitob», «Zij» («Astronomik jadval»), «Musiqqa bo'yicha risola», «Tarix bo'yicha risola» va



boshqa ko'plab nodir asarlar ham Muso Xorazmiy qalamiga mansubdir. Ana shu asarlar nomining o'zidayoq Xorazmiyning ilmiy tafakkuri benihoya kengligi, qomusiy alloma ekanligini, nafaqat o'z davrining, balki hamma zamonlarning eng buyuk matematik va tabiatshunos olimi ekanligini ko'rsatadi.

«Muhammad Muso al-Xorazmiyning o'nlik sanoq sistemasini, – deb ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov, – algoritim va algerbra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilm-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahmiyatga ega bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko'z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o'zbek xalqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz iftixorga to'ladi»<sup>1</sup>.

Muhammad Muso al-Xorazmiy ilm-fan va madaniyat olamida nafaqat buyuk matematik va tabiatshunos olim, balki mashhur faylasuf sifatida ham ma'lum. Xorazmiy maxsus falsafiy asar yozgan bulmasada, lekin uning matematika, geometriya, astronomiya, geografiya, tarix va musiqa ilmiga oid barcha kitoblarida ilgari surilgan, ilmiy isbotlangan falsafiy fikr-mulohazalar, nazariya va ta'limotlar son-sanoqsizdir. Uning matematika va boshqa tabiatshunoslik fanlari ilmiy yutuqlariga asoslanib yozishicha, tabiiy qonuniy jarayonlar Alloh tomonidan tinimsiz o'sish, o'zgarish va rivojlanishdadir. Unda nimalar yangidan paydo bo'ladi, ma'lum vaqt mobaynida yashaydi, keyinchalik borib esa u ham eskira boshlaydi va pirovard-oqibatda o'z o'rnini boshqa narsaga qonuniy ravishda bo'shatib beradi. Eski narsa o'rnini yangi, o'layotgan narsa o'rnini o'sayotgan narsa egallashi Xorazmiy falsafiy ta'limotida qayd etilishicha, tabiiy-qonuniy jarayondir. Bu jarayon cheksiz-chegarasizdir.

Xorazmiy dunyodagi har bir narsa va hodisa mohiyatida bir-birini inkor etibgina qolmay ayni paytda bir-birini o'zaro taqozo etadigan, bir-birisiz yashay olmaydigan ikki qutb, ikki qarama-qarshi tomon mavjuddir, taraqqiyot ular o'rtasidagi ana shu birlik va kurash asosida amalga oshadi, deb ko'rsatadi va o'zining bu falsafiy ta'limotini matematika fani dalillari asosida ilmiy isbotlaydi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008, 41-bet

Xorazmiyning fikricha, dunyo to'rt unsur-tuproq, suv, havo, olovdan tashkil topgan. Dunyodagi barcha narsa va hodisalar ana shu unsurlarning birikishi, o'zaro ta'siri ostida hosil bo'ladi va yashaydi.

Xorazmiy chuqur ilmiy dalillar asosida mazmun bilan shaklni, sabab bilan oqibatni, imkoniyat bilan voqelikni, miqdor bilan sifatni, jamiyat bilan tabiatni ajratib bo'lmasligini, ular o'zaro aloqadorligini isbotlagan edi.

Muhammad Muso Xorazmiyning bilish masalasiga oid fikrlari ham muhim ahamiyatga ega. U olamni inson sezgisi va bilimining manbai deb biladi. Uning aytishicha, olamdagi narsa va hodisalar mohiyatini bilish nihoyatda murakkab, ziddiyatli jarayondir. Lekin inson bu masalada ham bitmas-tuganmas imkoniyatlarga egadir. Inson o'zining tirishqoqligi, mehnati va amaliy faoliyati, Alloh ato etgan aql-idrok, qobiliyat va iste'dod bilan, dunyoni asta-sekin bila boradi, deydi Xorazmiy.

Xorazmiy hissiy va aqliy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini, mohiyatini, o'zaro aloqadorligini alohida ta'kidlaydi. Uning aytishicha, aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmaydi. Hissiy bilish borliqning tashqi tomonlari haqida bilim berish manbaidir. Aqliy bilish yordamida esa inson narsa va hodisalarning murakkab ichki tuzili-shini, mohiyatini, qonuniyatini bilib oladi. Aqliy bilish inson bilish rivojining yuqori bosqichi dir. Bunda biz Xorazmiyning aqliy bilish masalalariga alohida e'tibor berganligini ko'rib turibmiz. Bilishda inson aqli va amaliyotining ahamiyatini ko'rsatganligi buyuk vatan-doshimizning ajoyib xizmatlaridan bo'lib hisoblanadi.

Muso al-Xorazmiy dunyogarashida ijtimoiy-falsafiy masalalar xususan, jamiyat va uning istiqboli haqidagi fikr-mulohazalari alohida o'rin egallaydi. Jamiyat taraqqiyotida ilm-fan va madaniyatning, odob-axloqning, islom dini, shariat qonunlarining katta o'rin tutishi haqida alloma tomonidan bayon etilgan fikrlar hozirgi davr uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlarning aql-idroki, imon-e'tiqodini mustahkamlash, ruhan poklash va kishilar o'rtasidagi insoniy munosabatlarni mustahkamlashda fan va madaniyatning, diniy qadriyatlarining muhimligi xususidagi fikrlari tahsinga sazovordir.

Buyuk vatandoshimiz Muhammad Muso Xorazmiyning nodir asarlari, yaratgan ta'limoti, ijtimoiy-falsafiy qarashlari hozirgi avlod uchun bitmas-tuganmas hazina, mustaqilligimiz uchun xizmat qiladigan bebaho ma'naviy boylikdir. Jahon ilm ahlining 1983-yili Muhammad

Muso Xorazmiyning 1200 yilligini zo'r tantana bilan nishonlaganligi buyuk vatandoshimizga ko'rsatilgan cheksiz hurmat va ehtiromdir.

*Abu Nasr Forobiy* (870–950-yy.) nafaqat O'rta Osiyo va Sharqning, balki butun dunyoning asrlar osha e'tirof etilgan va benihoya katta hurmatiga sazovor bo'lib kelayotgan buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi, mashhur faylasuflaridan sanaladi.

O'rta asr fan va madaniyatiga bebaho hissa qo'shgan, Sharq Uyg'onish davrining donishmandi hisoblangan Forobiy milodiy 870-yilda Aris daryosi Sirdaryoga quyiladigan Forob degan joyda tug'ilgan. U dastlabki bilimni Forobda olgan. Uning ilm-fanga bo'lgan kuchli qiziqishi va intilishiga o'zi tug'ilib o'sgan yurtda olgan bilim kifoya qilmagan. Toshkentda, Samarkand va Buxoroda, O'rta Osiyoning boshqa o'lkalarida olgan tahsili uning ilm-ma'rifatga bo'lgan tashnalgini qondira olmagan. Ilmga juda katta hayotiy ehtiyoj sezgan Forobiy jahon ilm markazlaridan biri – Bog'dodda qo'nim topgan. Bu erda u tinmay o'qib-o'rganadi, arab tili va adabiyotini mukammal bilib oladi. Keyinchalik Forobiy Shom, Misro'lkalariga borib, o'z ustida tinmay ishlab, mudarrislik qilib, yirik faylasuf sifatida taniladi, shogirdlar orttiradi.

Forobiy yirik faylasuf, tilshunos, mantiqshunos, riyozat-chigina emas, shu bilan birga jamiyatshunos, filolog, tibbiyotchi, ruhshunos, musiqa ilmining nazariyotchisi va amaliyotchisi hamdir. Forobiy «Falsafani o'rganishda nimalarni bilish kerak», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Mantiqqa kirish», «She'r san'ati», «Shoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida», «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida», «Musiqqa haqida so'z», «Ohanglar tasnifi haqida kitob», «Masalalar bulog'i», «Aql to'g'risida», «Inson a'zolari haqida risola», «Fozil odamlar shahri», «Davlat haqida» kabi va boshqa 360 dan ortiq xilmaxil qimmatli asarlar yozdi.

Forobiy shug'ullangan har bir soha, u yozgan har bir asar o'rta asr, yangi davr va hozirgi zamon olimlari tahsini va e'tiboriga sazovor bo'lgan. Forobiy yozgan asarlar o'rta asr ilmining qariyb barcha sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Uning asarlarini shuning uchun ham o'z davrining ko'zgusi, qomusi deyish mumkin.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari va tabiatshunoslari yirik asarlarining umumiy mazmuni va yo'nalishini ilmiy tahlil qilib maxsus asarlar yaratdi. Arastuning «Metafizika», «Ritorika», «Poetika», «Kategoriyalar», «Analitika», «Etika» va boshqa ko'plab asarlarni izohlab bergan.

Forobiy O'rtta asr falsafasi rivojiga katta hissa qo'shdi, birinchi bo'lib o'z davridagi ilmlarni tasnif qildi, ya'ni turlarga bo'ldi. O'zining ona tiliturk tilidan tashqari fors, yunon, suriya, arab va boshqatillarni mukammal bilgan. Sharqning mashhur tarixchi olimi Ibn Xallikon (1211–1282-yy.) fikricha, til bilishda hech kim Forobiy erishgan darajaga erisha olmagan. Uning so'zi bilan aytganda, Forobiy etmishdan ortiq til bilgan. Forobiy o'z bilimi, ma'rifati, fikr doirasining kengligi, qomusiyliigi, jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi bilan shu darajada katta shuhratga erishdiki, oqibatda uni hayotligidanoq, Arastudan keyingi yirik mutafakkir, «Al-Muallim as-Soniy» – «Ikkinchi muallim», «Sharq Arastusi» nomlari bilan ulug'langan.

Uyg'onish davrining mashhur faylasufi Forobiy xudoni «birinchi sabab», «birinchi mohiyat», deb izohlaydi. Forobiy barcha mavjudotni, olamni, birinchi sabab – xudodan keltirib chiqaradi. Uning ta'kidlashicha, dunyoning moddiy asosi tuproq, suv, havo, olov va osmondan iborat bo'lib, Forobiy ta'limoticha, osmon jismlari ham, erdagi jismlar ham ana shu unsurlarning birikuvidan vujudga keladi. Forobiy, hamma narsaning umumiy jinsi olamdir, olamdan tashqari hech nima yo'qdir, deydi.

Forobiy olamdagi har bir narsa materiya va shakldan iboratligiga, materiya va shakl biri ikkinchisiga sabab bo'lishi mumkin emasligi, aksincha, har ikkalasi o'zaro birlikda mavjudligi xususida ham o'z fikrini bayon etadi. Allomaning uqtirishicha, harakat materiyaning obyektiv xususiyati, moddiy olamdagi ziddiyat esa, harakatning manbaidir, olamdagi narsa va hodisalar to'xtovsiz harakat va o'zgarishda. Harakat, o'sish-o'zgarishining sababi esa boshlang'ich moddiy unsurlarning turlicha qo'shilishidadir.

Forobiyning bilish haqidagi fikrlari ham e'tiborga loyiq bilish masalasiga u inson mohiyatini tushuntirib berishning tarkibi sifatida qaraydi. Uningcha, inson taraqqiyot mahsuli bo'lib, u hayvonot olamidani farq qiladi, inson – bilish subyektiv, tabiat esa uning obyektivi deb biladi. Tabiatning odamdan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda mavjudligiga Forobiy shubha qimaydi. Obyekt subyektga qadar mavjud bo'ladi. Seziluvchi narsa sezgilarga qadar mavjud bo'lgani kabi bilinuvchi narsa bilishga qadar mavjuddir, deydi. «Ilm va san'atning fazilatleri» risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilishning bilmaslikdan bilishga, sababiyat bilishdan oqibatni bilishga qarab borishini ta'kidlaydi.

Forobiy bilishda ikki bosqichni – hissiy va aqliy bilishni farqlaydi: hissiy bilishga borliqning tashqi hossalari haqida bilim berish manbai deb qaraydi. Shu bilan birga, u aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kela olmasligini uqtiradi.

Forobiy tomonidan ta'kidlanganidek, moddiy olam inson, uning sezgisi, aqldan oldin mavjud bo'lgan. Seziluvchi narsa, Forobiy fikricha, sezgilarga qadar mavjud bo'lganidek, bilinuvchi narsa ham unga oid bo'lgan bilimga qadar mavjuddir. Inson o'zini qurshab turgan moddiy olamni, materiyani sezgi a'zolari, aql-idroki orqali bila boradi. Inson va uning aqli moddiy olam rivojlanishining oliy mahsulidir.

Forobiy asarlarida insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolari hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlaydi, bu quvvatlardan birortasi ham materiyadan ajralgan holda yashay olmaydi, degan g'oya ilgari surilgan.

Forobiy e'tiqodicha, narsalar bizdan, hislatlarimizdan tashqarida turib bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etadi, ta'sir etadigan narsalar esa son-sonoqsizdir. Inson o'zining aqlini, xayolini ishga soladi va shular vositasida bilmagan narsasini bilib oladi, ularga asoslanib bilish manbai bo'lgan olam va uning mohiyati haqida chuqurroq, atrofliroq bilim va ma'lumotga ega bo'ladi.

Forobiy bilishda inson aqlining roliga katta baho bergan. Inson aql va tafakkur yordamida tabiatni, borliqni, materiyani, ijtimoiy hodisa va jarayonlar mohiyatini, ma'nosini biladi, deb hisoblagan.

Forobiy ijtimoiy hayot, jamiyat masalasida ham muhim falsafiy fikrlarni o'rta tashlagan. U o'zining «Fozil odamlar shahri» kitobida har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi, deydi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi.

Forobiy insonlarni o'zaro hamkorlikka chaqiradi, dunyoda yagona bir butun inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. «Baxt-saodatga erishuv haqida» risolasida kamolotga bir kishining yolg'iz o'zi (birovning yoki ko'pchilikning yordamisiz) erishuvi mumkin emas. «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, – deydi Forobiy, – u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli

yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi»<sup>1</sup>.

Forobiy davlatni har tomonlama etuk, o'zida eng yaxshi insoniy fazilatlarini jo qilgan kishilar yordamida idora etish zarurligini qayd etadi. Shuningdek, u har tomonlama etuk aholini ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi hayolotini olg'a suradi. «Fozil odamlar shahri» kitobida Forobiy davlatni boshqaruvchi Allohdan boshqa hech kimga buysunmasligi kerak, u tabiatan un ikkita hislat-fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur, deydi va ularni birma-bir sanab ko'rsatadi.

Forobiyning «Fozil odamlar shahri» kitobidan keltiril-gan yuqoridagi dono fikrlar hozirgi mustaqillik sharoitida yashab faoliyat ko'rsatayotgan shahar, tuman, viloyat rahbarlariga, olimlariga, ziyolilariga, kattayu-kichik barcha kishiga bevosita taaluqlidir. Forobiyning ilmiy-falsafiy ta'limoti insoniyatning mislsiz ma'naviy boyligi va madaniy-ma'naviy kamoloti yo'lidagi dasturi-amalidir.

Insoniyat *Abu Ali ibn Sinoni* (980–1037-yy.) jahon fani va madaniyatining yirik arboblardan biri sifatida biladi va e'zozlaydi.

Buyuk alloma bor-yo'g'i ellik etti yil umr ko'rdi, bu umrdan o'n sakkiz yili ilm tahsiliga sarf bo'ldi. Umrning ko'p vaqti zindonda, talon-taroj bo'lish va o'lim xavfi ostida o'tdi. Ammo shu yillar davomida benihoya ko'p ilmiy ishlar yozdi. Ibn Sinoning to'rt yuzdan ortiq asarlari ilm-fanning barcha sohalariga taluqlidir. Shundan 242 tasi bizga etib kelgan. Alloma asarlaridan 80 tasi falsafa, ilohiyot, tasavvufga, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 tasi esa ruhshunoslikka bag'ishlangan.

Ibn Sino o'z asarlari bilan O'rta Osiyo xalqlari madaniyatini dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqdi. Shuning uchun ham uni «Shayxur-raisi» – «Olim boshlig'i» deb atalishi bejiz emas. Olimning asosiy safiy asari «Kitob at shifo» («Davolash kitobi»), «Donishnoma», «Najot», «Kitob ul insof» («Adolat kitobi»), «Kitob al-qonun fit tib», («Tib qonunlari») kitobidan iborat.

Ibn Sinoning «Donishnoma» nomli falsafiy kitobi besh xil ilmni – mantiq, tibbiyot, ilmi hay'at (astronomiya), musiqa, ilohiyotni o'z ichiga oladi. Ibn Sino o'tmishdoshlari va zamondoshlari singari xudoni e'tirof etadi, uni borliqning birinchi sababi va manbai deb tushunadi.

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 186-bet.

Ibn Sinoning aytishicha, falsafa borliq haqidagi fandır. Borliq esa abadiydir, u shaklini o'zgartirish, ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tishi mumkin, lekin uning o'zi, materiya yo'qolmaydi. Materiya doimo vujudga kelishi mumkin bo'lgan narsalardan oldin mavjud bo'lib, bu narsalar ularni tashkil etuvchi materiyaga muhtojdir deb ko'rsatadi.

Ibn Sino jismlar to'rt unsuridan tashkil topgan, deydi. Bu to'rt unsur – havo, suv, olov, tuproq – o'zaro bog'liq, bir-biriga ta'sir etadi. Shundan u yoki bu narsa paydo bo'ladi yoki yo'qoladi. Lekin ularning asosi – to'rt unsur o'zgarmaydi, yo'qolib ketmaydi.

Ibn Sino to'rt unsurdan ikkitasi engil va ikkitasi og'ir, deydi. Engillari olov va havodan iborat bo'lsa, og'ir-suv va er – tuproqdir. Er oddiy jism bo'lib, uning tabiiy o'rni hamma jismlarning o'rtasidir. Erning tabiati sovuq va quruqdir. Suv oddiy bir jism bo'lib, tabiiy o'rni bilan, er va havo o'z tabiiy o'rinlarida, bo'lganlarida erni o'raydi va havoga o'ralib turadi. Suv sovuq va ho'ldir. Suv tashqi ta'sirlar tufayli zarralanib tarqalishi, birikishi, turli shakllarga kira olishi mumkin. Oddiy bir jism bo'lgan havo, – olimning ta'kidlashicha, tabiatga ko'ra issiq va ho'ldir. Uning o'rni suvning usti, olovning tagidir.

Ibn Sino hamma narsaning mohiyatini materiya tashkil etadi, materiya turli-tuman shakllarda namoyon bo'ladi, degan falsafiy qarashni rivojlantiradi. Jism materiyasiz bo'lmaganidek, materiya ham shaksiz bo'lmaydi. Demak, jism va uning shakli bir-biridan ajralmas bo'lganidek, materiya va shakl ham o'zaro ajralmasdir. Materiya harakat, fazo, zamon bilan bog'liqdir.

«Har bir narsani bilish, – deydi alloma, – u narsalarning sabablari bo'lsa, shu sabablarni bilish orqali hosil bo'ladi va tugallanadi. Shuning uchun tibbiyotda sog'liq va kasallikning sabablarini bilish kerak bo'ladi. Sog'liq, kasallik va ularning sabablari goho ochiq, goho maxfiy bo'lib, unga his bilan emas, balki belgilarga asoslanib fikr yuritish bilan etishiladi»<sup>1</sup>.

Ibn Sino inson bilimlari olamni bilish asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi, deydi. Shu bilan birga, u hissiy bilish inson bilimi rivojlanishining dastlabki bosqichi bo'lib unda narsalarning sirtqi, tashqi tomonlari aniqlashini ta'kidlagandi. Narsalarning ichki tomonlarini, mohiyatini bilib olishda inson aqli va tafakkuriga alohida ahamiyat berdi. Uning ta'limoticha, aql-faol ijodiy kuch va bilish qurolidir. U, aql ikki turlidir – o'zi bilan birinchi sabab orasida hech qanday vosita

---

<sup>1</sup> Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-Kitob. – T. «Fan», 1992, 12-bet.

bo'lmagan aql va o'zi bilan birinchi sabab orasida biror vosita bo'lgan aql, deb yozgan edi.

Abu Ali ibn Sino inson aqlining har tomonlama rivojlanishiga, tabiat sirlari va haqiqatni bilish mumkinligiga qattiq ishongan edi. Shuning uchun ham olim odamlarni bir-biri bilan do'st-inoq bo'lib yashashga chaqiradi. Odamlar sofdil, samimiy do'st bo'lib yashasa, bir yoqadan bosh chiqarsa har qanday mushqul ish oson bo'lishiga qattiq ishonadi. «...bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati, – deb yozadi Prezident I.A.Karimov, – dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya'ni, ma'naviy negizida rivojlan-tirishga ulkan ta'sir o'tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor».<sup>1</sup>

Buyuk mutafakkir «Qush risolasi»da, baxt o'z do'stlaring yoningda yashagan, sen har kuni ko'rishib turadigan, birga ishlaydigan va o'z vaqtini xushchaqchaq o'tkazib turadigan do'stlaring bilan birga yashaydigan joydadir, deb ta'kidlaydi.

Xorazmlik olim *Abu Rayhon Beruniy* (973–1048-yy.) nafaqat O'rta Osiyo va umuman Sharqda, balki jahon fani va madaniyati tarixida ham eng ulug' va buyuk mutafakkirlaridan hisoblanadi.

Beruniy – ilmiy merosi boy, ilmiy faoliyati ko'p qirrali qomusiy olimdir. Beruniy 160 ga yain asar yozgan. Uning asarlari astronomiya, matematika, geografiya va geodeziyaga, kartografiyaga, ob-havo masalalariga, fizika, dorishunoslik, tarix va etnografiya, falsafa, din, ritorika va musiqa, adabiyotga, ya'ni ilmning deyarli barcha sohalariga bag' ishlangan. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mineralogiya», «Geodeziya», «Qonuni Mas'udiy» kabi yirik asarlari shular jumlasidandir.

Beruniy tabiat, unda cheksiz ravishda ro'y berib turadigan tabiiy hodisalar, jarayonlar xususida muhim ilmiy-falsafiy g'oyalarni ilgari suradi. Olamda bo'lib turadigan o'zgarishlar, ya'ni tuzilish va buzilishlarning, paydo bo'lishi va yo'qolishlarning o'ziga xos sabablari borligi haqida tabiiy-ilmiy va falsafiy mulohazalarni maydonga tashlaydi. Tabiiy jarayonlarda bo'ladigan imkoniyat va voqelik, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat, shuningdek, irsiyat va o'zgaruvchanlik masalalariga katta e'tibor beradi. Odamlarning rang, sur'at, fe'l-atvori va axloqda turlicha bo'lishlarining asosiy sababi, olimning ta'kidlashicha, faqat nasb-nasablarining turlichaligida emas, balki tabiiy-iqlimiy muhitlarning – tuproq, suv, havo va joylarning turlichaligi hamdir.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008, 41-bet



Borliqning abadiyligi, uni doirniy ravishda o'zgarib turishi haqida ham Beruniy o'z fikrini mukammal bayon etadi. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida, «Olam azaliy... falak cheksiz bo'shliqqa joylashgan», – deydi. Allohning fikricha, er, tabiat azaldan hozirgi holatida bo'lgan emas, bundan keyin ham shunday holatda qolmaydi. Uzoq yillar mobaynida, tadrijiy o'zgarishlar tufayli erimizning tashqi qiyofasi, hayvonot dunyosi, nabototi, ob-havosi, iqlimi bir necha bor o'zgaradi, daryolarning oqish yo'llari, oldingidan boshqacha bo'lib qoldi, quruqlikda bir vaqtlar bo'lmagan ko'llar, dengizlar hosil bo'ldi, ba'zilari esa yo'q bo'lib ketdi, tog'lar emirildi. Ana shu tabiiy sabablar tufayli o'sha joylardagi sharaitlar o'zgarib ketdi.

Beruniy erdagi iqlimning, mavsumlarning o'zgarib turishi Quyoshning harakatiga bog'liq ekanligiga ham e'tibor bergan. «Astronomiya kaliti» asarida Beruniy Erning aylanmasligi haqidagi eskicha tasavvurlarga shubha qilib, Er aylanadi, uning harakati qonuniy ravishda va astronomik hodisalarga muvofiqdir, deydi.

Mutafakkirning «Qadimdagi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida nur va zamon, uning tezligi, nur harakati va tovush harakati, nur va issiqlik, nur va qorong'ulik, Oy nuri va Quyosh nuri singari masalalar ham bayon etilgan.

Beruniy materiya doimo o'zgarib, harakat qilib, yangilanib, turli shaklga kirib turishi, moddiy narsalar va ularning harakati abadiy ekanligini alohida qayd qiladi. Uning fikricha, olamda narsalar va hodisalar doimo rivojlanib va o'zgarib turadi.

Beruniy koinotida Erdan, bizning sayyoramizdan tashqari yana boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risidagi hamda harakat ziddiyatga asoslanishi haqidagi ilmiy farazlarini ham ilgari suradi. Uningcha, tabiatda ma'lum qonuniyat bor, tabiat hodisalarini o'sha qonuniyatlarga, tabiatning o'ziga asoslanib izohlash, tushunish kerak.

Buyuk mutafakkirning dunyoni bilish mumkinligini, uning o'ziga xos xususiyatlari, tabiatni bilishning tajriba usullari haqidagi falsafiy ta'limoti ham juda katta ilmiy-amaliy ahamiyatiga ega.

Beruniy ta'limotiga ko'ra, tabiatni bilish jarayoni sezgilaridan boshlanib tafakkurga ko'tariladi; ma'lum narsalardan noma'lum narsalar va hodisalarini bilishga tomon rivojlanib boradi. Bilish jarayonida hissiy bilish – sezgi, idrok, xotira kabilarga Beruniy katta e'tibor beradi va ularsiz tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Bilish jarayonida kuzatish, taqqoslash muhim ahamiyat kasb etishini, bu masalada inson xotirasining ahamiyati kattaligini Beruniy bir necha bor qayd etgan. Uning ta'kidlashicha, xotirasi yaxshi odam hamma narsalarni yaxshiroq, tezroq va oson eslab qoladi.

Beruniy tarixiy hodisa va jarayonlarni bilishda inson yolg'on-yashiklarga, noto'g'ri ma'lumotlarga, yuzaki xabarlariga asoslanmasligi, mas'alalarni har taraflama, mukammal qilish, o'rganish zarurligini aytib o'tgan. «Hindiston» nomli asarining muqaddimasida bu haqida quyidagilarni ta'kidlagan: «Xabar ko'z bilan ko'rgandek bo'lmaydi. degan kishining so'zi juda to'g'ridir. Chunki ko'rish ko'ringan narsaning o'zi bor paytda va o'z joyida turganida qarovchi ko'zining uni uchratishdan iboratdir. Xabarga yolg'on-yashiriqlar qo'shilmaganda, u ko'rishga nisbatan ortiqroq o'rinda turgan bo'lar edi. Chunki ko'rish va qarash vaqti narsa bor vaqtning bir bo'lagi bilan cheklanadi... YOzish xabar turlarining biri bo'lib, uni boshqa turlardan ko'ra sharafliroq sanash mumkin, qalamning abadiy izlari bo'lmaganda, xalqlarning xabarlarini qanday bilardik»<sup>1</sup>.

Beruniyning jamiyat, uning istiqboli, kelajak sari rivojlanib borishida mehnatning, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning, inson omillarining roli va ahamiyati borasida bildirgan fikr-mulohazalari ham bebahodir. Faylasuf olim inson o'zidan boshqalarning ham baxt-saodatini o'ylash zarurligi haqida gapirib «Mineralogiya» asarida bunday degan: «Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat. Shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi. Inson o'z xohishiga mehnat bilan erishadi» .

Beruniy jamiyat taraqqiyotini fan taraqqiyotida ko'radi, ilm diniy va hududiy chegaralarga qaramay inson va insoniyatga, mamlakat xalqlariga xizmat qilishi kerak. deb hisoblaydi. «Mening butun fikriyodim, qalbim, bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan. chunki men bilim orttirish izzatidan bahramand bo'ldim, buni men o'zim uchun katta baxt deb hisoblayman», – deb yozgan edi olim.

XIV-XV asrlarda O'rta Osiyoda yuzaga kelgan Uyg'onish davri soxibqiron *Amir Temurning* (1336–1405-yy.) hayoti va faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritish, feodal tarqoqlikka barham berish, markazlashgan davlat tuzishdagi xizmatlari O'rta Osiyo xalqlari tarixidagi dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan voqeadir.

<sup>1</sup> Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. – T.: «Fan», 1965, 25-bet.

Amir Temur katta imperiya barpo etdi. U davlatni mustahkamlashda savdogarlarga, hunarmandlarga, shayxlarga tayandi, ilm-fan, adabiyot, san'at taraqqiyoti uchun qulay sharoitlar yaratdi, xorijiy mamlakatlardan olimu fuzalolarni, ilohiyotchilarni, san'at namoyondalarini Samarqandga olib keldi. Natijada me'morchilik, rassomchilik, naqqoshlik madaniyat, ilm-fan taraqqiyoti yuksak chuqqilarga ko'tarildi.

Amir Temurning hayoti, faoliyati uning «Temur tuzuklari»<sup>1</sup> nomli asarida batafsil yoritib berilgan. Temuriylar sulolasidan nomi Sharq, musulmon olamidagina emas, G'arbdagi xristian dunyosida ham bir necha asrlar mobaynida yod etilib va e'zozlanib kelinayotgan buyuk zotlardan biri sohibqiron Amir Temurning suyukli nabirasi, Shohruh Mirzoning o'g'li – Muhammad Tarag'ay *Mirzo Ulug'bekdir* (1394–1449-yy.).

Hazrat Alisher Navoiy ta'birlari bilan aytadigan bo'lsak, Amir Temur naslidan chiqqan Ulug'bekdek sultonni olam hali ko'rgan emas.

Jahonda Ulug'bek nomi bilan shuhrat qozongan Muhammad Tarag'ay 1394-yil 22-martda tug'ildi. Bobosi Amir Temurning katta xotini Saroymulk-Bibixonim tarbiyasini olib ulug'aydi. Amir Temur unga alohida e'tibor bilan qaragan. Saroyda bo'ladigan maslahatlar, olimlar bilan bo'ladigan uchrashuvlar va suhbatlarda, chet ellardan kelganlarni qabul qilish, shuningdek, harbiy mashq va yurishlarda Ulug'bek ishtirok etgan. Amir Temur o'z nabirasi Ulug'bekni qilichboz sarkarda emas, balki buyuk olim bo'lib etishishini orzu qilgan va shu yo'lda unga rahnamolik qilgan.

Mirzo Ulug'bek yoshlik paytlaridanoq qaerda bo'lmasin, olimlar, shoirlar, san'atkorlar, diniy ulamolar, shayxlar, dunyoga taniqli allomalar davrasida bo'lgan, ilmiy bahslardan ma'naviy baxra olgan, ilhomlangan, ulardan ko'p narsa o'rgangan, asta-sekin ko'zi pishib, aqli teranlashib, fikran boyib, dunyoqarashi kengayib va chuqurlashib borgan.

O'ta murakkab, alg'ov-dalg'ovli va ziddiyatli bir sharoitda yashagan va shakllangan. Ulug'bek mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotini boshqarish bilan bir qatorda, ilmiy ishlar bilan ham shug'ullandi, olimlarga rahnamolik qildi, o'z ustida tinimsiz ishlab, o'tmish ilmiy bilim hazinalarini tinmay o'rgandi, mutolaa qildi, ilmiy-falsafiy tafakkurni muttasil kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Ulug'bek Ahmad Farg'oniy, Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn

<sup>1</sup> Temur tuzuklari. – T.: «Cho'lpon», 1991.

Sino, Abu Rayhon Beruniy singari allomalarining falsafa, mantiq, tarix, matematika, astronomiya, tabiatshunoslik va fiqhga oid asarlarini katta qiziqish bilan o'rgandi. Yunon olimlaridan Aflotun, Arastu, Ptolomeyning klassik asarlari bilan tanishtirdi. Ilm-fan va madaniyatining, tarix va falsafaning Ulug'bek e'tiboridan chetda qoldirgan biron-bir sohasi qolmadi.

O'tmish ajdodlardan, xususan, O'rta Osiyo qomusiy aql egalaridan qolgan madaniy meros, umuminsoniy mazmundagi ma'naviy qadriyatdir Ulug'bek ilmiy-falsafiy dunyoqarashi rivojida manba bo'lib xizmat qildi. Ulug'bekning bilimi va tafakkuri zamondoshlaridan bir necha bor o'zib ketgan edi.

Ulug'bek boshqa ko'pgina hokimlardan farqli ularoq, ham davlat arbobi, ham asil olim sifatida faoliyat ko'rsatdi, olimlikni arboblik, arboblikni olimlik bilan qo'shib olib bordi ilmu amal yo'lini o'z faoliyatida birlashtirdi.

Davlat arbobi sifatida qurilish ishlarini haddan tashqari rivojlantirdi, poytaxtni me'morchilik san'ati bilan bezadi, ulkan binolar bilan obod qildi, o'zigacha boshlangan qurilishlarni nihoyasiga etkazdi.

Ulug'bek zamonida Samarqandda «Shohizinda», «Go'ri Amir» maqbarasi singari yirik me'moriy ansambllari, Registonda katta xonaqo, bir qancha shifoxona, hammom va kutubxonalar qurildi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishi, savdo rivojlandi. Uning farmoniga binoan 1420-yilda Buxoro va Samarqandda, 1432–1438-yillarda G'ijdu-vonda madrasalar qurildi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida adabiyot, san'at, tarix, falsafa, tibbiyot, she'riyat bilan bir qatorda matematika, astronomiya singari aniq fanlar ham tez rivojlandi. O'zi allomai jahon hisoblangan Mirzo Ulug'bek fan va madaniyat taraqqiyotiga alohida ahamiyat berib, atrofiga o'z zamonasining eng buyuk olimlarini to'plab, ular bilan yaqin ilmiy muloqatda bo'lib, ilmiy yo'nalish va yo'l-yo'riqlar berib turdi.

Ulug'bek davrida «Zubdat tavorix» («Salnomalar qaymog'i») nomli ajoyib asar yozgan tarixchi Lutfulla Hofizi Abru (1431-yilda qazo qilgan), «At-tarifati Jurjoniy» nomli falsafiy risola muallifi Ali ibn Muhammad Jurjoniy (vafoti 1413-yil), mashhur tibbiyot olimi Mavlono Nafis, lirik shoirlardan Sirojiddin Bastoyi Samarqandiy (1412-yilda vafot etgan), Hayoliy Buxoriy (1449-yilda vafot etgan), 1409–1410-yillarda yozilgan «Yusuf va Zulayxo» dostoni muallifi Badaxshiy Durbek, qasida janrida ijod qilgan Sakkokiy (1465-yoki 1468-yilda

vafot etgan) va boshqa ko'plab taniqli olim va san'atkorlar yashab ijod etishgan.

Matematika va astronomiya ilmidagi g'oyat bilimli bo'lgan, «Aflotuni zamon» tahallusiga sazovor bo'lgan Salohiddin Muso Qozizoda Rumiyligi, taniqli matematik va astronom Riyosiddin Jamshid ibn Mas'ud, uning ug'li Mansur Koshiy, o'z davrining «Ptolomey» deb nom olgan Ali Qushchi, Miram Chalabiy singari yirik olimlar ham Ulug'bekning ilmiy rahbarligi ostida samarali ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ulug'bek fan va madaniyatda, ayniqsa, matematika va astronomiya ilmidagi mavjud bo'lgan imkoniyatlarni, ilmning hamma sohalarini bo'yicha o'ta qobiliyatli va iste'dodli olimlarning borligini e'tiborga olib yangi maktab – ilmiy tafakkur markazini yaratishga qaror qildi. Ana shu mafqsadda, aytib o'tilganidek, ko'plab madrasalar qurildi. Qurilgan madrasalar ichida eng muhtashami va mashhuri – Samarqand madrasasidir. 1420-yilda Madrasa ochilgan kuni birinchi bo'lib ma'ruzani Mavlono Shamsiddin Muhammad Havofiy mudarris sifatida o'qigan. Muhammad Havofiyning olimlardan 90 kishi ishtirokida o'qigan ma'ruzasini o'ta chuqur ma'noli, juda murakkab, ilm-fanning barcha sohalarini qamrab olganligi hamda muammoli tarzda bo'lganligi sababli uning nozik qirralarini Ulug'bek bilan Qozizoda Rumiyligi boshqa hech kim tushunmagan.

Zamonasining dorilfununi hisoblangan Samarqand madrasasi hamda boshqa madrasalarda Qur'on, hadis, tafsir, fiqh (din va shariat qonun-qoidalari) bilan bir qatorda riyozat, handasa (geometriya), ilmiy hay'at (astronomiya), tibbiyot, tarix, geografiya, ilmiy aro'z (poetika), arab tili va uning morfologiyasi kabi dunyoviy ilmlar ham o'qitilgan. Madrasa o'z davrining yirik ilmiy markaziga aylangan. Ulug'bek yirik olimlar va ko'pchilik shogirdlari bilan birga muntazam ilmiy ishlar olib borilgan.

Ulug'bek 1424–1428-yillarda Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhuri yonida rasadxona qurdirdi. Olimlarning e'tiroflaricha, Samarqandda barpo etilgan Ulug'bek rasadxonasiga o'zining jihozi, ilmiy yutuqlari bilan tenglasha oladigan rasadxona na undan oldin, na undan keyin ham yaratilgan emas. U aholi o'rtasida «Naqshi jahon» degan nom bilan shuhrat qozongan. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvallari tuzilgan. Ulug'bekning astronomik jadvali va uning rahbarligida bino qilingan rasadxona o'sha davr

astronomiya fani yutuqlarining cho‘qqisi bo‘lib, fan taraqqiyotiga chuqur iz qoldirdi.

Qomusiy bilim egasi bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek riyozat, falakiyot, musiqashunoslik, fiqh, tarix ilmlari sohasida ijod qilgan. Mirzo Ulug‘bek hazratlari «Bir darajaning sinusini, aniqlash haqida risola», «Risoladar ilmi musiqa», «Risolai Ulug‘bek» nomli asaridan tashqari «Tarixi arab’ usul» degan yirik tarixiy kitobning ham muallifidir. Ulug‘bek nomini butun dunyoga yoygan, unga shon-shuhrat keltirgan bebaho asar «Ziji jadidi Ko‘ragoniy»dir. Bu asar Ulug‘bekning yigirma yil davomida olib borilgan astronomik kuzatishlarining natijasi bo‘lib, uning asosiy qismi yulduzlar jadvalidan iboratdir. Ulug‘bek o‘limidan keyin ikki yuz yil davomida bu jadval o‘zining aniqligi va ilmiyligi bilan tengi yo‘q hisoblanib kelingan. Bu haqda so‘z yuritar ekanmiz, behtiyor 1996-yili Parijda YuNESKOning o‘sha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor janoblari Ulug‘bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko‘rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilinishi aniqlanganligini aytdi<sup>1</sup>.

Mirzo Ulug‘bek hayoti, amaliy faoliyati ilm-fan taraqqiyotiga bag‘ishlangan edi. U ilm yordamida kelajakni oldindan qurdi. Ulug‘bekning astronomiya va boshqa fanlar sohasidagi kashfiyotlari va ilmiy ta‘limotlari insoniyatning keyingi ilmiy tafakkuri rivojiga favqulotda muhim zamin tayyorlab berdi.

«Mirzo Ulug‘bekning, – deydi I.A.Karimov, – umumbashariy qadriyatlarga qo‘shgan hissasi beqiyos bo‘lib, u bugungi kunda ham hayotimizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda va O‘zbekistonning xalqaro obro‘sinini oshirish yo‘lida katta xizmat qilmoqda»<sup>2</sup>

Jahon madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirlar orasida fahrli o‘rin sohibi *Alisher Navoiy*(1441–1501-yy.)dir. Turkiy zabon shoir, olim va mutafakkir Alisher Navoiyning ilmiy dunyoqarashi, falsafiy ta‘limoti u yashagan va ijod etgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma‘naviy muhit va sharoitlar ta‘sirida shakllanadi va rivojlanadi. «Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, – deb yozadi I.Karimov, – u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoir(larning sultonidir)»<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma‘naviyat», 2008, 46–47-betlar.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Istiqlol va ma‘naviyat. – T.: «O‘zbekiston», 1994, 98-bet.

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma‘naviyat», 2008, 47-bet.

Navoiy butun olam, borliq, koinot xudo tomonidan yaratilganini e'tirof etadi. Butun dunyo, shu jumladan, tabiat va jamiyat ham, allomaning fikricha, Allohning namoyon bo'lishi, zuxr etilishidir. Uning bu fikri tasavvuf falsafasidagi, xudo butun mavjudotning, borliqning yaratuvchisi, qolgan hamma narsa, jumladan, inson ham uning zarralaridir, degan qoidaga to'la asoslangandir. Tasavvuf falsafasi qoidasiga ko'ra inson xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, boshqa ma'lumotlardan farqli ularoq ilohiy aqlga egadir.

Olamning yaratilishidan bosh maqsad, olimning ta'kidlashicha, insondir. Inson butun borliqning ko'rki va sharofatidir. Olam ko'rki bo'lgan inson vujudidagi tabiatdagi boshqa narsalardan o'tgan, suvdan, havodan, tuproqdan tashkil topgandir. Navoiyning ta'kidlashicha, insonda his, ruh, aql bordirki, uning bu – ruhiy hayoti o'shato'rt unsur-dan tarkib topgan jism a'zolari tomonidan harakatga keltirib turadi. Jon va ruhni tana va jismdan ajratib bo'lmaydi, ular o'zaro bir bo'lganliklari uchun tirikdir.

Alisher Navoiy insonga biologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudot tariqasida qaraydi va baho beradi. Ijtimoiy mavjudot hisoblangan insonning xulq-atvori, dunyoqarashi, odob-axloqi, ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy muhitga bog'liq. Inson ijtimoiy muhit hosili sifatida shakllanib, kamolotga erisha boradi.

Alisher Navoiy asarlari markazida turgan belgilovchi va yo'naltiruvchi bosh masala – inson, xalq, Vatan, uning gullab-yashashi, istiqboli haqidagi muammolardir. Navoiy inson va uning taqdiri, xalq va uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qiladigan kishilarni ulug'laydi.

Alisher Navoiy insonni butun koinotning markaziy siyмосi, butun mavjudotning toji, deb biladi. Butun mavjudotning toji, oliy nuqtasi bo'lgan insonni bezaydigan go'zal hislat va fazilatlar sifatida odob-axloqi, kamtar, muruvvatli, rostguy, mehnatsevar, saxiy bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Navoiy mehnatsevarlikni tekinox'rlikka qarshi qo'yadi, tekinox'rlikdan nafratlanadi.

Alisher Navoiy bilishning mazmun va mohiyati, asosiy bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari va murakkabliklari borasida ham o'zining fikrlarini bayon etgan.

Navoiy inson o'zining beshta sezgi a'zolari orqali tashqi moddiy dunyo bilan aloqa bog'laydi va u to'g'rida aniq ma'lumotga ega bo'ladi, ularni miyasida tafakkur yordamida umumlashtiradi, qayta ishlaydi, so'ngra muayyan xulosa chiqaradi, deydi.

Navoiyning asarlarida mazmun bilan shakl, ularning bir-biriga bo'lgan munosabati haqidaham qimmatbaho fikrlar bayon etilgan. Uning fikriga ko'ra mazmun hech qachon shaklsiz bo'lmaydi. Shakl ma'no uchun xizmat qiladigan, uning muvaffaqiyatini, taqdirini hal etishda yaqindan ishtirok etadigan bamisoli libosdir. Navoiy shu tariqa mazmunni bir go'zalning tanasiga, shaklni esa kiygan kiyimga, libosiga, unga beriladigan bezakka qiyoslaydi.

Alisher Navoiyning iqtisodiy omillar, mehnat va ishlab chiqarish, moddiy boyliklarni yaratish, fan va madaniyat, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy adolat, odo-b-axloq haqida bayon etgan falsafiy fikrlari ham e'tiborga sazovordir.

O'z davrining murakkab va ziddiyatli ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan yirik siymolardan biri *Zahiriddin Muhammad Bobur*dir (1483–1530-yy.). Bobur juda murakkab hayot, kurash va ijodiy faoliyat yo'lini bosib o'tdi. Tarixiy sharoit tufayli o'z yurti Movarounnahri tark etib ketishga majbur bo'ldi. Bobur va boburiylarning tarixiy harakatlari tufayli Afg'oniston va Hindistonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi, ilm-fan, adabiyot va san'at yuksaldi, ravnaq topdi.

Bobur hartomonlama keng va chuqur bilimga ega bo'lgan buyuk siymodir. Buyuk mutafakkir bobomizning asarlari, lirik she'rlari va ruboiylarida inson uchun Vatandan aziz, Vatandek muqaddas, Vatandek oliy ne'mat yo'qligi, odam uchun neki muqaddas bo'lsa, barchasi Vatan bilan bog'liqligi aytib o'tiladi.

Boburni dunyoga tanitgan muhim asari «Boburnoma»dir. U qomusiy asardir. Unda murakkab ijtimoiy-tarixiy voqealar bilan birga ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning, xalq ommasi hayotining turli sohalariga taalluqli juda qimmatli falsafiy fikr-mulohazalar, hayotiy tafsilotlar, ma'lumotlar berilgan.

IX–XV asrlarda islom ta'limoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ismoil al-Buxoriy, al-Marvaziy, ash-Shoshiy, as-Samarqandiy, Jamoliddin an-Nasafim, Imom at-Termiziy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq Gijduvoni, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror Vali singari buyuk allomalar ijod etdilar.

Bular orasida *Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy* (810–870-yy.) yoshlik davrlaridayoq aql-idrokli, o'tkir zehni va kuchli xotiraga ega bo'lib, barcha ilohiy va dunyoviy bilimlarni chuqur o'rganishga kirishganlar. U buyuk zot o'zlarining asosiy e'tiborlarini hadis ilmini zo'r ishtiyok va hafsala bilan o'rganishga qaratadilar. Ismoil Buxoriy



islom diniga oid yigirmadan ortiq asar yozganlar. Ul zoti sharifning «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonarli to'plam») deb nomlangan to'rt jilddan iborat hadislar to'plami Sharqda qariyb o'n ikki asr davomida Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyin asosiy manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda.

Sharq ilk uyg'onishdavrining Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qashg'ariy singari zabardast mutafakkirlarining «Hibatul haqoyiq», «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk» nomli mashhur adabiy-falsafiy asarlarida dunyoning turlanib-tuslanib, bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tib turishi, yangining eskirishi, vaqti kelib inkor etilishi, tabiat kabi jamiyat ham o'tmishdan kelajakka tomon yuksalib borishi singari falsafiy masalalar o'zining chuqur ilmiy ifodasini topgan. Shuningdek, ularning falsafiy ta'limotlarida man-manlik, kibru-havo, mol-dunyoga hirs qo'yish, baxillik, ochko'zlik, tekinxo'rlik, yalqovlik, qoralangan, saxovat, ijtimoiy adolat ulug'langan, saxiylik, baxillikka qarama-qarshi qo'yilgan.

O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlar taraqqiyotida beqiyos katta o'rin tutgan mutafakkirlardan biri *Mizro Abdulqodir Bedil*dir (1644–1721-yy.). O'z davrining atoqli faylasufi va shoiri hisoblangan Bedil O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va falsafasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma sifatida yuksak ehtiromga sazovor bo'ldi. Bedil adabiyot va falsafa sohasida o'zidan qimmatbaho ilmiy meros qoldirdi.

Mirzo Bedil falsafiy fikri negizini obyektiv olam mavjudligini e'tirof etish tashkil etadi. Uning ta'limotiga ko'ra tabiat abadiy, undagi narsa va hodisalar o'zaro bog'liq hamda dunyo hamisha o'zgarish, rivojlanish holatida turadi. U o'zining «Chor unsur» («To'rt unsur») kitobida tabiat abadiy haqiqatdir, ya'ni abadiy bordir, uning navlari, shakllari, ko'rinishi xilma-xilliga ham o'zidandir. Bizlar – insonlar esa bu olamga kelib-ketuvchi, yo'q bo'luvchilarmiz, deydi.

«Olam, – deb ta'kidlaydi Bedil, – sifat jihatdan ham, son jihatdan ham bir lahza bo'lsada bir holatda turmaydi. Bedil abadiy mavjud bo'lgan materiyani shakl bilan birgalikda olib qaraydi. Buni uning shakllarisiz materiya mazmuni ko'rinmaydi, materiya pardani ochmasa, shakllar ifodalanmaydi, materiya shakllar jihatida yashirindir, shakllar materiyada imkoniyat holatidir», degan so'zlardan bilib olishimiz mumkin.

Bedilning tushuntirishicha, jism – narsalar tarkibida (mavjudot birligi) degan ta'limotda chuqur ifodalangan. Unda aytilishicha, modda

bilan ruh, tan bilan jonbir-biriga bog'liq. Jismlar olamini ruhlarsiz tushunish ham to'g'ri emas. Tan quvvati tan salomatligidadir. Agar tan quvvatiga zarar etsa, ruhning quvvati ham zarar ko'radi.

Bedil inson o'z vaqtida ovqatlanib turmasa quvvatdan ketadi, mehnat qobiliyatini albatta, yo'qotadi, degan edi. U, o'z fikrini davom ettirib, tarki dunyo qilganlar, gadoylar o'zlarini azob-uqubat chekishga majbur qiladilar, o'ztanalarini murdaga aylantirib, bu dunyodagi hamma noz-ne'matlardan voz kechadilar, natijada ularning ruhlari so'nadi, bunday kishilar ko'z oldilarida parilar, jinlar gavdalanadi, natijada ular aqldan ozib, jinni bo'lib qoladilar, xuddi yog'i ozayib borib, birdan yalt etib, so'ngra o'chib qoluvchi sham singari o'ladilar, deb ogohlantirgandi.

Bedil nuqtai nazari bilan qaraganda, to'rt unsurning turli birikmalaridan noorganik dunyo paydo bo'lgan, keyin undan organik dunyo – o'simliklar, hayvonlar va odamzod vujudga kelgan.

Bedilning tushuntirishicha, jism narsalar tarkibida zarrachalar o'zgarib turadi, natijada yangi narsalar kelib chiqadi, bu hayratga soluvchi sirli hodisa zaruriyat hukmi bilan bo'ladi, bu zaruriyat narsalarning o'zida va ularning o'zaro munosabatlarida mavjuddir. Yog', pilik va olov birlashib, zaruriyat hukmi bilan yorug'lik beradi. Uzoq vaqt yashash va ovqatlanish natijasida hayvonlar qomida toshchalar to'planadi. Bu ham zaruriyat orqasidandir.

Bedil «Irfon»da hamma mavjud narsalarning ilk zamini, barcha mavjudotlar ijodkori havodir, deb yozadi. Bedil havoni tabiatning o'zidan paydo bo'lishini, o'simliklar, hayvonlar, odamzod uchun suv, havo, yorurlik zarurligini ta'kidlagan edi. Bedilning, dunyodagi har bir narsa va hodisa o'zidan boshqa narsalar bilan zaruriy aloqadorlikdadir, degan fikrlari ham muhim ahamiyatga ega.

Bedilning ta'limoticha, inson sezgi organlariga tashqi olam ta'sir etadi, inson narsalar mohiyatini aql-zakovati yordamida bilib oladi. Omma bilish manbai ekanligini u har doim ta'kidlagan. Odam his qilish organlari yordamida (bilish) tashqi dunyo ta'sirini idrok qiladi, tafakkuri bilan esa buyumlarning mohiyatini bilib oladi.

Inson atrofidagi narsa va hodisalarni, moddiy dunyoni fan yordami bilan biladi, degan g'oya Bedil falsafiy ta'limotining asosini tashkil etadi. U fanni rivojlantirish zarurligini yoqlab, umr shamlarini fan bilan yoritgan kimsaning umri boqiydir, deydi. Fanni ishlab chiqarish hayot bilan bog'lab olib borish masalasiga ham Bedil katta e'tibor bergan edi.

Amaliyot bilan, tajriba bilan bog'lab, olib borilmaydi ilm-fan, faylasuf olimning fikricha, insonningqalbi, yuragiga etib bormay-di.

Bedil odamlarning olam sir-asrorlarini bilib olishda bilim hayotida ko'makdosh bo'lishini ta'kidlab, kimki, hayot shamin ilmga yoqdi, hayoti asrlar so'nmadi, balki, degan edi. Uning so'zi bilan aytganda, ilm insoniyat gavharidir.

Mirzo Bedilning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bedil ijodiyotida insonga hurmat va ehtirom bilan qarash, uning kelajagini o'ylash ustuvorlik qiladi. O'zining asarlari va she'rlarida halol eb, halol yashashga, tamagirlik qilmaslikka da'vat etadi. U odamlarga qarata, mehnat qilib ter to'kib, rahmat buluti bo'lib tuproqqa yoqqil, deydi. Ish qilmasdan mukofot istash, uningcha uyatdir.

Bedil dangasalik, yolg'onchilik, kekkayish, ochko'zlik, makr va xiyonatni tanqid qilib, kamtarlik, saxiylik, mehnatsevarlik, odob-axloq, iymon-e'tiqodga yuksak darajada qaraydi. Bu haqida uning «yaxshilardan begona bo'lmayman, ajralmayman desang, yomon so'zlov-chilar, g'iybatchilar bilan oshnolik qilma, o'zingga to'g'ri bo'lsang, oynaning orqasiga boqma», degan falsafiy-axloqiy fikrlari hozirgi davr uchun katta ahamiyatga ega.

## 2. Tasavvuf falsafasi

Tasavvuf X–XII asrlarda O'rta Osiyoda keng tarqalgan diniy, axloqiy, falsafiy ta'limotdir. Islom ta'limotida odamlarni xushyor bo'lishga, harom yo'llardan yurmaslikka, mehr-oqibatli, nomusii, oriyatli, iymon-e'tiqodli, odob-axloqli, diyonatli, madaniyatli-ma'rifatli bo'lishga, hayotda yaxshi iz qoldirishga da'vat etadigan umumba-shariy qoidalar, g'oyalar, o'gitlar behisob. Ana shu ta'limotlar o'ziga xos tarzda tasavvuf falsafasida ham o'z ifodasini topgan.

Tasavvuf – insonning kamolotga etish, ilohiy hislatlariga yaqinlashish yo'lidir. Tasavvufning boshlanishi – ilm, o'rtasi – ish, oxiri – Allohning berganidir.

O'lkamizda tasavvufning paydo bo'lishi va yoyilishi juda ham uzoqdan boshlanadi. «Hujjatul islom» («Islomning hujjati») laqabini olgan musulmon kalom falsafasining yirik namoyondalaridan biri *Muhammad Fazzoliy* (1058–1112-yy.) o'z asarlarida tasavvufni targ'ib qilgan. Imom G'azzoliyning asarlari, mana to'qqiz asrdiki, qo'ldan tushmay, qayta-qayta o'qilmoqda. Uning diniy-falsafiy g'oyalari Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi.

Olimlarning aytishlaricha, tasavvuf oqimi Movarounnahrda XII asrning yirik olimlaridan biri Yusuf Hamadoniy maktabidan boshlangan. U Buxoro va Samarqandni dushman hujumidan himoya qilishda qatnashgan. Uning maktabidan turli tariqatlar paydo bo'lgan. Yusuf Hamadoniy o'z izdoshlarini mehnatga, kasb-hunar egallashga undagan. Uning ta'limoti kishining har bir nafasida ong, aql-idrok bo'lmog'i, bosgan har bir qadamida diqqat-e'tibor sezmog'i, o'z Vatani ishq bilan band bo'lmog'i, ya'ni uni bilmog'i, xalq bilan aloqada bo'lib, birga hayot kechirmog'i kerak, degan g'oyadan iboratdir.

Tasavvuf falsafasining negizida insonning ruhiy, ma'naviy, axloqiy kamolotiga yordam beruvchi g'oyalar ustunlik qiladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki insonning ruhini tarbiyalash, parvarish etish orqali uni go'zal xulq-atvorli, fazilatli qilib etishtirish mumkin.

Tasavvuf futuvvat bilan uzviy bog'liq. Futuvvat tasavvuf tariqatining bir bo'lagidir. Chunki, futuvvat asoslari bilan tasavvuf, tariqat g'oyalari o'zaro muvofiq, hamohangdir.

Tasavvuf singari futuvvat ham Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati» asarida aytilishicha, inson axloqini poklash, mehrushafqat, himmat va mardlik ko'rsatishni, bor narsani hech kimdan qizg'anmaslikni, qalbni kibru havo gina-gidrat, qasdg'azabdan pokiza tutishni, hamma vaqt xalq xizmatida bo'lishni, barchaga muruvvat ko'rsatish va evaziga hech narsa talab qilmaslikni targ'ib etadi. Tasavvuf ham, futuvvat ham yaxshilik yo'lida jondan kechishga tayyor, fidoiy qalb egasi bo'lishga, do'stlarga naf etkazish, do'stlarni dushman zararidan himoya qilishga da'vat etadi. Ularning muhim talabalari qatoriga yolg'on, bo'hton va behuda so'zlardan tilni tiyish, nojo'ya, nomaqbul so'zlardan, g'iybatdan quloqni berkitish, ko'rish nojoiz hisoblangan narsalardan ko'zni yumish, harom narsalardan qo'lni tortish ham kiradi. Man etilgan joylarga borish, haqorat va gunohga sabab bo'ladigan ishlarni qilish, harom ovqatlarni eyish, zinoga yo'l qo'yish, oqibatini o'ylmasdan ish tutish, boshqalardan o'zini ustun deb hisoblash, kamtarlikni unutib, manmanlik yo'liga kirib ketish tasavvuf singari futuvvatda ham qoralanadi.

Xalq va beva-bechoralarga shafqat, muruvvat ko'rsatish, kishilar gunohini kechish, qanchalik katta, ulug' ish qilgan bo'lishiga qaramasdan hech qachon g'ururlanib ketmaslik ular har ikkalasining asosiy g'oyalaridan bo'lib hisoblanadi. Iymon-e'tiqod, aql, ilm, parhez, muruvvat, shafqat, shijoat, xayr-ehson, vafo, sabr-toqat, nafsni tiyish, oliyhimmatlik, sirni berkitish, rahmdillik, ota-ona hurmatini bajo

keltirish, ustoz xizmatida bo'lish, hamsoya haqini ado etish va boshqa shunga o'xshashlar **tasavvuf** va **futuvvat** falsafasining shartlari jumlasiga kiradi.

Tasavvuf va futuvvatning aytib o'tilgan ustunlari va shartlaridan tashqari man etadigan, ta'qiqlaydigan narsalari ham bor. Bular yaxshilarning orqasidan **gapirish**, birovlarini mazah qilish, **gaptashish**, ko'p qo'lish, va'daga **xilof** ish qilish, **hasad** qilish, **zulm** o'tkazish, **aldash**, odamlardan ayb **qidirish**, **betga choparlik**, **yolg'on qasam** ichish, ta'magarlik, **xiyonat qilish**, noto'g'ri guvohlik berishdan iboratdir.

Ma'lumki, **tasavvufda** Alloh **rahmatiga** etishning, inson ma'naviy kamolot yo'lining to'rt bosqichi mavjudligi tasdiq etiladi. Bular shariat, tariqat, shuningdek, **ma'rifat** va **haqiqatdan** iborat.

Shariat – diniy qonun-qoidalar va marosimlarni, Qur'oni Karim va Hadisi sharifdagi axloqiy, ilohiy ko'rsatmalarni puhta o'zlashtirish, aynan, izchil sur'atda bajarish, xudoga ibodat qilishdir. Shariat xudoni idrok bilan tanishni ko'zda to'tadi. Shariat talablari, qoidalarini bajar-masdan tariqatga o'tish mumkin emas. Tariqat – er yuzidagi lazzatlardan voz kechib, **nafsnī** tiyib, **xilvatda** yashab, faqat xudo haqida uylash, hayol surish, **eslash**, uni qalbdan sevishdir. Ma'rifat – hamma narsaning, butun borliqning asosi xudo ekanini bilish, aniqlash va shu tariqa xudoga etish demakdir. Ma'rifatda olam, yulduzlar, Oy, Quyosh, odamlar, hayvonlar, **qushlar**, **kaptarlar**, boshqa jamiki narsalar xudo-ning zuxurotidan iborat, **odam** Alloh quyoshning zarrasi deyiladi. Haqiqat – o'zini xudoning **dargohiga** erishgan, vasliga etgan, hatto u bilan qo'shib ketgan deb bilishdir.

Tasavvufning oqimlari, asosiy yo'nalishlari nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'lib, turli davrlarda dunyodagi ko'pchilik mamlakatlarda uning har xil yo'nalishlari paydo bo'lgan va yoyilgan. Bizning yurtimiz – Turon zaminida va musulmon Sharqida tasavvufning bir necha buyuk tariqati – ta'limotlari paydo bo'ldi. Bular XII asrda Turkistonda maydonga kelgan **yassaviy** va **suxravardiya**, XII asr oxirida Xorazmda vujudga kelgan **kubroviya**, XVI asrda Buxoroda yuzaga kelgan **naqshbandiya** va boshqa tariqatlardir.

**Xoja Ahmad Yassaviy** (1041–1167-yy.) tasavvuf falsafasining yirik namoyondalaridan hisoblanadi<sup>1</sup>. Yassaviy tariqatining birinchi va asosiy fazilati – uning xalq chilligidir. Unda ham Alloh, ham inson madh etiladi. Yassaviy o'zining «Hikmat»larida insonni qadrlaydi, uni adolatsizlikdan, zulmdan himoya etishga chaqiradi.

<sup>1</sup>Qarang: Xoja Ahmad Yassaviy. – Chimkent, 1992, 11-bet.

Buyuk mutafakkimning asosiy maqsadi odamlarni Allohni tanishga, uning yaqini bo'lishga da'vat etish, insonni xudoning eng aziz bandasi sifatida e'zozlash, adolatsizlikni qoralash, bu dunyoning dog'larini insonga yuqtirmaslikdan iboratdir.

Ahmad Yassaviy inson o'z azaliy pokligini saqlashi, gunoh ortirmasligi uchun nima ish qilishi kerak, degan savolga ham o'zicha javob beradi. Yassaviy inson o'zining azaliy pokligini saqlashi uchun bu dunyodan yuz o'girishi, umrini odamlardan uzoqda, yolg'izlikda, uzlatda toat-ibodat bilan o'tkazishi lozim, deb hisoblaydi. Buni u Allohga yaqin bo'lishining, o'ziga foniy bo'lishi uchun shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat kabi u dunyoda saodat ta'minlashning shartlaridan biri deb biladi.

Yassaviyning fikricha, insonning xudo vasliga etishi, unda bosqinchilarni birma-bir bosib o'tishi, dunyodan, o'zligidan voz kechishi, o'zini xilvatga tortib, ham fikrini, ham zikrini xudoga berishi kerak. Agar odam jonini kiyin bo'lsada, ibodat qilish, nafsini o'ldirib qanoat qilishga odatlansa, hurlash va malomatlarga bardosh bersa, o'shanda xudoning diydoriga etadi, deydi.

Abdulholiq G'ijduvoni yassaviya tariqatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biridir. U ustodi Xoja Yusuf Hamadoni va birgalikda ta'lim olgan zamondoshi shayx Ahmad Yassaviyning ishini davom ettiribgina qolmay, ular yaratgan tariqatini mustaqil, yangi yuqori bosqichga ham ko'taradi. Buni uning farzandi uchun mahsus yozilgan «Vasiyatnoma»sida bayon etilgan falsafiy g'oyalardan ko'rish mumkin. «Vasiyatnoma»ning butun mazmuni, mohiyati odob-axloq masalalariga qaratilgandir. Tariqat ahdining bosh vazifasini Yassaviy Allohga yaqinlashish uchun jamiyatdan uzoqlashishni, uning tashvishlaridan yuz o'girish, uzlatga ketish, tarki dunyo etish deb tayinlagan bo'lsa, Abdulxoliq Gijduvoni «Vasiyatnoma»sida jamoatga mulozim bo'lish, jamiyatga xizmat etishni muqaddas vazifa – Allohga yaqinlashishning muhim yo'li deb hisoblaydi. Shu bilan birga u odamlarni hadeb o'ldiravermasdan, Allohga toat-ibodatni haddan tashqari oshirib yubora bermasdan mehnat qilish va halol yashashga da'vat etadi. Halol egil va shubhadan parhez etgil, ya'ni halolligi shubhali ovqatdan qo'l tortgil, deydi. Bu dunyoda odamlar hayotida faol ishtirok etish, ularni himoya qilish Abdulxoliq G'ijduvoni tomonidan ta'kidlaganidek, – Allohga yaqinlashishning asosiy yo'lidir.

Tasavvuf falsafasining yirik siymolaridan yana biri xorazmlik *Najmiddin Kubro*dir (1145–1221-yy.). U «Favoix al-jamol va favotix

al-jalol» («Jamolining muattarlari va kamolotining egalari»), «Al-usul al-ashara» («O'nta qonun va qoidalar») nomli asar va risolalar yozgan.

Najmiddin Kubroning vatanparvarlik, xalqparvarlik haqidagi falsafiy ta'limoti shunchaki quruq so'z, shior, g'oya bo'lib qolmasdan uning shaxsiy hayotida harn o'zining to'la tasdig'ini topgan. YOshi etmish oltiga chiqqan bo'lishiga qaramay Najmiddin Kubro Xorazm himoyasi uchun mo'g'ullarga qarshi jangga kiradi va shahid bo'ladi. O'lar paytida u bir mo'g'il askarining kokili (sochi)ni shunday mahkam ushlab oladiki, vafotidan keyin o'n kishi ham uning qo'lidan kokilni ayirib ololmaydilar. Oxiri o'sha kokilni kesishib, qo'ldan ajratadilar.

Tasavvuf falsafasi XIV asrda naqshbandiya ta'limotida yanada rivojlanadi. Unga Bahouddin Naqshband asos solganligi uchun naqshbandiya deb ataladi. Naqshband so'zi u buyuk zotning laqablari bo'lib, matoga gul – naqsh solishni bildiradi.

**Hazrat Bahouddin Naqshband** kishilar hayotida go'shanishinlik, xilvatchilik – tarkidunyochilikda hayot kechirsin degan xulosa chiqarmaydi, balki shu dunyoda, tabiatda shod va hurrām yashash kerak deydi. Bu narsa uning fikricha, xudoni, kelajakni unutib qo'yishga olib kelmasligi lozim. U jamiyatdan, insonlardan ajralgan holda yashash, yakkalikda kuch kechirish, xilvatxonalarda maskan qilib olib hayot kechirish inson uchun nomaqbul deb biladi, hurrām hayot kechirishga da'vat etadi. Undan tashqari Bahouddin «kishi zohirida odamlar bilan, botinadi (ichdan) esa xudo bilan bo'lishi kerak», – deydi. O'z qo'l kuchi bilan, o'z mehnati bilan, o'z mehnatidan olinadigan daromad bilan kun kechirish, tirikchilik o'tkazish targ'ib va tashviqot qilgan.

Shunday qilib, islom dini singari tasavvuf falsafasi ham odamlarni iymon, odob-axloq, diyonat, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatga da'vat etgan. Odamzodni hech qachon yomon yo'lga boshlamagan. Odam bolasini har doim xushyor bo'lishga, harom yo'llardan uzoq, yurishga, insofli-tavfiqli bo'lishga, o'zidan yaxshi iz qoldirishga undagan.

«Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi hislatlarini ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Har bir insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so'z bilan aytganda, umumxalqqa rahnamo bo'lgan. Uni sinovlarga bardosh berishga, yopyg' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuchquvvat bag'ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan».

«Ma'lumki, insonparvarlik g'oyalari bilan oziqlangan Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi zotlar asos solgan muqaddas g'oya va tariqatlarining Vatani ham Turkiston zaminidir»<sup>1</sup>.

Sharq mutafakkirlarining, islom va tasavvuf falsafasi allomalarining, buyuk muhandislarining asrlar davomida odamlarni eng ulug' maqsadlar yo'lida birlashishga, hamjihat bo'lishga chaqirgan g'oya va o'g'itlari mustaqil O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti uchun ijobiy ta'sir etmoqda.

### 3. XVII–XX asrlarda O'zbekiston hududidagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar

Ilm-fan, aql-zakovat va ilmiy tafakkurning, ma'daniyat va ma'naviyat-ma'rifatning qadr-qimmatini, jamiyat taraqqiyoti, xalq va millat kamoloti, Vatan istiqboli uchun benihoya kasb etishini targ'ib-tashviqot etish O'rta Osiyoning barcha mutafakkirlari falsafiy ta'limotlarida azal-azaldan etakchi o'rin tutib kelgan.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan ma'rifat haqidagi ajoyib g'oya va ta'limotlar XVII–XIX asrlarda adiblar, tarixchilar, faylasuflar, ziyolilar tomonidan o'ziga xos tarzda ijodiy rivojlantirildi, yangicha ma'no va mazmun bilan boyitildi.

Turdi Farg'oniy, Boborahim Mashrab, Mujrim Obid, Shermuhammad Munis, Muhammad Sharif Gulxaniy, Muhammad Rizo Ogahiy va boshqalar o'sha murakkab tarixiy davming el-yurt nazariga tushgan fan arboblari, atoqli shoir va yozuvchi-olimlardir.

Xalqimizning tub manfaatlarini, ozodlik, mustaqillikka bo'lgan intilishlari, orzu-niyatlarini o'zida aks ettirgan yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkur - ma'rifatparvarlik Turkistonda XIX asming ohirlaridan boshlab paydo bo'la boshladi. Ularning yirik namoyondalari *Ahmad Donish* (1827–1897-yy.), *Furqat* (1858–1909-yy.), *Zavqiy* (1853–1921-yy.), *Avaz O'tar* (1884–1914-yy.) hisoblanadi.

Tariximizda ma'rifatparvarlar deb ataladigan ahli donishlarning barchasiga xos bo'lgan umumiy tomonlar mavjud. Mamlakatni mustamlakachilik qulligidan abadiy qutilib, ozod, hur, mustaqil bo'lishini ko'rish – xalqimiz asl farzandlari, adiblari, ilm-fan, madaniyat arboblarning hammasiga xos bo'lgan umumiy tomonlaridan bo'lib hisoblanadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-Jild. – T.: «O'zbekiston», 1995, 40–41-betlar.



O'zining butun hayoti va borlig'i, aql-idroki va tafakkuri qudratini xalqi va Vatani istiqboli yo'liga tikkan olimu – fuzalolarning diqqat markazida turgan, ularning hammasiga bir xilda darhdor bo'lgan umumiy tomon va asosiy maqsadalardan yana biri – xalqni ilmi, madaniyatli kimni, milliy ong va g'ururini o'stirish asosida el-yurtni yakdil, yaktan qilib birlashtirish, odamlar ko'zini g'aflat uyqusidan ochish yo'li bilan Vatanimiz mustaqilligi, millatimiz erkinligi va ozodligini ta'minlashdan iborat edi.

Chor amaldorlari ming bir makr-xiyla ishlatib, zo'rlik-zo'ravonlik qilib, odamlarni aldab, qo'rqitib, masjid-u-madrasalarni berkitib, milliy madaniy-ma'naviy, boyliklari-mizni talab xalqni jaholat sari sudrab, ilm-ma'rifat yo'liga to'g'anoq bo'lib turgan bir paytda xalqimizning ma'rifatparvar fidoiy fazilatlariga bunga qarshi xalqni bilimli, ongli bo'lishiga, jaholatdan yiroq turishga da'vat etdilar. Ma'rifatparvarlarni o'z davrining jasur, xalqparvar, millatparvar, vatanparvarlari deb atash mumkin.

Elim, yurtim deb yashashni o'zlari uchun yuksak maqsad deb bilmaganlarida, boshlaridan kechgan azob-uqubatlarga, tazyiqlarga, kamsitishlarga, quvg'inlaru darbadarliklarga, o'z Vatani darida begonalarddek bo'lib yashashlariga chiday olmagan bo'lar edilar. Xalqqa, Vatanga qo'lidan kelgancha, ozmi-ko'pmi xizmat qilishni o'zlari uchun shon-sharaf, buyuk maqsad deb bildilar. Ana shu niyatda ulardan biri o'zining o'tkir satirik asari bilan, boshqasi chuqur ma'noli she'rlari, g'azallari, o'ta ta'sirchan publitsistik maqolalari, falsafiy asarlari bilan yurt qayg'usi, xalqning dardu-hasratini imkoni boricha bayon etdilar. Kelajak orzu-umidlari yo'lida ijod qildilar. Yuksak saviyali ilmiy-falsafiy, badiiy, tarixiy asarlar yozdilar.

Ma'rifatparvarlarning, xalqimiz asl farzandlarining asarlari, ilmiy-falsafiy, madaniy meroslari ular yashab ijod etgan murakkab davrning mazmunini, mohiyatini, murakkabliklari va ziddiyatlarini o'zida chuqur va tinik aks ettirgan bamisoli tarixiy ko'zgudir. Ulardan bizlarga ilmiy, madaniy meros bo'lib kelayotgan, milliy ma'naviy boyligimizning tarkibiy qismi hisoblangan badiiy, falsafiy asarlar, hikoyalar, odob-axloq majmualari, ruboiylari, nazmiy va nasriy maktublar, dostonlar, xotirotlarni o'qib, mazmuni bilan tanishib, xalqimizning dardu hasratini, orzu-armonlarini, kechmish tarixini ko'ramiz.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidlar harakati vujudga keldi. G'oyaviy-siyosiy jihatdan etuk, kelajakni oldindan ko'radigan, el-yurt qayg'usi bilan kuyib-yonib yashaydigan, milliy

istiqlol uchun kurashga hamisha shay turgan olimlar, adiblar, faylasuflar, fan va madaniyat arboblari ko'rina boshlaydilar.

Xalqimizning zukko farzandlari Madmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy shular jumlasiga kiradilar. Ular xalqni ma'rifatli qilish, bilim saviyasini ko'tarish, fikr doirasini o'stirish, milliy istiqloлга erishishning zarur shartlaridan biri deb tushundilar va ana shu olijanob niyatlarini amalga oshirish uchun tinmay harakat qildilar. Turkistonning kelajak taqdiri to'g'risida, millatning istiqboli haqidatinmay qayg'urdilar, izlandilar, milliy istiqlolimizga zamin yaratdilar.

«Mustaqillik poydevoriga xalqimizning boshiga tushgan og'ir kunlarda qatag'onga uchrab, gunohsiz qurbon bo'lgan minglab zabardast, unutilmas farzandlari tamal toshini qo'yganlar. Shuning uchun ham mustabidlik zamonida xalqimiz xotirasidan ataylab o'chirilgan mo'tabar insonlarning nomlari birin-ketin tiklanyapti. Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va Usmon Nosir kabi Vatanimiz, millatimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan o'nlab siymolarning ma'naviy meroslari bugun xalqimiz bisotiga qaytmoqda»<sup>1</sup>, — deydi I. A. Karimov.

*Mal'mudxoja Behbudiy* (1875–1919-yy.) asrimizning birinchi choragida Turkistonning eng mashhur kishilaridan edi.

Behbudiy Turkistondagi jadidlar harakatining yirik namoyondasi, uning nazariy asoschilaridan biri, taniqli yozuvchi, jurnalist va jamoat arbobidir. Behbudiy o'z davrining buyuk donishmandidir. Ilm-fan va madaniyatning hamma sohalari, ayniqsa, Sharq falsafasi va Yevropa adabiyotidan chuqur bilim va ma'lumotga ega bo'lgan. «Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtlardagi jadidlaridan unga teng kela oladigan kishi bo'lmasa kerak»<sup>2</sup>, — deb yozgan edi F. Xo'jaev.

Umuman olganda, Behbudiyning Turkistonda yangi usuldagi maktablarni tashkil etishdagi va jadidchilik g'oyalarini matbuot orqali targ'ib qilishdagi xizmatlari g'oyat katta.

Behbudiy 1903–1904-yillarda o'zbek va tojik tillarida «Qisqacha umumiy geografiya» asarini, yangi usuldagi maktablar uchun darslik va qo'llanmalarni yozdi. «Behbudiy» nomli nashriyotni tashkil etib, unda

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. — T.: «O'zbekiston», 1993, 85-bet.

<sup>2</sup> Fayzulla Xo'jaev. Tanlangan asarlar. I-jild. — T.: «Fan», 1976, 84-bet.

o'zbek tilida darsliklar bosib chiqardi. Samarqandda mahalliy aholi uchun qiroatxona ochishga boshchilik qildi.

Behbudiy 1913-yilning aprelida «Samarqand» gazetasini, o'sha yilning avgust oyidan boshlab esa «Oyna» gazetasini chiqarishga kirishdi.

Mahalliy xalqdan birinchi bo'lib xarita tuzgan, o'z uyida kutubxona ochgan, tarixga, islom huquqiga oid asarlar, o'quv kitoblari yozgan ham Behbudiydir. Behbudiy Turkistonni chor mustamlakachiligi zulmidan qutqarish g'oyasini o'z asarlarida ilgari surdi. Xalqni milliy istiqlol uchun kurashga chorladi. Millat taraqqiyoti va istiqboli, Turkistonning kelajagi haqida o'ylar ekan, xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog'idan qutqarib olishning birdan-bir yo'li ilm-ma'rifatli bo'lishdir, degan xulosaga keldi. Xalq hozirda hukm surib turgan bid'at, hurofotdan xalos bo'lsa, kelajakka umid ko'zi bilan qarab, ilm-fan eshiklarini ochsa, yaxshilik tomon yuz tutsa, bolalarini Ovro'pa dorilfununlariga yuborsa, ulardan advokat va hunarmand, savdogar va muhandislar chiqsa – naqadar oliy va go'zal ish bo'lur edi, deb ko'nglidan o'tkazardi. Behbudiy fikricha, xalqdan mablag' yig'ib o'qishga, ilmga rag'batli bo'lgan, ammo ota-onasining qurbi etmaydigan Turkiston yoshlarini chet el dorilfununlariga yuborib o'qitib, millatning rivoji va istiqboli uchun zarur bo'lgan muhandis va muallimlarga, Ovro'pa bozorlarida savdo-sotiq qiladigan, xorijliklar tilini biladigan zamonaviy ilmiy xodimlarga ega bo'lish kerak. Allomaning yuqoridagi fikrlari o'z ahamiyatini hozirgi davrda to'laligicha saqlab turibdi.

Xalq ommasini ilm-ma'rifatli qilishning millatimiz va Turkiston istiqboli uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi Behbudiyning 1911-yilda yozilgan «Padarqush» dramasida har tomonlama ko'rsatilgan. Behbudiy tomonidan ta'kidlanganidek, o'qimoq-o'rganmoq, bilimli, ma'rifatli bo'lmoq barcha musulmonlarga, erkak yo xotin bo'lsin farzdir.

Mahmudxo'ja Behbudiy haloyiqni diniy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda islomiy ilmlarning ahamiyati xususida o'zining fikr-mulohazalarini bayon etgandan so'ng dunyoviy ilmlarning muhim va zarurligini ham alohida uqtiradi. Behbudiy «Padarkush» asarida chor mustamlakachilik siyosati tufayli mahalliy aholi va ayniqsa, yoshlar o'rtasida ichkilikbozlik, maishiy buzuqlik, qimorbozlik, o'g'rilik, poraxo'rlik, tovlamachilik, bezorilik singari mutlaqo zararli rasm va odatlar tarqala boshlaganligini, natijada odamlar o'rtasida mehr-oqibat so'na boshlab, aka bilan uka, ota bilan bola bir-biriga yov-dushman

bo'la boshlaganini, padarqushlar ko'payib borayotganligini qahr-g'azab va nafrat bilan tasvirlaydi.

Behbudiy o'zining 1914-yili yozgan «Ikki emas, to'rt til kerak» maqolasida Turkiston xalqlarining turkiy, forsiy, arabiy va rusiy tillarni o'rganishga targ'ib etish uchun tarixiy manbalarga murojaat etib, Muhammad payg'ambarimiz ham o'zlariga g'oyaviy dushman bo'lgan yahudiy tilini o'rganishga amr etganliklarini eslatib o'tgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy istiqolol yo'lida shahid ketgan buyuk siymodir. Uning muborak nomi, milliy istiqololimiz yo'lida qilgan bebaho xizmatlari xalqlarimiz qalbida abadiy saqlanadi.

XX asr o'zbek adabiyoti, san'ati, madaniyati, ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotining yirik olimi va nazariyotchisi, taniqli jamoat arbobi **Abdurauf Fitratning** (1886–1938-yy.) serqirra ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatida hozirgi zamon va kelajagimiz haqidagi g'oyalar bayon qilingan. Fitrat o'zbek xalqi ilm-fani va madaniyati tarixida samarali iz qoldirgan siymolardan, istiqololimizni oldindan ko'ra olgan fidoiylardan bo'lib hisoblanadi.

Abdurauf Fitrat asarlarida chor Rossiyasi tomonidan Turkiston zo'rlab bosib olinib mustamlakaga aylantirilganligi keskin qoralangan. U bu haqida o'zining «Yurt qayg'usi» she'riy to'plamida «Ko'rdim, yozdim, eshitdim, o'qidim. Mamlakatlar orasida Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo'qdir»<sup>1</sup>, – deb yozgan edi.

Xalqimiz o'zining donishmand farzandi, faylasuf olimi Abdurauf Fitratni mustaqillik poydevoriga tamal toshini qo'ygan, elim, yurtim deb kuyib-yonib yashagan fidoi farzandi sifatida qalbida mangu saqlaydi. Mustaqillik tufayli uning mustabidlik zamonida xalqimiz ataylab o'chirilgan muborak nomi tiklanadi, ilmiy-falsafiy merosi xalqimiz bisotiga aylandi. Abdurauf Fitrat – Vatanimiz, millatimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan o'nlab siymolardan biridir.

O'z jonini, aqlu zakovatini, iste'dodini Vatanimiz erkinligi va mustaqilligi, xalqimizning baxt-saodati yo'lida fido qilgan ulug' zotlardan biri – o'zbek xalqning asl farzandi **Abdulhamid Cho'lpon**(1897–1937-yy.)dir. Abdulhamid Cho'lpon yoshligidanoq arab, fors, tojik, turk tillarini mukammal egallaydi, Sharq falsafasi, Sharq adabiyoti va tarixini sevib qoladi, Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Hofiz, Sa'diy, Umar Hayyom, Jaloliddin Rumiy, Bedil, Navoiy singari buyuk mutafakkirlar asarlari, ilmiy-falsafiy meroslarini katta qiziqish bilan o'rganadi. Yevropa ilm-fani, madaniyati, adabiyoti

<sup>1</sup> Boltaboev H. Yurt qayg'usi //«Sharq yulduzi», 1992, 4-son, 182-bet.

va san'atiga bo'lgan qiziqish unda ayniqsa kuchli bo'lgan. Ham sharqona, ham evropacha puxta va har tomonlama bilim va ma'lumot olgan Abdulhamid o'n olti-o'n etti yoshlaridanoq ilg'or fikrli ziyoli bo'lib etishadi<sup>1</sup>.

Abdulhamid Cho'lpon mashhur tarixchi, etuk faylasuf, sharqshunos olim, adabiyot, san'at va madaniyat ilmining buyuk donishmandi sifatida roman va dramatik asarlar, qator risolalar, esdalik va xotiralar, adabiy va tanqidiy san'atga oid ilmiy-nazariy maqolalar, ko'plab hikoyalar, ikki yuzga yaqin she'rlar, bir qancha tarjimalarning muallifidir. Uning «Kecha va kunduz» nomli romani, «Yorqinoy» deb atalmish dramatik asari, «Adabiyot nador?», «Mirzo Ulug'bek», «Tilimizning ishlanishi» nomli maqolalari, «Sharqnuri», «Sharqqizi», «O'zbekim», «Turkistonlik qardoshlarimizga», «Odam va qush», «Xalq», «Buzilgan o'lkaga», «Qilich va qon», «Kishan», «Erkinlik istagi», «Yana o't» nomli she'rlari ijtimoiy-falsafiy fanlarimiz taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatta egadir.

Milliy uyg'onish, milliy mustaqillik, erkinlik g'oyalari, tabiiyki, Cho'lpon ijodida katta o'rin egalladi. Cho'lpon o'z asarlarida millatni ravnaq toptirish, mustamlaka asoratidan xolos etish uchun xalq o'z-o'zini tanigan, o'zaro birlashgan, milliy hamjihatlikka erishgan, milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lgan, o'z yurtining otashin vatanparvariga aylangan bo'lmog'i lozim va zarur, degan falsafiy g'oyani dadillik bilan ilgari suradi. Uning buyukligi, o'z xalqi va Vatanning fidoyi farzandi ekanligi ham ana shundandir.

Cho'lpon Turkistonning taqdiri, millatining istiqboli haqida chuqur qayg'urdi, elim deb yashadi, Vatanimni Ka'ba sanab, unga toabad sajda qildi, erkinlik, hurriyat, mustaqillik yo'lida jonini fido etdi.

Cho'lpon – o'z xalqi kuch-qudrati va imkoniyatiga astoydil ishongan, xalqining buyuk aql-idroki va tafakkuriga ixlos bilan qaragan, mustamlakachilik kishilarni yo'q qiladigan, Vatan mustaqilligini ta'minlab milliy istiqbol va istiqbol yo'lini ochadigan hal qiluvchi kuch xalq ommasi ekanligiga butun vujudi ila ishonch bilan qaragan ajoyib insondir. Uning buyuk xalqparvar adib, etuk faylasuf olimligi eng avvalo, «Xalq» deb atalgan faylasufona she'rida yaqqol ko'rinadi. Cho'lpon xalqqa buyuk e'tiqod bilan sig'inadi, xalqqa astoydil ishonadi, «xalq dengizdir, xalq olovdir, xalq kuchdir», deb ta'riflaydi. Agar xalq qo'zg'alsa, g'alaba oyoqqa tursa uni to'xtatib qoladigan, xalq istagin yo'q etadigan quvvat dunyoda topilmaydi, deb ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Qarang: Sharafiddinov O. Cho'lpon.–T.: «Cho'lpon», 1991, 7-8 betlar.

Erkinlik, hurriyat har bir insonning, ayniqsa, o'z erkidan mahrum etilgan, bo'yniga mustamlakachilik kishanlari kiydirilgan xalq uchun buyuk orzu-armondur. Cho'lpon she'riyatida odamlarning qo'l va oyoqlaridagi, yurak va tillaridagi kishan zanjirlarini parchalab tashlash, hur yashash, mustaqillikda hayot kechirish haqidagi falsafiy g'oyalar etakchi o'rin tutadi.

Abdulhamid Cho'lpon tomonidan qayta-qayta ta'kidlanganidek, erkin bo'lib yashash inson uchun hamma narsadan aziz va mo'tabardir, lekin inson erkinlikka oppa-oston erisha olmaydi, erkinlik qurbonsiz, katta va qonli kurashlarsiz bo'lmasligini ham o'z asarlarida bayon etadi.

Turkiston xalqlarining sevimli adibi, faylasufi, ozodlik va istiqlol kuychisi hisoblangan Abdulhamid Cho'lpon nazmiy va nasriy merosida jahon fotixlari changalida ezilib yotgan Sharq o'lkalari mavzui etakchi o'rin tutadi. Cho'lpon Sharq va sharqliklar taqdirida o'zini va o'zligini ko'radi. «Sharq nuri» she'rida dunyo tarixini yozgan muharrirlar yo'qsul Sharq tarixini aqalli bir bet bo'lsada yozmadilar, uni nazar-pisand qilmadilar deb qattiq o'ksinadi. Sharq haqida gap ketganda faqatgina «yo'qlik, zulm, qarg'ish eslanadi», deb afsuslanadi. Ta'kidlanganidek, bir zamonlar er yuzida ulug' madaniyat va ma'naviyatni yaratgan ul go'zal Sharq keyinchalik chet ellik bosqinchilar iskanjasiga tushib qoladi. Alloma adib faxr-iftixor bilan «Kun ham Sharqdan, Oy ham Sharqdan chiqadir» deb yozadi.

Sharq taqdirini o'z taqdiri deb bilgan Abdulhamid Cho'lpon bir kunmas, bir kun Sharqning uyg'onishiga, milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi va alanganishiga, mustamlakachilik zanjirlarining tilkapora qilinishiga astoydil ishonadi, bir umr ana shu orzu-umid bilan yashaydi.

Ming afsus bo'lsinkim, Abdulhamid Cho'lpon orzu-armonlari ro'yobga chiqqan, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan tarixiy kunlarni ko'rolmadi. O'zbek adabiyoti, madaniyati va san'atining ulkan arboblari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, Elbek, Botular qatorida Abdulhamid Cho'lpon ham adolatsizlik qurboni bo'ldi.

Vatanimiz, millatimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lgan xalqimiz aziz farzandlarining bebaho asarlari, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlarini va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda.

Muborak nomlari faxr-iftixor ila eslatib o'tilgan fozilu fuzalolar faqat o'zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli

adiblari, ozodlik va istiqloq kuychilari hamdir. Mustaqillik tufayli ul mo'tabar insonlarning nomlari tiklanib, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti.

Yuqorida nomlari eslatib o'tilgan ma'rifatparvar, xalqparvar, vatanparvarlarning asarlarida bayon etilgan falsafiy fikrlar xalqimizning madaniy-ma'naviy qadriyatlarini sifatida hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

#### **4. Hozirgi davr O'zbekiston falsafasi**

Insoniyat madaniyati tarkibiy qismi hisoblangan falsafa sho'ro davrida o'zining fan xususiyatini asta-sekin yo'qotib siyosiylashgan mafkuraviy g'oyalar yig'indisiga aylanib qolgan edi. Bu davrda falsafani fanga aniq, mavjud voqelikni qay darajada haqqoniy, ilmiy va xolis aks ettirganligiga qarab emas, balki hokimiyat tepasida turgan kuchlar va «birinchi darajali oliy rahbarlarning maqsaddari», manfaatlariga muvofiqligiga qarab baho berilgan.

O'tgan asrning 70-yil mobaynida marksizm qoidalari, aqidalari barcha ijtimoiy fanlarga, jumladan, falsafaga asosiy poydevor qilib olingandi. U belgilab bergan «ilmiy yo'ldan» chiqishga, boshqacha o'ylash va fikrlashga na biron-bir olim va ziyolining, na biron-bir faylasufning haqqi yo'q edi. Rasmiy tafakkurdan, ta'limotdan chetga chiqish, ularga zid yo'ldan borib, erkin fikr yuritmoqchi bo'lgan olim va ziyolilarni partiyaviy jazolash, partiyaviylik, g'oyaviylikdan chekinishda, sinfiy xususiyatlarni yo'qotishda va boshqa kamchiliklarda ayblash odatga aylanib qolgan edi. Bunday vaziyat, albatta, ijtimoiy fanlarning, birinchi navbatda falsafa fanining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va ijodiy fikrlashga imkoniyat bermadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining falsafiy ta'limotlari kommunistik mafkura tomonidan kamsitilib, g'ayri-ilmiy deb baholandi, Sharq falsafasiga etarli e'tibor berilmadi. Ahvol shu darajaga borib etdiki, Islom dini bilan bog'liq bo'lgan mukammal falsafiy asarlar va ta'limotlar o'qib-o'rganilmay yaroqsiz bir meros sifatida qoralandi. Shu sababli O'rta Osiyo xalqlarining falsafiy merosini chuqur o'rganish imkoniyatlari ham deyarli yo'qqa chiqarildi. Bahouddin Naqshband, imom Ismoil Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Iso Termiziy, Xoja Ahror va shunga o'xshash allomalar keskin tanqid qilindi.

O'sha zamonlarda Navoiy, Bobur, Mashrabdan va qator shoiru adiblardan zo'r berib dahriylik, ateistik g'oyalar izlana boshladi. Agar «topilgudek» bo'lsa, uni yolg'on-yashiriqlarga o'rab bo'rttirib va

ko'paytirib xalqqa etkazildi. Qaysi bir shoiru adibdan dahriylikni topishmasa, ularni tarkidunyochi, ezuvchi sinf himoyachisi, deb haqoratlandi. Eng achinarlisi shundan iborat bo'ldiki, Qur'oni Karim va Hadisi sharif, So'fi Ollayor, Sulaymon Boqirg'oniy, Nasruddin Rag'bo'ziy, Huvaydo, Yusuf Saryomiy, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Usmon Nosir singari buyuk alloma va adiblarning asarlari «diniy g'oyalar bilan sug'orilganligi», «millatchilik ruhida bo'lganligi» uchun foydalanishga ruhsat etilmadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mafkuraviy tazyiq va cheklab qo'yishlariga qaramay, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, uning qator institutlari, bo'limlari tashkil etildi, ko'plab universitet va institutlarda esa falsafa kafedralari ochildi. Ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirish, ilmiy kadrlarni o'stirish, respublikamizda ijtimoiy fanlarni yanada taraqqiy ettirishda katta e'tibor berilmoqda. Respublikamizda falsafa fanini rivojlantirish, yoshlarning falsafiy bilimlari, falsafiy tafakkurlash madaniyatlari va dunyoqarashlarini o'stirishda olimlarimiz tomonidan yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy asarlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublika faylasuf olimlarining dialektika va bilish nazariyasi, tabiat fanlarining falsafiy masalalari, madaniyat, ma'naviyat va qadriyat, madaniy meros muammolari bo'yicha olib borilgan chuqur ilmiy tadqiqot asarlari e'tiborga sazovordir.

Respublikamizda ijtimoiy falsafa va sotsiologiya, axloq, nafosat, tabiatshunoslikning, fan tarixi va tarixshunoslikning falsafiy muammolari, madaniyat, milliy munosabatlar, urf-odatlar, axloqiy tarbiyaga doir va boshqa sohalarda ham katta ishlar amalga oshirildi.

O'rta Osiyo, Sharq va xususan O'zbekiston xalqlarining tabiiy-ilmiy, ijtimoiy, falsafiy fikrlari tarixi va ma'naviyati merosi bo'yicha ham ibratli ishlar qilindi.

O'zbekiston faylasuflarining uzoq yillar davomida olib borgan samarali mehnatlari natijasi sifatida Forobiy, ibn Sino, Muhammad G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Mahmud az-Zamaxshariy, Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ulug'bek, Navoiy, Bedil, Najmiddin Kubro kabi mutafakkirlarning dunyoqarashi, ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy ta'limotlari, Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Behbudiy singari mashhur olim va adiblarning tabiiy-ilmiy, falsafiy fikrlari tadqiqoti bo'yicha ajoyib qo'llanmalar, risolalar yaratildi.

Respublikamiz faylasuflari O'rta Osiyo va Sharq xalqlarining o'tmishda yaratgan boy ilmiy-falsafiy, diniy-axloqiy merosini va



madaniy-ma'naviy yodgorliklari hamda qadriyatlarini har tomonlama o'rganish va xalqimizga etkazish borasida ham juda katta kuch sarfladilar. Ular Abu Ali ibn Sinoning besh tomlik «Tib qonunlari»ni, buyuk faylasuf olim Abu Nasr Forobiyning «Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida», «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya», «Qonun Mas'udiy» asarlari, Narshaxiy, Bayhaqiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarini o'rganish, o'zbek tiliga tarjima qilishda faol ishtirok etdilar.

Hullas, o'zbekistonlik faylasuf olimlarning taz'yiqu – dashnomlarga qaramay, olib borgan chuqur ilmiy-tadqiqotlar natijasida Sharqda, xususan, O'rta Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikr o'zining uzoq tarixiga ega ekanligi, donishmand bobomiz Amir Temur va temuriylar davrida o'lkamizda ilm-fan, falsafa, diniy, axloqiy qadriyatlar, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat gullab-yashnaganligi, Sharq G'arbdagi uyg'onish davri uchun ilmiy zamin yaratib berganligini inkor etib bo'lmaydigan dalillar asosida isbot qilindi.

Tobelik va qaramlikka asoslangan totalitar-buyruqbozlik tuzumi tugab, O'zbekistonda davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin, falsafa fani taraqqiyoti uchun ilgari bo'lmagan yangi imkoniyat va shart-sharoitlar yuzaga keldi. Falsafa fanini siyosiy mafkuralardan xoli fan sifatida o'rganish, falsafiy muammolarni haqiqiy, xolis va odilona tadqiq etish, sinfiylik va partiyaviylik illatlaridan batamom qutilib umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanib rivojlantirish imkoniyatlari tug'ildi.

Yangi tarixiy sharoitda falsafa fanining nazariy asoslarini yangilash, yangi g'oyalar bilan boyitish zaruriyati kun tartibida paydo bo'ldi. Prezidentimiz asarlarida ijtimoiy fanlar vakillari, faylasuf olimlar oldida turgan ulkan vazifalar belgilab berildi. Boy ma'naviy merosimiz, xalqimizning tarixiy, axloqiy, falsafiy qadriyatlarini, dono fikrlarini o'rganish, asrash, ulardan ijodiy, oqilona foydalanish buyuk aql sohiblarining merosiy asarlarini sinchiklab o'rganish, nashrga tayyorlash, yosh avlodlar ongiga singdirish olimlar, birinchi navbatda faylasuflarning vazifasidir.

Falsafa faniga hozirgi sharoitda yangicha mezonlar asosida yondashish, mamlakatimiz mustaqilligi, uning rivojlanish qonuniyatlari, mustaqillikning qonuniy o'sish, rivojlanish jarayoni ekanligi, uning o'ziga xos muammolari, qiyinchiliklari, harakatlantiruvchi kuchlari mavjudligini ko'rsatib beradigan ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor berish lozim. Insonni falsafiy-axloqiy tahlil etish, madaniyat, ma'naviyat, qadriyatlar, ularni tiklash va rivojlantirishning nazariy-

falsafiy muammolarini falsafiy tadqiq etish, milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotga joriy etish zarurligini har bir inson ongiga etkazish. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekanligi asosiy shart-sharoitlari va imkoniyatlarini ko'rsatib berish, shular asosida ulug' xalqimiz va davlatimizning istiqboli porloq ekanligini bayon etish respublikamiz faylasuflarining olijanob vazifalaridir.

Respublikamiz faylasuf olimlari Prezidentimiz Islom Karimovning asarlarida ko'rsatilgan vazifalarni bajarish bo'yicha dastlabki natijalami qo'lga kiritdilar. «Hayot falsafasi», Istiqlol va taraqqiyot mafkurasini», «Mustaqillikning ma'naviy zaminlari», «Mustaqillik va milliy manfaatlar», «Mustaqillik va milliy tiklanish», «Mustaqillik ma'suliyati», «O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar», «Buyuk siymolar», «Allomalar», «Qadriyatlar falsafasi» singari va boshqa yirik monografiya va risolalar nashr etildi.

Vatanimiz faylasuflari tomonidan chop etilayotgan asarlar yosh avlodni ma'naviy kamol toptirishda, jamiyatimizning ma'naviy tiklanishida katta ahamiyat kasb etishi shak-shubhasizdir.

### Taqrorlash uchun savollar

1. O'rta asr davrida O'rta Osiyo mutafakkirlarining jahon falsafasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini nimalardan iborat?
2. Al-Xorazmiy, Forobiy, ibn Sino, Beruniyning ilmiy-falsafiy qarashlari haqida nimalar bilasiz?
3. Temuriylar davri madaniyatining namoyondalari Ulug'bek, Navoiy, Bobur, ilmiy-falsafiy qarashlari haqida so'zlab bering.
4. Tasavvuf falsafasining xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Temuriylar davridan keyin ijod qilgan Mirzo Bedil, Mashrab, Ogahiy, Ahmad Donish va boshqalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari haqida so'zlang.
6. XIX asr va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati va falsafasining namoyondalari haqida fikr-mulohazalarinizi bayon eting.
7. Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy asarlaridagi milliy ozodlik, mustaqillik g'oyalari va ularning ahamiyati haqida so'zlang.
8. Hozirgi zamon Vatanimiz falsafasidagi yangilanish nimalardan iborat?

9. Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarining falsafa fanini mustaqillik, milliy g'oya asosida yangilash va rivojlantirishdagi ahamiyati haqida so'zlab bering.

10. O'zbekiston Respublikasi faylasuf olimlarining ijodi, ular nashr etgan asarlar haqida bayon eting.

### **Tayanch tushunchalar**

**Tasavvuf** – islomdagi diniy falsafiy oqim.

**Futuvvat** – tasavvuf tariqatining bir bo'lagi.

**Shariat** – (arabcha – to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik) – islom diniy huquq sistemasi.

**Tariqat** – so'fiylik yo'li, tarmog'i, bosqichlari.

**Ma'rifatparvarlar** – ilm-fan, bilim, madaniyat, ta'lim-tarbiyani taraqqiy ettirishning tarafdorlari.

**Jadidlar** – (arabcha «usuli jadid») yangi zamonaviy usulda ta'lim-tarbiya madaniy-ma'rifiy ishlarni isloh qilish tarafdorlari.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: «O'zbekiston», 1993, 84–85-betlar.

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993.

3. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. II- jild. – T.: «Fan», 1968.

4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. I-jild. – T.: «Xalq merosi», 1992, 11–26-betlar.

5. Temur tuzuklari. – T.: «Xalq merosi», 1991.

6. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T., 1991.

7. Alisher Navoiy. Majolis un-naois. – T., 1996.

8. Bobur Zaxiriddin Muhammad. Boburnoma. – T., 1996.

9. Buyuk siymolar, allomalar. I-II-jild. – T., 1995.

10. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. – T.: «O'zbekiston», 1991.

---

---

## V MAVZU: G'ARBIY YEVIROPA VA RUS FALSAFASI

### Reja:

1. O'rta asr Yevropa madaniyati va falsafasi.
2. XVII–XVIII asr G'arbiy Yevropa falsafasi.
3. XVIII–XIX asr nemis klassik falsafasi.
4. Rus falsafasi.
5. XX asr falsafasi.

### 1. O'rta asr Yevropa madaniyati va falsafasi

Quldorlik ishlab chiqarish usulidan feodalizmga o'tish bilan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy hayoti to'liq feodallarning qo'liga o'tdi. Shu davrda, qadimgi sivilizatsiya, qadimgi falsafa, siyosat va huquqshunoslik yer bilan yakson qilindi. Ma'naviy bilim ixtiyori poplar (ruhoniylar) qo'liga o'tdi. Diniy rasm-rusumlar va qoidalar har qanday tafakkurning boshlang'ich nuqtasi va asosi bo'lib qoldi.

Xristian dogmalarining asoslarini ifodalovchi – «patristika», uning yirik vakillari *Ter Tullan* (150–222-yy.), *Avgustin* (354–430-yy.) va xristian falsafasi shakllanib, G'arb maktablarning majburiy darsligiga aylangan sholastika (yunoncha shola – maktab) bir necha yillar davomida hukmron matkura bo'lib qolgan edi. Falsafa to'la ravishda diinga bo'ysundirib qo'yilgan edi. Tabiatni o'rganish, hur fikrlash gunoh hisoblanib, inkvizitsiya (cherkov sudi) buyrug'i bilan jazoga tortiladi, quvg'in qilinadi.

Ammo fan taraqqiyoti dinning har qancha to'sqinlik qilishiga qaramay feodalizm davrida madaniy-ma'naviy taraqqiyot rivojlanishi to'xtamadi.

Feodalizm sholastik falsafasida, X–XIV asrlar davomida ikki asosiy oqim – nominalizm va realizm o'rtasida keskin kurash davom etdi. Bu ikki oqim o'rtasidagi kurashning asosiy masalasi umumiy tushunchalar mohiyati masalasi edi.

Nominalistlar *Ioann Rostselin* (tax. 1265–1308-yy.), *Ioan Duns Skott* (tax. 1265–1308-yy.) va *Uilyam Okkam* (tax. 1300–1350-yy.)

alohida predmetlarga real mavjuddir, umumiy tushunchalar (universalialar) esa nomlarni ifodalaydi va ular ikkilamchidir, deb hisoblagan bo'lsalar, realizm vakillari *Anselm Kanterberiy* (1033–1109-yy.) va boshqalar umumiy tushunchalar obyektiv mavjud bo'lib, aniq narsalar ularning ifodalanish shakllaridir, deb hisoblaganlar. Tabiatdagi narsa va hodisalarning obyektiv mavjudligi haqidagi nominalistlar ta'limoti cherkov obro'yining pasayishiga, dunyoning xudo tomonidan yaratilganligi, ruhning birlamchiligi va moddiy hodisalarning ikkilamchiligi haqidagi diniy aqidalarga putur etkazishga olib kelar edi.

XIIY asrda italiyalik xudojo'y faylasuf *Foma Akvinskiy* (1225–1274-yy.) realizmning mo'tadil namoyondasi sifatida maydonga chiqdi va Xudoning birlamchiligi, ruhning o'lmasligi kabi g'oyalarni targ'ib qiluvchi tomizm falsafasiga asos soldi.

XIX asming 70-yillarida Foma Akvinskiyning bu falsafiy ta'limoti katolik cherkovning rasmiy nazariyasi deb e'lon qilindi, uni bilish har bir dindor uchun majburiy bo'lib qoldi.

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida feodalizm emirilib, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boshladi. Yangi geografik yo'llarning ochilishi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirdi, hunarmandchilikdan manufakturaga o'tishni ta'minladi, bu esa mashina texnikasining rivojlanishiga olib keldi.

Ma'naviy hayotda bu davr tabiatni o'rganishning kuchayishi, cherkov, din ta'siriga qarshi kurashning avj olishi, falsafa va boshqa gumanitar fanlarning ravnaqi bilan tavsiflanadi. Bu davrni odatda, Renessans – Uyg'onish davri deb ataydilar. Uyg'onish davridan boshlab fan g'oyat tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Yer va osmon jismlari mexanikasi, shu bilan birga, unga xizmat qiluvchi matematik usullarni kashf etish va takomilastirish sohasida buyuk ishlar qilindi. Analitik geometriya, logarifmlar, differensial va integral hisob joriy qilindi. Sayyoralarining harakat qonuni ochildi. Suyuq va gazsimon jismlar mexanikasi «Uyg'onish davri» oxirida to'la ishlab chiqildi. Shuningdek, bu davrda materializmning yangi ko'rinishi, falsafaning sholastikaga zid yo'nalishi shakllana boshlagan, tabiatning eksperimental matematik tadqiqot usullari vujudga kelgan edi.

Polyak astronomi *Nikolay Kopernik* (1473–1543-yy.) olamning geliotsentrik sistemasini yaratdi. Bu nazariyada aytilishicha, olamning markazi Quyosh bo'lib, uning atrofida boshqa sayyoralar bilan bir

qatorida Yer ham aylanib turadi. Uning bu ta'limoti Ptolomeyning geotsentrik sistemasi bilan aloqaning o'zgilishini bildirar edi. Bu nazariya, shuningdek, olamni Xudo yaratganligi haqidagi diniy afsonaga ham zarba berdi. Kopernikning geletsentrik nazariyasi materialistik dunyoqarash umumiy rivojining tabiiy-ilmiy zamini bo'ldi.

Nemis astronomi *Iogann Kepler* (1571–1630-yy.) geletsentrizm nazariyasidan kelib chiqib, sayyoralar holatini kuzatish asosida sayyoralar harakatining uch qonunini kashf qiladi. Bu Kopernikning Quyosh sistemasi tuzilishi manzarasini aniqlashtirishga va butun olamning tortilish qonunini ochishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda Keplerning kashfiyotlari dunyoga diniy nuqtai nazardan qarashga putur etkazadi. Lekin shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, Keplerning dunyoqarashi diniy idealistik tushunchalardan ham holi emasdi.

Italiya olimi *Jordano Bruno* (1548–1600-yy.) ham Uyg'onish davrining yirik vakillaridan bo'lib, sholastik falsafaga va Rim katolik cherkoviga qarshi kurash olib bordi. Bruno, Keplerning kashfiyotidan foydalanib, mazkur falsafiy qoidalarining fizik va astronomik mazmunini aniqlashtirdi. U tuproq, havo, suv, olov va efrdan iborat Yer bilan osmon olamning fizikaviy yakka jinsligini tasdiqlaydi, deb uqtiradi.

Bruno ta'limoticha, moddiy olam birlamchi bo'lib, ong esa ikkilamchidir: moddiy olam mangu, u hech qanday xudo tomonidan yaratilgan emas: bordan yo'q, yo'qdan bor bo'lmaydi: u cheksizdir: moddiy olam cheksiz turlarda ifoda etiladi, lekin bu cheksiz narsa va hodisalar bir-biri bilan o'zaro aloqada, birlikdadir. Quyosh sistemasidan tashqari yana sanoqsiz dunyolar, quyoshlar, yerlar mavjud, dunyo – bepo'yon, moddiy olam uning kichik bir qismidir, yer esa bepoyon olamning zarrachasidir.

Brunoning ta'limoti, uning hatti-harakatlari cherkov tomonidan qattiq tanqid ostiga olinib, cherkov sudining hukmi bilan u 1600-yil 17-fevralda Rimdagi Gullar maydonida gulxanda yondirilgan.

Italyan olimi *Galileo Galiley* (1564–1642-yy.) ham «Uyg'onish davri»ning, buyuk olimlaridan biridir. U olamdagi barcha narsa va hodisalar moddiy asosga ega, olam benihoya, materiya abadiy, tabiat yagona bo'lib, mexanika qonunlariga bo'ysunadi, deb tushungan.

Galiley qadimgi yunon mutafakkiri Demokritni ustoz deb tan olib, olamdagi narsa va hodisalarning moddiy asosini atom tashkil qiladi degan g'oyani qo'llab-quvvatlagan.

Galiley inson tabiat qonuniyatlarini bilishga qodir, kuzatish, tajriba, tabiatni bilishning boshlang'ich nuqtasidir, hodisalarning ichki

mohiyatini bilish esa bilishning oliy bosqichidir, bilish jarayoni – hissiy va aqliy bilimdan iborat, deb hisoblaydi.

Ilmiy tajribaga asoslangan matematik usulning asoschilaridan biri bo'lgan Galiley mexanika va astronomiya sohalarida muhim dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan bir necha ilmiy kashfiyotlar qilgan. Uning kashfiyotlari geliotsentrizm nazariyasining to'g'riligini, olamning cheksizligi g'oyasini, er va inson jismlarining moddiy jihatdan bir-biriga o'xshashligini, tabiatning mavjud qonunlari va ularni bo'lish mumkinligini isbotlab bergan. Galiley 1632-yili «Olam tuzilishining ikki asosi – Ptolomey va Kopernik sistemasi haqida dialog» nomli asarini nashr qildi. Uning asari nashrdan chiqqandan keyin Galiley cherkov sudiga berilgan.

## 2. XVII–XVIII asr G'arbiy Yevropa falsafasi

XVII va XVIII asr G'arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu asrlarda Angliya, Frantsiya va boshqa Evropa mamlakatlarida kapitalistik munosabatlar tez sur'atlar bilan rivojlana boshlaydi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli yangi ishlab chiqaruvchi kuchlar ehtiyojiga muvofiq tabiatni ilmiy bilish jarayonini tezlashtiradi. Dengizda savdo munosabatlarining rivoji, kemasozlikning taraqqiyoti, yangi shaharlar qurilishi, astronomiyaga, matematika va mexanikaga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Mazkur fanlarning taraqqiyoti tabiat hodisalariga analitik qarash kerakligini talab etar edi. Bu paytda tabiat hodisalarini o'rganishning asosiy usuli dalillar to'plash ularni har tomonlama tahlil etish, tajriba o'tkazishdan iborat edi. Qadimgi davrdan boshlab yig'ilgan tabiat to'g'risidagi bilimlar umumiy mazmunga ega bo'lib, u yangi davrning tajribasi va fan talabiga javob bera olmaydi. Shuning uchun yangi davr tabiatshunoslari tabiatdagi hodisalar, dalillarni yig'ish va o'rganish, chuqurroq bilish maqsadida ularni bir-biridan ajratib o'rganadilar. Bu xil tekshirish usuli tabiatshunoslik taraqqiyotida ijobiy xizmat qilgan bo'lsada, lekin u olimlar diqqatini dunyoning umumiy ko'rinishidan, uning bir butunligidan, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki aloqa va bog'lanishlar borligidan, ularning bir-biriga o'tib turishidan chetga tortdi, olam qotib qolgan, bir-biriga bog'liq bo'lmagan tasodifiy hodisalar yig'indisidan iborat bo'lib ko'rindi. Shunday qilib, metafizik usul vujudga keldi. Tabiat hodisalarini metafizik holatda tekshirish falsafaning metafizik shaklini vujudga keltirdi.

Yangi davr falsafasining yana bir xususiyati shundan iboratki, u asosan mexanika va matematika fanlari yutuqlaridan kelib chiqib ularni falsafiy jihatdan umumlashtirib mexanistik xarakteriga ega bo'ladi. Shuning uchun ham bu davrning olimlari mexanika qonuniyatlarini, jumladan, I.Nyutonning mexanik sababiyat nazariyasini tabiatdagi barcha sirlarni ochib beruvchi kalit deb hisobladilar.

Metafizik mexanistik materializmning yirik vakillaridan biri ingliz olimi **Frensis Bekon**(1561–1626-yy.)dir. Bekon ingliz materializmining asoschisi bo'lib falsafa tarixiga kirgan. U o'rta asr sholastik falsafasiga va din ta'limotiga qarshi faol kurash olib bordi. Haqiqiy falsafa, Bekon fikricha, amaliyot bilan mustahkam aloqada bo'lish, kishilar mehnati bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim.

Bekon o'zining «Yangi organon», «Yangi Atlantida» nomli asarlarida o'rta asr sholastikasini tanqid qildi va tabiatni materialistik tushunishni asosladi. Bilishning birdan-bir to'g'ri yo'li uning fikricha, tajriba, (eksperiment) tahlilidir. Shuningdek, bilish alohidaliklardan, ya'ni xususiy dalillardan umumiy ilmiy nazariyalar tomon yo'nalish asosida bo'lishini uqtirdi. Demak, Bekon ta'limoticha, bilishda asosiy usul induktiv usuldir. U mavjud bo'lgan barcha narsa va hodisalarga induktiv usul asosida yondashish g'oyasini ilgari surdi. Biroq induktiv usulning rolini ulug'lagan Bekon, deduktiv usulning ahamiyatini to'liq tushuna olmadi. U empirik usulga ortiqcha e'tibor berib, ratsional usulning rolini pasaytirib yubordi.

Metafizik materialist bo'lgan Bekon bilish jarayonida hissiy bilish bilan aqliy bilishning o'rtasidagi aloqadorlik dialektikasini to'g'ri ochib bera olmadi

Bekonning fikricha, moddiy dunyoning asosini materiya tashkil qiladi. Uning ta'biricha, materiya xilma-xil sifatga ega bo'lib, uning miqdori o'zgarmasdir, hech narsadan hech narsa vujudga kelmaydi, hech narsa yo'q bo'lib ketmaydi. Materiyaning umumiy miqdori hech qachon o'zgarmaydi, u kamaymaydi ham, ko'paymaydi ham.

Bekon materializmning yana bir xususiyati shundaki, u materiyaning to'xtovsiz harakatda, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi, deb hisoblab, harakatning 19 shaklini atroflicha ta'rifladi. Lekin u materiya harakati turlarini harakatning mexanik shakli bilan ayniylashtirib qo'yadi.

**Tomas Gobbs** (1588–1679-yy.) Bekon materializimini bir tizimga solib, uning ta'limotini rivojlantirgan mexanistik usulga asoslanuvchi faylasufdir. Materiyaning birlamchi, ongni esa ikkilamchi, deb hisoblagan



Gobbs faqatgina bor jismlar mavjud, qolganlari esa to'qib chiqarilgan tasavvurlardir, deb hisoblaydi. U «Tafakkurni fikr qiluvchi materiyadan ajratish mumkin emas» degan g'oyat muhim fikrni ilgari suradi.

Materiya abadiy, ayrim jismlar esa vaqtinchalik ko'rinishga ega, ular vujudga keladi va yo'q bo'ladi. Gobbsning fikricha, olim mexanik harakat qonunlariga bo'ysundirilgan jismlar majmuidir. Gobbs din insonlarga ta'sir etishning alohida uslubidir, deb hisoblaydi. U matematik edi, shuning uchun ham har qanday to'g'ri chiziq nuqtalardan iborat deb, materiyaning rang-barangligini hisobga olmay, tabiatdagi barcha narsalarni geometriya fani nuqtai-nazaridan tushuntirar edi.

Bilim to'g'risidagi ta'limotida Gobbs Dekartning «tug'ma g'oyalari» nazariyasini tanqid ostiga olib, barcha bilimlarni sezgilardan keltirib chiqaradi. «Kishi aqlida birona tushuncha yo'qki, dastavval u sezgi a'zolarimizda qisman yoki to'la vujudga kelgan bo'lmasin», deydi Gobbs.

Gobbs jamiyat hayotini tahlil qilishga o'rinib, davlatning kelib chiqishi va uning mohiyatini tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, davlat paydo bo'lishining asosiy sababi xususiy mulkchilikning kelib chiqishi oqibatida kishilar o'rtasidagi kurashning keskinlashib ketishidir. Jamiyat kishilar bir-birini o'ldirib yubormasliklari, talamasliklari uchun ijtimoiy shartnoma asosida davlatni barpo etadi va o'z huquqlarini himoya qilish uchun unga o'tkazib beradi. Gobbs mutlaq monarxiyani davlatning eng yaxshi shakli deb hisoblaydi.

XVII asrning eng yirik mutafakkirlaridan yana biri fransiyalik *Rene Dekart* (1596—1650-yy.) edi. Dekart ikki xil substansiya: materiya va ruh o'zaro yonma-yon ravishda mavjud bo'lib, ular xudoga bo'ysunadilar, deb tushuntirgan holda dualistik nuqtai nazarda turdi. U cheksiz va abadiy bo'lgan tabiat inson tafakkuriga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi va mavjud, deb hisoblaydi.

Dekart o'zining «Usul haqida mulohazalar» nomli asarida matematika, mexanika va geometriyaga asoslanib bilishning deduktiv usulini ishlab chiqishga harakat qildi. U ratsionalizm usulining asoschisi hisoblanadi. Uningcha, bizning sezgi a'zolarimiz hamma narsaga shubha qilishi mumkin, biroq mening fikr qilayotganimga shubha qilish mumkin emas, deb hisoblab, «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman», deb xulosa chiqaradi. Dekart tomonidan yaratilgan deduktiv usulning talablari quyidagilardan iborat:

1. Bilish aniq, shubha o'rin qoldirmaydigan darajada bo'lishi kerak.

2. Tekshiriladigan muammolarni imkoni boricha mayda qismlarga bo'lib o'rganish lozim.

3. Fikr yuritganda eng oldin oddiy narsadan boshlab so'nggi murakkabiga o'tishi kerak.

4. Bilish jarayonida tadqiqotlarning sharhini to'la olib borish kerak, hech narsani qoldirish mumkin emas.

Dekartning bu fikrlari fanni sholastikadan tozalash davrida ijobiy rol o'ynadi.

Dekart fikricha, tashqi olamdan ajralgan tug'ma g'oyalar bor (xudo, ruhiy va jismiy g'oyalar). Ular orqali umumiy qoidalar, qarashlar kashf etiladi, deb o'ylar edi. Uning bu qarashlari Gobbs, Lokk va Spinoza kabi mutafakkirlar tomonidan qattiq tanqid ostiga olgan edi.

Dekartning falsafiy qarashlari uning materialistik kosmologiyasi va fizikasi bilan bog'liqdir. Matematikada u analitik geometriyani yaratuvchilardan biridir. Mexanikada u harakat va osoyishtalikning nisbiyligini ko'rsatadi va boshqa kashfiyotlar qildi. Kosmologiyada u fan uchun yangilik bo'lgan Quyosh sistemasining tabiiy rivojlanishi g'oyasini olg'a surgan.

Uningcha, koinot eng avvalo, materiyaning olovsimon, havosimon va tuproqsimon elementlarining qo'shilmisidan paydo bo'lgan. Sekinasta birinchi elementdan Quyosh, ikkinchisidan Havo va uchinchisidan — Er va Quyosh sistemasining boshqa elementlari vujudga kelgan.

Goll andiyalik *Benedikt Spinoza* (1631–1677-yy.) o'z falsafasining mazmuni va qonun-qoidalarini geometrik aksioma va teoremlar shaklida bayon qilgan. Uning dunyoqarashida substansiya haqidagi ta'limot asosiy o'rin egallaydi. Substansiya, tabiat bitta bo'lib, u o'zining ajralmas xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Substansiya, moduslar(o'tkinchi narsalar)ga ega bo'lib, moduslar tabiatning, substansiyaning holatini tavsiflaydigan, paydo bo'lib va yo'q bo'lib ketadigan narsalarning hossava xususiyatlaridan iborat.

Spinozaning fikricha, tabiat o'z-o'zining sababchisidir (sausasuy) boshqa kuch muhtoj emas. Olam abadiy bo'lib, hech narsaga bo'ysunmaydi. Dekartning «tug'ma g'oyalari»ni tanqid qilib, Spinoza substansiya, tabiat bittadir, ikki substansiyaning bo'lishi mumkin emas deydi. U substansiyaning tabiat yoki Xudo deb atadi.

Spinoza falsafasi metafizik usulga asoslangan edi. Uningcha, substansiya harakat qilmaydi va rivojlanmaydi.

Spinoza materiya va ongning munosabatini tahlil qilar ekan, tafakkur butun materiyaning xususiyati, u materiyadan tashqarida unga bogʻliq boʻlmagan holda yashashi mumkin emas deydi. Inson olamni faqatgina tafakkur orqali, aql orqali bilishi mumkin, deb hisoblaydi. Spinoza Dekart singari bilishda sezgilarning oʻrniga etarli baho bera olmaydi. Uningcha, «Haqiqiy bilish», oʻrganish tafakkur orqali, aql orqali vujudga keladi.

Spinoza barcha hodisalar tabiiy sabablarga ega, deb hisoblab, erkinlik – bilib olingan zaruriyat ekanligini birinchi bor aytgan edi. Uning fikricha, olamda tasodifiy narsalar yoʻq, barcha narsa va qodisalar zaruriyatdan kelib chiqadi va rivojlanadi, boshqasiga aylanadi.

Spinoza oʻz asarlarida dinni keskin tanqid qilib, uning mohiyatini ilmiy asoslashga urindi.

Spinoza dinning vujudga kelishi asosiy sababini odamlarning nodonligi deb hisoblar edi va maʼrifat tarqalishi bilan din barham topadi deb bildi, ammo dinning gnoseologik va ijtimoiy ildizlarini tushuna olmadi. Ingliz olimi *Jon Lokk* (1632–1704-yy.) ham kishilar bilimining asosiy manbai tajribadir, deb hisoblaydi. Tajriba, uning fikricha, ikkiga boʻlinadi: ichki va tashqi tajriba. Tashqi tajriba oʻz mazmuniga koʻra mavjud xususiyatiga ega boʻlsa, ichki tajriba esa bizning ruhiy kechinmalarimizdan iborat. Lokk kishi ruhiy kechinmasini mustaqil deb eʼlon qiladi.

Lokk 1690-yilda yozgan «Inson aqli haqidatajriba» nomli asarida Dekartga qarshi chiqib, hech qanday «tugʻma gʻoyalar» yoʻq, deb hisoblaydi. Uning taʼlimotiga koʻra, bilish inson bilan tabiat orasidagi munosabat jarayonidan iborat boʻlib, kishi gʻoyalarining, tushunchalarining moddiy olam predmetiga mos kelishi haqiqatdir. Lokk birlamchi va ikkilamchi sifatlar mavjud, deb tushuntiradi. Birlamchi sifatlar predmetlarning hajmi, shakli, holati, harakati kabilardir. Rang, hid, taʼm kabilar ikkilamchi sifatlardir. U birlamchi sifatlar insonga, uning xohishiga bogʻliq emas, ikkilamchi sifatlar esa insonning subyektiv kechinmalariga bogʻliq deb notoʻgʻri fikr yuritadi.

Lokk oʻzining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida tabiiy holatdan fuqarolik holatiga va davlatni boshqarish shakllariga oʻtish gʻoyalarini rivojlantiradi. Lokkning fikricha, davlatning maqsadi – erkinlikni hamda mehnat vositasi bilan orttirilgan mulkni saqlashdir. Shuning uchun ham davlat hokimiyati oʻzboshimcha boʻlishi mumkin emas. Bu hokimiyat Lokkning fikricha: 1. Qonun chiqaruvchi; 2. Ijro etuvchi; 3. Ittifoq–

Federativ hokimiyatga bo'linadi. Lokkning mazkur g'oyalari o'z ahamiyatini hanuzgacha yo'qotgani yo'q.

Lokkning, agar mavjud ijtimoiy tartib sharoitida shaxs lozim darajada tarbiya va kamolotga ega bo'la olmasa, u vaqtda kishilarning o'zlari mavjud tartibni o'zgartirishlari kerak, degan g'oyalari katta ahamiyatga ega edi.

Nemis faylasufi *Gotfrid Vilgelm Leybnits* (1646–1716-yy.) Spinozaning fikriga qarshi chiqib, materiya substansiya bo'la olmaydi, chunki materiya ko'lamlidir va shu sababli bo'linuvchidir, substansiya esa muloqot vositasi bo'lmog'i lozim. Uning fikricha, dunyoning asosini monadalar – bo'linmas ruhiy substansiyalar tashkil qiladi, butun koinot ana shulardan tarkib topgan.

Monadalar soni cheksizdir, ulardan har biri idrok va intilishga egadir, bu esa, Leybnitsning fikricha, substansiyaning harakatchanligini, faol harakatini ta'minlaydi. Uning ta'limotining dialektikasi ana shundan iboratdir, bu idealistik dialektika edi. Chunki uning fikricha, monadalar bir-biri bilan jismoniy sur'atda o'zaro ta'sir ko'rsatishmaydi, lekin bu bilan birga ular yagona rivojlanuvchi va harakatlanuvchi olamni tashkil etadi va bu olam oliy monadaga (mutlaqqa, Xudoga) bog'liq bo'lgan oldindan belgilangan uyg'unlik bilan tartibga solinadi.

Bilish nazariyasida Leybnits Lokkning materialistik sensualizmiga qarshi chiqib, o'zining «Inson aqli to'g'risida yangi tajribalar», degan asarida bilimning yakkayu-yagona manbasini hissiyot emas, faqat aql tashkil etadi, deb da'vo qiladi.

Haqiqatga erishish uchun Leybnitsning fikricha, mantiq qoidalariga amal qilinsa bas. Uning ilmiy merosida mantiqqa oid asarlar katta o'rin to'tadi. U matematika, geologiya, biologiya va boshqa fanlarning rivojiga katta hissa qo'shgan.

Subyektiv idealizmning yirik vakili *Jorj Berkli* (1685–1753-yy.) Lokkning ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limotidan o'zining idealistik qarashlarini asoslashda foydalanadi. U o'zining «Kishi bilishining asoslari haqida risola» asarida subyektни birlamch: deb hisoblab, barcha narsalar ongining holatidan, sezgilar majmuidan iborat deb ta'lim beradi. Berkli materiyani, obyektiv reallikni butunlay tan olmas edi. U olamda «Men» va mening sezgilarimdan boshqa hech narsa yo'q, olamdagi narsalar mening sezgilarimdagina mavjud, agar men sezmasam, ularning mavjudligi haqida gap bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydi.

Berkli solipsizmdan qochishga, o'rinib, ruhiy substantsiyalarning ko'pligi hamda «nihoyasiz ruhning», xudoning mavjudligini e'tirof etadi.

Berkli materiyani, obyektiv reallikni butunlay tan olmay, men qabul etadigan butun hissiy tasavvurlarni menda moddiy predmetlar emas, balki ruh paydo qiladi, shu ruh esa Xudolar degan edi. U materiya tushunchasini ichki tomondan ziddiyatli va bilish uchun befoyda deb tanqid qiladi.

Berkli Lokkning birlamchi va ikkilamchi sifatlar to'g'risidagi g'oyasini rad qilib, barcha sifatlarni subyektiv, deb e'lon qiladi. U fanning dunyoqarashidagi ahamiyatini inkor qilib, olamning vazifasi «hamma narsani, faqatgina jismoniy sabablar bilan izohlashni da'vo qilmasdan, balki yaratuvchining tilini o'rganib olishdan iborat», deb hisoblardi.

Subyektiv idealizmning yana bir yirik vakili *David Yum* (1711–1776-yy.)dir. U obyektiv reallikning mavjudligiga shubha bilan qarovchi skeptitsizmning asoschilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning nuqtai-nazaricha, dunyo qonunlari subyektiv xususiyatga ega bo'lib, bizning odatlarimizga bog'liq, sababiyat va zaruriyat sezgilarimizning tartibidan, ketma-ketlikdan boshqa narsa emas. Shunday qilib, Yum skeptitsizmi agnostitsizmning turlaridan biri sifatida moddiy dunyo qonunlarini bilishni inkor qiladi va fan taraqqiyotini cheklashga harakat qiladi.

Yum obyektiv olamning mavjudligi yoki mavjud emasligi degan masalani hal qilmaydigan masala, deb hisoblardi. Bilimning vazifasini Yum borliqni payqashda deb emas, balki amaliy hayot uchun qo'llanma bo'lish qobiliyatida deb bilardi. Uning fikricha, ishonchli bilimning yagona predmeti matematika obyektlaridir; tadqiqotning boshqa hamma predmetlari mantiqiy jihatdan isbotlab bo'lmaydigan asoslarga taalluqlidir, ular faqat tajribadan xulosa qilib chiqariladi, ammo Yum tajribani idealistlaracha tushunib, voqelik faqat «tasavvurlar» oqimidir, ularning sabablari noma'lum va ularni payqab bo'lmaydi der edi.

Etika masalasida Yum utilitarizm nazariyasini rivojlantirdi, foydalilikni aql-odob mezoni deb e'lon qildi. Din falsafasida u, koinotdagi tartibot sabablarining aqd bilan bir qadar o'xshashligi bor degan faraz bilan cheklandi, lekin shu bilan birga xudo haqidagi har qanday diniy va falsafiy ta'limotni rad qildi, u tarixiy tajribaga asoslanib, dinning axloq-odobga va fuqarolik hayotiga ta'sirini zararli deb e'tirof qildi.

XVII asr materializmi o'rtaga qo'ygan barcha falsafiy fikrlar XVIII asr fransuz mutafakkirlari tomonidan yanada rivojlantirildi. *Lammetri* (1709–1751-yy.), *Gelvetsiy* (1715–1771-yy.), *Didro* (1713–1784-yy.), *Golbax* (1723–1784-yy.) va *Robine* (1735–1820-yy.) hamma ijodiy jismlar o'zgarmaydigan va bo'linmaydigan atomlardan (Golbax) yoki molekulalardan (Didro) tashkil topgan, deb hisoblaydilar. Ularning ayrimlari, masalan, Golbax materiyani obyektiv reallik sifatida falsafiy izohlashga harakat qiladi.

Golbaxning fikricha, «materiya bizning hislarimizga biror tarzda ta'sir ko'rsatadigan narsalarning hammasidir». Materiya o'zgarmas va bo'linmas atomlardan iborat bo'lib, bu atomlarning asosiy hossalari ko'lamlilik, og'irlik, shakl, o'tkazmaslikdir.

Fransuz mutafakkirlari materiya haqidagi falsafiy ta'limotni rivojlantirishga qo'shgan hissalar shu bo'ladiki, ular materiyani harakatsiz, harakatni esa materiyasiz mavjud bo'lishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Ularning ta'limotiga ko'ra, harakat materiyaning mavjudlik usulidir, materiya harakati abadiy va mutlaq. Fransuz olimlarining materiyaning ichki faolligi haqidagi ta'limoti XVII asr materialistlarining materiya va harakat haqidagi qarashlariga nisbatan olg'a qo'yilgan yirik qadam edi. Ammo ular harakat shakllarining turli-tuman ekanligini va sifat jihatdan bir-biridan farq qilishini tushuna olmadilar. Ular harakatni jismlarning fazoda oddiy o'rin almashishi ko'rinishida tasavvur qilib, harakatning sababini tashqi ta'sirlardan qidirgan edilar. Shu sababli ular harakatning faqat bitta shakli – mexanik harakatni tan olar edilar.

Shu bilan birga, fransuz olimlari ba'zi evalyutsion g'oyalarni ham olg'a surganlar, ular organik dunyo noorganik dunyodan, yuqori organizmlar quyi organizmlardan kelib chiqqan degan fikrlarni aytganlar.

Dunyoni bilish masalasida fransuz faylasuflari sensualist edilar. Ular barcha bilimdarning manbaini moddiy predmetlarning sezgi a'zolariga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan sezgilardan iborat deb bildilar. Sezgisiz, bilish jarayoni bo'lmaydi, deb hisoblar edi Golbax. Sezgi, uning fikricha, miyada sodir bo'ladigan farq qiluvchi o'zgarishlardir, ong esa bu o'zgarishlarni idrok qilishdir.

Gelvetsiy o'zining «Aql haqida» asarida aql bizning sezgilari-mizning yig'indisi deb ta'kidlaydi.

Fransuz materialistlari haqiqat va uning mezoni masalasi bilan ham alohida shug'ullanganlar. Haqiqat, ularning ta'limotiga ko'ra, fikrlar,

g'oyalarning predmetlari va ular orasidagi bog'lanishlarga doimiy mos kelishidan iborat. Ular haqiqatning mutlaq va nisbiy tomonlarini hisobga olmadilar.

Inson fikri va g'oyalariining manbai tashqi dunyo ekanligi nuqtai nazaridan turib, fransuz faylasuflari Dekartning «tug'ma g'oyalar» nazariyasini har tomonlama tanqid qildilar. Ular kishilarda hech qanday «tug'ma g'oyalarning» bo'lishi mumkin emas, chunki har qanday fikr va g'oya tashqi dunyoning inson miyasiga ta'siridan keyingina hosil bo'ladi, deb hisoblar edilar.

Fransuz mutafakkirlari izchil determinist edilar, ularcha, olamda birorta sababsiz voqea, hodisa mavjud emas. Ular obyektiv olamda faqat zaruriyat mavjud deb tasodifni butunlay rad etdilar. P.Golbaxning fikricha, tabiatda hech narsa tasodifiy yuz bermaydi, undagi hamma hodisa ma'lum bir qonunga amal qiladi, bu qonun ma'lum oqibatining sababiy va zaruriy bog'lanishidan iborat. Tabiatdagi butun voqea, hodisalar oldindan belgilangan, boshqacha tarzda bo'lishi mumkin emas, inson zaruriyatining qulidir, u hayotda bir daqiqa ham erkin emas. Ularning bu fikrlari taqdirga tan berishga olib keladi.

Fransuz materialistlari o'zlarining ko'pgina asarlarida dinga qarshi chiqib, uning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni haqida bir qancha fikrlarni bayon etadilar. Ularning fikricha, din odamlarga tabiat, jamiyat haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishga, ijtimoiy adolatsizliklarning haqiqiy mohiyati, sababini anglashga, uni bartaraf etish yo'llarini bilib olishga yo'l qo'ymaydi. Shu bilan birga, din mehnatkashlarni qullikka va och-yalang'ochlikka mahqum etadigan podsho hokimiyatini ko'llab-quvvatlaydi. Ular din peshvolarini tanqid qilib, kishilarning qo'l-oyog'ini kishanlab qo'ygan din zanjirlarini parchalab, insoniy, ijodiy qobiliyatga keng yo'l ochish lozim, deb hisoblaydilar. Golbax ta'kidlaganidek, «kishilar manfaatli huddi shu diniy fikrlarning yo'q qilinishini talab etmoqda va sog'lom falsafa o'zini shu diniy chalg'itishlarning yo'q etilishiga butunlay bag'ishlashi lozim».

Fransuz olimlarining fikricha, kishi ijtimoiy muhitning mahsuli, ijtimoiy muhit qanday bo'lsa, kishi ham shunday bo'ladi. Demak, jamiyat hayotini yaxshilash uchun mavjud muhitni, sharoitlarni o'zgartirish kerak. Bu vazifani ularcha, faqat ma'rifatning rivoji orqaligina amalga oshirish mumkin. Ularning fikricha, har bir inson erkin tug'iladi, shuning uchun hamma baxtga, ozodlikka, adolatga babbaravar haqlidir. Bu ularning tabiiy, tug'ma huquqidir. Shuning uchun bo'lajak jamiyatning asosiy vazifasi – hamma kishilarni adolatli

ravishda baxt huquqi bilan ta'minlashdir. Ammo ular ijtimoiy muhit ma'nosida mavjud siyosiy tuzumni, uning qonunlarini, ustqurmasinigina tushunar edilar. Natijada fikr jamiyatni boshqaradi, kishilarning fikri, ongi qanday bo'lsa, jamiyat ham, ijtimoiy muhit va uning tuzilishi ham shunday bo'ladi, degan idealistik xulosa kelib chiqadi.

### 3. XVIII–XIX nemis klassik falsafasi

Falsafa fanining rivojlanishida nemis faylasuflarining ham hissasi katta. XVIII–XIX asrlarda Germaniyada falsafiy fikrlarning shakllanishida, bir tomondan, 1789–1794-yillardagi fransuz inqilobi va uning kishilik jamiyatining doimo o'zgarib turishi haqidagi xulosasi katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha davr Germaniya ijtimoiy hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Germaniya bu davrda nisbatan qoloq mamlakat bo'lib, nemis burjuaziyasi inqilobdan qo'rqqan, shu bilan birga kapitalizmning rivojlanishidan manfaatdor edi. Nemis burjuaziyasining bu ikkiyoqlamaligi o'sha davr falsafasida ham o'z ifodasini topdi.

Nemis klassik falsafasining asoschisi *Immanuil Kant* (1724–1804-yillar)dir. Kant falsafasining xususiyati shundaki, u materializmni idealizm bilan kelishtirishdan hamda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan falsafiy oqimlarni bir sistemada birga qo'shishdan iboratdir. Uning falsafasini ikki: tanqidiy falsafagacha bo'lgan (XVIII asrning 70-yillarigacha), tanqidiy falsafa davriga bo'lish mumkin. Kant o'z falsafasining dastlabki davrlarida asosan tabiatshunoslikning falsafiy masalalari bilan shug'ullandi. U 1785-yilda yozgan eng yirik asari «Butun umumiy tabiiy tarix va osmon nazariyasi»da Quyosh sistemasi koinotdagi boshlang'ich katta tumanlikni aylanma harakat qilishi natijasida kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Bu jarayonning sababi «dastlabki to'rtki» emas, balki o'zaro tortilish va itarilish orasidagi ziddiyatdir. Shu sababli Quyosh sistemasidagi barcha sayyoralar, jumladan, Yer ham Kant ta'limotiga ko'ra, o'zoq davom etgan tabiiy tarixiy taraqqiyotning mahsulidir. Kantning bu xulosasi uning tabiat hodisalarini dialektik tarzda tushunganligidan dalolat beradi. Lekin u ilmiy materialistik qarashlarini din bilan bog'lashni lozim topdi. Uningcha, tabiat hodisalarining ma'lum tartibiga, muayyan qonuniyatga bo'ysinishida Xudoning karomati bor.

XVIII asrning 70-yillaridan boshlab Kant faoliyatining ikkinchi davri boshlanadi va «Sof aqlni tanqid» (1781-y.), «Prolegomenlar» (1783-y.), «Muhokama qobiliyatini tanqid» (1790-y.) kabi asarlarida



o'zining tanqidiy idealizm sistemasini asoslaydi. Bu asarlarida u o'z e'tiborini insonning bilish qobiliyati va imkoniyatlarini tahlil qilishga qarab, obyektiv reallikning mavjudligini e'tirof etadi va uni «narsa o'zida», deb ataydi. Lekin uningcha, «narsa o'zida»ni bilish mumkin emas.

Kantning fikricha, «narsa, predmetlar bizning ongimizdan tashqari mavjud, biroq ular nimadan iborat ekanligini biz bilmaymiz va hech qachon bila olmaymiz ham... Biz obyektlarni bizning sezgilarimizga qanday tuyulsa shunday bilishimiz mumkin, ammo aslida ular qanday, buni biz bila olmaymiz».

Kant inson bilimini ikki guruhga ajratadi: 1. Tajriba asosida hosil bo'ladigan bilimlar (aposteriori). 2. Tajribagacha yoki unga bog'liq bo'lmagan bilimlar (apriori). Fazo, vaqt, sababiyat kabi tushunchalar aprior bilimlar shakli bo'lib, bular tajriba natijasida hosil qilinadigan bilimlardan ustun turadi. Tajribaviy bilimlar alohida-alohida olingan, bir-biri bilan bog'lanmagan hodisalarni ifodalasa, tajribagacha bo'lgan aprior bilimlar esa hodisalar o'rtasidagi umumiy sababiy va zaruriy bog'lanishlarni, ya'ni qonuniyatlarni ifodalaydi.

Dunyo qonunlarining obyektiv xususiyatga ega ekanligini Kant mutlaqo tan olmaydi. Uning fikriga ko'ra, kishilarning idroki tabiatga qonunlar ato qiladi, shuning uchun ham inson aqli tabiatga moslashishi kerak emas, balki tabiat inson aqliga moslashishi lozim.

Kantning falsafa taraqqiyotidagi xizmatlaridan biri shu bo'ladiki, u keyinchalik Hegel tomonidan dialektikani yaratishda asos bo'lib xizmat qilgan antinomialarni ko'rsatib o'tdi.

Kantning ta'limotiga ko'ra, inson aqli tabiatan antinomialidir, ya'ni ziddiyatlarda ikkilanuvchidir. Shuning uchun qarama-qarshi fikrlarni bab-baravar isbotlash yo'li bilan asoslab berish mumkin. Masalan, olam ham» nihoyalidir va ham chegaralari yo'qdir. Bo'linmas zarrachalar (atomlar) bor va bunday zararlar yo'q va hokazo. Uningcha, bu ziddiyatlar har qanday holda faqat zohiriydir.

Kant axloq masalalariga ham katta e'tibor berdi. Uning nuqtai nazaricha, jamiyatdagi har bir kishining xulq-atvori, irodasi obyektiv reallikdan tamomila ajralgan va o'zgarmasdir. Aqlning asosi esa kishilar ongidagi o'zgarmas amir farmondir.

Kant mutlaq buyruqni (qat'iy imperativ) etikaning asosiy qonuni deb e'lon qildi. Bu buyruq uringcha, hatti-harakatning mazmuniga mutlaqo bog'liq bo'lmagan holda xulq-atvorning yalpi umumiy qonuni bo'la oladigan qoidaga amal qilishini talab etadi.

Kantning jamiyat hayotining tarixiy jarayonida antogonizmlarning roli, abadiy tinchlikni barqaror qilishda turli davlatlar uchun o'zaro foydali aloqalarni rivojlantirish haqidagi ta'limoti falsafaning keyingi rivojlanishiga g'oyat katta ta'sir ko'rsatdi.

**Iogann Gotlib Fixte** (1762–1814-yy.). Nemis subyektiv idealizmi-ning yirik namoyondasi Kantning «narsa o'zida» haqidagi ta'limotini uloqtirib tashlab, bilish shaklining butun xilma-xilligini bir subyektiv idealistik ibtidoan keltirib chiqarishga o'ringan. Bu ibtido shundan iboratki, faylasuf qandaydir mutlaq subyektiv «Men»ni nazarda tutib, unga benihoya aktiv faoliyat beradi, shundan keyin u olamni yaratadi. Boshlang'ich «Men»bu o'ziga xos «Men» emas, balki ongning axloqiy faoliyagidir. Ana shu mistik boshlang'ich «Men» alohida «Men»ni keltirib chiqaradi. Uni Fixte mutlaq emas, balki cheklangan inson subyekt yoki empirik«Men» deb tushunadi va bunga tabiat, ya'ni empirik tabiat qarama-qarshi turadi. Fixtening fikricha, absolyut subyekt «Men» va tabiat, ong va narsalar bir-biri bilan o'zviy bog'langan, ularning hech birini ayrim ravishda bilib bo'lmaydi. Fixte ta'limotidagi dialektik fikrlar uning ijobiy tomonini hosil qiladi.

**Fridrix Vilgelm Iozef Shelling** (1775–1854-yy.) Fixtening subyektiv «Men»ga asoslangan falsafaga o'zining obyektivlik birlamchi degan fikrini qarama-qarshi qo'yadi. Shelling obyektiv idealizmning yangi shakli – ayniyat falsafasini yaratadi. Obyekt bilan subyektning ayniyat g'oyasi Shelling ta'limotining asosiy muammosini tashkil qiladi. Olamdagi barcha narsa va hodisalar uningcha, mutlaq ruhning ifodasidir. Materiya uningcha, ongdan tashqari mavjud bo'lgan reallik emas, balki mutlaq ruhning alohidagi holatidir. Shuning uchun materiya va ruhni bir-biriga qarama qarshi quyish mumkin emas. Bilish Shellingning fikricha, «Men»ning o'z-o'zini anglash deganidir. Demak, bilishning obyektini ong tashkil etadi va uning yordamida «Men» o'zligini anglaydi. Ruh, jon va ularning tasavvurlari o'zini ta'limotini, o'zligini bilishga qaratilgandir.

Shelling falsafasida dialektika g'oyalari ham mavjud. Mutlaq, ruh, «Men» uning fikricha, obyektivlik va subyektivlik kabi qarama-qarshiliklarning birligidan iborat. Ularning kurashi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar harakatining manbaidir. Uningcha, subyektivlik va obyektivlik birligidan iborat bo'lgan ruh (tezis), taraqqiyot jarayonida tabiatning shakllanishiga olib keladi (antitezis) va nihoyat tabiatdan yana obyektivlik va subyektivlikning birligi bo'lgan yuqori darajadagi ruhning taraqqiyotiga olib keladi (sintez).

Metafiziklarning fikriga qarshi chiqib, u tabiat doimo harakatda, uning manbaini qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi tashkil qiladi degan g'oyani ilgari suradi. Tabiatda hamma narsa bir-biri bilan chambarchas bog'langan, shuning uchun ham ularni bir-biridan ajratib qarash noto'g'ri. Fazo va vaqt bir-biri bilan bog'langan. Shellingning mazkur fikrlari nemis klassik falsafasining yirik namoyondasi Gegel tomonidan yanada rivojlantiriladi.

**Gegel** (1770–1831–yy.) falsafasi XVIII asming oxiri XIX asming boshlaridagi nemis idealizimining cho'qqisi va nihoyasidir. Gegel to'g'risida so'z borganda uning falsafasidagi ikki tomonni – dilektik usul va metafizik konservatik tizimini farq qilmoq zarur. Agar dialektik usul o'zida «ratsional mag'zini» – taraqqiyot to'g'risidagi ta'limotida gavdalandirgan falsafa shakli bo'lsa, uning diplomatik idealistik sistemasi esa konservativ taraqqiyotning to'htab qolishini talab etadi va shuning natijasida dilektik usulga tubdan ziddir.

Gegel obyektiv idealizm nuqtai nazarida turib «olam aqli», «olam ruhi», «mutlaq g'oya» bilan ifodalangan har qanday ruhiy ibtido tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarning asosidir, real dunyodan tabiat va jamiyatdan ilgari ruhiy ibtido, «mutlaq g'oya», Xudo mavjud bo'lgan deb hisoblaydi.

Gegel ta'limoti bo'yicha mutlaq g'oya o'z taraqqiyotida uch bosqichni: tezis, antitezis, sintezni bosib o'tadi: 1) g'oyaning o'z bag'rida, «sof tafakkur stixiyasida» rivojlanishi. Bunda g'oya bir-biriga bog'liq, bo'lgan va bir-biriga o'tib turadigan mantiqiy kategoriyalar tizimini o'z mazmunini ochib ko'rsatadi; 2) g'oyaning «o'zi shakl» ko'rinishida, ya'ni tabiat shaklida rivojlanishi; 3) g'oyaning tafakkurida va tarixida («ruhda») rivojlanishi. Bu bosqichda mutlaq g'oya yana o'z-ziga qaytadi va inson ongi faoliyatining turli ko'rinishlarida o'z mazmunini payqab oladi.

Ammo Gegelning falsafiy sistemasida ijobiy tomonlari, ya'ni «ratsional mag'zi» harn mavjud. Bu uning dialektikasi va bilish nazariyasida o'z aksini topgan. Bu esa uning «Mantiqiy fani» asarida bayon etilgan. Bu asarida Gegel dialektikaning uch asosiy qonun: 1. Qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonuni. 2. Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni. 3. Inkorni-inkor etish qonuni mohiyatini chuqur va atroflicha asoslab beradi. Shuningdek, uning asarlarida falsafaning barcha kategoriyalari ham tavsiflanib berilgan. Bilish nazariyasiga Gegelning qo'shgan hissasi shundan iboratki, u mantiqiy (mantiq) va bilish nazariyasining birligini asoslab

berish bilan bir qatorda dialektik mantiqning birinchi kengaytirilgan tizimini yaratadi. Gegel bilish jarayonining xususiyatlari, haqiqatga erishish dialektikasi kabi masalalarni har tomonlama asoslab berdi. U dialektika qonuniyatlarini tabiat va ijtimoiy fanlarga tatbiq etib falsafaning hamma sohalarida chuqur iz qoldirdi. Gegel mantiq haqidagi ta'limotida mavjud olam bilan nazariy va amaliy faoliyatining muhim qonuniyatlari aloqador ekanligini ko'rsatib bergan edi.

Nemis klassik falsafasining buyuk vakili faylasuf **Lyudvig Feyerbax** (1804–1872-yy.)dir. Feyerbax falsafada antropologik yo'nalish tarafdori edi. Ularning ta'biricha, inson tabiatining bir qismi, uning gultojidir. Shuning uchun dunyodagi hamma narsa insonga xizmat qilishi lozim. Falsafaning mavzusi inson va uning faoliyatidadir. Din insonga uning vafotidan keyingi dunyo haqida yo'l ko'rsatadi, falsafa unga shu dunyoda qanday yashashi kerakligini ko'rsatadi.

Feyerbax fikricha, tabiat faqat inson orqali o'z-o'zini payqaydi va o'zi to'g'risida fikrlaydi. Tafakkurni borliqdan, ongni materiyadan ajratib qo'yuvchi idealistlarni u keskin tanqid qilib, tafakkurning borliqqa munosabati masalasi eng avvalo, inson masalasi ekanligini ta'kidlaydi, chunki anglash va fikr qilish insonning xususiyatidir.

Feyerbax ta'limotiga ko'ra, fazo va vaqt materiyaning borliq, shakllari, atributidir, harakat esa materiyaning mavjudlik usulidir.

Feyerbax Gegelning idealistik falsafasini din bilan yaqin aloqada deb hisobladi. Shu tufayli, uning fikricha, dindan qutilish uchun Gegelning idealizmdan mutlaq ozod bo'lishi lozim. Feyerbax Gegel falsafasini, uning idealizmini tanqid qilish jarayonida undagi «ratsional mag'zini» ko'ra olmadi, ya'ni u Gegelning dialektik usulini, undagi o'zaro bog'lanish va taraqqiyot ta'limotini uning idealizmi bilan birga rad etdi.

Feyerbax dunyo va uning qonunlarini bilish mumkinligini inkor qiluvchi Kant agnostitsizmini tanqid qildi. U moddiy dunyoda inson tomonidan hali urganilmagan narsa va hodisalar juda ko'p ekanligini ta'kidlaydi, lekin inson ularni fan va amaliyotning taraqqiyoti davomida bilib olishga qodir, deb hisoblaydi.

XIX asrning o'rtasida nemis faylasuflari **Karl Marks** (1818–1883-yy.) va **Fridrix Engels** (1820–1895-yy.) dialektik va tarixiy materializm deb nomlangan falsafani yaratdilar. **V.I.Lenin** (1870–1924-yy.) tomonidan rivojlantirib sobiq ittifoqda 70 yil davomida hukmron mafkura sifatida kishilarning ongiga majburan singdirilib kelingan mazkur

falsafiy ta'limot ijtimoiy hayot, madaniyat, fan va boshqa sohalarda ko'pgina salbiy oqibatlarining keli b chiqishiga sabab bo'ldi.

#### 4. Rus falsafasi

Rus falsafasi taraqqiyoti ikkita bir-biridan sifat jihatidan ajralib turadigan davr mavjudligi bilan tavsiflanadi: 1) XI–XVII asrlar; 2) XVII asr oxiridan XIX asrgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga qamrab oladi.

Birichni davrda asosan diniy-falsafiy qarashlar taraqqiy etib, unda olam Xudo tomonidan yaratilgan, insoniyat tarixi Xudoning marhamati bilan iblisning qora niyati o'rtasidagi kurashdan iborat, inson hayotining o'tkinchi, ruhning o'lmasligi, abadiyligi haqidagi g'oyalar o'z aksini topadi. X asrda qadimgi rus o'likalarida yashagan xalqlar tomonidan xristianlik dinining qabul qilinishi bu erda falsafiy fikrning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu borada kievlik metropolit Ilarionning «Qonun va yaxshilik haqida so'z», «Ibodot» kabi asarlarini ko'rsatib o'tish joizdir. Shuningdek, «Igor qo'shini haqida so'z» (XII asr), «O'tkinchi yillar qissasi» (XI–XII asrlar) va boshqa adabiy yodgorliklar rus xalqining tarixi, madaniyati, ijtimoiy-falsafiy qarashlari to'g'risida qimmatbaho manbalar bo'lib hisoblanadi.

XVII asrning oxiridan boshlab rus falsafasi taraqqiyotida yangi davr boshlandi. Bu davr Pyotr I ning Yevropa madaniyati, fan va texnika yutuqlarini Rossiyaga singdirish harakatalari bilan uzviy bog'langan bo'lib, u tabiat va jamiyat taraqqiyotiga ilm-fan nuqtai nazariyadan yondashishga qaratilgan ilmiy-falsafiy fikrlarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi.

Ushbu davri rus falsafasining yirik namoyondalaridan biri *M.V.Lomonosov* (1711–1765-yy.) edi. Uning ijodiy faoliyati nihoyatda hartomonlama bo'lib u qimyo, fizika, filologiya, she'riyat, tarix va boshqa fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Lomonosov o'z davrining madaniyatida hukmron bo'lgan safsatabozlik qarashlariga qarshi chiqdi. Idealistik nazariyalarga u tabiat jismlarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi g'oyalarini qarama-qarshi qo'ydi. «Yer qatlamlari» asarida o'simlik va hayvonot olamining evolyutsiyasi haqidagi farazni ilgari surdi va tabiatni o'rganish zurligini isbotlab berdi.

Lomonosov fikricha, tabiatdagi hamma narsalar materiyadan (atomlardan) tashkil topgan. U qadimgi atomistik nazariyani qullab-

quvvatladi. Barcha narsalar atomdan tashkil topgan bo'lib, ular o'z navbatida mayda zarrachalar (korpuskulalardan) iborat, deb hisobladi. Korpuskulalar yoki molekulalarning turlicha qo'shiluvi narsalarning xilma-xilligini belgilaydi.

Tabiat o'z qonuniga ega bo'lib, jismlardan tortib atomlargacha barcha hodisalar va o'zgarish jarayoni ana shu qonuniyatga bo'ysunadi, unga muvofiq vujudga keladi. Shuning uchun ular qandaydir tashqi kuchga muhtoj emas.

Lomonosov materiya doimo harakatda, rivojlanishda degan g'oyani ilg'a surgan, u materiya va harakatning saqlanish umumiy qonunini kashf etadi. Bu qonunni u 1748-yil 5-iyul kuni Eylerga yozgan maktubida ta'riflab bergan edi. Uning bu kashfiyoti XVIII asr tabiat fanlarida ilimga hukmron bo'lgan salbiy qarashlarga qat'iy zarba beradi.

Lomonosov «Issiq va sovuqning sababi haqida o'ylar» asarida issiqlik yaratuvchi materiyaning alohida turli sifatidagi teplorod tushunchasini rad etadi va issiqlik jarayonlarining sababini materiya zarralarining harakatidan izlamoq kerak deb ko'rsatadi. Uningcha, materiyaning asosiy hossalari: ko'lamlilik, inersiya kuchi, shakl, o'tkazmaslik va mexanik harakatidan iborat. Shuningdek, Lomonosov «birinchi turki»ni ham tabiatning rivojlanish sababalaridan biri deb hisoblaydi.

Lomonosovning bilish nazariyasiga ko'ra tashqi olam sezgilari-mizning manbaidir. U Dekartning «tug'ma g'oyalar» i bilan Lokkning «ikkilamchi sifatlar» ta'limotiga qarshi chiqdi. Predmet va hodisalarning ichki sababini bilish uchun tajriba bilan tafakkur birligi zarur va u nazariy xulosalar orqali tekshirilishi lozim. Hissiy qabul qilish va ilmiy tushuncha birligi moddiy olamning turli qiyofasini beradi.

Ijtimoiy hodisalami tushunishda Lomonosov ma'rifatchilik nuqtai nazariga qo'shiladi va jamiyat hayotini faqat maorif vositasi bilan va xulq-atvorni takomilashtirish yo'li bilan yaxshilash mumkin, deb o'ylaydi.

*A.N. Radishchev* (1749–1802-yy.) Rossiyadagi ilg'or fikrlarning namoyondasi. Uning falsafiy qarashlari «Inson, uning o'lishi va o'lmasligi haqida» asarida o'z ifodasini topgan. U moddiy dunyo obyektiv mavjud, u turli xil sifat, xususiyatlarga: og'irlik, shakl, harakat, rang va boshqalarga ega, materiya va harakat bir-biri bilan uzviy bog'liq, degan edi. Inson o'limidan keyin uning ruhi abadiy yashashi mumkinligini tasdiqlaydigan hech narsa yo'qligini ko'rsatgan. Bilish nazariyasiga doir fikrlarini bildirganda uningcha inson o'z bilimlarni sezgilar yordamida

olamdan oladi, deb hisoblagan. U Dekartning «tugʻma gʻoyalari» qarshi chiqdi hamda tashqi olam inson bilimining manbai ekanligini asosladi.

XIX asrda Rossiyada ijod qilgan *V.G.Belinskiy* (1811–1848-yy.), *A.I.Gertsen* (1828–1889-yy.), *N.G.Chernishevskiy* (1820–1880-yy.), *N.A.Dobrolyubov* (1836–1861-yy.), *N.P.Ogaryov* (1813–1877-yy.)lar ham falsafiy tafakkur rivojiga katta hissa qoʻshganlar. Ular M.V.Lomonosov, A.I.Radishchev hamda nemis klassik faylasuflari Gegel, Feyerbaxlarning ilmiy falsafiy merosini atroflicha oʻrganib chiqishdi, undagi ilgʻor fikrlarni hisobga olib, yangi falsafiy taʼlimot yaratdilar. Ular fikricha, materiya birlamchi, ong yuksak darajada tashkil togan materiyaning muhsuli, shu tufayli u ikkilamchidir. Dobrolyubov dunyodagi barcha jismlar harakat va rivojlanishda boʻlgan yagona materiyaning turli-tuman holatlaridan iborat: materiya abadiy, u hech kim tomonidan yaratilmagan va yoʻqolib ketmaydi, u faqat oʻzining shaklini oʻzgartiradi xolos, dunyoda materiyadan ajralgan hech qanday kuch yoʻq, deb taʼkidlaydi.

Rus maʼrifatparvarlarining katta yutuqlaridan biri ularning tabiat qonunlarining obyektiv xususiyatga ega ekanligini ilmiy asoslab berganliklari boʻldi. Ular fikricha, faqat tabiatgina emas, uni boshqarib turuvchi qonunlar ham obyektiv mavjuddir. Chernishevskiy Kant va uning izdoshlarining qonunlar faqat bizning ongimizda mavjuddir, degan xulosasiga qarshi chiqib, tabiat qonunlari inson aqlining mahsuli emas, ular ongdan tashqarida va unga bogʻliq boʻlmagan holda mavjuddir, deydi.

Chernishevskiy fikricha, tabiatdan gʻoyalarni izlash samarasizdir, chunki u har xil sifatga ega boʻlgan turli-tuman materiyadagina tashkil topgan. Inson materiya taraqqiyotining umumiy zanjirida joylashgan. U toshdan, tortib oʻsimlikkacha, daraxtdan hayvonot dunyosigacha, jumladan, insonning oʻzi ham materiyaning turli tuygʻun birikmalaridir, deb taʼkidlaydi.

Gertsen materiya va ruh chambarchas bogʻlangan, shuning uchun ularni bir-biridan ajratishga hojat yoʻq, deb koʻrsatadi.

Rus demokratlari dinga qarshi keskin kurash olib bordilar. Ular fikricha, din xalq ommasini zaharlovchi, hukmron sinf manfaatlariga xizmat qiluvchi vositadir. Din kishilarning tabiat kuchlari oldidagi oʻzligidan kelib chiqadi. Ular fikricha, inson dunyoni bilishi mumkin. Bilish jarayoni hissiy va mantiqiy jihatlardan tashkil topgan. Ular obyektiv dunyoni bilish mumkinligini tan olmaydigan skeptik va agros-

tiklarni qattiq tanqid ostiga oldilar. Belinskiy skeptitsizm va agnostitsizmni og'ir va xavfli kasalga o'xshatib, «fikrning paralich bo'lishi», deb tavsiflaydi. Chernishevskiy Kantning «narsa o'zida»ni bilish mumkin emas, degan fiqlariga qarshi kurashadi.

Rus demokratlari dialektikaga oid chuqur firklarni bildirdilar. Ular Gegel dialektikani bqori baholagan bo'lsalar-da, uning ta'limotidagi kamchiliklarni ham atroflicha ochib tashladilar.

Ular metafiziklarga qarshi chiqib, tabiat va ijtimoiy hayotni doimo rivojlanishda va o'zgarishda, deb hisoblaydilar. Hayot, Belinskiy fikricha, betinim harakat va rivojlanishdadir. «Yashash» olg'a qarab rivojlanish», demakdir, degan qoidaga asoslanib, Gegelning «doira bo'ylab taraqqiyot» ta'limotiga qarshi chiqdilar.

Harakat va rivojlanishning sababini narsa va hodisalarning o'zidan qidiradilar. Rivojlanishning manbai ichki qarama-qarshiliklar kurashidadir.

Rus taraqqiyparvarlari falsafa tarixida birinchi bo'lib falsafiy ta'limotlarni sinflar va siyosiy partiyalar kurashi bilan sug'orilganligini ko'rsatdilar. Ular siyosiy va falsafiy nazariyalar har doim ham yuz berayotgan hodisalar ta'sirida bo'lishini, bular esa hayot hodisalari yuz berishini tezlashtirishga yoki sekinlashtirishga qaratilganini ta'kidlaydilar.

Rus ilg'or demokrtlarining falsafa tarixida tutgan o'ziga xos o'rni, ular dunyo hodisalarini tushuntirishda XVII asr faylasuflariga nisbatan bir qadam oldinda bo'lganliklaridadir. Shuningdek, ular falsafasi, oldingi materialistik ta'limotlardan farqli o'laroq, jamiyat a'zolarini harakatga, jamiyatni o'zgartirishga undaydigan ta'limot edi.

Rus falsafasida materialistik dunyoqarash bilan bir qatorda diniy falsafiy qarashlar ham taqqiy etgan. Ular markazida e'tiqod va bilim asosiy o'rin egalladi.

Diniy falsafaning yirik namoyondalari *V.Solovev* (1853–1900-yy.), *Berdyaev* (1870–1948-yy.), slavyanofillar falsafasining tarafdorlari *S.N.Bulgakov*, *P.A.Florenskiy*, kanchilik guruhiga *N.O.Losskiy*, *S.L.Frank*, *G.G.Shpnetlar* ham o'ziga xos falsafiy fikrlarni birlidirishga muvaffaq bo'lganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus falsafasi taraqqiyotida uchinchi davr boshlandi. Bunda G.V.Plexanov (1856–1918 yy.) katta rol o'ynadi. Plexanovning falsafiy fikrlari uning «Tarixga monistik qarashning rivojlanishi masalalasiga doir», «Materializm tarixiga oid ocher-



klar», «Tarixda shaxsning roli masalasiga doir» va boshqa asarlarda bayon etilgan.

Plexanov tarixini materialistik g'oyalar asosida tahlil etib, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong munosabatlarining murakkabligini ko'rsatdi. U dinning kelib chiqishi, jamiyatda tutgan o'rni hamda uning ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan aloqadorligi haqida o'z fikrlarini bayon etdi.

Rossiya falsafiy tafakkurini rivojlantirishda *V.I.Lenin* (1870–1924-yy.) o'ziga xos hissa qo'shgan. U XIX asr oxirida tabiat fanlari sohasida ro'y bergan tub o'zgarishlarning sababalarini tahlil qilib, fizikaviy idealizmning mohiyatini ochib berdi. U o'zining asarlarida dialektika nazariyasi, dialektika va metafizikaning qarama-qarshiligi, idealizmning gnoseologik ildizlari, shuningdek, jamiyat taraqqiyotiga oid bir qancha masalalarni yoritib berdi.

## 5. XX asr falsafasi

Demak, qadimgi Sharq, O'rta Osiyo, G'arb falsafasining markazida borliq, tabiat, ong, inson, jamiyat, ularning mohiyati va rivojlanish qonuniyatlari, bir-biriga ta'siri va o'zaro aloqadorligi, voqelikni bilish yo'llari kabi muammolar asosiy o'rinni egallab kelgan. Mazkur muammolar hozirgi davr falsafasining ham diqqat markazida turibdi. Lekin, avvalgi davrlarga nisbatan, yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolar hozirgi kunda keng va chuqurroq qiziqish uyg'otmoqda. Buning boisi shundaki, fan taraqqiyoti va amaliyot bizga mazkur masalalarning yangi tomonlari, murakkab qirralarini ochib bermoqda, ular esa o'z navbatida yangicha falsafiy yondashishni taqozo etmoqda.

XX asr falsafasining xususiyati shundan iboratki, falsafaning yuqorida qayd qilingan an'anaviy masalalari bilan bir qatorda hozirgi davr taraqqiyotidan kelib chiqqan bir qator yangi muammolarda ham o'z ifodasini topgan. Buni biz psixozanaliz (ruhiy tahlil) falsafasidan yaqqol ko'rishimiz mumkin. Mazkur falsafiy oqimning yirik namoyondalari *Zigmund Freyd* (1856–1939-yy.), *K.Yung* (1875–1961-yy.), *E.Fromm* (1900–1980-yy.) hisoblanadi.

Z.Freydning fikricha, har bir kishida ong va ongsizlik tomonlari mavjud. Ong ostida katta miqdorda ilgari saqlanib kelayotgan ichki kechinmalari, iztiroblari uning tashqi ong faoliyati va harakatlarini belgilaydi.

Odamlarning bolalik davriga xos bo'lgan izirotlari, kechinmalari ong tomonidan «esdan chiqarib», ongsizlik diyoriga qarab siqib yuborilgan. Har bir kishi o'zida katta miqdorda qo'rquv, ilohiy kuchlarga ishonch hissiyotlarini saqlab yuribdilar. Ular kishilarni qiynab har xil asab kasalliklarini keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqdalar.

Z.Freyd o'zining «Я», «Оно», «Тотем и табу», «Толкование сновидений», «Психопатология обиденной жизни» va boshqa asarlarida inson ongi uchta darajadan tarkib topgan, deydi: 1. Mendan yuqori (Сверх Я – сверхсознание). Unga odob-axloqqoidalari, axloqiy nazorat, ota-onalar tomonidan man etilgan qoidalar kiradi. 2. Ong – Men (Я). 3. Ongsizlik – U (Оно). Bunga ong tomonidan siqib chiqarilgan instinktlar, izirotlar, jinsiy, agressiya instinktlari kabilar kiradi. Mazkur instinktlar insonlarga ilgari hayvoniy va ibtidoiy hayotdan meros bo'lib o'tgan.

Ongga (Menga) doimiy ravishda, bir tomondan. Mendan yuqori (сверх Я) tomonidan man qilingan qoidalar, ikkinchi tomondan, ong ostidagi ongsizlik – U (Оно) instinktlari ta'sir ko'rsatib turadi. Shu tufayli kishilar turli asab kasalliklariga muhtalo bo'ladi.

Oddiy kishilar mazkur holatdan o'zidagi ongsizlikni san'at, fan, ijtimoiy faoliyatga safarbar etish orqali chiqishga muvassar bo'ladilar. Shuning uchun ham buyuk san'at asarlari, ilmiy kashfiyotlar, odatda ongsizlik instinktlarining ta'siri ostida yuzaga keladi.

Z.Freyd ta'limotini uning shogirdi K.Yung yanada rivojlantiradi, mazmunan boyitadi. K.Yung kishilarda shaxsiy ongsizlikdan tashqari kollektiv, «urug'» ongsizlik mavjud degan g'oyani ilgari suradi.

Kollektiv ongsizlik, ajdodlarimiz tabiat bag'rida yashagan davrda mujassamlashgan va avloddan-avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan kechinmalarni, izirotlarni tashkil etadi. Inson ongi ham shaxsiy ham kollektiv kechinmalar, izirotlar ta'siri ostida rivojlanadi. Mazkur kechinmalar odatda uxlagan vaqtda tush ko'rish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi, deydi K.Yung.

E.Fromm, Z.Freyd ta'limotini ijtimoiy munosabatlarni tahlil etishda tadbiq etib, bir qator yangi fikrlarni ilgari suradi.

Pozitivizmlar barcha haqiqiy, «ijobiy» (pozitiv) bilimlarni ayrim fanlarning natijasi yoki ularni sintetik birlashtirish natijasi sifatida olish mumkin deydi. Ular real voqealarni chuqur tadbiq, qilishga qaratilgan falsafa alohida fan bo'lish huquqiga ega emas, deb da'vo qilganlar. Pozitivizm XIX asrning 30–40-yillarda vujudga kelgan. Uning asoschisi fransuz faylasufi O.Kont hisoblanadi. Pozitivizm uchta asosiy

ko'rinishga ega: 1) O. Kont pozitivizmi; 2) Empiriokrititsizm; 3) Neopozitivizm.

Kont fan o'zidan ustun turuvchi hech qanday falsafaga muhtoj emas degan g'oyani ilgari suradi. Kont fikricha, fan falsafaning «metafizik» muammolari bilan qiziqmaydi, u idealizmi ham, materializmi ham rad qiladi. Mohiyat va sababini ochib beradigan da'voga taalluqli metafizik qoldiqlar fandan haydab chiqarilishi kerak. Shuning uchun fan hodisalarini izohlama-ydi, balki izlaydi va «nima uchun» degan savolga emas, balki «qanday» degan savolga javob beradi.

Pozitivizm tabiiy-ilmiy kashfiyotlarni aqliy-falsafiy nazariyalarga qarama-qarshi ko'yadi va mutlaq to'g'ri deb qabul qiladi.

Pozitivizmning ikkinchi tarixiy shakli – R.Avenarius va E.Max empiriokrititsizm (maxizm) falsafasining vazifasi barcha fanlarning umumiy xulosalarini sistemalashtiradigan «sintetik» sistemasining nazariyalaridan iborat bo'lmasdan, balki ular ishlab chiqqan subyektiv-idealistik asosi ilmiy bilish nazariyasini yaratishdan iborat deb biladi. Masalan, Max sezgini inson bilishi mumkin bo'lgan yagona «reallik» yoki butun mavjudotning «elementi» deb qaraydi.

XX asrning 20-yillarida neopozitivizm vujudga keldi. Uning vujudga kelishida ingliz mantiq olimi, matematik va faylasufi B.Rassel va avstriya faylasufi L.Vitgenshteyn muhim rol o'ynadilar. Mantiqiy pozitivizm o'tgan asrning 20-yillari boshlarida M.Shlik tomonidan tashkil qilinib, uning tarkibiga R.Karnap, O.Neyrat va boshqalar kelib qo'shilgan «Vena to'garagi»da vujudga keldi. Shunga o'xshash qarashlarni Berlindagi «Empirikfalsafa jamiyati» (G.Reyxenbax, V.Dubislav), Varshava maktabi (K.Vidunevich, L.Xvistek) a'zolari rivojlantirdilar. Angliyada esa bu qarashga A.Dj.Ayer qo'shildi. A.Puankare konventsiyalizimi va pragmatizmning bir qator g'oyalari bilan to'ldirilgan maxizm neopozitivizmning asosiy g'oyaviy manbai hisoblanadi.

Neopozitivistlar dunyo haqidagi barcha bilimlarimizni faqat konkret empirik fanlar beradi, deb ta'kidlaydilar. Afsuski falsafa xususiy fanlardan tashqari, dunyo haqida birorta yangi qoidani ko'tarib chiqara olmaydi, hech qanday dunyo tasvirini yarata olmaydi. Uning vazifasi fanlar va ayrim bilimlarning xulosalarini mantiqiy tahlil qilish va tushuntirishdan iborat.

Neopozitivistlar falsafani faqat tilning mantiqiy tahlili bilan aynan bir narsa degan holda falsafadan falsafiy muammolarni chiqarib tashlashga va bu bilan uni amalda yo'q qilishga harakat qiladilar.

Neopozitivistlar mantiqiy tahlil qilishning muhim vazifalaridan biri mazmunga ega bo'lgan gaplarni ilmiy nuqtai nazarda mazmundan mahrum bo'lgan gaplardan uzoqlashtirish va fanni «mazmunsiz» gaplardan «tozalash»dan iborat deb biladilar. Empirik tajribada sinab ko'rilgan gaplar haqiqiy, sinab ko'rilmaganlarini esa sohta deb hisoblaydilar. Ana shunga suyanib, neopozitivistlar falsafaning muammolarini sinab qo'rilishi mumkin bo'lmagan sohta muammolar deb qaraydilar.

Verifikatsiya yoki sinab ko'rish neopozitivizm nuqtai nazarida gapni tajriba («hissiy ma'lumotlar, kuzatishlar»)ning ayrim ohirgi amallari bilan taqqoslashdan, yohuduni huddi shu faktni qayd qiladigan gap bilan taqqoslashdan iborat. Shu tariqa gap sezgi yohud sezgidan kelib chiqadigan gap bilan taqqoslanadi. Neopozitivizm shu tarzda o'z davrida ingliz faylasuflari Berkli va Yum bayon qilgan subyektiv idealistik bilish nazariyasining asosiy g'oyasi («ongimizdagi faktlardan yoki bu faktlar haqidagi fikrlardan boshqa narsani bila olmaymiz va bilishimiz mumkin emas»)ni qayta ta'kidlaydi.

Verifikatsiya tamoyili fanda real qo'llaniladigan sinashning elementar tamoyilidir. Agar «ko'chada yomg'ip yog'moqda» degan gapni tushunishimiz kerak bo'lsa, uni biz, ko'chaga qarab tekshirib ko'ramiz. Bu elementar usulni umumiy tamoyilga aylantirish noto'g'ri bo'ladi, chunki fanning ko'pgina haqiqatini hissiy verifikatsiya yo'li isbotlab berish mumkin emas.

XX asrning 30-yillarning o'rtalariga kelib, mantiqiy pozitivistlar o'zlarining ta'limotini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldilar. Agar ilgari ular fan tilining mazmun tomoniga e'tibor bermasdan faqat shaklan sintaksis qoidalari bilan shug'ullanib kelgan bo'lsalar, 30-yillarning ohiriga kelib mantiqiy pozitivistlar ishlarida ko'pincha semantik problemelarga, ya'ni so'z va ifodalarning mazmuni-muammolariga e'tibor bera boshladilar.

Semantik muammolar mantiqi A.Tarskiy va pragmatizmga yaqinroq bo'lgan amerikalik pozitivist U.Morrisning ishlarida yaqqol ko'rina boshladi. Shundan boshlab tilni tahlil qilish uch sohaga ajratiladi. Tilning uni qo'llayotganlarga munosabati – pragmatika; uning yordamida ta'bir qilinayotgan narsa o'rtasidagi munosabat – semantika; til ifodalari o'rtasidagi munosabat – sintaksis. Uch qismdan iborat ta'limot semantika nomini oldi.

Neopozitivistlar co'z va belgilarning mazmuniga e'tibor berishga o'tish bilan o'zlarining tahlil qilish obyektiga katta ilmiy va amaliy

ahamiyatga ega bo'lgan (masalan, elektron hisoblash qurilmasini yaratish uchun bir qatormantiqiy, lingvistik, psixologik) muammolarni kiritadi. Semantika muammolarning umumiy zaminida tilning kommunikatsiya shakllari va ahamiyatini tahlil qilishga turli tomonlardan yondashgan har xil maktablar va oqimlar uchrashadilar. Karnap va Tarskiy guruhi matematik mantiqiy masalalari bilan bog'langan simvolik ifodalarni tadqiq qilishga kirishdilar. Richard Ogden tarafdorlari lingvistika bilan bog'lik holda semantika muammolarini ishlay boshladilar. Korjibskiy, S.Cheyz va boshqalarning «umumiy semantika» deb nomlangan guruh ijtimoiy munosabatlarni «yaxshilash», ijtimoiy ziddiyatlarni «hal qilish» uchun tilni semantik tahlil qilishdan foydalanishga urindilar. So'nggi guruh tarafdorlarining fikriga ko'ra, mazkur so'zni ifodalaydigan unga mos «referent» yoki yagona hissiy fakti topish mumkin bo'lgan so'zlarga ahamiyatga ega bo'larmish. Bundan kelib chiqadiki, mavhum «kapitalizm», «fashizm», «agressiya», «eksploatatsiya» kabi ko'pgina so'zlar hech qanday mazmunga ega bo'lmaydi. Odamlar umumiy tushunchalar real mavjudligini o'ylab, o'zida doimiy tashvish, ziddiyat va nizolar manbaini yaratadilar. Urushlar, siyosiy kurashlar, turli to'qnashuvlarning sababi so'zlarni noto'g'ri qo'llash oqibati emish.

Pragmatizm – yunoncha «pragma» so'zidan olingan bo'lib amaliyot degan ma'noni bildiradi. Pragmatizm har xil idealistik va diniy oqimlarning qo'shilishidan tarkib topgan XX asr falsafasidir. Uning asoschisi *Charlz Pirs* (1839–1914-yy.), Pragmatizmning yirik namoyondalaridan *Uilyam Djems* (1842–1920-yy.), *Djon Dyui*, *Uinn* va boshqalar.

Mazkur falsafiy oqim ayniqsa, AQShda keng tarqalgan, chunki u o'zining chiqib kelishi, qarashlari va maqsadlari bilan mazkur mamlakatda keng tarqalgan tadbirkorlarning, ya'ni o'rta sinfning maqsadlarini ifodalaydi.

Pragmatizm paydo bo'lishidanoq eski falsafiy qarashlardan voz kechib inson harakati, faoliyati tahliliga asoslangan falsafiy tushunchalarni ilgari suradi. Inson faoliyati uning hayoti tarzini, yashash shaklini tashkil etar ekan, ana shu faoliyatni yaxshilashning yo'llari, tezlashtirish vositalari bormi, degan savolga javob qidiradilar.

An'anaviy falsafaning bilish nazariyasini tanqid qilib, inson faoliyatida bilish emas, ishonch va uning mustaqilligi alohida o'rin tutadi degan g'oyani ilgari suradi. Inson bilmaslikdan bilishga emas, shubhadan, ikkilanishdan ishonchga qarab borishi kerak.

**Pragmatizm** ta'limotida haqiqat muammosi asosiy o'rin egallaydi. Haqiqat, kishilar manfaatiga xizmatqiladigan, ularni muayyan maqsadlarga etaklovchi, undovchi tushunchadir. Boshqacha aytganda, haqiqat muvaffaqiyatga erishish, kishilar maqsadining amalga oshirishidir. Haqiqatning mezonini, Dyui fikricha, kishilarga uning nafi, foydasi qay darajada tegishliligi tashkil etadi.

Erning hosildorligini dehqon ko'zda ekinlarni yig'ishtirib olgan daromadga qarab aniqlaydi, deydi Dyui.

**Ekzistensializm** (lotincha «existentiya» – yashash, mavjudlik so'zidan olingan) yoki «yashash falsafasi» – hozirgi zamon falsafiy ta'limotlarining eng ko'p tarqalganlaridan biri. Ekzistensializm falsafa sifatida XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan. Uning asosiy vakillari Germaniyada M.Xaydegger, K.Yaspers, Frantsiyada P.Marsel, Sh.T.Sartrlardir.

Ekzistensial muammolar ekzistensialistlar uchun falsafiy qarashlarning barcha sohalarini tashkil qiladi, ya'ni insonning yashashidan kelib chiqadigan muammolar hisoblanadi. Individning yashashi va o'limi, yohud «yashash usuli»ning barchasidagi tashvishlar va o'lim oldidagi doimiy qo'rquv – mana shularning hammasi ekzistensialistlar hayajonlantiradigan masalalaridir. Ekzistensialist uchun faqat o'zlarining xususiy yashashi va uning yo'qlik harakati ahamiyatlidir.

Ekzistensialistlar falsafaning predmeti – borliq, deb e'lon qiladilar. Lekin ular fikricha, «borliq» tushunchasi aniqlab bo'lmaydigan narsa bo'lib, uni hech qanday mantiqiy tahlil qilish mumkin emas. Shunday ekan, borliqqa kirib borish uchun boshqacha, g'ayri-ilmiy, irratsional yo'lni izlash kerak emish.

Narsalarning borlig'i butunlay anglab bo'lmaydigan bo'lsa ham, ekzistensialistlarning fikricha, borliqning bitta turi biz uchun etarli darajada ma'lum: bu faqat o'zimizning mavjudligimizdir. Lekin yashash, ular fikricha, qandaydir ichki va ifodalanmaydigan tushunchadir: yashashlik hech qachon obyektiv ifodalab bo'lmaydigan narsa, chunki biz o'zimizga chetdan qarashga qodir emasmiz. Uni shuningdek, ratsional bilish ham mumkin emas, uni tushunishning birdan-bir usuli bevosita ichki tuyg'ularimiz bilan boshdan kechirishdan iborat.

**Ekzistensializm** – bu shunday falsafaki uning yagona predmeti insonning yashashligi, aniqrog'i yashashlik kechinmasidir. Turli xil yashashlikning borliq usullari ichidan ekzistensialistlar yashashlikni to'laroq ochib beradiganlarini izlaydilar. Qo'rquv yashashlikni to'laroq ochib beradigan usullardan biridir. Daniyalik S.K'erkegor izidan borib, ekzistensialistlar qo'rquvni barcha yashashlikning asosida yotadigan

kechinmasi, deb hisoblaydilar. Qo'rquvning bilish sohasidagi ahamiyati, ekzistensialistlar ko'rsatib o'tishicha shundan iboratki, u yaxshilikning o'zining poyoniga, nihoyasiga ro'para qilib qo'yadi, uni yo'qlik yoki hech narsa bilan qarama-qarshi qilib taqqoslaydi. Hech narsaga bo'lgan yashashlik munosabatida yashashlikning o'zi oydinlashadi. Qo'rquv sharoitida dunyo qavsga olinganday bo'ladi va inson o'zi bilan tanholikda, o'zining mavjudligida qoladi.

K.Yaspersning taxminicha, inson yashashligi «chegara vaziyati»da oydinlashadi. Bu o'lim, azob, uqubat, kurash, aybdorlik, diniy jazava, ma'naviy nogironlik va hokazolar. Faqat mana shu paytlarda inson haqiqiy bo'lmagan, kundalik, oddiy sharoitlarda yashiringan o'zining chinakkam yashagani o'z ixtiyori bilan tanlab oladi. Albatta, kishilar hayotida qayg'u ham, kasallik ham, azob ham bo'ladi, ularning borligini inkor qilishi mumkin emas. Ammo azob, qo'rquv va o'limni inson yashashining asosi va negizi deb hisoblash uchun, ijtimoiy hayotning tanazzuliga yuz tutgan davri uchun xarakterli bo'lgan aqliy kayfiyat bo'lishi kerak.

S.Kerkegorning fikricha, inson yashashining cheklanganligini oshkora etuvchi qo'rquvda inson o'limiga, hech narsaga, o'zining munosabatini tanlash zaruriyatiga ro'baru keladi, ana shu tanlash imkoniyatiga ega o'z navbatida erkinlikni ko'rsatadi. Ekzistensialistlar insonning erkinligi uning aktiv faoliyatida emas, uni o'rab olgan muhitni qayta o'zgartirishda ham emas, balki qo'rquvda namoyon bo'ladi, degan bema'ni fikrni qabul qilib oladilar.

Ekzistensialistlarning ta'kidlashicha, inson o'zining mohiyatini o'zi erkin tanlaydi, u o'zini hayotga qanday hozirlasa, shunday bo'lib qolaveradi. Inson – bu qandaydir tugallanmagan narsa, bu doimiy imkoniyat, loyiha. U kelajakka intiladi va o'zini oldindan uzluksiz rejalab boradi, o'z-o'zining chegarasidan chiqadi. U ixtiyoriy tarzda – «o'zini tanlaydi» va o'zini tanlashga to'la mas'uliyat his qiladi.

Barcha ekzistensialistlar erkinlikka alohida tayanadi, chunki ular erkinlik faqat insonga xos bo'libgina qolmasdan, balki uning yashashligini tashkil qiladi. Ular – inson erkinlik deb ta'kidlamoqdalar. Mana shu asosda ekzistensialistlar o'zlarining erkinlik haqidagi ta'limotini o'z falsafasining gumanistik xarakterini ifodalovchi, insonni ulug'lovchi ta'limot ekanligini ko'rsatmoqchi bo'ladilar.

Biroq ular erkinlik individining faqat ichki holati, kayfiyati, kechinmasi, deb tushunadilar. Zaruriyatga qarama-qarshi qo'llangan va jami-

yatdan xoli bo'lgan bunday erkinlik har qanday mazmunini va ahamiyatini yo'qotib, quruq rasmiy tamoyilga, tuturiqsiz so'zlamogga aylanadi.

Ekzistensialistlar inson erkin bo'lsa ham bu erkinlik tanlash jarayoni yuz beradigan muayyan sharoit bilan cheklangan deb hisobaydilar. Ularcha, inson o'zining hayoti sharoitini o'zi ta'minlaydi. Tashqi olam insondan tashqari mavjud bo'lgan qandaydir narsa emas, balki inson yashashligi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan, uning muhiti, uning tashvishlari dunyosi, deb tasavvur qilinadi.

Ekzistensialistlar fikricha, o'lim dahshatidan qo'rqqan inson o'zicha jamiyatdan joy izlaydi. Unga aralashib ketib, u odamlarning umuman ulishligi bilan o'ziga-o'zi dalda beradi va bu bilan o'zining o'limi haqidagi fikrini haydaydi. Lekin jamiyatdagi individning hayoti haqiqiy emas: bu insonning fakat yuzaki, tashqi, kundalik yashashligi. Uning haqiqiyliги tanho mavjudlikda yashiringan, bu faqat individual ozchilikka ma'lum.

Ekzistensializm falsafada qayta-qayta bitta g'oya takrorlanadi: inson ulish uchun yashaydi. M.Xaydegger uchun o'lim bu insonning so'nggi imkoniyati; J.Sartr uchun bu barcha imkoniyatlarning ohiri, barcha egzistensialistlar uchun yuqori transsendent reallik – bu o'lim.

Ekzistensialistlar o'limni inson yashashining maqsadi, mohiyatiga aylantirib, mazmunsiz hayot haqida xulosa keltirib chiqaradi, ijtimoiy hayotni va inson faoliyatini yo'qqa chiqaradi.

Hozirgi zamon diniy falsafasining eng ko'p tarqalgan maktablaridan biri neotomizm bo'lib, u o'rta asrda yashagan Foma Akvinskiy ta'limotining tiklanishidir. Neotomizm katolik cherkovi markazi Vatikanning rasmiy falsafasidir. Uning ko'zga ko'ringan vakillari J.Maiten, E.Jelson, G.Manzer va boshqalar hisoblanadi.

Neotomizm falsafasining asosiy g'oyasi shundan iboratki, ularcha din, e'tiqod va bilim o'rtasida to'la garmoniya mavjud, xudo tomonidan berilgan ikki haqiqat manbai sifatida ular bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Neotomistlar bilim bo'lmagan joydagina e'tiqod kerak, deb tan oladi, ularni ko'r-ko'rona irratsional e'tiqod qoniqtirmaydi. Ular e'tiqod oqilona bo'lishi va mantiqiy asosga suyanishi kerak, degan qat'iy fikrda turadilar. Haqiqiy e'tiqodning manbai ular fikriga ko'ra, muqaddas kitobga o'xshagan ilohiy qudratdir. Uning mazmuni g'ayritabiiy va teologiya sohasiga to'la taalluqli bo'ladi. Inson «muqaddas kitoblar»da yozilgan narsalarga ishonishi uchun u xudoning borligiga shak keltirmagan va unga e'tiqod qo'yan bo'lishi kerak.



Xudoning mavjudligini isbotlash - bu falsafaning ishi va buni u sof mantiqiy vositalar bilan etkazishi lozim.

Hozirgi zamon tomistlari Foma Akvinskiy tomonidan kiritilgan xudo borlig'ining barcha «dalillari»ni qabul qiladilar, shu bilan birga, dunyo xudo ishtirok etishining yangi «guvohlarini» izlaydi, buning uchun u yoki bu muammolarni echishda fan oldida turgan qiyinchiliklardan foydalana dilar. Xudo mavjudligi va dunyoning yaratilishini asoslash uchun «koinotning issiqlikda halok bo'lish nazariyasi», koinotning «benihoyaligi» haqidagi gipoteza, hayot va psixikani tushuntirishning murakkabligi va hokazolar qo'llaniladi.

Neotomistlar ta'limotiga moddiylik va ma'naviylik dualizimi xarakterlidir, ammo bu o'rinda har doim moddiylik ma'naviylikka bo'ysungan bo'lishi kerak. Neotomistlarning asosiy usuli shundan iboratki, yagona obyektiv moddiy dunyoning turli xil qarama-qarshi tomonlari xilma-xil dunyoga taalluqli bo'ladi va pirovardida ular xudoning aralashishi bilan tushuntiriladi. Ular abadiylik va benihoyalilikni xudoga, nihoyalik va vaqtinchalikni esa dunyoga bog'laydilar.

Neotomistlar dunyoni o'zgaruvchanlikda va nisbiy doimiylikda, harakat va strukturada ko'radilar. Biroq shu bilan birga, bu qarama-qarshiliklar yagona moddiy dunyoda qanday munosabatda bo'lishligini tahlil qilishda harakatni, narsalarning moddiyligini o'tkinchi nihoyali narsalarga, sukunat, turg'unlikni esa xudoga tirkab qo'yadilar. Bu bilan neotomistlar harakatini o'zidan kelib chiqqan holda tushuntirish mumkin emas, balki uni tushuntirish uchun harakat manbai bo'lgan xudo tushunchasini kiritmoq lozim, deb tasdiqlaydilar.

Hozirgi zamon tomistlari irratsionalizmi inkor qiladilar va aqlning afzalliklarini tan oladilar. Ammo tomistlar «ratsionalizmi» soxta ratsionalizm bo'lib, insoniy aql fan oldidagi g'ayri aqliy haqiqat ochilishiga qaratilgan bo'ladi. Aqlni, e'tiqodni himoya qilishga majbur qilib, neotomistlar bilimlar manbai bo'lgan falsafani yo'qqa chiqaradilar. Neotomizmning ijtimoiy-siyosiy ta'limoti xususiy mulkchilikning abadiyligi va jamiyatning sinflarga bo'linishini «tabiiy», deb tan olishga asoslanadi.

Neotomistlar jamiyatdagi ziddiyatlar ayrim kishilarning gunohi, diniy oyatlarni esdan chiqarish, xristian aqidalariga rioya qilmaslikning oqibati deb e'lon qiladilar. XX asr falsafasining oqimlaridan birini fenomenologiya tashkil etadi. Mazkur oqimning asoschisi *Gusserel* (1859–1939-yy.) hisoblanadi. Uning izdoshlari M.Sheler, N.Gartman, M.Xaydegger va boshqalar. Gusserel o'zining «Mantiqiy izlanishlar»

nomli **ikki jilddan** iborat bo'lgan asarida fenomenologiya falsafasining predmetini borliq va real ong emas, balki, «sof ong» tashkil etadi, degan g'oyani ilgari suradi. Uning yozishicha, fenomenologiya har xil kechinmalar orqali namoyon bo'ladigan «sof ong» haqidagi ta'limot. «Sof ong»ning kechinmalari, iztiroblari, tushunchalari, fenomenlar haqiqatni bilishga olib boradigan yagona yo'ldir. «Sof ong»o'zining tushunchalari, fenomenlari yordamida obyekt bilan subyektni o'zaro bog'lab turuvchi vositadir.

**Yuqorida** aytilganlardan ko'rinib turganidek, Gusserel bilish nazariyasining predmetini fenomenlar oqimi tashkil etadi. Fenomenlar uning fikricha, quyidagi to'rtta qatlamlardan tashkil topadi. 1. Nutq, yozuv ma'nosini ifodalash uchun ishlatiladigan til shakllari; 2. Bilishga intilayotgan subyektning ruhiy kechinmalari, iztiroblari; 3. Bilish jarayonidan namoyon bo'ladigan kechinmalar, iztiroblarning asl ma'nosi; 4. Ana shular orqali ifodalanadigan «narsa».

Mazkur qatlamlar yordamida falsafa «sof ong» mohiyatini bilishga erishadi. Gusserelning fenomenologiyasi Platon tomonidan rivojlantirilgai «g'oyalar dunyosi» haqidagi ta'limotining o'ziga xos ko'rinishidir xolos. Gusserel fanning rivojlanishi, inqirozga tushish masalalari haqida ham bir qator g'oyalarni ilgari surgan.

**Yuqorida** aytilganlardan ko'rinib turibdiki, XX asr olimlari falsafa fanining mavhum masalalari bilan chegaralanib qolmasdan fan-texnika taraqqiyoti, bozor munosabatlari sharoitida yuzaga kelgan hayotiy muammolar, ya'ni inson mohiyati, uning ichki imkoniyatlari, iztiroblari, kechinmalari, qiziqishlari, yashashi, o'limi, ong va ongsizlik, aql va e'tiqod, ularning o'zaro aloqadorligi kabi masalalar ustida fikr-mulohazalar yuritganlar. Bu esa falsafa fani o'tmishda ham hozirgi vaqtda ham voqealikka sodir bo'layotgan jarayonlari chuqur va atroflicha aks ettirishda qudratli ma'naviy kuch vazifasini bajarib kelayotganligidan dalolatberadi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. O'rtta asr davridagi nominalizm va realizm oqimlarining ta'limotlari haqida so'zlang.
2. Uyg'onish davridagi fan taraqqiyoti haqida nimalar deya olasiz?
3. XVII asr G'apby Yevropa falsafasi haqida bayon eting.
4. XVIII asr fransuz faylasuflarining qarashlari haqida so'zlang.

5. Nemis klassik falsafasining yirik namoyondalari kimlar? Ularning falsafiy g'oyalari nimalardan iborat?

6. XX asr falsafasi, uning oqimlari, xususiyatlari haqida so'zlab bering.

### **Tayanch tushunchalar**

**Nominalizm** – umumiy tushunchalarni faqat ayrim narsalarning nomlari deb hisoblovchi o'rta asr falsafasining bir yo'nalishi.

**Realizm** – umumiy tushunchalar aniq mavjudlikni tashkil etadi, narsalar ularning ifodalanish shaklidir, deb hisoblovchi yo'nalish.

**Metafizika** – XVII asrda shakllanib narsa va hodisalarni bir-biridan ajratib harakatsiz, qotib qolgan holda tahlil etuvchi usul.

**Idealizm** – ruhiy, nomoddiy narsalarni birlamchi deb hisoblovchi falsafiy oqim.

**Materializm** – moddiy narsa birlamchi deb hisoblovchi falsafiy oqim.

**Solipsizm** – faqat inson va uning ongi mavjuddir degan g'oyani ilgari suradigan oqim.

**Utilitarizm** – foydalikni aql-odob mezonini deb hisoblaydigan yo'nalish.

**Psixozanaliz** – XX asr ruhiy tahlil falsafasi.

**Pozitivizm** – fan ijobiy bilimlar bilan shug'ullanish kerak degan g'oyani ilgari suradigan oqim.

**Verifikatsiya** – hissiyma'lumotlar asosida sinab ko'rish, kuzatish

**Pragmatizm** – yunoncha «pragma» so'zidan olingan bo'lib amaliyot degan ma'noni bildiradi. Turli xil idealistik va diniy oqimlarning qo'shilishidan tarkib topgan XX asr falsafasidir.

**Ekzistensializm** – hozirgi zamon «yashash falsafasi».

**Neotomizm** – o'rta asr faylasufi Foma Akvinskiy ta'limotini targ'ib etuvchi yo'nalish.

**Fenomenologiya** – «Sof ong» falsafaning predmetinitashkil etadi deb hisoblovchi falsafiy oqim.

**Pragmatizm** – haqiqatning qimmatini uning foydaligi bilan belgilanadi deb hisoblovchi ta'limot.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: «O'zbekiston», 2000, 34–36-bet.
2. Tulenov J., G'ofurov 3. Falsafa (darslik). – T.: «O'qituvchi», 1997, 118–136-betlar.
3. Блинные Л.В. Краткий словарь философов. Учебное пособие. – М.: «Наука», 1994.

---

---

## UCHINCHI BO'LIM. BORLIK FALSAFASI

### VI MAVZU. BORLIQNING FALSAFIY TALQINI

#### Reja:

1. Borliq tushunchasi va uning turlari.
2. Substansiya va materiya, ularning o'zaro aloqadorligi.
3. Harakat va rivojlanish tushunchasi. Harakatning asosiy shakllari.
4. Borliqning fazo va vaqtda mavjudligi.

#### 1. Borliq tushunchasi va uning turlari

Borliq muammosi barcha falsafiy ta'limotlarda asosiy o'rin egallab kelgan. Bu bejiz emas, albatta. Kishilar azaldan voqelikni falsafiy nuqtai nazardan tushunishga intilib kelganlar. Borliq tushunchasi voqelikni falsafiy anglash uchun ishlatiladigan asosiy tushunchadir.

Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan borliq tushunchasi semmazmun, ko'p qirrali bo'lib, voqelikdagi barcha narsa va hodisalar, jarayonlarni ifodalash, aks ettirish uchun ishlatiladi. Borliq tushunchasi yordamida kishilar o'z ongida dunyoning mavjudligi, uning cheksizligi, abadiyligi, yaxlit va bir butunligi haqida umumiy tasavvurga ega bo'ladilar.

Borliqning asosiy shakllarini moddiy predmetlar, jarayonlar borlig'i, inson borlig'i, ijtimoiy borliq, ma'naviy borliq tashkil etadi.

Moddiy predmetlar borligi turqumiga tabiatdagi barcha narsalar, eng mayda zarrachalardan tortib Er, Quyosh, koinotgacha kiradi. Shuningdek, moddiy borliqqa kishilar tomonidan yaratilgan «ikkinchi tabiat», ya'ni har xil moddiy ne'matlar (zavod, fabrika, binolar, turli mashina, mexanizmlar, asbob-uskunalar va h.k.) ham kiradi.

Diniy ta'limotlarda olamning asosi, uning mohiyati ilohiy kuch, ruh bilan bog'lab qo'yiladi. Ilk borliq bu olamdagi barcha narsa va hodisalarni yaratuvchi Xudodir. Ilk borliq, ya'ni birinchi mavjudot – Tangri Alloh barcha mavjudot borlig'ining birinchi sababidir deyiladi. «Ilk bor bo'lgan, (ya'ni Tangri) deydi Forobiy, o'zining asl mohiyati bilan boshqa barcha narsalardan farqlidir. Chunki u modda ham

emasdur, subyekt ham emasdur, uning suvrati ham bo'lmaydi, uning bir o'zi bu borliqda yakkayu yagonadir, u shu jihatdan ham birinchidir»<sup>1</sup>.

Gegel ta'limotiga ko'ra, olamdagi hamma narsalar va hodisalar «mutlaq g'oya»ning mahsulidir. Binobarin, olamni yaratuvchi shu g'oya undagi narsa va hodisalarning birligini ham belgilaydi, deyiladi idealistik ta'limotlarda. Shuningdek, boshqa diniy va falsafiy qarashlarda ham voqelikdagi barcha narsalar Xudo tomonidan yaratilgan deb tushuntiriladi.

O'rta asr davrida ijod etgan xudojo'y faylasuf Akvinskiyning ta'limotiga asoslangan katolik cherkovining rasmiy falsafasi hisoblanuvchi hozirgi zamonda bir qator mamlakatlarda keng tarqalgan neotomizm falsafasining vakillari Mariten, Jilson (Frantsiya), de Reymeker (Belgiya) de Friz (Germaniya), Vetter (Avstriya), Boxens-kiy va boshqalar ruhiy, ilohiy birinchi ibtido, deb tushuniladigan «sof borliq»ni oliy reallik, deb hisoblaydilar. Moddiy olam ikkilamchi va hosila, deb e'lon qilinadi. Neotomizm nazariyaning asosiy maqsadi xudoni borliqning bosh sababchisi va barcha falsafiy kategoriyalarning bosh asosi, deb e'tirof qilishdir.

Diniy falsafaning yana bir shakli bo'lgan personalizm (lat. Persona – shaxs) oqimining vakillari B.Boun, R.Flyuelling, E.Braytmen (AQSh), X.Kerr (Angliya), V.Shtern (Germaniya) va ularning fikrdoshlari taraqqiyotning turli bosqichlarida turuvchi va olamni tashkil etuvchi «oliy shaxs» Xudo birlamchi reallik va oliy ruhiy qimmatdorlik, deb ta'kidlaydilar.

Ular tashqi olam predmetlarini insoning ichki dunyosidan, uning sezgilari, idroklari va shu kabilardan hosil bo'lgan qandaydir narsa deb qaraydilar. «Chunki yuqorida ko'rsatilgan obyektlar, degan edi ingliz faylasufi Berkli, – biz sezgilarimiz vositasi bilan idrok etiladigan narsalar bo'lmay nima o'zi?». Xo'sh, biz o'z ideallarimizni, ya'ni sezgilarimizni idrok etmasdan nimani idrok etamiz?». Narsalarni idrok etuvchi qismga bog'lanmasdan turib, ularning mutlaq mavjudligi to'g'risida so'zlash mumkinligini men mutlaqo tushunolmayman», – deydi u. Berklining fikrini boshqa faylasuflar, jumladan, Max Avenarius ham qo'llab-quvvatlaydilar.

Tabiatning oliy mahsuli, gultoji bo'lgan inson borligiga, o'ziga xos manfaat va ehtiyojlarga ega bo'lgan, o'zligini anglay biladigan shaxslar

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 131-bet.

kiradi. «Til va tushuncha sohibi bo'lgan tirik zotdan ortiqroq mukammal bo'lgan biror zot yo'qdir»<sup>1</sup>, – deydi Abu Nasr Forobiy.

Shaxs – bu o'zining ijtimoiy shart-sharoitlariga bog'liq bo'lgan va individual sur'atda ifodalangan hislatlarga, intellektual, emotsional va irodaviy sifatlariga ega bo'lgan odam. Har bir shaxs o'zining tug'ma xususiyatlari bilan bir qatorda ijtimoiy xususiyatlarga egadir. Ijtimoiy munosabatlar majmui, kishilarning kundalik turmush tarzi, insonning mohiyati belgilaydi.

Inson borligi uning aklliy va jismoniy mehnati, ehtiyoj va manfaatlarini qondirish uchun hatti-harakatlari, axloq-odob, dunyo-qarashi va h.k. namoyon bo'ladi, o'z ifodasini topadi.

O'ziga xos individual xarakterga, intellekt, emotsional xususiyatlariga, temperamentga ega bo'lgan har bir insonning mavqei, uning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan uzviy bog'liq. Jamiyatda mavjud bo'lgan barcha narsalar insonning mehnati tufayli va inson uchun yaratilgan. Shuning uchun insonning qadr-qimmatini qanchalik yaxshi e'zozlansa, ularning faolligi ham, jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Sho'rolar huquqati hukmronlik qilib turgan vaqtlarda so'zda «hamma narsa inson uchun, inson baxt-saodati uchun», deb e'lon qilinsa-da, amalda insonning erki va huquqlari chegaralanib, ularning qadr-qimmatini oyoq osti qilinish kelgan edi. Mustaqil respublikamizda insonning shon-shuhrati, qadr-qimmatini e'zozlash davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishlariga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi moddasida «davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi», «xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir», deb mustahkamlab qo'yilgan. Jamiyatimizda shiddat bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi ham bitta – fuqarolarning munosib hayot kechirishini, tinchlik va milliy totuvligini ta'minlashdan iboratdir. «Barcha islohotlarning – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat»<sup>2</sup>, – deydi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov.

Ma'lumki, inson borligi jamiyat taraqqiyotining birdan bir manbaidir. Ijtimoiy borliq hodisalarning barcha turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Jamiyat bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan iqtisodiy,

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 144-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995, 119-bet.

ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy etnik, oilaviy va boshqa munosabatlardan tarkib topgan, doimo taraqqiy etib, rivojlanib turadigan jonli organizmdir. Jamiyat tabiat taraqqiyotining zaruriy oqibatidir. Organik olamning taraqqiyoti ma'lum bir davr sharoitlarida odamning kelib chiqishiga, uning jamoa munosabatlari va mehnat jarayonida o'sishiga, so'ngra kishilik jamiyatining tashkil topishiga olib kelgan. Shuning uchun harn tabiat jamoatni bir-biridan ajratib qarash, ularni qarama-qarshi qilib qo'yish noto'g'ri.

Jamiyatning moddiy texnika bazasi, iqtisodiy asoslari, siyosiy tashkilotlari: davlat va hokimiyat idoralari, armiya, politsiya, sud, prokuratura, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, maorif tizimi, madaniyat, fan va texnika, ilmiy tadqiqot institutlari va laboratoriyalar, ommaviy axborot vositalari, aloqa bo'limlari va h.k. ijtimoiy borliqning turli xil ko'rinishlarini tashkil etadi.

Borliq faqat moddiy shakldagina emas ma'naviy, ruhiy shaklda ham namoyon bo'ladi. Ma'naviy borliqqa inson tomonidan yaratilgan rang-barang madaniyat va san'at asarlari, til, ilmiy kashfiyotlar, g'oyalari, axloq-odob qoidalari, falsafiy, estetik, badiiy, siyosiy, tafakkurlash madaniyati, ruhiy kechinmalar, diniy tasavvurlar tushunchalar majmui kiradi.

Kishilarning ichki holati, kechinmalari, his-tuyg'ulari, ruhiy, ma'naviy dunyosi, o'y-fikrlari, maqsad va masalalari hamda kayfiyat-lari ham ma'naviy borliqning ko'rinishlaridir.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, borliq voqelikda mavjud bo'lgan barcha narsa va hodisalar, inson, jamiyat, kishilarning ichki dunyosi, ma'naviyatini ifodalaydigan keng qamrovli va sermazmun falsafiy tushunchadir. Borliq shakllari (narsalar borlig'i, inson borligi, ijtimoiy borliq, ma'naviy borliq) bir butun dunyoning alohida ko'rinishidir. Borliq ana shu alohida shakllar o'rtasidagi bog'liqlikni, umumiylikni ko'rsatadi. Borliqning umumiy aloqadorligi alohida narsalarning mavjudligi bilan namoyon bo'ladi.

## **2. Substansiya va materiya, ularning o'zaro aloqadorligi**

*Substansiya* tushunchasi odatda moddiy substrat va narsa o'zgarishlarining boshlang'ich asosini ifodalaydigan atama sifatida ishlatiladi.

Falsafa tarixida dastlabki vaqtlarda substansiya hamma narsani tashkil etadigan moddiy zarrachalar, deb tushunilgan. Masalan, atom



Demokri: ta'limotida, Forobiy, ibn Sino, ibn Rushd asarlarida ham substansiya tushunchasi moddiy asos, mohiyat sifatida talqin etildi.

Forobiyning fikricha, «o'z zoti mavjud(narsalar)ni substansiya (javhar) deb ataladi, masalan, olam va shunga o'xshash barcha jismlar. O'z zot: bilan mavjud bo'lmagan (narsalar)ni *aksidensiya*, deb ataymiz, masalan, olmaning qizilligi va shunga o'xshaganlar. Bundan kelib chiqadiki, barcha vujudga keltirilgan narsalar yoki substansiya (masalan, olma), yoki aksidensiyalar(masalan, olmadagi qizillik)dan iborat bo'lar ekan»<sup>1</sup>.

Yangi zamonda Dekart substansiya muammosini eng keskin qilib qo'ydi. U ikki xil substansiya – materiya va ruh parallel ravishda mavjud, bularning har ikkalasi esa Xudoga bo'ysunadi, deb hisoblaydi. Spinoza tabiatni yakkayu-yagona substantsiya deb, ko'lam va tafakkurni yagona bir substansiyaning atributlari hisoblardi va substansiyaning o'z-o'ziga sababchi, deb qarardi. Kantning fikricha, substansiya, «shunday bir doimiy narsaki, faqat unga nisbatangina hamma vaqtli hodisalarni aniqlash mumkin. Gegel «mutlaq g'oyani», «har qanday yanada haqiqiy rivojlanishning negizi», deb ta'riflaydi.

Ayrim faylasuflarning fikricha, agar narsalarning paydo bo'lib va yo'qolib, turli o'zgarishlarga duchor bo'lib, bir-biriga aylanib turishi mumkin bo'lsa, substansiya esa bir zaylda turaveradi va o'zining tub negizi jihatidan o'zgarasdir, uning faqat shakllariga o'zgaradi. Shu bilan birga, substansiya ko'pincha bo'linmas, tuzilishi o'zgaras atomlar bilan aynan birday qilib qo'yiladi. Shu tariqa atomlarning o'zgarasligi haqida fikr olamning substansiyaviy negizi bo'lgan materiya haqidagi fikr bilan aynan birday qilib ko'rsatiladi.

Demak, substansiya o'ta murakkab va ko'p qirrali tushuncha. Odatda, u dunyoning dastlabki moddiy asosini tashkil etuvchi, narsa va hodisalarning hossalari uchun omil yoki «tirgak» bo'lib xizmat qiluvchi, materiya tavsifnomasining umumiy shaklining birligi, narsalarning o'zgaras barqaror mohiyatini ochib beruvchi tushuncha sifatida ishlatiladi.

O'z mazmuniga ko'ra substansiya materiya tushunchasiga yaqin ammo bu tushunchalarni bir-biri bilan to'liq ayniyashtirib bo'lmaydi. Substansiya materiyaning asosinigina ifodalaydi. Shuning uchun materiya substansiyaga nisbatan kengroq tushuncha.

Materiya haqida falsafada va tabiat ilmidagi ko'pgina chuqur fikrlar aytilganligini ko'rsatib o'tish joizdir. Bu, avvalo, barcha hodisalarning

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 180-bet.

umumiy substansiya negizi bo'ltan materiya haqidagi, uni yaratib va uni yo'q qilib bo'lmasligi, zamonda abadiy mavjudligi va makonda nihoyasizligi, uning obyektivligi, ongga bog'liq emasligi, materiya bilan harakatning ajralmasligi tabiatning hamma hodisalarini o'zaro aloqadorlikda va bir-birini taqozo qilishda, tabiiy va o'zgarmas qonuniyatga bo'ysunishda olib qarash haqidagi qoidalardir. Mazkur fikrlar hozirgi zamon ilmida ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Borliq tushunchasi materiyaga nisbatan kengroq tushuncha, chunki u ham obyektiv, ham subyektiv reallikni ifodalaydi. Materiya tushunchasi esa obyektiv reallikni ifodalash uchun foydalanadigan tushuncha.

Hozirgi ilmiy falsafada materiya tushunchasi barcha narsa va hodisalarga xos bo'lgan eng umumiy xususiyatini belgilaydigan mavhum tushuncha hisoblanadi. Olamdagi hamma narsa va hodisalarning eng umumiy belgisi, xususiyati shundan iboratki, ular bizning ongimizdan tashqarida, mustaqil ravishda, mavjuddir. Hamma narsaga xos bo'lgan bu umumiy xususiyat materiya tushunchasida o'z aksini topadi. Materiyaning falsafiy tushunchasi faqat hozirgi davrda fanga ma'lum bo'lgan obyektlargina emas, balki kelgusida kashf qilinadigan narsalarni ham o'z ichiga oladi, bu ma'noda uning metodologik ahamiyati kattadir.

Materiya abadiy, bepoyon, cheksiz, hech qachon yo'qolmaydi. Materiyaning abadiyligi uning hech kim tomonidan yaratilmaganligini, hamda mavjudot bo'lishini, har bir yangi kashfiyot tufayli uning yangi tomonlari ochilishini bildiradi.

Materiya haqida gap ketganda, quyidagi masalaga e'tibor berish zarur. U shundan iboratki, materiyaning falsafiy tushunchasini uning tuzilishi haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlari bilan almashtirib yubormaslik kerak. Materiyaning gnoseologik ma'nodagi mazmuni keng, umumiy va abadiydir, ammo uning xususiyatlarini va tuzilishini aniq fanlar sohasida talqin qilish esa nisbiydir.

Hozirgi zamon fan kashfiyotlari materiyaning bitmas-tuganmas xususiyatlarini ochishda, uning katta falsafiy ahamiyat kasb etayotganligini tasdiqlamoqda.

Bundan ikki ming yil ilgari Levkip, Demokritlarning bo'linmas zarra – atom haqidagi farazlari materiya tuzilishi haqida boshlang'ich fikrlar edi. Rus olimi M.Lomonosov va italiya olimi Lavuazelarning turli moddarning kimyoviy va fizik hossalari haqidagi nazariyasi materiya haqidagi bilimlarning chuqurlashib borishiga sabab bo'ldi. Kimyo fanida A.Butlerovning molekullarning tuzilishi sohasidagi

kashfiyotlari, D.Mendeleevning «Elementlar davriy sistemasi qonuni»-ning ochilishi materiyaning tuzilishi haqidagi hozirgi zamon ta'limotiga asos bo'ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi fizikadagi eng yangi kashfiyotlar, chunonchi elektronning kashf etilishi, uran va boshqa atomlar radioaktivlik xususiyatining, rentgen nurlarining kashf qilinishi, atom haqidagi qarashlarda burilish yasadi.

Elektron harakat tezligining o'zgarishiga qarab uning massasi ham o'zgarib turishining aniqlanishi  $E=ms^2$  materiyaning hozirgi ma'lum bo'lmagan yangi xususiyatlarining ochib berilganligidan, moddalarning bir turdan ikkinchisiga aylanishda dialektik jarayon borligidan darak beradi.

Fizika fanida erishilgan bu yutuqlar materiya tushunchasining obyektiv reallikni ifodalovchi xususiyatining to'g'ri ekanligini isbotlaydi. Bu kashfiyotlar atomning bo'linishini, uning yangi xususiyatlari, ayniqsa, massa xususiyatlarining sifat jihatidan avvalgi xususiyatidan farq qilishini ko'rsatadi. Fiziklarni bu narsa o'ylantirib qo'ygan edi. Bundan foydalangan maxchilar massaning o'zgaruvchan xususiyatlarini materiyaning yo'qolishi deb noto'g'ri xulosa chiqaradilar. Aslida esa, materiya emas, balki materiyaning biz hozircha bilgan chegarasi yo'qolgan edi, bizning bilimlarimiz yanada chuqurlashib, materiyaning yangi xususiyatlarini ochib bergan edi.

Materiya tuzilishining har bir shaklida harakat va taraqqiyotning o'ziga xos qonunlari bo'lib, bu qonunlarning har biri atomning murakkab va tunganmas xususiyatlarini, demak, materiyaning tuzilishi va hossalari murakkab ekanligini ko'rsatadi. Elektron bilan pozitron birikishi, natijada fotonning hosilbo'lishi ham materiyaning tuzilishi murakkabligini ko'rsatadi.

A.Enshteynning  $E=ms^2$  formulasida  $m$  – massa va  $e$  – energiya orasidagi bog'lanish materiya o'zining harakat shalkini energiyaga aylanib ketishini ko'rsatmaydi, balki bir turdagi massa va energiyaning ikkinchi turdagi massa va energiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Demak, materiyaning falsafiy tushunchasini tinch massaga ega bo'lgan fizik obyekt bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Zarra qanday ko'rinishda bo'lmasin, u massaga egami yoki yo'qmi, baribir inson ongining tashqaridadair. Demak, obyektiv real zarralarning bir-biriga ta'sirida, ularning bir biriga aylanishi natijasida modda nurlanadi yoki elektromagnit kvantlarini hosil qiladi, ular moddalardan hosil bo'lgani uchun qanday ko'rinishda bo'lmasin, ularni moddiy deb bilamiz. Bu erda maxchilar materiyaning fizik tuzilishi haqidagi masalani uning

falsafiy tushunchasi bilan almashtirib yuborgan edilar. Moddiy obyektlar qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, qanday xususiyatga ega bo‘lmasin, ular bizdan tashqarida obyektiv ravishda mavjud, bilimlarimizning o‘zgarib, kengayib, rivojlanib borishi real dunyoning obyektivligini hech qachon inkor qilmaydi. Buni hozirgi zamon ilm-fani to‘liq tasdiqlamoqda. Materiyaning yangidan-yangi xususiyatlari va tuzilishiga oid bo‘lgan ta‘limotlarni tasdiqlovchi kashfiyotlar qo‘lga kiritilmoqda. Atom yadrosini o‘rganishga oid nisbiylik nazariyasi, kvant mexanikasi elementar zarralar fizikasidagi har bir yutuq buning isbotidir. «Elementar zarralar» fizikasi hozirgi vaqtda atomning ichki tuzilishiga oid yangi fikrlarini ham bermoqda.

Elementar zarralar bu xususiyatlarning ochilishi materiya tuzilishi va xususiyatlari haqidagi bilimlarimizning chegarasi hech qachon bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Fizikadagi bu kashfiyotlar materiyaning kkkki asosiy ko‘rinishda mavjud ekanligini modda va maydon ko‘rinishida mavjudligini ko‘rsatadi. Materiyaning modda va maydon ko‘rinishi ba‘zi bir xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Modda ko‘rinishidagi materiya tinchlik massasiga ega bo‘lib, bular jumlasiga proton, neytron, elektron va pozitronlarni, ulardan tashkil topgan atom va molekullarni kiritish mumkin. Molekulalardan tarkib topgan mikroskopik jismlar hozirgi zamon fani bergan ma‘lumotlarga asosan, har xil holatda bo‘lishlari mumkin: suyuq, qattiq, gazsimon, plazma, epiplazma, fizik vakuum holatda. Materiyaning maydon ko‘rinishi modda ko‘rinishidan harakatdagi massaga ega bo‘lishi va yorug‘lik tezligiga yaqin tezlik bilan harakat qilishi orqali farq qiladi. Elektromagnit maydon, yadro maydoni, gravitatsion maydon, bular materiyaning maydon ko‘rinishidir. Materiya maydon ko‘rinishining mavjudligi, buning sifat va xususiyatlarining modda ko‘rinishi bilan aloqadorligi, farqli elektromagnit maydonining to‘laroq o‘rganishi asosida ochib beriladi.

Yorug‘lik – elektromagnit maydon to‘lqinidan iborat bo‘lib, u harakatdagi massaga ega bo‘lgan zarracha – fotonlarni tashkil topgan. Foton esa sekundiga 300 ming km tezlikda harakat qiladi. Materiyaning maydon ko‘rinishi ana shu xususiyatiga ko‘ra modda ko‘rinishidan farq qiladi. Yorug‘lik massa va energiyaga ega, demak, elektromagnit maydon ham massaga ham energiyaga ega, bu materiyaning modda ko‘rinishi bilan maydon ko‘rinishi xususiyatga ko‘ra o‘xshashligini ko‘rsatadi.

Har qanday modda massa va energiyaga ega. Tajribalar orqali materiyaning modda va maydon ko‘rinishining bir-biriga aylanishini

aniqlanadi. Demak, materiyaning modda va maydon ko'rinishning bir-biriga aylanishi zarralarning zarra va antizarradan tashkil topganligini ko'rsatadi.

Materiyaning benihoyatligi va cheksiz tuzilishi murakkab xususiyatlari haqidagi masala moddiy olamning sifat jihatdan bitmas-tuganmasligini o'z ichiga oladi. U organik jihatidan dunyoning moddiy birligi tamoyili bilan bog'liq.

Falsafa «birlamchi materiya»ning eng so'nggi o'zgarmas mohiyati sifatida mavjudligini rad etib, materiyaning substansiyaviyligini xuddi u (ong emas, biron-bir g'ayri tabiiy narsa emas) hodisalarning turli xildagi hossalarning birdan-bir umumiy negizi ekanligi va tevarak atrofimizdagi olamning birligini belgilab beradi. Olamni, moddiy materiyani bizning ongimizdan tashqarida mustaqil obyektiv reallik bitmas-tuganmas deb bilish, uni qanday bo'lsa shundayligicha, qo'shimchalarsiz tushunishga yo'naltiradi. Bu fikr tabiatshunoslarga idealizm va agnostitsizmga qarshi kurashda, ilmiy tadqiqot yo'lida vujudga keladigan qiyinchiliklardan chiqishga, turli-tuman hodisalar zanjirida asosiy xalqani aniqlash uchun muhim bo'lgan tarixiy yondashishga yordam beradi.

Ilmiy falsafaning materiya haqidagi ta'limoti ilmiy tadqiqotlar uchun, yaxlit ilmiy dunyoqarash, ishlab chiqarish uchun hamda fanning kashfiyotlarini voqelikka muvofiq ravishda talqin qilish uchun metodologiknegiz bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga ilmiy bilimlar taraqqiy etgan sari bu ta'limotning o'zi doimo mukammalashib, chuqurlashib bormoqda, voqelikni tobora to'laroq aks ettiruvchi yangi kategoriyalar va qonunlar ifodalanmoqda, bu voqelik bizning eng mukammal barcha tasavvurlarimizdan hamisha murakkabroq bo'laveradi.

### **3. Harakat va rivojlanish tushunchasi. Harakatning asosiy shakllari**

Tabiat va jamiyatda hamma narsa harakatda, o'zgarishda, o'zaro ta'sirda va o'rin almashishdadir. Hech bir muloqot tinch turgan, harakatsiz narsa emas. Olamdagi narsalar harakatda bo'lib, ular bir-biriga aylanadi, biri ikkinchisini yo'qotadi, biri ikkinchisidan paydo bo'ladi. Butun tabiat, eng kichik zarradan tortib, eng katta jismlargacha, qum donasidan tortib Quyoshgacha, protist (bir hujayrali organizm)dan tortib odamzodgacha doimo paydo bo'lish va yo'q bo'lish, uzluksiz oqish, beto'xtov harakat qilish va o'zgarish holatini kechirib turadi.

Tevarak atrofimizdagi olamni bilib borar ekanmiz, unda o'zgarimaydigan hech narsa yo'qligini, hamma narsa harakatda bo'lib, bir shakldan ikkinchi bir shaklga o'tib turishini ko'ramiz. Barcha moddiy obyektlarda elementar zarralar, atomlar, molekularlarning harakati sodir bo'lib turadi, har bir obyekt uni qurshab turgan muhit bilan o'zaro bir-biriga ta'sir qilib turadi, o'zaro ta'sir esa u yoki boshqa turdagi harakatni o'z ichiga oladi. Har bir jism, hatto Erga nisbatan osoyishta turgan jism ham u bilan birga Quyosh atrofida aylanadi, Quyosh bilan Er esa Galaktikaning boshqa yulduz sistemalariga nisbatan o'rin almashinib turadi va h.k.

Agar qattiq jismlar olib qaraladigan bo'lsa, ularning tuzilishi va shaklining barqarorligi, ularni tashkil etuvchi mikrozaralar o'rtasidagi muayyan o'zaro ta'sirga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Fazo va vaqtda kengayib boruvchi har qanday o'zaro ta'sir esa harakat sifatida yuzaga chiqadi, xuddi shuningdek, har qanday harakat ham materiya turli elementlarining o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Ayrim fayla-suflar harakatini materiyadan ajratib, unga, materiyaga tashqaridan berilgan kuch deb qaraydilar. Chunonchi, mexanikaning fan sifatida shakllanishiga asos solganlardan biri Nyuton, sayyoralar Quyosh atrofida doimiy harakat qilib turadi deb, to'g'ri ta'kidlash bilan birga bu harakatning manbaini ilohiy birinchi turtki deb hisoblar edi. XIX asr nemis metafizigi E.Dyuring esa materiya avvalari qotib qolgan holda bo'lgan, keyinroq u mexanik harakatga ega bo'lgan, deb ta'kidlaydi.

Materiya barcha o'zgarishlarning substansiyaviy negizidir. Materiyadan ajralgan harakat, «sof harakat» yo'q. XIX asrning ikkinchi yarmida yirik nemis fizigi V.Ostvald o'zining materiya va harakatning bog'liqligini inkor etuvchi energetizm nazariyasi bilan chiqdi. Energetizmning vakillari materiyasiz harakat mavjud bo'lishi mumkin, degan fikrni ilgari surdilar. Ular materiyadan ajralgan qandaydir nomoddiy narsaga aylantirilgan «sof energiya»ni barcha o'zgarishlarning birdan-bir negizi deb hisoblar edilar. Haqiqatda esa energiya materiyaning hossasidir, bu hossa harakatning miqdoriy me'yoridan iborat bo'lib, moddiy sistemalarning ichki o'zgarishlari asosida muayyan ishni amalga oshirishga qobiliyati borligini ifodalaydi. Energiya materiyadan ayrim holda mavjud bo'lmaydi va hamisha moddiy jismlarning boshqa hossalari bilan birgalikda yuzaga chiqadi.

Metafizik materializm harakatning faqat mexanik shakli, ya'ni oddiy ko'chish, makonda almashishni tan olib materiyaga tashqi turtkining berilishi bilan olam harakatga keladi deb, harakatni

materiyadan ajratib qo'yadi. Shuningdek, ular tabiat va jamiyatni bir-biridan ajratib, tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlari orasidagi umumiy bog'lanishni ko'ra olmaganlar, mexanika qonunlarini hamma sohaning rivojlanish qonuni deb bilganlar.

Ilmiy falsafa ta'limotiga ko'ra, harakatning falsafiy ma'nosi shuki, u materiyaning borliq shaklidir. Materiya harakati qanday shaklda bo'lmasin, u obyektiv ravishda materiyadan ajralmagan holda sodir bo'ladi. Materiyaning mavjudlik shakli bo'lgani uchun harakatning obyektiv real bo'lish xususiyati materiyaning ham xususiyati hisoblanadi.

Harakat ham materiya kabi obyektiv reallikdir. Materiya o'ziga xos ichki qarama-qarshiliklarga ko'ra harakat qiladi, rivojlanadi. Materiya harakati hech qanday tashqi turtkiga, g'ayritabiiy kuchga muhtoj emas. Materiya harakati va taraqqiyotining manbai ichki qarama-qarshiliklardir.

Harakatning falsafiy mazmunini materiya harakati shakllari to'g'risidagi tabiiy, ilmiy tasavvurlar bilan aralashtirmaslik zarur.

Ilmiy falsafa nuqtainazaridan harakat materiyaning eng muhim atributi – mavjudlik usuli. U tabiat va jamiyatda yuz beradigan hamma jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi. Eng umumiy tarzda harakat – umuman o'zgarishdan, moddiy obyektlarning har qanday o'zaro ta'siridan iborat.

Harakatni rivojlanish tushunchasi bilan adashtirmaslik kerak. Harakat real voqeqliqda ro'y beradigan hamma o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Rivojlanish deganda esa jadal sur'atlar bilan ilgarilab boruvchi o'zgarishlar tushuniladi. Rivojlanish sifat o'zgarishlarining natijasi bo'lib, u o'zgarish narsa va hodisalardaga qarama-qarshi tomonlar orasidagi kurashning natijasidir. Bunday o'zgarishlar natijasida eskining o'mida yangisi paydo bo'ladi, quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o'tish sodir bo'ladi. Shuning uchun «harakat» tushunchasi, «rivojlanish» tushunchasiga qaraganda kengroq tushuniladi.

Harakat materiyaning ichki mohiyatidan kelib chiqadigan obyektiv jarayon, u ikki turda namoyon bo'ladi. 1. Narsalarning mavjud sifatini saqlab qolish asosida ro'y beradigan o'zgarishlar; 2. Narsalarning mavjud sifatining emirilish asosida sodir bo'ladigan o'zgarishlar.

Harakat turli-tuman ko'rinishlarda bo'ladi. Ilgari harakatning asosiy shakllariga: a) mexanik harakat; b) fizik harakat; v) kimyoviy harakat; g) biologik harakat; d) ijtimoiy harakat kiradi, deb hisoblanardi.

Hozirgi zamon fani mikrojismlarning oddiy mexanik harakati, harakatning boshlang'ich shakli emasligini ko'rsatib berdi. U mikro-zarralar harakatiga nisbatan «yuqoriroq» turadi. Mikrozaralar harakati esa mikrojismlar harakatining asosini tashkil qiladi. Mikrozaralar harakatining asosida esa yanada chuqurroq jarayonlar yotadi. Mikrozaralar harakati kvant mexanikasi qonunlariga bo'ysunadi. Mikrozaralar harakati uzunligi, massaning kattaligi va massa harakatining tezligiga bog'liq bo'lgan to'liq bilan bog'liqdir.

«Elementar» zarralar va maydonlar darajasidagi harakatning o'ziga xos xususiyatlari farqlaridan biri elektromagnit harakat shaklidir. Uning moddiy asosi elektromagnit maydon va uning zarrasi fotonlardir. Elektromagnit maydondagi o'zaro ta'sirning tarqalishi to'liq qonunlariga va yorug'lik tezligi doimiyligi qonuniga bo'ysunadi. Fotonlar elektromagnit maydon kvantlari bo'lib doimiy birlikda bo'lgan harakatdagina mavjuddirlar. Bu harakat materiyaning mavjudlik shaklidir degan falsafiy qoidani to'la tasdiqlaydi.

Elektromagnit maydondan tashqari yana fizik maydonlar ham mavjud. Ularning hammasiga harakatning alohida shakli muvofiq keladi. Yadro harakati elementar zarralar va maydonlar harakatiga nisbatan ancha murakkabdir. Harakatning yadro shakli nuklonlarning (proton va neytronlar) harakati asosida vujudga keladi. Bu harakat shaklidan ham murakkabrog'i atom ichidagi harakatdir. Uning sifat xususiyatini yadro va elektronlar, shuningdek, elektronlarning o'zlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir tashkil qiladi.

Demak, harakatning fizik shakli issiqlik, elektron, magnit, atom ichidagi va boshqa jarayonlarni qamrab oladi. Uni faqat molekulyar jarayonlar bilan bog'lab tushuntirish noto'g'ri.

Materiya va uning harakat shakllarining murakkablashib borishi, yangi o'ziga xos harakat shakli atom yoki kimyoviy shakliga olib keladi. Uning tashuvchisi atom va molekulalardir. Harakatning kimyoviy shakli turli-tuman atomlarning birikishlarida va ajralishlarida, molekular ichki tuzilishining o'zgarishida, ularning turli kimyoviy jarayonlarda o'zaro o'zgarishlarida namoyon bo'ladi.

Materiya harakatining murakkabroq shakli bo'lgan biologik harakatning boshqa shakllardan sifat jihatidan farqi tirik organizmlarning oziqlanishi va moddiy almashuv tufayli kimyoviy tarkibni o'zlari sekin asta yangilab borishlaridir.

Materiya harakatining eng murakkab shakli ijtimoiy harakatdir. Bu harakat shakli insonning paydo bo'lishi tufayli kelib chiqadi. Uning



o'ziga xos xususiyati moddiy ishlab chiqarish jarayoni, shuningdek, ishlab chiqarish usuli xususiyatidan kelib chiqadigan ijtimoiy hodisalar, sinfiy, milliy, oilaviy va boshqa kishilar o'rtasidagi munosabatlardir.

Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib, ayrim olimlar harakatni quydagi uch shaklga ajratish haqidagi fikrni ilgari surmoqdalar: 1. Jonli tabiatdagi harakat. 2. Jonsiz tabiatdagi harakat. 3. Ijtimoiy harakat. Bular bir-birini to'ldirib, yuqorida qo'rsatilgan harakatlarning barcha shakllarini o'z ichiga qamrab oladi.

Materiya harakatining hamma shakllari o'rtasida mahkam o'zaro aloqadorlik mavjud. Bu o'zaro aloqadorlik avvalo, materiyaning tarixiy taraqqiyotida va harakatining nisbatan quyi shakllari asosida yuqori shakllarining paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Harakatning yuqori shakllari ulardan ilgari o'tgan va ularning paydo bo'lishiga asos bo'lgan ko'pgina quyi formalarning o'zgargan shakllarni o'z ichiga oladi.

Harakat shakllarining o'zaro munosabatini o'rganganda yuqori shakllarni quyi shakllardan ajratib qo'yishdan ham, tartibsiz ravishda yuqori shakllarni quyi shakllardan iborat qilib qo'yishdan ham saqlanish muhimdir.

Yuqori shakllarni quyi shakllardan ajratib qo'yganda ularning kelib chiqishini izohlab bo'lmaydi. Masalan, biologiyada bunday ajratib qo'yish vitalizmga – idealistik qarashlarga olib keladi. U hayotiy faoliyatining hamma jarayonlarini go'yo tirik organizmlarda jo qilingan alohida nomoddiy faktorlarga – «entelexiya», «yaratuvchi kuch» va shu kabilar amaliyotiga bog'lab izohlaydi. Vitalizmning bosh manbalari Platonning go'yo hayvonlar va o'simliklar olamiga jon bag'ishlaydigan – jon haqidagi ta'limotiga hamda Aristotelning entelexiya haqidagi ta'limotiga borib taqaladi. XVII–XVIII asrlarda tarkib topgan vitalizmning namoyondalari G.Shtal, P.Bertalanfi, A.Ventsel va boshqalar tirik tabiatning sifat jihatidan o'ziga xosligini dalil qilib ko'rsatib, hayotiy faoliyat jarayonlarini moddiy fizikaviy-kimyoviy va biologik qonuniyatlardan ajratib qo'yadi. Jonli tabiatni jonsiz tabiatga haddan tashqari qarama-qarshi qilib qo'yish, vitalizmni jonli narsaning jonsiz narsadan paydo bo'lishi mumkinligini inkor qilishga olib keladi. Masala bu tahlilda qo'yilganda hayotning ilohiy kelib chiqishi yoki uning abadiy mavjudligini tan olish qoladi. Hozirgi zamon fani hayotning tarixan paydo bo'lish qonunlarini va uning jarayonlarini harakatning fizikaviy-kimyoviy shakllariga bog'liq ekanligini ochib berib, vitalizma zarba berdi.

Harakatning yuqori shakllarini quyi shakllaridan sifat jihatidan farq qilishini e'tiborga olmaslik mexanitsizmga olib keladi. U tabiat va jamiyat taraqqiyotini, ya'ni harakatning yuqori shakllarini materiya harakatining quyi shakli bo'lgan mexanik shakli qonunlari bilan izohlaydi. Hozirgi kunda mexanitsizmning ko'rinishlarini ba'zilar tomonidan tafakkurni kibernetik mashinalarda sodir bo'ladigan axborot jarayonlari bilan birdek qilib ko'rsatishga urinishlarida kuzatishimiz mumkin.

Oliy materiya harakat shakllari nisbatan quyi shakllar asosida tarixan paydo bo'lgan va ularni murakkabroq tizimining rivojlanish tuzilishi va qonunlarga muvofiq ravishda o'zgartirilgan shaklda o'z ichiga oladi. Ular o'rtasida materiya harakat shakli qo'yi shakllardan sifat jihatdan farq qiladi va uni quyi shakldan iborat qilib bo'lmaydi. Harakat shakllarining o'zaro ta'sirini bilish olamning moddiy birligini, materiyaning tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini ochib berish uchun katta metodologik ahamiyatga egadir.

Harakatning ko'rinishi qanday shaklda bo'lmasin, u moddiy asosga ega. Olam hodisalari doimo o'zgarishda, o'sishda, qotib qolgan narsaning o'zi yo'q. Demak, materiya harakati shakllari har xil bo'lmasin, ular bir-biriga bog'liqdir. Materiya harakatining har bir shakli o'zining qonuniyatiga ega. Masalan, mexanik harakat klassik mexanika qonuniga, issiqlik harakati termodinamika qonuniga, kimyoviy harakat moddalarning ajralish va birikish reaksiyasi qonuniga, biologik harakat assimilyatsiya va dissimilyatsiya qonuniga asoslanadi. Harakatning har bir shakli bir-biridan o'ziga xos qonuniyati bilan sifat jihatdan farq qiladi.

Ilmiy falsafa harakat bilan bir qatorda muvozanat tushunchasi borligini inkor etmaydi. Tinchlik harakatining ifodasi, o'lchovi natijasidir. Tinchlik nisbiy va vaqtincha, harakat emas, mutlaqdir. Harakatning ko'rinishi qanday shaklda bo'lmasin, u nisbiy harakatga egadir. Masalan, erda tinch turgan bir jismni olaylik. U jism faqat boshqa harakatlanuvchi predmetlarga nisbatan tinch, xolos. Erdagi jism tinch turgan bo'lib ko'rinsa ham, u er bilan birga uning o'z o'qi atrofida harakatlanadi. Undan tashqari, bu jism o'zining muayyan sifatini abadiy saqlab qolmaydi, uning tarkibida fizik va kimyoviy o'zgarishlar doim sodir bo'lib turadiki, bu hol natijada o'sha jismni sifat jihatdan o'zgarishiga olib keladi. Har bir narsa bordan yo'q bo'lmaydi, yo'qdan bor bo'lmaydi, tabiat azaldan mavjud va doimiy harakatdadir.

Hozirgi zamon fizikasining asoschisi Geyzenberg «Yadro fizikasining falsafiy muammolari» kitobida hamma narsaning asosi bitta substansiyadan iborat, bu substansiya energiyadir, deb ta'kidlaydi.

Metafizika materiyaning harakatsiz mavjudligini e'tirof etadi. Bunga qarama-qarshi dialektika materiya va harakatning birligi, ularning ajralmasligini fan kashfiyotlari bilan bog'lab ilmiy jihatdan asoslab berdi. Harakatsiz materiya, materiyasiz harakat bo'lishi mumkin emasligini hozirgi tibbiyot va ijtimoiy fanlar ham isbotlaydi.

#### **4. Borliqning fazo va vaqtda mavjudligi**

Materiya cheksiz ravishda sodir bo'lib turadigan harakat, o'sish, o'zgarish va taraqqiyot hamisha fazo bilan vaqtda yuz beradi. Harakat singari fazo va vaqt ham materiya mavjudligining tub obyektiv shaklidir. Demak, harakatni materiyadan ajratish mumkin emas, shuningdek, fazo bilan vaqtni ham materiyadan ajratib bo'lmaydi.

Harakat fazo bilan vaqtning mohiyatidir. Boshqacha aytganda, harakat fazo bilan vaqtning birligidir. Fazo bilan vaqt o'z tabiatining mavjudligini materiya harakatida ochiq-oydin ko'rsatadi.

Fazo harakatdagi materiya mavjudligining tub obyektiv shaklidir. Fazo tushunchasi moddiy obyektlarning birgalikda mavjudligini va bir-biridan uzoqligini, ularning ko'lamini, bir-biriga nisbatan joylashish tartibini ifodalaydi. Tabiatdagi hamma jismlar, jumladan, insonning o'zi ham obyektiv olamda sodir bo'ladigan hamma moddiy jarayonlar fazoda o'rin tutadilar, muayyan masofaga ega bo'ladilar. Olamda mavjud bo'lgan predmetlar bir-biridan sifat jihatidagina emas, uzunligi, kengligi, hajmi, baland-pastligi, katta-kichikligi, o'rin jihatidan ham farqlanadi. Ularning har biri bir-biriga nisbatan yaqin yoki uzoq, quyi eki yuqori, chap yoki o'ngda joylashgan bo'ladi. Bularning hammasi fazo tushunchasida ifodalanadi.

Vaqt ham materiyaning mavjudlik shakli bo'lib, moddiy jarayonlarning keng yoyilishi izchilligini, bu jarayonlarning turli bosqichlari, bir-biridan ajralganligi, ularning davom etishini, ularning rivojlanishini bildiradi. Har bir narsa o'z o'tmishi, hoziri, kelgusiga ega. Narsa, hodisalarning ba'zi birlari avvalroq, boshqalari keyinroq bo'ladi. Bular esa vaqt tushunchasini ifodalaydi.

Har bir moddiy obyekt vaqtda bo'lmasdan turib faqat fazoning o'zida bo'lishi mumkin emas. Hamma vaqt va hamma joyda har qanday

jism fazoda ham, vaqtda ham mavjuddir. Buning ma'nosi fazo bilan vaqt bir-biri bilan uzviy bog'liq demakdir.

Fazo va vaqt ham materiya kabi obyektiv xususiyatga ega. Idealistlar fazo va vaqtning obyektivligini inkor qiladilar. Ular fazo bilan vaqt ongda mavjud bo'lgan qandaydir narsadir, deb isbotlashga harakat qiladilar. Chunonchi, Kant nuqtai nazariga ko'ra, fazo va vaqt hissiy mushohadaning qandaydir aprior (tajribagacha) shakllari bo'lib, ular ongimizning o'z tabiati taqazosi bilan vujudga kelgan. Uningcha, inson ongi bo'lmasa, fazo, vaqt ham bo'lmaydi. Berkli, Max fazo va vaqtni subyektiv hissiyotlar shakli, faqat sezgilarimiz qatorining tartibiga solingan tizimlaridir, deb hisoblaydilar.

Gegel falsafasida fazo va vaqt «mutlaq g'oyadan» tug'ilgan bo'lib, ular bu g'oya taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'ladi. Ammo u fazo va vaqtni bir-biridan ajratib qo'yadi va natijada tabiatning fazo ichida, lekin vaqtdan tashqarida rivojlanishi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Bunday tasavvurlarning noto'g'riligini odamlarning butun hayotiy tajribasi, fanning taraqqiyoti rad etib kelmoqda. Fazo va vaqtning obyektivligini inkor qilish, nazariy jihatdan chalkashlikdan, amaliy jihatdan esa fideizm oldida taslim bo'lib, o'z qolishdan iboratdir. Har qanday borliqning asosiy shakllari fazo va vaqtdir. Ilmiy falsafa ta'limoti idealistik fikrlar qarama-qarshi o'laroq, fazo va vaqtning obyektivligini, ya'ni insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emasligini, ondan tashqarida va mustaqil ekanligini e'tirof etib, ular o'rtasida umumiy o'xshash tomonlar hamda ayrim farqlar mavjudligini ta'kidlaydi: birinchidan, fazo bilan vaqtning obyektivligi, inson ongi, irodasi va g'oyalariga bog'liq emasligi, ular o'rtasidagi umumiylikning muhim tomonlaridan birini tashkil etadi. Ikkinchidan, fazo bilan vaqt abadiy, azaliydir. Fazo bilan vaqtning abadiyligi materiyaning abadiyligidan kelib chiqadi. Uchinchidan, fazo bilan vaqt cheksiz, chegarasiz va bepoyondir.

Fazoning o'ziga xos xususiyati va vaqtdan farqi uning uch o'lchovga ega bo'lishidadir. Bu uch o'lchov materiya bo'yiga va balandligiga oldiga va orqasiga qarab uning cheksiz ekanligini ko'rsatadi. U turli narsa va hodisalarda har xil bo'ladi. Hozirgi zamon fizikasining nisbiylik nazariyasida to'rt o'lchovli geometrik fazo haqida so'z boradi. Bunda to'rtinchi o'lchov sifatida vaqt olingan.

Vaqt fazo bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, lekin o'zining ayrim xususiyatlari bilan undan farq qiladi. Vaqtning muhim xususiyati uning bir o'lchovligidadir, qaytarilmasligidadir. Moddiy narsalar fazoda

har xil joylashishlari, turli tomonga harakat qilishlari mumkin, lekin vaqtga kelganda ular faqat birtomonga qarab yo‘nalishda bo‘ladi, vaqt hech qachon orqaga qarab harakat qilmaydi. O‘tgan zamonning qaytarilishi va hozirgi zamonning yo‘q bo‘lishi mumkin emas.

Vaqtning o‘ziga xos tomonlaridan yana biri uning‘ cheksizligidadir. Vaqt cheksizligining‘ ma‘nosi shuki, moddiy dunyoning boshi ham, oxiri ham yo‘q va bo‘lmaydi.

Fazo va vaqtga ichki ziddiyat xosdir. U shundan iboratki, fazo va vaqt o‘z tabiatiga ko‘ra ham mutlaq, ham nisbiydir. Fazo va vaqt materiya mavjudligining umumiy obyektiv shakllari kabi mutlaqdir, chunki bu shakllardan tashqari hech qanday moddiy jismlarning bo‘lishi mumkin emasdir. Shuningdek, fazo va vaqt nisbiydir, chunki ularning aniq xossalari o‘zgaruvchi materiyaning xossalari bog‘liqdir. Ziddiyat shundan iboratki, fazo va vaqt nihoyasizlik bilan nihoyaning birligini tashkil etadi, fazoning nihoyasizligi ayrim moddiy obyektlarning nihoyali ko‘lamlaridan tarkib topadi, vaqtning nihoyasizligi esa ayrim moddiy jarayonlarning nihoyali uzluksizligidan tarkib topadi.

Fazo va vaqt uzluksizdir va shu bilan birga, uzlukli, (diskret)dir. Fazo shu ma‘noda uzluksizki, uning har qanday tarzda olingan (katta yoki kichik, juda yaqin yoki uzoq) elementlari orasida bir element hamisha real sur‘atda mavjud bo‘ladi va bu element ularni yagona fazoviy ko‘lamga birlashtiradi; boshqacha qilib aytganda fazoviy ko‘lam elementlari o‘rtasida hech qanday mutlaqalohidalik, bo‘linishlik yo‘q; ular bir-biriga o‘tib turishadi. Ya‘ni vaqt shu ma‘noda uzluksizki, uning har qanday kichik ikki oralig‘i o‘rtasida hamisha real sur‘atda bir vaqtli uzluklik mavjuddir.

Fazo va vaqtning uzluksizligi shundan iboratki, ular o‘zlarining ichki xossalari predmetlar va jarayonlarning sifat tafovutiga muvofiq tuzilishiga ko‘ra farq qilib turadigan unsurlardan tarkib topgan.

Insonning fazo va vaqt haqidagi tushunchalari, tasavvurlari qotib qolgan emas, balki nisbiy, ya‘ni o‘zgaruvchan, rivojlanib borish xususiyatiga egadir. Materiya fazoda cheksiz, vaqtda abadiydir, degan fikrning mohiyati shundan iboratki, fazoning hech qanday chegarasi, markazi, tomoni, bo‘ladigan joyi, oxirgi nuqtasi yo‘q, u cheksiz va chegarasizdir, bepoyondir. Hozirgi zamon tabiatshunoslik fanlari olamning fazo va vaqtda boshi ham, oxiri ham yo‘qligi to‘g‘risidagi ta‘limotini asoslovchi yangidan-yangi dalillarni qo‘lga kiritdi. Ularning ko‘rsatishicha, bizning galaktikamiz koinotda yakkayu-yagona emas, balki cheksiz yulduzlar tizimining biridir.

N.Lobachevskiy geometriyasi fazoning materiya bilan chambarchas bog'liq ekanligini isbotlab, mutlaq chegara va sistema bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. U Evklid geometriyasiga nisbatan fazoning geometrik xususiyatlarining o'zgarishini chuqur tushuntiradi. Evklid geometriyasida fazo materiyadan ajralgan holda, abadiy va hamma erda bir xil xususiyatga ega shaklda tushuntiradi. Bu fazo haqidagi metafizik tushuntirish usulidir. Lobachevskiy fazo va vaqtning xususiyatlarini materiya va uning harakati bilan bog'liq ravishda tushuntiradi. Uning geometriyasi Eynshteynning nisbiylik nazariyasida yana ham kengroq mazmunga ega bo'ladi.

Fazo va vaqtning bir butunligini ifodalashda moddiy jarayonlarni ham fazodan, ham vaqtdan ajratmay bir butun holda tekshirish zarur. Hozirgi zamon fanida ko'p o'lchovlikni quyidagicha tushuntirish mumkin. Nemis olimi German Mankovskiy uch o'lchovli fazo va vaqtni ko'p o'lchovli deb oladi. Bu erda uch o'lchovli fazo va to'rtinchisi sifatida vaqt olingan. Nisbiylik nazariyasida fazo va vaqt orasidagi bog'lanishni ko'rsatish jism harakatiga kuchli maydon tortish kuchining ta'siri ham hisobga olinadi. Lekin bu kashfiyotlar nisbiylik nazariyasidagi fazo va vaqt orasidagi bog'lanish tugal aniqlandi, degan xulosaga olib kelmaydi, aksincha, bu sohadagi bilimlarimiz yana ham aniqlanishi va chuqur bo'lishi mumkin. Fazo va vaqtning xususiyati o'zgarmaydi. Fazo va vaqt to'g'risidagi bilimlarimizning mazmuni kengayishi mumkin. Fazo va vaqt bir-biri bilan ziddiyatli bog'langan. Bu bog'lanishni fazoning cheksiz, vaqtning esa abadiy bo'lishida ko'rish mumkin.

Ma'lumki, narsa va obyektning harakati bir vaqtda, bir joyda ro'y bermaydi. Materiyaning harakati turli fazoda, turli vaqtda bo'lishi mumkin. Moddiy obyektlar turli xil o'rinda, turli xil masofalar orasida joylashgan bo'lib, ular doimo harakatda. Bu harakat sekin yoki tez bo'lishi mumkin. Bu masalani fizika fanining nisbiylik nazariyasi hal qilib beradi.

Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan, materiya hech qachon va hech erda chegaralanmagan. Vaqtning cheksizligi dunyoning bepoyonligini bildiradi, bu fazoning ham chegarasi yo'qligini ko'rsatadi. Shunday qilib, fazo va vaqt harakatidagi materiyaning obyektiv yashash usulidir.

Materiyaga xos xususiyatlar fazo va vaqtga ham xosdir. Materiyaning tuzilishi va hossalari haqidagi bilimimizning o'sishi kabi, fazo va vaqt to'g'risidagi bilimlarimiz hech cheksiz ortib boradi.

Materiya fazoda cheksiz, vaqtda abadiydir. Vaqtning cheksizligi dunyoning cheksizligini, boshi va oxiri yo'qligini ko'rsatadi.

Tabiat va jamiyat hodisalari hamma vaqt ketma-ket sodir bo'ladi va harakat qiladi. Materiya vaqtda harakat qiladi, demak, materiya, harakat, fazo va vaqt dialektik bog'langan. Ularning dialektik birligi umumiy aniq fanlar uchun amaliy jihatdan metodologik asos hisoblanadi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Borliq tushunchasi va uning asosiy turlari nimalardan iborat?
2. Substansiya tushunchasining ma'nosi qanday?
3. Materiya tushunchasi va uning ilmiy-falsafiy ahamiyati nimalardan iborat?
4. Harakat fazo va vaqt tushunchalarining mohiyatini izohlab bering.
5. Sharq mutafakkirlari falsafiy ta'limotlarida olam-falakning doimo harakatda ekanligi haqida so'zlab bering.

### **Tayanch tushunchalar**

**Borliq** – voqelikdagi mavjud narsa va hodisalarni ifodalovchi tushuncha.

**Substansiya** – (lotincha substantia – mohiyat) – moddiy asos, mohiyat.

**Materiya** – onga bog'liq bo'lmagan holda mavjud reallikni ifodalovchi tushuncha.

**Harakat** – narsa va hodisalarning har qanday o'zgarishlarini ifodalovchi tushuncha.

**Fazo** – narsalarning bir-biridan uzoqligini, ularning ko'lamini, joylashish tartibini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha.

**Vaqt** – narsa va jarayonlarning bosqichlari, davomiyligi, rivojlanishini ifodalaydigan atama.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.:«O'zbekiston», 2000.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993.
3. Tulenov J., G'ofurov 3. Falsafa. – T.:«O'qituvchi», 1997.

---

---

## VII MAVZU: TABIAT – BORLIQNING AJRALMAS QISMI

### Reja:

1. Tabiat tushunchasi. Inson – jonli tabiatning oliy mahsuli.
2. Inson va tabiatning o‘zaro aloqadorligi.
3. Ekologik muammo va uni bartaraf etish yo‘llari.
4. Mintaqamizdagi ekologik vaziyat.

### 1. Tabiat tushunchasi. Inson – jonli tabiatning oliy mahsuli

Insonni qurshab turgan tabiat, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishi qonuniyatlarini falsafiy nuqtai nazardan tushunish, ilmiy bilish va amaliyotda katta ahamiyat kasb etadi. Tabiat benihoyat xilma-xil shakl va ko‘rinishlarda bo‘lib insonni qurshab turgan moddiy olam, butun borliqni o‘z ichiga qamrab oladi. U keng ma’noda olganda materiya, koinot tushunchalarni ham ifodalaydi.

Sharq falsafasi va islom ta’limotida Alloh hamma narsaning ibtidosi, materiyani ham, tabiatni ham Tangri taolo yaratgan, deyiladi.

Ilmiy falsafa esa tabiatning mavjudligi insonga, uning ongi va sezgisiga bog‘liq emas, deb uqtiradi. O‘tmishda Yer shunday bir holatda bo‘lganki, unda o‘zining sezgilari va ongiga ega bo‘lgan inson u yoqda tursin, hatto boshqa har qanday jonli mavjudotlarning ham yashashi uchun hech bir imkoniyat bo‘lmagan. Yer, Quyosh sistemasi, umuman, tabiat har qanday ongdan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjuddir. Kishi ongi tabiat taraqqiyotining faqat muayyan bosqichi-dagina uning mahsuli sifatida vujudga kelgan.

Ongdan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lgan tabiatning na boshi, na oxiri, na ibtidosi va na intixosi bor.

Hozirgi zamon fanlari olamning, tabiatning cheksiz, benihoyaligi to‘g‘risidagi yangidan-yangi dalillar bermoqda. Fan sohasidagi yutuqlarning ko‘rsatishicha, bizning galaktikamizdan tashqarida joylashgan son-sanoqsiz yulduzlar sistemalari mavjud.



Tabiat, butun moddiy olam doimiy harakatda, to'xtovsiz o'zgarish va rivojlanishdadir. Mavjudotdagi barcha jismlar Oy, Quyosh, sayyoralar, meteontlar fazoda doimiy ravishda harakatda. Tabiatning, materiyaning fazoda cheksiz va vaqtda abadiy bo'lgan tinimsiz harakati jarayonida ba'zi bir narsalar emiriladi, yangilari paydo bo'ladi.

Tabiatning million yillar davomidagi tadrijiy taraqqiyoti jarayonida jonsiz dunyo-lan jonli dunyo kelib chiqqan. Jonli dunyoning paydo bo'lishi tabiatning, materiyaning cheksiz koinotdagi taraqqiyotidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlardan biridir. Jonli materiya keyinroq yuz bergan hodisalar, uzoq davom etgan taraqqiyot samarasidir. Jonli tabiat ham jonsiz tabiat ham doimiy harakatdadir. Lekin harakat ularning har ikkalasida ham biroz boshqacharoq shaklda amalga oshadi. Hayot tabiat taraqqiyotining ma'lum bosqichidagi ko'rinishidir. Jonli tabiat moddiy olarning kichik bir qismini tashkil etgani uchun unga xos xususiyatlarri jonsiz olamga mexanik ravishda yoyib bo'lmaydi.

Ilmiy falsafa jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasida o'tib bo'lmaydigan to'siq yo'q, deb ta'lim beradi. Ular bir-biridan sifat jihatdan farq qilishiga qaramay, bir-biri bilan bog'liq hamdir. Jonli tabiat abadiy mavjud bo'lgan emas, balki jonsiz tabiat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida, ma'lum obyektiv sharoitlar asosida vujudga kelgan. Jonli tabiat bilan jonsiz tabiat asosida ham yagona moddiy substansiya – materiya yotadi. Demak, jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasidagi bog'lanish ularning birligida yaqqol ko'rinadi.

Jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasidagi moddiy birlik ularning kimyoviy tarkibida ham juda aniq ko'rinadi. Odam organizmidagi kislorod, uglerod, oltingugurt, azot, kalsiy, fosfor, magniy, natriy, kaliy, xlor, temir singari elementlarni jonsiz tabiatda ham uchratamiz. Organizmlarni tashkil etuvchi oqsil tarkibida ham shunday elementlar bor.

Jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o'rtasida umumiy tomonlardan tashqari ularning har biriga xos bo'lgan farqli tomonlari ham mavjud. Jonli organizmlarning asosiy xususiyati shuki, ular tashqi muhit bilan modda almashinadi. Bu esa, materiyaning murakkab va yuqori shakllariga tegishli bo'lgan xususiyatdir.

Tririk jismlarning eng muhim xususiyati – moddalar almashinuvidan, jonli tuzilishlarning buzilishi va yangidan tuzilishidan, assimilyatsiya va dissimilyatsiyadan iborat. Ana shular organik jismlar yashashning asosiy sharoitidir. Hayot – oqsil jismlarning yashash usulidir, bu usul esa o'z mohiyati bilan mazkur jismlarning kimyoviy – tarkibiy qismlarining doimo o'z-o'zini yangilab turishidan iborat.

Tabiat taraqqiyotining yuksak cho'qqisi jonli organizmlarning kelib chiqishidan iborat. Bir hujayrali organizmlarning vujudga kelishi organizmlar taraqqiyotidagi dastlabki bosqichdir. Dastlabki vujudga kelgan organizmlar o'zining tuzilishi va xususiyati jihatidan hozirgi hayvon va o'simliklarning eng soddalari bo'lgan. Organik birikmalarning bir necha million yil davom etgan taraqqiyoti natijasida hayvonlarning hozirgi turlari vujudga kelgan.

Jonli tabiat insonning paydo bo'lishi uchun hamma zarur shart-sharoitni hozirlaydi. Tabiatning tarkibiy qismi bo'lgan odam jonli organizmlarning uzoq vaqt davomida ro'y bergan taraqqiyotining qonuniy mahsulidir. Odamning paydo bo'lishini jonli tabiatning taraqqiyotidan ajratib bo'lmaydi.

Inson taraqqiyotining ilk bosqichlarida, odam tabiatdan endigina ajralib chiqqan kezlarda juda nochor hayot kechirgan, u tabiat kuchlariga qaram bo'lgan, tabiatning tayyor mahsulotlarini iste'mol qilib kun kechirgan.

Keyinchalik mehnat tufayli, mehnat qurollari yasash, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish asosida kishilik jamiyati paydo bo'ldi va rivojlandi.

Forobiyning fikricha, «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashamoq va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar, ernaing aholi yashaydigan qismiga o'rmashdilar va natijada inson jamoasi vujudga keldi»<sup>1</sup>.

Jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi aloqadorlik zaminida mehnat yotadi. Mehnat avvalo, odam bilan tabiat o'rtasida yuz beradigan jarayonlardir, odam shu jarayonda o'z faoliyati bilan o'zi ila tabiat o'rtasida moddalar ayirboshlanishiga vositachilik qiladi, bu ayirboshlashni tartibga soladi va nazorat qiladi. Odamning o'zi tabiat kuchi sifatida tabiat moddasiga qarama-qarshi turadi. Odam tabiat moddasini o'z hayoti uchun yaroqli bo'lgan ma'lum bir shaklda o'zlashtirib olish uchun o'z tabiiy kuchlarini, qo'l va oyoqlarini, bosh va barmoqlarini harakatga keltiradi. Shu harakat vositasi bilan tashqi tabiatga ta'sir qilib va uni o'zlashtirib, odam shu bilan birga o'z tabiatini ham o'zgartiradi. Kishilar moddiy boyliklar yaratish, mehnat qilish asosida tabiat

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 186-bet.

kuchlariga ta'sir etganlar, madaniyat tarixini, ijtimoiy munosabatlar dunyosini yaratishga muvaffaq bo'lganlar.

Taraqqiyotning eng qadim bosqichida kishilarning tabiat kuchlariga qarshi olib borgan kurashidagi katta g'alabalaridan biri olovni kashf etganliklaridir. Ana shu kashfiyot tufayli ovqat pishirish, ishlab chiqarish qurollarini tayyorlash – vahshiy hayvonlarni ovlash, sovuq iqlimli joylarda ham yashash imkoniyati tug'ildi. Temir tishli omochdan foydalanish orqasida keng miqyosda dehqonchilik bilan shug'ullanishga yo'l ochildi. Dehqonchilikning rivojlanishi chorvachilikni yuzaga keltirdi.

Odamlar moddiy ne'matlar ishlab chiqarish natijasidagina tabiat kuchlarini engishga muvaffaq bo'lganlar. Hayvon, parrandalar, o'simliklar, har xil giyohlardan oziqlanib, tirikchilik vositalarini tabiatdan tayyor holda olganlar. Shuning uchun ham ular tabiatga mutlaq qaramdirlar. Odam esa tabiatga faol ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat yordamida inson tabiat kuchlaridan o'z maqsadi yo'lida foydalanadi. Kishilar tabiatidagi narsalarni o'zgartirib mehnat qurollarini va tirikchilik vositalarini tayyorlaydilar. Odamning hayvondan farq qiladigan muhim tomonlaridan biri ham ana shunda.

Sirtidan qaraganda ba'zi bir hayvonlar mehnat qilganday bo'lib ko'rinadi. Ular ehtiyojlarini qondirish uchun mehnat qurolidan emas, balki o'zlarining tabiiy a'zolari – tirnoqlari, qoziqtishlari, o'tkir ko'zlaridan foydalanadilar. Birorta ham hayvon hech qachon, hatto eng oddiy mehnat qurolini ham yaratgan emas. Mehnat qurolini yasash va undan foydalanish bu faqat insonga xos xususiyatdir. Mehnat quroli tabiatning insonga hadyasi emas, balki u inson aqliy va jismoniy mehnatining natijasidir.

Mehnat – kishilarning maqsadga muvofiq faoliyatidir. Mehnat tufayli odamning ehtiyoji qondiriladi. Mehnat tabiat yaratgan narsalarni inson o'z ehtiyoji uchun o'zlashtirib olishidir, inson bilan tabiat o'rtasida moddalar almashinishining umumiy shartidir, inson hayotining abadiy tabiiy shartidir.

Mehnat, ishlab chiqarish insonning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishining, uning tabiatdan ajralib chiqishining negizidir. Insonlar tirikchilik uchun zarur vositalarni ishlab chiqara boshlashlari bilanoq o'zlarini hayvonlardan farq eta boshlaydilar. Mehnat qilish natijasida odam o'zining tabiiy a'zolari faoliyatini o'zgartiradi, muskullari, paylari, oyoq va qo'llari rivojlanadi. Shuningdek, odamning aqliy va jismoniy qobiliyatlari ham rivojlanadi, miyasi va sezgi a'zolari taraqqiy etadi.

Insonning sezgi a'zolari mehnatning, ijtimoiy munosabatlarning, inson amaliy faoliyatining mahsulidir.

Inson tabiat farzandi sifatida paydo bo'lgan bo'lsada, lekin insonga xos deb e'tirof etilgan xususiyatlarning hammasiga u jamiyatda bevosita aralashish, ta'lim-tarbiya olish, mehnat qilish orqali erishdi.

Mehnatning roli va ahamiyati, ayniqsa, ikki narsada kuchliroq seziladi. Birinchidan, inson ajdodlari organizmi mehnat ta'sirida biologik mavjudotga xos bo'lgan belgilardan ijtimoiy mazmunga xos tomonga o'zgarib boshladi. Ikkinchidan, mehnat gapirish, aloqa o'rnatish, ijtimoiy tajriba orttirish, inson ongi, til va tafakkurining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun ham asos bo'ldi.

Odamning ongi ham o'zi kabi ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Insonga xos bo'lgan ong faqat mehnat jarayonida rivojlanadi. San'at, fan, madaniyat va texnika taraqqiyoti tarixi bizning barcha fikrlarimiz, g'oyalарimiz mehnat jarayonida tug'ilganligini va rivojlanib borganligini ko'rsatib turibdi.

Kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilning kelib chiqishi va rivojlanishi ham mehnat bilan bevosita bog'liq. Mehnat natijasida qo'yilgan har bir yangi qadam insonning bilim darajasini kengaytira bordi. U tabiat predmetlarida doimiy ravishda yangi shu vaqtgacha ma'lum bo'lmagan xususiyatlarni ocha bordi. Ikkinchi tomondan, zaruriyat orqasida mehnatning rivojlanishi jamiyat a'zolarining yanada yaqinroq jipslashuviga yordam beradi. Natijada ularda bir-birlariga nimanidir aytish ehtiyoji tug'iladi. Bu ehtiyoj o'zaro aloqa vositasi tilni vujudga keltiradi.

Insonga xos bo'lgan barcha hislat va fazilatlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi mehnat bilan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq. Birgalikda qilinadigan har qanday mehnat kishilarining bir-birlari bilan muayyan aloqa va munosabatlarda bo'lishlarini taqozo qiladi. Kishilar ana shu aloqa va munosabat asosida bir-birlariga va tabiatga ta'sir etadilar.

Inson o'zining ma'lum maqsadga qaratilgan amaliy faoliyati jarayonida tabiatni behad o'zgartirib yubordi. Insoniyatning ko'p ming yillik tarixiy taraqqiyoti jarayonida o'simliklarning shunday yangi navlari va hayvonlarning tabiat yaratmagan zotlari yaratildiki, buni ko'rib ajablanmaslik mumkin emas. Dunyo xaritasida yangidan-yangi mamlakatlar, viloyatlarning paydo bo'lganligi va bo'layotganligi, o'simlik va hayvonlar dunyosining o'zgarib borayotganligi, suv omborlari, to'g'onlar, sun'iy dengizlarning paydo bo'layotganligi, qo'riq va bo'z

erlarning o'zlashtirilayotganligi, sanoat korxonalarining bunyod etilayotganligi, bularning hammasi insonning tabiatga ta'siri kuchayib borayotganligining muhim ko'rinishlaridandir. Er sharining, jahon okeanining inson amaliy faoliyati ta'sirida biron-bir darajada o'zgarayotgan nuqtasi leyarli yo'q.

Inson o'zining aql-idroki, fan va texnika yordamida oziq-ovqatning, qurilish materiallarining, kiyim-kechak uchun ishlatiladigan matolaming, sun'iy tolalarining tabiat yaratmagan yangidan-yangi turlarini ixtiro qildi va qilmoqda. Insonning tabiatga ta'siri ijtimoiy taraqqiyot mobaynida hozirgi davrdagidek bo'lgan emas. Hozirgi paytda insonning yashash maskanining tabiiy muhiti o'zgarimoqda. Bu muhit inson sivilizatsiyasining bir qismiga aylandi. Boshqacha aytganda, «ikkinchi tabiat» – insoniyat madaniy dunyosi vujudga keltirildi, ya'ni shunday narsalar va jarayonlar vujudga keltirildiki, ularning tabiatda tayyor holda mavjud bo'lishi u yoqda tursin, hatto ular tabiatning o'z kuchlari ta'siri ostida ham paydo bo'la olmaydi. Bundan endiliqda tabiat o'z mavjudligining obyektiv xususiyatini yo'qotdi, degan ma'no kelib chiqmaydi, albatta. Tabiat ilgari obyektiv va birlamchi bo'lganidek, hozir va bundan keyin ham shundayligicha qolaveradi.

Yuqorida aytilganlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin: birinchidan, inson va insoniyat dunyosi tabiatdan ajralmasdir, uning oliy mahsulidir, ikkinchidan, kishini tabiat vujudga keltirgan bo'lsa, uni jamiyat, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar kamol toptirdi va unga ijtimoiy qiyofa berdi, uchinchidan, odamning o'zini ham, uning ongini ham mehnat yaratdi va rivojlantirdi, to'rtinchidan, tabiiy muhit inson amaliy faoliyatida behad o'zgarib «insonning tanasi»ga aylandi.

## 2. Inson va tabiatning o'zaro aloqadorligi

Kishilik jamiyati moddiy olamning, tabiatning ko'p ming yillik tadrijiy taraqqiyotining qonuniy mahsulidir. U taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida, insonlar jamoasi kelib chiqqan davrda yuzaga kelgan. Demak, jamiyat tarixi va uning taraqqiyoti inson ma'lum jamoaga birlashib mehnat qilgan, ishlab chiqarish qurollarini yaratgan, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar shakllangan davrdan boshlandi.

Jamiyat tarixi o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar tarixidir. Jamiyat rivojlanishi esa shu munosabatlarning o'sishi va takomillashishi shaklida bo'ladi. Jamiyat tarixi tabiat rivojlanishi tarixining ma'lum bir davridan boshlandi.

Shunday qilib, inson va jamiyat tabiatning ajralmas bir qismi bo'lishi bilan birga uning alohida ongli qismidir. Jamiyat hamisha tabiat bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Inson har doim tabiatning bag'rida yashaydi. Biz butun borlig'imiz bilan tabiatimiz va uning ichida yashaymiz, olamiz va ulardan to'g'ri foydalana bilamiz.

Inson hech qachon tabiatdan tashqarida, u bilan aloqa va munosabatda bo'lmasdan turib yashay olmaydi. Tabiat bilan jamiyat, tabiat bilan inson, tabiat tarixi bilan jamiyat tarixida dialektik birlikda, ta'sir va aks ta'siridadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Alohida inson ham, umuman jamiyat va insoniyat dunyosi ham nazariy, jismoniy, amaliy jihatdan tabiat bilan uzviy aloqadorlikda yashaydi.

Tabiat-tabiiy resurslar manbaidir. Tabiiy resurslar, ya'ni, nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, har xil xom ashyolar bo'lmasa inson, jamiyat yashay olmaydi, san'at, qishloq xo'jaligi va madaniyatni yuksaltirib bo'lmaydi. Tabiat biz uchun moddiy ne'matlarning birinchi manbai sifatida ham sog'liq, shodlik, hayot qiziqishining va har bir kishidagi ma'naviy boyliklarning bitmas-tuganmas manbai sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

Tabiatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan Yer insonlarning oziq-ovqat manbai, uning dastlabki mehnat vositalarining xazinasidir. Yer insonni boqadi, ingliz olimi Vilyam Petti aytganidek, mehnat boylikning «otasi» bo'lsa, yer uning «onasi»dir. Odamlar bir necha ming yillar davomida uning issiq bag'rida undi, voyaga etdi. Insonning kundalik hayoti va sevinchlari ham Yer tufaylidir. Shunday ekan, inson uchun g'oyat darajada muhim va zarur bo'lgan Yerni e'zozlamaslik mumkin emas.

Kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarishi uchun muayyan tabiiy sharoitlar talab qilinadi. Tabiatning jamiyat bilan yaqindan aloqa bog'laydigan, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadigan qismi tabiiy muhit deb ataladi. Yer va yer osti boyliklari, daryolar, iqlim va boshqa shu kabilar tabiiy muhitni tashkil etadi.

Tabiiy muhit jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omil sifatida ikki katta turqumga bo'linadi. Ulardan biri tirikchilik vositalaridan iborat tabiiy boyliklar, ya'ni yerning hosildorligi, o'rmonlarda hayvonlar, suvda baliqlarning ko'pligidan iborat bo'lsa, ikkinchisi mehnat vositalari (mavjud sharoitlar, kema qatnaydigan daryolar, daraxtlar, ko'mir, neft, gaz va boshqalar)dir. Kishilik jamiyatining boshlang'ich davrida tashqi tabiiy sharoitlarning birinchi xil, jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichida ikkinchi xili hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Tabiiy sharoit jamiyat taraqqiyotiga ikki xil ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, tirikchilik vositalari va tabiiy manbalarga boy bo'lgan mamlakatlarda yashovchi xalqlar o'z tirikchiliklari uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni tayyorlashda mablag' va kuchni bunday tabiiy qulayliklarga ega bo'lmagan xalqlarga qaraganda ancha kam sarflaydilar. Qulay tabiiy sharoitlar jamiyat taraqqiyotiga ma'lum darajada yordam beradi. Qondirilishi mutlaq zarur bo'lgan tabiiy ehtiyojlarining miqdori naqadar kam bo'lsa, erning tabiiy hosildorligi naqadar ko'p bo'lsa va iqlim naqadar qulay bo'lsa, ishlab chiqaruvchi hayotning saqlanish va takror qilinishi uchun zarur bo'lgan ish vaqti shuncha kam bo'ladi. Demak, uning boshqalarga ketadigan ortiqcha mehnati uning o'ziga ketadigan mehnatga nisbatan shuncha ko'p bo'lishi mumkin. Aksincha, tabiiy sharoit noqulay bo'lib, kishilarning asosiy vaqti, mablag' va mehnati tirikchilik vositalarini yaratishga ko'proq sarf bo'lsa, u holda, jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari nisbatan sekinroq rivojlanadi. Noqulay tabiiy sharoit jamiyat taraqqiyotiga birmuncha salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Agar odamlar tabiiy sharoitlar bilan cheklanib, barcha tirikchilik vositalarini tabiatdan tayyor holda olganlarida (bunday bo'lishi mumkin emas, albatta) jamiyat taraqqiyoti juda sekin rivojlangan bo'lardi, odamlarda taraqqiyotga intilish, mehnat qurollarini rivojlantirish, tabiiy kuchlariga qarshi kurashish zaruriyati ham bo'lmasdi.

Turli tarixiy sharoitlarda tabiiy sharoitlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri aynan bir xil bo'lgan emas. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar o'zlarini qurshab olgan tabiatga butunlay qaram bo'lganlar. Ular tabiatni emas, balki tabiat ularni o'ziga butunlay bo'ysundirgan. Chunki hali bu davrda fan, texnika o'smagan, madaniyat rivojlanmagan, mehnat qurollari oddiy bo'lgan. Shuning uchun ham odamlarning hayoti tabiiy sharoitlar qulayligiga ko'p jihatdan bog'liq edi. Boshlang'ich davrda odamlar shuning uchun ham daryo bo'ylarida, tog' yonboshlarida, tuprog'i serhosil joylarda, o'rmonlari va hayvonot dunyosi serob bo'lgan joylarda yashashga harakat qilganlar.

Qadimgi davrda tirikchilik vositalarining tabiiy manbalarga boy bo'lgan joylar jamiyat taraqqiyotiga katta qulaylik tug'dirgan. Shuning uchun ham Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, O'rta Osiyo, Kavkazorti, O'rta yer dengizi o'lkalari madaniyatning eng qadimgi markazlari bo'lgan.

Madaniyatning ibtidoiy jamoa tuzumidan keyingi yuqori bosqichlarida odamlarning tabiatga bo'lgan ta'siri ancha kuchayib, tabiat

resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ancha kengaydi. Buning asosiy sababi ishlab chiqaruvchi kuchlarning, fan, texnika va madaniyatning rivojlanib borganligidir.

Sotsiologiya fanidagi «jug'rofik determinizm» deb atalgan nazariyasiga muvofiq jamiyatning iqtisodiy tuzumini ham, uning ijtimoiy va siyosiy tuzilishini ham belgilaydigan narsa jug'rofik muhitdir. Masalan, fransuz olimi Monteske «Qonunlar ruhi to'g'risida» deb nomlangan asarida kapitalistik mamlakatlardagi millionlab ommaning boshiga tushayotgan azob-uqubatlarning asl sababi tabiiy sabablardir, deydi. Iqlim hukmronligi uningcha hamma hukmronlikdan kuchliroqdir. Biroq jugrofik determinizm tarafdorlari nima uchun bir tabiiy sharoiti birxil bo'lgan ba'zi mamlakatlar tezroq rivojlanishini, ba'zilari esa sekinroq rivojlanishini tushuntirib bera olmaydi.

Darhaqiqat, tabiiy sharoitlar ijtimoiy taraqqiyotning borishini tezlashtirishi, unga turtki berishi, ijtimoiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin jamiyatning qiyofasini, ijtimoiy tuzumning xususiyatini, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tishini belgilab beruvchi kuch bo'la olmaydi. Chunki jamiyatning o'zgarishi va rivojlanishi tabiiy sharoitlarning o'zgarishiga qaraganda tezroq sodir bo'ladi. Tabiiy sharoitlarning sezilarli darajada o'zgarishi uchun ko'p yillar kerak bo'lsa, jamiyat hayotida tub o'zgarishlar bo'lishi uchun qisqa bir tarixiy muddat kifoya qiladi.

Yevropa, Osiyo, Afrikada geografik sharoit bundan 3 ming yil oldin qanday bo'lgan bo'lsa, hozir ham deyarli shunday. Biroq shu yillar ichida undagi davlatlar, xalqlar va millatlarning hayotida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'lgan va bo'lmoqda. Buyuk o'zgarishar jamiyat hayotida sodir bo'ladigan har qanday o'sish, o'zgarish va rivojlanishlarning geografik muhit o'zgarishiga nisbatan tezroq amalga oshishini ochiq-oydin ko'rsatibturibdi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, quyidagi xulosa chiqarish mumkin:

- 1) Insonning tabiat bilan aloqasi Erda inson paydo bo'lgan vaqtlardanoq yuzaga kelgan bo'lib, bu zaruriy obyektiv aloqadorlik o'z ahamiyatini bundan keyin ham hech qachon yo'qotmaydi; 2) Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, jamiyatning tabiatga, abiatning esa jamiyatga ta'siri obyektiv qonuniyatdir; 3) Jamiyat bilan tabiatning obyektiv aloqadorligi, tabiiy sharoitlarning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ta'siri jahondagi ayrim bir xalqlar va mamlakatlarga taalluqligina bo'lib qolmasdan, balki butun insoniyat uchun, barcha



jamiyatlar va mamlakatlar uchun bir xilda umumiydir; 4) Tabiiy muhit insonning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyatining doimiy abadiy va zaruriy shartidir.

### 3. Ekologik muammo va uni bartaraf etish yo'llari

Odam paydo bo'lgan davrdan boshlab hozirga qadar tabiatga ta'sir qilib, uni batamom o'zgartirib yubordi. Keyingi ming yilliklar davomida inson faoliyati natijasida Yer shari yuzasi, iqlimi, o'simligi, hayvonot dunyosining tanib bo'lmaz darajada o'zgartirib ketganligi bunga misol bo'la oladi. E'tirof etish kerakki, insonning o'z istiqbolini o'ylamay qilgan hatti-harakatlari, ko'r-ko'rona qilmishlari tufayli tabiat behad ozor chekdi, ko'p narsalardan abadiy judo bo'ldi. Kosmik changlar, issiqlik elektr stansiyalari, avtomobillar sonining tez o'sib borishi, radiaktiv moddalar va boshqalar ta'siri ostida barcha jonli mavjudotning hayot manbai bo'lgan havo toqat qilib bo'lmaydigan darajada ifloslanmoqda. Bunday dahshatli hodisalar dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida tez-tez bo'lib turibdi. Atrof-muhitning radioaktiv va kimyoviy chiqindilar bilan zararlanishi aholining, chorva molla-rining, parrandalarning, daryo va ko'llardagi, suv omborlari va okeanlardagi baliq va boshqa jonivorlarning ko'plab zaharlanishiga sabab bo'lmoqda. Olimlar havo, suv va yer ustining zaharlanishi shu tariqa davom etadigan bo'lsa, sivilizatsiya halok bo'lishi mumkinligini ta'kidlashmoqda. Akademik A.E.Fersmannning fikricha, agar atmosfera tarkibidagi karbonat angdrid miqdori 2 baravar ko'paysa, bu narsa Yer yuzidagi haroratning 4 daraja ko'tarilishiga olib boradi. Uning hisobicha, bu voqea 500 yildan keyin sodir bo'lishi kerak.

Suv ta'minotining an'anaviy manbalari hisoblangan daryolar, ko'llar, Shimoliy qutb muzliklari, dengizlar, suv omborlari ifloslanmoqda. Insoniyatning eng katta oziq-ovqat manbai bo'lgan jahon okeanlari ham hozirgi vaqtda inson sivilizatsiyasi qurboni bo'lmoqda. Har yili jahon okeaniga o'n million tonnagacha miqdorda neft va neft mahsulotlari kelib tushadi. Inson o'zining ko'p asrlik xo'jalik faoliyatida 72 hayvon turini butunlay yo'q qilib yubordi. O'zbekistonda ham Turon yo'lbarasi, yo'l-yo'lli sirtlon kabi hayvonlar yo'q bo'lib ketdi. Oq quyruq, qoraquloq, Ustyurt qo'ylari, Buxoro bug'usi, qo'ng'ir ayiq kabilar esa yo'q bo'lish arafasida turibdi.

XX asr o'talarigacha, hatto yaqin-yaqinlargacha ham inson tabiatga hokim, uni istagancha o'zgartirishi, irodasiga bo'ysundirishi mumkin,

degan noto'g'ri fikr ustunlik qilib keldi. O'sha sharoitlarda bu fikr dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida, jumladan, o'zimizda ham qo'llab-quvvatlandi. Tabiatni iqtisodiyot talabiga moslashtirib o'zgartirish avj olib ketdi. Ko'plab loyihalar vujudga keldi. Daryo va ko'llardagi baliqlar, parrandalar, hayvonlar ehtiyojdan ortiqcha ovlandi, ularning aksariyat qismi hozir yo'q bo'lib ketdi. Qachonlardir Amudaryoning o'zidagina 140 dan ortiq baliq turi bo'lganiga endi ishonish qiyin. O'rmonlarga nisbatan ham ko'r-ko'rona munosabatda bo'lish tufayli Er sharida 100 yil avvalgi 7200 million gektar o'rmondan hozirgi kunda 4100 million gektar o'rmon qoldi. Shu sababli ham tabiatni muxofaza qilish bugungi kunda insoniyat oldida turgan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Inson tabiatdan o'ziga kerakli narsalarni olish bilan bir qatorda unga har xil ishlab chiqarish chiqindilarini tashlab, tabiatni zaharlantirmoqda. Industrial jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bir kishi hisobiga, har yili tabiatdan 30 tonna modda olinib, uning atigi 1-1,5 foizidan iste'mol mahsulotlari sifatida foydalanmoqda, qolganlari esa chiqindi sifatida tashlab yuborilmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, har yili atmosferaga 200 million tonnadan ziyod gazi, qariyb 150 million tonna olingugurt oksidi, 53 million tonna azot oksidi, 50 million tonnadan ortiqroq har xil uglevodorodlar chiqarilmoqda. Jahon sanoati har yili tabiatga 32 milliard km<sup>3</sup> ifloslangan suv, 70 million tonna zaharli gazlar va 250 million tonna changni chiqarib tashlamoqda.

Oqibatda biosfera o'z-o'zini tozalashga oqiz bo'lib qolmoqda, hozirgi atmosferada zaharlangan «uglekislota» gazining miqdori qariyb 20 foizni tashkil etadi. Bularning hammasi inson sog'lig'iga ta'sir etib, ular o'rtasida rak va boshqa kasalliklar soni yildan yilga ko'payib ketmoqda. Hozirgi paytda dunyo bo'yicha har yili 500 ming kishi rak bilan kasallangan bo'lsa, uning 60 foizi atrof-muhitdagi har xil kontserogen moddalarining ko'payishi natijasida hosil bo'lgan.

Jamiyatning tabiatga ta'siri hamisha oliy maqsadga muvofiq oqilona bo'lishi kerak. Agarda buning aksicha bo'ladigan bo'lsa, tabiat insondan juda qattiq o'ch olishi, qo'lga kiritgan barcha yutuqlarini er bilan yakson qilib yuborishi hech gap emas.

Ko'rinib turibdiki, tabiatni muhofaza qilish hozirgi davrning eng o'tkir va dolzarb umumbashariy muammolaridan biridir. Buning ma'nosi nimadan iborat? Tabiatni muhofaza qilish insoniyatning ertangi kuni haqida g'amxo'rlik qilish, yer yuzidaga barcha insoniyat uchun muqaddas dargoh hisoblangan sayyoramizning taqdiri to'g'risida jon kuydirish, uni tinch totuv holatda saqlab qolish demaqqdir. Bu – inson

uchun zarur bo'lgan barcha noz-ne'matlar manbai – yerni sevish va ardoqlash, uning kasallanib yaroqsiz bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasliqdir. Bunday sharafli va olijanob ishdan o'zini chetga oladigan biron kishi, elat va millat, biron bir mamlakat bo'lishi mumkin emas.

Tabiiy muhitni muhofaza etishni yoki boshqacha aytganimizda ekologik xavfsizlikka alohida e'tibor berishni paysalga solib bo'lmaydi. Bu sohadagi hozirgi ahvol tahlikali bo'lib turibdi. Vaziyat zudlik bilan harakat qilishni taqozo etmoqda.

Tabiatga mehr-muhabbat bilan yondashish, tevarak atrofni, suvni, havoni, tuproqni, hayvonatu nabotatni asrab-avaylash haqida islom ta'limotida ham muhim g'oyalar mavjud. Biz yashayotgan koinotdagi, er yuzidagi barcha noz-ne'matlarning qadriga etish, ularni e'zozlash, ularni asrash, isrof qilmaslik har bir mo'min-musulmonning burchidir.

Qur'oni Karim oyatlarida, Payg'ambarimiz hadislarida hayvonot va nabobat olami va atrofimizni o'rab turgan boshqa narsalarni to'la-to'kis himoya qilish, saqlash ularni buzmaslik, isrof qilmaslik to'g'risida dastur va amaliy maslahatlar mavjud, ularni doimo esda tutishimiz kerak.

#### **4. Mintaqamizdagi ekologik vaziyat**

Insoniyat o'zining faoliyati tufayli ishlab chiqarish vositalarini taraqqiy ettirish bilan bir qatorda ekologik vaziyatni nihoyatda keskinlashtirib yubordi. Natijada ekologik inqiroz vujudga keldi. Havo va ichimlik suvlarining sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi, o'rmonlarning yo'qolib ketishi natijasida tuproqning eroziyaga uchrashi, hayvonot dunyosining kamayib ketishi, tabiat hodisalari o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, turli xom ashyolarning keskin kamayib ketishi kabilar ekologik inqirozning yaqqol ko'rinishidir.

Ekologik vaziyatning nihoyatda keskinlashib ketganini O'rta Osiyo mintaqasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda O'rta Osiyodagi eng katta suv havzasi Orol dengizining taqdiri ko'pchilikni tashvishga solmoqda. Insoniyat tarixi haligacha chorak asr davomida bir avlod ko'z o'ngida havzasi 6 million gektardan ziyod va chuqurligi 69 metrgacha bo'lgan dengizning yer yuzasidan g'oyib bo'lib ketganligini bilgan emas edi. Bugungi kunda Orol dengizi qariyb yarmigacha qurib bo'ldi. Suvi qurib qolgan joylarda, ikki million gektarga yaqin qum va tuzdan iborat sahrolar paydo bo'ldi.

Orol muammosi faqat O'zbekistonga yoki O'rta Osiyodagi mamlakatlarga taalluqli mintaqaviy muammo bo'lib qolmay, umum-

bashariy muammo hamdir. Orol bo'yidagi ekologik vaziyat keyingi vaqtlarda shu qadar keskinlashib, fojiali tus olib ketdiki, undan nafaqat O'rta Osiyo xalqlari, balki butun kurraizamin birin-ketin zarar ko'rmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 20-sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlari bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisida ishtirok etib, mazkur sammitda so'zlagan nutqida aytib o'tilishicha, keyingi yillarda Orol dengizi akvatoriyasi 7 barobardan ko'proq qisqardi, suv hajmi 13 marta kamaydi, Orol dengizi suvining minerallashuvi 10 barobar oshgan, dengiz tirik organizmlar yashashi uchun yaroqsiz ahvolga kelgan, Orol dengizi hududidagi qariyb barcha hayvonot va nabodot olami tanazzulga uchradi va yo'qoldi, dengiz qirg'og'i 80 kilometrga chekindi, atrofda haydaladigan ikki milion gektar erni qum bosdi, chang to'zonlar bo'roni 300 kilometr va undan ko'proq masofaga etib boradigan bo'ldi.

BMT mutaxassislarining fikriga ko'ra, Orol muammosi o'zining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari jihatidan XX asrning eng katta ofatlaridan biri bo'lib qoldi<sup>1</sup>.

Orol dengizining qurishi bilan bog'liq bo'lgan falokatlar hozirgi avlodgagina emas, kelgusi avlodlar va butun insoniyat uchun ham o'ta xavfli va xatarlidir.

Orol muammosi ham milliy, ham mintaqaviy va ham jahonshumul muammodir. Shuning uchun ham Orol bo'yidagi ekologik falokat oqibatlarini bartaraf etish, Orol dengizini qutqarish bo'yicha birgalikda chora-tadbirlarni amalga oshirish mintaqalararo hamkorlik doirasidz alohida ahamiyatga ega.

Mintaqamizda ekologik vaziyatning murakkablashib borayotganligi haqida so'z yuritganda yana shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, paxtani etishtirish uchun ko'p miqdorda va bir necha yillar mobaynida ishlatilgan zaharli kimyoviy moddalar tufayli, yer, suv, havo zaharlandi. Oqibatda necha minglab kishilar oshqozon ichak, sariq kasalliklariga muhtalo bo'lishdi. Mustaqillik tufayli bu masalani ham hal qilishda ma'lum darajada ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Paxta zararkunandalariga qarshi zaharli kimyoviy moddalarni ishlatish o'rniga biologik usullardan foydalanilmoqda. Paxtazorlarning ko'lamini kamaytirish hisobiga don mahsulotlarini etishtirish yo'lga qo'yilmoqda. Bularning hammasi o'z navbatida, ekologik vaziyatni yaxshilashga zamin yaratmoqda.

---

<sup>1</sup> «Xalq so'zi», 2010- yil 20-sentyabr.

O'rta Osiyo mintaqasi uchun yana bir xos vaziyat shundan iboratki, aholining ehtiyojlarini qondirish uchun yer osti xom-ashyolari, jumladan gaz, neft mahsulotlarini qayta ishlab chiqish yildan-yilga avj olib kelmoqda. Mazkur xom-ashyolarni ishlatishda tabiatni muhofaza etish choralari ko'rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Kishilarni tabiat va o'zining kelajak istiqboli qiziqirmoqda. Bugun biz shunday yuksak darajaga erishdikki, inson tabiatdan foydalanibgina qolmasdan, uni himoya qilishi zarur. Tabiatni e'zozlashda va saqlashda hech qanday hududiy to'siqlar bo'lishi mum-kin emas, chunki bir mamlakatda ro'y berayotgan ekologik inqiroz boshqa joylarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko'z ochib ko'rgan dunyo, bamisoli ona quchog'i, inson uchun beshikdir.

Biz yashab, nafas olib, kun kechirib, tirikchilik o'tkazib turgan tabiat, uning tarkibiy qismi bo'lmish Erimiz – hammaning, butun insoniyatning umumiy uyi, umumiy makonidir. Shunday ekan, uni ko'z qorachig'idek saqlash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik umumdavlat, umuminsoniyat ishidir.

Tabiatni muhofaza qilishning dolzarbligi boisiana shunda. Ekologik inqiroz ishlab chiqarish inqirozi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda, ijtimoiy-siyosiy muammo hamdir. Chunki tabiatni muhofaza qilish bu rivojlanish va xalq farovonligini oshirishning zaminidir. Shuning uchun ham respublikamizda tabiatni muhofaza qilishni davlat yo'li bilan boshqarish va nazorat qilib turishga katta ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasining, Orolni saqlash, EKOSAN va boshqa jamg'armalarning ta'sis etilishi, tabiatdan unumli foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolariga oid mintaqaviy jahon ilmiy-amaliy anjumanlarining o'zkazilishi, tabiatni muhofaza qilish ishlariga jamoatchilikning keng jalb etilishi bunga misol bo'la oladi. Mintaqamizda tabiatni muhofaza qilish ishlari quyidagi vazifalarni hal qilishga qaratilmog'i lozim:

– qishloq xo'jalik ekinzorlarini saqlash, tuproq eroziyasiga qarshi kurashni kuchaytirish, erlarni seldan, ko'chkilardan, o'pirilishlardan, sho'r bosishdan, zaharlanishdan, suv bosishdan va qaqrab qolishdan himoya qilishni ta'minlash;

– foydali qazilma konlarini yanada kompleks ravishda o'zlash-tirish, ularni qazib olish va qayta ishlash chog'ida nobudgarchilikka yo'l qo'ymaslik;

– Orol dengizi, Sirdaryo, Amudaryo va boshqa suvlar sathini kamayib ketishining oldini olish, ularni bug'lanishidan saqlashni

kuchaytirish choralarini amalga oshirish, suv manbalari, jumladan, kichiq daryolar va ko'llarni qurib qolishidan va ifloslanishidan muhofaza qilishni yaxshilash, O'rta Osiyodagi eng muhim daryo havzalaridagi suv xo'jaligi komplekslarini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini yaratish, irrigatsiya, melioratsiya tizimlarini hozirgi davr talabiga muvofiqlashtirib qayta qurish;

– zararli moddalarning atrof-muhitga chiqarib tashlanishini kamaytirish va chiqarilayotgan gazlarni zararli aralashmalardan tozalashni yaxshilash, gaz va chang yutuvchi g'oyat samarali apparatlar, suvni tozalaydigan uskunalar, shuningdek, tabiiy atrof-muhitning holatini nazorat qiluvchi asboblari hamda avtomat stansiyalar ishlab chiqarishni ta'minlash;

– issiqlik elektr stansiyalarida mazut, torfdan yoqilg'i sifatida foydalanishni kamaytirish;

– o'rmonlarni yong'indan saqlash hamda ularni zaharli hashoratlardan va kasalliklardan muhofaza qilish. Daraxtzorlarni kengaytirish, shahar, qishloqlar atrofida yangi ko'kalamzorlarni yaratish, mavjud shunday zonalarini obodonlashtirish;

– ilmiy asoslangan qo'riqxonalar va milliy saylgohlarni ko'paytirishni davom ettirish. Yovvoyi hayvonlarni mutanosib ravishda ko'paytirish hamda tabiiy ko'l, hovuzlar va suv omborlarida qimmatli baliq turlarini urchitib ko'paytirish tadbirlarini amalga oshirish.

Ekologik muammolarni hal qilishda barcha mamlakatlarning bir-birlariga qo'l berib, hamkorlikda ish ko'rishlari maqsadga muvofiqdir. Bu sohada umumjahon miqyosida hamkorlik, barcha mamlakatlarning bahamjihat ommaviy harakat qilishlari zarurligini ko'rsatmoqda. Bu hamkorlik to'la teng huquqli, har bir mamlakatning suverenitetini hurmat qilish asosida, olingan majburiyatlarni, xalqaro huquq normalarini vijdonan bajarish asosida bo'lishi lozim. Biz yashab turgan davrning qat'iy talabi mana shulardan iborat.

Tabiatni e'zozlash, uni muhofaza qilish, inson ongining etukligi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda kishilarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada oilaning roli katta. Yoshlarimizda ekologik madaniyatni tarbiyalashda bolalar bog'chalari, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari ham jonbozlik ko'rsatmog'i zarur. Mehnat jamoalari, jamiyat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari doimiy va izchil ravishda aholining ekologik ongi va madaniyatini tarbiyalashga oid ishlarni muntazam olib borish yo'lida jiddiy o'zgarishlarni qo'lga kiritishimiz mumkin bo'ladi.

## **Takrorlash uchun savollar**

1. Tabiat tushunchasi ma'nosini aytib bering. Inson tabiatning oliy mahsuli ekanligini qanday tushunasiz?
2. Inson va tabiatning o'zaro aloqadorligi nimalardan iborat?
3. Ekologik muammo va uni bartaraf etish yo'llari haqida sizning fikringiz qanday?
4. O'zbekiston Prezidentining Orol muammosini hal etish bo'yicha dunyo miqyosida olib borilayotgan sa'y-harakatlar haqida so'zlab bering.
5. Kishilarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

## **Tayanch tushunchalar**

**Tabiat** – bizni qurshab turgan jonli va jonsiz olam.

**Ekologiya** – o'simlik, hayvonot va mikroorganizmlarning bir-biri va atrof-muhit bilan aloqadorligini o'rganuvchi ta'limot.

**Ekologik muammo** – inson faoliyati tufayli jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi tufayli yuzaga kelgan vaziyat.

**Ekologik ong** – kishilarda tabiatni e'zozlash, muhofaza qilish madaniyatini shakllantirish.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 110–134 -betlar.

2. Karimov I.A. BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlantirish maqsadlari bo'yicha oliy darajadagi yalpi majlisida so'zlagan nutqi // «Xalq so'zi», 2010-yil 20-sentyabr.

3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.– T.: «Xalq merosi», 1993.

4. To'xtaev A., Hamidov A. Ekologiya asoslarish tabiatni muhofaza qilish. – T.: «O'zbekiston», 1994.

5. Hakimov I. Sog'lom muhit – sog'lom avlod.–T.: «O'zbekiston», 1999, 3–27- betlar.

---

---

## TO‘RTINCHI BO‘LIM. ONG FALSAFASI

### VIII MAVZU: ONG, UNING MOHIYATI, KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI

#### Reja:

1. Ong tushunchasi va uning mohiyati.
2. Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi.
3. Yuksak ong – inson bunyodkorlik faoliyatining omili.

#### 1. Ong tushunchasi va uning mohiyati

Borliq – jonli tabiatning oliy mahsuli bo‘lgan inson ongida aks etiladi. Shunday ekan, ong nima, u qanday qilib paydo bo‘lgan degan savollar ustida inson eng qadim zamondayoq o‘ylay boshlagan. Natijada ong muammolarini talqin qilishda turli holatdagi tasavvurlar vujudga keladi.

Sharq falsafasi va islom ta‘limotiga ko‘ra, ong Alloh tomonidan insonga in‘om qilingan ruhning zahuroti, u o‘lmas va abadiydir. Forobiyning fikricha, «odamlarning bir avlodi o‘lib ketgach, ularning jismlari yo‘q bo‘lib ketadiyu, ammo ularning ruhlari vujud (qafasi) dan qutilib, saodatga erishadilar. So‘ng boshqalari ularning o‘rnini egallab, ular qilgan ishlarini qiladilar. Bu avlod odamlari ham dunyodan o‘tgach, xuddi shunday yo‘l bilan ruhlari avvalgilarning izidan borib, qiyofalari (fe‘l va fazilatlar), quvvati va sifati o‘xshash, yaqin ruhlar bilan qo‘shilishlari mumkin... Har bir yangi kelgan ruh bilan qo‘shilganida huzur – halovati hamyanada ortadi»<sup>1</sup>.

Nemis faylasufi Gegelning fikricha, ong «mutlaq g‘oya», tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarning asosini, zaminini tashkil etadigan hodisa.

Ingliz faylasufi Berklining fikricha, shunday ekan, inson faqat o‘z «narsalar sezgilarini idrok etishga qodir, shunday ekan, real narsa – bu ong, narsalar esa – kishi ongida, sezgi va tasavvuridagina mavjuddir».

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T: «Xalq merosi», 1993, 164–165- betlar.



Xuddi shunday fikrni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa olimlari Max va Avenarius ham ilgari so'rganlar.

Ilmiy falsafa ta'limotiga muvofiq, ong jonli tabiatning (oliy shakli bo'lgan) inson miyasining mahsulidir. Uning xususiyati voqelikni aks ettirishdan iboratdir. Voqelikni in'ikos ettirish inson miyasining ishidir. Ong miyadan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Ong miyaning faoliyati, uning ruhiy funksiyasi, miya esa fikrlash a'zosi, moddiy narsa. Shunday qilib, ilmiy falsafa ong – inson miyasining funksiyasidir, bu funktsiyaning mohiyati esa borliqni mavjud narsalarni in'ikos ettirishdan iboratdir, deb tushuntiradi.

Ongning mohiyatini to'g'ri ochib berish uchun unga ontologiq ijtimoiy va gnoseologik tomonlardan, yondashmog'imiz lozim.

Unga ontologik jihatdan yondashish, ong – bu tabiat uzoq tarixiy taraqqiyotining mahsuli, materiya evolyutsiyasi jarayonida vujudga kelgan ruhiy hodisalarning xossasi demakdir. Odam ongi yuksak darajada tuzilgan materiyaning xossasidir, voqelikning in'ikosidir.

Onga ijtimoiy jihatdan yondashish – ongning shakllanishi va rivojlanishi inson mehnati faoliyatining natijasi demakdir.

Ongning shakllanishi va rivojlanishida mehnat hal qiluvchi omildir. Inson o'zining mehnati tufayligina tabiatdan ajralib chiqdi. Inson o'zining mehnati natijasida ijtimoiy hayotni tubdan qayta qurishga qodir bo'lgan yagona kuchdir. Shuning uchun ham mehnat odarning bebaho boyligi, uning yashashi va hayotning asosiy zamini hisoblanadi. Insoniyat kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan narsalarni topish jarayonida tabiat predmetlariga duch kelib ularning xossalarini bila borgan, ularni bir-biri bilan taqqoslab ajrata boshlagan.

Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mehnat qurollarini tayyorlash va takomillashtirish jarayoni ongning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatganligi shubhasizdir. Mehnat qurollarining avloddan – avlodga o'tib kelishi, o'z navbatida oldingi avlodning ishlab chiqarish tajribasini, bilimi va ongini keyingi avlodlarga ham olib o'tgan. Keyingi avlod esa o'z ajdodlarining mehnat qurollarini tayyorlash va ulardan foydalanish usullarini bilib olib, ularni yanada takomillashtirgan. Ong ana shu tariqa mehnat bilan tafakkurning birligi asosida inson ongi rivojlanib, takomillashib borgan.

«Insonning eng asosiy vazifasi va o'rni, – deb yozgan edi Beruniy, – mehnat bilan belgilanadi, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi».

Mehnat inson ongini shakllantirgan va kamolga etkazgan asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Kishilarning mehnat faoliyati tafakkur organi bo'lgan miyaning rivojlanishiga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Unga gnoseologik jihatdan yondashish – ong voqelikdagi narsa va hodisalarning in'ikosi, deb qarashdir. Ongning muhim belgilaridan biri shuki, u tushunib etilgan bilimdir. Inson miya yordamida fikr qiladi. Ongning ma'nosi narsalarni bilish, o'zlashtirish, uning mohiyatini ochib borishdan iborat. Ong faqat obyektiv olam in'ikosigina emas, balki insonning ichki ruhiy holatlari, kechinmalari, hissiyotlarining ham in'ikosidir.

Inson tabiatining yuksak mahsuli, hayot gulidir. Insonning buyukligi – unda bebaho marvarid – aql zakovot mavjud. Aql – idrok sohibi bo'lgan-ligi uchun u tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar, voqealarni biladi, ilmu tafakkuri, dahosi, mehnati, salohiyati bilan dunyoni boshqaradi. Keyingi sahifalarda bu masala batafsilroq yoritib beriladi.

## 2. Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi

Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi qarashlar falsafa fanining in'ikos nazariyasiga asoslanadi. Unga muvofiq, keng ma'nodagi aks ettirish (in'kos) xususiyati butun dunyoda, jonli tabiatda ham, jonsiz tabiatda ham bor. Ammo jonsiz tabiatda aks ettirish qobiliyati birmuncha sodda, mexanik fizik kimyoviy jarayonlarda namoyon bo'ladi. Aks ettirishning bu shakllarini (ta'sirlanuvchanlik, iztiroblanuvchanlik, sezuvchanlik) ong bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki ong aks ettirishning yuksak shakli hisoblanadi.

Materiya harakatining yuksakroq biologik shaklining kelib chiqqanligi aks ettirishning sifat jihatdan yangi shakli – ta'sirlanuvchanlikka o'tish uchun zarur shart bo'ladi. Ta'sirlanuvchanlik esa, hayot bilan birga paydo bo'lgan va tirik materiyaning eng muhim xossalaridan biri hisoblanadi. Tirik protoplazma bo'lgan har bir joyda iztiroblanish reaksiyasi mavjuddir. Iztiroblanish xossasi modda almashinuvi bilan muqarrar bog'langan. Tirik oqsil vujudga kelganidan unda darrov ta'sirlanuvchanlik ko'rinadi. Bu tirik oqsil bilan muhitning o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Barcha mavjudotlar tashqi ta'sirga javoban bir qadar mustaqil ta'sirlanadigan bo'ladi.

Tirik tabiatning tarixiy taraqqiyoti natijasida sezgilar vujudga keldi, ammo o'simliklarda sezgi yo'qligi ma'lum. O'simlik dunyosining hayot sharoiti sezgiga zarurat tug'dirgan emas. O'simliklar ta'sirchan-

ligining keng tarqalgan shakli – bu ulardagi tropizm xossasidir. U g'oyatda xilma-xil bo'ladi, masalan, uning turlaridan biri fototropizm shunda ko'rinadiki, ya'ni o'simlik Quyosh nurlarining ta'siriga javoban reaksiya ko'rsatadi. Yashil o'simliklar hayotida yorug'lik juda katta rol o'ynaydi. Yorug'lik yashil o'simliklar uchun energiya manbaidir. O'simliklar mumkin qadar nur energiyasini olmoq uchun yorug'likka intiladilar. Barglariga oftob nurlari qaysi tomondan ko'proq tushsa, barglar asosan usha tomonga qarab o'sadi.

Hayvonot dunyosida ta'sirlanuvchanlik xossasi taraqqiyotining muayyan bosqichida sezgilarning kelib chiqishiga olib keldi. Dastlabki eng oddiy sezgilarning maydonga kelishi tirik tabiat taraqqiyotidagi yangi davr bo'ladi.

Aks ettirishning muayyan shakli bo'lgan sezgilar hayvonot dunyosi taraqqiyotining ilk bosqichlarida kelib chiqishi bilan birga odamda ko'proq taraqqiy topdi va kamolga etdi. Sezgi obyektiv olamning subyektiv obrazidir. Materiya bizning sezgi a'zolarimiz, ko'z to'r pardasiga va shu kabilarga, ya'ni muayyan sur'atda tuzilgan materiyaga bog'liq. Materiyaning mavjudligi esa sezgiga borliq emas.

Odam miyasi va kishilarning ijtimoiy tabiatga ko'ra ko'proq taraqqiy topgan asab tizimi hayvonlarning sezgilariga qarama-qarshi o'laroq, odam sezgilarining yangi sifat xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Hayvonlarning sezgilari ham, odamning sezgilariga ham tabiatda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarning in'ikosidir. Ammo, odamning sezgi a'zolari aks ettira oladigan hamma narsani hayvonlarning sezgi a'zolari aks ettirishga qodir emas. Masalan, burgut odamga qaraganda ancha uzoqni ko'radi, lekin odamning ko'zi buyumlarda burgutning ko'ziga qaraganda ancha ko'p narsani ajratadi. Odamga nisbatan kuchuk birmuncha nozikroq hid bilish quvvatiga ega, lekin u odam uchun turli narsalarning muayyan belgilaridan iborat bo'lgan hidlarning yuzdan bir hissasini ham farq qila olmaydi.

Fan odam bilan hayvonot dunyosi o'rtasida biologik-fiziologik ma'noda o'tib bo'lmaydigan chegara yo'qligini isbotladi. Eng yuksak darajada tuzilgan mavjudot – odam jonli tabiat taraqqiyotning eng yuksak mahsuli hisoblanadi.

Hayvonlar ruhiyatning muhim xususiyati instinktlardir. *Instinktlar* – hayvonlar muayyan to'rining evalyutsiyasi jarayonidan to'plangan ongsiz hayoti, «tajribasi»dir. Ular mutlaqo o'zgarmas narsa emas, aksincha, evolyutsiya jarayonida hayot sharoitiga qarab o'zgaradi, yangi instinktlar bilan almashinadi. Instinktlar murakkab shartsiz reflekslar

bo'lib, organizmning tashqi ta'sirotiga javoban tug'ma his-tuyg'u, sezgidan iborat. Instinktlarda hech qanday g'ayritabiiy sir yo'q. Ular turli hayvonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Hayvonlarning juda murakkab sezgi harakatlari ma'lum, masalan, asalarilar olti qirrali, chumolilar ko'p qavatli uyalar quradi, qushlar doimiy havo yo'llaridan uchib o'tadi, baliqlar o'zi bir vaqt tuxumdan chiqqan joyiga tuxum tashlaydi va boshqa ko'pgina misollar mavjud. Demak, hayvonlarga xos bo'lgan ruhiy hodisalar ularga har xil sezgi va instinktlarda ko'rinadi. Yuqorida aytilgandek, instinktlar murakkab shartli bog'lanishlar sifatida yuzaga chiqadi, hayvonlarning yurish – to'rishi ana shu bog'lanishlar asosida vujudga keladi. Ammo yuqori darajadagi hayvonlarning ruhiyati shu hodisalar bilgangina cheklanmaydi.

Ularda idrok faoliyatining elementlari, ong boshlang'ichlari, anglab, bilib aks ettirishning dastlabki eng oddiy shakllari borligini fan dalillar asosida isbotladi.

Hayvonlarda ongli, rejali sur'atda harakat qilish qobiliyati asab tizimining taraqqiy etishga muvofiq ravishda rivojlanadi va bu sut emizuvchi hayvonlarda ancha yuksak darajada turadi. Masalan, tulki o'z ketiga tushganlardan yashirinish uchun o'ziga tanish joydan yaxshigina foydalana oladi.

Ayrim hayvonlar odamga bog'lanish harakatlarini namoyon qila oladi. Rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan hayvonlarda elementar «tafakkur», asosan aniliz va sintez shaklida ko'rinadi. I.P.Pavlovning fikriga ko'ra, asab tizimining asosiy faoliyatidan biri yangi bog'lanishlarni vujudga keltirish bo'lsa, ikkinchisi tevarak-atrofidagi dunyoni tahlil qilish, murakkab elementlarni oddiy elementlarga parchalashdan iborat. Bugungi kunda turli ilmiy dalillar ayrim hayvonlarda ong alomatlari borligini asoslaydi. Ammo, hayvonlarning ruhiyati bilan odam tafakkuri o'rtasida sifat jihatdan juda katta tafovut borligini unutmash kerak.

Odamning kelib chiqishi haqida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlari alohida e'tiborga sazovordir. Ibn Sino fakriga ko'ra, inson boshqa barcha hayvonot olamidani nutqi va aqli, tafakkurlash qobiliyati bilan farq qiladi. Forobiy esa, «Til va tushuncha sohibi bo'lgan tirik zotdan ortiqroq mukammal bo'lgan biror zot yo'qdir», degan.

Yuksak darajadagi ong odamlar xos xususiyatidir. Ong voqelikning ham ratsional, ham hissiy in'ikosini qamrab oladi. Shuningdek, u inson hissiyotlari, irodasini ham o'z ichiga oladi.

**Iroda** – insonning o‘z hatti – harakatlarini ongli ravishda tartibga solish va ko‘zlangan maqsadni amalga oshirishda uchraydigan jami to‘siqlar(qo‘rqinch, jur‘atsizlik, shubha)ni engishga bo‘lgan qobiliyatdir. Iroda amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi, insonning ham tashqi olam predmetlarini, ham o‘z shaxsiy imkoniyatlarini bilishga asoslanadi.

Barcha ruhiy jarayonlar singari hissiy-emotsional holatlar ham miya faoliyatining natijasidir. Hissiyholatlarning paydo bo‘lishiga tashqi olamda yuz beradigan o‘zgarishlar sabab bo‘ladi. Insoniy his-tuyg‘ular hayotning ijtimoiy sharoitlari bilan o‘zgaradi. Boshqacha aytganda, u ijtimoiy sharoit bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

**Emotsiyalar** (his, tuyg‘u) birinchidan, ifodali harakatlar(mimik va pantomimik harakatlar)ni; ikkinchidan, organizmdagi turli hodisalarni, ya‘ni ichki a‘zolar faoliyatining va holatining o‘zgarishi (ko‘pchilik hollarda bu o‘zgarish emotsiya kechirayotgan odamning tashqi qiyofasida namoyon bo‘ladi); uchinchidan, gumoral xarakterdagi, ya‘ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa kimyoviy o‘zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo‘ladigan yanada chuqur o‘zgarishlarni o‘z tarkibiga oladi.

Emotsional jarayonlar va holatlar yoki emotsiyalar hissiy kechinmalarining odatdagi asosiy shaklidan iboratdir. Emotsiya qandaydir bir hissiyotning bevosita kechirilishidir. Ba‘zi hollarda emotsiyalar ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Bunday emotsiyalar odamni harakatlarga, mulohazalar aytishga undovchi kuchga aylanadi.

Emotsiyalar qilinayotgan harakatlarning mavzusi bo‘lish bilan birga, ba‘zan faoliyatni tashkil qiluvchi jihatga, ba‘zan esa faoliyatni buzuvchi jihatlariga aylanadi. Insonning haqiqatni izlashlari hech vaqt insoniy hissiyotlarsiz bo‘lmagan va bo‘lishi mumkin emas edi. Boshqa tomondan olganda, ortiqcha emotsiyaga berilish juda ko‘p hollarda obyektlarni noto‘g‘ri aks ettirishga, xulosa chiqarish va baholashda mantiqsiz holatlarga olib keladi.

**Tafakkur** – miyaning oliy mahsuli, obyektiv olamning tushunchalar, muhokamalar, nazariyalar va hokazolardagi in‘ikosining faol jarayonidir. Boshqacha aytganda, tafakkur borliqning inson miyasida mavhumlashgan, umumlashgan, til bilan ifodalanadigan aks etishidir. Tafakkur avvalo, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liqdir, u o‘zining paydo bo‘lish xususiyatlari jihatidan ham faoliyat usuli jihatidan ham, o‘z natijalari jihatidan ham ijtimoiy mahsuldir. Tafakkur kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida paydo bo‘ladi va voqelikning vositali in‘ikosini, uning qonuniyatli aloqalarini ochib

berishni ta'minlaydi. Abstraksiya, analiz va sintez, muayyan vazifalarni o'rtaga tashlash va ularni hal etish yo'llarini topish, gipoteza, g'oyalarni ilgari so'rish kabi jarayonlar tafakkurga xos xususiyatlardir. Tafakkurning voqelikni umumlashtirib aks ettirishi insonning umumiy tushunchalar to'zish qobiliyatida ifodalanadi.

Inson ongining taraqqiyotida nutq, til g'oyatmuhim ahamiyatga egadir. Tilning paydo bo'lishi bevosita mehnat bilan uzviy ravishda bog'liq. Odamning o'zini ham, tilini ham ijtimoiy mehnat yaratadi.

*Til* tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Inson nutqi bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa, fikrlash ham bo'lmaydi, nutq fikrlash qurolidir. Tafakkur bo'lmasa nutq, tilning ham bo'lishi mumkin emas. Til va tafakkur bir-birisiz mavjud bo'lmasa ham, biroq, ular aynan bir xil narsa emas. Tafakkur – obyektiv reallikning in'ikosidir, til esa fikrni ifoda etish quroli, uni qayd qilish va boshqa kishilarga etkazish, bildirish vositasidir. Til faqat tafakkurning ifodasi emas, balki uning tayanchi va taraqqiyot quroli hamdir. Kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va kashf etilga barcha narsalar, hodisalar, tushunchalarni o'zida aks ettiruvchi til buyuk umumlashtiruvchilik rolini bajaradi.

Jamiyatning taraqqiy etishi bilan tafakkur singari til ham taraqqiy etib boradi. Til ham ong kabi qadimiydir. Til – amaliy, haqiqiy ongdur, boshqalar uchun ham mavjud bo'lgan va xuddi shu tufayli men uchun ham mavjud bo'lgan ongdur, binobarin, til ong singari boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli, muomala qilish zarurligi tufayli paydo bo'ldi.

Kishilarda nutq mehnat faoliyati jarayonida bir-birlari bilan aloqa qilish vositasi sifatida rivojlandi. Hayvonlarda esa nutq yo'q. boshqacha aytganda, hayvonlar gapirmaydi. Ulaming hayot sharoiti shundayki, natijada ularda so'zlashishga zarurat va imkoniyat yo'q. Hayvonlarning aloqa qilish vositasi har xil signallar berish bo'lib xizmat qiladi. Bu signallar tovush chiqarib yoki imo-ishora bilan beriladi. Maymunlarda bu hol ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Ammo «signal berish sistemalariga» nutq boshlang'ichlarining vujudga kelishi uchun yagona shart-sharoit deb qarash kerak. Nutq – aloqa qilishning sifat jihatdan yangi vositasi bo'lib, faqat odamga xosdir.

Til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish vositasi va fikrning bevosita ifodasidir. Kishilar fikr almashmaganida umuman zarur moddiy boyliklarni ishlab chiqara olmagan, tabiat kuchlariga qarshi birgalikda kurasha olmagan bo'lar edi. Fikr ayirboshlash esa, faqat til yordamida

amalgaga oshiriladi. Til tafakkurning borliq shakli, tafakkur esa tilning mazmunidir.

Demak, tafakkur va ong inson miyasining mahsulidir. Ongni, tafakkurni fikrlash organi bo'lgan miyadan ajratib bo'lmaydi. Ammo bu munosabatga asoslanib ongni moddiy deb hisoblash mumkin emas. Ongni moddiy deb hisoblash, tafakkurni materiyaning ko'rinishi yoki uning bir bo'lagi deb o'ylash mutlaqo noto'g'ridir. Ongni moddiylashtirishga o'rinuvchi vulgar materialistlar fikr moddiydir deb da'vo qiladilar. Bu oqimning namoyondalari Moleshott, Byuxner, Fogtlar esa jigar zardob ayirgani singari miya ham fikr ajratadi degan edilar. Ular ongni materiyaning iborat qilib qo'yib, uni materiya bilan tenglashtirib, fikrni borliqning moddiy ko'rinishi deb hisoblaydilar va shu tariqa materiya bilan ong o'rtasidagi, moddiy hodisa bilan ideal hodisa o'rtasidagi farqni inkor qiladilar.

Ilmiy falsafa tabiatdagi barcha narsa va hodisalarda sezuvchanlik tafakkur va boshqa hayotiy funksiyalar bor degan gilozoizm (Bruno, Rabine va boshqalar) ta'limotiga ham qarshi chiqadi. Bu g'oyaning xatoligi shundaki, u jonsiz tabiat bilan jonli tabiat o'rtasidagi farqni hisobga olmaydi.

Aniq ifodalangan shakldagi sezgi materiyaning yuqori organik shakllarigagina xosdir, holbuki butun materiya in'ikos ettirish xususiyatiga, ya'ni tashqi muhit ta'siriga muayyan javob berish qobiliyatiga egadir. Bu xususiyat ma'lum darajada sezgi bilan o'xshashdir, lekin u bilan birday emas, shu tufayli tafakkur, ongi butun materiya xos bo'lgan xususiyat deb bo'lmaydi.

Hozirgi davrda fanning yangi sohasi bo'lgan kibernetikaning muvaffaqiyatlari munosabati bilan jonsiz tabiat predmetlarida ham fikrlash qobiliyati bor deb ko'rsatishga o'rinish kuchaymoqda. Turli boshqaruvchi sistemalarni va boshqaruv jarayonlarini o'rganuvchi kibernetika fani asosida ajoyib mashinalar yaratildi. Ulardan ayrimlari murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini boshqara olsa, boshqalari matnni aniq va tez bir tildan boshqa tilga tarjima qiladi, eng qiyin matematik topshiriqlarni bajaradi va hokazo. Bu mashinalar tashqaridan turli ma'lumotlarni olishga, ularni «esda saqlab qolishga» layoqatlidir. Bu esa, ayrim olimlarning «aqli» mashinalar sezish va hatto, fikrlash qobiliyatiga egadir, deb aytishlariga bahona bo'ldi.

Kibernetika bazasida amalga oshirilayotgan tafakkur funksiyalarini modellashtirish katta falsafiy ahamiyatga ega. Hozirning o'zidayoq bir qator tafakkur funksiyalarini qayta hosil qiladigan

kibernetika qo‘rilmalarining yaratilishi ilmiy falsafaning asosiy qoidalaridan biri, ya‘ni alohida sur‘atda tashkil topgan materiya-ning funksiyalari bo‘lmish tafakkur haqidagi qoidani isbotlab bermoqda. Kibernetik mashinalarni takomillashtirishning chegarasi bormi? Mashinalar o‘z yaratuvchisi bo‘lgan insondan o‘zib ketishi va undan aqlliroq chiqishi mumkinmi? Bunday savollarga hozircha javob yo‘q. Bu bahslarda turli nuqtai nazarlar ta‘rifi mavjud. Kibernetika asoschisi N.Viner hisob mashinalarining imkoniyatlarini mutlaqlashtirib yubormagan holda ularning fahm-farosatga o‘xshash hislati bo‘lishi kerak degan fikrni aytgan edi. Akademik A.Kolmagorovning fikriga ko‘ra, avtomatlar eng murakkab sistemalar, masalan, tirik organizmlar va hatto inson miyasidek barcha asosiy hossalarga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bunday sistemalar uchun avtomatlar degan so‘zning o‘zi birmuncha – shartli bo‘lib, biz ularni tamoyilial tirik mavjudotlar deb atashimiz mumkin bo‘ladi.

Nevrolog Pol Kossa fikricha, inson yasagan mashina uning ishtirokisiz hech narsa qila olmaydi. Mashina inson xohlagan holatdiligicha, ya‘ni ajoyib qurol holidayigicha qolaveradi. Mashinada fikr qilish qobiliyati butunlay yo‘q bo‘lib, ijodchisining fikrini aks ettiradi, xolos. Chunki u ongdan – batamom mahrumdir. Akademik A.Berg esa kibernetika sanoatda ham, fanda ham, ijtimoiy hayotda ham inson o‘rmini bosa olmaydi, hech qachon mashina jamiyati mavjud bo‘la olmaydi, deb ta‘kidlaydi.

Insoniyat bir necha asrlardan buyon miya faoliyati haqidagi bilimlarni to‘plashga o‘rinib keldi va kelmoqda. Miya kishiga bilish, yaratishdek katta baxt keltiradi, koinot qa‘riga chiqib borishga, bepoyon va benihoyat atom sirlarini bilishga imkon beradi.

Miya murakkab biologik organizm bo‘lib, uning o‘rtacha vazni chamasi 1000–1400 gramm keladi. Odam miyasining mutlaq vazni qariyb barcha hayvonlarning miyasi vaznidan katta. Miya vaznining gavda vazniga nisbati jihatidan esa, inson umuman, barcha hayvonlardan ancha yuqori turadi. Inson miyasida 14 milliarddan ortiq nerv hujayralari bo‘lib, ularning kattaligi 5–200 mikron chamasi keladi. Inson xotirasi murakkabligi, samaradorligi jihatidan mashina xotirasidan ancha ustun turadi. Kibernetik mashinaning «elektron miyasi» issikda, sovuqda, namlikda, silkinishda ishlay olmagan holda inson miyasi esa bunday sharoitga osonlikcha moslasha oladi. Shuningdek, inson miyasi tejamlil ishlashidan tashqari juda puxta sistemadir. Kibernetik mashinaning biron joyi ishdan chiqsa, butun mashinaning ishi to‘xtab kolishi mumkin.



Kibernetik qurilmada ong bo'lishi mumkinmi? Fan va texnikaning har qanday taraqqiyoti, shu jumladan, kibernetik mashinalar taraqqiyoti ham insonlar Amaliy faoliyatining natijasidir. Fikr va sezgi, iroda va fe'l-atvor, umuman insonning ruhiy faoliyatini tashkil etgan hamma narsa tabiat mahsuli, inson miyasining xossasidan iboratdir. Miya esa o'zholicha fikr qila olmaydi. Kibernetik qo'rilma bilan inson miyasi o'rtasida katta tafovut bor. Inson miyasi kimyo, fizik qonuniyatlar bilan bir qatorda biologik qonuniyatlarga, shuningdek, ijtimoiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Inson jamiyatdan ajralgan holda yashay olmasa, har qanday kibernetik mashina esa, muayyan sharoitlarda mutlaq yolg'iz mavjud bo'la oladi va o'z «qobiliyatlariga» zarar etkazmaydi. Inson ongi esa ijtimoiy munosabatlar doirasiga kirgandagina paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Demak, inson ongi barcha ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u haqiqatda ham jamiyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Shunday ekan, ong faqat inson miyasi faoliyatining mahsuli bo'lib, bunday narsa kibernetik qurilmaning elektron miyasida hech qachon bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas. Kibernetik mashinalar bilan inson miyasida sodir bo'ladigan ayrim jarayonlar o'xshash bo'lsa-da, lekin ular o'rtasida juda katta farq bor. Inson tabiatning eng ulug', ajoyib, qudratli ijodidir.

Shunday qilib, pirovardida inson aqli kibernetik mashinalarni ancha takomillashgan holda qo'rishga imkon berdi. Bundan inson yaratgan mashinalar insondan ustun turadi degan xulosa chiqarmaslik kerak. Chunki insonning o'zi «aqli» mashinalarni yaratadi va uni boshqaradi. Mashina insonsiz o'lik bir narsadir.

Inson ongi tevarak-atrofdagi voqelikning taraqqiyotida faol ijodiy rol o'ynaydi. Insonning ongi ma'lum bir maqsadga qaratilgan jarayondir. Inson tashqi olamga bog'liq bo'lib, tashqi olam insonning butun faoliyatini belgilaydi, biroq u insonni qanoatlantirmaydi. Shuning uchun inson o'z amaliy faoliyati bilan tashqi olamni o'zgartirishga harakat qiladi, voqelikning rivojlanish qonuniyatlarini bilishga intiladi. Ongning faol roli shundaki, u obyektiv dunyo qonuniyatlarini aks ettiradi, anglaydi, ularni bilib oladi hamda ulardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanadi. Inson ma'lum bir maqsadni ko'zlab tabiatga ta'sir etar ekan, uni o'z manfaatlari yo'lida o'zgartiradi. Inson tabiat sirlarini tobora chuqurroq anglaydi va uning qonunlarini bilib boradi.

Ishlab chiqarish usuli rivojlanishi va takomillashuvi bilan, insoniyat bilimlari o'sishi bilan odamning tabiatga ta'siri kuchaya

boradi. Kishilarning mehnati bilan bunyod etiladigan moddiy va madaniy boyliklar ko'payadi. Kishilar tabiat va ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini qancha chuqur va mukammal bilib olsalar, ularning amaliy faoliyati shuncha samarali bo'ladi.

### 3. Yuksak ong – inson bunyodkorlik faoliyatining omili

Jamiyat taraqqiyoti quyi bosqichdan yuqori bosqichga, o'tmishdan kelajakka tomon rivojlanib borgan sari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotda xalq ommasining roli, g'ayrati, uyushqoqligi ortib va chuqurlashib, inson amaliy faoliyati jadallashib boradi. Bu – umuminsoniyatga xos qonuniyatdir.

Tarixiy maqsadlar ko'lami keng, inson shaxsi barkamol bo'lsa, u vijdonan mehnat qilsa, ijtimoiy-siyosiy ishlarda faol ishtirok etsa, jamiyatimiz shu qadar tez rivojlanadi va mustahkamlanadi. Insonning ijodiy tashabbusi, jonli ijodiyoti jamiyatimizning kuchi va hayotiyligining eng muhim manbaidir.

Har bir jamiyat o'ziga munosib bo'lgan inson shaxsini yuzaga keltirganidek, inson ham shu jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishiga befarq qaramaydi. Shaxs ayni paytda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish, uni o'zgartirish qobiliyatiga ham ega. Uning jamiyatga ta'siri maqsadsiz, rejasiz, ko'r-ko'rona faoliyat orqali amalga oshmaydi. Inson jamiyat qonunlarini, o'z hayoti sharoitlarini bilib olgan, ma'lum maqsadga qaratilgan faol amaliy ko'rsatkichlar yo'li bilan ijtimoiy muhitni, jamiyatni o'zgartira oladi. Inson faqat sharoit va tarixning mahsuligina bo'lmay, balki ularni yaratuvchi hamdir.

Tarixiy jarayonda xalq ommasining qanchalik faol ishtirok etishi, g'ayrat va tashabbus ko'rsatishi moddiy va ma'naviy boyliklar ijodkori bo'lgan mehnatkash insonning shijoatiga, onglilik darajasiga, o'ziga topshirilgan ishlarga qanchalik mas'uliyat bilan yondasha bilishi, ijodiy tashabbuskorligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu fikr ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi tarixiy bosqichiga ham bevosita taalluqlidir. Mustaqillikni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish har bir insondan o'z burchini ko'r-ko'rona bajarishni emas, balki ongli, ilmiy asosda yondashishni talab qiladi. Shuning uchun ham hozirgi davrda har bir kishi, har bir shaxsni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirish, har tomonlama etuk va barkamol bo'lishiga erishish, siyosiy, madaniyatli qilish mamlakatimizni ravnaq toptirish, demokratiyani rivojlantirishning asosiy shartlaridan bo'lib qoldi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida inson rolining kuchayib borayotganligi muammosining bir necha jihatlari bor. Bir tomondan, u ijtimoiy ishlab chiqarish xodimini kamol toptiradi, uni rag'batlantiradigan omillarni belgilab beradi. Ikkinchi tomondan, odamlarning mehnat g'ayrati malakasini oshirishga qayta ta'sir qiladi, uning taraqqiyotini jadallashtiradi.

Inson shaxsining boyligi, faolligi, eng avvalo, mehnat faoliyati sohasida ruyobga chiqadi. Mehnat sohasidagi faollik shaxs faolligining boshqa hamma shakllariga qaraganda belgilovchidir. Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki ayni shu sohada insonning olgan bilimi, orttirgan tajriba va malakasi va boshqalar amalda qo'llaniladi, namoyon bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyoti haqidagi har qanday g'oyalar avvalo, insonning ijtimoiy tafakkurida shakllanadi, keyin e'tiqodga aylanib, faoliyatiga yo'nalish beradi. Insonning har qanday amaliy faoliyati, mehnati – ma'rifiy, tarbiyaviy, mafkuraviy tadbirlar asosida amalga oshadi. Mehnatda insonning qobiliyati va iste'dodi, aql idroki va tafakkuri namoyon bo'ladi. Inson aqli, qo'li bilan nimaiki qilmasin, uning zaminida fikr, tushuncha, bilim, iste'dod, qobiliyat sifatida shakllangan ma'naviyat yotadi.

Mehnat jamoasida insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlari, aqliy na jismoniy faoliyati shakllanadi, yuzaga chiqadi. Moddiy hayot, ishlab chiqarish usuli insonning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlaridagi ishtirokiga sabab bo'lganidek, shaxsning mehnat sohasidagi faolligi ham o'z navbatida uning ijtimoiy siyosiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Kishilar ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish hozirgi davming tub muammolaridan biridir. Hayot o'rta qo'yayotgan ulkan vazifalarni yuqoridan to'rib amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun mehnatkash insonning bevosita ishtiroki, uning moddiy va ma'naviy boyluklarni yaratishga qaratilgan ijodiy mehnati, ijtimoiy-siyosiy faolligi zarurdir.

Hozirgi dolzarb vazifalarni amalga oshirishning zarur shartlaridan yana biri – inson ongini o'zgartirishdan iboratdir. Inson ongini, ijtimoiy ruhiyatini qonun chiqarish yo'li bilan ham, buyruq berish asosida ham o'zgartirib, qayta qo'rib bo'lmaydi. Kishilar ongida o'tmishda ro'y bergan xato va kamchiliklar ta'siri ostida shakllangan eski qarashlar tasavvurlar, tushunchalarni bartaraf etish tarbiyaviy ishlarni muntazam ravishda olib borishni, barcha salbiy hodisalarni tag-tomiri bilan tugatishni, ijtimoiy adolatni so'zda emas, amalda qaror toptirishni

taqozo etadi. Avvalo, kishilarning moddiy hayot sharoitlarini yaxshilamasdan to'rib ularning ongini o'zgartirib bo'lmaydi.

Inson ruhiyati qayta qo'rilmasa, yangichasiga fikrlash va ishlash istagi hamda mahorat hosil qilinmasa iqtisodiyotda, boshqaruvda, tarbiyada, ijtimoiy sohada biron-bir narsani o'zgartirish qiyindir.

Hozirgi davrning inson shaxsiga bergan ajoyib ne'matlaridan biri demokratiya, ijtimoiy adolatning asta-sekin tiklanishidir. Demokratiya yaratib bergan imkoniyatlardan to'g'ri va oqilona foydalanish uchun oddiy istakdan tashqari yuksak siyosiy madaniyat, vazminlik ma'naviy poklik, sof vijdon, uzoqni ko'zlab ish qila bilish qobiliyati ham kerak.

Ijtimoiy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida insonning bunyodkorlik faoliyati respublikamizda demokratiyani rivojlantirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishda kuchliroq namoyon bo'lmoqda. Biz hozir shunchaki demokratik jamiyat emas, balki demokratik odil jamiyat qurmoqdamiz. O'zbek xalqi demokratik odil jamiyat haqida juda qadimiy an'analarga ega. O'z davlati tizimini «Kuch – adolatdadir» shiori ostida tuzgan Amir Temur tarixi bunga yorqin misoldir.

Mehnatkashlar ommasining yaratuvchilik bunyodkorlik faoliyati mustaqilligimizning siyosiy negizlarini mustahkamlashda, xususan, davlatni boshqarishda ham ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Bizda xalqimizning mehnati va jasorati bilan tuzilgan huquqiy demokratik davlat xalqning o'zi tomonidan boshqarilmoqda. Shunday qilinmasa, siyosiy mustaqillikni ta'minlab bo'lmaydi.

Keng mehnatkashlar ommasining faol ijtimoiy-siyosiy faoliyati, o'z-o'zini boshqarishning to'xtovsiz avj olib borishi respublika hayotining hamma sohalarida o'z ifodasini topmoqda. Buni, birinchi navbatda, jamiyat hayotining asosi bo'lgan moddiy boyliklar yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, oziq-ovqat muammolarini hal etish, turli korxonalar, uyushmalar, birjalar, jamg'armalarning tashkil etilishi va boshqa sohalarda ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi mehnatkashlar ommasining xo'jasizlikka, to'rachilikka, huquq-tartibotni buzuvchilarga, ko'zbo'yarnachilikka va uyushgan jinoyatchilikka, poraxo'rlikka, tanish-bilishchilik oshna-og'aynigarchilik asosida ish bitkazuvchilarga, xullas, ijtimoiy adolat tamoyillariga tubdan zid bo'lgan harakat na intilishlarining har qanday turlari va ko'rinishlariga qarshi kurashni avj oldirib yuborgan-ligi bilan xarakterlanadi.

Jamiyatning o'z-o'zini boshqarish darajasi kishilar ongining o'sishi, tafakkur madaniyatining etukligi bilan uzviy bog'liqdir. Ma'lumki,

odamlar demokratiya va oshkoralikdan oqilona foydalanishga ham g'oyaviy, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lsalargina jamiyatimiz oldida to'rgan vazifalarni hal qilishga yordam beradilar. Buning uchun yuksak madaniyat va ma'naviyat, uzoqni ko'ra bilish va donolik, g'oyaviy, madaniy etuklik va poklik yangicha fikrlash imkoniyatlaridan foydalana bilish zarur.

Inson manfaati, uning baxt-saodati, ma'naviylik va insonparvarlik qoidalarini qaror toptirish yo'lida jamiyatni demokratik negizlarda yangilashni hayotning o'zitalab qilmoqda. Respublikamizning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini, ijtimoiy adolatni, ma'naviy yangilanishni, barcha millat va elatlar uchun munosib turmush sharoitini amalga oshirish –bularning hammasi O'zbekistonning hozirgi davri va kelajagi uchun muhimdir.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Ong, uning mohiyati va jihatlari haqida so'zlab bering.
2. Inson va uning ongi, ma'naviyati va dunyoqarashini falsafiy tahlil qilishning ahamiyati nimadan iborat?
3. Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi qarashlar to'g'risida so'zlab bering.
4. Tafakkur va tilning birligi haqida nimalar deya olasiz?
5. Sizning fikringizcha, kibernetik qo'rilmalarda ong bo'lishi mumkinmi?
6. Yuksak ongning inson bunyodkorlik faoliyatiga ta'siri haqida nimalar deya olasiz?

### **Tayanch tushunchalar**

**Ong** – inson miyasining mahsuli, voqelik in'ikosining faqat insonga xos shakli.

**Ontologiya** – borliq haqidagi ta'limot.

**Gnoseologiya** – bilish nazariyasi.

**In'ikos** – voqelikdagi barcha narsa va hodisalarga xos bo'lgan aks ettirish xususiyatini ifodalovchi tushuncha .

**Kibernetika** – texnika qurilmalarida boshqarish jarayonlari va sistemalarining umumiy belgilari haqidagi fan.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistan XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafslatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 137–151-betlar.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 164–165-betlar.

---

## IX MAVZU: OLAMNI FALSAFIY ANGLASH USULLARI

### **Reja:**

1. Falsafada usul (metod) muammosi.
2. Shaklan mantiq fikrlash usuli.
3. Dialektika usuli va uning olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati.

### **1. Falsafada usul (metod) muammosi**

Olamdagi barcha narsa va hodisalar, unda sodir bo'layotgan jarayonlar, voqealarga kishilarning munosabati ularni anglashdan boshlanadi. Dunyoni anglash, uni bilish tafakkurlash yo'li bilan hosil bo'ladi. Shuning uchun ham olamni falsafiy anglash, tafakkurlash jarayonining qonun-qoidalari, usullari, shakllari hamma vaqt falsafa fanida qiziqish uyg'otib kelgan va hozirgi vaqtda ham shunday bo'lmoqda.

Inson o'zining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun olamda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar bilan aloqa bog'laydi. Natijada ular kishilarning hissiy a'zolariga ta'sir ko'rsatib inson ongida muayyan tushunchalar hosil etadi. Obyektiv olamning subyektiv obrazi bo'lgan mazkur tushunchalar yordamiga mulohaza yuritish yo'li bilan biz voqelikdagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorligi, mazmun-mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari haqida ma'lum bilimlarga ega bo'lamiz.

Kishilarning olam haqidagi bilimlari kundalik hayotiy tajriba asosida stixiyali ravishda to'plangan yoki ilm-fan yordamida ongli ravishda qo'lga kiritilgan ma'lumotlardan tarkib topadi. Kundalik hayotiy tajriba asosida to'plangan empirik bilimlar asosida kishilarda olam haqida yuzaki va sodda dunyoqarash hosil bo'ladi. Bunday bilimlar odatda, subyektiv xususiyatga ega bo'lib, unga muvofiq inson dunyoning markazi sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun ham kundalik empirik bilimlar ilmiy bilimlarga qadar to'plangan dastlabki ma'lumotlar hisoblanadi.

Fan taraqqiyoti natijasida qo'lga kiritilgan bilimlar olam haqida ilmiy asoslangan falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Bunday bilimlar o'zining mukammalligi, ko'lami chuqurligi bilan oddiy bilimlardan keskin farq qiladi.

Ilmiy-falsafiy bilimlarning rivojlanishi esa o'z navbatida olamni falsafiy anglash, tafakkurlash usullari, yo'llarini nazariy jihatdan asoslab

berishni taqazo etadi. Shu tariqa falsafa fanining tarkibiy qismini tashkil etuvchi – dialektik mantiq ta'limoti vujudga keldi. Mazkur yo'nalishning asosiy maqsadi va vazifasi – falsafiy tafakkurlash usulining mantiqi, qonun-qoidalari, shakllarini o'rganishdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, olamdagi narsa va hodisalar, ularning o'zaro aloqadorlik va taraqqiyot qonunlarini falsafiy anglash uchun qanday usullardan foydalanmoq lozim, qanday qonun qoidalarga rioya etish kerak? degan savolga javob beradi.

Insonga xos bo'lgan tafakkurlash jarayoni, uning qonun qoidalari, yo'llari, usullarini yoritib berish jiddiy falsafiy muammo hisoblanadi. Bunga erishish uchun eng avvalo, usul degan tushunchaning mazmun-mohiyatini anglab olmog'imiz lozim. Usul tushunchasi nimani ifodalaydi? «Usul» yunon tildan olingan atama bo'lib, u odatda tadqiqot etish yo'llari, nazariya, ta'limot ma'nosini bildiradi.

Shuni alohida eslatib o'tish joizki, aniq fanlarda ilmiy-tadqiqot o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan uslubni falsafiy tafakkurlash usuli tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak.

Aniq fanlarda ishlatiladigan tadqiqot uslublari ilmiy bilish usullari turqumiga kiradi. Falsafada esa, usul tushunchasi olamni falsafiy anglash, tafakkurlash mantiqi, qonun-qoidalari, tamoyillari, shakllarini ifodalash uchun ishlatilsa, tor ma'noda – falsafiy bilimlarni hosil etish vositalarini aks ettirish uchun foydalaniladi. Bundan ko'rinib to'ribdiki, falsafiy tafakkurlash usuli bilan ilmiy bilish usuli tushunchalarining o'rtasida muayyan farq mavjud.

Falsafiy tafakkurlash mantiqi o'ziga xos bir qator xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat. Birinchidan, falsafiy tafakkurlash jarayoni voqelikdagi narsa va hodisalar taraqqiyoti qonunlariga asoslanadi va ularga mos keladi. Ikkinchidan, falsafiy tafakkurlash kishilarga olamdagi narsa va hodisalami chuqur, atroflicha, xolisona bilish uchun qanday mantiqiy harakatlar qilish yo'llarini ko'rsatib beradi. Agar kishilar mazkur qoidalarga, talablarga bo'ysunsalar olamni inson onigida aks ettirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilmaydi va aksincha. Keyingi boblarda bu haqda kengroq to'xtalib o'tamiz.

## **2. Shaklan mantiq fikrlash usuli**

Olamni anglash, voqelikdagi narsa va hodisalar to'g'risida fikr yuritish, tafakkurlashning hamma xil usullari mavjud. Shaklan mantiq fikrlash usuli shular jumlasiga kiradi.



Mantiq to'g'ri fikr yuritishning qonun va shakllarini o'rganadigan fan hisoblanadi. Uning qonun-qoidalari, talablari Aflotun, Arastu, Forobiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida batafsil yoritib berilgan.

Mantiq fanining to'rtta asosiy qonunlari bor. Ularga quyidagilar kiradi: 1. Ayniyat qonuni; 2. Ziddiyatlik qonuni; 3. Istisno qonuni; 4. Etarli asos qonuni. Mazkur qonunlarda to'g'ri mantiqiy fikrlashning talablari o'z aksini topgan.

Ayniyat lotincha *Lex ydeptytatys* so'zidan olingan bo'lib, aynan, o'xshash ma'nolarini beradi. Ayniyat qonuni moddiy olamning muhim tomoni, xususiyatini ifodalaydi. Ma'lumki, olam doimo uzluksiz o'zgarib, rivojlanib turadi. Harakat – reallikning muhim atributi hisoblanadi. Lekin har bir narsa, hodisa qanchalik o'zgarishda bo'lmasin, uning asosiy xususiyatlari, sifat muayyanligi saqlanib qoladi. Ayniyat – narsa va hodisalardagi o'xshashlik umumiy tomonlarning fikrdagi ifodasidir.

Ayniyat qonuniga muvofiq har bir muhokama, bahs, munozara, har bir fikr aynan bir ma'noda ishlatilmog'i lozim. Ayniyat qonuni muhokama jarayonida ma'lum vaqt mobaynida, ma'lum munosabatda tushuncha (fikr) o'z ma'nosini saqlab qoladi, degan talabni ilgari suradi. Aniq, ravshan fikrlashning asosiy shartlari deganda uch narsa nazarda tutiladi: 1) obyektning birligi, aynanligi; 2) vaqtning aynanligi; 3) munosabatning aynanligi.

Ilmiy izlanish narsa va hodisalar mohiyati, ichki qonuniyatini aniqlash maqsadida olib boriladi. Bu esa, o'z navbatida narsa va hodisalarning sifat muayyanligi, narsalar orasidagi barqaror munosabatlarni barqaror fikrlar (tushuncha, muhokama) orqali ifodalashni taqozo etadi. Qonuniyatlar bir narsa, bir obyektga emas, balki umumga (narsalar turqumlariga), bir qator obyektlarga taalluqli bo'ladi hamda ulardagi umumiylik o'xshashlik aynanlik tomonlarini o'rganish orqali ochiladi.

Ayniyat qonuni ilmiy muammo doirasida olib boriladigan ilmiy munozaralarda keng qo'llaniladi. Bunda ilmiy munozaraning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mantiqiy fikrlash darajasiga, muhokama etilayotgan narsalar doirasini aniq belgilashga, muhokama asosini to'g'ri aniqlashga bog'liq bo'ladi.

Ayniyat qonunining bo'zilihi «tushunchalami o'zgartirib qo'yish»da namoyon bo'lishi mumkin. Tushunchani o'zgartirib qo'yish deganda, uning hajmini o'rinsiz kengaytirish yoki toraytirish, mazmunini o'zgartirish (dastlab bir ma'noda, keyinchalik boshqa ma'noda ishlatish) nazarda tutiladi. Oqibatda «tushunchani o'zgartirib

qo'yish» fikrdagi chalkashlikni, noaniqlikni keltirib chiqarishi mumkin bo'ladi. «Tushunchani o'zgartirib qo'yish» muhokama obyektini o'zgartirib yuborish, ya'ni bir narsa haqida fikr yurita boshlash, uni tugallamasdan boshqa narsaga o'tib ketish ma'nosini bildiradi. Muhokama predmetini o'zgartirib yuborish («tushunchani o'zgartirib yuborish») beixtiyor yoki ataylab amalga oshirilishi mumkin. Ayniyat qonunining bo'zilishi tezisini (ya'ni fikrni) o'zgartirib qo'yishda ham namoyon bo'ladi. Biron-bir fikrni isbotlash yoki rad etishda yo ongli, yoinki beixtiyor ravishda bir fikrni boshqa fikr bilan almashtirish «tezisini o'zgartirib qo'yish» deb hisoblanadi.

Ayniyat o'rganilayotgan obyekt haqidagi bilimlarning aniq, ravshan, izchil bayon etilishini ta'minlaydi. Ayniyat fikrdagi aniklik nisbiy muayyanliq barqarorlikning ifodalanishidir. Olim, fozil kishilar fikrlash madaniyatlarining yuqoriligi bilan boshqalardan farqlanadilar. O'z fikrini qisqa, aniq, ravshan bayon eta olish har bir tadqiqotchi oldiga qo'yila-digan eng asosiy talab bo'lib hisoblanadi.

Ziddiyatsizlik qonuni haqidagi dastlabki ma'lumotni Aflotunning «Evtidim» nomli dialogida uchramiz. Aflotun bu haqda: bir narsaning o'zi bo'lishi, ham bo'lmasligi mumkin emas, deydi. Arastu bu qonunning mohiyatini o'zaro qarama-qarshi fikrlar bir vaqtning o'zida baravariga chin bo'lishi mumkin emas; aynan bir narsa boshqasiga ayni bir nisbatda ham mos bo'lishi, ham mo bo'lmasligi mumkin emas, deb tushuntirgan<sup>1</sup>.

Mazkur qonun tafakkurdagi ziddiyatni bartaraf etishga qaratilgan. Bu qonunga muvofiq ayni bir narsa haqida, ayni bir vaqtning o'zida, ayni bir nisbatda aytilgan ikki qarama-qarshi fikr birdaniga chin bo'lishi mumkin emas: ulardan birining chinligi ikkinchisining xatoligini keltirib chiqaradi.

Ziddiyatsizlik qonuni tafakkurning muhim xususiyati – ziddiyatsiz, batartib va izchillik bilan fikr yuritishni talab qiladi. Unga ko'ra bir vaqtning o'zida bir masala yuzasidan, yoki bir fikrga nisbatan ikki zid fikrning bo'lishi mumkin emas. Lekin turli ma'noda, turli vaqt birligida, turli nisbatda bir masalaga nisbatan ikki zid fikrning mavjud bo'lishi mumkin. Ziddiyatsizlik qonuni fikr birligini, vaqt birligini, obyekt birligini, nisbat yoki munosabat birligini asosiy shartlar sifatida qo'yadi, hamda biron savolga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish mumkin emasligini nazarda tutadi. Ziddiyatsizlik qonuni faqat fikrlash jarayoniga taaluqli. Xuddi ayniyat qonunidagi singari bunda ham fikrdagi

<sup>1</sup>Arastu. Metafizika. – M. 1934, 64-bet.

muqimlik, barqarorlik nazarda tutiladi. Shundan kelib chiqqan holda ziddiyatsizlik qonuniga ko'ra aynan bir predmet haqida qarama-qarshi fikrlarni bayon etish mantiqsizlik, deb hisoblanadi.

Tafakkurdagi ziddiyat ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: qarama-qarshi (kontrar) va zid (kontradiktor).

Kontrar lotincha *sontrartyus* so'zidan olingan bo'lib, qarama-qarshi degan ma'noni ifodalaydi. Kontrar fikrlar deganda bir-biriga qarama-qarshi ma'noni ifodalaydigan fikrlar nazarda tutiladi.

Kontradiktor lotincha *sopradyctoryus* so'zidan olingan bo'lib, zid ma'nosini ifodalaydi. Kontradiktor tushunchalar, kontradiktor muhoka-malar deganda bir-biriga tamoman zid bo'lgan fikrlar nazarda tutiladi.

Mantiqiy ziddiyat – so'z ziddiyati, fikr ziddiyati, deb nomlanadi. So'z ziddiyati odatda insonning o'z nuqtai-nazariga ega emasligi, obyektни etarli bilmasligidan dalolat beradi va oqibatda bayon etilgan fikr noaniq, chalkash, g'aliz bo'ladi, muallifning ikkilanishi sezilib turadi. Chalkashlik noaniqlik o'z fikrini to'g'ri va izchil bayon eta bilmaslik ziddiyatli qarashlar inson tafakkurida kuzatiladigan kamchiliklar hisoblanadi.

Ziddiyatsizlik qonunining mohiyatini anglab olish izlanishlarda ilmiy muammoni to'g'ri aniqlash, unga doir ilmiy farazni ishlab chiqish, ilmiy muammoni tadqiq etishda muhim o'rin tutadi.

Uchinchi istisno qonuni ma'no jihatidan ziddiyatsizlik qonunining bevosita davomi bo'lib, faqat zid (o'zaro bir-birini tamomila inkor etuvchi) fikrlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu qonunga muvofiq bir-biriga zid bo'lgan ikki fikr (muhokama)dan birining chinligini hamisha ikkinchisining xatoligini keltirib chiqaradi, uchinchi bo'lishi mumkin emas, ya'ni istisno kilinadi. Tafakkurning bu qonunini buyuk yunon faylasufi Arastu, ikki zid fikr orasida uchinchisining bo'lishi mumkin emas, bir subyekt haqidagi fikr (predikat) yo tasdiqlanadi, yoki inkor etiladi, deb ta'riflagan.

Uchinchi istisno qonuni fikrlarimizning aniq, ravshan, zidliksiz bo'lishini talab qiladi. Uchinchi istisno qonunining amal qilishi holatlari turli-tuman; undan alohida narsalar haqida fikr yuritganda ham, murakkab jarayonlarni o'rganganda ham foydalanish ko'zda tutiladi. Uchinchi istisno qonuni to'g'ri fikrlashning asosiy shartlaridan bo'lsa-da, to'g'ri tafakkur qilish, chin bilimlar hosil qilish uchun uning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun mavjud narsa va hodisalarni, ularning munosabatlarini chuqur, atroflicha o'rganish talab qilinadi. Uchinchi

istisno qonuni muhokama jarayonida to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Lekin buning o'ziga xos sharti mavjud zid munosabatlargagina tegishli bo'ladi.

Uchinchisi istisno qonunining ilmiy izlanishlarni olib borishda o'ziga xos o'rni bor. U nazariy tadqiqotlar jarayonida fikrdagi noaniqlikni, chalkashlikni bartaraf etishning muhim vositasi bo'lib hisoblanadi. Uning yordamida inson bilimi narsa va hodisalarning mohiyatiga qadar chuqurlashib boradi va ta'kidlash joizki, zidlikning tomonlaridan biri aksari hollarda noaniq bo'lib qolaveradi. Bu hol uchinchisi istisno qonunining dixotomiyaga xos tomonlarini hisobga olishni talab qiladi.

Uchinchisi istisno qonuni tadqiqotchidan o'z fikrlarini aniq, ravshan, zidliksiz bayon etishi, raqibining fikrlarini inkor etishning asoslarini topishi, o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni talab qiladi. Ilmiy tadqiqotda undan foydalanish uchun biron-bir fikrni inkor etishning o'zi kifoya qilmaydi. shunga erishish lozimki, tadqiqotchi muayyan mavzudagi o'z nuqtai nazarini bayon qilishning martiqiy usullaridan foydalana bilsin, dalillar asosida o'z fikrini asoslay bilsin. Buning uchun mantiq qonunlaridan tashqari tadqiqot obyektini chuqur bilishni, u to'g'risidagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda tadqiqotning qimmatida unda inkor etilgan fikrlar bilan o'lanmaydi, balki inkor etilgan fikrlarning asossiz ekanligini isbotlaydigan dalillar vositasida muammoga o'z echimini berish, o'z mustaqil fikrini shakllantirish ilmiy ijodning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

To'g'ri fikrlash aniqlik, ravshanlik, izchillik, ziddiyatsizlik bilan bir qatorda asoslanganlikni, isbotlanganlikni talab qiladi. Bu narsa tafakkurning etarli asos qonunida o'z ifodasini topgan.

Etarli asos qonuni nemis faylasufi va mantiqshunosi Leybnis tomonidan ta'riflab berilgan. Lekin u haqidagi dastlabki fikrlar antik davrga mansub bo'lib, yunon faylasuflari Levkipp va Demokrit tomonidan bayon etilgani ma'lum. Ular hech qanday narsa biron-bir asos sababsiz paydo bo'lmaydi, hamma narsa biron bir asos va zaruriyat tufayli yuzaga keladi, deb bilganlar. Leybnis nuqtai nazaricha, hamma narsa o'z mavjudligining muayyan asoslariga ega. Har bir hodisa haqidagi fikr etarli asosga ega bo'lgan taqdirdagina chin bo'lishi mumkin. Harqanday chin fikr asoslangan bo'lmog'i lozim. Fikrning asoslari deganda real va mantiqiy asoslar nazarda tutiladi. Fikrning chinligi unda voqelikning qanchalik to'g'ri aks ettirilganiga bog'liq. Bu narsa real asos sifatida nomlanadi.

Etarli asos qonunida narsa va hodisalar orasidagi turli bog'lanishlar aks etadi. Masalan, sababiy bog'lanishlar. Sababiy bog'lanishlarni keng ma'noda tushunmoq joiz; asoslangan fikr deganda fikrlardagi sabab-oqibat aloqadorliklarni to'g'ri aks ettirgan bilimdir. Inson bilish jarayonida asos sifatida ilgaridan hosil qilingan fikrlar tizimiga suyanishi mumkin. Bu fikrlar tizmasidagi ayrim fikrlar asosini ifodalasa, boshqalari natijani – yangi bilimni ifodalaydi. Shu tariqa fikrning to'g'riligini asoslash uchun keltirilgan fikrlar mantiqiy asos, deb yuritiladi. Real asos ham, mantiqiy asos ham inson bilimlarida mushohadalar tarzida namoyon bo'ladi. Obyektiv reallikda sababiy aloqadorlik voqealar ketma-ketligida namoyon bo'ladi: dastlab mavjud, biron-bir natijaga olib keladigan hodisa-sabab (asos), uning natijasi – oqibat (yangi fikr) hisoblanadi. Ayrim hollarda real mavjud sabab va fikriy asos (muhokama) o'zaro bir-biriga muvofiq kelishi mumkin.

Etarli asos qonuni ilmiy bilishda muhim o'rin tutadi. Fanlar mazmuni, qonunlari, tamoyillari ilmiy qarashlarning asoslanishi natijasi bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotchi tadqiqot obyektini o'rganish jarayonida uni hosil qilgan real sabablar, uning boshqa obyektlar bilan munosabatlarini tahlil qiladi, ilgarigi bilimlar mazmunidan kelib chiqqan holda o'z qarashlarini dalillaydi, mantiqiy izchillikda yangi xulosalar chiqaradi.

Ilmiy ijod va amaliyotning tub maqsadi chin, obyektiv mazmunga ega bo'lgan bilimlarni hosil qilish hisoblanadi. Chin bilim insondan mantiq qonunlarini bilish bilan bir qatorda isbotlash va rad etish mantiqiy usullaridan unumli foydalanishni taqozo etadi. Ilmiy bilishning eng umumiy xususiyati shundan iboratki, ilmiy izlanish natijasida qo'lga kiritilgan bilim fan sohasida yutuq deb hisoblanishi va fan mazmuniga kiritilmog'i uchun mantiqiy isbotlash talablariga javob bermog' ilozim.

Bilimlarni hosil qilishda isbot bilan bir qatorda rad etish mantiqiy usulidan ham foydalaniladi. Rad etish yoki raddiya biron bir fikrning xato ekanligini isbotlashning mantiqiy uslubidir. Odatda bu usuldan bir narsa haqidagi qarashlarda turli fikrlilik kuzatilganda foydalaniladi. Rad etish tezisga, argumentga, isbotlash usuliga qarshi qaratilgan bo'ladi.

Ko'rinib to'ribdiki, tafakkur qonunlarini, shuningdek, isbotlash, rad etish va boshqa mantiqiy usullarni bilish ilmiy ijodda muhim o'rin tutadi. Tafakkur qonunlari barqaror fikrlar orasidagi munosabatlarni nazarda tutadi, tafakkur shakllari to'g'risida, fikrlarni o'zaro to'g'ri bog'lay olish, bir muhokamadan ikkinchi muhokamaga o'tish va shu asosda to'g'ri, ishonchli fikrlarni hosil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Shu ma'noda mantiq qonunlari yangi bilim hosil qilishning usuli bo'lib hisoblanadi.

Olamni bilish, u haqida chin bilimlar hosil qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli olib borish uchun mantiq va uning qonunlarini bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Olamni bilish uchun uni qanday bo'lsa, shundayligicha, barcha aloqa va munosabatlarini hisobga olgan holda har tomonlama o'rganish, narsa va hodisalarda uzluksiz tarzda kechadigan harakat, o'zgarish, taraqqiyotni hisobga olish talab etiladi. Bu narsa tadqiqotchidan dialektika qonun-qoidalarini bilishni, olamga dialektik tarzda yondashishni talab qiladi. Dialektika keng qamrovli ta'limot bo'lib, u olamdagi murakkab aloqa va munosabatlar, o'zgarish, taraqqiyotnigina aks ettirib qolmay, olamni bilishning eng umumiy ilmiy metodi bo'lib hisoblanadi. Dialektika formal mantiqiyning ahamiyatini inkor etmagani holda olamni, undagi o'zgarishlar, aloqadorliklar, taraqqiyotni chuqur va har taraflama tushunishga yordam beradi.

### **3. Dialektika usuli va uning olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati**

Dunyoni falsafiy anglashda dialektika usuli katta ahamiyat kasb etadi. Dialektika usulining mohiyati Forobiyning «Dialektika» nomli asarida tavsiflab berilgan.

Forobiyning yozishicha, dialektika ya'ni «al-jadal» atamasi kadimgi yunon faylasuflari Suqrot va Aflotun tomonidan qo'llanilgan bo'lib, ma'nosi bahs, muzokara yordamida haqiqatga erishish demakdir. «Inson, – deb yozgan edi Forobiy, – haqiqatga yoki falsafaga faqat dialektik bahs orqali erishishi mumkin»<sup>1</sup>.

Forobiyning «Dialektika» va boshqa asarlarida mazkur falsafiy tafakkur usulining fikrlar kurashi hamda ilmiy bilishdagi ahamiyatini har tomonlama asoslab bergan. Shuningdek, u dialektika tushunchasining shakllanishi tarixni ko'rsatib bergan.

Forobiyning yozishicha, yunon faylasuflari Geraklit, Zenon dialektika atamasidan foydalanmagan bo'lsalarda, dialektik tafakkurlash sa'natiga asos solganlar.

Keyinchalik, deydi Forobiy, eleatlar va sofistlar dialektik fikrlash san'atini o'zlarini dono hamda haqiqatni yolg'on qilib ko'rsatish uchun foydalanib keldilar.

---

<sup>1</sup> Ал-Фараби. Дialeктика. Историко-философские трактаты. –Алма-Ата: «Наука», 1985. С. 405.

Dialektika, Forobiyning fikricha, haqiqiy bilimning quroli va xizmatchisidir. Faqat dialektika inson aqliy faoliyatini sofistika va shunga o'xshashlardan himoya qilib haqiqatni bilishga yordam beradi. Dialektika san'atining foydasi shuki, u haqiqatni bilishga ko'maqlashadi<sup>1</sup>.

Sofistikaga qarshi, birinchi bo'lib, Aflotun chiqdi, – deb ko'rsatadi Forobiy. Aflotun dialektikani bahslashish yo'li bilan tafakkurdagi mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratilgan usul deb hisoblagan edi.

Aflotun, «dialektika – borliqning mohiyatini, haqiqatni aks ettiruvchi yagona usul, u barcha fanlarning tepasida joylashib ularni karniz kabi bezab turadigan bilimdir», shuning uchun ham «boshqa fanlarni dialektikadan ustun qo'yish noto'g'ridir»<sup>2</sup>, deb hisoblagan edi. Forobiy, Aflotunning fikrlarini yuqori baholab, u haqiqatni ochib beradigan to'g'ri usulni ishlab chiqa oldi, deb ko'rsatadi.

Yunon faylasuflarning dialektika usuli haqidagi g'oyalari antik davming yirik olimi Arastu tomonidan yanada rivojlantirildi. Arastu o'zining «Topika», «Ritorika» va boshqa asarlarida «dialektikaning maqsadi suhbatdoshning fikrini inkor etishga qaratilgan», deb ko'rsatadi. Forobiy esa, bunga o'z tomonidan qo'shimcha qilib, dialektika nafaqat baxslashuvchi izhor qilgan fikrni inkor etishi, balki uni tasdiqlashi ham mumkin, deb ko'rsatadi.

Arastu shuningdek, falsafa tarixida birinchi bor dialektika baxslashish san'atining quroligina bo'lib qolmasdan u ayni vaqtda ilmiy bilishning usuli harmdir, deb hisoblaydi. Uningcha, dialektika borliq va tafakkurning asosiy va umumiy tomonlarini bilishga qaratilgan usul. Uning yozishicha, «dialektika ilmiy tadqiqot usuli sifatida faqat falsafaga emas, balki barcha fanlarga ham daxldordir»<sup>3</sup>.

Forobiy Arastu fikrini davom ettirib, dialektikani falsafa, mantiq va ilmiy bilish usuli sifatida talqin etdi. Forobiyning fikricha, dialektikani falsafadan falsafani esa dialektikadan ajratib qarash mumkin emas. «Inson dialekti deb, uning shug'ullanadigan ishi, muzokara qilish qobiliyati, o'z san'atini amalda qo'llay olishiga qarab belgilanadi»<sup>4</sup>, – deydi Forobiy. «Dialektika san'atining maqsadi falsafa san'atini qo'llab – kuvvatlash va unga xizmat qilishdadir»<sup>5</sup>, – deb ko'rsatadi Forobiy.

<sup>1</sup> Ал-Фараби. Дialeктика, Историко-философские трактаты. – Алма-Ата: «Наука», 1985, С.360–592.

<sup>2</sup> Платон. Сочинения в трех томах. Т.3, 1-часть – М., 1971, С. 275, 278, 285, 347, 350.

<sup>3</sup> Аристотель. Сочинения, Т.2. – М., 1978, С.350–351, 356.

<sup>4</sup> Ал-Фараби. Дialeктика, Историко-философские трактаты. – Алма-Ата: «Наука», 1985, С.403.

<sup>5</sup> O'sha joyda, 405-bet.

«Dialektika san'ati, – falsafiy san'at, chunki dialektika san'ati tufayli inson aqlini haqiqatni bilishga karatishi mumkin»<sup>1</sup>, haqiqatni bilish esa, falsafaning asosiy vazifasidir. Shuning uchun ham dialektika san'atini mukammal o'zlashtirib olish lozim. Agar inson a'lo darajadagi notiq yoki shoir bo'lgisi kelsa dialektik usuldan mukammal foydalana bilishi kerak, – deb uqtiradi Forobiy.

Arastu «Kategoriyalar», «Matafizika» va boshqa asarlarida dialektika kategoriyalari tizimini ishlab chiqadi. Forobiy Arastuning dialektika usuli haqidagi fikrlarini yuqori baholab va targ'ib etibgina qolmasdan, uni ko'p jihatdan mazmunan boyitdi ham.

Forobiyning fikricha, bilish jarayonida dialektik tafakkurlash analiz va sintez, induksiya va deduksiya sillogizmlaridan foydalanmog'i lozim. Induksiya, uning fikricha, dialektik va ilmiy shakllarda bo'lishi mumkin.

Forobiy imkoniyat va voqelik, zaruriyat va tasodif, sabab va oqibat kategoriyalarining o'zaro aloqadorligini asoslab bergan olim. Uning fikricha, sabab va oqibat bir biri bilan uzviy bog'langan, muayyan sabab muayyan oqibatni keltirib chiqaradi, tasodif zaruriyatning namoyon bo'lish shakli. Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, Forobiy tafakkur shakllari va usullarini tadqiq etishda asosiy e'tiborni mazkur tushunchalar o'rtasidagi dialektik aloqadorlik va bir-biriga o'tishini ochib berishga harakat qilgan.

Dialektika ta'limotining rivojlanishda XVIII–XIX asrlarda ijod etgan nemis klassik faylasuflari I.Kant, I.Shelling, Gegelning xizmatlari alohida e'tiborga sazovordir.

I.Kantning ta'limotiga ko'ra, inson aqli tabiatan antinomiyalidir, ya'ni ziddiyatlarda ikkilanuvchidir. Shuning uchun qarama qarshi fikrlarni bab-barabar isbotlash yo'li bilan asoslab berish mumkin. Masalan, olam ham nihoyalidir va ham chegaralari yo'qdir, bo'linmas zarrachalar (atomlar) bor va bunday zarrachalar yo'q va hokazo. Uningcha, ziddiyatlar har qanday holda faqat zohiriydir.

I.Shellingning ta'limotiga ko'ra mutlaq ruh «Men» obyektivlik va subyektivlik kabi qarama-qarshilikning birligidan iborat. Ularning kurashi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar harakatining manbaidir. Uningcha, ruh subyektiv va obyektivlik birligidan iborat bo'lib (tezis), taraqqiyot jarayonida tabiatning shakllanishiga olib keladi (antitezis) va

---

<sup>1</sup> Ал-Фараби. Дialeктика, Историко-философские трактаты. – Алма-Ата: «Наука», 1985, С.594.



nihoyat tabiatdan yana obyektivlik va subyektivlikning birligi bo'lgan yuqori darajadagi ruhning taraqqiyotiga olib keladi (sintez).

Gegel falsafasining tarixiy ahamiyati shundan iboratki, u idealistik nuqtai nazardan bo'lsada, dialektikaning uch asosiy qonuni: 1) qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonuni; 2) miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni; 3) inkorni inkor etish qonuni mohiyatini chuqur va atroflicha asoslab berdi. Shuningdek, Hegel asarlarida mazkur qonunlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan kategoriyalar tizimi, mohiyat va hodisa, qonun, qonuniyat; zaruriyat va tasoddiy, sabab va oqibat, imkoniyat va voqelik, mazmun va shakl, yakkalik, xususiylik, umumiylik kabi falsafiy kategoriyalarning tizimini ishlab chiqadi.

Gegel ta'limotining yana bir muhim qismini uning bilish nazariyasi tashkil etadi. Hegel Kantning «narsa o'zida» va dualizm g'oyalarini qattiq tanqid qilib, bilish jarayonining xususiyatlari, haqiqatga erishish dialektikasi kabi muhim falsafiy masalalarni har tomonlama asoslab berdi.

Gegel ijodining yana bir qirrasini uning dialektika, mantiq va bilish nazariyasining ayniyligi haqidagi ta'limot tashkil etadi. Shuningdek, Hegel dialektika qonuniyatlarini tabiat va jamiyat taraqqiyotiga tadbiiq etib falsafaning hamma sohalarida chuqur iz qoldirdi.

Antiq o'rta asr, yangi davr olimlari dialektikaning falsafa fanida tutgan o'rni, uning mohiyati, ilmiy bilish va amaliyotdagi hamma inson tafakkur san'atini shakllantirishdagi ahamiyati, dialektikaning asosiy qonun va kategoriyalari, dialektika, mantiq va bilish nazariyasining ayniyligi kabi murakkab masalalarni ilmiy ishlab chiqdilar.

Dialektika hozirgi zamon falsafasida ham asosiy o'rinni egallab kelmoqda. Bunga AQShda «Dialektika» nomi bilan chop etilib kelinayotgan maxsus xalqaro jurnalning mavjudligini ko'rsatib o'tishning o'zi kifoya qiladi.

Dialektik usul bugungi murakkab vaziyatda ham fan taraqqiyoti, shuningdek, jamiyatimizning barcha sohalarida sodir bo'layotgan jarayonlarni ilmiy asosda chuqur va atroflicha tahlil etishda qo'l kelmoqda.

I.A.Karimovning asarlarida eslatib o'tilganidek, eski tuzumdan yangisiga o'tish davrida ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar g'oyat keskinlashib, fuqarolar tinchligiga va barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanib ketishi mumkin. «Ijtimoiy ziddiyatlar, – deb yozadi I.A.Karimov, – o'z mohiyatiga ko'ra, hamisha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi.

O'zgarishlarning kay tarzda – yo izchil, tadrijiy yo'l bilan borishi, yo bo'lmasa, keskin shakllarga kirishi: ijtimoiy noroziliklar, stixiyali portlashlar, hatto fuqarolar urushlari va inqiloblar tusini olishi, to'planib qolgan ijtimoiy muammolarning qay darajada keskinligiga, hukmron tuzumlarining bu muammolarni hal qila olishi yoki hal qila olmasligiga bog'liq»<sup>1</sup>.

Davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan kuchli ijtimoiy siyosatni izchilik bilan hayotga tadbiiq etish natijasida mavjud ziddiyatlar asta – sekinlik bilan bartaraf etilib, jamiyatimizni ilgari qara b rivojlanishiga imkoniyatlar ochayotir.

Ma'naviy hayotimizda ro'y berayotgan tub sifat o'zgarishlari jarayonida ham dialektika qonunlariga muvofiq amal qilinmoqda. Bir asrdan ziyod davom etgan totalitar qaramlikdan keyin ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, I.A.Karimov aytganidek, «o'ziga xos» inkorni inkor sifatida kechdi»<sup>2</sup>.

Ana shu vaziyatda ekstremistik ruhdagi muxolifatning vujudga kelish xavfi tug'ildi. Buni yaxshi anglagan davlat rahbariyati ma'naviy tiklanishning ijobiy, bunyodkorlik mohiyatini kuchaytirishga qaratilgan, bir-birini to'ldiradigan siyosiy, iqtisodiy va madaniy dasturlar asosida jamiyatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolgan hoda, ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga muyassar bo'lmoqda.

Millatlararo munosabatlar sohasida ham «muayyan, noantagonistik ziddiyatlarning mavjudligini»<sup>3</sup> e'tiborga olgan holda ularni o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan chora tadbirlar ishlab chiqildi va shu tufayli respublikamizda tinchlik, millatlararo totuvlik hukm surib kelmoqda.

I.A.Karimov milliy istiqlo b g'oyalarini odamlarning ongiga singdirishda dialektika qonunlariga amal qilish zarurligini ta'kidlab o'tgan. «Million-million odamlarning qalbiga ezgu intilishlarni, ularning hayot mazmunini ifoda qilish esa oson ish emas. Buning uchun biz dialektika qonuniyatlarini... yaxshi tushunib olishimiz zarur»<sup>4</sup>, deydi I.A.Karimov.

Yuqorida aytilganlardan jamiyatimizda sodir bo'layotgan jarayonlarga dialektika nuqtai nazaridan yondashish naqadar katta ahamiyat kasb etishi o'z-o'zidan yaqqol ko'rinib turibdi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 138-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda, 75-bet

<sup>3</sup> O'sha joyda

<sup>4</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlo b mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: «O'zbekiston», 2000, 28-bet.

Shunday qilib, dialektika boy va chuqur nazariya bo'lib, ayni paytda borliqning eng umumiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga, ularni inson ongida atroflicha aks ettirishga va dunyoni bilishga qaratilgan ta'limotdir. Bu uning bir vaqtda ham mantiq, ham bilish nazariyasi ekanligidan dalolat beradi.

Dialektika olamdagi barcha tafakkur va hodisalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, o'zgarish va rivojlanishining sababiyati va mohiyatini ochib beradigan ilmiy metodologik usuldur.

Falsafa tarixida turlicha tafakkur uslubi haqiqatni ochib bera oladigan universal uslub o'rmini bosishga harakat qilar edi. Lekin ularning hammasi ham tarixiy taraqqiyot jarayonida davr talabiga javob bera olmaganlar. Sofistik tafakkur ham shular jumlasidandir. Antik dunyoda shakllangan sofistik tafakkur o'rta asrlarda, ayniqsa, keng taraqqiy qildi. Dastlabki davrlarda qadimgi Yunonistonda biron-bir sohani, jumladan, hunar, musiqa va hokazolarni mukammal egallagan kishilarni sofistlar deb atardilar. Keyinchalik esa bu so'z asta-sekin boshqachamazmun kasb eta boshladi: notiqlik va donishmandlikda nom chiqargan faylasuflarni sofistlar deb atay boshladilar.

Sofistlar tabiiy tilning qator kamchiliklari, jumladan, omonimiya, amfiboliya, so'zlarni noto'g'ri bog'lash, ikki ma'noli talaffuz, fikrni ifodalashning gramatik shakllari va h.k. foydalanib, g'ayrihaqiqat niqobi ostida haqiqiy bilimlarni yolg'on bilan almashtirishga urinadilar.

Sofistika atamasi, Forobiyning ta'kidiga ko'ra, suf (donolik) hamda istiyas (yolg'on) so'zlaridan olingan bo'lib, «Soxta donolik» ma'nosini anglatadi. «Sofist, – deb yozgan edi Forobiy, – (borliqqa) teskari bo'lgan (yo'q) narsalarni tasavvur qilishga majbur etish orqali tinglovchini adashtiradi, shunday qilib u (tinglovchi) bor narsani yo'q mavjud bo'lmaganni mavjud, deb tasavvur qiladi»<sup>1</sup>.

Sofistik tafakkur, al-Forobiy fikricha, o'ziga xos usullardan tashkil topgan bo'lib, ular o'rganilishi lozim bo'lgan narsalarni o'rganishda aqlni to'g'ri yo'ldan chalkashtiradi va yolg'onni rost shaklda tasavvur qilishga majbur qiladi, o'rganmoqchi bo'lgan kishini to'g'ri yo'ldan adashtiradi.

Forobiy mantiq qonunlariga qat'iy bo'ysuniladigan bo'lsa, inson aqli sofistik tafakkurdan xolos bo'lishi mumkin, deb ta'kidlagan edi. «Sillogizmlarni o'rganadigan bo'lsak, narsalarning bir-birlaridan farqla-

<sup>1</sup> Ал-Фарабий. Логические трактаты. – Алма-Ата, 1975, С. 531.

rini ishonch bilan topa olamiz va agar biz e'tirof kilsak, munozaralarda anglashilmovchiliklarga va chaikasiliklarga yo'iqo'ymaymiz»<sup>1</sup>.

Ko'rinib turibdiki, sofistlik tafakkur tushunchalar, so'zlar va ular ma'nolarining ikkiyoqlamaligidan kelib chiqar ekan, demak, u o'z-o'zidan kelib chiqmagan, uning o'ziga xos gnoseologik ildizlari bor.

Ma'lumki, inson tushunchalari harakatchan, o'zgaruvchan, ixcham, o'zaro aloqador, ziddiyatli, biri ikkinchisiga o'tib turadi. Agar ana shu tushunchalar ixchamligidan inson tomonidan o'z holicha, subyektiv foydalanilsa, osongina sofistkaga og'ib ketish mumkin.

Sofistik tafakkurda bir xil tushunchalar, so'zlar, iboralarning boshqalari bilan formal bog'lanish zaruriyati birinchi galdagi vazifadir. Bu aslida ma'nosiz tushunchalar o'ymidan boshqa narsa emas. Sofistik tafakkur predmetli asosga ega bo'lgan so'zlar, tushunchalar bilan. Shuning uchun ham u (sofistika) tushunchalar doirasi bilan chegaralanib qoladi. F.Bekon ta'biri bilan aytganda, sofistlar haddan tashqari mahmadonadirlar, amalda esa ulardan hech qanday naf yo'q. Sofistik tafakkur formal ta'riflar bilan cheklanganligi uchun ham u narsalar taraqqiyotini boshqaradigan chuqur ichki jarayonni tushunishga qodir emas.

Muhokama yuritilayotgan narsaning moddiy asosini hisobga olmaydigan mavhum tushunchalardan iborat sofistlik tafakkurdan farqli o'laroq, metafizik tafakkur, asosan, narsalar bilan fikr yuritadi. Mana shu ma'noda tafakkurning metafizik uslubi sofistlik tafakkurni inkor etadi.

Ilmiy bilishning asosiy maqsadi tabiatdagi narsa va hodisalar mohiyatini bilishdan iborat. Shuning uchun ham narsalarni o'rganishda metafizik usul dastlab tabiatshunoslik zarinida tarkib topa boshlagan. Sofistik tafakkurga qarshi o'laroq vujudga kelgan metafizik usulfan rivojlanishi tarixida o'ziga yarasha ijobiy rol o'ynagan. Tabiatshunoslik yig'ma, to'plovchi fan sifatida ko'ringan davrlarda narsalarni o'rganish metodi bo'lgan metafizika mavjud voqelikda alohida olingan narsalar haqidagi juda ko'p aniq materiallarni to'plashda olimlarga yordam berdi. Tabiatdagi aniq narsa yoki jarayonlarni bilmasdan turib, dunyoning umumiy ko'rinishi to'g'risida tasavvur qilish mumkin emas.

Tabiatdagi narsalarni mukammal o'rganish, ularning mohiyatini chuqurroq ochib borishga intilish – metafizik tafakkur uslubining ijobiy tomonini tashkil etadi. Uning ulkan tarixiy haqqoniyligi ham shundadir. Bu shu bilan tavsiflanadiki, metafizik tafakkur uslubidan faqat

<sup>1</sup> Ал-Фараби ий. Логические трактаты. – Алма-Ата, 1975, С. 531, 438-бет.

tabiatshunoslargina emas, balki XVII–XVIII asr faylasuflari ham unumli foydalanganlar.

Metafizik tafakkur uslubining xususiyati shundan iboratki, tabiatdagi narsa va hodisalarni bir-biridan ajralgan va harakatsiz holda olib qaraydi. Bunday fikrlash, kundalik, odatdagi turmush miqyosida ma'lum darajada muvofiq kelsada, haqiqiy ilmiy bilishda esa nomuvofiqdir, chunki bizni o'rab to'rgan har bir narsa voqelikdagi boshqa narsalar bilan o'zaro chambarchas bog'langan va ular uzluksiz harakatda, o'zgarishda, rivojlanishdadir. Har qanday jonli mavjudot ham ma'lum vaqtda o'z mohiyatini saqlab tursa, ma'lum vaqtda saqlay olmaydi: chunki, tashqi muhitdan olgan hayotiy zaruratni qayta ishlab, o'zidan boshqa modda chiqaradi.

Har bir daqiqada ba'zi bir hujayralar o'z faoliyatini tugatsalar, ba'zi birlari esa o'z faoliyatlarini yangidan boshlaydilar. Shu tariqa oz yoki ko'p vaqt davomida organizm tarkibidagi moddalar yangi atomli moddalar bilan almashinadi. Shuning uchun ham organik mavjudot yoki jism bir paytda ham shu joyda, ham shu joyda bo'lmaydi. Ammo shu tahlilda tushunish metafizik tafakkur g'ayri ilmiy bir tomonlama, cheklangan tafakkur uslubidir.

Tabiiy-ilmiy bilish doirasida metafizika shunday o'rganish usuliki, tabiatdagi narsalarni bir-biridan alohida-alohida harakatsiz, qotib qolgan holda o'rganadi.

Falsafiy tafakkur usuliga aylangan metafizika biroz keng ma'noda, ya'ni dialektikaga zid usul sifatida qo'llanila boshlaydi. Metafizika ana shu tariqa ko'p tomonlariga ega, uni tadqiq etish ilmiy bilish va amaliyotda muhim ahamiyatga ega.

Eklektika ham tafakkurlash uslublaridan bo'lib, dastlab yunon falsafasining oxirgi bosqichlarida yuzaga kelgan. Eklektik tafakkur uslubi o'rta asr va yangi zamon falsafasida keng qo'llangan. Hozirgi zamonda ham eklektikaning turli ko'rinishlari bir-biriga zid narsalarni kelishtirishga qaratilgan o'rinlashlarida ham namoyon bo'lmoqda.

Eklektika («tanlayman» – degan yunon so'zidan olingan) muhim va muhim bo'lmagan, asosiy va ikkinchi darajali bog'lanishlar o'rtasidagi farqni hisobga olmaydigan, narsalarning turli-tuman, ko'pincha qarama-qarshi tomonlarini, tamoyilsiz qo'shib yuboradigan usuldir. Eklektika narsa va hodisalarning turli tomonlari va hossalarni mexanik ravishda biriktiradi va «bir tomondan», «ikkinchi tomondan» degan usulga amal qiladi. Obyektiv dunyo narsa va hodisalardagi aloqa va munosabatlar majmuuidan aniq tarixiy aloqadorlikda, aniq harakatda,

o'zgarish va rivojlanishda asosiy hal qiluvchi aloqadorlikni ajrata bilmasslik, eklektik tafakkurning asosiy metodologik nuqsonidir.

Dialektik tafakkur uslubi yo moddiy asosidan ajratilgan quruq tushunchalarni bir tomonlama bo'rttiruvchi yoki narsalar tushunchalarning harakati dialektikasini hisobga olmaydigan sofistika va metafizik tafakkur uslubidan farq qilib, narsalar va ularning fikriy obrazlarini uzviy birlikda olib qaraydi. Shuning uchun dialektik tafakkur sofistika hamda metafizik tafakkurga xos kamchiliklardan holdir. Bunday tafakkur uslubi, turli munosabatlarda bo'lgan turli narsa va tushunchalarni tamoyilsiz va tasodifan birlashtiruvchi eklektik qarashga ham tubdan qarama-qarshidir. Dialektik tafakkurda narsalar bilan ularning mantiqiy obrazlari bo'lgan tushunchalarning ayniligi, bilishning tabiiy harakat formasi bo'lib, bunda subyektiv dialektika obyektiv dialektikaning in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi.

Dialektikaning narsa va hodisalarni har tomonlama va o'zaro munosabatda tahlil qilish talabi qandaydir hodisani yoki uning ayrim tomonini biryozlama ajratib qabul qiluvchi sofistika tubdan qarama-qarshidir. Sofistlar masalaning ikkinchi darajali tomonlarini birinchi o'ringa qo'yib masalaning mohiyatini u bilan o'rab qo'yadilar.

Dialektika faqat hodisalarning hamma tomonlari aloqasini e'tiborga olmaydigan sofistika qarshi bo'lmasdan, balki muhim va hal qiluvchilarini ajrata olmasdan turli aloqa va munosabatlarni mexanik ravishda qo'shuvchi eklektika ham qarshidir.

Sofistika va eklektika zid bo'lgan ilmiy falsafa narsa va hodisalarni tashkil qilishda hamma aloqa va vositalarni hisobga olishni talab qiladi. Xuddi shunday yondashish inson bilishi va amaliy faoliyati muvaffaqiyati shartidir.

Dialektik tafakkurning xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ixcham, harakatchan, o'zgaruvchan tushunchalardan foydalanish orqali obyektiv borliq, narsa va hodisalar taraqqiyotining qonuniyatlarini inson ongida aks ettiradi. Dialektik tafakkur narsa va hodisalarning mohiyati, ularning bir-biri bilan aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy qonunlar, tushunchalar (kategoriyalar) tizimi yordamida ochib beradi. Dialektikaning qonun va tushunchalari voqelikdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqasini aks ettirib, insonda narsalarning mohiyatiga chuqur kirib borish, ularning taraqqiyot qonunlarini bilish va olamda yuz beradigan hodisalarni ongli tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

## Takrorlash uchun savollar

1. Olamni falsafiy anglash, tafakkurlash usulining ahamiyati nimadan iborat?
2. Usul nima? Uning shakllari haqida soʻzlab bering.
3. Shaklan noaniq tafakkurlash usulining mohiyatini ochib bering.
4. Dialektika usulining mazmun-mohiyati haqida Forobiyning fikrlarini soʻzlab bering.
5. Dialektika usulining muqobillari sofistika, metafizika, eklektika haqidagi fikr-mulohazalaringizni bayon eting.
6. Dialektika qonunlarining jamiyatimizda sodir boʻlayotgan jarayonlarni tahlil etishdagi ahamiyati haqidanimalar deya olasiz?

## Tayanch tushunchalar

**Usul** – oʻrganilayotgan obyektни tadqiq etish yoʻllari va shakllarini ifodalovchi tushuncha.

**Mantiq** – toʻgʻri tafakkurlash qonun va shakllarini oʻrganadigan fan.

**Dialektika** – narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorligi va taraqqiyotini oʻrganadigan taʼlimot.

**Sofistika** – soxta donolik usuli

**Metafizika** – narsa va hodisalarni bir-biridan ajralgan va harakatsiz holda tahlil etadigan usul.

**Eklektika** – narsa va hodisalarning muhim va nomuhim aloqalarini, turli-tuman tomonlarini qoʻshibqaraydigan usul.

## Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Oʻzbekistan XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «Oʻzbekiston», 1997, 75, 138, 211–212-betlar.
2. Фарабий Абу Наср. Историко-философские трактаты. Диалектика.- Алма-Ата : «Наука», 1985, с.361–592.
3. Tulenov J. Falsafiy madaniyat va maʼnaviy kamolot.–T.: «Mehnat», 2000, 18–29-betlar.

---

---

## X MAVZU: OLAMNI FALSAFIY ANGLASH QONUNLARI

### Reja:

1. Olamni anglashda falsafiy tafakkurlash tamoyillariga rioya qilishning muhimligi.
2. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonunining olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati.
3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining falsafiy tafakkurlashda namoyon bo'lishi.
4. Olamni anglashda inkorni-inkor qonuni talablariga muvofiq fikr yuritishning zarurligi.

### 1. Olamni anglashda falsafiy tafakkurlash tamoyillariga rioya qilishning muhimligi

Falsafiy fikrlash o'ziga xos bir qator tamoyil, qonun-qoidalarga asoslanadi va ularga qat'iy rioya etishni talab etadi. Shular ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Dialektik tafakkur olamdagi har qanday narsa yoki hodisani o'rganishda ularning hamma tomon va bog'lanishlarini, shuningdek, uning boshqa narsalar va hodisalar bilan o'zaro munosabatlarini hisobga olishni talab etadi.

Real voqelikdagi narsalar bir-biridan ajralgan, alohida holda mavjud bo'lmasdan, balki bir-biri bilan mustahkam o'zaro bog'lanishlarda bo'ladi va bir-birini taqazo qiladi. Shuning uchun olamdagi narsalar mantiqning in'ikosi bo'lgan inson tafakkuri mantig'i voqelikdagi narsa va hodisalarni butun tashqi olam bilan birga jonli va turli-tuman aloqasini qamrab olishi, aks etishi kerak. Nazariy bilim o'rganilayotgan obyektning har tomonlama munosabatlarda bo'lishini ko'rsatib berishi lozim. Faqat narsa va hodisalarning hamma bog'lanish va o'zaro munosabatlarini bilish insonga haqiqatga erishish imkoniyatini beradi.

Tabiat va jamiyatda hech bir hodisa ajralgan boshqa hodisalarga bog'liq bo'lmagan holda yasholmaydi va yashashi ham mumkin emas. Sirdan qaraganda narsalar, voqealar bir-birlaridan ajralgandek bo'lib



ko'rinishi mumkin. Aslida esa, ular o'zaro aloqada bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi, bir-birlarini taqazo qilib turadi. Narsa, hodisa va voqealar o'rtasidagi ichki bog'liqlik, aloqadorlik va bir-biriga ta'sir qilishlik obyektiv qonuniy holdir. Ana shu qonuniyatni ochib berish—fanning vazifasidir.

Falsafaning voqelikdagi narsa va hodisalarni har tomonlama va o'zaro munosabatda tahlil qilish tamoyili o'rganilayotgan obyektga bir tomondan, bir yoqlama, bir munosabatda tahlil etishni maqsad etib qo'ygan shaklan mantiq tafakkur uslubidan tubdan farq qiladi. Bunday fikrlash usuli sofistika va metafizika, eklektika usullariga ham qarama-qarshidir. Bulardan farqli o'laroq, falsafiy fikrlash usuli narsa va hodisalarni tahlil qilishda ularga xos bo'lgan hamma aloqa vositalarini hisobga olishni talab etadi. Xuddi shunday yondashish olamni chuqur va atroflicha bilish va amaliy faoliyati muvafaqqiyatining shartidir.

Falsafiy fikrlash usuli olamdagi narsa va hodisalarni faqat o'zaro aloqada va bir-birini taqazo qilishda olib qaramasdan, balki harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda qarashni talab qiladi. Bu ham falsafaning muhim tamoyillaridan biri bo'lib hisoblanadi. U bevosita narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorligi tamoyilidan kelib chiqadi. Buning boisi shundaki, voqelikdagi barcha narsa va hodisalar o'zaro aloqadorligi, bog'lanishlari tufayli bir-biriga ta'sir qiladi va ularning xuddi shu o'zaro ta'siri harakatdir.

Tabiat va jamiyat hodisalarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sir qilib turishi ularning doimiy harakatda, rivojlanish va o'zgarishda bo'lib to'rishini ko'rsatib beradi. Hamma hodisalar o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Dunyo abadiy harakat, o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun ham olamdagi narsa va hodisalarga dialektik mantiq nuqtai-nazaridan yondashish ularni nafaqat o'zaro aloqada va bir-birini taqazo qilishda, balki harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda qarashni talab qiladi. Bunday yondashish ham shaklan ham mantiqan metafizik usulga ziddir. Masalan, metafizika uchun o'rganila-yotgan obyekt ularning fikriy in'ikosi — tushunchalar o'zgarmaydigan, qotib qolgan, biridan keyin ikkinchisi va biri ikkinchisiga bog'lanmasdan alohida tahlil qilinadigan narsalardir.

Narsa va hodisalarni, tadqiqot etayotgan obyektning barchasini o'zaro aloqada, ularning harakatida, paydo bo'lishi va yuqolishida qaralishi dialektikaning muhim tamoyillaridan bo'lib hisoblanadi.

Dialektik tafakkurlash usulining yana bir muhim tamoyillari shundan iboratki, har qanday narsa va hodisalarni tahlil qilishda,

o'rganishda unga konkret tarixiy yondashmoqni taqozo etadi. Narsa va hodisalarning mohiyatini bilish uchun uni tevarak atrofdagi muhim, sharoit, joy, vaqtga bog'langan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Konkret-tarixiy yondashish qoidasini e'tiborga olmaslik, nazariya va amaliyotda bir tomonlamalikka olib kelishi muqarrar.

Falsafaning mazkur tamoyili ilmiy bilish va amaliyotda katta metodologik rol o'ynaydi. Narsa va hodisalarga konkret-tarixiy yondashish ularning rivojiga ta'sir ko'rsatadigan omilarni taraqqiy etish yo'nalishlarini belgilab olish imkoniyatini yaratadi. Buni O'zbekiston Respublikasi hayotidan olingan misoldan ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, XXI asr arafasi va uning dastlabki kunlarida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning ustuvor yo'nalishini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish;
- 2) jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish;
- 3) kadrlar masalasi;
- 4) xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishi, aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish;
- 5) iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;
- 6) jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fukaro-lararo to'uvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini mamlakatimiz hududi yaxlitligini ta'minlash<sup>1</sup>. Harakat qilish narsa va hodisalar taraqqiyoti qonunlarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu esa olamni falsafiy anglash jarayonida dialektika qonun va kategoriyalariga tayanish fan va amaliy faoliyat uchun katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

**Qonun** – muayyan shart-sharoitda voqealar rivojining xususiyati va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqazo etadigan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlaridir.

Dialektika qonunlari turqumiga quyidagilar kiradi: miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni; qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuni; inkorniinkor qonuni. Mazkur qonunlarning mazmun-mohiyatini mukammal o'zlashtirib olish olamni falsafiy anglashning muhim sharti hisoblanadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistan XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999, 15–19-betlar.

## 2. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tish qonunining olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati

Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni falsafaning asosiy qonunlaridan biridir. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. *Sifat* — narsalarning ichki muayyanligi bo'lib, boshqa narsalardan ajratib turadigan hossa, belgi, xususiyatlarining birligidir. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha aniqlab beradi. Narsalarning sifati esa ularning hossalari orqali namoyon bo'ladi. Xossa narsa sifatining boshqa narsalar bilan o'zaro aloqadorligidagi tashqi namoyon bo'lishidir. Biz narsalarning ichki sifatini ma'lum bir hossalarda namoyon bo'lishi orqali bilamiz. Har bir narsa ko'plab xossalarga, ya'ni asosiy va ikkinchi darajali xossalarga ega bo'ladi. Masalan, metall zichliq siquvchanlik, issiqlik o'tkazuvchanlik, cho'ziluvchanlik kabi xossalarga ega. Sifat — jismning barcha hossalarni birgalikda bog'lovchidir. Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi muqarrar sur'atda hossaning o'zgarishiga olib keladi, biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir etavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Har bir narsa muayyan sistemada bir-biri bilan bog'liq, bo'ladi. Narsa qaysi bog'lanishlar sistemasiga kirsam, shu sistemaga bog'liq ravishda turli sifatlarga ega bo'ladi. Chunonchi, «stol» muayyan tabiiy materialdan, ya'ni daraxtdan yasalgan bo'lib, tabiiy sifatga ega. Shuning uchun u tabiiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ayni zamonda stol muayyan inson mehnatining natijasi bo'lib, ijtimoiy sifatga ham ega va ijtimoiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Ijtimoiy sifatlarda o'z navbatida ikki g'ruppaga: birinchi tartibdagi ijtimoiy sifatlarga va ikkinchi tartibdagi ijtimoiy sifatlarga bo'linadi. Xuddi o'sha stol, modomiki, insonning muayyan ehtiyojini qondirar ekan, «aniq (amaliy) his» etiladigan narsa sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan, stol, modomiki, qiymatga ega

ekan, u tovar sifatida gavdalanadi. Bu o‘rinda stol«haddan tashqari his etiladigan narsa» tariqasida gavdalanadi. Bu esa ikkinchi tartibli ijtimoiy sifatlarga mansubdir. Narsalar sifat muayyanligidan tashqari bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. Miqdor predmetning hajmi, o‘lchovi, og‘irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o‘z solishtirma og‘irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega, bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidagina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti, sur‘ati darajasi, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi.

Narsa va hodisalaridagi miqdoriy va sifatiy tomonlar doimo bir-birini taqozo qilib, birlikda bo‘ladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo‘lgan narsa yo‘q. Shuning uchun ham narsaga miqdoriy va sifatiy tomondan berilgan tavsif to‘liq bo‘ladi.

Miqdor va sifatning birligi, o‘zaro bog‘liqligi me‘yor tushunchasida ifodalanadi. Me‘yor bu miqdoriy munosabatlar va obyektiv sifatga mos tuzilmalarning muvofiqligidir. Obyektning miqdori ushbu sifat doirasidan chiqmasdan muayyan oraliqda o‘zgaradi. Bu oraliq chegaralari esa predmet muayyanligini, sifat va miqdor birligi sifatida me‘yomi ifodalaydi. Me‘orning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo‘lmagan holatga olib keladi. Me‘yor har bir narsa va hodisadagi miqdor bilan sifat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni ifoda etadi. Bu o‘rinda har bir narsa, hodisa miqdor o‘ziga xos o‘lchovga ega bo‘ladi, chunki ushbu sifat xususiyati har qanday miqdor bilan emas, balki muayyan miqdor bilan uyg‘unlashadi. Ushbu obyektga xos bo‘lgan miqdoriy o‘zgarishlar doirasidan chiqish shu obyektga xos bo‘lgan me‘orning buzilishiga va uning yangi sifatga o‘tishiga olib keladi.

Me‘orning turli shakllari mavjud bo‘lib, nazariy bilimlar sistemasida u quyidagilarga ajratiladi: 1) oddiy me‘yor alohida o‘z-o‘zicha olingan predmet o‘lchovi; 2) sistemali, substansiyali me‘yor – ushbu sistemaning elementi, bo‘lagi bo‘lgan predmet o‘lchovi; 3) aniq me‘yor – barcha haqiqiy munosabatlar yig‘indisi bo‘lgan predmet o‘lchovi. Ijtimoiy hayot qoidalari ham g‘oyat turli-tuman me‘yor munosabatlariga ega.

Bir me‘yordan ikkinchi me‘yorga o‘tish jarayoni bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish negizi (yoki nuqtasi) deyilsa, bir miqdoriy sifat holatidan ikkinchisiga o‘tishning barcha xalqasi esa me‘orning markaziy tuguni deyiladi.

Sifat, miqdor va me'yor tushunchalarida olamdagi narsalarning obyektiv va eng umumiy tavsifi ifodalanadi. Shuning uchun ham ayrim faylasuflarning narsalar sifatini subyektiv tushuncha deb ta'kidlashlari nazariy jihatdan asossizdir.

Miqdor va sifat birlikda, bo'lib bir-biriga o'tib turadi. Miqdor sifatga va, aksincha, ma'lum sharoitda sifat miqdorga o'tadi. Narsa va hodisalarning sifati obyektiv bo'lsada, nisbiydir, chunki ular o'rtasidagi chegara o'zgaruvchan bo'lib, ularni mutlaq-lashtirish mumkin emas. Xuddi shuningdek, narsalarning miqdoriy muayyanligi ham o'zgaruvchandir. Modomiki, obyektiv olam doimiy harakatda, o'zgarish va rivojlanishda ekan, narsalarning miqdoriy va sifatiy muayyanligi, ularning xossalari ham o'zgarish va rivojlanishdadir. Miqdor va sifat o'zgarishlarining aniq holatini bilish fan va ijtimoiy amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlar bilan sifat o'zgarishlar o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdor o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi sodir bo'ladi.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tish masalasiga, o'z navbatida, qadimgi faylasuflar ham e'tibor berganlar. Qadimgi yunon faylasuflarining «yaltiroq bosh» va «g'aram» nomi bilan, keltirgan misollari ma'lumdir. Suhbatdoshga quyidagi savol beriladi: agar boshdan bir dona soch tolasini yulib olinsa bosh yaltirab qoladimi, agar g'aramdan bir dona urug' olinsa, u g'aramlik holatini yo'qotadimi? Natija, «yo'q» degan javob bo'ladi. Bu hol bosh yaltiramaguncha, g'aram esa yo'q bo'lmaguncha davom etadi. Qadimgi faylasuflar bu kabi hodisalarni eng umumiy qonuniyatlarning namoyon bo'lishi natijasida deb, emas balki sof mantiqiy g'ayri tabiiylik deb qarar edilar.

Miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi haqida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlarida ham ko'pgina ma'lumotlar mavjuddir. Al-Xorazmiy, al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bekning matematika, algebra, astronomiya, geografiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid asarlarida miqdor (son), sifat o'rtasidagi aloqadorlik va uning hayotiy ahamiyati haqida batafsil tavsiflar berilgan. «Men, – deb yozadi al-Xorazmiy, – arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Aljabr va almuqobala hisobi haqida qisqaga kitob»ni tasnif qildim, chunki meros taqsim qilishda.

vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdo va har qanday bitimlarda va shuningdek, er o'lchash, kanallar o'tkazishda (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir»<sup>1</sup>.

Ular fikricha, miqdor va sifat o'zgarishlarning o'zaro aloqadorligini nafaqat tabiat va jamiyat hodisalarida, balki ruhlarda hamkuzatish mumkin. «Ruhlarning sifatlarining ... o'zaro qo'shilishi oqibatida ularning (aqliy) quvvatlari miqdor jihatdan ham tobora ortadi»<sup>2</sup>, – deb yozadi Forobiy.

Miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni obyektiv bo'lib, real voqelikdagi narsa va hodisalarning o'ziga xosdir. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlardan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlar muayyan chegarada sifatning barqarorligiga (turg'unligiga) ta'sir etmaydi. Miqdor o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo'qolib, yangi sifat yuzuga keladi. Bu holni biz kimyo fanida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, ikki atom vodorod bilan bir atom kislorod suvning molekulasini tashkil etadi. Agar bu elementlarni boshqacha nisbatda, ya'ni ikki atom vodorodni  $N_2O$  (ikki) atom kislorod bilan biriktirsak, u holda bir yangi narsa – vodorod peroksidi hosilqilamiz ( $N_2O_2$ ).

Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tish bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari natijasida vujudga kelgan yangi sifat muayyan vaqtga muvofiq keladigan barqarorlikka ega bo'lib, shu miqdor o'zgarishlari jarayonini davom etishi uchun sharoit yaratib beradi. Bu sifat o'zgarishlarining miqdor o'zgarishlariga o'tishidir.

Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi:

*birinchidan*, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdor o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi;

*ikkinchidan*, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha predmetga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida  $100^{\circ}S$  gacha

<sup>1</sup> Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanglangan asarlar. – T., 1983, 78-bet.

<sup>2</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 165-bet.

siyuqlik holatini yo'qotmaydi. Sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uni boshqa hodisaga aylantirishni taqozo qiladi;

**uchinchidan**, miqdor o'zgarishlari asta-sekin o'tadi va ko'p hollarda (muayyan davrgacha) sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to'satdan sodir bo'ladi;

**to'rtinchidan**, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga Qara ganda tub o'zgarishlar hisoblanadi.

Metafizik usulda fikr yuritadigan faylasuflar miqdor o'zgarishlar bilan sifat o'zgarishlarini ajratib bir-biriga qarama-qarshi qo'yadilar, ayrimlari esa faqat miqdor o'zgarishlarnigiga tan oladilar.

Miqdor va sifat o'zgarishlari jarayonini tahlil qilar ekanmiz, nazariy hamda amaliy faoliyatda amalga oshayotgan o'zgarishlar mexanizminigina emas, balki ularning chuqurligi va ahamiyatini ham hisobga olish muhimdir. Shunga asosan ro'y beradigan o'zgarishlarni inqilobiy va tadrijiy (evolyutsion)ga ajratish mumkin.

Bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish sakrash yo'li bilan amalga oshadi.

Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlarga o'tish jarayonini anglatadigan falsafiy tushunchadir. Sakrash taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qara-ganda ancha tez o'tadigan shakldir.

Sakrash miqdor o'zgarishlardan sifat o'zgarishlarga o'tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrashlar doim asta-sekinlik bilan miqdor o'zgarishlari natijasida tayyorlanadi. Bundan shuni nazarda tutish kerakki, miqdor o'zgarishlar narsa va hodisani bir tekisda oddiy ko'paytirish yoki kamaytirishdan iborat emas. Miqdor o'zgarishlar narsa va hodisalarning ijtimoiy tomonlarini asta-sekin o'stirib mustahkamlashni hamda salbiy tomonlarini asta-sekin susaytirishni taqozo etadi. Sakrash, shuningdek, narsa va hodisalar o'rtasidagi ziddiyatlarning hal kilinishidir. Sakrash natijasida eski sifat bilan uning asosida harakat qiladigan qarama-qarshiliklar birligi tugatiladi va yangi sifatning vujudga kelishi sodir bo'ladi.

Nihoyat, sakrash – eski sifatning inkor etilishi va yangi sifatning qaror topishidir. Sakrash natijasida eskidan yangiga o'tish amalga oshadi. Shunga ko'ra narsa va hodisalarning rivojlanishi ilgarilab boradi.

Shunday qilib, dialektik sakrash quyidagi jihatlarga ega:

**birinchidan**, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan obyektiv va qonuniy jarayondir;

**ikkinchidan**, sakrash tadrijiylikning o'zgarib, miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tishidir;

**uchinchidan**, sakrash eski qarama-qarshiliklar birligini tugatish va yangi sifatga mos keladigan qarama-qarshiliklarning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

**to'rtinchidan**, sakrash narsa va hodisalarning rivojlanib, ilgari lab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog'liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o'tish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Amalga oshish muddatiga bog'liq, ravishda asta-sekinlik bilan ifodalanadigan sakrashdan, bir zumda shiddat bilan sodir bo'ladigan sakrashni farqlash kerak. Binobarin, kimyoviy elementlarni birlashtirish jarayonida tub sifat o'zgarishlar shiddat bilan, juda tez sodir bo'ladi, ammo hayvonlar bilan o'simliklarning rivojlanish jarayonida eski sifatdan yangi sifatga o'tish birmuncha sekin sodir bo'ladi. Tez sodir bo'ladigan sakrashlar bilan asta-sekin miqdor o'zgarishlari yo'li bilan sodir bo'ladigan sakrashlarning bir-biridan farq qilishini hisobga olish kerak. Tez sakrash shunday xususiyatlarga egaki, u birinchidan, hal qiluvchi zarbaning birdan-bir ifodasi sifatida bajariladi. Bu sifatli o'tish bo'lib, dastavval, birdaniga eski tugatiladi va so'ngra yangi bunyod etiladi. Ikkinchidan, u bexosdan tez sodir bo'ladi.

Asta-sekin miqdor o'zgarishlari yo'li bilan sodir bo'ladigan sakrashlar eskini bir yo'la tugatish bilan emas, balki uzoq vaqt davomida eski sifatni yangi sifatga aylantirish bilan tavsiflanadi.

Demak, sakrashlar turli-tuman shakllarda amalga oshishi sodir bo'ladi. Bunda narsa va hodisalarning bir holatdan ikkinchisiga o'tish shakllarining turli-tumanligi nimaga bog'liq? degan savol kelib chiqadi. O'tish shakllarining turli-tumanligi, birinchidan, narsa va hodisalarning mohiyati va xususiyatlariga, ikkinchidan, unga muvofiq keladigan sharoitga bog'liqdir. Masalan, ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlar tabiatdagi sakrashlardan tubdan farq qiladi.

Hozirgi sharoitda jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotida ro'y berayotgan jarayonlar o'z mohiyatiga ko'ra yangi sifatli o'zgarishlarga kiradi. Shular natijasida davlatimiz yuksak bosqichga ko'tariladi. Bular o'z-o'zidan emas, balki keng xalq ommasining ijodiy faoliyati, ijtimoiy-siyosiy faolligi natijasida amalga



oshiriladi. Bu o'zgarishlar inqilob yo'li bilan emas asta-sekin tadrijiy yo'li bilan amalga oshadi.

«Jamiyatni yangilashning inqilobiy usullariga biz mutlaqo qarshimiz. Biz tadrijiy – evolyutsion islohotlar yo'li tarafdorimiz va bunga qat'iy amal qilamiz. Mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarin, xalqimiz tabiati-mentalitetini inobatga olsak, rivojlanishning mazkur yo'li biz uchun nihoyatda maqbuldir»<sup>1</sup>, – deydi I.A.Karimov. Ko'rinib turibdiki, bu qonun jamiyatimizni ilmiy boshqarish va uning rivojlanishda katta ahamiyat kasb etadi.

### **3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining falsafiy tafakkurlashda namoyon bo'lishi**

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuniga muvofiq har bir narsa bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan va biri ikkinchisini istisno etuvchi qarama-qarshi tomon va kuchlarga ega bo'lib ular o'rtasidagi kurash natijasida eskining yo'qolishi va yangining paydo bo'lishi yuzaga keladi.

Ma'lumki, narsalar turli-tumandir. Hamma tomonlari bilan aynan o'xshash bo'lgan ikki narsaning o'zi yo'q. Narsalarning tafovut darajasi ham bir xil emas: muhim va nomuhim tafovutlar mavjud.

Narsa va hodisalardagi tafovutlar qarama-qarshiliklar asosini tashkil etadi. Qarama-qarshiliklar deb shunga aytiladiki, tabiatdagi narsa va hodisalarda mavjud bo'lgan tomonlar, hossalari va yo'nalishlar bir-birini inkor qiladi, bir vaqtning o'zida bir-birini taqozo ham qiladi. Masalan, magnitdagi shimoliy va janubiy qutblar, elektning manfiy va musbat zaryadlari, atomdagi tortilish va itarilish, ijtimoiy hayotdagi yovuzlik va ezgulik o'zaro bir-birini inkor etadi va ayni vaqtda biri ikkinchisini taqozo etadi.

Narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari o'rtasidagi munosabat ziddiyat deb ataladi. To'qnashuv tushunchasi ziddiyatdan farqli o'laroq, narsa va hodisalarning qarama-qarshi tomonlari keskinlashib, ularning eski chegarada birgalikda yashashi mumkin bo'lmay qolgan holatini belgilaydi. Ziddiyatlar hamma vaqt ham to'qnashuv bilan tugamay, balki alohida sharoitdagina shunday holda bo'lishi mumkin. Mana shu real munosabatlar qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonunida aks etiladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda – T.: «O'zbekiston», 1999, 14-bet.

Hamma narsa va hodisalar ichki ziddiyatlarga va bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tomonlarga ega.

Quyosh sistemasi ham qarama-qarshiliklar birligining murakkab namunalaridan hisoblanadi. Sayyoralar sistemasining markazi hisoblangan Quyosh bilan boshqa sayyoralar o'rtasida shunday aloqadorlik mavjudki, bu aloqadorlik markazga intiluvchi tortish kuchi va markazdan qochuvchi-itariluvchi kuchlar ta'sirida yuzaga keladi. Shu qarama-qarshi kuchlar o'rtasida kurash Quyosh sistemasining yashashi va rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini belgilaydi.

Agar atomni olsak, bir atom moddasi ham, avvalo, musbat va manfiy elektr zaryadlari, proton va elektron kabi murakkab qarama-qarshi tomonlarning yig'indisidir. Atom yadrosining o'zida tortilish va itarilish kabi qarama-qarshi kuchlar mavjuddir.

Organik dunyodagi rivojlanishni ham qarama-qarshiliklar kurashsiz tasavvur qilish qiyin. Hayotning o'zi shunday zid, qarama-qarshi jarayondirki, unda yaratilish va emirilish, assimilyatsiya va dissimilyatsiya kabi qarama-qarshi munosabatda bo'lgan tomonlar mavjud. Organizm yashab turgan vaqtda uning hujayralari to'xtovsiz o'lib, o'rniga yangilari paydo bo'ladi. Mana shu ikki qarama-qarshi yo'nalish organizmning yashashi uchun zarur sharoitni yaratadi. Bu jarayonning to'xtashi organizmning halok bo'lishiga olib keladi. Jamiyatda ham o'ziga xos ziddiyatlar mavjud.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni bilish jarayonida ham o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, bilish jarayoni bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan hissiy va ratsional bilishdan iboratdir. Hissiy bilish orqali inson narsa va hodisalarning faqat tashqi tomonlari va xususiyatlari to'g'risida ma'lumot oladi, mavhum tafakkur orqali esa ularning ichki munosabatlarini belgilovchi qonuniyatlarni biladi. Bu erda hissiy va ratsional bilish bir jarayonning ikki ajramas, ammo bir-biridan farq qiluvchi muhim tomonlaridir.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining umumiylik xususiyati moddiy dunyodagi hamma narsa va hodisalarga xos ekanligidagina emas, balki ziddiyatlar narsa va hodisalarga, ularning paydo bo'lishidan tortib haloq bo'lishigacha boshidan oxirigacha singib ketgan. Bir mohiyatning turli tomonlarini ifodalagani uchun ham qarama-qarshiliklar birligi quyidagi sharoitlarda yuzaga keladi:

***birinchidan***, qarama-qarshiliklar bir narsa va hodisadagina mavjuddir, chunonchi, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tafakkurga mansubdir;

*ikkinchidan*, qarama-qarshilik o'zaro bog'liq, biri ikkinchisini taqozo qiladi, biri bo'lmasa ikkinchisi mavjud bo'lolmaydi.

*uchinchidan*, qarama-qarshiliklarning biri ikkinchisiga o'tadi va o'zaro bir-biriga singib ketadi. Masalan, pozitron va elektron ma'lum sharoitda fotonlarga aylanadi, natijada materiyaning boshqa turi kelib chiqadi.

Qarama-qarshi tomonlarning birligi nisbiy, o'tkinchi xususiyatga ega bo'lishi bilan birga ular o'rtasidagi kurash mutlaqdir. Davr o'tishi bilan kurashning ba'zi aniq shakllari yo'qolishi mumkin, ammo qarama-qarshi tomonlar taraqqiyot davomida turli xil vazifani bajaradi. Qarama-qarshi-likning mutaassib tomoni narsa va hodisani qanday bo'lsa, shunday-ligicha saqlab qolishga intilsa, ilg'or tomoni uni o'zgartirishga, yoki uni barbod qilib, yangisini vujudga keltirishga harakat qiladi.

Qarama-qarshiliklar haqida Forobiyning fikri alohida e'tiborga molik. Forobiyning fikricha, faqat Allohning sherigi yo'q, shuning uchun ilk borliqning ziddi bo'lishi ham mumkin emas. Lekin boshqa har bir narsa qarama-qarshi harakatda bo'ladi. «Qarama-qarshi bo'lgan har bir narsa, birga bo'lsa, – deydi Forobiy, – u albatda, buzilishga va o'z yo'li aynishiga olib keladi. Ziddilarning har birining tabiati shunday bo'ladi, ulardan birining qayerda bo'lishidan qat'i nazar birining yo'qligi ikkinchisining borligini taqozo etadi. Ziddi bo'lishi mumkin bo'lgan har bir narsada ahvol shundaydir»<sup>1</sup>.

Tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan ziddiyatlar o'zining xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. Dialektik ziddiyatlar ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'lmagan, antagonistik va noantagonistik, umumiy va xususiy, zaruriy va tasodifiy, imkoniylik va haqiqiylik shakllaridan iboratdir.

Narsa va hodisalarning harakat mohiyatidan kelib chiqadigan ziddiyatlar ichki ziddiyat, deb aytiladi. Tashqi ziddiyatlar deb turli narsa va hodisalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarga nisbatan aytiladi.

Ziddiyatlarni ichki va tashqi turlarga bo'lish nisbiydir, chunki ular bir-biriga o'tib turadi. Ma'lum bir ziddiyat boshqa narsa va hodisaga nisbatan ichki yoki boshqa bir munosabatda tashqi ziddiyat bo'lib qolishi ham mumkin. Dialektika ichki va tashqi ziddiyatlarning birligini hisobga olish bilan birga, ularning taraqqiyotidagi o'miga baho berishda hartomonlama yondashishni talab qiladi.

Metafiziklar faqat tashqi ziddiyatlarni tan olib, narsa va hodisalarda ichki ziddiyatlar mavjudligini inkor etadilar. Ular taraqqiyot

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 133–134-betlar.

manbaini narsa va hodisalarning bir-biriga qarama-qarshi to'qnashuvidan kelib chiqqan tashqi ziddiyatdan iborat deb qaraydilar.

Asosiy ziddiyatlar deganda hodisaning mavjudligi va rivojlanishi, vujudga kelishi va yo'q bo'lishi yoki yangi sifatning tug'ilishini o'z ichiga oladigan, eng chuqur mohiyatini ifodalaydigan ziddiyatlar tushuniladi. Asosiy bo'lmagan ziddiyatlar esa, ma'lum bir taraqqiyot bosqichida narsa va hodisalar mohiyatining u yoki bu tomonini aks ettirib, uni belgilash yoki o'zgartirish kuchiga ega bo'lmagan ziddiyatlardir.

Asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyatlardan muhim va muhim bo'lmagan ikkinchi darajali ziddiyatlarni farqlash lozim. Muhim ziddiyatlar deb rivojlanishning u yoki bu bosqichining mohiyatini belgilab beradigan ziddiyatlarga aytiladi. Hodisalar taraqqiyoti bosqichida muhim va muhim bo'lmagan ziddiyatlar o'rin almashishi, bir biriga o'tib turishi mumkin.

Ziddiyatlar o'z xususiyati jihatidan antagonistik va noantagonistik bo'lishi mumkin. Jamiyatda antagonistik ziddiyatlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan sinflar, tabaqalar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqishi mumkin, Ammo, antagonistik ziddiyatlar faqat sinfiy munosabatlarga xos, degan qarash noto'g'ri. Tarixiy tajriba, ijtimoiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday ziddiyatlar jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'lishi mumkin. Ular faqat sinfiy negizda emas, balki etnik, milliy, diniy, irqiy va boshqalarda vujudga kelishi mumkin. Bunday ziddiyatlar jamiyat va alohida shaxslar, turli davlatlar, ijtimoiy-siyosiy tizimlar, siyosiy partiya va ommaviy harakatlar o'rtasida ham vujudga kelishi mumkin.

Antagonistik ziddiyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ulami hal etishda mavjud holatni buzishga olib keladigan vositalarni qo'llashdir. Ijtimoiy hayotdagi noantagonistik ziddiyatlarga tub manfaatlar va maqsadlari umumiy bo'lgan tabaqalar, ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi munosabatlar, shahar bilan qishloq, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi mavjud bo'lgan tafovutlar va boshqalar misol bo'la oladi. Ularni bartaraf qilish ham antagonistik ziddiyatlar singari kurash asosida amalga oshiriladi, lekin bu kurash shakli, xususiyati jihatidan boshqadir.

Ziddiyatlar xilma-xil shakllarda bartaraf etilishi mumkin. Ulardan biri eskining emirilib, yangining qaror topishidir, bunga misol sifatida iqtisodiyotning eskisi emirilib, asta-sekinlik bilan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotning barpo etilishini ko'rsatib o'tish joizdir.

Shuningdek, qarama-qarshiliklarni o'zaro ongli ravishda qo'shib, ular o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etib, shu asosda taraqqiyotda ilgarilab borishdan iboratdir. Ziddiyatlarni bartaraf etishning samarali shakllaridan yana biri – *konsensus* (o'zaro kelishuv)dir. Konsensus qarama-qarshi kuchlar, tomonlar, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, harakatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni umumiy manfaatlardan kelib chiqib hal etish yo'llaridan bo'lib hisoblanadi. U xalqlarni milliy totuvlikka, hamkorlikka da'vat etadigan yo'ldir. Konsensus muloqotlar, referendumlar, ommaviy axborot vositalari orqali eng muhim qonunlar loyihagini muhokama qilish va hokazo yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, ziddiyatlarni hal etishning xususiyati va yo'llarini to'g'ri tushuna bilishlik amaliy faoliyatimizda to'g'ri mo'ljal olishga imkon beradi.

#### **4. Olamni anglashda inkorni inkor qonuni talablariga muvofiq fikr yuritishning zarurligi**

Inkorni inkor qonuniga muvofiq obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi. Rivojlanish burama shaklda, ma'lum nisbiy takrorlanishlar asosida, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab boradi.

Metafizik yo'nalish inkorning ijodiy yaratuvchilik rolini tan olmaydi. Bunday farqli o'laroq, dialektik qarash eski narsani yangi narsa inkor qilishini ta'kidlaydi. Olamda hech bir sohada o'zining ilgarigi yashash shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish sodir bo'lishi mumkin emas.

Har bir jarayon inkor qilish jihatiga ega. Ichki ziddiyatlar tufayli taraqqiyot jarayoni ertami – kechmi eski narsaning emirilishiga va yangi narsaning vujudga kelishiga olib keladi. Vujudga kelgan bu yangi narsa eskining inkor qilinishidir.

«Har bir qarama-qarshilikda bo'lgan narsa, – deydi Forobiy, – boshqa tomonidan buzdirilishi lozim bo'ladi, birinchi esa o'z tabiati bilan qarama-qarshi tomonidan inkor etilgan bo'ladi. Bu esa, uning aslida (substansiyasida) mavjud bo'lgan bo'ladi»<sup>1</sup>.

Eskining yangi tomonidan inkor qilinishi natijasida moddiy olamdagi narsa va hodisalarning ilgarilama harakati sodir bo'ladi.

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 133–134-betlar.

Eskining rivojlanish jarayonidagi emirilishi – inkorni inkor qonunining faqat bir tomonidir. Uning boshqa tomonini eskining emirilishi jarayoni bilan bir vaqtda vujudga keladigan yangi narsa qaror topadi. Bu yangi narsa eskining o‘mini egallab, undagi jobjiy narsalarni saqlab qolgan holda yangining yanada yuksakroq, ilg‘or holatni ifodalaydi.

Shunday qilib, taraqqiyot bir-birini almashtirib turadigan bosqichlardan iborat bo‘lib, bir bosqich ikkinchi bosqich tomonidan, ikkinchisi esa uchinchisi tomonidan inkor etiladi. Eskining emirilib, yangining paydo bo‘lishi, taraqqiyot jarayonidagi dialektik inkorning ikkita muhim va ajralmas jihatidir.

Inkorni inkor qonuni quyidagi bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

***birinchidan***, eskining yangi tomonidan inkor etilishi – kishilarning ongi va irodasiga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv jarayondir. Inkor subyektiv, tashqaridan kiritilgan fikr emas, balki obyektiv jarayon taraqqiyotining bosqichidir;

***ikkinchidan***, dialektik inkor tashqaridan kiritilgan kuch yoki holat emas, balki narsa va hodisaning ichki rivojlanishi natijasi, o‘zini-o‘zi inkor qilishidir. Dialektik inkor narsani butunlay yo‘q qilib yuboriladigan faoliyat bilan o‘xshash emas, u shunday inkorki, buning natijasida rivojlanish davom etishiga, yangi inkor sodir bo‘lishiga imkon yaratiladi;

***uchinchidan***, dialektika har bir narsa va hodisa uchun inkorning aniq turi mavjuddir, deb hisoblaydi. Tasavvur va tushunchalarning har bir turi singari, buyumlar har bir turining ham o‘ziga alohida inkor turi borki, bunda taraqqiyot sodir bo‘ladi,

***to‘rtinchidan***, dialektik inkor to‘liq inkor bo‘lmasdan balki eskini yangi bilan bog‘lab turuvchi jarayondir. Dialektik inkor yangi bilan eski o‘rtasidagi vorislikni tavsiflaydi;

***beshinchidan***, dialektik inkor taraqqiyotning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga borishini, bir sifatdan boshqa sifatga o‘tishini tavsiflaydi.

Inkorni inkor qonuni obyektiv olamning va bilishning turli sohalarida ko‘plab uchraydigan keng ta‘sir doirasiga ega to‘lgan qonundir. Agar arpa erga ekilsa, u issiqlik va namlik ta‘sirida kc‘karadi va undan o‘simlik paydo bo‘ladi. Endilikda arpa (don) o‘zini (o‘zi) inkor etadi. O‘simlik o‘sadi, gullaydi, changlanadi va nihoyat yangidan arpa (don) etishadi, donlar etiladi, poyasi quriydi, ya‘ni inkor etiladi. Inkorni

inkorning natijasi sifatida biz bunda yana avvalgi arpa(don)ni ko'ramiz, lekin endi bir don emas, bir necha don bo'lganini ko'ramiz. Inkorni inkor qonun. jamiyat ma'naviy hayotida ham namoyon bo'ladi.

Falsafada inkorni inkor qonuni birinchi bor Gegel tomonidan ta'riflangan. Uning fikricha, dastlabki bir butun fikr (tezis) bir-biriga zid bo'lgan ijobiy va salbiy, «ha» va «yo'q»dan iborat ikki fikrga bo'linadi. Butunning ikkiga bo'linishi — antitezis, inkordir. Qarama-qarshi fikrlar kurashi oxirida birikib yangi fikr (sintez, inkorni-inkor) hosil qiladi. Shunday qilib, Gegelning fikricha, sof g'oya o'z taraqqiyotida uch bosqichdan o'tadi: tezis, antitezis va sintez. Gegelning ta'limotiga ko'ra, nimaiki sof g'oyaningrivojlanishiga mansub bo'lsa, u moddiy borliqning hamma narsa va hodisalariga ham mansubdir.

Inkorni-inkor qonuni taraqqiyotda vorislik (ilgarilab borish, an'anaviylik) va qaytariluvchanlikning (davriylik, eskiga qaytish kabi) birligini tavsiflaydi. Natijada taraqqiyot to'g'ri chiziqli emas, balki «burama»shaklda amalga oshadi.

Taraqqiyot jarayonining ilgarilab borish xususiyati eski o'rniga keladigan yangi doimo yangi bo'lib qolmasdan, vaqt o'tishi bilan u ham eskiradi va o'z navbatida inkor qilinadi degan ma'noni anglatadi. Buning natijasida taraqqiyot jarayoni ikkilanma inkor sifatida ko'rinadi. Dialektik inkor taraqqiyotni ifodalaydi. Masalan, suv qizdirilganda bug'ga aylanadi, sovitilganda esa yana suvga aylanadi. Metall qizdirilganda suyuq, sovitilganda esa qattiq holatga o'tadi. Bu erda biz bir holatning boshqa holat tomonidan inkor etilishini ko'ramiz. Lekin bu erda rivojlanish sodir bo'lmaydi, balki bir hodisaning boshqa hodisa bilan almashinishi sodir bo'ladi. Dialektik inkor yuqorida ko'rsatilgan inkordan farqli o'laroq shunday ziddiyatlarni hal qilishni maqsad qilib qo'yadiki, buning natijasida taraqqiyotda yuqori bosqichga erishiladi.

Dialektik inkorning yana bir muhim xususiyatini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi inkor eskini emiribgina qolmay, oldingi rivojlanishdagi butun ijobiy tomonlarni umumlashtiradi, ya'ni sintez qiladi. Biroq bu sintez oldingi rivojlanishning ayrim tomonlarini mexanik tarzda birlashtirish emas. Dialektik sintezda o'tmishning ayrim elementlari olib tashlangan, ya'ni butunlay o'zgartirilib, yuqori bosqichda birlashtirilgandir.

Inkorni inkor rivojlanishning ma'lum bir davrini tugallaydi, lekin u shu bilan birga keyingi harakat uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchi inkor harakatning shart-sharoitlarini ifodalaydi. Ko'rib turibdiki, inkor tushunchasi davrni ham ifodalaydi. Bu davr shundan

iboratki, ma'lum jarayonning tugallanish bosqichi yangi dialektik davr uchun boshlang'ich nuqta bo'lib qoladi va shunday hol cheksiz davom etadi. Bir munosabatda sintez bo'lgan narsa boshqa munosabatda yangi rivojlanishning boshlang'ich nuqtasidan iborat bo'ladi.

Dialektik taraqqiyot to'g'ri chiziqli harakat bo'lmay, balki asta-sekin ko'tarilib, kengayib boradigan, bir-biri bilan umumiy vorislik yo'li bilan bog'langan yuksak bosqichda boshlang'ich nuqta jihatini o'z ichiga oladigan burama harakatdan iborat.

Taraqqiyot ayrim hollarda quyiga qarab boradi. Bunga moddiy tizimlarning emirilishi, materiya harakatning murakkab shakllari oddiy shakllarga o'tishi misol bo'la oladi. Ammo shuni aytish kerakki, taraqqiyotning orqaga qaytishi ilgarilama harakatdan vaqtincha chetlashishdir.

Ijtimoiy taraqqiyot, jamiyatning rivojlanishi hech qachon to'xtab qolmasligi qonuniy va o'zgartirib bo'lmaydigan jarayondir. U vaqtincha bo'lgan tebranish va cheklanishlarga qaramasdan ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgi davrgacha yuqoriga ko'tariluvchi yo'l bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy rivojlanishning obyektivligi va takrorlanmasligi bunda yorqin namoyon bo'ladi. Rivojlanishning pastdan yuqoriga ko'tariluvchi yo'nalishini dialektik tushunish doiraviy harakat to'g'risidagi metafizik nazariya bilan hech qanday umumiylikka ega emas. Ba'zi bir olimlar dunyoda bo'layotgan ba'zi bosqichlarning qaytarilishini oddiy eskilikka qaytish deb hisoblamoqdalar. Ularning fikricha, tabiat va jamiyat hayotining ibtidosi va intixosi butunlay mos keluvchi ma'lum davr, sikl yoki aylanma bo'yicha bo'ladi. XVIII asrda yashagan italiyalik faylasuf J.B.Vikoning ta'kidlashicha, jamiyat o'z taraqqiyotida uch davrni bosib o'tadi, chunki: 1) bolalik davri. Bu davrda diniy dunyoqarash va zo'raonlik hukmronlik qiladi; 2) o'smirlik davri. Bu davrda aristokratlik, ritsarlik va etuklik ravnaq topadi; 3) etuklik davri.

Boshqa bir faylasuf O.Shpengler jamiyat o'zining rivojlanishida bunyod bo'lish (1), gullab yashnash (2), inqirozga yuz tutish (3) davrlarini boshdan kechiradi, deydi. Uning fikricha, insoniyat tarixining hozirgi bosqichi inqirozlar davri, shunga ko'ra hozirgi zamon madaniyatining barcha yutuqlari butunlay yo'q qilinishi lozim emish.

Ingliz tarixchisi Toynbining ta'biricha, jamiyat tarixi qorong'i va o'zaro aloqada bo'lmagan sivilizatsiyadan iborat. Har qanday sivilizatsiya bir rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi: 1) bahor va yoz; 2) kuz va qish yoki bolalik, usmirlik, etuklik va karilik. Toynbining ko'rsatishicha, G'arb sivilizatsiyasi etuklik bosqichidadir va u kelajakda



rivojlanish xususiyatiga ega. Amerikalik professor Rayt esa, jamiyat tarixi ma'lum bir bosqichlardan, ya'ni qahramonlik asri, g'alayonlik vaqti va tiklanish davrlarining shu taxlitda takrorlanishidan iborat, deb tasvirlab beradi. Uning fikricha, hozirgi sivilizatsiyadan keyin insoniyat faqat orqaga qaytish bilan rivojlanarmish.

Taraqqiyot yuqoriga ko'tarilish xususiyatiga ega bo'lib, u oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga tomon boradi. Masalan, mikro olamda rivojlanishning ilgarilab borishi kimyoviy elementlarda atom yadrosi, atomlarning molekularlarga va keyinroq mikroskopik jismlarga aylanishida, koinotda esa uning jismlarining gaz va changsimon materidan vujudga kelishida namoyon bo'ladi. Noorganik materiyaning organik materiyaga aylanishi, hayvonot olamidani insoniyatning ajralib chiqishi ham bunga yorqin misol bo'la oladi. Ijtimoiy rivojlanish ham taraqqiyot sari borayapti.

Eskining o'rniga yangining kelishi uning kundan-kunga mustahkamlanishi, rivojlanishi va ularning ajralmasligi taraqqiyotning boshlanish xususiyatini belgilaydi. Yangi eskining o'rnini egallab borishda eskidan ijobiy muhim tomonlarni o'zida mujassamlashtirib, yuqoriroq sifat xususiyatlarga aylanadi. Eskining o'rniga kelgan yangi dastlab imkoniyat ko'rinishida bo'ladi. Bu imkoniyatning voqelikka aylanishi ma'lum shart-sharoitlardagina amalga oshadi. Ijtimoiy hayotda yangilikning g'alabaga erishuvini ta'minlashda kishilarning faoliyati zarurdir.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro'y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etyapti. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o'zgarishlar hamma narsani yangidan barpo etishni bildirmaydi. Aksincha, jamiyatimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yutuqlarni saqlab qolish, ularni yanada boyitib rivojlantirishdan iboratdir. Bu mazkur qonunning talabidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biridir.

«Bizning tushunishimizcha, – deydi I.A.Karimov, – qotib qolgan eski aqidalardan voz kechish – o'z tarixiy o'tmishimizdan voz kechish degani emas. Bu biryoqlama va tor fikrlashdan voz kechish demakdir»<sup>1</sup>.

Yuqorida biz falsafaning uchta asosiy qonunlari mazmun-mohiyatini tavsiflab berishga harakat qildik. Endilikda shuni eslatib o'tish joizki, olamni anglashda mazkur qonunlarni e'tiborga olish,

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 151-bet.

ularning talablariga mos ravishda fikrlash va amal qilish katta metodologik ahamiyatga ega.

Falsafiy tafakkurlash voqeikdagi narsa va hodisalarga xos bo'lgan barcha aloqalarni, ziddiyatlarni, ularning taraqqiyot qonuniyatlarini bilish, har tomonlama tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Falsafa olamdagi narsa va hodisalarning eng umumiy aloqadorlik va taraqqiyot qonunlari haqidagi fan bo'libgina qolmasdan, balki tafakkurlash, fikr yuritish, dunyoni bilish haqidagi ham fandır. Shunday ekan, har bir inson o'z amaliy faoliyati va ilmiy bilish jarayonida falsafa fanining mazmun-mohiyati, uning rang-barangligi, ko'p qirrali tomon va xususiyatlarini hisobga olib ularga ogli ravishda amal qilishlari lozim.

### Takrorlash uchun savollar

1. Falsafa fanining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
2. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tish qonunining olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati haqida so'zlab bering.
3. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni, uning olamni anglashdagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalaringizni bayon eting.
4. Inkorni inkor qonuni talablariga muvofiq fikr yuritishning ahamiyati haqida nimalar deya olasiz?
5. Falsafiy tafakkurlash san'atini mukammal o'zlashtirib olishning ilmiy bilish va amaliyotdagi ahamiyati haqida so'zlang.

### Tayanch tushunchalar

**Tamoyil** – yo'nalish, tendensiya, moyillik.

**Sifat** – narsalarning ichki muayyanligi bo'lib, boshqa narsalardan ajratib turadigan xossa, sifatining boshqa narsalar bilan aloqadorligida tashqi namoyon bo'lishi.

**Miqdor** – narsalarning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakati va shu kabilarni ifodalovchi tushuncha.

**Me'yor** – miqdor va sifat birligi.

**Sakrash** – miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish jarayoni.

**Ziddiyat** – qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatlar.

**Inkor** – rad etish, qabul qilmaslik.

**Vorislik** – o'tmish bilan bugungi kun o'rtasidagi bog'liqlik, davomiylik, uzluksizlik.

### **Ada biyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekistan XXI asrga intilmoqda. – T.: «O'zbekiston», 1999, 14–19–betlar.
2. Xorazmiy al Muhammad ibn Muso. Tanlangan asarlar. – T.: «Xalq merosi», 1983, 78-bet.
3. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 133, 134, 165- betlar.

---

## XI MAVZU: OLAMNI FALSAFIY ANGLASH SHAKLLARI

### Reja:

1. Falsafiy kategoriyalar olamni anglashida vujudga kelgan tafakkur shakllari.
2. Kategoriyalarning tizimi va ularning olamni anglashdagi ahamiyati.
3. Harakatchan, ixcham tushunchalar orqali olamni anglash – falsafiy tafakkurining muhim xususiyati.

### 1. Falsafiy kategoriyalar – olamni anglashda vujudga kelgan tafakkur shakllari

Ma'lumki, narsa va hodisalarning umumiy bog'lanishi va rivojlanishi o'ziga xos «buyumlar mantiqini», obyektiv dialektikani tashkil qiladi. Bu obyektiv dialektika inson tafakkur mantiqini, ya'ni subyektiv dialektikada ma'lum bir ilmiy tushunchalar, kategoriyalar ko'rinishida aks ettiradi.

«Kategoriya», yunoncha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «guvoh», «ta'rif», «ifodalovchi» demakdir. Falsafiy kategoriyalar – obyektiv mavjudlikdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim tomonlarini, xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiruvchi tushunchadir.

Falsafa tarixida kategoriyalar masalasi Arastu tomonidan batafsilroq ishlab chiqilgan. U o'zining «Metafizika», «Kategoriyalar» nomli asarlarida mohiyat va hodisa, miqdor va sifat, sababiyat, zaruriyat va tasodif, butun va bo'lak kabi tushunchalarni mohiyati va falsafiy ahamiyatini tavsiflab bergan.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining, jumladan, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Ulug'bek asarlarida ham mazkur kategoriyalar ko'p ishlatilib kelingan.

«Falsafa mavjudotni – ya'ni barcha mavjud narsalami, uning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama tekshirish uchun zaruriyat, voqelik, sababiyat tamoyillarini asos qilib oladi», – deb yozadi ibn Sino.

Har bir fan o'zining kategoriya, ya'ni tushunchalar tizimiga ega bo'lib, u orqali olamdagi narsa va hodisalar taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganadi.

Falsafiy kategoriyalar, boshqa fanlar tushunchalaridan bir qator muhim xususiyatlari bilan farq qiladi. Ular quyidagilardan iborat:

***Birinchiidan. Kategoriyalar – obyektiv dunyo eng umumiy qonunlari taraqqiyotining in'ikosidir.*** Kategoriyalarning obyektiv mazmuni inson ongiga borliq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan voqelik harakatining eng umumiy qonunlaridir. Bunday ta'rif falsafa fanining predmeti mohiyatidan kelib chiqadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, dialektika obyektiv reallikdagi narsa va hodisalar harakatining eng umumiy qonunlari va ularning inson ongida aks etishi haqidagi fandır.

Kategoriyalar inson tafakkurida voqelikning aks etish shakllaridir. Demak, kategoriyalarning mazmuni, ya'ni fikrlash shakli obyektiv dunyo taraqqiyotining eng umumiy qonunlaridan bo'lak narsa emas. Ma'lumki, sababiyat, zaruriyat, qonuniyat va hokazolar g'oyasi tabiat, boqiy olam qonunlarining kishi miyasida in'ikos etishidir.

Bunday shunday xulosa kelib chiqadiki, tafakkur kategoriyalari kishining qo'llanmasi emas, balki tabiatning ham, insonning ham qonuniyatlarining ifodasidir.

***Ikkinchiidan. Kategoriyalar eng umumiy tushunchalar sifatida inson fikri shakllari bo'lib va shu tahlilda ular mantiqiy mazmunga ham egadirlar.*** Kategoriyalarning mantiqiy mazmuni deganda inson tafakkuri hodisalarining mohiyatiga kirib borishi, uning chuqurlashuvi darajasi ko'zda tutiladi.

Kategoriyalar obyektiv dunyoning eng umumiy va muhim tomonlarini ifodalabgina qolmay, bilishning pog'onalari va tayanch nuqtasi hisoblanadilar. Ularni bilib borish orqali insonning nazariy va amaliy faoliyati uchun muhim bo'lgan dunyodagi narsa hodisalarning eng umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Falsafiy kategoriyalar insonning bilish faoliyati natijasida dunyoni o'zlashtirishda erishgan yutuqlarini ifodalaydi. Falsafiy kategoriyalarda inson tafakkurining mazmundorligi va etukligi hamda tashqi olamni bilishdagi katta muvaffaqiyatlari o'z ifodasini topgan.

Inson ongida tabiatning in'ikos etishi qandaydir qotib qolgan, voqelikning o'lik nushasi emas, balki narsalar mohiyatiga chuqur kirib borishning murakkab dialektik jarayonidan iborat. Bu jarayon o'zining ichki mantiqqa ega bo'lib, bu mantiq nisbiy mustaqillikka ega. Bilishning ichki mantiqni bilish tafakkurning ijodiy faolligini, harakat qilish va

rivojlanish jarayonining obyektiv dunyoga nisbatan murakkab munosabatini chuqur tushunishga yordam beradi. Kategoriyalar mazmun jihatdan tashqi olamning qonuniyatlariga mos keladilar, lekin o'zlarining mavjudlik shakllariga qarab farq qiladilar.

Falsafiy kategoriyalar – o'z manbai, mazmuni jihatdan obyektivdir, lekin shakl jihatdan – subyektivdir. Agar narsalar va ularning taraqqiyot qonunlari moddiy bo'lib, inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda obyektiv ravishda mavjud ekan, tafakkur kategoriyalari ma'naviy bo'lib, faqat kishilar miyasidagina mavjuddir. Moddiylik va ma'naviylik ikkalasi bir narsa emas. Kategoriyalarning obyektiv manbai real ravishda bo'lsa ham, ular inson fikrining shakllari bo'lgani uchun, uni sur'atga olish, qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin emas. Mantiq qonunlari, obyektiv narsaning kishi subyektiv ongida in'ikos etishidir.

***Uchinchidan. Kategoriyalar ilmiy bilishda muhim metodologik rolni bajaradilar.*** Obyektiv dunyo hodisalarning eng umumiy qonunlari harakatini o'rganib, falsafa kategoriyalari, bir tomondan, narsalarning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishga yordam beradilar, ikkinchi tomondan, obyektiv dunyodagi narsa va hodisalar haqidagi yangi bilimlar olishga va to'plashga sababchi bo'ladilar.

Fanning hamma boshqa sohalarida bo'lgani singari, bilish nazariyasida ham dialektik tarzda fikr yurgizmoq kerak, ya'ni bilishimizni tayyor va o'zgarmas bilish deb faraz qilmasdan, balki bilishning bilmaslikdan qay tariqa yuzaga kelishini, mukammal va aniq bo'lmagan bilishning qay tariqa mukammalroq va anikroq bo'la borishini tekshirib ko'rmoq kerak. Falsafiy kategoriyalar – ilmiy bilish metodologiyasi, ma'lum narsadan noma'lum narsaga o'tishining natijalarini izlab topish usulidir, ular tashqi olamdagi narsa va hodisalarni to'g'ri aks ettirganliklari hamda ularni o'zaro bog'liq va rivojlanishda deb bilganliklari uchun bilish jarayonining eng umumiy metodi rolini bajaradi.

Kategoriyalar mavjud narsalar haqidagina emas, balki kelajakda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan narsalar haqida ham axborot beradi. Ular hozirgi vaqtda qanday holdaligini tushushishga yordam beribgina qolmay, balki kelgusida ularning o'zgarish va rivojlanish yo'nalishlarini ham ko'rsatadi. Shu asosda ular yangi bilimlarni egallash manbai bo'lib xizmat qiladi. Bularning hammasi falsafa kategoriyalari o'zlarining gnoseologik tabiatiga ko'ra bevosita amaliyotiga aylanish tamoyiliga ega ekanligini isbot qiladi.

***To'rtinchidan. Falsafiy kategoriyalarining shakllanishi va rivojlanishi asosida inson moddiy-hissiy faoliyatining yig'indisi bo'lgan***

**amaliyot yotadi.** Shuning uchun ham falsafa kategoriyalari ijtimoiy amaliyot mahsuli hisoblanadi. Bu erda inson nazariy va amaliy faoliyatining birligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Moddiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonida inson subyektiv sifatida tashqi olamdagi narsalarga nisbatan o'z faoliyatining obyektlari sifatida munosabatda bo'ladi. Subyekt bilan obyekt o'rtasidagi munosabatning o'zaro ta'siri jarayonida mantiqiy kategoriyalar vujudga keladi. Tashqi dunyoning qonuniyatlari tafakkur shaklida aks etishi ham amaliyot asosida yuz beradi. Inson amaliyoti mantiq kategoriyalari orqali olingan bilimlar haqiqiylikini tekshirib ko'radi. Shunday qilib, tafakkurimiz mazmunining obyektivligi, tafakkur qonunlariga mos kelishi amaliyot asosida bo'ladi va uning yordamida isbotlanadi.

Falsafiy kategoriyalarning bu belgilari ma'lum darajada aniq fanlar kategoriyalariga ham xosdir. Aniq fanlarning asosiy tushunchalari ham obyektiv dunyodagi hodisalar harakatining qonuniyatlarini aks ettiradi, ular narsalarning ideal bo'lganligi uchun bilish va amaliyot taraqqiyotiga yordam beradi. Shuning uchun ham falsafiy kategoriyalar alohida fanlar kategoriyalari bilan uzviy aloqadadir. Ammo falsafiy kategoriyalarni xususiy fanlar kategoriyalari bilan ayniylashtirish yoki xususiy fanlar kategoriyalari mazmunini dialektik kategoriyalardan keltirib chiqarish mumkin emas.

Aniq fanlar kategoriyalaridan farqli o'laroq, falsafiy kategoriyalar tashqi dunyoning eng umumiy qonunlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham ulardan materiya harakatining muayyan shaklini o'rganishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Bundan tashqari, dialektika kategoriyalarini bilishning o'zi bizga obyektiv dunyodagi barcha hodisalarni tushunishimiz uchun imkon tug'diradi, degan ma'no kelib chiqmaydi.

Falsafiy kategoriyalar ayni bir vaqtda tabiatga ham, jamiyatga ham, tafakkurga ham tegishli bo'lgan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalar harakatining eng umumiy qonuniyatlari va xususiyatlarini ifodalaydi. Biroq ular tabiat, jamiyat hodisalari va tafakkurga xos bo'lgan ayrim xususiy bog'lanishlarni qamrab olmaydi. Bu aloqalar xususiy fanlar, kategoriyalarida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun obyektiv dunyo hodisalari rivojlanishining eng umumiy qonunlarini bilish uchun aniq fanlar kategoriyalaridan foydalanish lozim. Buning uchun aniq fanlar kategoriyalari orqali dialektika kategoriyalari mazmunini ochish zarur. O'z navbatida, falsafiy kategoriyalar aniq fanlar barcha kategoriyalarini o'zida qamrab olishi zarur. Bu dialektik birlik falsafa fani hamda xususiy fanlarning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

## 2. Kategoriyalarning tizimi (sistemi) va ularning olamni anglashdagi ahamiyati

Falsafiy kategoriyalar o'zining xilma-xilligi bilan ifodalanadi. Ularning yordamida kishilar ongida narsa va hodisalarning eng umumiy tomonlari, aloqadorligi, tuzilishi va sababiyatchiligi (determinatsiyasi) aks ettiriladi.

Kategoriyalarni shartli ravishda uch turqumga ajratsa bo'ladi.

**1. Voqelikning eng umumiy aloqadorligini, aks ettiradigan kategoriyalar. Mazkur turqumga – yakkalik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa, qonuniyat kategoriyalari kiradi.**

**Yakkalik**– alohida sifat va miqdor aniqligiga ega bo'lgan narsa, hodisa va jarayondir.

**Umumiylik** deganda, obyektiv reallikning barcha yoki bir qancha narsa yoki hodisalardagi obyektiv mavjud bo'lgan tomonlar, hossalari va belgilarning majmui, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlarning o'xshashligi tushuniladi.

Xususiylik shunday narsa yoki hodisalar guruhidirki, ular ma'lum ma'noda umumiy bo'lsa-da, lekin undan ham umumiyroq bo'lgan boshqa bir guruhga kiradi va bu guruhda u alohidalik yoki yakkalikdir, butunning qismidir. Xususiylik narsa yoki hodisalarning shunday doirasiki, bunda ular ma'lum bir munosabatda umumiy, boshqasida esa yakkalik, alohidalikdadir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik bir-biri bilan uzviy bog'langan. Shuning uchun hamularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Har qanday yakkalik ma'lum vaqt va sharoitda xususiylikka va umumiylikka olib keladi. Shuningdek, umumiylik narsa va hodisalarning eng umumiy tomonlari orasidagi aloqalarni o'zida aks ettirib, o'z ko'rinishini faqat yakkalik va xususiylik orqali konkretlashtiradi.

Umumiylik, xususiylik va yakkalik bir butunlikni tashkil qilsada, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega. Yakkalik va xususiyliklar orqali namoyon bo'ladigan umumiylik o'zining muvofiq qiymatiga ega. Shuningdek, har qanday yakkalik, xususiylik umumiylikni ifodalaydigan hossa, belgi va tomonlar bilan birqatorda faqat o'zlariga xos bo'lgan va shu orqali boshqa turdoshlaridan farq qiladigan xususiyatlarga ham ega.

Falsafa tarixida yakkalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalarini bir-biridan ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qilib talqin etuvchi turli xil ta'limotlar mavjud bo'lganligini eslatib o'tish joizdir.



Yakkalik, xususiylik va umumiylikning birligi ular o'rtasida muayyan shart-sharoitlarda vujudga keladigan ma'lum ziddiyatlarning kelib chiqishini, inkor etmaydi. Ularni o'z vaqtida bartaraf etish uchun mazkur xususiyatlar birligini yaxshi anglab olish maqsadga muvofiqdir.

Yakkalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalari orqali inson o'z ongida olamdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikni chuqur va atroflicha bilib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Mohiyat** – hodisaning ichida yashiringan olamning turli-tuman hodisalarida yuz beradigan chuqur nisbiy barqaror aloqalarni ifodalaydigan voqelikning ichki tomonidir.

**Hodisa** esa, mohiyatning u yoki bu holda uchratilishini ifodalovchi voqelikning o'zgaruvchan, harakat xususiyatlariga, belgilariga boy bo'lgan tomonidir.

Narsalarning mohiyatiga singib borish narsa va hodisalar rivojlantirishining qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, qonunlarni bilish kishilarning maqsadga muvofiq faoliyatining asosidir, u hozirda ro'y berayotgan voqealarni chuqurroq tushunishga va ularning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini oldindan ko'ra bilishga yordam beradi.

Mohiyat va hodisa umumiy va xususiy tomonlarga egadir. Bular quyidagilardan iborat: birinchidan, mohiyat olamdagi narsa va hodisalarining ichki aloqasini, hodisalar esa, tashqi aloqalarni ifodalaydi; ikkinchidan, mohiyat narsalarning ichki tomonlarini ifoda etganligi tufayli u sezgilarimiz orqali bevosita idrok etilmaydi. Mohiyat bizdan yashiringan holda mavjud bo'ladi. Hodisa esa, aksincha, inson tomonidan hissiy organlar orqali bevosita idrok qilinadi; uchinchidan, mohiyat doimiyliги va barqarorligi bilan farq qiladigan rivojlanish qonunlarini bilib olish imkoniyatini beradi. Shu ma'noda mohiyat hodisaga nisbatan chuqurroqdir. Hodisa narsalarning har xil tomonlarini ifodalaydi va shu tariqa hodisa mohiyatga nisbatan boyroqdir.

Mohiyat va hodisa bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, har xil aloqadorlikdadir. Har qanday mohiyat u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi, hodisa esa, u yo bu holdagi ko'rinishdir. Shuningdek, mohiyatning o'zgarishi, yoki yo'qolishi hodisaning yo'qolishiga yoki o'zgarishiga olib keladi. Hodisa ba'zi bir vaqtlarda mohiyatni buzib ko'rsatishi mumkin. Shunga qaramasdan narsalar mohiyatini hodisalar orqali bilish mumkin.

Mohiyat va hodisa kategoriyalarining metodologik ahamiyati shundaki, mazkur tushunchalar yordamida olamdagi narsa va hodisalarning mazmun – mohiyatini chuqur anglab olish imkoniyati yaratiladi.

Qonuniyat yakka qonunlar majmuasidan iborat bo‘lib, voqelikdagi narsa va hodisalar jarayonlarining umumiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. Shuning uchun ham tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini bilish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bundan qonuniyat kategoriyasining metodologik ahamiyatini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

**2. Ikkinchi turqumga voqelikning tuzilishini aks ettiruvchi kategoriyalar kiradi.** Bular, mazmun va shakl, butun va bo‘lak, struktura, elementdan iboratdir.

**Mazmun**– muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o‘zgarishlarning majmuidan iborat.

**Shakl** esa mazmuni ifodalash usuli, tashkil etuvchisidir. Masalan, atomning mazmuni uni tashkil etgan elementar zarrachalar va ularning harakatidan, atomning shakli esa bu elementar zarrachalarning joylashish tartibi va tuzilmasidan iborat.

Olamdagi har bir narsa va hodisada mazmun bilan shakl ajralmas birlikda bo‘ladi. Mazmunga ega bo‘lib, shaklga ega bo‘lmaydigan yoki shaklga ega bo‘lib, mazmunga ega bo‘lmaydigan hodisalar yo‘q. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratish mumkin emas.

Mazmun bilan shakl birligida mazmun hal qiluvchi, asosiydir. Mazmun shaklni belgilaydi. Oldin mazmun, so‘ngra shakl o‘zgaradi. Shunday bo‘lsada shakl nisbiy mustaqilikka ega bo‘lib, mazmun rivojlanishiga faol ta’sir etadi.

Mazmun va shaklning birligi ular orasidagi ziddiyatni mustasno etmaydi. Narsa va hodisalarni ilgarilab borishi mazmun va shakl bir-biriga mos holdagina yuz berishi mumkin. Shuning uchun mazmun va shakl o‘rtasida sodir bo‘lgan ziddiyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish ilmiy bilish va amaliyotda muhim rol o‘ynaydi.

**Element** (tarkibiy qism) – bu o‘zaro aloqada bo‘ladigan bir butun tizimni tashkil etuvchi narsa va hodisalarning tarkibiy qismi. Tuzilish (struktura) esa butunni tashkil qilgan elementlarning bog‘lanish usuli, qonuni, butun doirasidagi munosabatlar tizimidir.

**Tuzilish** tushunchasi tizimning turg‘unligini, turli tashqi va ichki jarayonlarga nisbatan buzilmasligini ifodalaydi.

Element va tuzilish bir-biri bilan uzviy bog‘liqliqda bo‘lib, birini taqozo qiladi. Butunni tashkil qilgan elementlarning bog‘lanish

xususiyati, ularning butun doirasidagi munosabatlar sistemasi shu elementlarning tabiatiga, ularning sifati va miqdoriga bog'liq, elementlarning sifati, xususiyati, o'rni, roli va ahamiyati esa ular ishtirok etayotgan bog'lanishlar sistemasi, ya'ni butunning tuzilishiga bog'liq. Butunni tashkil qilgan u yoki bu elementlarning o'zgarish strukturaning o'zgarishiga sabab bo'ladi, yangi strukturaning paydo bo'lishi esa uning tarkibiga kirgan elementlarda tegishli o'zgartishlarga olib keladi. Ularda yangi xususiyat, yangi sifat va miqdor ko'rinishlari paydo bo'ladi.

Element va struktura qarama-qarshiliklarning birligini tashkil etadi. Elementlar doimo o'zaro ta'sirda bo'lib, o'zgarib turadi, struktura esa turg'unlikka, o'zgarmaslikka intiladi. Bu ziddiyat taraqqiyotning ma'lum bosqinchida o'zgargan elementlarga mavjud struktura mos kelib qolganda eski tuzilishning buzilishi va yangi strukturaning tashkil topishi bilan barham topadi. Yangi strukturaning tashkil topishi narsalarning yangi sifat holatiga, rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishini anglatadi. Ilmiy bilish taraqqiyotining hozirgi bosqichi tuzilishi va elementi bilan bir qatorda butun va bo'lak kategoriyalari ham falsafiy tushunchalar maqomiga ega bo'ldi. Butunlik moddiy olamdagi narsa va hodisalarning eng umumiy hossasidir. Har qanday materiyaning bo'lagini olmaylik, u o'ziga xos butundir. Shu bilan birga, u katta butunning bo'lagidir.

Har qanday butun ma'lum bo'laqlar soniga ega bo'lib, ularning bo'linishi sifat jihatdan yangi bo'g'inga o'tishni bildiradi. Har bir o'zaro bog'liq bo'laqlardan tuzilgan borliq butundir. Butun turli-tumanlikning birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bo'laqlarning turli-tumanligi, ularning tafovutlari, butunning sifat xususiyati bo'laqlarining oddiy yigindisi, ularning tashqi birlashmasi emas, balki bo'laqlarning ichki o'zaro ta'siri va bir-biriga o'tishini ifodalaydi.

**Butun va bo'lak** kategoriyalari hodisalarni, voqelikning murakkab darajalarini o'rganishda katta metodologik rol o'ynaydi.

Struktura va element, butun va bo'lak kategoriyalari turli sohalarida kengtarqalgan sistemali-strukturali tadqiqotlarda keng foydalaniladi.

**3. Uchinchi turqumga voqelikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi sababiyat (determinizm)ni aks ettiruvchi kategoriyalar** kiradi, ya'ni sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik.

**Yakkalik, xususiylik va umumiylik** o'rtasidagi dialektik munosabatlarni yanada chuqurroq bilish zarurligi obyektiv olamdagi sababiy bog'lanishlar tabiatini o'rganishni taqozo qiladi.

**Sababiyat** – obyektiv olamdagi hodisalar umumiy bog‘lanishining alohida ko‘rinishidir. Sababiyat hodisalar o‘rtasidagi shunday ichki aloqadorlikki, unda har doim bir hodisa mavjud bo‘lar ekan, uning ketidan muqarrar ravishda ikkinchisi ham keladi.

**Sabab** – bu o‘ziga muvofiq keladigan biror natija keltirib chiqaruvchidir.

**Oqibat** – sabab amalining natijasi.

Sabab biror ta’sirning bog‘lanishi bo‘lib, u ma’lum bir natija, ya’ni oqibatni keltirib chiqaradi.

Sabab-oqibat bog‘lanishlari quyidagi tomonlari bilan tavsiflanadi: 1) hodisalarning sabab-oqibat aloqadorligi umumiy xarakterga ega. Dunyoda hech qanday hodisa sababsiz yuz bermaydi; 2) sabab va oqibat kategoriyalari yakka, alohida hodisalarning yuz berishi ildizlarini ochib beradi. Sababiyat voqealikdagi hodisa jarayonlarining kelib chiqishini aniqlaydigan genetik bog‘lanishdir; 3) sabab-oqibat bog‘lanishlari ma’lum vaqt va sharoit mavjud bo‘lgandagina boshqa hodisani keltirib chiqaradi; 4) sabab vaqt nuqtai nazaridan, oqibatdan oldin keladi va uni keltirib chiqaradi; 5) sabab-oqibat bog‘lanishlari zaruriy ravishda aniq bir hodisa-oqibatni keltirib chiqaradi.

Sabab va oqibat bog‘lanishlari turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ularga bosh va ikkinchi darajali, ichki va tashqi, obyektiv va subyektiv va h.k. sabablar kiradi. Sabablarning mazkur shakllari haqida ibn Sinoning «Tib qonunlari» asarida ham ma’lumotlar berilgan.

Sabab va oqibat bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, har xil shakllarda namoyon bo‘ladi: bitta sabab bir qancha oqibatni keltirib chiqara oladi; bitta oqibat bir kancha sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin; sabab va oqibat bir-biriga o‘tib, o‘rinlarini almashtab turishlari orqali ham ifodalanishi mumkin.

Narsa va hodisalarning sababiy munosabatlarini falsafiy tahlil qilish ularning mohiyatini yanada chuqurroq bilish va taraqqiyot qonunlarini o‘rganish imkoniyatini beradi. Sababiyat har qanday qonunning ajralmas belgilaridan biridir.

Sabab va oqibat kategoriyalari fanni yangidan-yangi turqumdagi sababiy aloqalar va ular asosida amal qiladigan qonuniyatlarni bilishga undaydi. Obyektiv dunyo qonuniyatlarini bilish esa insonning ongli, amaliy va ilmiy-nazariy faoliyatining asosiy maqsadidir.

Zaruriyat va tasodif kategoriyalari kishilarning olamdagi narsa va hodisalarga xos bo‘lgan sabab-oqibat bog‘lanishlari haqidagi tasavvurlari yanada chuqurlashishi natijasida shakllanadi.

**Zaruriyat** – narsa, hodisa, jarayonlarning taraqqiyoti bilan aniklanadigan, ichki muhim bog‘lanishlar orqali qonuniy kelib chiqadigan va shuning uchun yuz berishi muqarrar bo‘lgan hodisadir.

Zaruriyatning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) zaruriyatning sababi o‘zida bo‘lib, u mazkur hodisa yoki jarayonlarning ichki tabiatidan kelib chiqadi; 2) zaruriyat voqelikdagi narsa yoki hodisalarning chuqur, muhim, takrorlanib turadigan ichki bog‘lanishlaridan kelib chiqadi; 3) zaruriyat oldingi taraqqiyot orqali qonuniy tayyorlanadi; 4) zaruriyat muqarrarlik xususiyatiga ega bo‘lib, sodir bo‘ladigan jarayonlarni ma’lum yo‘nalishga soladi; 5) zaruriyat umumiy xarakterga ega.

**Tasodif** hodisalar o‘rtasidagi tashqi bog‘lanishlardan hosil bo‘ladi va shuning uchun u noaniqlik majburiy emasligi bilan farqlanadi. Tasodif yuz berishi, yoki yuz bermasligi mumkin bo‘lgan jarayonlarga xosdir.

Tasodif zaruriyatdan quyidagi tomonlari bilan farq qiladi: 1) tasodifning sababi o‘zida emas, balki boshqa narsa yoki hodisalardadir, u ichki emas, balki tashqi sabablardan kelib chiqadi; 2) u voqelikdagi muhim bo‘lmagan ikkinchi darajali bog‘lanishlardan kelib chiqadi; 3) tasodif hodisaning butun taraqqiyoti bo‘lgan jarayonlarning ta’siri natijasida sodir bo‘ladi; 4) tasodif narsalar rivojining yo‘nalishini belgilab bermaydi va shuning uchun u muqarrar emas. Tasodif yuz berishi yoki yuz bermasligi ham mumkin; 5) tasodif tipik bo‘lmagan, individual xarakterga ega.

Zaruriyat va tasodif bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, biri-ikkinchisini taqazo etadi. Zaruriyatdan ajralgan tasodif bo‘lmaganidek, tasodif bilan bog‘liq bo‘lmagan zaruriyat ham mavjud emas. Shuningdek, zaruriyat va tasodifning o‘zaro bog‘liqligi ularning ma’lum shart-sharoitlarda bir-biriga o‘tishi orqali ifodalanadi.

Zaruriyat va tasodif kategoriyalarining metodologik ahamiyati shundaki, ularning mohiyatini bilish olamdagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarga ongli ravishda yondashish imkoniyatini beradi.

**Imkoniyat** hali amalga oshmagan lekin yuzaga chiqishi mumkin bo‘lib voqelikka aylana oladigan hodisadir. Bundan ko‘rinadiki, imkoniyatining voqelikka aylanishini rivojlanish jarayoni ifodalaydi.

**Voqelik** – bu mavjud dunyo, mavjud narsalardir. Voqelik har doim imkoniyatdan kelib chiqadi va o‘z navbatida rivojlanish davomida voqelikka aylanib boradigan yangi dan yangi imkoniyatlarni tug‘diradi, bu jarayon cheksizdir.

Har qanday voqelikning paydo bo'lishi va mavjudligi ma'lum qonuniyatlarning ta'siri bilan belgilanadi. Agar ana shu shart-sharoit buzilsa, u holda, voqelik o'zining zaruriyatlik xususiyatidan mahrum bo'ladi. Imkoniyatning teskarisi – imkoniyatsizlikdir. **Imkoniyatsizlik** obyektiv olam qonunlariga zid bo'lib, unga mos kelmaslikdir. Imkoniyat imkoniyatsizlikdan farq qilib, u ma'lum darajadagi ehtimollikka ega. **Ehtimollik** – imkoniyat rivojlanishining obyektiv darajasi, uning o'lchovidir. Imkoniyat paydo bo'lishi uchun minimal, kamolotga etishi uchun konkret va voqelikka aylanishi uchun mukammal darajadagi ehtimollikka ega bo'lishi shart.

Imkoniyatlar ichki, tashqi, formal, abstrakt va real shakllarda namoyon bo'ladi. Formal imkoniyat deganda obyektiv qonunlarga zid bo'lmasada, voqelikka aylanishi uchun hech qanday shart-sharoitga ega bo'lmagan imkoniyatlar tushuniladi.

Amalga oshishi uchun hali shart-sharoitlar to'la bo'lmagan imkoniyat, abstrakt imkoniyat deyiladi. Abstrakt imkoniyat formal imkoniyatdan to'la bo'lmagan ba'zi bir shart-sharoit mavjulligi bilan-gina farq qiladi.

Real imkoniyat – barcha zarur shart-sharoit mavjud bo'lgan imkoniyatdir.

Formal va abstrakt imkoniyatlar imkoniyatsizlik bilan bir xil emas, chunki ular ham obyektiv borliqda o'zining asosi va zamniga ega. Abstrakt imkoniyat taraqqiyot davomida real imkoniyatga aylanib qolishi mumkin.

Imkoniyat bilan voqelik o'rtasida dialektik bog'lanish bor. Bu bog'lanish, avvalo, imkoniyat va voqelikning bir-biriga o'ib turishi, imkoniyatlarning ma'lum shart-sharoitlarda voqelikka aylanishi, voqelikning esa yangidan-yangi imkoniyatlar yaratishda ifodalangani.

Imkoniyatning voqelikka aylanishi va voqelikning yangidan-yangi real imkoniyatlar yaratishi ziddiyatli jarayon bo'lib, ma'lum vaqt va shart-sharoitlarni talab etadi. Imkoniyat va voqelik kategoriyalari fan va amaliyot uchun katta metodologik ahamiyatga ega.

### **3. Harakatchan, ixcham tushunchalar yordamida olanni anglash – falsafiy tafakkurning muhim xususiyati**

Falsafiy tafakkurlash xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u ixcham, harakatchan, o'zgaruvchan tushunchalardan foydalanish orqali

obyektiv borliq narsa va hodisalar taraqqiyotining qonuniyatlarini inson ongida aks ettiradi.

Malumki, mantiqiy kategoriyalar tabiati haqida gap ketganda, o'zaro zid metafizik va dialektik qarashlar mavjudligi ta'kidlanadi. Metafiziklar kategoriyalarni o'zgar olmaydigan, qotib qolgan tushuncha sifatida talqin qiladilar. Ular kategoriyalarning o'zaro biri ikkinchisiga o'tishi, o'zining ziddiga aylanishi mumkinligini tan olmaydilar.

Kategoriyalarni metafizik tarzda talqin etuvchilardan biri Prudon edi. Iqtisodiy kategoriyalarni ijtimoiy munosabatlarga nisbatan birlamch deb xato talqin qilgan Prudon, ularga abadiy va harakatsiz (o'zgar mas) tushunchalar, deb qarar edi. Haqiqatda esa, iqtisodiy kategoriyalar ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari-ning faqat nazariy ifodasidir, abstraksiyasidir. Ishlab chiqarish taraqqiyotiga mos ravishda ijtimoiy munosabatlar hosil qiladigan kishilarning o'zlari, o'z ishlab chiqarish munosabatlariga muvofiq ravishda tamoyillar, g'oyalar, kategoriyalarni ham yaratadilar. Lekin bu munosabatlar o'zgarar, boshqalarga aylanar ekan, kategoriyalar ham xuddi ular tomonidan ifodalangan munosabatlar kabi abadiy emasdir. Ular o'z mohiyatiga ko'ra o'kinchi va tarixiy mahsulotdir. Metafizikaga qarama-qarshi o'laroq dialektikada mantiqiy kategoriyalar harakatchan, egiluvchan, o'zgaruvchan deb talqin qilinadi. Real borliq narsa va hodisalarning abadiy o'zgarish va rivojlanishini ifodalovchi tushunchalarning har tomonlama, universal ixchamligi dialektikada o'z ifodasini topadi.

Kategoriyalarning ixchamligi nimada ko'rinadi? Bizning fikrimizcha, kategoriyalarning ixchamligi, avvalo, shunda namoyon bo'ladiki, ular o'z mazmuniga ko'ra taraqqiyotda va bir butunlikda bo'lgan narsa va hodisalar orasidagi umumiy bog'lanish va o'zaro aloqadorlikni kayd qiladi va aks ettiradi. Inson tafakkuri mantiqiy narsalar, mantiqning in'ikosi sifatida narsa va hodisalarni jonli va ko'p qirrali tomonlari bilan aks ettirmo'g'i lozim. Bu haqiqatni bilishning yagona yo'lidir.

Har bir kategoriya narsa va hodisalarning alohida tomonini, ular orasidagi ayrim aloqalarni aks ettiradi. Bunda qanday qilib narsalarning alohida tomonlari va aloqalarini eks ettiradigan ayrim kategoriyalar yordamida narsalar va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik haqida yaxlit tasavvur hosil qilinadi? Ma'lumki, umumiy faqat alohida, alohida orqali yashaydi, har qanday alohida (u yoki bu tarzda) umumiydir. Har bir kategoriya da butunning alohida tomonlari aks etadi. Shuning uchun ham biz ayrim alohida kategoriyalar yordamida u yoki bu tarzda narsalarning bir butunligini, ularning umumiy aloqalarini anglaymiz. Ikkinchi

tomondan, har qanday alohida minglab vositalar orqali boshqa jinsdagi alohida narsalar, hodisalar, jarayonlar bilan bog'langan va hokazo. Shuning uchun ham har bir kategoriya, har bir tushuncha qolgan barcha tushunchalar bilan ma'lum bog'liqlikda bo'ladi.

Kategoriyalarning ana shu o'zaro aloqadorligi tufayli narsaning barcha aloqa va vositalarini to'laligicha bilish imkoniyati yaratiladi.

Kategoriya orasidagi aloqadorlik ularning biri ikkinchisiga o'tishini inkor etmaydi. Taraqqiyot dialektikasi shundayki, kategoriya ma'lum munosabatlarda bir-birlariga o'tadilar, o'zgarishga uchraydilar. Zaruriyat tasodifga, tasodif zaruriyatga, imkoniyat voqelikka aylanadi, voqelik esa o'z navbatida yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi va hokazo. Dialektik kategoriyaning o'zgaruvchanligi, ixchamligi mana shunda ham namoyon bo'ladi.

Kategoriyaning biridan ikkinchisiga o'tishi real borlikda asoslanadi. Xuddi narsa va hodisalar o'z taraqqiyotlarida bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tganlari singari mantiqiy kategoriya ham o'zaro bir-birlariga aylanish xususiyatiga egadirlar. Shuning uchun ham ilmiy tahlil narsalar orasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni aniqlash va qayd etishnigina emas, balki ularning o'zaro biri ikkinchisiga aylanishini ham aniqlashni talab etadi.

Kategoriyaning biri ikkinchiga o'tishi dialektikaning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy tafakkur hamda amaliy faoliyat jarayonida kategoriyaning o'zaro biri ikkinchisiga o'tishi dialektikasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Busiz obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning doimo o'zgarib turuvchi o'zaro aloqalarini to'g'ri aks ettirish mumkin emas.

Kategoriya turlicha aloqa, munosabatlar tufayli o'zgarishga uchrar ekan, ular relyativ, nisbiy xarakterga ega bo'ladi. Lekin kategoriya relyativligini mutlaqlashtirmaslik lozim. Obyektiv dialektika relyativlikda mutlaqlik bor deydi. Subyektivizm va sofistika relyativlik faqat nisbiydir, deydi va mutlaqlikni istisno qiladi.

Kategoriya doimo taraqqiy etib, boyib boradi, ularning o'zgaruvchanligi shunda ham namoyon bo'ladi. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikdagina bo'lib qolmay, ular doimo uzluksiz o'zgarish va taraqqiyotda hamdir. Shuning uchun ham real narsalarning real harakatlarini ifodalovchi tushunchalar ilmiy tafakkur va ijtimoiy amaliyot yutuqlari asosida muayyan o'zgarishga uchraydilar, uzluksiz taraqqiy etib mazmunan boyib boradilar.



Metafizik fikr yurituvchi kishilar tushunchalar dialektikasi, ularning o'zgarishi va taraqqiyotini tushunishdan o'zgarishi. Ularning fikricha, kategoriyalar narsalar harakatini, ularning harakatchanligini, o'zgaruvchanligini ifodalashi mumkin emas. Tushunchalar orqali fikr yuritish go'yoki qotib qolgan, o'lik, obrazlar vositasida fikrlash demak. Vaholanki, tushunchalar qotib qolgan, o'zgarmas, jonsiz bo'lganlarida edi, ular fan va amaliyot uchun biron-bir tarzda ahamiyatga ega bo'lmagan bo'lar edi. Kategoriyalarning ilmiy bilish va ijtimoiy amaliyot uchun ahamiyati shundan iboratki, ular narsalarning «jonli» dialektikasini, ularning uzluksiz o'zgarishi va rivojlanishini to'g'ri aks ettira oladilar. Buni atoqli nemis faylasufi Gegel atroficha asoslab bergan edi.

Hodisalar va ularning mavjudlik shart-sharoitining rivojlanishi, o'zgarishi asosida kategoriyalar ham taraqqiy etadi va o'zgarib boradi. Kategoriyalarning o'zgaruvchanligi obyektiv dunyo harakatidan, o'zgaruvchanligidan kelib chiqadi. Ilmiy bilimlarning miqyosi kengayib borishi ham dialektika kategoriyalari taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy bilimlarning o'sib borishi insonga tabiat va jamiyat qonuniyatlarini chuqurroq bilishga, bizni o'rab turgan real voqealardagi turli hodisalar o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar xarakteri to'g'risidagi ilgarigi tasavvurlarni aniqlashga yordam beradi. Fan yutuqlari, bir tomondan, eski tushuncha, kategoriyalarga aniqlik kiritsa, ikkinchi tomondan, yangi tushuncha, kategoriyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu tariqa fan taraqqiyotidagi yutuqlar asosida ilgari noma'lum bo'lgan yangi kategoriyalar shakllanadi. Misol tariqasida hozirgi ilmiy-texnika inqilobining yutuqlari bilan bog'liq bo'lgan bir qator kategoriyalarni ko'rsatish mumkin.

Shu narsa shubhasizki, fanlar taraqqiyoti jarayonida kelgusida materiya taraqqiyotining biz uchun noma'lum hisoblangan sharoitlar qonuniyatini aks ettiruvchi kategoriyalar paydo bo'laveradi, natijada biz kategoriyalarning ixchamligi, o'zgaruvchanligi to'g'risida qo'shimcha materialga ega bo'laveramiz. Yangi kategoriyalarning paydo bo'lishi bilish jarayonining borishi bilan belgilanadi. Bilish jarayonida inson narsalar mohiyatiga qanchalik chuqurroq kirib borgan sari, ularga xos yangi tomonlar va aloqalarni aniqlay boradiki, bularning hammasi mavjud kategoriyalar bilan sig'ishmaydi va yangi kategoriyalar ishlab chiqilishini talab qiladi.

Shunday qilib, narsalarning o'z taraqqiyotida mantiqqa mos ravishda kategoriyalar ham rivojlanib, boyib boradi. Shu munosabat

bilan savol tug'iladi: tushunchalar harakatining ichki manbai, omili nimadan iborat? Kategoriyalar obyektiv borliq ziddiyatlarini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun ham ular ziddiyatli xususiyatga ega. Ana shu ziddiyatlarning rivojlanishi kategoriyalar dialektik harakatining manbai hisoblanadi. Kategoriyalar eng umumiy tushunchalar sifatida inson fikrining shakllaridir. Ana shu ma'noda ular subyektivdir. Lekin ularda dunyodagi narsa va hodisalarning o'zaro real mavjud aloqa va munosabatlari aks etadi, shunga ko'ra ular obyektiv mazmunga ega. Mavjud hol obyektivlik va subyektivlikning dialektik birligidan iborat bo'lgan mantiqiy kategoriyalarning ziddiyatli tabiatidan dalolat beradi. Inson tushunchalari mavhum holda, ajratib olingan holda subyektivdir, ammo umuman olganda, jarayonda, pirovardida, maylida, manbaida obyektivdir.

Lekin gap bundagina emas. Inson tafakkurining subyektiv mantiqiy moddiy, obyektiv dunyo taraqqiyoti qonunlarini aks ettirishdan iborat. Kategoriyalar mazkur aks ettirishning shakllaridir. Moddiy dunyodagi narsa va hodisalar singari mantiq kategoriyalari ham bir kategoriyadan boshqa bir kategoriyaning elementlarini aniqlash orqali harakatlanadi, ular qarama-qarshi tomonlarga bo'linadi. Kategoriyalardagi bunday tartibdagi qarama-qarshi tomonlarga bo'linishni, ziddiyatlilik tomonlari ayniqsa, yaqqol ifodalangan juft kategoriyalar misolidagina emas, har bir alohida olingan kategoriya misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, harakat o'zida uzluksizlik, uzluksizlik, makon esa mutlaqlilik, nisbiylik va shu ka bi qarama-qarshi jihatlar birligini qamrab oladi.

Har bir narsa, hodisa qarama-qarshiliklar birligi, yig'indi-sidan iborat. Shuning uchun ham dialektika kategoriyalarida obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning ziddiyatli tomonlari, ularning birligi aks etadi.

Kategoriyalarning ziddiyatliligi ularning qutbligida, ichki qarama-qarshi tomonni ifodalaganligida, ayniqsa, aniq ko'rinadi. Mohiyat va hodisa, mazmun va shakl, imkoniyat va voqelik hamda boshqalar obyektiv borliq, narsa va hodisalardagi tub qarama-qarshi tomonlar munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Barcha mantiqiy kategoriyalar qutbiy qarama-qarshiliklarda harakatlanadi. Qutbiylik barcha kategoriyalarga xos umumiy xarakterli tomondir. Tabiat ham konkret ham abstrakt, ham hodisa, ham mohiyatdir, ham lahza, ham munosabatdir. Demak, tabiat va uning taraqqiyoti qonunlarini ifodalovchi mantiqiy kategoriyalar bir vaqtning o'zida ham konkret, ham abstrakt bo'ladi, dialektik kategoriyalarning ixchamligi ana shunda namoyon bo'ladi.

Konkretlik xilma-xil sifat va xususiyatlarga ega bo'lgan narsa va hodisalarning bir butunligida, undagi hamma qismlar va tomonlarning o'zaro munosabatlaridadir. Har bir narsa ko'pdan-ko'p tomon va xususiyatlarga ega bo'lib, xilma-xil ko'rinishda bir butunlik sifatida, namoyon bo'ladi, undagi hamma tomonlar o'zaro bir-biri bilan chambarchas aloqada bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi.

Abstraktlik uning boshqa tomonlari va munosabatlaridan ajratib olingan butunning bo'lagidir. Abstraksiya shunday vositaki, uning yordamida narsa va hodisalarni konkretlikda, boshqa narsa va hodisalar bilan aloqa va munosabatda aks ettirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan, bilish jarayonida turli-tuman konkretlikning qandaydir alohida, eng muhim tomonlari ajratib olinadi. Konkretlikdan abstraktlikka o'tishdan maqsad konkretlikni yaxshiroq, chuqurroq, voqelikka mos keladigan «voqelik bilan aynan bir» tarzda ifodalashdan iborat.

Konkretlik va abstraktlikning birligiga yaqqol misol tafakkur, abstraksiyaning mahsulii. Biz turli narsalarni materiya tushunchasi bilan qamrab olar ekanmiz, narsalar orasidagi sifat farqlarini hisobga olmaymiz. Materiya shu (biz aytgan) holicha, muayyan mavjud materiyalardan farqli o'laroq, qandaydir hissiy mavjud emas. Mazkur ma'noda materiya mavhum tushuncha sifatida ifodalanadi. Lekin materiyani falsafiy tushunchasida borliqdagi narsa va hodisalarning real xususiyatlari, ya'ni ularning muayyan sifat ko'rinishidagi obyektiv mavjudligi aks etadi, ana shunday mazkur tushuncha bir vaqtning o'zida konkretlik sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga o'xshash falsafaning har bir kategoriyasi ham konkret, ham mavhumdir. Harakat umuman, sababiyat umuman, mohiyat umuman abstraksiya demak. Lekin ular harakatning konkret shakllaridan, sababiyatning konkret turlaridan, konkret mohiyatidan abstraktlash-tirilgan holda olingani uchun ham bu kategoriyalar to'laligicha konkretidir.

Kategoriyalarni tahlil qilishda ularning ziddiyatliligini ifodalash bilangina chegaralanish mumkin emas, balki ikki qarama-qarshi tomon kurashi natijasida ularning yangi kategoriya hosil qilishini aniqlash zarur, chunki bu narsa mantiqiy tushunchalar dialektik harakatining mohiyatini tashkil etadi.

Tushunchalardan foydalanish san'ati kategoriyalarning ziddiyatli tabiatida narsalarning o'zida mavjud real ziddiyatlarni ko'ra bilishni talab etadi. Agar tushuncha va kategoriyalar narsalarning ideal tarzidagi antinomialari bo'lmasa, haqiqatni ifodalay olmaydi, o'z-o'zidan ma'lumki, nazariya sohasida hayotda har qadamda uchrab turadigan

ziddiyatlardan xoli bo'lish mumkin emas. U holda bunday nazariya ideallashtirilgan borliq bo'lur edi. Haqiqiy fanning vazifasi hayotiy ziddiyatlarni sezmaslik emas, balki tushuncha va kategoriyalar harakati orqali voqelik ziddiyatdani taraqqiyotini hamda ularni bartaraf etish choralarni aniqlashdan iborat.

Shunday qilib, kategoriyalarning ixchamligi (o'zgaruvchanligi) quyidagi qoidada namoyon bo'ladi. *Birinchi*dan, kategoriyalar o'zining majmui bilan moddiy dunyodagi narsa va hodisalar aloqalarining eng umumiy shakllarini o'zida aks etgiradi. *Ikkinchi*dan, kategoriyalar o'zaro biri ikkinchisiga o'tadi, yoki biri ikkinchisidan hosilbo'ladi. *Uchinchi*dan, dialektika kategoriyalari narsa va hodisalar hamda bilish darajasining rivojlanishi mantiqiga bog'liq holda ham miqdor, ham sifat jihatdan boyiydi, taraqqiy etadi. *To'rtinchi*dan, kategoriyalar narsa va hodisalarning ziddiyatli tomonlari ularning dialektik birligida aks etadi.

Falsafiy adabiyotlarda, ko'pincha kategoriyalar ixchamligi masalasi ularning o'zgarishi va taraqqiyoti sifatida yondashiladi. Kategoriyalarning o'zgarishi va taraqqiyoti, shubhasiz, ular ixchamligining yorqin ko'rinishlaridan biridir. Lekin bu bilangina chegaralanish mumkin emas, balki kategoriyalar ixchamligini ochib beradigan hamma tomonlarni hisobga olish zarur.

Kategoriyalarning ixchamligi ilmiy bilishda katta ahamiyatga ega. Narsa va hodisalar ichki ziddiyatli bo'lib, doimo harakatda, o'zgarishda, taraqqiyotda ekan, ana shuning natijasida ular o'zlarining qarama-qarshi tomonlariga o'tganlari uchun ham fan kategoriyalarida narsalarning shu obyektiv tomonlarini to'g'ri qayd eta bilish va aks ettira olish juda zarur.

Kategoriyalarning ixchamligini hisobga olish ilmiy tafakkur (bilish) dagi bir yoqlamalikka, uzoqni ko'ra bilmaslikka qarshi kurashish imkonini beradi, olimlarni narsalar mantiqiga mos keladigan qilib fikrlashga o'rgatadi.

### Takrorlash uchun savollar

1. Falsafiy kategoriyalarning xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Kategoriyalarning tizimi (sistemi) va ularning turqumiga kiradigan tushunchalar haqida so'zlab bering.
3. Kategoriyalarning ixchamligi, egiluvchanligi, harakatchanligi nimalarda namoyon bo'ladi?
4. Qonun va kategoriyalarning umumiyliigi va ular o'rtasidagi farq haqida nimalar deya olasiz?

## **Tayanch tushunchalar**

**Kategoriya** – falsafa fanining asosiy tushunchalari.

**Kategoriyalar sistemasi** – falsafiy tushunchalar tizimi.

**Kategoriyalarning ixchamligi** – falsafiy tushunchalarning harakatda, bir-biriga o‘tib turishi, narsalarning barcha tomonlari, ularning ziddiyatlarini aks etishining ifodasi.

**Kategoriyalarning metodologik roli** – falsafiy tushunchalarning olamni anglashda, fan va inson amaliy faoliyatidagi ahamiyati.

### **Adabiyotlar:**

1. Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma’naviy kamolot. – T.: «Mehnat», 2000, 25–57-betlar.
2. Rustamova M. YOshlarda yangicha tafakkur madaniyatini shakllantirishning falsafiy jihatlari. – T.: «Mehnat», 2000, 3–17-betlar.

---

---

## BESHINCHI BO‘LIM. BILISH NAZARIYASI

### XII MAVZU: OLAMNI BILISH NAZARIYASI

#### Reja:

1. Bilishning obykti va subyekti.
2. Bilishning bosqichlari. Hissiy va mantiqiy bilish.
3. Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning obyektivligi. Nisbiy va mutlaq haqiqat.
4. Haqiqatning mezoni.

#### 1. Bilish – voqelikning in’ikosi. Bilishning obykti va subyekti

Dunyoni bilish masalasi doimo falsafa fanining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Qadimgi faylasuflar ham dunyoni bilish mumkinligini e’tirof qilganlar. Masalan, atomistik nazariyaning asoschilaridan biri bo‘lgan Demokrit olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta’kidlaydi. U bilish jarayonida hissiy organlarimiz va tafakkur rolini oddiy va sodda holda ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlar Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqalar ham o‘z asarlarida dunyoni bilishning, bilish jarayonida hissiy organlar bilan aqlning roli haqida qimmatbaho fikrlarni olg‘a suradilar.

Bilish nazariyasining rivojlanish tarixida XVII–XVIII asr faylasuflari muhim o‘rin tutadi. Ular agnostitsizm, skeptitsizmrni qattiq tanqid qilib, olamni bilish mumkinligini ta’kidlaydilar. Masalan, ingliz faylasufi Bekon ta’limoticha, bilish jyarayoni fan va amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishi va shularga bevosita xizmat qilishi kerak. Bekon bilish nazariyasida empirik edi. U, bilish sezishdan boshlanadi deydi hamda bilishning manbai tajriba ekanligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Uning fikricha, obyektiv mavjudlik to‘g‘risidagi bilimlar sezgilarimiz orqali olingan dalillar tufayligina tafakkur yordamida to‘ldiriladi.

Fransuz faylasufi Dekart esa, bilishning birdan-bir manbai tafakkur deb, sezgi organlarimiz va ularning yordamida olinadigan

ma'lumotlarga shubha bilan qaraydi. Uning ta'limoticha, kishilar bilimining haqiqatligi tajriba bilan emas, balki aql ko'zi bilan tekshiriladi. Dekartning bilish nazariyasida sezgilar roli kamsitib ko'rsatiladi.

Dekartning vatandoshlari Didro, Golbax, Gelvetsiyalar dunyoni bilish jarayonida sezgilarimiz bilan tafakkurning rolini tan olsalarda, ulaming o'zaro munosabatlarini to'la-to'kis ochib bera olmadilar. Shuningdek, bilish jarayonida amaliyotning rolini to'g'ri baholay olmadilar.

Ma'lumki, obyektiv dunyo, uning predmet va hodisalari bilishning birdan-bir manbaini tashkil etadi. Shunday bo'lsada, ayrim faylasuflar va din ta'limotida bilishning manbai sifatida qandaydir mistik, go'yo insondan tashqari mavjud bo'lgan ong («mutlaq g'oya», «olam ruhi» va hokazolar) e'tirof etiladi. Ular nuqtai nazarida inson tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarining mohiyatini bilishga qodir emas, u faqat iloh ijodining natijalarini qayd qilishga va turkumlarga ajratishgagina qodir.

Agnostitsizmning yirik vakillari ingliz faylasufi David Yum bilan nemis faylasufi Immanuel Kantdir. Yumning fikricha, inson o'z sezgilari chegarasidan tashqariga chiqq olmaydi, u faqat o'z sezgilarinigina bila oladi. Real voqelikni inson aslo bila olmaydi. Kant esa, Yumga qarama-qarshi o'laroq, inson ongi va sezgilaridan tashqarida obyektiv olam bor deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu obyektiv olamda aslo bilib bo'lmaydigan «narsa o'zida» bor. Inson aqli o'z mohiyati jihatidan cheklangan bo'lib «narsa o'zida»ni bila olmaydi. Kant inson bilishi mumkin, bo'lgan hodisalar olamini «biz uchun bo'lgan narsalar» deb, uni inson aqli bilan, fan vositasi bilan bilishi mumkin deydi. «Biz uchun bo'lgan narsa» bilan «narsa o'zida» butunlay bir-biriga bog'liq emas, – deb tushuntiradi Kant, – «narsa o'zida»sezgi a'zolarimizga tartibsiz, aralash holda ta'sir etishi bilan bilish mumkin bo'lgan hodisalar yuzaga keladi, inson esa uni o'zining apriori (azaldan ongga xos bo'lgan) tushunchalari bilan tartibga soladi. Umuman, Kantning bilish nazariyasi o'z mohiyat e'tibori bilan inson aqlining bilish imkoniyatlarini, fanning rivojlanish istiqbollari inkor etishga qaratilgan. Bu xilda inson aqlining bilish imkoniyatlarini cheklash idealizmning hamma ko'rinishlariga xosdir.

XIX asr subyektiv idealizmining vakillari bo'lgan maxchilar ham boshqa subyektiv idealistlar singari dunyoni bilish mumkinligini inkor etadilar, bizning sezgilarimiz aniq, to'la in'ikos hosil qilishga ishonmaydilar.

Insoniyatning ijtimoiy amaliyoti va ilmiy bilish taraqqiyotining ilgarilab borishi bilimni chegaralab qo'yuvchi agnostitsizmni puchga chiqarmoqda. Inson o'z aqli bilan olam sirlarini bilishi mumkin ekanligini ayniqsa, hozirgi zamon fani yutuqlari isbotlamoqda. Masalan, hozirgi zamon tabiat fanlari, ayniqsa, fizika fani atom tabiatini tuzilishini va xususiyatlarini o'rganish sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Atomli parchalash, atom ichki energiyasidan foydalanish, atom yadro zarrachalarining bir-biriga bog'liqligi, umuman mikroolamni bilish, astronomiya, biologiyadagi kashfiyotlar ilmiy falsafaning bilish nazariyasini to'g'riligini tasdiqlaydi.

Insonning bilish qobiliyati cheklanmagan, lekin har bir aniq tarixiy davrda o'zi xohlagan barcha narsa va hodisalarni emas, balki bilish imkoni borliginigina bilib, bilmaganini keyinroq biladi. Shu bilan birga ta'kidlash kerakki, inson bilimining ham cheksizligini ko'rsatadi.

Dunyoning moddiyligini na uning rivojlanish qonunlarining inson ongida aks etishini e'tirof qilish ilmiy falsafa bilish nazariyasining asosidir. Fan qonunlari tabiat va jamiyatda inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda yuz beradigan obyektiv jarayonlarning in'ikosidan boshqa narsa emas. Falsafaning bilish nazariyasi asosan quyidagilarga asoslangan:

– obyektiv olam bizning sezgi va tasavvurlarimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud. Obyektiv olam inson sezgi va tasavvurlarining manbai hisoblandi;

– inson dunyo va uning rivojlanish qonuniyatlarini bilishi mumkin. Inson sezgi tasavvur va tushunchalarida o'ziga bog'liq bo'lmagan tashqi olamni aks ettiradi.

Demak, tashqi olam, undagi hamma narsa va hodisalar sezgilarga ga'sir etishi bilan sezgi obrazlari hosilqiladi. Sezgi tasavvur va tushunchalarda obyektiv olamning subektiv in'ikosi hosil bo'ladi. Shuning uchun ham bilish nazariyasi in'ikos nazariyasi deb ataladi.

Chunki bilish jarayonida obyekt bilan subyekt dialektikasi muhim o'ringa ega. U subyekt, ya'ni inson bilan bog'liq jarayondir. Insonsiz bilish jarayoni bo'lishi mumkin emas. Subyektning ilmiy bilishdagi roli shundan iboratki, u obyektiv mavjud bo'lgan qonuniy bog'lanishlarni ochib beradi. Obyektga nisbatan ham amaliy, ham nazariy jihatdan yondashadi.

Nemis fiziologi Gelmgolts fikricha, inson avval o'z sezgilarida tashqi olamni yaratadi, o'z sezgilarini narsa, hodisaga aylantiradi, keyin esa uni bilishga intiladi buyum tasvirini buyumning o'zi bilan



tenglashtiradi. Sezgi obyektiv olam tasviri bo'lmay olamning o'zi bo'lib qoladi. Demak, simvollar (ramziy) nazariyasiga ko'ra, narsa bilan narsaning tasviri orasida farq yo'q. Mavjud obyektiv olam faqat sezgi va tasavvurda bor.

Sezgi mazmunini predmetlar hossalari bilan hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan belgilar, simvollar bilan almashtirish noto'g'ri. Sezgi obrazi moddiy dunyo narsa va hodisalarining inson sezgi a'zolarida aks etishi natijasida yuzaga keladi. Demak, sezgi va tushunchada narsaning o'zi emas, narsaga nisbatan ikkilangan ko'rinishi hosil bo'ladi.

Tasvir, sezgi va tushunchadan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emasligi sababli u ideal narsadir, u inson, subyekt ongida vujudga keladi. Lekin sezgi obyektiv mazmunga ega. U moddiy dunyoning qayta ishlangan mazmunini gavdalandiradi, shunga ko'ra obyektivdir.

Obraz subyektida uning sezgi va tafakkurida hosil bo'ladi. Demak, obraz subyekt bilan obyekt o'rtasidagi birlikni ko'rsatadi. Sezgi, tasavvur, tushuncha shakliy jihatdan subyektivdir, lekin mazmuniga ko'ra obyektivdir. Chunki sezgida real dunyo in'ikos etadi. Demak, sezgi obyektiv olamning subyektiv obrazidir.

Sezish va fikrlashni bilish jarayonining ikki mustaqil bosqichi sifatida qarash ma'lum ma'noga ega. Sezish umuman inson bilimi taraqqiyotiga nisbatan birinchi bosqichdir. Insoniyatning dastlabki bilimlari, tushunchalari dastavval sezgi a'zolari orqali olingan dalillar asosida yuzaga keladi. Olamdagi narsa va hodisalar haqida sezgi obrazlari, tasavvurlar bilish jarayonining ma'lum bosqichidagina shakllanadi. Sezish inson miyasining tashqi olam bilan dastlabki va bevosita bog'lanishidir. Bevositalik sezgilarning eng muhim xususiyatidir. Sezgi obrazi sodir bo'lishi uchun uni hosil qiluvchi narsa yoki hodisa obyektiv mavjud bo'lmog'i kerak. Bu esa, bilish jarayonidagi eng muhim shartdir. Obyektiv olamning subyektiv obrazi – sezgi qotib qolgan, o'lik narsa emas, balki bilish jarayonida o'zgarib turadi.

Shuning uchun ham bilish bu murakkab va ziddiyatli jarayondir. Bilishning ziddiyatli jarayon ekanligini bilimlarimizning to'laroq, chuqurroq bo'lishi uchun dalil va ma'lumotlar to'plashga, eski dalil va ma'lumotlarning yangisiga to'g'ri kelmay qolishida ko'rishimiz mumkin. Ziddiyatli munosabatlar hal qilinishi bilan bilish jarayoni rivojlanib boradi. Bizning ongimiz esa bu taraqqiyotni o'zida aks ettirish bilan birga hodisalarining yuzaki xususiyatlari va bilishdan mohiyatni bilishga tomon boruvchi tarixiy jarayon ekanini ko'rsatadi. Xulosa qilib

shuni aytish mumkinki, bilish insonning o'z sezgilari, his va tushunchalari bilan dunyoni in'ikos etish jarayonidir.

## 2. Bilishning bosqichlari. Hissiy va mantiqiy bilish

Tashqi olamning inson miyasida in'ikos qilinishi murakkab dialektik jarayondir. Bilish jarayonida narsani, hodisani to'la va mukammal aks ettirish uchun ma'lum bir yo'l bosib o'tiladi.

Bilish tafakkurning o'rganayotgan predmetga yaqinlashuvidan, fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan to'la va mukammal bilimga qarab harakat qilishidan iborat cheksiz jarayonni tashkil etadi. Bilish eskirib qolgan nazariyani yangi nazariyalar bilan almashtirib, eski nazariyalarni yanada aniqlab, olg'a qarab boradi hamda voqelikning tobora yangidan-yangi tomonlarini ochadi.

Bilish jarayonida amaliyot muhim rol o'ynaydi. Amaliyot ko'pqirrali va sermazmun tushuncha bo'lib o'z ichiga inson faoliyatining barcha shakllarini qamrab oladi. Amaliyotning asosini mehnat, moddiy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bundan tashqari, siyosiy kurash, milliy ozodlik harakati, milliy tajriba ham amaliyotga kiradi.

Amaliyot insonning o'ziga xos faoliyati bo'lib, faqat ulargagina tegishlidir. Amaliyot insonlarning, tarixan yuzaga kelishi jarayonida shakllanib, barcha jamiyatlar taraqqiyoti yo'lida rivojlanadi va mukammallashadi. Amaliyot tarixiy taraqqiyot subyekti hisoblangan insonning, uninguchun obyekt hisoblangan moddiy olam bilan bog'lanishidir. Bunday aloqadorlik jarayonida subyekt faol rol uynaydi.

Amaliy ta'sir faqat obyektini emas, balki subyektning o'zini ham o'zgartiradi. Amaliyot subyekti alohida insonlar, ijtimoiy guruhlar, sinflar, butun jamiyat ham bo'lishi mumkin. Qachonki, bunday subyekt sifatida inson bo'lar ekan, amaliyot alohida faoliyat tusini oladi va u bilan bog'langan bo'ladi. Chunonchi, har bir inson shu jamiyat a'zosi bo'lar ekan, o'zining harakatlari bilan alohida jamoat a'zosi bo'lib maydonga keladi. Shuning uchun ham alohida odamning faoliyati ijtimoiy amaliyotning bir bo'laki bo'lib hisoblanadi.

Amaliyot hamma vaqt ijtimoiy faoliyat bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Amaliyotning bilish jarayonidagi roli quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, amaliyot bilishning boshlang'ich nuqtasi va asosidir. Eng avvalo, shuni e'tiborga olish kerakki, bilishning o'zi amaliyot asosida va ayniqsa moddiy ishlab

chiqarish ta'siri ostida vujudga kelgan. Bundan tashqari, amaliyot bilish oldiga ma'lum vazifalarni qo'yadi va ana shu vazifalarni hal qilish uchun yordam beradi, jumladan, u ilmiy bilishni asbob-uskunalar bilan qurollantiradi; ikkinchidan, amaliyot bilishning maqsadi hamdir. Inson bilish natijalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish uchun qam atrof-tevarakdagi dunyoni bilib boradi, taraqqiyot qonunlarini ochadi; uchinchidan, amaliyot haqiqatning mezonidir. Inson bilimlarining obyektiv olamga mos kelishi yoki kelmasligi amaliyot jarayonida tekshiriladi. Amaliyot jarayon bo'lib, bunda munozarali masalalar, nazariy muammolar hal qilinadi. Tabiat va jamiyat qonunlari to'g'ri-sidagi bilimlar ham amaliyot jarayonida tekshiriladi.

***Bilish ikki bosqichdan: hissiy va mantiqiy, ya'ni jonli mushohada (sezish) va mavhum tafakkur (fikrlardan) iboratdir.***

Bilishning boshlang'ich bosqichi jonli mushohada, ya'ni obyektiv dunyoning buyumlarini bevosita sezgi a'zolari yordamida aks ettirishdir. Ibn Sinoning fikricha, «Sezish – bu shunday ta'sirki, u tashqi narsalarning o'zi bo'lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. His moddiy obrazning ko'zgusi bo'lib, moddiy shakllarning bo'yi, uni bilak birga ifodalangan-ligi sababli, ularni inson moddiy asossiz in'ikos eta olmaydi va jismlarni bilolmaydi».

Jonli mushohadaning bilishdagi roli muhimdir, uning yordamida dunyo haqida aniq bilimlar kelib chiqadi. Lekin bilishning bu bosqichi ma'dum darajada cheklangan. Bu bosqichda narsa va hodisalarning ba'zi bir tomonlari va xususiyatlarinigina bilib olish mumkin.

Narsaning muhim belgilari, ularning ichki bog'lanishlari mohiyatlari esa bilishning ikkinchi bosqichida tushuncha, hukm va xulosa, ya'ni mavhum tafakkur yordamida aks ettirilishi mumkin. Bilishning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga kutaradigan narsa – amaliyotdir. Mehnat jarayoni, ishlab chiqarish ehtiyojlari narsa va hodisalar asosida yotgan qonuniyatlarni ochishni talab qiladi.

***Hissiy bilishga, jonli mushohadaga bilishning sezgi, idrok va tasavvur shakllari kiradi.*** Tashqi dunyoning bu in'ikos shakllari bir-biri bilan organik aloqada bo'lib, alohida-alohida uchramaydi. Biz yuqorida sezgi haqida gapirib o'tgan edik. Jonli mushohada jarayonidagi sezgi tashqi dunyo narsa va hodisalarini bilishning birinchi qadamidir. Inson miyasida hosil bo'ladigan tasavvur va fikr tashqi dunyo narsalarining sezgi orqali ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Ba'zi faylasuflar sezgini tashqi dunyodan ajratib, uni narsa va hodisaga nisbatan birlamchi deb uqtirmoqchi bo'ladilar, sezgini yagona

reallik deb hisoblaydilar. O'tmishda bu fikrni Berkli, Yum, Avenarius va boshqalar ilgari surgan edilar.

Biz sezgilarimiz yordamida narsa va hodisalarni bilib olamiz va idrok qilamiz, ularning hossalarini, o'xshashliklarini, farqlarini anglaymiz. Sezgi harakat qiluvchi materiyaning obrazi sifatida idrok uchun asos bo'ladi. Idrok ham ongimizni tashqi dunyo bilan bevosita bog'laydi. U sezgidan sifat jihatdan farq qilib, predmetning butun obrazini beradi. Idrok narsaning turli hossalarini qayta ishlab, ularni birlashtiradi. Demak, idrok deganda turli sezgi a'zolari bergan ma'lumotlar asosida miyada tashqi qo'zg'atuvchining – bir butun obrazi hosil bo'lishi tushuniladi.

Sezgi va idrok tashqi dunyo narsalarining obyektiv to'g'ri in'ikosini beradi. Bu in'ikosning to'g'ri ekanligi amaliyotda isbotlanadi. Inson o'zining amaliy faoliyatida o'zi idrok qilayotgan narsa bilan odamning o'zida shu narsa to'g'risida hosil bo'lgan sezgi va idrokning o'xshashligini belgilaydi. Inson tashqi dunyo iarsalarini o'zgartirishi mumkin.

Asboblardan foydalanish jonli mushohadada katta ahamiyatga ega. Masalan, biologiya, fiziologiya sohasida tajriba o'tkazishda mikroskopni qo'llash shu fanning rivojlanishini tezlashtiradi. Chunki u inson ko'zi bilan ko'rolmaydigan xususiyatlarni ko'rishga yordam beradi. Asbobning takomilashishi yangi kashfiyotlarni vujudga keltiradi. Mikroskop yordamida organizmlarning hujayralardan tuzilganligi aniqlandi, kasalliklarni tug'diruvchi mikroblar topildi. Elektron mikroskop mikro-dunyo hodisalarini o'rganish sohasida tajriba o'tkazishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Amaliy faoliyat, fan va texnikaning rivojlanib borishi insonga har xil vositalar, asbob va uskunalar yaratish va hissiy bilish chegarasini kengaytirish imkoniyatini beradi. Demak, sezgi, undan keyin esa idrok obyektiv olamning subyektiv obrazini hosil qiladi. *Tasavvur* – mavhum tafakkurga o'tishdagi oxirgi bosqichdir. U narsa va hrdisalarning avvalgi ta'siri natijasida xotiramizda qolgan taassurotlarning qaytadan esga olinishi bilan bog'liqdir. Tasavvurdagi yangi obrazlar ilgarigi obrazlar bilan taqqoslash orqali yuzaga kelishi mumkin. U mavhum tafakkur uchun asos bo'ladi.

Idrok qilinayotgan narsalar va hodisalar ichki qonuniyatli bog'larnishlarni ochish uchun mavhum tafakkurga o'tishi kerak. Mavhum tafakkur esa voqeani chuqur bilishga imkoniyat yaratadi. Hissiy bilish aniq narsalar obrazini hosil qiladi, lekin u hodisalar mohiyatini ochib

bera olmaydi. Demak, hodisalar mohiyatini bilish uchun ayrim narsalarga emas, ko'p narsalarga xos bo'lgan umumiylikni topmoq kerak.

**Mavhum tafakkur** hissiy bilishdan sifat jihatdan farq qiladi. U bevosita aniq bitta narsadan uzoqlashib, bir nechtasiga xos bo'lgan umumiylikning mohiyatini aniqlab beradi, ularning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Masalan, grammatika ayrim so'zlar orqali umumiylikni belgilab beruvchi inson tafakkurining mavhumlovchi ishidir.

Shunday qilib, hissiy bilish bilan mavhum tafakkur bir butun bilish jarayonining sifat jihatdan turlicha bo'lgan va ayni vaqtda bir-biri bilan bog'liq, bo'lgan bosqichlaridir. Mavhum tafakkur hissiy bilishdan kelib chiqadi, jonli bilish esa qonuniyat bilan o'sib, mavhum tafakkurga asos soladi.

**Mantiqiy bilish** – bilishning rivojlanishidagi sifat jihatdan yangi, yuqori pog'onasidir. Mantiqiy bilishda inson mantiqiy tafakkur yordamida voqelikning rivojlanish qonuniyatlarini bilib oladi. Ob'ektiv reallikni bilish dialektikasida sszgi va idrokning yuzaki obrazlari tasavvur obrazlaridagi abstraksiya elementlari bilan birlashib mavhum tafakkurga qarab aylanadi. Tafakkur esa, garchand jonli mushohada materiallariga asoslansada, bilish jarayonining sifat jihatidan murakkab bo'lgan yuqori bosqichidir.

Bizga ma'lumki, sezgi obrazlari tashqi olamning in'ikosidir, ya'ni tashqi olam sezgimizga qanday ta'sir qilsa, shundayligicha aks etiladi. Lekin tafakkur obrazlarida boshqacharoq, unda tashqi olamning ichki mohiyati, aloqa va bog'lanishlari hamda rivojlanish qonun va qonuniyatlari aks etadi. Tafakkur obrazlarining uchta asosiy xususiyati bor:

1. Tafakkur obrazlari mavhumlik xususiyatiga ega, ya'ni tafakkur obrazlari hosil bo'lishi uchun ifoda qilinayotgan tashqi olam bevosita ko'z oldimizda bo'lishi shart emas. Tafakkurga xos bo'lgan ana shu jarayon **abstraksiya** deyiladi.

2. Tafakkur obrazlari umumlashgan xususiyatga ega. Umumlashtirish esa bizga ta'sir etayotgan narsa yoki hodisaning barcha sifat va xususiyatlaridagi muhim bo'lmagan ikkinchi darajalilarini chetga surib, asosiy tomonlarini taqqoslash va fikran bir-biri bilan bog'lashdir.

3. Tafakkur obrazlari til bilan bog'langandir. Bilish jarayonida paydo bo'layotgan har bir tushuncha til orqali ro'yobga chiqadigan ong omilidir.

Mavhum tafakkur shakllari tushuncha, muhokama, xulosadir. Tushuncha tafakkurning alohida shakli bo'lib, u tashqi dunyo narsa va hodisalarining umumiy, zaruriy tomonlarini aks ettiradi.

**Tushuncha** — aniq narsa va hodisalarning sifati, mohiyati va muayyanligining miyada alohida shaklda aks etishidir. Unda hodisadagi asosiy tomonlar umumlashtiriladi. Masalan, materiya tushunchasi umuman materiyaning belgilaridan qat'i nazar, ularning asosiy belgisi — moddiyligi materiya tushunchasida aks ettiriladi. Jumladan, daraxt deganda tol, terak, olma va boshqa daraxt turlari va belgilaridan fikran uzoqlashamiz va ular uchun eng umumiy belgilarni olamiz. Fandagi tushunchalar ham xuddi shunday.

Har bir fanning o'ziga xos tushunchalari bor. Masalan, astronomiyada koinot, sayyora kabi tushunchalar, biologiyada oqsil, hujayra, nasl kabi tushunchalar bor. Har bir fanni bilish, tushunish fandagi tushunchalarni bilish demakdir. Tushuncha mazmunan ob'ek-tivdir.

Muhokama orqali obyektiv dunyodagi qonuniyaglar ongda aks ettiriladi. Yakka muhokama ayrim dalillarda o'z aksini topsa, umumiy muhokama umumiy qonunlarni ifoda etadi. Masalan, energiyaning aylanishi shakli yoki har bir harakat shaklining biridan ikkinchisiga o'tishi haqidagi qonunlar. Birinchi misol, tabiatning ayrim tomoniga to'g'ri kelsa, ikkinchisi umumiy qonunni aks ettiradi. Demak, muhokama biror narsa yoki hodisa haqida biror nima deyish, uni tasdiqlash yoki inkor etishdir. Masalan, «yomg'ir yog'di», «samolyot uchdi», «Ahmad kuldi».

Muhokamada tushuncha bir-biri bilan bog'lanib, ular o'rtasida munosabat paydo bo'ladi. Unda tushunchalarning bizga bog'liq bo'lmagan qandaydir voqealari aks etadi.

Tafakkurning uchinchi shakli *mantiqiy aqliy xulosa* chiqarishdir. Xulosa bir yoki bir necha muhokamadan kelib chiquvchi bilimdir. U orqali ilgari ma'lum bo'lgan bilimlar asosida yangi bilim paydo bo'ladi.

Mantiqiy aqliy xulosada muhokamalar majmuasi bir-biriga bog'lanib, yangi bir xulosa kelib chiqadi. Bunday xulosaga asos bo'lgan ikki muhokama dalil deb ataladi. Demak, aqliy xulosa fikrni taqqoslaydi, bog'laydi, mavhum tafakkur sodir bo'lish jarayonini ifodalaydi. Shunday qilib, insoniyatning barcha bilimlari sezgi materiallarini umumlashtiri orqali hosil bo'ladi.

Bilish jarayoni murakkab, ko'p qirrali jarayondir. U albatta, subyektning qobiliyati, izlanuvchanligi, mantiqiy tafakkurning xususiyati, voqelik hodisalarini kuzatish, uning mohiyatini ochishda ham bir narsa va hodi saga ijodiy yondashishni talab qiladi. Shuning uchun ham bilishda ijod katta o'rin egallaydi.

*Ijod* insonning fan, texnika, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangilik yaratish, kashf etish faoliyati bo'lib, murakkab ruhiy jarayondir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Abu Nasr Forobiyning ta'biricha, ijod – bilish jarayonida shunday ulug' fazilatki, inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarni ishga solishi kerak.

Ijod jarayonida boshqalar tomonidan qo'lga kiritilgan bilimlar chuqur, atroflicha, tanqidiy ravishda o'rganiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, hisoblashlar o'tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi. Xulosalarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi tajribada sinaladi. Agar xulosa noto'g'ri bo'lsa, tajriba natijasi avvalgi bilimga mos tushmaydi, demak, xulosa qaytadan o'rganiladi. Ijodiy izlanish natijasida kelib chiqqan bilim mazmuni turli shakllarda – badiiy asar, matematik formula, nazariya qonun va boshqalar orqali jamiyatga taqdim etiladi. Ulardan jamiyat bahramand bo'lsagina haqiqiy, to'liq ijod bo'ladi. Ijod – fan, texnika, madaniyatni boyitadi, bilimni rivojlantiradi.

Ijodni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin: ilmiy ijod va badiiy ijod. Ilmiy ijod mavhum tafakkuri ustun rivojlangan kishilarga xos. Badiiy ijod esa tabiat va inson hayotidagi turli ohanglar, manzaralar, tuyg'ularni nozik idrok qiluvchi, hissiyotli kishilarga xos.

Olimlar faoliyati ilmiy ijodga, yozuvchilar, san'atkorlar faoliyati badiiy ijodga kiradi. Ba'zi kishilarda har ikki ijod rivojlangan bo'lishi mumkin. Ilmiy ijod jarayonida tabiat va jamiyat hayotining obyektiv qonuniyatlari aks etsa, badiiy ijodda ma'naviy, hissiy muammolari, san'atkorning subyektiv, o'ziga xos qarashlari, his-tuyg'ulari aks etadi. Badiiy ijodda o'ziga xoslik bo'lmasa, bunday ijodning ijtimoiy va estetik qimmatini yo'qoladi.

*Tasavvur* hissiy bilishning yuqori bosqichi bo'lib, inson amaliy faoliyati natijasida maqsadga muvofiq ravishda hosil bo'ladi. Tasavvurning ilmiy, badiiy, diniy shakllari mavjud. Olimning tasavvuri orqali fahmlash, ilmiy tajriba, modelning shakllanishi uchun g'oya vujudga keladi, bu esa bilish uchun yordam beradi. Tasavvur ayniqsa, badiiy ijodda katta ahamiyatga ega.

Haqiqatni dalil bilan isbotlamasdan turib, to'g'ridan-to'g'ri, bevosita bilib, anglab olish qobiliyatini qadimgi faylasuflar intuitsiya (hissiy bilish) deb qaraganlar. XVII asr faylasuflari intuitsiyaning o'ziga ishonchli bilim bermaydi, faqat intellektual intuitsiyagina haqiqiy bilim beradi, deb hisoblaganlar. Hozirgi zamon faylasuflari (Bergson, Freyd)

intuitsiyani butun ijodiy faoliyatni belgilovchi yashirin, qorong'i, ongsiz boshlang'ich ijod deb qaraydilar. Bunday qarash, esa narsa va hodisalar mohiyatini bilish mumkin emas deyishga olib keladi.

*Intuitsiya* bilishning alohida bosqichi emas, balki jonli mushohada va mavhum tafakkur bilan uzviy bog'langan, yordamchi rol o'ynaydigan shaklidir. Dunyoni tajriba va tafakkurga tayanmasdan, faqat intuitsiya yordamida bilish mumkin deb da'vo qiluvchi falsafiy oqim – intuitivizm bo'lib, uning tarafdorlari intuitsiyani ongning ijtimoiy amaliyot va tafakkurga aloqasi bo'lmagan alohida xususiyati deb tushuntirishga urinadilar. Dialektika esa bilish jarayonida, ya'ni bilimlarning vujudga kelishida, intuitsiya ahamiyatga ega deb ta'lim beradi.

Hissiy bilish bilan mantiqiy bilishni ajratib bo'lmaydi va bunday ajratish muqarrar ravishda bilish jarayonini noto'g'ri tushunishga olib ketadi.

*Empirizm* (yunoncha «empiriya»)– tajriba so'zidan) namoyondalari bilishdagi abstrakt tafakkurning roliga etarli baho bermaydilar va hissiy tajribagina insonga dunyoning chinakam manzarasini yaratib beradi, deb hisoblaydilar.

*Ratsionalizm* (lotincha «ratsionalis»)– oqilona so'zidan) namoyondalari sezgi a'zolariga ishonmaydilar va aqlni, abstrakt tafakkurni haqiqiy bilimning birdan-bir manbai deb biladilar.

Modomiki, hissiy bilish bilan mantiqiy bilish birlikda maydonga chiqar hamda bir-birini to'ldirar va boyitar ekan, bilishda sezgilar beradigan ma'lumotlarga ham, aqliy xulosalarga ham mensimaslik bilan qarash mumkin emas.

Sezgi organlarimiz orqali biz narsalarning hossasini, xususiyatlarini his qilamiz, aqliy bilish tufayli biz ularning moddiy asosini, mohiyatini; bilishga muyassar bo'lamiz.

«Bilki, – deb yozadi, – Abu Nasr Forobiy, (olamda) substantsiya (javhar) va aktsidentsiya (javhar bo'lmagan, oraz) hamda substantsiya, aktsidentsiyani yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo'kdir».

Aksidensiyani besh sezgi his etadi, ular o'rtasida hech qanday vosita yo'qdir, masalan, ko'rish o'zicha rangni chis etadi, shu bilan u oq va qorani bir-biridan farq qiladi; eshitish o'zicha baland hamda past ovozalarning farqini sezadi; ta'm-maza sezgisi turli ta'mlarni qabul qiladi, shirin va achchiq ta'mlarning farqini ajratadi; teri sezgisi predmetlarning holatini sezadi va ularning yumshoq yoki qattqlik holatini farq qila oladi.



Substansiyani faqat aql qabul qiladi va bunda aktsidensiya aql uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Aql ranglar ostida shu rangga ega bo'lgan narsa borligini, ovoz ketida ovozi kelayotgan narsa mavjudligini biladi, aqlning boshqa sezgilar bilan munosabati ham shuning kabidir»<sup>1</sup>.

Ibn Sinoning fikricha, «Aql tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim chin bo'lolmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas».

Hissiy va aqliy bilish jarayonining dialektik birligi haqiqatga erishishning yakkayu – yagona yo'lidir.

### **3. Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning obyektivligi. Nisbiy va mutlaq haqiqat**

Bilish nazariyasida ham boshqa fan sohalaridagidek, dialektik tarzda mulohaza qilish lozim, ya'ni bilish jarayonini tayyor, qotib qolgan holda emas, balki to'la bo'lmagan, noaniq bilimlarimiz qanday qilib to'laroq va aniqroq bilimga aylanishini aniqlash kerak.

Olam doim harakatda, o'zgarish va taraqqiyotda. Taraqqiyotning, harakatning har bir yangi bosqichida moddiy olamdagi har bir narsa va hodisaning yangi sifat va xususiyatlari vujudga keladi. Shuning uchun olamni va uning taraqqiyot qonunlarini bilish uchun imkoniyat cheksiz. Har bir tarixiy davrda inson o'zining amaliy faoliyati natijasida obyektiv olamni to'liq va aniq aks ettiruvchi bilimga ega bo'lib boradi. Bilim esa, obyektiv mavjudlikka mos keladimi yoki yo'qmi? Bu masalaning hal qilinishida haqiqat to'g'risidagi ta'limot o'z ifodasini topadi. Bu ta'limot esa o'z-o'zidan haqiqat nima, degan masalani hal qilishni talab qiladi. Bu masalani yoritishda falsafada turli fikrlar mavjud. Haqiqat masalasini ilmiy asosda hal qilishning yagona yo'li inson bilimlari bilan obyektiv olamdagi real narsa va hodisalar, ularning sifat va xususiyatlari o'rtasidagi munosabatni yoritishdir. Shunday ekan, haqiqat obyektiv voqelikka mos keluvchi narsalar va hodisalarning real holatdagi mazmunini, sifat va xususiyatlarini to'g'ri aks ettiruvchi hamda amaliyotda sinalgan bilimlaridir.

Sezgilar insonni tashqi olam bilan bog'lovchi vositalardir. Inson sezgilari uning ongidan tashqaridagi obyektiv olamning in'ikosini hosil qiladi. Obyektiv olamning mavjudligini e'tirof etish bilan uning to'g'ri in'ikosining hosil bo'lishi obyektiv haqiqatdan iboratdir. Dialektika obyektiv haqiqatni e'tirof etish bilan uni birdaniga bilish mumkin emas, deb hisoblaydi. Obyektiv haqiqatni bilish fan taraqqiyoti, amaliyot

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993, 174-bet

asosida amalga oshishi mumkin. Haqiqatni bilish doimo pastdan yuqoriga qarab rivojlanuvchi jarayondir.

Obyektiv haqiqat inson va insoniyatga bog'liq bo'lmagan obyektiv reallikning to'g'ri in'ikosidan iboratdir. Bu in'ikos in'ikos etuvchi reallikka mos kelishi kerak. Tabiat ilmining er insoniyatdan burun mavjud edi, degan fikri obyektiv haqiqatdir. Tabiat va jamiyat qonunlari obyektiv haqiqatdir. Bu qonunlar insonga bog'liq bo'lmagan, undan tashqarida mavjud bo'lgan ichki, zaruriy, muhim bog'lanishlarini ifodalaydi, bu qonunlarni inson bekor qila olmaydi, o'z ixtiyori bilan o'zgartira olmaydi.

Ayrim faylasuflar (Bogdanov va boshqalar) obyektiv real dunyoni inkor etib, uni sezgilar majmuasi deb biladi va haqiqatni ham subyektiv shaklda tasvirlaydi. Ularning fikricha, haqiqat – maskura shakli yoki inson tajribasini tashkil etuvchi shakldir. Uning bu da'vosi, fideizmga, uning da'volariga ishonishga olib keladi.

Xuddi shunday fikrni hozirgi zamon falsafasida ham ko'rish mumkin. Unga ko'ra har qanday diniy xurofotlarni himoya qilish obyektiv haqiqatni inkor etishdir.

Dialektika bilimlarimiz abadiy bo'lmay, ular takomila-shib boradi, bilmaslikdan bilish tomon boradi, nisbiy haqiqatdan mutlaqhaqiqatga boradi deb tushuntiradi. Haqiqatdan ham olamda inson bilib ololmaydigan narsa yo'q. Shuning uchun ham bilish jarayonining rivojlanishi cheksiz, u biror chegarada to'xtashi mumkin emas. Inson erishgan yangi bilimi avvalgi bilimidan ko'ra yuqoriroq bo'lishiga qaramasdan, kelajak uchun u chegara emas. u yangi bilim uchun zaruriy bosqich hisoblanadi. Demak, mutlaq va nisbiy haqiqatlar dialektik munosabatda bo'ladi.

Har bir nisbiy haqiqatda mutlaqhaqiqat elementi, zariasi bor, chunki unda moddiy dunyoning ma'lum tomonlari aks etadi. Nisbiy haqiqat obyektiv olamning inson ongida nisbatan to'g'ri in'ikos etishidir. Amaliyot va fan taraqqiyotida bu haqiqat tobora takomilashib boradi. Demak, obyektiv olamni taxminan to'g'ri in'ikos ettiradigan, to'la va aniq bo'lmagan, inson bilimining so'ngi taraqqiyoti jarayonida aniqlanishi va chuqurlashishi tobora to'laroq bo'lib boradigan ilmiy bilimlar (qoida, tushuncha va nazariyalar) nisbiy haqiqatdir.

Nisbiy haqiqatni e'tirof qilish mutlaqhaqiqatni inkor etish emas. Chunki bizning bilimlarimiz tayyor yoki qotib qolgan bilim bo'lmay, mutlaq haqiqatni bilish nisbiy haqiqatlarni bilish bilan boradi. Mutlaq haqiqatni birdaniga bilib bo'lmaydi, balki to'liq bo'lmagan taxminiy, ya'ni nisbiy haqiqatlar orqali bilinadi. Demak, bilish bilmaslikdan

bilishga, mukammal bo'lmagan bilimlarning mukammallashib, aniq bo'lib borishini aks ettiruvchi cheksiz jarayondir.

Olam cheksiz, undagi narsa va hodisalar doim harakatda. Demak, insonning bilish imkoniyati hech qachon oxiriga etmaydi. Masalan, materiyaning tuzilishi to'g'risidagi bilimlarimizni olib ko'raylik. Ilgari materiyaning eng kichik zarrasi atom bo'linmasdir, deb hisoblanardi. Bu nisbiy haqiqat, chunki u materiya tuzilishining taxminiy to'g'ri in'ikosi edi. Bunda mutlaq haqiqat– materiya haqiqatdan atomlardan iborat, degan tasavvur mavjud edi. Materiya tuzilishi to'g'risidagi bilimlar rivojlanib, XIX asrning oxirida elektron – atomning tarkibiy qismi kashf qilindi. Bu kashfiyot materiya tuzilishi to'g'risidagi tasavvurga mugloq haqiqatning yangi zarrasini qo'shib, insonning materiya tuzilishi to'g'risidagi bilimni yapada chuqurlashtirdi. Hozirgi zamon tabiiyot ilmi atomning murakkab tuzilishini ochib bermoqda. Demak, fan sohasidagi har bir yangi qadam ilgarigi nazariyaga qaraganda chuqurroq, to'la va aniq bilimni beradi, ammo bu bilimni butunlay, mutlaq bilim deb bo'lmaydi. Chunki har qanday inson bilimi mazkur tarixiy davr chegarasidan chiqib ketmaydi. U ilm-fanning ayrim sohalarida o'z davri tafakkur taraqqiyotini o'n, hatto yuz yillab ortda qoldirishi mumkin, ammo, o'z davri farzandi bo'lib qolaveradi.

Inson hamma vaqt tabiatni oxirigacha bilish tomon yaqinlashib boradi. Lekin u moddiy olam qonun va hodisalarini to'la-to'kis bilish darajasiga erisha olmaydi. Buning sababi shuki, tabiat cheksiz, u to'xtovsiz harakat qilishda, rivojlanishda, o'zgarishda. Inson bilimi esa hech qachon moddiy olamni butunlay qamrab olmaydi. Shuning uchun ham inson bilimining mutlaq haqiqatga yaqinlashuvi nisbiydir. Bundan bizning hamma bilimlarimiz nisbiy ekan, ularda obyektiv mazmun yuq ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Har qanday haqiqat nisbiyligiga qaramay unda mutlaq haqiqat elementlari saqlanadi. Mutlaq va nisbiy haqiqatlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymay, balki ularni ajralmas bir butun holda olib o'rganmoq zarur.

Mutlaq va nisbiy haqiqatlarning dialektik munosabatini bilish dogmatizm, agnostitsizm, relyativizm va volyuntarizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega. Relyativizm inson bilimlarning nisbiy deb qarash bilan birga obyektiv haqiqatni butunlay inkor etadi. U bilish jarayoniga dialaktikani tatbiq eta olmaganligi uchun faqat nisbiy haqiqatni e'tirof etadi va uni mutlaqlashtiradi. Uning asl maqsadi mutlaq haqiqatni, shu bilan birga obyektiv haqiqatni inkor etishdir.

Inson obyektiv olamni o'z amaliy faoliyatida ma'lum tarixiy va ilmiy imkoniyatlar asosida biladi, imkoniyat esa hamma vaqt to'la bo'lmaydi. Ilmiy haqiqatlar aniq tarixiy sharoit bilan bog'liq bo'lib, aniq shaklda namoyon bo'ladi. Shuning uchun haqiqat mavhum emas, aniq bo'ladi.

Haqiqat mezonini nima tashkil etadi? degan savol bilish nazariyasi ning murakkab masalasi bo'lib hisoblanadi.

XVII asr ingliz faylasufi F.Bekon haqiqatning asosiy mezonini eksperimental tajriba tashkil etadi, degan g'oyani ilgari surgan edi. Uning fikricha, «barcha isbotlar ichida eng yaxshisi-tajribadir, agarda u barcha sinovlar ichida o'z predmet mohiyatidan chiqmagan holda bo'lsa».

XVIII asr fransuz faylasufi Didro ham tajribani haqiqatning asosiy mezonini deb hisoblagan edi. «Biz, – deb yozgan edi Didro, – uch asosiy izlanishlar vositasida o'rin egallaymiz: tabiatni kuzatishda, mushohada va tajribalar borasida. Kuzatish ma'lumotlar yig'indisidan, mushohada ularni mujassamlashtirishdan, tajriba esa mujassamlashgan fikrlarimizni tekshirib ko'rishdan iboratdir».

XX asr falsafasida keng tarqalgan pragmatizm – oqimining namoyondalari Djon Dyui, Uilyam Djeym, Charlz Pirs va boshqalar haqiqat mezonini uning foydaliligi tashkil etadi, degan g'oyani ilgari surgandilar. «Vena to'garagi» a'zolari, pozitivizm oqimining vakillari V.Karnap, O.Neyrat, V.Kraft va boshqalar fan kashfiyotlari kishilarning hissiy a'zolari orqali isbotlangandagina haqiqat bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar. Hissiy a'zolarimiz asosida isbotlab bo'lmaydigan nazariyalarni, ularning fikricha, haqiqat turqumiga kiritish mumkin emas.

Ilmiy falsafa ta'limotiga muvofiq haqiqatning mezonini amaliyot tashkil etadi. Inson faoliyatining majmun hisoblangan amaliyot kishilarning tarixan yuzaga kelishi jarayonida shakllanib barcha jamiyatlar taraqqiyoti yo'lida rivojlanadi va mukammallashadi. Amaliyot inson uchun bilish obyeksi bo'lgan olam bilan bog'lanishdir.

Amaliyot o'zida subyektiv va obyektiv jihatlarni birlashtirgan jarayondir. U ongli ravishda maqsadga yo'naltirilgan subyekt faoliyati bo'lib, u yoki bu obyektning o'zgarishi bilan ro'yobga chiqadigan munosabatdir.

Amaliyot ko'p qirrali va sermazmun tushuncha bo'lib inson faoliyatining barcha turlarini, tomonlarini qamrab oladi.

Amaliyotning bilish jarayonining ahamiyati quyidagilardan iborat:

**Birinchi**dan, amaliyot bilish jarayonining maqsad va yoʻnalishlarini belgilaydi. Obyektiv olamni bilish odamlarning muayyan ehtiyojlarini qondirish maqsadida amalga oshiriladi. Shu tariqa amaliyot bishning maqsadini belgilab beradi. Har qanday fanning vujudga kelishi amaliyotning u yoki bu talabiga javobdir.

**Ikkinchi**dan, amaliyot bilish jarayonining asosini tashkil etadi. Bu shundan iboratki, bilishning bir-biri bilan uzviy bogʻlangan bosqichlari – hissiy va aqliy bilish amaliyotiga asoslanadi. Hissiy va aqliy bilish jarayonida qoʻlga kiritilgan maʼlumotlar amaliyot tufayligina yuzaga keladi. Bilish jarayonining oʻzi inson amaliyotining shakli hisoblanadi.

**Uchinchi**dan, amaliyot haqiqatning oliy mezonini hisoblanadi. Insonning olam haqidagi bilimlari, uning amaliy faoliyatida isbotlanadi. Kundalik hayotda inson olam haqida bilimlarini oshiradi, maqsadiga boʻysundiradi va uning haqiqiylikini tekshiradi. Agar biron narsa haqidagi tasavvur soxta boʻlsa, u holda undan foydalanish mumkinligi toʻgʻrisidagi bizning mulohazalarimiz ham soxta boʻlib qoladi va undan foydalanish yoʻlidagi har qanday urinish muqarrar ravishda muvafaqqiyatsizlikka olib keladi.

Odamlarning bilimini amaliyot tasdiqlaydi yoki rad etadi. Amaliyot doim boyib taraqqiy etib turadigan jarayon. Agarda toʻplangan bilimning haqiqiyligi mavjud amaliyotda tasdiqlanmasa u kelajakdagi amaliyot bilan isbotlanishi mumkin. Obyektiv dunyoni bilishning oʻzi ilgari qayd qilinganidek, ijtimoiy amaliyotdan kelib chiqqan, shuning uchun bilish jarayoni ijtimoiy-tarixiy amaliyot bilan bogʻlangan va unga suyanadi.

Inson faoliyati, amaliyoti, olam haqidagi toʻplangan bilimlarni isbotlab berganliklari haqida koʻplab misollar keltirish mumkin. Masalan, mexanik harakat issiqlikka aylanadi, yaʼni ishqalanish natijasida oʻt hosil boʻlgan, bu juda qadimiy kashfiyot. Koʻp yillardan keyin esa odamlar issiqliqdan mexanik harakat vujudga keltirish imkoniyatiga amaliyot asosida ega boʻldilar.

Yana bir misol. Nemis olimi A.Eynshteyn nisbiy nazariyasini yaratadi. Dastavval mazkur nazariya ilmiy bashorat tariqasida qabul qilingan boʻlsa, XX asming ikkinchi yarmida sayyoralariga kosmik qurilmalarning parvoz etishi natijasida mazkur nazariya oʻzining ilmiy isbotiga ega boʻldi.

Demak, har bir fan inson amaliy ehtiyoji natijasida kelib chiqadi, uning yordamida olamdagi narsa va hodisalar haqida toʻplangan bilimlar amaliyot asosida tasdiqlanib haqiqat darajasiga koʻtariladi.

## Takrorlash uchun savollar

1. **Bilish** nima? Bilimning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
2. **Hissiy va aqliy** bilishning xususiyatlari, shakllari haqida soʻzlab bering.
3. **Haqiqat** nima? Nisbiy hamda mutlaq haqiqatlarning oʻzaro munosabatlari qanday?
4. **Haqiqatning** mezonlari haqida nimalar deya olasiz?
5. **Amaliyotning** bilish jarayonidagi ahamiyati nimalardan iborat?

## Tayanch tushunchalar

**Agnostitsizm** – olamni bilishni inkor etuvchi taʼlimot.

**Skeptitsizm** – olamni bilish mumkinligiga shubha bilan qaraydigan taʼlimot.

**Empirizm** – hissiy tajribaning rolini koʻrtirib koʻrsatadigan yoʻnalish.

**Ratsionalizm** – aqliy bilish olamni bilishning yagona manbai deb hisoblovchi oqim.

**Haqiqat** – kishilarning tasavvur tushunchalarining obyektiv olamga mos kelishi.

**Amaliyot** – inson faoliyatining yigʻindisi, majmui.

**Dogmatizm** – aqidaparastlik, oʻzgarmas tushunchalar, qoidalar asosida fikrlash usuli.

**Relyativizm** – inson bilimining nisbiyligi, shartliiligi va subʼektivligi haqidagi taʼlimot.

## Adabiyotlar

1. Tulenov J., Gʻofurov S. Falsafa. Darslik. – T.: «Oʻqituvchi». 1997, 220–249-betlar.

---

---

## XIII MAVZU. ILMIY BILISH, UNING XUSUSIYATLARI VA USULLARI

### Reja:

1. Ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ilmiy bilishning empirik darajasi.
3. Ilmiy bilishning nazariy darajasi.

#### 1. Ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari

Inson o'z aql idroki bilan amaliy faoliyati jarayonida olam sirlarini bilishga intiladi. Bilish jarayonida u obyektga ham amaliy, ham nazariy jihatdan yondashish asosida uning qonuniy bog'lanishlarini ochib beradi.

Bilish jarayoni insonsiz bo'lishi mumkin emas. Bilish inson qobiliyati, izlanuvchanligi mantiqiy kamolot darajasi hamda uning tafakkur organi – miyasiga bog'liq. Inson faoliyatiga xos bo'lgan bu qobiliyatnin bilishning pirovard maqsadi ijtimoiy zaruriy amaliy ehtiyojlarni qondirishdan iboratdir.

*Bilish* taraqqiyoti fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan to'la va mukammal bilishga qarab harakat qilishidan iborat cheksiz jarayondir. Bilish jarayoni eskirib qolgan nazariyalarni yangi nazariyalar bilan almashtirish, eski nazariyalarni aniqlash, obyektning yangi-yangi tomonlarini ochishdir.

Bilish murakkab ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda bilimlarimiz to'la va mukammal bo'lishi uchun ma'lum bir yo'lni bosib o'tadi. Bu yo'l bilmaslikdan bilishga o'tish yo'lidir. Bu yo'l orqali inson o'z aql va idroki bilan o'z amaliy faoliyati jarayonida voqea, olam, predmet va hodisalarni, ularning mohiyatini bilishga intiladi, izlanadi.

Voqelik hodisalarini bilish oddiy hayotiy tirikchilik uchun yo'l topish emas, balki ilmiy tadqiqot yo'li bilan izlanishlar natijasida yangi bilimlarning vujudga kelishidan iboratdir.

Ilmiy bilish olim va tadqiqotchi tomonidan olib boriladigan izlanishlar asosida amalga oshiriladigan, uzoq davom etadigan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchi izlanish orqali o'zi tadqiq etayotgan

obyektning yaigi yoʻnalishlari, avval aniq boʻlmagan yangi sifatlari, tomonlarini aniqlaydi yoki ochadi. Har qanday ilmiy izlanishning maqsadi va vazifasi biror ilmiy muammoni hal qilishdan, echimini topishdan iboratdir.

Ilmiy muammo nima? «*Muammo*» arabcha soʻz boʻlib, masala, vazifa maʼnolarini ifodalaydi. Muammo ilmiy bilim tizimida bilib olinmagan va hal qilinmagan, lekin bilish va hal qilinishi mumkin boʻlgan bilish shaklidir. Shuni taʼkidlash lozimki, kundalik hayotda muammoni savol yoki masada bilan aralashtirib yuborish hollarini uchratamiz, ilmiy bilishning shakli boʻlgan muammo savol va masaladan farq qiladi. Savol yoki masalaning oʻziga xos xususiyati shuki, savolga javob berish, masalani echish doimo oldingi bilim asosida amalga oshadi, lekin muammoni oldindan hosil qilingan bilimlar doirasida turib hal qilib boʻlmaydi. Buning uchun yangi dalillar, maʼlumotlar toʻplash, ularni yangicha izohlash uchun eski bilim doirasidan chiqish talab qilinadi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida bunday vaziyat muammoli vaziyat hisoblanadi. Muammoli vaziyat bilishdan bilmaslikka va undan bilishga borish jarayoni boʻlib, u muammoning vujudga kelish, hal qilish, yaʼni echimni topilishiga olib keladi. Bilish bilan bilmaslik orasidagi ziddiyatli munosabat muammoli vaziyatni keltirib chiqaradi. Muammoli vaziyat muammoni qoʻyish bilan yakunlanadi. Muammoning echimini topish ziddiyatlarni hal qilinishiga olib keladi.

Demak, eski bilim tizimi bilan yangi bilim tizimi orasidagi ziddiyat muammoni keltirib chiqaradi. Bu ziddiyatlarning hal qilinishi natijasida bilim yangilanadi, mazmuni kengayadi, chuqurlashadi. Muammoni va uning echimini topish imkoniyatlarini aniqlash muammoni teng yarmini hal qilish demakdir.

Hozirgi fan sohasidagi ilmiy-texnik inqiloblar davrida bilim tizimida yangi-yangi muammolar kelib chiqmoqda. Bu muammolar umumilmiy, majmua (kompleks), global (umumbashariy) tasnifda boʻlishi mumkin. Bu muammolar maxsus amaliy va nazariy tadqiqot usullari asosida hal qilinadi. Bu muammolarni hal qilinishida umumiy, oʻxshash tomonlari boʻlishi mumkin. Ilmiy muammoni echish uchun tadqiqotchi ilmiy bilishning usul va shakllaridan bekamukoʻst foydalanishi kerak.

Insoniyat taraqqiyoti jarayonida vujudga keladigan har qanday fan oʻz predmeti va tadqiqot usullariga ega. Har bir fan nazariy jihatdan



tizimlashgan bilimlar yig'indisi sifatida tadqiqot jarayonida xilma-xil ilmiy usullardan foydalanadi.

Voqelik hodisalarini bilish oddiy hayotiy tirikchilik uchun yo'l topish emas, balki ilmiy tadqiqot yo'li bilan izlanishlar natijasida yangi birikmalarning vujudga kelishidan iboratdir. Bilim insonning tarixiy, amaliy faoliyati negizida vujudga keladi. Tabiat va jamiyatning murakkab, xilma-xil, rang-barang hodisalariga haqiqiy mazmunini, mohiyatini, rivojlanish qonunlarini bilishning aniq usullari mavjud bo'lib, ular ilmiy tadqiqot va izlanishning yo'nalishini ifodalaydi.

Ilmiy metod (usul) nima? *Ilmiy usul* ilmiy bilish jarayonida qo'llaniladigan mavhum bilish yo'llari hamda vositalarini ifodalaydi. Ilmiy bilish usuli inson amaliy faoliyati negizida yuzaga keladi. U tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab hodisalarini to'g'ri, obyektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi. Ilmiy bilish usuli tadqiqot turlarining mazmun va izchilligini o'z ichiga olgan holda amalda bajarilgan faoliyatining ta'siri sifatida yuzaga chiqadi. *Usul* – ilmiy bilishning tarkibiy qismi bo'lib, uning obyekti, tahlil mavzui, tadqiqot vazifalari, ularni hal etish uchun zarur bo'lgan vositalarida ifodalaydi.

Har bir fan obyektini o'rganuvchi predmetning aniq izlanish usuli bo'lib, bu usul xususiy, umumiy va eng umumiy usul bo'lishi mumkin. Ilmiy bilish masalasida usul muammosi bilan eng qadimgi falsafada Arastu shug'ullangan. Birinchi marotaba fanni usul tizimi asosida o'rganish masalasini ingliz faylasufi F.Bekon ilgari surgan. U ilmiy bilishning induktiv va empirik usuliga asos solgan. R.Dekart esa bilimda obyekt bilan subyekt munosabati masalasida tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatgan. I.Kant bilishni alohida shakllariga ega bo'lgan o'ziga xos faoliyat sifatida tahlil qilishga asos soldi. Bu masalani hal etishda ayniqsa Gegel qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. U bilishning, umuman ma'naviy faoliyatning umumiy usulda – dialektikaning rolini garchi idealistik asosda bo'lsada, ko'rsatib beradi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida bilishning aniq shakli va usullaridan foydalanish orqali ilmiy bilimlar vujudga keladi, rivojlantiriladi. Har bir bilim sistemasida ilmiy tadqiqot jarayonida kelib chiqqan muammo yoki masalaning qo'yilishi va hal qilishda maxsus usullardan foydalaniladi. Ular esa tarixiy aniq bilish jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi. Shuning uchun ham har bir fanning o'z predmeti va tadqiqot usuli mavjuddirki, ular o'zi o'rganayotgan obyektga nisbatan maxsus amaliy va nazariy tadqiqot usuli asosida yondashadi.

Demak, ilmiy bilish jarayonida har bir fan o'zining maxsus xususiy usullarini ishlab chiqishi zarur, shu bilan birga o'zining ma'lum tadqiqot obyektiga ega bo'lishi kerak. Lekin ba'zi bir fanlar bir-biriga yaqindir. Shu sababga ko'ra, ularning tadqiqot usullari ham bir-biriga yaqindir va tatbiq qilish chegarasiga ko'ra bir-biriga samarali foyda keltirishi mumkin. Demak, bilishda xususiylilik va umumiylik vazifasini bajaruvchi usullar ham mavjuddir. Ko'pchilik fanlarda qo'llaniladigan usullar umumiy usul deyiladi. Umumiy usul qo'llanishi doirasiga ko'ra umumiy, lekin o'z maxsus vazifasiga ega.

Bizni o'rab turgan dunyo narsa va hodisalari ko'p qirrali, ko'p sifatlilik xususiyatiga ega. Ularni birdan tushunish, bilish mumkin emas. Shuning uchun bilish metodologiyasi bizga bilishning umumiy usuli va tafakkur usulini, rivojlanish qonunlarini asoslab beradi. Har bir aniq fanning o'zi qo'llaydigan xususiy usullari asosida bilim sistemasi chuqurlashib borsa, umumiy usulni tatbiq qilish orqali izlanish doirasi yanada kengayib boradi. Masalan, fizika, kimyo, biologiya singari fanlar xususiy usullar orqali izlanish bilan bu predmetlar doirasi chuqurlashsa, izlanishning umumiy usuli (masalan, modda tuzilishiga ko'ra, energiya-ni saqlanish va aylanish nazariyasiga ko'ra) orqali esa ularning bilim doirasi yanada kengayadi. Fan tarixida tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlar tizimi va har bir tizimni tashkil etuvchi aniq predmetlar vujudga kelgan ekan, ularning har biri aniq tadqiqot usuliga ega. Ularning tadqiqot usullarida esa umumiy, o'xshash tomonlar bo'lishi mumkin.

Ilmiy bilishning hamma fan uchun tegishli bo'lgan umumiy usullari mavjud. Ilmiy bilishning bu metodlari fan taraqqiyotida garchi umumiy hisoblansa ham, dialektik usulga nisbatan xususiy bo'lishi mumkin. Lekin bu usullar (xususiy holda) dialektik (umumiy) usul bilan bog'langandir. Xususiylilik bilan umumiylikning bog'lanishi qonuniy jarayondir.

Har bir aniq usul ilmiy bilish jarayonida bir-biri bilan bog'liq yoki bir-biriga zid bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir usulni qo'llash bilimning haqiqiy bilim ekanligini isbotlashda va shu usul orqali bilim yanada chuqur va keng mazmun asosida boyib borishini ko'rsatadi. Masalan, klassik fizikaning rivojlanishi natijasida nisbiylik nazariyasi, kvant mexanikasi, elementar zarralar fizikasi kelib chiqdi. Mikrofizika qonunlarini o'rgatish va tahlil qilish natijasida uni klassik fizika tatbiq etishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Shunday qilib, bilish jarayonida ilmiy tadqiqotning xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo'lib, ular o'zaro bir-biri bilan

bog'liq. Dialektik usul real olamni ilmiy bilishning eng umumiy usuli bo'lib, u barcha fanlar metodologiyasidir. Dialektik usul xususiy fanlar erishgai yutuqlardan foydalanib ularning usullari bilan birgalikda rivojlanadi, ular bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Xususiy, umumiy va eng umumiy usullar tadqiqotning yaxlit sistemasini tashkil etadi.

Hozirgi zamon fan taraqqiyoti bilimlarning tez o'sishi, uning sifat va miqdor jihatidan salmog'ining oshib borishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonning ikki tomoni bo'lib, birinchidan, ilmiy bilish tufayli tabiiy va ijtimoiy voqelikning tobora murakkab obyektlari o'zlashtirilmoqda. Bu hol ilmiy bilish jarayonida tadqiqot usullari haqidagi masala bilishning jiddiy masalasiga aylanayotganligini isbotlamoqda. Ikkinchidan, ilmiy texnika inqilobi sharoitida ilmiy bilish faoliyatining shakllari va usullari, tartib-qoidalari, mantiqi va tuzilmasi hamda yangidan-yangi yutuqlarni qo'lga kiritish imkoniyatlarini yaratmoqda.

## 2. Ilmiy bilishning empirik darajasi

Ilmiy bilishning bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri-ikkinchisini to'ldiradigan ikkita darajasi mavjud, ularga empirik va nazariy darajalar kiradi. Mazkur darajalarning har biriga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ular nimalardan iborat? Ilmiy bilishning empirik darajasi kishilarning ehtiyojlarini qondirish jarayonida ularning kundalik tajribalari asosida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayangan holda olamda ro'y berayotgan hodisalarni bilishga qaratilgan. Bundan farqli o'laroq, ilmiy bilishning nazariy darajasi ilm fan yordamida to'plangan bilimlar asosida olamdagi narsa va hodisalarning mohiyatini aks ettirishga qaratilgandir.

Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalarining yana bir xususiyati shundan iboratki, agar birinchisi, kishilarning olam haqidagi kundalik, sodda bilimlariga asoslangan bo'lsa, ikkinchisi esa olam haqidagi falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy tasavvurlarga asoslanadi. Shuning uchun ham kishilar olamdagi narsa va hodisalar haqida chuqur va mukammal bilimlarga ega bo'ladilar.

Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari bir-biridan olamdagi narsa va hodisalarni o'rganish jarayonida foydalanadigan ilmiy usullari bilan ham farqlanadi.

Ilmiy bilishining empirik darajasida quyidagi usullar keng qo'llaniladi: kuzatish, o'lchash, taqqoslash, ilmiy tajriba (eksperiment).

**Kuzatish** – voqelikdagi narsa va hodisalarning muayyan maqsadga muvofiq qaratilgan hissiy bilish usulidir. Kuzatishning qay darajada bo'lishi qo'yilgan maqsadning aniqligiga, kuzatilayotgan narsa va hodisalar haqida oldindan bilimga ega bo'lishiga bog'liqdir. Kuzatishda subyekt asboblardan foydalaniladi. Asbob kuzatish darajasini kengaytiradi, kuzatilayotgan narsani idrok qilish qobiliyatni kuchaytiradi. Kuzatish bevosita (asbobsiz) yoki vositali (asbob bilan) olib boriladi. Kuzatish jarayonida subyekt obyektning miqdor va sifat jihatlarini in'ikos ettiradi va aniqlab oladi.

**O'lchash** – bilish jarayonida narsaning miqdor tavsifnomasini aniq lash usulidir. O'lchov odatda o'rganilayotgan predmetni aniq qayd etilgan hossa va belgilarga ega bo'lgan boshqa biror bir predmet bilan nisbatlash yo'li orqali amalga oshiriladi. O'lchash usuli orqali predmetlarning hossalarni, masalan, mustahkamligini, murakkabligini va boshqa tomonlarini aniqlash mumkin.

**Taqqoslash** – bilish faoliyatida tatbiq qilinadigan usul bo'lib, bilimlarning shakllanishi, rivojlanishida alohida bir bosqichdir. Ob'ektiv reallikdagi narsa va hodisalarni «qayta o'rganish» jarayonida ma'lum bo'lgan bilimlar bilish operatsiyasi bajarilayotgan vaqtda olingan bilimlar bilan taqqoslanadi. Izlanuvchi avvalgi ma'lum bilimlarga tayangan holda izlanayotgan obyektga xos bo'lgan o'xshash va farqli tomonlarni taqqoslash orqali aniqlaydi. Bu usul ma'lum darajada fizika, matematika, kimyo, geologiya, biologiya va boshqa fan sohalarida keng qo'llaniladi. Taqqoslash bir narsa yoki hodisaning ikkinchi bir narsa yoki hodisadan farqli va o'xshash tomonlarini hamda ularning munosabatlarini o'rganish usuli hisoblanadi.

**Eksperiment** – tajribada sinab ko'rish orqali fanda hodisalarni bilish faoliyatida tadqiq qilish, o'rganish usuli hisoblanadi. Eksperiment kuzatishga qaraganda yuqoriroq darajadagi bilish usulidir. Eksperiment obyektini tegishli tajriba moslamalarini tatbiq qilish orqali obyektga ta'sir ko'rsatish, izlanuvchi eksperiment usulini qo'llash orqali o'zini qizitirgan obyektning tomonlarini o'rganishi uchun unga faol ta'sir ko'rsatadi, buning uchun sun'iy sharoitlar yaratadi, shu sharoitda tekshirish olib boradi, ma'lumotlar to'playdi.

Eksperiment usuli hodisalarning muhim belgilari va xususiyatlarini, ularning boshqa narsa va hodisalar bilan munosabati, aloqa va bog'lanishlarini chuqurroq o'rganishga imkoniyat yaratadi. Bu usul izlanuvchiga tabiiy sharoitda kuzatish orqali hosil qilish mumkin bo'lmagan bilimlarni olish imkoniyatini beradi. Kuzatish eksperiment

bilan uzviy bog'langan. Ilmiy tadqiqotning sohalariga qarab tadqiq qilinuvchi predmetlarning tabiatiga qarab eksperimentlar fikriy eksperiment ham bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda ijtimoiy hodisalarni o'rganishda eksperiment usulining zarurligi kelib chiqqanligi va qo'llanilayotganligi ta'kidlanmoqda.

**Abstraksiya** (mavhum tasavvur) – predmetlarning muayyan munosabatdagi muhim hossalarni bilish usulidir. Abstraksiyalash hodisa, narsaning hossalarni, munosabatlarini taraqqiyot bosqichlarining fikran usulidir. Abstraksiyalash usuli analiz (tahlil qilish) va sintez (umumlashtirish) vositalarini o'z ichiga oladi. Analiz va sintez dunyoni bilish jarayonida ishlatiladigan o'zaro bir-biri bilan bog'langan usullardir.

Yuqorida aytib o'tilgan usullar orqali to'plangan ma'lumotlar analiz va sintez tu fayli har tomonlama tahlil etiladi va umumlashtiriladi. Natijada o'rganilayotgan obyektlarning o'zaro aloqadorligi haqida muayyan empirik bilimlar hosil bo'ladi, ularni tasnif etish imkoniyati vujudga keladi.

**Analizda** o'rganilayotgan narsa va hodisa, fikr mayda bo'laqlarga, ya'ni elementlarga bo'linadi va ular o'rtasidagi bog'lanishlar o'zaro munosabat va ta'sir o'rganiladi. Tarkibiy qismlarni sintez qilish uchun analiz qilinadi. Elementlarni boshqatdan birlashtirganimizda analiz natijalari o'rganiladi. Insonning atrofini o'rab turgan obyektiv borliq murakkab va ko'p qirrali bo'lib, aniq narsa va hodisalardan iborat. Ular xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega. Ana shu ko'p qirrali, murakkab narsa va hodisalarni o'rganish va bilish, ular to'g'risidagi tushunchalarimizni chuqurlashtirish uchun shu narsa va hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratish, analiz qilish kerak. Lekin bu usul bilan shu narsalarni to'la bilish mumkin emas, shuning uchun u sintez yo'li bilan to'ldiriladi.

**Sintez** analizning natijalariga suyanib, narsa va hodisalarning bir butun sifatini o'rganadi. Sintez analiz natijasida fikran bo'lingan elementlarni qaytadan tiklash, ularni birlashtirish, ilgari yaxlitlikni fikran vujudga keltirish usulidir.

Analiz tadqiqot jarayonida bilishning tayyorgarlik ko'rish bosqichi hisoblansa, sintez uni yakunlaydi. Analiz va sintez yordamida o'rganilayotgan hodisalarning empirik qonuniyatlari aniqlanadi, shakllanadi.

Empirik qonun empirik bilimning yuqori shakli hisoblanadi. Empirik bilimlarni umumlashtirishda induktiv usulidan foydalaniladi

Ilmiy bilishda induktiv usul asosida qonuniyatlar ochiladi, tushunchalar maydonga keladi. Bu usul narsa va hodisalarning sababiy

bogʻlanishlarini tekshirish usuli hisoblanadi. Induksiya deduktiya bilan mustahkam bogʻlangan.

**Analogiya** (moslik, aynaylik, oʻxshashlik) usuli yordamida ikki predmetning oʻxshash xususiyatlari oʻrganiladi.

**Ideallashtirish** – bilish jarayonida obyektни qulaylash-tirish usuli. Bu uslida real obyekt ideal obyekt bilan almashtiriladi. Bu usul tabiiyot fanlarining tadqiqot usuli hisoblanadi. Masalan, fizikada shunday usul orqali fizik obyektlar: ideal gaz, mutlaq qattiq jism, mutlaq qora jism, geometriya fani oʻrganayotgan obyektlar, toʻgʻri chiziq, kvadrat, shar va boshqalarni ideallashtirilgan obyektlar deb qarash mumkin. Ideallashtirish usulida real predmet ega boʻlmagan hossalarni oʻrganish usuli hisoblanadi. U reallikning nisbatan ishonchli manzarasini hosil qilishga yordam beradi. Bu hol amaliy maqsad uchun etarli hisoblanadi.

**Modellashtirish** – borliqni bilvosita oʻrganishga asoslangan ilmiy usuldir. Modellashtirish asosida tadqiq qilinayotgan obyekt bilan uning modeli oʻrtasidagi oʻxshashlik, muvofiklik yotadi. Modellashtirish usuli ilmiy tadqiqot jarayonini engillashtiradi, baʼzi hollarda murakkab obyektlarni oʻrganishning yagona vositasi hisoblanadi. Bu usul oʻrganish qiyin boʻlgan obyektlarni tadqiq etishda qoʻllaniladi. Masalan, yirik fizik Boming atom modeli atomning murakkab xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Bu usul obyektning faqat maʼlum xususiyat va munosabatlarinigina emas, balki yangi xususiyat va munosabatlarini ham aniqlash usuli hisoblanadi.

Modellar ikki xil: moddiy va gʻoyaviy boʻlishi mumkin. Moddiy narsalardan yasalgan modellar moddiy-modellar deyiladi. Bu modellar obyektlarning taraqqiyot joʻshqinligini, ularning mohiyatini ifodalovchi zaruriy, qonuniy aloqalarni, munosabatlarni qayta hosil qiladi. Gʻoyaviy modellar esa gʻoya shaklida mavjud boʻlishi mumkin. Masalan, matematik modellashtirish fizik jarayonlarning matematik ifodalardir. Matematik modellashtirish obyektiv yaxlit tekshirish va tadqiq koʻlamini oʻrganish imkonini beradi. Kibernetik moslamalar, EHMlar shu usul asosida vujudga kelgan.

Hozirgi ilmiy bilish jarayonida keng qoʻllaniladigan usul – tizimlash usulidir. Murakkab obyektlarni ilmiy bilishda bu usul qoʻllaniladi. Tizimli usullash oʻz ichiga muayyan tarzda oʻzaro bogʻlangan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etadigan unsurlar majmuini oʻrganishni oladi. Bu usul asosida oʻrganilayotgan yoki izlanayotgan obyektning boshqa obyekt bilan umumiy bogʻlanishlari, munosabatlari ochiladi. Har bir tadqiq objekti va uni tashkil etuvchi unsurlar bir butun

tizim deb olinsa, shu tizimni tashkil etuvchi har bir usul bir-biri bilan o'zining tutgan o'rni, vaqti va imkoniyatlariga ko'ra funksional bog'langan. Bu unsurlardan birining o'zgarishi ikkinchisining ham o'zgarishga olib keladi. Shuning uchun ham bu unsullarni o'rganish tizimlash usuliga asoslanadi. Har bir tizimni o'rganishda uni boshqa tizimlar bilan birgalikda olib qarash kerak. Lekin bu tizimlarni birdaniga, bir vaqtda bilish mumkin emas, lekin ularni bilish, bir-biridan ajratish, o'zaro bog'liqlikda olib qarash mumkin.

Ilmiy bilishning empirik darajasi uch bosqichdan iborat bo'lib, uning birinchi bosqichida alohida-alohida o'rganilgan hodisalar haqidato'ttlangan bilimlar hosil bo'ladi. Uning ikkinchi bosqichida mazkur bilimlar umumlashtirilib hodisalarning o'rtasidagi aloqa va bog'lanishlar aniqlanadi. Nihoyat, empirik darajaning uchinchi bosqichida narsa va hodisalarga xos empirik qonunlar aniqlanadi. Shu bilan empirik daraja tugatiladi. Uning natijasida yig'ilgan ma'lumotlar bilishning nazariy darajasiga zamin, poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### 3. Ilmiy bilishning nazariy darajasi

Ilmiy bilishning nazariy darajasida ilgari to'plangan ma'lumotlar asosida olamdagi narsa va hodisalarning alohidagi shakllari emas, balki keng miqdordagi bir qancha hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik va taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlaydi. Mazkur asosiy qonunlar birqancha empirik qonunlarning yig'indisidan tarkib topgan bo'lib, olamning ilmiy manzarasini ifodalaydigan nazariya va konsepsiyalarda namoyon bo'ladi. Bunday bilimlar o'zining mazmun-mohiyati bilan falsafiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Bilishning nazariy darajasi bir qator xususiyatlarga ega. Ular quyidagilardan iborat: 1) nazariy bilimlar o'zining umumiyliги va mavxumiyligi bilan ajralib turadi; 2) nazariy bilimlar yaxlit va tizimli bilimlar hisoblanadi; 3) u falsafiy bilimlar bilan yaqinligi bilan tavsiflanadi; 4) empirik bilimlarga nisbatan mukammal bilimlar hisoblanib, hodisalarning mazmun-mohiyatini atroflicha va chuqur aks ettiradi.

Nazariy bilimlarni hosil qilishda mavhum tafakkur katta rol o'ynaydi. Bilimning nazariy darajasida ilmiy tadqiqotning keng ma'noda qo'llaniladigan mavhumlik va aniqlik usullari mavjuddir.

*Aniqlik* usuli tadqiqot obyektining hossalari, aloqalari, munosabatlarining ko'p qirrali birligi sifatida nazariy umumlashtirish vositasi hisoblanadi. Bu usul aniq hodisalar haqidagi barcha aloqa va muno-

sabatlarni o'z ichiga olgan voqelik haqidagi bilimni yuzaga chiqaradi. Aniq voqelikning mohiyati haqidagi bilish vositasi mavhumlik usuli hisoblanadi. Tafakkurning o'zini tasavvur vositasi bilan voqeylikni bilish usuli deb qarash mumkin.

Tasavvur predmetni bilib olishning eng muhim usulidir. Tasavvur vositasi bilan muayyan munosabatdagi muhim xossa munosabatlar mohiyati ochiladi. Tasavvur usuli voqelik hodisalarini chuqurroq, to'g'riroq aks ettiradi. Bu usul asosida tadqiq qilinayotgan obyekt fikran tahlil qilinadi, mavhum ta'riflarga bo'linadi. Bu ta'riflarning tuzilishining aniq bilimga erishish vositasidir. Fikrning bu harakati mavhumlikdan aniqlikka tomon yuqorilab borish usuli hisoblanadi.

Aksiomatik usul tadqiqotning aksiomalarga asoslanib nazariy xulosalar chiqarish usulidir. Asos qilib olingan aksiomalar esa muayyan nazariy tizimda isbotlanmay haqiqiy deb qabul qilinadi. Nazariy bilimlar to'la ravishda aksiomalardan deduktiv yo'l bilan chiqariladi. Aksiomatik usulga muvofiq natijalar sifatida ulardan xulosa chiqariladi.

Aksiomatik usulga yaqinroq bo'lgan, lekin undan farq qiluvchi gipotetikdeduktiv usul bo'lib, bu usulning asosi aksioma emas, balki tajriba ma'lumotlari majmuidir.

**Tarixiylik va mantiqiylik** obyektiv dunyo taraqqiyot jarayonlarining muhim xususiyatlarini bilish usulidir. Tarixiylik usuli narsa va hodisaning ro'y berish vaqti, davri, aniq vujudga kelishi, rivojlanishini bilish usulidir. Har bir hodisani tarixiy nuqtai nazardan, aniq tajriba asosiga bog'lab o'rganmoq zarur.

Tarixiylik usulining o'ziga xos xususiyati tarixiy harakatni uning butun boyligi bilan payqab olishga ingilishdir. Har bir narsaning tarixini ochib berish uning taraqqiyotidagi asosiy tarixiy bosqichlari, ularning aloqalarini ajratib ko'rsatishni talab qiladi. Buning uchun esa uning mohiyati haqida nazariy bilim bo'lishi kerak. Mantiqiy usul predmetning mazmunini nazariy shaklda tadqiq qilish usuli hisoblanadi. Bu usul tadqiqot obyektning eng muhim aloqalarini bilib olishga imkon beradi.

Mantiqiy bilish usuli obyektiv reallikni, uning aloqalarining butun rang-barangligini aks ettirish vazifasini bajaradi. Tafakkur uslubi orqali vujudga kelgan nazariy bilimlar nisbatan tugallangan bilimlar tizimi bo'lib, bu tizim o'z taraqqiyoti jarayonida o'zgarib boradi. Mantiqiy tafakkur uslubida ko'r-ko'rona harakat bo'lmaydi, balki u bilimlarni umumlashtiradi, ayniqsa, tarixiylikni tasodifiy chetlashishlardan saqlaydi.

Tadqiqotning tarixiylik va mantiqiylik usullari o'zaro dialektik bog'lanishda. Tarixiylik va mantiqiylik dialektik birlikda aniq tarixiy



bilimlar asosida har bir voqelik tarixining asosiy yo'nalishlari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi.

Bilishning nazariy darajasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar yordamida ilgari to'plangan ma'lumotlarni fikran qayta ishlab chiqqan holda olamning ilmiy manzarasi yaratiladi.

**Olamning ilmiy manzarasi** – bu fikrning asosiy (poydevor) nazariya tushunchalari, tamoyil va gipotezalardan tarkib topgan falsafiy bilimlarga asoslangan olam haqidagi umumiy qarashlar yig'indisi majmuidir. Bunga misol sifatida o'tmishda Galiley va Nyuton tomondan yaratilgan olam haqidagi mexanik manzara, XVII asrda shakllangan olamning fizikaviy manzarasi, hozirgi zamonda keng tarqalgan A.Eynshaynning nisbiylik nazariyasiga asoslangan olamning ilmiy manzaralarini eslatib o'tish joiz.

Olam haqidagi ilmiy manzaraning har birining asosida ilmiy bilishning nazariy darajasida yaratilgan muayyan ilmiy tamoyillar yotadi. Masalan, mexanika fanining asosini inersiya tamoyili, nisbiylik nazariyasining asosiniy – nur tezligining barqarorligi va h.k. tashkil etadi.

Ilmiy tamoyil poydevor, boshlang'ich nuqta, boshlanish manosini anglatadi. Masalan, falsafa fanida olamdagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqadorligi va taraqqiyoti, ularning inson ongida aks ettirilishi bilish nazariyasining asosiy tamoyillari hisoblanadi. Shu kabi barcha fanlarida ham bir qator asosiy ilmiy tamoyillar mavjud.

Olam haqidagi ilmiy manzaraning ajralmas qismi hisoblangan gipoteza ham nazariy bilimlar turqumida muhim o'rin egallaydi.

**Gipoteza** – olam haqidagi ilmiy manzarani konkretlashtirish yoki uni yangi g'oyalar, bilimlar bilan boyitishga qaratilgan bo'ladi. Gipoteza bilish jarayonida isbotlansa olam haqidagi ilmiy manzaraning tomoyiliga aylanish yoki yangi ilmiy tamoyilning kelib chiqishga asos bo'lishi mumkin.

Olam haqidagi ilmiy manzarani yaratishda ilmiy nazariya katta o'rin egallaydi. Ideallashtirish aksiomatik, gipotetik, deduktiv usullari asosida yaratilgan ilmiy nazariya narsa va hodisalarning eng chuqur aloqalarini aks ettiradigan, ilmiy asoslangan, sistemalashtirilgan bilimlar tizimini tashkil etadi. Ilmiy nazariyaning poydevorini bilishning empirik va nazariy darajalarida to'plangan ma'lumotlar tashkil etadi, ayniqsa, nazariy darajada qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosiy rol o'ynaydi.

Nazariy bilimlar asosida voqelikdagi narsa va hodisalarning taraqqiy etish qonuniyatlarini izohlash yoki ularni bashorat qilish imkoniyati yaratiladi. Hodisalarni izohlash ilmiy nazariyadagi qonun-

lardan ma'lum xulosalar chiqarish demakdir. Bashorat qilish ilmiy qonunlar talablarini e'tiborga olgan holda hodisalarning kelgusi taraqqiyotini oldindan ko'ra bilishdir. Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, hodisalarni izohlash, ularning taraqqiyot yo'nalishlarini oldindan ko'ra bilishda nazariy bilimlar, qonunlar asosiy rol o'ynaydi.

Shunday qilib, ilmiy bilish bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiradigan empirik va nazariy darajalardan tarkib topgan bo'lib, olamdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik va taraqqiyot qonunlarini bilish, ularga ongli ravishda yondashi imkoniyatini beradi. Bilish jarayonida qo'lga kiritilib falsafiy g'oyalalar bilan boyitilgan ilmiy axborotlar kishilarning dunyoqarashini shakllantirish, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirishda qudratli ma'naviy kuch hisoblanadi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Ilmiy bilishning empirik darajasini tavsiflab bering.
3. Bilishning empirik darajasida qaysi usullardan foydalaniladi?
4. Ilmiy bilishning nazariy darajasining xususiyatlari haqida so'zlang.
5. Nazariy bilishning shakllariga nimalar kiradi?
6. Olam haqida ilmiy manzara yaratishda falsafiy g'oyalarning ahamiyati nimalardan iborat?

### **Tayanch tushunchalar**

**Ilmiy bilish** – ilm-fan yordamida olamni tushunish, bilish.

**Empirik daraja** – ilmiy bilishning quyi bosqichi.

**Nazariy daraja** – ilmiy bilishning yuqori bosqichi.

**Olamning ilmiy manzarasi** – olam haqida nazariy bilimlar asosida hosil bo'lgan qarashlar majmui.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: «O'zbekiston», 1995, 3–23-betlar.
2. Komilova S. Yoshlar tarbiyasida ilmiy merosimizning o'rimi. – T.: «Mehnat», 2000, 3–35-betlar.

---

---

## OLTINCHI BO'LIM. JAMIYAT FALSAFASI

### XIV MAVZU: JAMIYATNI FALSAFIY ANGLASH ASOSLARI

#### Reja:

1. Jamiyat tushunchasi va uning asosiy jihatlari. Jamiyatning moddiy asosi.
2. Davlat va siyosiy tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o'рни.
3. Oila va ijtimoiy – etnik birliklar jamiyat tarkibining muhim qismi.
4. Jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlar.

#### 1. Jamiyat tushunchasi va uning asosiy jihatlari. Jamiyatning moddiy asosi

Olamni bilish nafaqat tabiat balki jamiyat hodisalarini falsafiy tahlil etishni taqozo etadi. Shuning uchun ham jamiyat nima, u qanday qilib paydo bo'lgan, jamiyat taraqqiyotining manbai nimada kabi savollar kishilarni doimo qiziqtirib kelgan. Jamiyatning kelib chiqishi, uning taraqqiy etish qonuniyatlari haqida Sharq mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, ibn Sino va boshqalar bir qancha ajoyib fikrlarni ilgari surganlar.

Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida, jamiyat insonlarning xohishi bilan o'zlariga kerak bo'lgan iste'mol mahsulotlarini birgalashib ishlab chiqarish niyatida tashkil etilgan jamoa birlashmasi, deb yozadi.

«Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun qo'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, insonlarni bir-birlariga bog'lovchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning

uchun inson shaxslari ko'paydilar va urning aholi yashaydigan qismiga o'mashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»<sup>1</sup>.

Beruniyning fikricha, jamiyat insonlar tomonidan «shartnoma» asosida tuzilgan. Uningcha, «inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga xos o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabiladagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratiga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilishi ham zarurdir»<sup>2</sup>.

Ibn Sino jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak, jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar asosida yashashlari zarur deb ta'kidlaydi.

Olmon faylasufi Gegelning qo'rsatishicha, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarning asosiy sababi «mutlaq g'oya»ga bog'liqdir. U o'zining «Falsafa tarixi» asarida «mutlaq g'oya» kishilik jamiyati tarixini harakatga keltiruvchi kuch, deb ko'rsatadi.

Tabiat va jamiyatning taraqqiyoti ham, ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti ham «mutlaq g'oya», abadiy ruh taraqqiyotidan kelib chiqadi, degan qarash Gegel falsafasining asosiy g'oyasini tashkil etadi.

Jamiyat taraqqiyoti sabablarini g'oyalarga bog'lab tushuntirish, dunyoni aql idora qiladi deb hisoblash faqat Gegel ta'limoti uchungina emas, balki Feyerbaxga ham xosdir.

«Xristianlikning mohiyati» degan asarida Feyerbax jamiyat tarixida ro'y bergan barcha o'zgarishlar diniy ta'limotlar, qarashlar o'zgarishidan kelib chiqadi degan fikmi ilgari suradi. Dinni takomillashtirish yoki yangi bir din o'ylab topish, Feyerbaxning fikricha, jamiyatni o'zgartirish yo'li hisoblanadi.

Jamiyat tushunchasi odatda keng va tor ma'noda ishlatiladi. Keng ma'noda bu tushuncha tabiatdan ajralib chiqqan moddiy dunyoning tarkibiy qismi, o'z-o'zidan rivojlanib turadigan kishilar hayotiy faoliyatlarning majmuini ifodalaydi, tor ma'noda esa u kishilik tarixining muayyan bosqichi yoki ijtimoiy tuzumning aniq turini anglatadi.

Kishilik jamiyati tabiat tadrijiy taraqqiyotining muayyan bir bosqichida vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar yig'indisidir. Kishilik jamiyati taraqqiyoti olamda ro'y berayotgan umumiy qonuniyat jara-

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: «Xalq merosi», 1993, 183-184-betlar

<sup>2</sup> Buyuk siymolar, allomalar. - T., 1995, 51-bet

yonining muhim bir tarkibiy qismini tashkil etadi va u tabiatda ro'y berayotgan dialektik rivojlanish bilan bevosita bog'langandir.

Tabiat taraqqiyotining oliy mahsuli bo'lgan jamiyatni kishilarning faoliyati yaratadi, shu bilan birga odamning o'zi ham jamiyat taraqqiyotining mahsulidir.

Kishilik jamiyati odamlarning ishlab chiqarish faoliyati asosida vujudga kelgan. Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'zaro muayyan ijtimoiy aloqa va munosabatlarda bo'ladilar. Ishlab chiqarish munosabatlarining ja'mi ijtimoiy munosabatlar deb ataladigan narsani, ya'ni jamiyatni vujudga keltiradi, vujudga keltirganda ham tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida turgai jamiyatni vujudga keltiradi.

Ilmiy falsafa jamiyatga mavhum, g'ayri-tarixiy qarashga, ya'ni uni vaqt bilan va uning o'zi turgan muayyan taraqqiyot bosqichi bilan bog'lanmagan holda izohlashga asoslangan metafizik tushunishlardan, umuman jamiyat yo'q va bo'lmaydi, balki tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida turgan, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan jamiyat mavjuddir, deb hisoblaydi.

Jamiyat qotib qolgan emas. Insoniyat singari har bir alohida jamiyat ham doimo taraqqiy etib, o'tmishdan kelajakka tomon yuksalib, ilgarilab boraveradi. Jamiyat taraqqiyoti asosini mehnat, ishlab chiqarish tashkil etadi. Moddiy boyliklarni tabiat insonga tayyor holda etishtirib bermaydi. Tabiat baxsh etgan narsalar bilan o'z ehtiyojlarini qondiruvchi hayvonlardan farqli o'laroq, inson tirikchiligi uchun zarur bo'lgan moddiy buyumlarni o'zi ishlab chiqaradi. Hayvonlar tabiatga moslashadi. Inson esa tabiatga faol ta'sir ko'rsatib, uni o'zgartiradi, o'zlashtiradi va o'z maqsadi yo'lida undan foydalanadi. Inson o'zining bitmas tugalmas mehnati bilan tabiatga ta'sir ko'rsatadi, ishlab chiqarishni amalga oshiradi.

Moddiy boyliklar yaratish quyidagi uch jihatni o'z ichiga oladi: 1) maqsadga muvofiq faoliyatni, ya'ni mehnatni; 2) mehnat predmetlarini, turli xildagi tabiiy materiallarni (ishlangan materiallarni ham); 3) mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatish uchun xizmat qiladigan mehnat vositalarini (ularning asosiy tarkibiy qismi ishlab chiqarish qurollaridir, ishlab chiqarish qurollari asboblardan, mashinalardan, avtomatlar va boshqalardan iborat).

Moddiy ishlab chiqarish usulining o'zi nimadan iborat? Ishlab chiqarish usuli moddiy boyliklarni ishlab chiqarish jarayonidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatlarining birligidan iborat. Ishlab chiqarishning, bu ikki muhim tomonning o'zaro aloqador-

ligisiz mehnat qilish ham, moddiy ne'matlarni yaratish ham mumkin emas.

Moddiy boyliklar ishlab chiqarmoq uchun avvalo, mehnat predmetlari va mehnat vositalariga ega bo'lmoq zarur. Inson mehnati qaratilgan buyumlar mehnat predmetlari deb ataladi. Mehnat predmetlari ishlab chiqarish jarayonida muhim o'rin tutadi. Mehnat vositalariga, avvalo, ishlab chiqarish qurollari, mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatishda inson tomonidan foydalaniladigan mashinalar, asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalari va boshqalar kiradi. Mehnat vositalari, ya'ni mehnat jarayonining moddiy elementlari ham bo'lib, ishlab chiqarish vositalarini tashkil qiladi.

Barcha mehnat vositalari ichida ishlab chiqarish qurollari ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun, demak, jamiyatni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega. Odamlar mehnat qurollarisiz ishlab chiqara olmaydilar. Inson ana shu qurollar yordami bilangina tirikchilik vositalarini hosil qiladi.

Mehnat qurollari ishlab chiqarish jarayonida juda katta rol o'ynasa ham, odamsiz bu qurollar yaratilmaydi, ishlatilmaydi. Har qanday mehnat quroli, inson amaliy faoliyati samarasidir. Inson mehnat qurollarining yaratuvchisigina emas, shu bilan birga undan foydalanuvchi, ularni doimiy ravishda takomillashtiruvchi hamdir.

Ishlab chiqarish qurollarini yaratish va ularni ishlatish odamlarning faoliyatisiz bo'lmaydi. Demak, inson – ishlab chiqaruvchi kuchlarning eng muhim bo'lagi, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Eng asosiy ishlab chiqaruvchi kuch sifatida inson yangi mashina va mexanizmlarni ixtiro qiladi, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etadi, ilmiy kashfiyotlar qiladi, fan va texnikani, adabiyot, san'at va madaniyatni rivojlantiradi, yangi texnologiyani yaratadi. Inson o'zining bilimi, tajribasi, malakasiga tayanib ishlab chiqarishni amalga oshiradi. Inson faqat ishlab chiqaruvchi kuchdan iborat emas. Shu bilan birga, u ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning subyekti hamdir.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ularning asosiy qismlari xususida, hozirgi sharoitda fan va texnikaning o'sib borayotgan roli va ahamiyati haqida fikr yuritmasdan bo'lmaydi. Inson ishlab chiqarish qurollarini takomillashtira borib, o'zining ishlab chiqarish malakasini ham o'zgartiradi.

Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotning hozirgi tarixiy bosqichida, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlaridan ijtimoiy ishlab chiqarishda, inson amaliy faoliyatining barcha sohalarida muntazam

ravishda foydalanmasdan turib olg'a rivojlanib bo'lmaydi. Moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi, mehnat unumdorligining o'sib borishi ham shunga bevosita bog'liq. Fan ishlab chiqarishga, xalqlarning turmush darajasi, madaniyati, axloqi, dunyoqarashiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Hozirgi paytda ishlab chiqarishni zamonaviy qurollar bilan ta'minlashda, jamiyat taraqqiyotida fanning tutgan o'rnini va ahamiyati beqiyos darajada kuchaydi.

Fan va texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish yangidan-yangi tarmoqlarining yuzaga kelishi va turmushda qo'llanishiga zamin yaratadi. Radiotexnika, radioelektronika, elektron texnikasi, sintetik kimyo. Yadro energetikasi, sun'iy to'qimalar kimyosi, elektron hisoblash mashinasi — bular va boshqa shu kabilar fan va texnikaning yangi zamonaviy tarmoqlaridir. Insoniyatning atom energiyasini egallash, koinotni o'zlashtirish, avtomatlashtirish, kibernetika, matematika, fizika, biologiya fanlari yutuqlaridan foydalanish borasida erishgan natijalari xayron qolarlik darajada son-sanoqsizdir. Demak, hozirgi sharoitda ishlab chiqaruvchi kuchlar, ayniqsa, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jahon miqyosida tezkorlik bilan rivojlanayotgan ekan, bu albatta, fan va madaniyatning rivojlanishining qonuniy oqibatidir.

Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida kishilar xohish ista'laridan qat'i nazar bir-birlariga bog'liq bo'ladilar, har bir ishlab chiqaruvchining mehnati esa ijtimoiy mehnatning kichkina bir qismiga aylanadi. Ishlab chiqarish har doim va har qanday sharoitda ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, ikki xil munosabatlarni, ya'ni kishilarning tabiatta hamda bir-birlariga bo'lgan munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlari yoki iqtisodiy munosabatlardir. Moddiy munosabatlar odamlar o'rtasidagi barcha mavjud munosabatlarning eng asosiysi va muhimidir. Ular boshqa hamma ijtimoiy munosabatlarni — turli guruhlar, tabaqalar o'rtasidagi, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi. Ma'naviy, mafkuraviy, ijtimoiy, siyosiy, oilaviy, axloqiy va boshqa munosabatlar ham ishlab chiqarish munosabatlariga yoki moddiy munosabatlarga bog'liq.

Moddiy ishlab chiqarishning asosini turli shakldagi mulkchilik tashkil etadi. Moddiy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi xuddi shu mulk shakllari bilan bevosita bo'liqdir. «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risidagi qonuni»ga muvofiq, hozirgi kunda jamiyatimiz iqtisodiy negizini turli ko'rinishdagi (davlat; nodavlat (xususiy mulk, shirkat (jamoat) mulki, aralash mulk, boshqa davlatlar hamda xalqaro

tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar mulki va h.k.) mulk shakllari tashkil qiladi.

## 2. Davlat va siyosiy tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o'rni

Davlatning kelib chiqishi, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida har xil qarashlar mavjud. «Ijtimoiy shartnoma» nazariyasi namoyondalari *Tomas Gobbs* (1588–1679 yy.), *Jan Jak Russoning* (1712–1778-yy.) fikricha, davlat va huquq odamlar orasidagi ongli ravishda tuzilgan shartnoma natijasida paydo bo'lgan. Kishilar uzoq vaqg yashab kelgan «tabiiy holatda» cheklanmagan shaxsiy erkinlikka ega bo'lganlar. Keyinroq ular o'rtasida turli ziddiyatlar kelib chiqqanligi tufayli o'z xavfsizligini, xususiy mulkni va boshqa shaxsiy huquqlarni ta'minlash uchun davlat foydasiga bu erkinliklardan voz kechishga ongli sur'atda qaror qilganlar va bu haqida shartnoma tuzganlar. Natijada davlat yuzaga kelgan.

«Zo'rlik nazariyasi»ning tarafdori *E.Dyuring* (1833–1921-yy.), davlat boshqalarning hududini zo'ravonlik bilan tortib olib ma'lum bo'lgan kishilarga zo'rlik o'tkazish uchun ta'sis etilgan degan g'oyani ilgari surgan.

Ilmiy falsafa nuqtai nazaridan qaraganda davlat jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida fuqarolik boshqaruv tizimining emirilishi tufayli paydo bo'lgan siyosiy institutdir.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'ziga mos davlat tizimiga ega. Davlat o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi jihatidan asosan uch turda: federativ, konfederativ, unitar (yaxlit) tarzda ho'lishi mumkin. Bu davlatning tarkibidagi qismlarning markaziy hokimiyat bilan o'zaro munosabatlari, shuningdek, har bir hududiy qismning mavqei turlicha mohiyat kasb etishidan kelib chiqadi.

*Federativ davlatlar* avtonom (muxtor) respublikalar, shtatlar, hududiy er birliklaridan tashkil topadi.

*Konfederatsiyani* ta'sis etuvchi davlatlar o'z mustaqilliklarini to'liq saqlab qolgan holda, muayyan bir maqsadda o'z kuchlarini uyg'unlashtirib ish yuritadilar.

*Unitar (yaxlit) davlatlar*, federadiyadan farqli o'laroq, viloyat, o'lka, tuman, guberniya, graflklar singari ma'muriy-hududiy qismlardan tashkil topgan tuzumdur. Davlatning zaruriy belgilarini qurolli kuchlar – armiya, politsiya, sud, prokuratura va boshqa tuzilma-



larning mavjudligi, o'zining davlat chegarasi, davlat ramzlari (madhiya, bayroq, gerb), davlat tili, Konstitutsiyasi, valyutasi birligi tashkil etadi.

Shuningdek, har qanday davlat o'zining davlat boshqaruv tizimiga ega. Dunyo davlatchiligi taraqqiyotida boshqaruvning asosan ikki shakli — monarxiya va respublika shakllari mavjud. Respublika o'z navbatida, parlamentar va prezidentlik ko'rinishlariga ega.

**Prezidentlik respublikaning** parlamentar respublikadan asosiy farqi shundaki, Prezident xalq tomonidan saylanib, davlatning va ijroiya hokimiyatning boshlig'i hisoblanadi, huqumat Prezident tomonidan tuziladi va unga hisobot beradi.

**Parlament respublika** esa, parlament, ya'ni oliy vakillik, qonun chiqaruvchi Prezidentni va huqumat tarkibini saylaydi va ularni o'ziga itoat ettiradi.

Davlat hokimiyatining mustahkamligi, istiqboli uning xalq ommasining manfaat va ehtiyojlarini qay tarzda ifoda etishiga bevosita bog'liq. Shuning uchun xalq ommasi davlatni demokratik asosda boshqarishdan manfaatlidir.

Jamiyatning olg'a tomon rivojlanib va taraqqiy etib turishida siyosiy partiyalar alohida o'rin tutadi. Siyosiy partiyalar ma'lum bir ijtimoiy guruhlar, tabaqalarning manfaatlarini ifodalaydi va ularga xizmat qiladi. Siyosiy partiyalarni yo'l boshchilar deb ataladigan eng obro'li, tajribali kishilardan iborat birmuncha barqaror guruhlar idora qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda siyosiy partiyalar saylov tizimi vositasida markazdagi yoki joylardagi hokimiyatni qo'lga kiritish yohud undagi lavozimlarni saylovda olan ulushlariga qarab mutanosib ravishda taqsimlab olishga harakat qiladilar.

Barcha demokratik davlatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham partiyalarning o'zaro kurashi, g'oya va qarashlarining raqobati, saylovchilar ovozi uchun kurash bo'lishi tabiiy. Albatta, bu kurash mamlakatda qabul qilingan qonun-qoidalar doirasida olib borilishi kerak.

Bugungi kunda mamlakatni yangilash va yanada demokratlash-tirish, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish borasidagi maqsadlarga izchillik bilan erishishda siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirish vazifasi birinchi navbatda saylov jarayonlarida fuqarolarimizning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, aholining xohish-irodasini ifoda etish, ularning markazda va joylarda davlat hokimiyatini shakllantirish

masalalarida bevosita ishtirok etishini ta'minlashning hal qiluvchi vositasi sifatida muhim o'rin tutadi.

«Siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari hokimiyat tizimlaridan, avvalo hokimiyatning saylab olinayotgan organlaridan o'rin olish uchun kurashar ekanlar, aniq maqsadlari, harakat dasturlari bo'lishi kerak. Toki bu dasturlarning amalga oshirilishi mamalakatdagi ijobiy o'zgarishlarga barakali ta'sir etsin»,<sup>1</sup>– deydi I.A.Karimov.

Siyosiy partiyalar kabi jamoat tashkilotlari ham jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va xo'jalik hayotida muhim rol o'ynaydi. Ular o'z vazifalarini o'ziga xos shakllar va usullar asosida bajaradilar.

Jamoat tashkilotlari, uyushmalari ixtiyoriylik asosida barpo etilgan bo'lib, nizomlari va harakat dasturlarini o'zlari qabul qiladilar, o'z vakolatlari qirgan masalalarni o'zlari mustaqil hal etadilar. Ularning butun faoliyati o'zini-o'zini boshqarish, demokratik me'yor va asos e'tibor asosida olib borilishi lozim.

«Nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdan maqsad, – deydi I.A.Karimov, – jamiyat a'zolarining manfaatlari muvozanatini ta'minlash va himoya qilish. Siyosiy va ijtimoiy sohada esa davlat tizimlariga muqobil kuch sifatida ular adolat tarozisini hayot hukmron qilishga hissa qo'shishlari lozim»<sup>2</sup>.

Jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalari muhim o'rin egallaydi. Ommaviy axborot vositalari hamisha jamoatchilik fikriga kuchli ta'sir o'tkazishga qodir bo'lgan ma'naviy quroldir. «Ayni shu ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak. Ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongina shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi kerak»<sup>3</sup>.

### 3. Oila va etnik birliklar jamiyat tarkibining muhim qismi

Oila – jamiyatning kichik hujayrasi, jamiyat tarkibining muhim qismi bo'lib hisoblanadi. U kishilarning tabiiy-biologik, huquqiy, ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy-etnik birlikdir. Oila – jamiyatning negizidir. «Bizning davlatimizni ham, – deydi I.A.Karimov,

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.:«O'zbekiston», 1999, 21-bet.

<sup>2</sup> O'sha joyda.

<sup>3</sup> O'sha asar, 30–31-betlar.

– katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, oilaning barcha a‘zolari o‘z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va man‘aviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi.

O‘zbeklarning aksariyati o‘zining shaxsiy farovonligi to‘g‘risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug‘lari va yaqin odamlarining, qo‘shnilarining omor-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajada ma‘naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir»<sup>1</sup>.

**Urug‘**– qonqarindoshlik zahirida birlashgan ijtimoiy – etnik birlikning shakli bo‘lib hisoblanadi. U ibtidoiy jamoa tuzumining boshlang‘ich davrlarida vujudga kelgan.

**Qabila** – ibtidoiy jamoa tuzumining so‘ngi davrida qon-qarindosh bo‘lgan til va hududi jihatidan bir-biriga yaqin urug‘larning ijtimoiy-etnik birligidir.

**Elat** – jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichida til, madaniyat, hududiy birlik asosida bir necha qabilalar birligida yuzaga kelgan ijtimoiy-etnik shakli hisoblanadi.

**Millat** – ijtimoiy-etnik birlikning jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichlariga xos bo‘lgan shakli hisoblanadi.

**Ijtimoiy-etnik birliklar** bir-biridan o‘zining turmushtarzi, tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko‘ra farq qiladi.

Har bir millatning qiyofasi, uning katta yoki kichikligidan qat‘i nazar eng avvalo, o‘zining milliy ongi va psixologiyasida ifodalanadi.

**Milliy psixologiya** – har bir millat vakilining milliy his-tuyg‘ulari, hatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, psixik temperamenti va fe‘l-atvorlari kabi munosabatlarni namoyon etadi. Ma‘lumki, milliy tuyg‘u – bu tabiiy tuyg‘udir. Ayni paytda milliy tuyg‘u ma‘naviy hayotning juda ham nozik elementidir. Milliy tuyg‘ular esa milliy iftixor, milliy xarakter, ya‘ni milliy psixologiyaning belgilaridan biri, uning ajralmas qismidir.

Milliy his-tuyg‘u milliy iftixor bilan bog‘liqdir. U o‘z millatining tarixini, hozirgi ahvoli, milliy psixologiyasi va xarakterini ruhiy tushunish, emodional shaklda mujassamlashishidir.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqloli va taraqqiyot yo‘li. – T.: «O‘zbekiston», 1992, 22–23-betlar.

**Milliy iftixor** ham milliy o'zligini anglashning ko'rinishidir. Milliy o'z-o'zini anglashning rivojlanishi bilan milliy iftixor, milliy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-etnik birlikning muhim tomonini madaniyat tashkil etadi. Madaniyat tarixi jamiyat tarixining ajralmas bir qismidir. Madaniyat tushunchasi inson faoliyati tufayli yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.

Har bir xalqning madaniy boyligi, aql-idroki va tafakkuri, tarixi uning tilida, yozma va og'zaki adabiyotida o'z ifodasini topadi. Til birligi millatning millat bo'lib shakllanishida eng muhim shartlardan biridir. Til bo'lmasa el ham, millat ham yo'q bo'ladi. Til millat tirikligining, uning yashab turganligi va faoliyat ko'rsatayotganligining asosidir. Til odamlar o'rtasidagi eng muhim aloqa, muloqat vositasigina bo'lib qolmay, balki u yoki bu milliy madaniyatning ulkan yutug'i, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayoti, ko'p asrlik rivojining ko'zgusi hamdir. Til shu til egasi bo'lgan xalqqa kuch-quvvat, ruhiy barkamollik beradi, unda milliy faxr-iftixorni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Ijtimoiy-etnik guruhlar hayotining asosini iqtisodiy birlik tashkil etadi. Millatlarning shakllanishida moddiy omilar, mushtarak iqtisodiy hayot kechirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy taraqqiyot kishilarning millat kabi tarixan barqaror birligining vujudga kelishi uchun asos bo'ladi.

Millatning yana bir xususiyati shundan iboratki, mushtarak iqtisodiy hayot kechirayotgan, ijtimoiy-etnik birliklari o'zaro qarindosh-urug'chilik belgilari bilan emas, balki hududiy belgilar bo'yicha ajralib turadi. Yaxlit hududda istiqomat qilish ishlab chiqarishning rivojlanishi, mehnatning tobora taqsimlanib borishi, savdoning, tovar almashuvining o'sishi natijasidir.

Shunday qilib, millat kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligidir.

Kishilarning milliy birligini davlat yoki irqiy birliklar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Davlatlar bir irqdan yoki turli irqlardan tashkil topishi mumkin. Millatlar esa yuqorida eslatib o'tilgan ijtimoiy-etnik belgilar bilan tavsiflanadi.

Ma'lumki, dunyoda yashayotgan etnoslarning ko'pchiligi o'z milliy davlatlariga ega emas. Shu sababli ko'p millatli va ko'p tilli

mamlakatlarda o'z davlatlariga nom bergan asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, agar mavjud ijtimoiy-etnik guruhlar o'rtasida hamjihatlik, an'anaviy uyg'unlik vujudga kelgan bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jadallashadi. Millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-aqliy boyishi uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi. Aksincha, ko'p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda hamjihatlik, uyg'unlik mavjud bo'lmasa, ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanishiga katta putur etkazilishi tabiiydir. Shuning uchun ham ko'p millatli davlatlarda istiqomat qiluvchi ijtimoiy-etnik birliklar o'rtasidagi munosabatlarga juda ehtiyotlik va ziyraklik bilan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy o'zlikni anglashning o'sishi o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan etnik guruhlar tomonidan milliy ozodlik harakatlarini keltirib chiqarishi tabiiy holdir. Milliy ozodlik harakatlarining asosiy maqsadi – mustamlakachilik zulmini yo'q qilib, mustaqil milliy davlat tuzish, millatlarning o'z taqdirini o'zi hal qilishiga erishish, chet el davlatlari hukmronligini tugatish, milliy qadriyatlarni, odamlarning o'ziga xos xususiyatlari va an'alarini saqlab qolishga qaratilgan obyektiv ehtiyojdir. «Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi Er yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmog'i kerak.

Va bu maqsad, birinchi navbatda, ushbu etnik guruhlarini o'z ichiga oluvchi har bir alohida davlatning vazifasidir»<sup>1</sup>.

O'rta Osiyo xalqlarining chorizm mustamlakachilariga qarshi XIX asrning ikkinchi va XX asrning birinchi yarmida olib borgan kurashlari, bugungi kunda dunyoning turli hududlarida sodir bo'layotgan vaziyatlar milliy ozodlik harakatlarining naqadar avj olib ketganidan dalolat beradi. Millatlararo munosabatlar ayni vaqtda, davlatlararo munosabatlarni tashkil etishdagi muhim omil ekanligini hech qachon esdan chiqarmaslik darkor. Bunga Yugoslaviya, Ukraina, Isroil va Falastin

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 73–74-betlar.

o'rtasidagi keskinliklar yaqqol misol bo'la oladi. Etnik tozalash siyosati tufayli sayyoramizning turli mamlakatlarida sodir bo'layotgan migratsiya jarayonlari mazkur davlatlarning ijtimoiy-etnik tarkibining xilma-xil bo'lishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, birqator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Misol tariqasida shuni ko'rsatib o'tish joizki, hozirgi davrda Olmoniya Federativ Respublikasida ikki milliondan ortiq turk migrantlari istiqomat qiladilar. Fransiyaga ko'chib kelgan migrantlarning soni bundan kam emas. Angliya va AQSh ma'muri-yatlari ko'chib kelayotganlar sonini cheklash yo'llarini izlab, turli qonunlar ishlab chiqmoqdalar.

Sobiq ittifoq parokanda bo'lib, uning o'rnida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi tufayli milliy o'zlikni anglash jarayoni yanada rivojlanib ketdi. Yangi mustaqil davlatlarga eski tuzumdan meros bo'lib qolgan mazkur muammolar millatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yishda alohida e'tibor berishni talab qilmoqda.

Ko'p millatli davlatlarda ijtimoiy-etnik munosabatlardagi uyg'unlikni ta'minlashda barcha etnik guruhlarining manfaatlarini e'tiborga olish katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy manfaat teran ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, millatlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotini har tomon-lama qamrab oladi. Boshqacha aytganda, haqqoniy milliy manfaatlar bu muayyan millat vakillarining qo'llab-quvvatlayotgan talab va ehtiyojlari yig'in-disidan iboratdir. Mana shunday qarashdagi milliy manfaatlar va ehtiyojlar boshqa millat vakillari manfaatlariga zid bo'lmazligi kerak. Bir millat «o'z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining xuddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro'yobga chiqarmasligi lozim. Bazi millat, etnoslar vakillarining boshqalarga takaburlik bilan, mensimay munosabatda bo'lishi kabi holatlar yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan har qanday sharoitga barham berish lozim»<sup>1</sup>.

Millatlar va milliy manfaatlar, milliy ehtiyojlar mavjud ekan, ularni nazar-pisand qilmaslikka aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bir millatning manfaatlari boshqa millat va elatlarning manfaatlaridan ajratilmagan holda o'rganilishi lozim. U yoki bu millatning manfaati umumxalq, umummilliy manfaatlar bilan uyg'un bo'lmog'i kerak. Umummilliy manfaatlar milliy manfaatlardan farqli o'laroq alohida yoki bir guruhdagi kishilarni emas, balki mamlakatdagi barcha mavjud millat,

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O'zbekiston», 1997, 74-bet.

elat va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi, umumiyli-gini ifoda-laydi. Milliy va umummilliy manfaatlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratib yoki bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi.

Umummilliy manfaatlar milliy manfaatlarga nisbatan ustuvor turadi. Umummilliy manfaatlar quyidagilarni ifodalaydi:

– barcha xalqlarning millatidan va yashash joyidan qati nazar, teng huquqliligi va erkin rivojlanishini ta'minlash;

– xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi, milliy qadr-qimmatni qaror toptirish;

– ona tili va madaniyatini, xalq urf-odatlari va an'analarini rivojlantirish huquqi bilan ta'minlash;

– kam sonli xalqlarning, milliy guruhlarning manfaatlari va qiziqishlarini himoya qilish, ular turmushining an'anaviy shakllariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, qatag'onga uchragan va zo'rlab ko'chirilgan xalqarning huquqlarini tiklash, mana shu zo'ravonlik harakatlari oqibatlarini bartaraf etish, ularga zaruriy yordam berish;

– milliy ekstremizm, shovinizm, irqchilik, fuqarolarning millatlariga yoki tiliga, turmush yoki yashash joyiga qarab kamsitilishining har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish;

– har qanday ko'p millatli davlatning milliy xavfsizligini ta'minlash va qo'riqlash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan munosabatlarning barchasi aynan hayotimiz mezonidan kelib chiqayotgan haqqoniy talablardir. Bularga vaqtida e'tibor bermaslik, o'z navbatida, ko'plab salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi muqarrar.

Ma'lumki, O'zbekiston xalqining etnik tarkibida tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Shu bilan birga, respublikamiz hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashamoqda. O'rta Osiyo tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan keng fe'llikning mavjudligi bilan ajralib turadi. «Xalqimiz, – deydi I.A.Karimov, – va davlatimizning tarixiy xotirasida antisemitizm, irqchilik va o'zga millatga, o'zga xalqqa mensimasdan, hurmatsizlarcha munosabatning boshqacha shakllari namoyon bo'lgan sharmandali sahifalar yo'qligi bilan faxrlanadi»<sup>1</sup>.

Millatidan qat'i nazar insonlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam ko'rsatish

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXII asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 73–74–betlar.

O'zbekiston xalqiga xos fazilatlardandir. Bu xalqimiz tinchligining asosiy manbaidir.

Milliy munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning ajralmas qismidir. Shuning uchun ham milliy va millatlararo munosabat-larda ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, qiyinchiliklar, ziddiyatlar o'z aksini topmay qolmaydi. Har qanday rivojlanishga ham ziddiyatlar xos bo'ladi, ular millatlararo munosabatlar sohasida ham muqarrardir. Eng muhimi ularning doimo yuzaga kelib turadigan jihatlari va qirralarini ko'ra bilish, hayot o'rta qo'yayotgan savollarga o'z vaqtida to'g'ri javob topib berishdan iborat.

Mustaqillikka qadar nashr etilgan ilmiy ishlarda, sobiq rahbarlarning balandparvoz nutqlarida milliy munosabatlarda hech qanday muammo yo'qligi, bo'lishi ham mumkin emasligi haqida zo'r berib gapirildi, bu sohadagi yutuqlar bir yoqlama, faqat yaxshi tomondangina bayon etildi va bo'rttirildi, real haqiqat buzib ko'rsatildi. Umumtaraqqiyotning barcha sohalarida mavjud bo'lgan ziddiyatlar haqida, millatlararo munosabatlarda, madaniyat sohasida, aholini oziq-ovqat, uy-joy, tibbiy xizmat bilan ta'minlash, milliy kadrlarni o'stirish kabi sohalardagi muammolar e'tiborga olinmadi, kerakli chora-tadbirlar ko'rilmadi. Buning natijasida ko'p yillar davomida yuzaga kelgan muammolar yig'ilib-yig'ilib ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlash-tirdi va sobiq tuzumning emirilishiga olib keldi.

Shuni eslatib o'tish joizki, milliy siyosatdagi buzilishlarning katta qismi shaxsga sig'inish davrida yuz berdi. Ko'plab xalqlar, elat va millatlar qatag'on qilindi. 1941–1945-yillarda Shimoliy Kavkaz va Qrim aholisi – qalmoqlar, chechenlar, ingushlar, qorachoylar, Qrim tatarlari va boshqalar zo'ravonlik yo'li bilan o'z yurtlaridan Sharqqa tomon ko'chirildi. Ko'chirilgan xalqlarning umumiy soni taxminan uch million kishini tashkil qildi. Majburiy ravishda o'z hududlaridan badarg'a qilingan xalqlarga nisbatan asossiz cheklashlar joriy etildi, ularning barcha haq-huquqlari va erkinliklari kamsitildi.

O'tgan asrning 50–60-yillarda milliy munosabatlar sohasidagi salbiy xatolar ko'paygandan ko'payib boraverdi. Milliy munosabatlardagi muammolar, kamchiliklar va qiyinchiliklar xususida sukut saqlandi, keng jamoatchilikdan bor haqiqat atayin yashirildi, yutuqlar keragidan ortiqcha maqtaldi. Millatlar va elatlarning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy manfaatlari e'tiborga olinmadi.

O'tgan asrning 60–70-yillarda mamlakat iqtisodiyotida ro'y bergan tanglik, ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy sohalardagi buzilishlar,



poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, o'z vazifasini suiste'mol qilishlar, qo'shib yozishlar va boshqa salbiy hodisalar milliy va millatlararo munosabatlarning holatiga keskin ta'sir ko'rsatdi. Ana shu salbiy hodisalarning hammasi har xil millatchilik kayfiyatlarining namoyon bo'lishi, millatlararo nizolar vujudga kelishi uchun negiz yaratdi.

Mustaqillik tufayli jamiyatimizning barcha sohalarida sodir bo'layotgan tub sifat o'zgarishlar millatlar va millatlararo munosabatlarni takomilashtirilishiga qulay shart-sharoitlarni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda shulardan to'liq foydalangan holda milliy va millatlararo munosabatlar sohasidagi barcha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish ustida muntazam ravishda ko'pgina ijobiy ishlar qilinmoqda.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, millatlararo munosabatlar sohasida muayyan, noantagonistik ziddiyatlarning mavjudligi yangi mustaqil davlatlarning qaror topish davri uchun real hodisadir. Lekin mavjud ziddiyatlarning xalqlar va davlatlarning xavfsizligiga tahdid soladigan fojiali oqibatlarga olib boruvchi millatlararo mojarolarga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Milliy va millatlararo munosabatlar sohasidagi muammolarni hal qilishda mintaqadagi etnik-nufus vaziyatni, aholining polietnik tarkibini hisobga olish katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning tub aholisi – o'zbeklardir. Shu bilan birga, mamlaktimizda qoraqalpoqlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, tatarlar, ozarbayjonlar, boshqirdlar, uyg'urlar, slavyan xalqlaridan – ruslar, ukrainlar, beloruslar, shuningdek, polyaklar, cheklar, slovaklar, forslar, pushtunlar, balujlar, koreyslar, armanlar, yahudiylar va boshqa millatlar vakillari istiqomat qiladi.

Ularning turli-tuman ehtiyojlarini qondirish uchun respublikamizda qator chora-tadbirlar qilinmoqda. Ona tilida ta'lim olish borasidagi ehtiyojlari to'laroq qondirilmoqda. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, madaniyat va ma'naviy boyliklarni taqsimlash masalalarida ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanilmoqda. Milliy tillarda ro'znomalar, kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa adabiyotlar nashr etilmoqda. Ko'pchilik millatlarning ehtiyojlarini hisobga olib teleko'rsatuv va radio eshittirishlar ko'paymoqda, milliy madaniyat markazlari ochilmoqda. Boshqa millatlarning vakillari davlat va jamoat ishlariga jalb qilinmoqda.

Etnik guruhlar, millatlararo munosabatlar masalasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar qanday salbiy oqibatlarga olib kelganligini, nimalarda namoyon bo'layotganligini bilish, milliy masalada kelajakda bunday vaziyatlar takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularni keltirib

chiqargan va keskinlashtirib yuborgan sabablarni chuqur va atroflicha idrok qilish milliy siyosat yuritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda barqarorlik, tinchlikni saqlab, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishda millat va elatlar o'rtasidagi do'stlikni kuchaytirish, ularning hamkorligani mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan har bir milliy madaniyatdagi yutuqlar, uning ijobiy, foydali tomonlarini doimiy ravishda o'rganish, ulardan keng va atroflicha foydalanish milliy madaniyatlarni o'zaro boyitishning, kishilarni baynalminal ruhda tarbiyalashning zarur yo'llaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida barcha etnik guruhlar va millatlar o'rtasida shu hududda yashaydigan har qanday odamga o'zini erkin va teng huquqli deb his qilish uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Ularning fuqarolik, shaxsiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy huquqlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida kafolatlangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunida O'zbekiston Respublikasining hamma fuqarolari «ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar» teng saylov huquqiga ega deb yozib qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston hududida yashaydigan etnik ozchilikning huquqlarini himoya qilish to'g'risida ham alohida ko'rsatib o'tilgan. Konstitutsiyada yozilganidek, «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

Shuni alohida qayd etish lozimki, jamiyatimizda kundun-kunda mustahkamlanib borayotgan milliy hamjihatlik, milliy birdamlik nafaqat respublikamiz tub aholisi – o'zbeklar, qoraqalpoklar bilan boshqa millatlar o'rtasida, balki O'zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning vakillari orasida ham etnik-madaniy asoslarda jipslashish jarayonlari faol yuz bermoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda 80 dan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular ko'p millatli O'zbekistonning jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobiy rol o'ynamoqda. Millatlararo tinchlik, totuvlikni ta'minlashda o'zbek millatining boshqa suveren davlatlarda, xususan,

O'rta Osiyo mamlakatlarida yashayotgan o'z etnik qardoshlari bilan yaqin munosabatda bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda ko'pgina o'zbeklar boshqa respublikalarda yashab kelmoqdalar. Masalan, Tojikistonda jami aholining 24,4 foizini, Qirg'izistonda – 13,8 foizni, Turkmanistonda – 9,0 foizni, Qozog'istonda – 2,5 foizni o'zbeklar tashkil etadi.

Ma'lumki, Turkiston xalqlarining ko'p asrlik tarixi, boy madaniyati, rang-barang urf-odat va an'analari bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular Turkistonni o'zlarining muqaddas vatani deb bilganlar. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Turkiston – umumiy uyimiz» g'oyasi mintaqamizda istiqomat qiluvchi milliy-etnik birlikni yanada mustahkamlab, mintaqamizda barqarorlik, tinchlikni saqlab qolishda qo'l kelmoqda. «Turkiston – umumiy uyimiz» g'oyasini, asoslangan o'zaro munosabatlar kontseptiyasini ilgari surar ekanmiz, – deydi I.A.Karimov, – mintaqada ham, unga kiradigan ayrim davlatlarda ham insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibga solinishini istaymiz».

Millatlararo munosabatlar jarayonida milliy va mintaqaviy xavfsizlikka putur etkazishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatlarning oldini olish uchun quyidagi qoidalarga amal qilishimiz kerak:

1. Davlatning etnik siyosati shaxs huquqlarini himoya qilishning ustuvor bo'lishiga asoslanishi darkor, shuningdek, milliy ozchilikning huquqlari ham kamsitilmasligi shart.

2. Davlatning etnik siyosatidagi bosh yo'l millatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi lozim.

3. Jamiyatimizning bozor munosabatlariga asoslanadigan iqtisodiy taraqqiyoti respublikamizda yashayotgan barcha millatlarning manfaatlariga mos bo'lmog'i kerak.

Millatlararo hamdo'stlik, tinchlik, totuvlik – mustaqillik tufayli qo'lga kiritilgan eng katta yutug'imizdir.«O'zbekiston aholisining ko'p millatliligi, – deb yozadi I.A.Karimov, – o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shinishi uchun qulay shart-sharoit yaratmoqda»<sup>1</sup>.

Xalqlarimiz azaldan orzu qilib kelgan millatlararo do'stlik, hamjihatlik, tinchlik, totuvlikka erishgan ekanmiz, endilikda bizning

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 72,84–betlar.

oldimizda turgan dolzarb vazifa – ana shu oliy ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni qo‘ldan bermay, avaylab-asrab, ko‘z qorachig‘iday ehtiyot qilib, saqlab qolish ustida doimiy harakat qilishimiz darkor. Bunga respublikamizda yashovchi har bir inson – yoshidan, millatidan qat‘i nazar, o‘z hissasini qo‘shmog‘i kerak.

#### 4. Jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlar

Jamiyat taraqqiyoti inson faoliyatining ifodasidir. Kishilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan xilma-xil aloqa va munosabatlar, ularning haqiqiy voqelikka, tabiatga bo‘lgan munosabatlari amaliyotda o‘z ifodasini topadi. Amaliyot kishilarning shunday faoliyatidirki, bu faoliyat jamiyatning yashashi va rivojlanishini ta‘minlaydi.

Inson o‘zining amaliy faoliyatida tashqi olamga ta‘sir etadi, uni o‘z ehtiyojlari asosida o‘zgartiradi. Inson o‘z amaliy faoliyati jarayonida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi, moddiy boyliklar yaratadi, madaniyatni yuksaltiradi. Ijtimoiy hayotning o‘zgarishi inson ijtimoiy amaliyoti tarzida sodir bo‘ladi.

Jamiyatning rivojlanishi obyektiv qonunlar asosida kishilarning faol amaliy faoliyati tufayli ro‘yobga chiqadi.

Kishilar faoliyati tasodifiy ravishda ro‘y beradigan ko‘r-ko‘rona jarayon emas. Kishilar o‘z oldilariga aniq maqsadlarni qo‘yib, uni amalga oshirishga intilar ekanlar, bu intilishlarning zaminida gavdalangan rivojlanish qonunlarini bilish yotadi. Jamiyat taraqqiy etishi uchun faqat obyektiv shart-sharoitlarning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun subyektiv omillar ham etilgan bo‘lishi zarur.

Jamiyat a‘zolari qancha ongli bo‘lsa, ya‘ni subyektiv omil roli tez o‘sib borsa, jamiyat taraqqiyoti shunchalik tezlashadi.

Xalq ommasining bunyodkorlik faoliyati, avvalo, uning, moddiy boyliklar yaratishda o‘z ifodasini topadi. Inson ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ularni ishlab chiqaradigan murakkab mehnat qurollari, asbob-uskunalar, texnologiyaning ijodkori-xalq ommasidir. Er yuzidagi barcha shaharlar, qishloqlar, qadimgi dunyoning karvon yo‘llarini, katta-katta inshootlar, sug‘orish kanallari va ko‘priklarni xalq o‘z mehnati bilan barpo etgan. Xalq ommasi o‘z mehnati bilan Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Toshkent, Shahrisabzdagi va boshqa ulkan tarixiy obidalarni yuzaga keltirgan va keltirmoqda.

Xalq ommasi jamiyatning barcha ma‘naviy boyligini yaratuvchi kuch hamdir. Kishilarning ma‘naviy hayoti garchi ular moddiy

turmushining in'ikosi sifatida yuzaga kelgan bo'lsada, lekin u o'z navbatida butun ijtimoiy taraqqiyotga g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiyotida, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi va takomillashuvida, mehnat unumdorligining o'sib borishida ilm-fan va madaniyatning, inson aql-idroki va zakovatining qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini isbotlab o'tirishning hojati yo'q.

Xalq ommasining ijtimoiy taraqqiyotda hal qiluvchi kuch ekanligi uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida ham namoyon bo'ladi. Xalq ommasi tarix davomida bo'lib o'tgan barcha o'zgarishlarning hal qiluvchi kuchi hisoblanadi.

Xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy sohadagi faoliyati uning jahonda tinchlikni mustahkamlash yadro urushi boshlanib ketishiga yo'l qo'y-maslik uchun olib borayotgan kurashida ham o'z ifodasini topmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida xalq ommasi ichidan chiqqan buyuk shaxslar, arboblardan, sarkardalardan katta rol o'ynaydilar. Tarixiy jarayonlar mohiyatini boshqalarga nisbatan chuqurroq tushunadigan, uzoqni ko'radigan yo'lbo'shchilar, rahbarlar xalqning baxt-saodati, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish uchun astoydil harakat qiladilar. Bunday shaxslarga xalq o'zining issiq bag'rini ochadi, qo'llab-quvvatlaydi, e'zozlaydi.

Tarixiy jarayonlarning subyekti va harakatlantiruvchi kuchlari bo'lgan xalq ommasi muayyan ijtimoiy – etnik tabaqalardan tashkil topadi.

Jamiyatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish tufayli sodir bo'layotgan mulkiy jarayonlarning o'zgarishi kishilarning keskin tabaqalanishiga – oshib-toshib ketgan boylar-u, qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Hozir bizning jamiyatimizda ishchilar, dehqonlar, ziyolilar bilan bir qatorda yangidan shakllanayotgan mulkdorlar sinfi faoliyat ko'rsatmoqda. Davlat halol mehnat qilayotgan har bir kishiga o'z oilasini boqish, bilim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, o'zining qarindosh-urug'larining qadr-qiyamatini himoya qilish uchun barobar imkoniyatlarni vujudga keltirmoqda.

«Mustaqil O'zbekistonning siyosiy xususiyati uning barqarorligida, turli siyosiy oqimlarning ijobiy tarzda o'zaro hamjihat bo'lib harakat qilishida, sinfiy, ijtimoiy va diniy belgilariga qarab bir-biriga qarama-qarshi turgan turli siyosiy guruhlariga bo'linishining yo'qligida namoyon bo'lmoqda»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995, 167-bet.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o'zning paydo bo'lish va rivojlanish qonunlariga egadir. Shu bilan birga, ularning har birida jahon tarixining yagona bir jarayoniga bog'lovchi umumiy qonunlar ham amal qiladi. Insoniyat jamiyati tarixida turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar bir-birining o'rnini egallaydi.

Taraqqiyot hech qachon to'xtab qolmaydi. Insoniyatga xos bo'lgan o'sish, o'zgarish va rivojlanish bir tuzumdan boshqasiga o'tish jarayonidagina emas, ayni paytda har bir tuzum doirasida quyi bosqichdan yuqori bosqichga tomon rivojlanish jarayoniga ham xosdir.

Kishilik jamiyatining o'sishi, o'zgarishi va rivojlanishi o'tmishdan kelajakka tomon borayotgan jarayonni ifoda etadi. Ishlab chiqarish qurollarining oddiy, qo'pol toshbolta va nayzalardan hozirgi zamonning murakkab texnikasi tomon borayotganligi buning isbotidir. Jamiyat hayotining qaysi bir tomonini olib qaramaylik. hamma joyda harakat, o'sish, o'zgarish mavjudligini ko'rmay ilojimiz yo'q. Kishilik jamiyatidagi taraqqiyot olamda ro'y berayotgan umumiy dialiktik jarayonning muhim bir tarkibiy qismini tashkil etadi.

Tarix o'zgaruvchandir. Bu o'zgaruvchanlik insoniyat jamiyati hech qachon bir nuqtada turib qolmasligi, ijtimoiy taraqqiyot vaqt singari orqaga qaytmaydigan jarayondan iboratligini ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiyoti hamma bitta yo'ldan, o'tmishdan hozirga, hozirdan kelajakka tomon boradi.

Tarixiy taraqqiyot jahonning barcha mamlakatlarida bir xil tezlikda bormaydi. Bu narsa tarixiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidan kelib chiqadi. Xalqlar, mamlakatlarning, millatlarning ijtimoiy rivojlanishda tutgan o'rnini, yuksalish sur'ati ham bir xilda bo'lmasdan, balki turlicha bo'lgan. O'zgaruvchan tarixiy taraqqiyot jarayonida ayrim xalqlar olg'a ketib, boshqalari esa o'zining yuksalish imkoniyati jihatidan tsivilizatsiya taraqqiyotining turg'un shakllari bilan chegaralanib qolganlar. Biroq tarixiy sharoitning o'zgarishi bilan sivilizatsiyaning ulkan yutuqlari chegarasidan chetda qolib ketgan xalqlar va millatlar ham tarixiy taraqqiyotning oqimiga kelib qo'shildilar, ilgari qoloqlik, turg'unlik holatidan qutilib, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotda etakchilik qilayotgan xalqlarga etib oladilar, hatto ulardan o'zib ham ketishlari mumkin.

Tarixiy taraqqiyot nurafshon yo'l bilan boradigan harakat sifatida keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, bu tizimning bir butun qismini va uning ayrim bo'g'inlarini tavsiflaydi. Ijtimoiy hayotda ilmiy-texnik taraqqiyot bilan birga ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy taraqqiyot, axloqiy

taraqqiyot va boshqalar ham mavjud bo'ladi. Ularning hammasi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat hayoti u yoki bu tomonlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Jamiyatga falsafiy yondashishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
2. Jamiyat hayotining asosiy sohalari nimalardan iborat? Ularning xususiyatlari haqida so'zlang.
3. Jamiyat taraqqiyotida oila va ijtimoiy-etnik birliklarning o'rni haqida nimalar bilasiz?
4. Millat nima? Milliy va millatlararo munosabatlar mohiyatini so'zlab bering.
5. Tarixiy jarayonning subyekti va harakatlantiruvchi kuchlari deganda nimani tushunish kerak?
6. Tarixiy jarayonda xalq ommasi amaliy faoliyatining o'sib borishi va buyuk shaxslarning tutgan o'rni haqida, fikr-mulohazalarinigizni bildiring.

### **Tayanch tushunchalar**

**Davlat** — fuqarolik boshqaruv tizimining emirilishitufayli paydo bo'lgan siyosiy institut.

**Siyosiy tashkilot** – davlat, siyosiy partiyalar, jamoa tashkilotlarini ifodalovchi tushuncha.

**Oila** – jamiyatning negizi.

**Urug', qabila, elat, millat** – jamiyat etnik birliklarining shakllari.

**Jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlar** – xalq ommasi, buyuk shaxslar, ijtimoiy tabaqalar.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 49–69 betlar.
2. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: «Xalq merosi», 1993.
3. Rustamova M. «Katta og'a» va tor millatchilik munosabatlari-ning kelajagi yo'q. – T.: «O'zbekiston», 1999, 3–22-betlar.

---

---

## XV MAVZU: JAMIYAT TARAQQIYOTINING OMILLARI

### Reja:

1. Ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyot.
2. Qadriyatlar – jamiyat taraqqiyotining poydevori.
3. Madaniyat jamiyat taraqqiyotining qudratli ma'naviy kuchi.
4. Milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.

### 1. Ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyot

Jamiyatning ma'naviy hayoti qamrovi nihoyatda keng, mazmunan chuqur, shaklan xilma-xildir. Ma'naviy hayot inson aql-idroki va tafakkurining barcha mahsullarini jamiyat tomonidan to'plangan madaniy boyliklarida ifodalangan yutuqlarni, ijtimoiy ong shakllarini, kishilarning g'oyalarini, qarashlari, tasavvurlari, dunyoqarashi, odo-axloqi, butun ma'naviy olamni qamrab oladi. Jamiyat ma'naviy hayoti, boshqacha aytganda, umuman ma'naviy ishlab chiqaridishi o'z ichiga oladi.

Maorif, ilm-fan, adabiyot, san'at, kino va teatr, xalq ijodiyotining jamiki durdonalari inson ma'naviy faoliyatining muhim elementlari, ko'rinishlari, tarkibiy qismlaridir. Kutubxona va muzeylar, radio va televidenie, matbuot, umuman ommaviy axborot vositalari haqida ham shu fikrni aytish mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti iqtisodiyot bilan ma'naviyatning bir-biri bilan bog'langan, biri ikkinchisiz voqe bo'lmaydigan murakkab jarayondir. Iqtisodiyot va ma'naviyat har qanday jamiyat hayoti va taraqqiyotining o'zaro ajralmas ikki sohasi, muhim tomonlaridir. Ular biri-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib va takomillashib boradi. «Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot – jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong etukligi uning ruhi, aqli jonidir»<sup>1</sup>.

Jahon tarixiy tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotning tanho bir o'zigagina asoslangan jamiyat va davlatning tag zamini mo'rt bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-Jild. –T.: «O'zbekiston», 261-bet.



madaniy-ma'naviy, ruhiy, ma'rifiy kamolot, o'sish-o'zgarish va rivojlanish bilan chambarchas bog'langandagina jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti behad tezlashadi va yuksak samaralar beradi. Ijtimoiy hayotda tub tarixiy o'zgarishlar ana shunday sharoitlarda sodir bo'ladi. Jahondagi barcha ilg'or mamlakatlar shu boisdan ham tarixiy taraqqiyotning burilish davrlarida jamiyat ma'naviy hayoti rivojlanishi masalalariga katta e'tibor berganlar, madaniy saviyasi darajasini, ma'naviyati va madaniyatini ko'tarish zarur deb hisoblaganlar.

I.A.Karimov, jamiyat hayotining barcha jabhalari, birinchi galda iqtisodiyot ham ma'naviyatga ma'rifat bilan uzviy aloqadorligini ta'kidlab shunday deydi: «Bugun biz o'tkazayotgan islohotlarda ma'naviyat sohasidagi vazifalar mening uchun asosiy masala bo'lib kelmoqda. Nimaga deganda, bozor iqtisodiyotini ko'rish mumkin. Yangi hayotni ham albatta barpo etamiz. Xalqimizning hayot darajasini ham ko'tarib olamiz. Ishsizlik bartaraf etiladi, odamlarning daromadlari yaxshilanadi. Lekin odam nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki mening nazarimda, avvalo, ma'naviy jihatdan baquvvat bo'lishi shart. Yana bir takror aytaman: ildizi baquvvat, yangi ruhan bardam, ongi tiyrak, ma'naviy nuqtai nazardan yuksak kishilar bilan oldimizda turgan barcha muammolarni hal etish oson kechadi»<sup>1</sup>.

Iqtisodiy va siyosiy omilar singari ma'naviyat va ma'rifat ham jamiyat taraqqiyotini tezlashtirish va jadallashtirishning eng muhim sharoitlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Dunyodagi har bir millat va xalqning katta-kichikligidan qat'i nazar ma'naviy boyliklarga ehtiyoj sezgan va sezayotganligi tarixiy haqiqatdir.

Ma'naviy hayot yuksak bo'lmagan joyda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyati yuqori darajada bo'lmaydi. Dunyoga kelish va yashashdan maqsad qorin to'ydirib boylik ortirish deb hisoblagan odam to'q, farovon, madaniy turmush kechirish me'yorlarini ham bilmaydi. Ma'naviyati etuk insonlar kelajakni oldindan ko'rishga, qiyinchiliklarni engishga, og'ir sharoitda ham yuksak maqsadlarni oldiga qo'yib, ularga ishonch-ixlos, iymon-e'tiqod bilan intilishga qodir bo'ladi.

Madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat odamlarni jamiyat talablari, qonun-qoidalar, odob-axloq me'yorlari asosida yashash va faoliyat ko'rsatishga, insonparvarlik, halollik, ijtimoiy adolatlilik, umuminsoniylik g'oyalari va tamoyillariga astoydil sodiq bo'lishga yo'naltiradi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-Jild. -T.: «O'zbekiston», 121-bet

Odamlarning madaniy-ma'naviy saviyasi basharti past bo'lsa, uning salbiy oqibatlarini iqtisodiyotda ham, ijtimoiy sohalarida ham, oilada ham, jamoatda ham kishilarning o'zaro munosabatlari, odob-axloqi, turmush tarzlari va yurish-turishlarida ham albatta seziladi. Iymone'tiqod sustlashgan, ma'naviy omilar zaiflasha boshlagan joyda odamlardan mehr-oqibat ko'tarila boshlaydi, haqiqiy insoniy munosabatlarga putur eta boshlaydi.

Ma'naviy boyliklardan oqilona, har tomonlama foydalanishning ahamiyati va bebaholigi uning turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qarindosh, hamkor-hamjihat qilishda, ularning taqdirini, o'zaro hurmat asosini yaqinlashtirishda ham yaqqol ko'rinadi. U inson hayotini go'zallashtiradi, tumushiga mazmun va mohiyatini bag'ishlaydi. Ma'naviy hayotda boy bo'lgan insonning qalbi pok va beg'ubor bo'ladi.

Jahon falsafasining tarkibiy qismi bo'lgan Sharq falsafasida insonda ikki qarama-qarshi asos, modda (jism) va ruh mavjudligi alohida ta'kidlanadi. Ana shu ikki asos inson vujudida mutanosib bo'lishi, biri ustuvorlik qilib, boshqasi orqasiga ketmasligi kerak. Agar shu tartib buzilib moddiylik ruhidan ustun kelib ruh jism quliga aylanib unga xizmat qilgudek bo'lsa, unda inson amaliy faoliyatida salbiy holatlar avj olib, ijobiy fazilatlar keyinga surilib tashlanadi. Aksincha, ruhiy-ma'naviy tomonlari taraqqiy etgan insonlarda aqlu-zakovat, insofu-diyonat, odobu-axloq, ilmu-ma'rifat ustun bo'lib, mol-dunyoga berilish, qul bo'lish singari xato va nuqsonlardan holi bo'ladi. Ruhiy, ma'naviy jihat insonni inson qiladigan, uning hayotini go'zallashtiradigan fazilatlardandir.

Ma'nau, ruhan, axloqan kamol topgan inson nafsining quliga aylanib qolmaydi, ta'magirlik qilmaydi. eb-ichish, boylik to'plash, hayotning mazmunini, yashashdan maqsad deb tushunmaydi. Bunday inson olam sir-asrorlaridan xabardor bo'ladi, o'zi va o'zgalarni hurmat qiladi, qadrlaydi, o'zligini anglab etadi, milliy tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini yuksak darajada e'zozlaydi, ular bilan faxrlanadi. Ruhiy-ma'naviy boylik behad go'zallashtiradi va ayni paytda uni yomon odatlardan qutqaradi, noto'g'ri yo'ldan qaytarib, to'g'ri yo'lga boshlaydi, adolat uchun kurashish yo'lida kamarbasta bo'lishga davat etadi.

Inson vujudi, amaliy faoliyatida ruhiy, ma'naviy tomonlar keyinga surib tashlanib, be'mani hislar va nafsga berilish g'oliblik qilsa, unday inson nafs tuzog'iga ilinadi. Ma'naviy fazilatlardan biri – halol, pokiza yashash, birovlarining haqiga zarracha bo'lsada xiyonat qilmasliqdir.

«Turkiston mulkining shayhul mashoyixi» Xoja Ahmad Yassaviy e'tiqodicha, «haq yo'liga kirib bo'lmas pok bo'lmasdan», halol bilan haromni farqlash, faqat o'z mehnati evaziga tirikchilik qilish, harom-harishdan jirkanish, haromxo'rlikni eng katta gunohi azim va axloqsizlik deb hisoblash yassaviyning muhim g'oyalaridan bo'lib hisoblanadi. Xoja Ahmad Yassaviy ta'biricha, «nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur, yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumroh bo'lur. yotsa, tursa shayton bilan hamroh bo'lur...».

Nafsga erk bergan kishi, Sharq musulmon falsafasida qayd etilishicha, behisob azob-uqubat, kulfatlarga giriftor bo'ladi. Nafsga erk berib mol-dunyo to'plashga berilib ketgan o'zgalami o'ylamaydigan, boshqalar tashvishi bilan quyib-yonmaydigan odam odamiqliqdan chiqadi, el-yurt e'tiboridan chetda qoladi. Nafs hokim bo'lgan ko'ngillardan ruh, ma'naviyat chekinadi. Ko'ngul butunlay nafs ixtiyoriga aylanadi. Bu ko'ngil hech kimga yaxshilik keltirmaydi. Barcha razilliklar, zo'ravonliklar, barcha insofsizliklari, makruhiylar va oqibatsizliklar nafs tufaylidir, nafs bandasi bo'lib qolishning oqibatidir. Nafs – hiylakorlikning, quvlikning, shaytonlikning, uchiga chiqqan makkorlikning asosidir.

Insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib xalqimiz ma'naviyati, ma'naviy hayoti shakllanishi va rivojlanishi tarixiga nazar solsak, uning zaminlari nihoyatda mustahkam ekanligiga ishonch hosil qilamiz. U o'zining chuqur ildiziga ega. Uning ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi. Dunyodagi qadimiy tsivilizatsiyalaridan biri bizning mintaqamizda, Turonimizda paydo bo'lgan.

«Hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz, – deydi I.A.Karimov, – nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha qo'rku fayzni, mahobatni yo'qotmagan asori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Beshavqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib bugun kutubxonalarimiz xonasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo,

astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyosma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olaman»<sup>1</sup>.

O'zbekistonda ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga, inson aql zakovatining noyob va go'zal boyliklariga bundan bir necha asrlar ilgari asos solingan. Mamlakatimiz fani, san'ati, madaniyati juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning ildizlari, zaminlari chuqur, qudratli va qadimiyligini yaxshi bilamiz. Ma'naviy boyliklar, ilm-fan, aql-zakovat asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sir-asrorlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunosliqda xizmat qilib kelmoqda. Ilmlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlarini butun dunyo biladi. Bu bizlar uchun cheksiz faxr-iftixordir. «Toki bizning qonimizda, bizning suyagimizda, bizning naslimizda qanday ulug' madaniyat bo'lganini, biz nechog'lik buyuk madaniyat vorislari ekanimizni do'stlarimiz ham bilishsin. Bu maqsadni amalga oshirishni shaxsan o'zim ham qarz, ham farz deb hisoblayman»<sup>2</sup>, – deydi Prezident I.A.Karimov.

Jamiyatning ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifati umuman aytganda, ma'naviy hayot ijtimoiy-siyosiy, moddiy hayoti taraqqiyotga hamisha va har doim eng kuchli ta'sir etuvchidir. Shuning uchun ham ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonning davlat mustaqilligini barqarorlashtirish uchun eng muhim vazifasidir.

O'zbekistonning kelajakda rivojlangan buyuk davlatga aylanishi to'rtta ma'naviy negizga asoslanadi. Bu negizlar umuminsoniy qadriyat-larga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi hamda vatanparvarlikdan iborat.

Mamlakatimizning mustaqillik boshlab bergan o'ziga xos, mos taraqqiyot yo'lidan buyuk kelajak sari tezkorlik bilan ilgarilab borishi uchun xalq madaniyati, ma'naviyati, ma'rifatini doimiy ravishda yuksaltirib bormoq, ma'naviy rivojlantirishga alohida e'tibor bermoq maqsadga muvofiqdir, chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi.

<sup>1</sup> Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: «O'zbekiston», 1998, 3-4-betlar.

<sup>2</sup> Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan, 4-Jild. – T.: «O'zbekiston», 1996, 21-bet.

Ma'naviyat insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloq va odobi, avlodlar tajribasi asosida shakllanib boradi. Ma'naviyat insonning hayoti va faoliyatiga maqsad va yo'nalish beradi. Ma'naviyat insonning o'z xalqi tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqurroq bilish va tushunib etishiga yordamlashadi. Inson ma'naviyatsiz yashay olmaydi. Ma'naviyat alohida bir inson uchungina emas, jamiki odamlar uchun ham, xalq, elat va millat uchun ham, jamiyat taraqqiyoti uchun ham o'ta zarur va muhimdir. Ma'naviyatsiz inson bo'lmaganidek, ma'naviy etuk, axloqan pok va mukammal insonlarsiz jamiyat va millat ham bo'lmaydi.

Ma'naviyat insonga xos bo'lgan ichki ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, davlat, millat taraqqiyotining ham asosiy omillaridan biridir». «Ma'naviyat, – deydi I.A.Karimov, – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'qjoyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi»<sup>1</sup>.

Inson ma'naviyati jamiyat, davlat va millat ma'naviyati bilan uzviy aloqadordir. Inson va jamiyat ma'naviyati mohiyat jihatidan yaqin bo'lib, bir-birini o'zaro boyitsa va to'ldirsada, lekin ular aynan teng emas. Inson ma'naviyati millat, davlat va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismidir, xolos. Insonning ma'naviyati, shaxsning ma'naviy kamoloti jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy imkoniyat va shart-sharoitlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat va mamlakatning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti inson ma'naviy kamolotiga asos bo'ladi.

Ma'naviyat insonga suv va havodek zarur. «Sahrodagi sayyoh, – deb yozadi I.A.Karimov, – har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Er, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma'naviyatning ma'nosi ana shunday keng»<sup>2</sup>.

Ma'naviyat insonga muayyan maqsad, kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudrat baxsh etadi. Ma'naviyat insonning o'zligini anglab olishda unga yordam beradi. O'zligini anglatgan insongina, o'zligini anglagan millatgina kuchli davlat, adolatli jamiyat barpo eta oladi.

Milliy jihatdan o'zligini tanigan inson millatini, Vatanini, uning o'tmish tarixini, adabiyoti, san'ati va madaniyatini bilib oladi. O'zligini

<sup>1</sup> Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: «O'zbekiston», 1994, 9-bet

<sup>2</sup> O'sha joyda.

anglagan inson, o'zligini anglagan millat urug'-ajdodlarining aqlu zakovati va ularning hayotbaxsh meroslariga munosib bo'lishga harakat qiladi. Vatanini o'zgacha mehr bilan sevadi, u bilan cheksiz faxrlanadi, yurtim deb, elim deb yashaydi.

Ma'naviyat inson hayotini go'zallashtiradi, turmushiga mazmun va mohiyat bag'ishlaydi. Yuksak ma'naviyat va madaniyat sohibi bo'lgan insonning qalbi pok, so'zi bilan ishi bir bo'ladi.

Inson ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashi shakllanishi, talab-ehhtiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va xarakteriga bevosita bog'liq. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Demak, insonning inson sifatida shakllanishi, o'zini namoyon qilishi, ma'naviy kamoloti, qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun jamiyat o'zining barcha jabhalarida insoniylashmog'i lozim.

Tarix saboqlaridan shu narsa aniq va ravshanki, qaysi bir davlat yoki jamiyat o'zining moddiy boyliklariga ishonib, asosiy e'tiborni faqat o'ni ko'paytirishga qaratib, xalqning madaniyatini, insonning ma'naviy ehtiyojlari rivojlanishini o'ylamas ekan, u albatta, inqirozga yuz tutadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi e'lon qilingan birinchi qadamlaridanoq insonning odob-axloqi, bilimi, dunyoqarashi, ma'naviyati rivojiga katta ahamiyat berilganligi uning kelajagi buyuk ekanligiga yaqqol dalildir. Ma'naviy kamolot, bilim, odob-axloq, iymon-e'tiqod, falsafiy dunyoqarash inson uchun ham, jamiyat uchun ham bebaho boylikdir.

Yuqorida aytilganlardan yaqqol ko'rinib turganidek, ma'naviyat insonning ichki ruhiy dunyosining ma'no va mohiyatini ifodalaydi. Ma'naviyat – bu havoga o'xshab ko'zga ko'rinmaydigan, qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan narsa emas, balki u aniq shakllarda tashqarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Buni biz quyidagilardan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Birinchiidan, insonning ichki ruhiy dunyosi uning dunyoqarashida namoyon bo'ladi. *Dunyoqarash* – bu kishilarning olam haqidagi, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy voqealar, hodisalar, jarayonlar haqidagi g'oyalar, qarashlar majmuidir. Insonning dunyoqarashiga qarab uning ichki ruhiy dunyosini bilib olish qiyin emas.

Ikkinchiidan, kishilarning ichki ruhiy dunyosi, har bir insonning kundalik, hatti-harakati, yurish-turishi, odob-axloqi, muomalasi, oila

a'zolari, boshqalarga, davlat va uning siyosatiga munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, odamlarning ichki ruhiy dunyosi ularning aqliy va jismoniy faoliyatining natijalarida, jamiyat taraqqiyotiga o'zining halol mehnati bilan qo'shgan hissasida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, insonning ichki ma'naviy dunyosi ularning psixologiyasida, hissiyotlari, kechinmalarida, zavqlanish, iztirob chekish kabi boshqa psixik holatlarda namoyon bo'ladi.

Beshinchidan, insonning ichki ma'naviy dunyosi ularning o'z-o'zini anglashda ham namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglash kishilargagina xos xususiyat bo'lib, u o'zining ichki holati, ahvolini bilish, o'z-o'zini tushunib etish va nazorat qilishda, shuningdek, o'z xatti-harakatlarini boshqarishda namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, insonning ichki ma'naviy, ruhiy dunyosi birqator ko'zga ko'rinadigan, jamiyat tomonidan baholanadigan ko'pgina hislatlarida o'z aksini topadi, tashqarida namoyon bo'ladi. Agarda kishilarning ichki ma'naviy dunyosini bilib bo'lmaydigan bo'lsa, unda ma'naviy etuk barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi jamiyatimizda dolzarb muammo bo'lib turmas edi.

Insonning ichki ruhiy, ma'naviy dunyosining namoyon bo'lish shakllarini bilish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Kishilarning ichki dunyosini bilmay turib ularga ta'sir ko'rsatish amri maholdir. Aksincha, ularning ichki ma'naviy dunyosini bilib olish kishilarning dunyoqarashi, odob-axloqi, yurish – turishiga, mehnat qilishiga, psixologik holatlarni e'tiborga olgan holda tani – sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatib, elga, Vatanga sadoqatli, fidoiy insonlarni tarbiyalash imkoniyatini tug'diradi.

## 2. Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining poydevori

Qadriyatlar – jamiyat taraqqiyoti asosiy omillaridan hisoblanadi. Xo'sh, qadriyatlar tushunchasi, uning mohiyati, asosiy jihatlari nimadan iborat?

*Qadriyat* deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonida baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim.

Mazkur ta'rifdan ko'rinib turganidek, qadriyatlar, *birinchidan*, voqeilikda mavjud bo'lgan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarini

ifodalaydi; *ikkinchidan*, ulami qadriyat turqumiga kiritish va kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, orzu-umidlari bilan belgilanadi; *uchinchidan*, tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarning qadriyat turqumiga kiritilishining asosiy sababi – kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushlarini boyitadi.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Qadriyatlar kishilarning turli sohadagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi. So'ngra asta-sekin subyekt faolligining orta borishi oqibatida nisbiy mustaqil soha tarzida amal qila boshlaydi.

Tabiat va jamiyat hodisalari inson faoliyati natijasida, uning ehtiyojlarini qondirganligi tufayli qadriyat sirasiga kiritiladi. Insonning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, orzu-istaqlari, ideallariga mos kelmaydigan tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyatlar deb hisoblash noo'rindir. Masalan, tabiatdagi qazilma boyliklar inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatila boshlagandan keyingina qadriyatga aylanadi. Shungacha ularni tabiiy boyliklar deb hisoblashimiz lozim.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimli va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish, davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnatining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishiga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan. Siyosiy va ijtimoiy hayotdagi barcha o'zgarishlar mana shu oliy maqsadga erishishga – har



bir kishining hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy jihatdan boyroq qilishga bo'ysundirilgan»<sup>1</sup>.

Istiqlol tufayli respublikamizda keyingi yillarda insonning shaxsiy haq-huquqlari, erkinliklari va qadriyatlarini muhofaza qilish, turmush farovonligini oshirish masalasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Inson ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy xom ashyo – foydali qazilmalar O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, uning asosiy qadriyatlaridandir. O'zbekiston behisob tabiiy boyliklarga, qulay geografik muhitga ega.

Inson mehnati, hatti-harakati, aql-zakovoti bilan yaratilgan «ikkinchi tabiat», ya'ni turli-tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish kuchlari, transport vositalari, asbob-uskunalar, turar-joy, mol-mulk va shu kabilar moddiy qadriyatlar hisoblanadi.

Ma'lumki, moddiy qadriyatlarning asosini jamiyatimizning moddiy texnika bazasi tashkil qiladi. Insoniyat jamiyatining har biri o'ziga xos moddiy texnika bazasiga ega. Ular bir-biridan sifat jihatidan emas, balki miqdor jihatidan ham farq qiladi.

Moddiy qadriyatlarning negizini mulktashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yozilganidek, davlat iste'molchilarining xuquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkor va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Insonning hayotida madaniy-ma'naviy qadriyatlar katta o'rinni egallaydi. Unga ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, madaniy meros, diniy qadriyatlar turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura va hokazolar kiradi.

O'rta Osiyo azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning, adabiyot va san'atning markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu o'lkada etishib chiqqan mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va o'lmas asarlari bilan ijodiy boyitib, yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdilar.

Axloqiy qadriyatlar kishilarning bir-biriga, o'zlari mansub jamoaga, Vatanga nisbatan tarkib topgan munosabatlarini ifodalaydi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida – T.: «O'zbekiston», 1995, 247-248-betlar

Axloq muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat, me'yor, qoida va tamoyillar majmuasidir. Kishilarning o'zaro munosabatlarida mavjud hatti-harakat, odob, me'yor va qoidalarning yig'indisidan tashkil topgan axloq tushunchalariga yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n (onus), baxt, adolat, ideal kabilar kiradi. Insonning oila, jamiyat, xalq manfaatlarini anglab qilayotgan har bir hatti-harakati yaxshilik kategoriyasi nuqtai-nazaridan baholanadi.

**Burch** – kishining Vatan, xalq, jamoa, oila bilan o'zaro munosabatlarida o'z oldidagi majburiyatlar va ma'suliyatni sezishi, ularga nisbatan sadoqatini ifodalaydi.

**Vijdon** – kishining hatti-harakatiga o'zining munosabatini, kishining xulq-odobi uchun ma'naviy mas'uliyat hissini ifodalaydi. Sha'ntushunchasi jamiyat beradigan ijtimoiy bahoni belgilovchi va sha'ntushunchasini ifoda qiluvchi kategoriyadir.

**Baxt** tushunchasi insonning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o'z faoliyati, ro'yobga chiqqan orzu-istak va maqsadlaridan mamnunligini bildiradi. Axloq kategoriyalari insonning yurish-turishiga baho beradi. U jamiyatda mavjud ko'pchilik ma'qullagan hatti-harakatga chorlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti, inson hayotida ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Erkinlik, tenglik, birodarlik insoniyat tomonida hamisha e'zozlanib, qadrlanib kelgan.

Insonning erkinligi, uning shon-shuhrati va qadr-qimmati jamiyat mizning oliy qadriyatidir. O'zbekiston Konstitutsiyasida bu to'g'risida shunday so'zlar yozilgan: «O'zbekiston Respublikasi demokratik va umuminsoniy tamoyillarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayot erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi»<sup>1</sup>.

Jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan «Inson huquqlari va erkinliklari deklaratsiyasi»ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida har bir insonning fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari kafolatlangan fuqarolarning burchlari belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida istiqlol tufayli qo'lga kiritilgan barqarorlik, tinchlik, totuvlik alohida ahamiyat kasb etadi.

«Ko'p millatli jamiyatimizda, – deydi I.Karimov, – ijtimoiy siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi mustaqil O'zbekistonning bunyod bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur shartdir».

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T. «O'zbekiston», 2014. 11-bet.

nishining birinchi, boshlang'ich bosqichida qo'lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo'ldi»<sup>1</sup>.

«Barqarorlik, tinchlik, totuvlik – bular davlatchiligi-mizning yangi binosi barpo qilinadigan poydevordir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigan yo'ldir... Tinchlik va barqarorlik–bular xalqaro hamjamiyat bilan birlashtiruvchi vositadir...

Insonparvarlik, yaxshilik, sofdillik singari umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilgan va birgalikda baham ko'rgan mamlakatgina, xalqgina butun dunyo xalqlariga yaqin va tushunarli bo'lishi, jahon hamjamiyatiga qabul qilinishi mumkin. Faqat ular bilan teng huquqli, o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatilishi mumkin»<sup>2</sup>.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlarini, an'analari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.

Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashini tasavvur qilish qiyin. Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his-tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat oldidagi eng katta jinoyatdir.

Har bir ruhan sog'lom kishida o'z qadr-qimmatini saqlash, o'zini hurmat qilish tuyg'usi mavjud. Har bir millatda ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin. Millatlarning o'zligini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi.

Mintaqaviy qadriyatlar – iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, urf-odat va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuini tashkil etadi. Mintaqaviy qadriyatlarga misol sifatida O'rta Osiyo hududida istiqomat qiluvchi

<sup>1</sup> I. A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy i slohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: «O'zbekiston», 1995, 167-bet.

<sup>2</sup> O'sha asar, 170–171-betlar.

o'zbek, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman xalqlariga xos bo'lgan qadriyatlarini eslatib o'tishimiz mumkin. Buyuk Turon diyorida unib-o'sgan mazkur xalqlarning tarixi, tili, madaniyati, dini, urf-odati va an'analarida juda ko'p umumiylik mavjud. Ular hamisha bir-birlariga og'aini, qudaqdag'ay bo'lganlar, hozir ham bahamjihat, totuv hayot kechirmoqdalar. Mazkur xalqlarning iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, savdo-sotiq munosabatlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Qadimdan bir ma'naviy-ruhiy iqlimda nafas olib kelgan xalqlarimiz tariximizning ayniqsa, bugungi mas'uliyatli davrida aql, zakovat va shijoat, dunyoviy salohiyat va milliy g'urur talab etadigan bir pallada yana ham yaqinroq, yana ham mehr-oqibatliroq bo'lishlari lozimligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy va mintaqaviy qadriyatlardan mazmuni jihatidan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar jahondagi barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlariga muvofiq keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, jahondagi bironta xalq va millat o'zidan boshqa xalq va millatlardan, umuman jahon sivilizatsiyasidan mutlaqo ajralgan alohida madaniyatga ega emas. Millatlar boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydilar. Shu sababli barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanishi, tarixi bir-biri bilan chambarchas bo'lib ketgan.

Umuminsoniy qadriyatlar turqumiga insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan umumbashariy muammolar kiradi. Ulardan eng asosiylari er yuzida ilm-fanni taraqqiy ettirish, tinchlikni saqlash, yadroviy qurollanish poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, turli kasallik-larning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari va oziq-ovqat bilan ta'minlash, koinotni va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar kiradi.

Qadriyatlar jamiyatimizning boyligi, bizning milliy iftixorimiz. Ularni avaylab-asrash va muhofaza qilish barchamizning burchimizdir. «Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir»<sup>1</sup>, deb mustahkamlab qo'yilgan Konstitutsiyamizda.

Milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy bo'g'inidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2014, 18-bet.

boyliklar bilan qo'shib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maqlashadi.

Qadriyatlarining barcha turlari insonning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham qadriyatlarni avaylab-asrash, ularni qo'riqlash, yuksaltirish har bir shaxs hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham albatta katta ahamiyat kasb etadi.

Bashariyat ko'p ming yillik tarixi davomida erkin, baxtli va go'zal hayot kechirish uchun zarur bo'lgan xilma-xil qadriyatlarni yaratdi, inson, uning huquqi va erkinliklarini himoya qiladigan qonunlar, siyosiy tashkilotlarni bunyod etdi. Insonning go'zal yashashi uchun zarur bo'lgan badiiy-estetik qadriyatlarni rivojlantirdi, kishilarning bir-biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini belgilab beradigan axloqiy qoidalar majmuini joriy etdi va hokazo.

Mazkur ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotida salmoqli o'rin egallab, kishilarning insoniy fazilatlarini yuksaltirishda katta xizmat qilib kelmoqda. Lekin, shu bilan bir qatorda, inson o'zi yaratgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarini ko'p hollarda poymol qilib kelayotganligini ham tan olishimiz kerak. Huquqbuzarlik, axloqsizlik, millatimizning urf-odat va an'analariga zid keluvchi hatti-harakatlarning aholi, ayniqsa, yoshlar ichida avj olib ketayotgani bunga misol bo'la oladi. Bularning oldini olish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida ko'ndalang turgan dolzarb vazifadir.

Kishilarni qadriyatlarga iste'molchi yoki kuzatuvchi sifatida qarash kayfiyatidan holi etib, aksincha, ularni yanada ko'paytirish, yuksaltirish g'tayida bo'lishlariga erishish uchun attohida e'tibor berish kerak. Ma'lumki, hayotda hech bir narsa abadiy emas. Bu qadriyatlarga ham taalluqlidir. Shunday ekan, ularni doimo boyitib, rivojlantirib, ko'paytirib, yangilab turmog'imiz darkor.

Qadriyatlar katta ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi, shu tufayli millatning tarixi, uning o'tmish hayoti, madaniyati g'avdalanadi. Shuning uchun ham har bir siyosiy tuzum, har bir davlat qadriyatlardan o'z maqsadi, manfaati yo'lida foydalanib kelgan va hozir ham shunday bo'lmoqda.

Qadriyatlar o'z-o'zidan bevosita insonning ma'naviy qiyofasi, tumsh tarzi, umuman jamiyat taraqqiyotini belgilay olmaydi. Qadriyatlarining holati, ahamiyati, insonga ko'rsatadigan ta'siri, uning

istiqboli u yoki bu jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tuzum tomonidan olib borilayotgan siyosat, uning manfaatlari bilan uzviy bog'langandir. Buni o'zbek xalqi milliy qadriyatlarining o'tmishdagi va hozirgi holatidan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimiz jahon hamjamiyatiga eltuvchi ishonchli vosita bo'lib hisoblanadi.

Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik xalqimizning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini tashkil etadi. Xalqlar o'rtasida tinchlik-totuvlik, do'stlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish millatimizning ongiga, qoniga chuqur singib ketgan. O'zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda taraqqiyotga erishishning o'ziga xos yo'lini tanlagan. Shuning uchun ham uning jahon hamjamiyatidagi obro' va e'tibori tobora ortib bormoqda. Barqarorlik, tinchlik, totuvlik – mustaqillik tufayli qo'lga kiritilgan eng katta yutug'imizdir. Shunday ekan, bugungi kunda ularni qadrlash, avaylab-asrash, himoya qilish – barchamizning eng dolzarb, eng olijanob vazifamiz bo'lib qolmog'i kerak.

Ma'lumki, jahon xo'jaligiga kirishda bozor iqtisodiyotini, shakllantirish muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bera oladigan davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yish katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslab berilgan va hozirgi kunda izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgan iqtisodiy islohotlar strategiyasi qo'l kelmoqda. O'zbekiston rang-barang er osti va er usti boyliklariga ega. Respublikamizda o'tkazilayotgan islohotlar yo'li etakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, jahon jamoatchiligi, jahondagi rivojlangan eng yirik mamlakatlar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatida qatnashmoqda. BMTning iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maqlashuvchi tashkilot, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabilar shular jumlasiga kiradi. Respublikamiz rahbariyati O'rta Osiyo va MDH davlatlari bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, tabiiy, moddiy qadriyatlarimizni birga baham ko'rish sohasida ham katta amaliy ishlar qilmoqda. Bularning bari jamiyatimizning jahon xo'jaligiga qo'shilib, iqtisodiy yuksalishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqimizning rang-barang va boy madaniyati jahon xalqlari madaniyatining ajralmas qismidir. Ko'p asrlar davomida shakllanib, mazkur xalqning ma'naviy boyligini, uning urf-odatlari, an'alarini mujassamlashtirgan ma'naviyat ayni vaqtda umuminsoniy qadriyatlarining tarkibiy qismini tashkil etadi va shu tariqa u jahondagi barcha xalqlarning ma'naviy boyligi ham bo'lib hisoblanadi. Yuksak milliy madaniyat, ma'naviyat hamma vaqt jahon xalqlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi vosita bo'lib kelgan va hozir ham shunday bo'lib kelmoqda. Xalqimizning madaniyati, tili, tarixi, urf-odat va an'analari, boy me'morchilik san'ati jahon xalqlarida zo'r qiziqish uyg'otmoqda.

Milliy madaniyat, ma'naviyatimizni mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlar bilan yaqinlashtirish, jahon xalqlari bilan madaniy aloqalarimizni mustahkamlash va yanada taraqqiy ettirish huquqatimiz siyosatining muhim yo'nalishini tashkil etadi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin:

1) qadriyatlar jamiyatimizning boyligi, poydevori. Uni avaylab-asrash va oqilona rivojlantirish har bir insonning muqaddas burchidir;

2) qadriyatlar o'tmish bilan bugungi kun va kelajakni bog'laydigan vosita;

3) qadriyatlar ma'naviy etuk, barkamol insonni tarbiyalaydigan qudratli kuchdir;

4) qadriyatlar jamiyatimizni jahon hamjamiyatiga qo'shuvchi ishonchli vosita.

Shuning uchun ham qadriyatlarga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashib, ularni mazmunan boyitib, ijodiy rivojlantirish davr taqozosidir.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlanganidek, jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish – mam'lakatimiz rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Milliy qadriyatlarimizni tiklash va mazmunan boyitish jamiyatni ma'naviy yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi.

### **3. Madaniyat – jamiyat taraqqiyotining qudratli ma'naviy kuchi**

Jamiyat taraqqiyotida xususan, komil inson ma'naviyatini shakllantirishda madaniyat katta ahamiyat kasb etadi. *Madaniyat* lotincha «*cultura*» atamasidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi. Mumtoz lotin tilida madaniyat emi parvarish

qilish, ishlov berish ma'nosida ishlatib kelingan. Keyinchalik, eramizdan avvalgi 45-yillar Rim notig'i, mashhur faylasuf Sitseron madaniyat atamasini aqlga ishlov berish ma'nosida ishlatgan. Uning fikricha, dehqon erga ishlov bergani kabi inson ongi, aqliga ham ishlov berib turish zarur. Aqlga ishlov berish, ma'naviy, ruhiy takomilashish, erk insoning haqiqiy ifodasidir.

Keyinchalik madaniyat tushunchasi bilimdon, ma'rifatli, yuksak tarbiyali insonlarni ta'riflashda ham ishlatila boshlanadi.

**Madaniyat** qo'p qirrali va sermazmun tushuncha bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilgan barcha moddiy va ma'naviy yutuqlarning majmuidir. Moddiy madaniyat deganda inson faoliyati tufayli yaratilgan «ikkinchi tabiat», ya'ni ishlab chiqarish vositalari, mehnat quollarini, mehnat ko'nikmalarini, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan barcha boyliklarni nazarda tutish lozim.

Ma'naviy madaniyatning qamrovi behad keng bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari, ya'ni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, ta'lim-tarbiya, maktab, o'rta va oliy ta'lim, fan, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari, san'at, xalq ma'naviy ijodiyotining barcha turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Inson amaliy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o'zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati obyektiv ravishda ishtirok etadi.

Insonning amaliy faoliyatida, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyat organik ravishda birlashadi. Birona ham mehnat qurolini, moddiy boylikning birona ham turini inson aql-idroki va tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Inson amaliy faoliyatining har qanday turida ayni bir vaqtning o'zida uning ham aqliy, ham jismoniy mehnati obyektiv ravishda ishtirok etadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish kishilar ma'naviy hayotining negizidir. Inson miyasida hech qanday fikr, hech qanday qarash va tushuncha o'z-o'zidan tug'ilmaydi va rivojlanmaydi, balki ularning hammasi moddiy sharoitlar, tabiiy omillar, tashqi ta'sirlar bilan uzviy bog'langan va jamiyatdagi moddiy jarayonning mahsuli sifatida vujudga kelgandir.

Madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi. Boshqacha aytganda, madaniyat insonning kelib chiqishi bilan uzviy aloqadordir. Madaniyat



tarixi jamiyat tarixining ajralmas bir qismidir. Shuning uchun ham uning vujudga kelishi va rivojlanishini jamiyat tarixidan, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan, moddiy boyliklar ishlab chiqarish usulidan ajratib olish mumkin emas.

Madaniy taraqqiyotning umumiy qonunlaridan biri – uning to‘xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iboratdir. Madaniyat taraqqiyotida moddiy ishlab chiqarishning rivoji asos bo‘ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarning ishlab chiqarish usullarining almashinuviga qarab madaniyat ham sifat jihatidan o‘zgarib turadi. Jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o‘zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o‘z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo‘ladi.

Barcha moddiy va ma‘naviy madaniyat durdonalari – inson aqlidroki, iste‘dodi va mehnati mahsulidir. Xalq ommasi madaniyat ijodkorigina emas, balki uni to‘xtovsiz ravishda boyituvchi, rivojlantiruvchi, avloddan-avlodga etkazib turuvchi hamdir.

Har bir ijtimoiy tuzum taraqqiyotida madaniyat o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega. Kishilik jamiyatning har bir tarixiy bosqichi o‘z madaniy boyliklarini yaratadi va shu tariqa boshqasidan farqlanib turadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar umumsotsiologik qonunlar asosida bir-biri bilan uzviy bog‘lanishda bo‘lganidek, madaniyatning tarixiy ko‘rinishlari ham dialektik aloqadorlik va o‘zaro bog‘lanishdadir. Madaniyatning bir tarixiy turidan ikkinchisiga o‘tish o‘tmishda erishilgan madaniy yutuqlarning barcha qimmatli tomonlarini ulotirib tashlash, degan so‘z emas.

Har bir avlod o‘zi uchun maxsus yangi moddiy negiz tashkil etmaydi, ilm-fan va madaniyatni yangidan yaratmaydi, balki o‘zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan manbadan, ishlab chiqarish kuchlaridan, moddiy va ma‘naviy madaniyat yutuqlaridan foydalanadi. Oldingi avlodlardan qolgan ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari, madaniy boyliklar keyingi avlodlarning yashashi va taraqqiy etishi uchun moddiy va ma‘naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘tmishda qo‘lga kiritilgan tajribani egallamay va ijodiy o‘zgartirmay turib, olg‘a tomon rivojlanib bo‘lmaydi. Har bir avlod ilgarigiga qarab qilgan harakatida o‘zidan oldingi barcha avlodning yo‘lini davom ettiradi.

Yangi avlod oldingi avlodlardan qolgan tajribaga o‘zining xususiy tajribasini qo‘shadi. Jahon tarixi shu yo‘sinda barpo qilinadi. Bunga insoniyatning quldorlik davrida yaratgan madaniy boyliklari misol bo‘la oladi. Qadimgi yunon madaniyatining Gomer va Gerodot, Demokrit va

Sofokl, Aflotun va Arastu singari mutafakkirlarning tarix va falsafa, adabiyot va san'at, astronomiya va matematika, me'morchilik va haykaltaroshlik kabi ilm-fan va madaniyatning turli sohalariga doir asarlari insoniyatning eng katta madaniy boyligidir. Ular o'z ahamiyatini aslo yo'qotmaydi. Qadimgi yunon adabiyoti, san'ati va eposi hozir ham kishilarga badiiy zavq beradi va ma'lum jihatdan eng yuksak namuna bo'lib xizmat qiladi.

O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati juda qadimiy bo'lib, uning tarixi bir necha ming yillarni o'z ichiga oladi. Xalqimiz madaniyati ham jahon madaniyati bilan baqamti, yonma-yon yuzaga kelgan va rivojlangan. Biron ta xalq madaniyati, o'z mamlakati doirasidagina, tor milliy bog'liqlikda emas, balki boshqa xalqlar madaniyati bilan o'zaro aloqadorlikda, o'zaro bog'liqliqda, o'zaro ta'sir va aks etish asosida rivojlanadi.

Tarixdin ma'lumki, qadimgi dunyo hamda Rim davri madaniyati, jahondagi boshqa madaniyatlarga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. O'z navbatida O'rta Osiyo xalqlari ham boshqa xalqlar madaniyatining yuksalishiga, umumjahon madaniyati taraqqiyotiga o'zining faol ta'sirini ko'rsatadi. O'rta asr madaniyatining buyuk namoyondalari Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa allomalar ta'limotlari jahon madaniyatining ajralmas qismi ekanligi bunga misol bo'ladi.

O'zbek xalqi jahon moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratish va rivojlantirishda ulkan hissa qo'shgan xalqdir. U o'zining tafakkuri, qobiliyati va iste'dodi bilan O'rta Osiyo fan va madaniyatini, adabiyot va san'atini, axloq-odobi, falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishida katta o'rin tutadi. Shu bilan birga, u tarixning haqiqiy ijodkori sifatida jamiyatning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Uning, umuman madaniyat, xususan, badiiy adabiyot sohasidagi xizmatlari ham bebahodir. Doston va ertaklarning, maqol va masalalarning, qahramonlar haqidagi rivoyat va afsonalarning yaratuvchisi ham, avaylab-asrovchisi ham uning o'zidir.

O'zbeklar o'zining insonni lol qoldiradigan ajoyib amaliy san'ati, yuksak badiiy did va mahorati asosida ishlangan hunarmandchilik buyumlari bilan qadim zamonlardan boshlab hozirgacha ham dunyo xalqlari o'rtasida shon-shuhrat qozonib kelmoqda. Hunarmandchilik san'ati bizning xalqimiz avlod-ajdodlari tomonidan saqlanib kelayotgan meros, bebaho qadriyatdir.

O'zbek xalqi amaliy san'ati, hunarmandchilik ildizlari uzoq o'tmishga borib tutashadi. O'zbek xalq hunarmandchiligi tarixiga hozirgi zamon nigohi bilan nazar tashlaydigan bo'lsak, manbalar, o'tmishdan saqlanib qolgan yodgorlik va obidalar eramizdan avvalgi minginchi yillarda yaratilgan san'at durdonalari haqida shahodat beradi.

O'zbekiston hududida bo'lgan Shosh, Marokand, Urganch, Buxoro, Shahrisabz shaharlarining qadimgi o'rnida olib borilgan qazilma tadqiqotlar ota-bobolarimiz yaratgan hunarmandchilikning o'lmas obidalarini kashf etdi, yozma manbalar qadimiy O'rta Osiyo aholisining konlarda ishlaganini, mis va temirdan turli xil harbiy va mehnat qurollari yasaganliklarini, tikuvchilik, binokorlik, zargarlik va boshqa ishlar bilan shug'ullanganliklarini ko'rsatadi.

Avlod-ajdodlarimiz o'tmish davrlardan boshlab naqqoshlik, o'ymakorlik, tikuvchilik, zargarlik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, misgarlik, sangtaroshlik, kulolchilik, musiqa asboblari yasash va boshqa sohalarda katta mahorat ko'rsatganlar. Ular nozik va go'zal, jahonda tengi yo'q naqsh ustasi bo'lganlar, faqat yog'ochga emas, shuningdek, marmar toshga, metallga o'ta nozik va go'zal naqsh solishlari, gilam va matolarga rang-barang gullar to'qishlariga qarab ota-bobolarimiz, momolarimizning mahoratlari va didlariga qoyil qolamiz.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Namangan, Qo'qon va Toshkentdagi xalq ustalari ganch o'ymakorligi sohasida katta shon-shuhratga ega bo'lganlar. Bu san'at namunalarini qadimiy binolar, muhtasham saroylar, arklarning ichki va tashqi bezaqlarida, devor peshtoqlaridagi o'simlik va hayvonlar tasvirilarida, lojuvard koshinlarda ko'rish mumkin. Nozik o'ymakorlik san'atini mukammal egallab olgan yuksak didli ustalar nafaqat ganchga o'yima naqshlar berish, balki jimjimador panjaralar va go'zal guldonlar ham yasay bilganlar.

Musiqa san'ati – eng qadimiy va shu bilan birga o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biridir. Musiqa kishilarning his-tuyg'ularini, fikrlarini va kayfiyatlarini o'ziga xos tarzda ifoda etadi.

Musiqa san'ati kishiga butun bir yuksak tuyg'ular, zavq-shavq, yangi g'oyalar olarni ochib beradi. Odamlarni ma'naviy jihatdan boy, sof va barkamol qiladi. Musiqa tufayli inson o'zida yangi, ilgari sezmagani kuch topadi, hayotga o'zgacha munosabatda bo'ladi. Musiqa insonni hayotni sevishga davlat etadi.

Musiqqa, raqs, bayt, kuy, g'azal singari qo'shiqlar ham xalq hayoti bilan shu qadar yaqinlashib, qo'shilib ketganki, inson o'z hayoti, turmush tarzi va borlig'ini usiz tasavvur etolmaydi.

Musiqqa va qo'shiqning inson hayotida bu qadar keng o'rin olishi, uzoq yashashi, takomillashib, mazmunan boyib va chuqurlashib borishining sabablari bor. Chunki qo'shiq insonni mehnat qilishga, qiyinchiliklarni engishga, ruhan tetik, bardam bo'lishga, do'stlarga vafodorlik, dushmanlarga nisbatan shafqat-sizlikka undaydi. Kindik qoni to'kilgan ona Vatanni sevishga, uning barcha boyliklari bilan faxrlanishga da'vat etadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan bo'lgan mehr-muhabbat, faxr-iftixorning shakllanishi va rivojlanishi ham ma'lum darajada unga bog'liq.

Madaniyat inqirozga uchrab xalqning ma'naviyati barbod bo'lsa, odamlar e'tiqodlarida xalqparvarlik, vatanparvarlik kabi tuyg'ular so'na boshlaydi. Bunday joyda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik boshlanadi, milliy mansublik, milliy iftixor asta-sekin barbod bo'la boshlaydi. Ana shunday davlatni mustamlakachilik kishanlarida uzoq vaqtlar davomida ushlab turish, xalqni itoatkor qulga aylantirishi mumkin. Milliy g'ururi so'ndirilgan, madaniyati, tili kamsitilgan, haq-huquqi, erki, izzat-nafsi erga urilib, ruhan ezilgan xalq va millat – mustamlakachilar uchun tayyor o'ljadir. Chor amaldorlari buni yaxshi bilganliklari uchun erli xalqni madaniyat va ma'rifatdan bebahra qoldirish masalasiga birinchi darajali ahamiyat berganlar, bu yo'lda hech narsadan tap tortmadilar, rahm-shafqatni butunlay yg'ishtirib qo'ydilar.

Sho'ro tuzumi – milliy birlik g'oyalari bilan sug'orilgan milliy ong o'sishi yo'lida turli g'oyalar tashkil etdi, milliy birdamlik, milliy tuyg'uning rivojlanishi va yuksalishiga millatchilik deb qaradi. Buni o'zbek xalqining tili, tarixi, madaniyati, xalq og'zaki ijodiyotiga qilingan qatag'onchning siyosati misolida ko'rish mumkin.

Madaniyat jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. U quyidagi ijtimoiy funksiyalarni bajaradi:

1. Bilish funksiyasi. Madaniyatda ko'p asrlik inson faoliyati davrida olamdagi narsa va hodisalarni bilish va ularni o'zlashtirish jarayonidagi to'plangan tarixiy tajriba mujassamlangan.

2. Axborot uzatish funksiyasi. Madaniyat bir avloddan ikkinchi avlodga ijtimoiy tajribani etkazish shaklidir, ya'ni tarixiy vorislik funksiyasini bajaradi.

3. Muloqat funksiyasi. Moddiy va ma'naviy tarixiy yodgorlikda o'z aksini topgan ma'lumotlarni qabul qilish jarayonida biz o'tmishdagi

avlodlarning turmushi, ularning didi, madaniy darajasi, shuningdek, mazkur asarlarni bunyod etgan mualliflar bilan muloqatda bo'lamiz, shu davrning nafasidan xabardor bo'lamiz.

4. Madaniyat inson axloq-odobi, xatti-harakatini baxrlash va tartibga solish vazifasini bajaradi.

5. Madaniyat insoniy fazilatlarni shakllantiradigan, gumanistik, insonparvarlik vazifasini bajaradi.

Madaniy yuksalish mezonlari xilma-xil bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: jamiyat taraqqiyotida yaratilgan ma'naviy qadriyatlarining ko'lami va miqdori, ularning tarqatilish darajasi, insonlar tomonidan o'zlashtirilishi; ma'naviy madaniyatning barcha turlarining bir tekis taraqqiy etishi; madaniy qadriyatlardan bahramand bo'lishda barcha kishilarning ishtirok etishi; madaniyat durdonalarini yaratishda aholining barcha qatlamlarining keng va ongli ravishda ishtirok etishi; kishilarning madaniy yuksalishga o'z hissalarini qo'shish uchun jamiyatda barcha imkoniyatlarning mavjudligi.

O'zbek xalqi jahon madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan, o'zining ko'p asrlik boy va rang-barang madaniyatiga egadir. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin o'tgan qisqa tarixiy muddat ichida mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan juda katta o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Mustaqillik xalqimiz madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga ham keng yo'l ochib berdi, toptalgan, kamsitilgan milliy g'ururimiz, insoniy sha'nimiz, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimizga qayta hayot bag'ishladi. Mustaqillikka o'tish jarayonida birinchi navbatda odamlarning dunyoqarashi o'zgardi, g'urur, oriyat, sha'n va nomus tuyg'ulari kuchaydi, hayotga, mehnatga, Vatanga, el-yurtga munosabat o'zgacha tus oldi, milliy-ma'naviy muhit sog'lomlashdi, milliy o'zligini anglash kuchaydi. Bir vaqtda sun'iy ravishda kamsitilgan sharqona urf-odatlar va an'analar yana odamlar hayotidan o'rin ola boshladi, o'zbekona mehr-oqibat, hurmat-izzat, mehr-muruvvat, o'zgalardardiga hamdardlik qilish singari olijanob fazilatlar qayta tiklana boshladi, avlod-ajdodlarimiz merosiga egalik qilish hissi kuchaydi. Boshqacha aytganda, madaniy-ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi.

Xalqning boyligi, aql-idroki va tafakkuri, tarixi va madaniyati uning tilida, yozma va ogʻzaki adabiyotida oʻz ifodasini topadi. Ana shu maʼnoda olganda til xalqning qalbi, tanu jonidir.

Oʻzbek tilini astoydil muhofaza qilish, unga davlat tili maqomini berish, bu tilni aslidagiday qilib tiklash va tobora rivojlantirish va shu tariqa uni jahondagi eng boy va etuk millatlar tillari darajasiga koʻtarish zarurati tugʻilib etilgandi.

Uzoq davom etgan bahslar, tortishuvlar, munozara va muhokamalardan soʻng 1989-yil 21-oktyabrida Oʻzbekiston Oliy Kengashi oʻn birinchi sessiyasida, «Oʻzbekiston SSR Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilindi. Oʻzbekistonda «Davlat tili toʻgʻrisida»gi Qonunning qabul qilinishi oʻzbek xalqining, respublikamizda yashovchi boshqa xalqlarning ham madaniy-maʼnaviy va siyosiy hayotida roʻy bergan gʻoyat muhim voqeadir.

Qonunga binoan, oʻzbek tili – Oʻzbekistonning davlat tili deb eʼlon qilindi. Bu xalqimizni behad quvontirib yubordi, milliy gʻururni kuchaytirdi.

Tilimiz, tariximiz, madaniyatimiz, butun maʼnaviy hayotimiz tazyiq ostiga olinganligini, diniy, axloqiy, milliy qadriyatlarimiz oyoq osti qilinganligidan qanchalik aziyat chekkanligimizni hali unutgan emasimiz.

Bugun oʻzbek tili va madaniyatini yanada rivojlantirish, uning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalariga keng kirib borishi borasida katta ishlar amalga oshirildi.

Oʻzbek tilining qoʻllanish sohalarining kengayishi boshqa tillarni rivojlanish imkoniyatlarini cheklamaydi albatta.

Respublikamizda ilmiy ishlarni oʻzbek tilida taqdim etish va himoya qilish huquqi taʼminlanganligi, milliy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish yoʻlidagi eng katta yutuqlardan boʻlib hisoblanadi.

Oʻzbekistonda kitoblar, gazeta va jurnallar, davriy xabarnomalar, darsliklar, oʻquv qoʻllanmalarining asosan davlat tilida nashr etilishi, televidenie koʻrsatuvlari va radio eshittirishlarni koʻpincha oʻzbek tilida olib borilishi xalqimizning madaniy-maʼnaviy saviyasini yuksaltirish, milliy ongini oʻstirishda oʻzining ijobiy taʼsiri koʻrsatib kelmoqda.

Oʻzbekiston davlat mustaqilligining asosiy maqsadlaridan biri shaxsni har tomonlama kamoloti uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishdir. Bu esa avvalo, hozirgi zamon fani, texnikasi va madaniyatining hamma yutuqlarini egallashni taqozo etadi. Bu vazifani hal etishda faqat ona tilining oʻzini bilish kifoya qilmaydi. Dunyodagi

boshqa xalqlar va millatlarning tillarini bilish har bir shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun, jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyoti uchun zarur omilga aylanib bormoqda.

Boshqa tillarni bilish har bir ma'lumotli kishining burchidir. Har bir til millatning tarixini, ma'naviy boyliklarini, ijtimoiy hayoti, madaniyati va ruhiyatini yanada chuqurroq egallab olish uchun xizmat qiladigan oltin kalitdir. Til bilgan taqdirdagina millatning ruhini, uning qadr-qimmatini tushunish va baholash mumkin. Kimki boshqa millat va xalq tilini bilsa, u shu xalqning dilini ham anglaydi. Xalq o'rtasidagi birlik, ahillik, mehr-oqibat va hurmatini uning tili va madaniyatini bilishdan boshlanadi.

Ko'p tilni bilish o'zini madaniy kishi deb hisoblashni orzu qiladigan har bir inson uchun farzdir. Ingliz, arab, nemis, fransuz, italyan yoki boshqa tillarni bilish dunyo madaniyati xazinasiga yo'l ochadi. Shu tillarni bilmaslik ilg'or fan, texnikani, xalqlar madaniyatini o'rganishda ancha mushkullik tug'diradi.

O'zbekistonda hozirgi paytda yoshlar maktablar va oliy o'quv yurtlarida rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan tillari bilan bir qatorda bizga qadimdan madaniyati, dini, tarixi va urf-odatları yaqin bo'lgan Sharq xalqlari tillarini ham katta qiziqish bilan o'rganmoqdalar. Arab, fors, hind tillarini bilish Eron, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Xitoy singari dunyoning bir necha miliard aholisi yashaydigan mamlakatlar bilan munosabatimizni yaqinlashtirish va yaxshilashga sabab bo'ladi.

Jahon fani va madaniyatining bebaho xazinalaridan bahra-mand bo'lish o'zbek xalqi tili va madaniyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni umuminsoniy qadriyatlar negizida kuchaytirishda beqiyos o'rin tutadi. Bularning hammasi O'zbekiston davlat mustaqil-ligining iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy asoslarini mustahkam-lashda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekistonda istiqomat qilayotgan boshqa millat va elat vakillarining davlat tiliga katta hurmat va e'tibor bilan qarashlari, uni o'rganishlari zarur.

O'zbekiston ko'p millatli davlatdir. Hozir O'zbekistonda yashayotgan qardosh xalqlar va millatlar vakillarining o'zbek xalqi tili, tarixi, madaniyati, an'analarini, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk ulushini o'rganishlari uchun qulay imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi boshqa millat va milliy til sohiblarining Konstitutsiyamizda belgilangan huquqlarini kamsitmaydi.

O'zbek tili inson faoliyatining hamma sohaları uchun, eng murakkab ilmiy tushunchalarni va inson qalbining eng nozik tuyg'ularini ifodalash uchun boy imkoniyatlarga ega bo'lgan tillardan biridir.

O'zbek tili bu qadar qadimiy va etuk, imkoniyatlari bitmas-tuganmas bo'lmaganda, unda ilmiy, falsafiy, badiiy tafakkurning burchalik ko'p va jozibali durdonalari yaratilmas edi. Bunga buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ona tilining xazinalarini ochib, bu tilning ham badiiy, ham ilmiy asarlar yaratish uchun boy va to'la imkoniyatlariga ega ekanligini namoyon qilib, so'z san'atining «Xazoyinul maoniy», «Hamsa», «Lisonut-tayr», «Mahbulul-qulub» kabi o'lmas obidalarini «Majolisun-nafois», «Mezonul-avzan» va «Muhokamatul-lug'atay» singari qimmatli ilmiy asarlar yozib qoldirganligi misol bo'ladi.

Madaniyat va ma'naviyat o'z xalqining tarixini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi. Tarix xalq xotirasidir. Xotirasiz barkamol inson bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

Tarix – xalqqa bilim, ma'rifat, ta'lim-tarbiya beradi. Tarix odamlarni o'ylashga, voqealarni chuqur ilmiy tahlil qilishga, sodir bo'lgan voqea va jarayonlardan bugungi kun va istiqbol uchun tegishli xulosalar chiqarib olishga yordam beradi. Ota-bobolarimiz donoligini tushinishimizda qo'hna tariximiz, betakror madaniyat, ma'naviy merosimiz, ajoyib-g'aroyib obidalaru, asori-atiqalarimiz qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqi o'zining uch ming yillik boy tarixi bilan har qancha faxrlansa arziydi. U jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga shu qadar ko'p hissa qo'shganki, buni dunyo allaqachon tan olgan. Movarounnahr xalqlari dunyoga Abu Nasr Forobiy, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur singari allomalarni etishtirib bergan. Ahmad Yassaviy, Ismoil Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Temiziy, Xoja Ahror kabi ulamolar xalqimiz g'ururidir.

O'zining yuksak madaniyati, buyuk allomalari, dovyurak sarkardalari bilan dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan Turkiston xalqlarining, jumladan, o'zbeklarning tarixi mustabid tuzum davrida haddan tashqari soxtalashtirildi.



Uzoqqa bormasdan, Amir Temur bobomizga bo'lgan munosabatni, temuriylar davriga berilgan soxta, g'ayri-ilmiy baho nimadan iboratligini olib ko'raylik. Ming afsuski, o'tmishda Amir Temurga nisbatan «qonxo'r», «jallod», «bosqinchi», «el-yurtni talagan», deya jar solindi. Ulug' bobomiz shaxsi va faoliyatiga berilgan bunday «ilmiy baholar» kitoblardan-kitoblarga ko'chaverdi. Hatto shunday «mukammal» ilmiy, badiiy, falsafiy-tarixiy asarlarga katta-katta mukofotlar ham berildi.

Amir Temur yovuzlikda Napoleon va Gitlarga tenglashtirildi. Uning Yevropa va Osiyo xalqlari, butun dunyo oldidagi buyuk tarixiy xizmatlari haqida lom-lim deyilmadi. Amir Temur shaxsiga baho berilganda tirmoq ostidan kir qidirib, faqat salbiy tomonlarini ko'rishdi. Holbuki, O'rta Osiyoning mo'g'ullar zulmidan ozod qilinishi va qaytadan markazlashtirilishi, o'zaro feodal urushlarning tugatilishi, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'atning, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ziroatchilikning gullab-yashnashi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shahrisabzda, umuman, Movarounnahrda, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Arabistonda qanchadan-qancha binolar, qasrlar, masjid-madra-salar, hashamatli me'morchilik obidalari qurilishi, ajoyib bog'lar, rastalar, suv inshootlarining tashkil etilishi, savdo yo'llarining ochilishi amir Temur va temuriylar nomi bilan bog'liq.

Jahongir Amir Temur barpo etgan qudratli markazlashgan davlat turkiy millatning birlashishi va jipslashishiga tayanch bo'lib xizmat qildi, millatning ravnaq topishiga, milliy tuyg'uning uyg'onishiga yordam berdi, uning madaniyati yuksalishida mislsiz ahamiyat kasb etdi. Bu davrda turk xalqlari tarixiga doir Nizomiddin Shomiyning «Zafamoma», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matlai sa'dayn va majmai bahrayn», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratush shuaro», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi» kabi mashhur asarlari yozildi, Mirzo Ulug'bekning astronomiya maktabi ish olib bordi va «Ziji jadidi Ko'ragoniy» kabi asralami dunyoga keldi.

Amir Temur va temuriylar davrida poytaxt shahar Samarqandning shon-shuhrati dunyoga yoyildi, kurrai zaminning sayqali deb baholandi. «Afлотunlar chog'inda Afina, Rumо saltanatida, Abbosiylar davrida Bag'dod qancha taraqqiy qilgan bo'lsa, – deb yozgan Fitrat, – Temur va Ulug'beklar zamorida Samarqand shuncha taraqqiy qilgan edi». Amir Temurning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari haqida og'iz ko'pirtirib gapiradilar, lekin uning To'xtamish hukmronligiga – Oltin O'rta

davlatiga qaqshatqich zarba berish bilan Rossiyaning mo'g'ullar asoratidan ozod bo'lishini tezlashtirganini yoki 1402-yili Turkiya sultoni Boyazid Yildirimni tormor keltirib, Bolqon yarim orolidagi xalqlarni Usmonli turklar istibdodidan qutqarib qolganini hisobga olmadilar.

O'zbek adiblarining tarixiy mavzudagi asarlariga dushmanlik ko'zi bilan qaraldi. Fitratning «Hind ixtilof-chilari», «Abulfayzxon», «Temur sag'anasi», «Abo Muslim», Cho'lponning «Kecha va kunduz», Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», Oybekning «Navoiy», Maqsud Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi», Pirimqul Qodirov-ning «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni» kabi asarlariga «millatchning» tamg'asi yopishtirildi. Suyukli shoirlarimiz Erkin Vohidov bilan Abdulla Oripov o'zbeklar va O'zbekiston haqida she'r yozganliklari uchun boshlariga katta tashvishlar tushganligi hali yodimizdan ko'tarilgan emas. Akademik Ibrohim Mo'minov «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni» risolasi uchun badnom etildi. Natijada nafaqat Amir Temur tarixi, balki O'rta Osiyoning XV–XVI asrlardagi tarixi deyarli o'rganilmay qoldi.

Shaxsga sig'inish davrining qonuniy davomi bo'lgan turg'unlik yillarida buyuk davlat arbobi, dovyurak sarkarda, benazr olim va san'atkor, dunyoda taniqli adib va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning shaxsiga qarshi hujumlar qilindi. Bobur faoliyatining milliy va umuminsoniy ahamiyati kamsitilib va tahqirlanib, u «zolim» va «bosqinchi» sifatida baholandi.

Buyuk mutafakkir vatandoshimiz Bobur aslida bizlar uchun o'zining nodir «Boburnoma» asari bilan qadrlidir. U har doim va hamisha Vatan ishq bilan yashadi. Hindistonda bo'lgan paytlarida 700dan ortiq mustaqil jamoani yagona davlatga birlashtirdi, yurtni obod qildi, maorif va madaniyatni rivojlantirdi. Bobur asos solgan buyuk boburiylar sulolasi hind xalqi tarixi rivojiga benihoya katta ulush qo'shdi. Shuning uchun ham ular Boburni Hindistonning asl farzandi sifatida ulug'lashadi. Hindistonning davlat arbobi va faylasufi Javarharlaral Neru «Hindistonning kashf etilishi» va «Dunyo tarixiga bir nazar» kitoblarida Bobur shaxsiyati va boburiylarga yuksak baho berib, Bobur dilbar shaxs, Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, go'zallikni sevardi, degan edi.

Mustaqillik bizga ma'naviy mulkimizni, tariximizni, ulug' bobolarimiz ruhini shod etish imkoniyatini qaytarib berdi. Istiqloq tufayli o'tmish tariximizga munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Alloma bobolarimiz meroslarni o'rganib idrok etmoqdami.

Bugungi kunda avlod-ajdodlarimiz tarixi tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. O'zbek xalqining bir necha ming yillik tarixiga oid darsliklar yaratilmoqda. Xalqimizning kechmish tarixi va hayotini o'zida mukammal aks ettiribgina qolay, ushbu asarlarning o'z ona tilimizda ilk bor nashr etilayotganligi quvonchimizga quvonch qo'shmoqda. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Gulbadan begimning «Humoyunnoma» kitoblarini zo'r intizorlik bilan kutib oldik. Abu Tohir xoja Samarqandiyning qalamiga mansub bo'lgan «Samariya», Narshaxiyning «Buxoro tarixi», Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajarayi Xorazmshohiy», Ishoqjon Junaydullo xo'ja o'g'li Ibratning «Farg'ona tarixi» nomli nodir kitoblarini mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo'lganligimiz sababli xalqimizning uzoq o'tmish hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar, qiziqarli voqealar, tarixiy haqiqatni bilib olmoqdami.

Endilikda o'tmishimizning ko'pgina sahifalari hujjatlar, qo'lyozma materiallari, birinchi manbalar asosida tiklanayapti.

Mustabidlik zamonida xalqimiz xotirasidan ataylab o'chirilgan mo'tabar insonlarning nomlari birin-ketin tiklanayapti. Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jaev, Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat va Usmon Nosir kabi Vatanimiz, millatimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan o'nlab siymolarning ma'naviy meroslari bugun xalqimiz bisotiga qaytmoqda.

Qatag'onchilik avjiga mingan yillarda qat'iy man etilgan Abdurauf Fitratning «Hind sayyohining qissasi», «Turkistonda ruslar», «Qiyomat» nomli asarlari va qo'plab she'rlari, Abdulhamid Cho'lponning «Kecha va kunduz» romani, «YOrqinoy» nomli dramatik asari, «O'zbekim», «Xalq», «Buzilgan o'lkaga» nomli va boshqa qo'plab she'rlari, Usmon Nosir va Abdulla Qodiriy asarlari hozirgi mustaqillik davrida xalqimizning qo'ldan qo'ymay o'rganadigan asarlaridan bo'lib qoldi.

Pok nomlari tiklangan minglab kishilar orasida O'zbekistonga ko'p yillar samarali xizmat qilgan, mustaqillik poydevoriga munosib g'isht qo'ygan, xalqimizning atoqli farzandi Sharof Rashidovning ham nomi borligi oqilona siyosat natijasidir.

Mustaqillik sharofati ila tiklanib qaddini rostlayotgan, to'xtovsiz rivojlanib borayotgan milliy madaniyatimizning jamiyatimiz taraqqiyotini tezlashtirish, insonni ma'naviy, axloqiy jihatdan tarbiyalash va kamol toptirishda ahamiyati berahhoja katta.

Xalqimizning qaddini rostlab olishi, o'z-o'zini anglashi, tarixni harakatga keltiradigan buyuk kuchga aylanishi madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga, jumladan, insonning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ham ma'lum darajada bog'liq ekanligi o'z-o'zidan tushunarlidir.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning axloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirila-yotgan milliy madaniy tiklanish, milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy aloqadorlikdadir.

Insonning ma'naviy, axloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun-mohiyati jihatidan chuqur bo'lib, o'z ichiga juda ko'plab sohalarni qamrab oladi. Inson ma'naviy kamolotining eng muhim ko'rinishi va zarur sharoitlaridan biri siyosiy madaniyatning o'sib borishidir. Agar har bir millat vakilida, har bir insonda yuksak siyosiy ong, siyosiy bilim va madaniyat, siyosiy ziyaraklik bo'lmasa mustaqillik barqaror bo'la olmaydi.

Siyosiy madaniyat o'zida halollik va poklikni, ishchanlik va uzoqni ko'zlab ish tuta bidish fazilatlarini o'zida mujassam etgan odamlarning g'oyaviy-siyosiy etukligi, nazariy bilimlar istiqbolini yorqin tasavvur etgan holda amalda qo'llay bilishi kun tartibidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy muammolarni keng miqyos-larda hal etish mahorati demakdir. Siyosiy madaniyat aytilganlardan tashqari insondagi faollik va tashabbuskorlikni, yuksak axloqiylik, qat'iy irodalilik, xushmuomalalilik, katta ma'suliyat, ziyraqlik, uzoqni ko'ra bilishlikni ham o'z ichiga oladi.

Mustaqilligimiz davri muammolarini, milliy istiqlolimizning nazariy masalalarini yuzaki bilish, ularning tub mohiyatiga tushunmaslik yoki uni so'zdagina shunchalik qayd etishni siyosiy onglik ham, siyosiy madaniyat ham deb bo'lmaydi. Nazariy bilimlar mustaqillikning amaliy masalalari bilan bog'langan, har bir insonning iymon-e'tiqodiga, faoliyati va hatti-harakatining mazmuniga aylangandagina siyosiy madaniyatning asosi bo'lib yuzaga chiqadi.

Hozirgi paytda har bir kattayu - kichik inson, mehnatkashlar ommasi, o'sib kelayotgan yosh avlod mustaqil O'zbekiston davlati ichki va tashqi siyosatini chuqur tushunishlari, o'zlarini milliy istiqlolimiz muammolarini bajarish yo'lida safarbar eta bilishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuksak siyosiy bilim va madaniyatga, iymon-e'tiqodga ega bo'lgan inson jamiyatimiz, davlatimiz, xalqimiz va millatimizning eng katta boyligi hisoblanadi.

Ma'naviy barkamollik huquqiy ongni ham o'z ichiga oladi. Inson muayyan jamiyatda yashar ekan, uning axloqi va odobining shakllanishi mavjud huquqiy mezonlar bilan bog'lanmog'i kerak. Insondagi faollik qabul qilgan qonun va qoidalar chegarasida bo'lmog'i kerak. Jamiyat belgilagan, davlat qabul qilgan qonunlar chegarasidan chiqib ketgan faollik beboshlikdir, jamoat va davlat manfaatlarini mensimaslikdir.

Etuk, ma'naviy, ruhiy barkamol, millatparvar, xalqlarvar kishilar, vatani uchun xizmat qilishni o'zi uchun oliy maqsad deb biladigan odamlar, o'z shaxsiy maqsad va manfaatlarini umumxalq, davlat manfaatlaridan ustun qo'ymaydi, beboshlik va itoatsizlik, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni keskinlashtirishning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash olib boradi.

Jamiyat qabul qilgan qonunlarni hurmat qilish, unta asoslanib ish ko'rish, huquqiy qonun-qoidalar va mezonlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik ma'naviy kamolot, axloqiy poklik belgisidir.

Insonda huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi, uning huquqiy bilimi va saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki o'sha qonunlarning ko'rsatilgan sohalarda to'la ijro etilishi bilan belgilanadi.

Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlaganidek, «huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir»<sup>1</sup>.

Insonda huquqiy ong va madaniyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda, jamoatchilik o'rtasida ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi. YOshlarda huquqiy bilim va madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda umumta'lim maktablari, kolledj va litseylar, oliy ta'lim va o'rta maxsus o'quv yurtlarida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining ahami-yati katta. Ta'lim-tarbiya oldida turgan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlod ongida keksa avlod dono tajribasini singdirish, insoniy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fazilatlarini qaror toptirishdan iboratdir.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1995, 29-bet.

Madaniyatning inson ma'naviy, axloqiy kamolotidagi ahamiyati aytib o'tilganlardangina iborat emas. O'z erkini qo'lga kiritgan mamlakatimiz xalqlari faoliyatida milliy ong, milliy birdamlik tuyg'u-sining qaror toptirishdagi ahamiyati ham beqiyosdir. Mustaqil davlatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan xalqda etuk milliy ong bo'lmasa ozodlik, erkinlik, hurriyatni qo'lga ushlab turish behad mushkullashadi.

Milliy ong, milliy manfaatlarni o'zida ifodalagan ma'naviyatdir. Milliy ong milliy madaniyatning tarkibiy qismidir. Milliy ong milliy manfaatning cho'qqisidir. Milliy ong milliy madaniyatning millat manfaati bilan, millat istiqboli bilan, taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan muammolarning inson ongidagi ifodasidir.

Milliy ongning shakllanishi ancha murakkab jarayon. U milliy madaniyat zaminida shakllanishi, rivojlanishi mumkin. Milliy madaniyat milliy ongning asosiy negizini tashkil etadi. Milliy madaniyat qanchalik yuksak bo'lsa, milliy ongning shakllanishi uchun imkoniyatlar shu qadar keng bo'ladi.

Milliy madaniyat va milliy ong aynan teng emas. Milliy madaniyat mazmun jihatdan ancha keng bo'lib, millat ma'naviy kamolotning barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Milliy ong esa milliy madaniyatning ma'lum davridagi ijtimoiy ongda aks etgan shaklidir.

Milliy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan milliy ong o'z navbatida milliy madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Milliy ongning rivojlanishi milliy madaniyatni to'laroq tushunishga, uning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan yangi imkoniyatlarni topishga imkon beradi.

Agar xalqlarda yuksak milliy ong bo'lmasa milliy manfaatlarni anglash, himoya qilish qiyinlashadi. Milliy ongi etarli darajada rivojlanmagan, milliy birlik, milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuyg'ulari zaif bo'lgan xalqlarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot juda sustlashib ketadi.

Milliy madaniyatning birlik va hamkorlikka, millat tarixini xolisona anglashga, milliy til va madaniyatni qadrlashga, milliy odob-axloq va boshqa ma'naviy hislatlarini saqlashga xizmat qiluvchi tomonlari milliy ongning o'zagini tashkil etadi.

Insonni ma'naviy-axloqiy kamoloti muomala madaniyatida ham ko'rinadi. Ma'naviy barkamol inson aql-idrok asosida harakat qiladi. Vataniga, xalqi va millatiga to'la sodiq, sadoqatli bo'lish ham madaniyatlilik, ma'naviy barkamollik, axloqiy poklik belgilaridan bo'lib hisoblanadi.

Birovlardan ko'rgan muruvvati va yaxshiligini unutmash ham insonni ulug'laydigan fazilatlaridan bo'lib hisoblanadi. Yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish eng katta insoniy burchimizdir. Yaxshilik do'stlik, birodarlikni, qavm-qarindoshlikni kuchaytiradi, mehr-oqibatni mustahkamlaydi.

Jismoniy baquvvat, ma'naviy, axloqiy, ilmiy jihatdan etuk bo'lmasdan turib shaxs barkamol bo'la olmaydi. Ma'naviy, jismoniy sog'lom avlodlarni tarbiyalash bu boradagi ishlarning asosiy mohiyati va yo'nalishini tashkil etadi.

Xalqimizda, sog'lom tunda, sog'lom aql, – degan dono naql bor, sog'lom tan ijtimoiy-shaxsiy kamolot zaminiga aylana oladi. «Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordur», – deydi Abdulla Avloniy. «Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila terisi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustuni qo'yib, astarini yuvib ovora bo'lmoq kabilarni, harvaqt ustidagi kir ichiga uradur».

Fikr tarbiyasi uchun sog'lom bir vujud kerakdir. Insonning ma'naviy kamolatida jismoniy va badan tarbiyasidan tashqari aqliy va go'zallik tarbiyasining, shuningdek, axloqiy, vijdoniy, ruhiy, diniy tarbiyaning ham ahamiyati shak-shubhasizdir.

«Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak», – deydi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Insof va adolat tuyg'usi, iymon va halollik, xushmuomalalik va xushxulqlilik – bular inson ma'naviy barkamolligining namoyon bo'lish shakllaridir.

Sharqona urf-odat va madaniyatda odamlar xushxulqli, shirins'o'z, olijanob bo'lishga da'vat etiladi. Odamlar xalqimiz urf-odatlariga qat'iy amal qilib xulqlarini tuzatsalar, oilalarida, jamiyatda xushmuomala, mehribon, olijanob bo'lsalar juda katta olqishga sazovor bo'ladilar.

Milliy uyg'onish asosan ma'naviyat sohasida, milliy ong, insonning ma'naviy, axloqiy kamolotida yuz beradi. Ma'naviy kamolot faqat o'tmishni to'la tushunib olishgina emas, balki kelajakka intilishdan iboratdir.

«Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy

zakovat va ruhiy ma'naviy salohiyat – ma'rifatli insonning ikki qanotidir»<sup>1</sup>.

#### 4. Milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati

Har qaysi jamiyatning, shu jumladan, mustaqil Respublikamizning ham o'z oldiga qo'ygan aniq maqsad va muddaosi bor. Milliy g'oya, milliy mafkura ana shu maqsadlarni ifoda etadigan qudratli kuchdir.

«Maqsad degani, – deb ta'kidlaydi Prezident I.A.Karimov, – xalqni, millatni birlashtiruvchi yo'lga boshlovchi bamisoli bir bayroq. Bu bayroq butun O'zbekiston xalqining ruhini, g'urur-iftixorini, kerak bo'lsa, qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir. Davlatimizning, xalqimizning, el-yurtimizning maqsadi o'zining ulug'vorligi, hayotiyiligi va haqqoniyiligi bilan hammamizni jalb etadigan bo'lmog'i lozim. Toki bu maqsad xalqni – xalq, millatni – millat qila bilsin, qo'limizda engilmas bir quchga aylansin»<sup>2</sup>.

Ma'lumki, o'tmishda xalqimizning tabiatiga tamomila begona, jamiyat ongiga majburan singdirilgan yakkayu – yagona kommunistik mafkura hukmronlik qilib keldi. Uning salbiy asoratlari hanuzgacha sezilmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda mustaqil O'zbekiston jamiyatining oliy maqsadlarini ifoda etadigan milliy g'oya, milliy mafkuraning ilmiy asoslarini yaratish o'ta muhim masala bo'lib turibdi.

Mustaqillik tufayli boshlangan buyuk tarixiy taraqqiyot yo'lidan og'ishmay olg'a rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi oldida endilikda bir qancha muhim vazifa va muammolar turibdi. Ana shulardan biri milliy istiqloq mafkurasini yaratish, uni xalq orasida jadal keng yoyishdan iborat.

O'zbekiston o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygan dastlabki kunlarida – eski mafkuradan butunlay voz kechilayotgan, yangi mafkura esa hali ishlab chiqilmagan, ilmiy asoslab berilmagan kezlarda, ma'naviyat sohasida bo'shliq paydo bo'ldi. Shuning uchun ham yangi milliy g'oya, milliy mafkurani yaratish zarurati kun tarti bidagi asosiy masala bo'lib qoldi.

Shuni aytish kerakki, hech qanday jamiyat va millat mafkurasiz yashay olmaydi. Dunyodagi har bir jamiyatning, har bir davlatning o'ziga xos, o'ziga mos keladigan, uning uchun xizmat qiladigan, tub

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1995, 46-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni – xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: «O'zbekiston», 1998, 3-bet.



maqsadlari va manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo'ladi. Odamlar qaysi bir jamiyatda yashashidan qati nazar nimagadir ishonishi, e'tiqod qilishi, qandaydir bir g'oyaga, ta'limotga asoslanib ish ko'rishi, faoliyat ko'rsatishi kerak.

O'zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun mafkura suv bilan havodek zarur. Buni hayotning o'zi ochiq-ravshan ko'rsatib turibdi.

Biz ertangi kunga – kelajakka tomon ko'zni yumib, taxminlarga asoslanib, tavakkalchasiga ish tutib bora olmaymiz. Kishilar hozirdanoq biz qaysi yo'ldan boramiz, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning qanday shaklini yaratamiz, o'z tarixiy tajribamizning, jahon taraqqiyoti saboqlarining qaysi jihatlaridan foydalanamiz, kelajakda O'zbekistonni qanday qilib buyuk davlatga aylantiramiz, mustaqillik muammolarini hal etish uchun nimalarga e'tiborimizni qaratishimiz kerak, degan o'nlab, yuzlab savollarga javob topmoqlari zarur. Agar xalqimizni, millatimizni qiziqtirib kelayotgan barcha savollarga hozirdanoq aniq, ilmiy asoslangan javoblar, muhim yo'l-yo'riqlar bo'lmasa, odamlar bunga qat'iy ishontirilmasa, amaliy faoliyatimizda xato ketidan xatoliklarga yo'l qo'yaveramiz. Bu kutilmagan oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ana shunday ko'ngilsiz hodisalar ro'y bermasligi uchun xalq ommasini umumiy maqsad sari yaqdollik bilan harakatga davat etadigan yangi mafkura yaratilmog'i kerak.

Mafkuraning ahamiyati yana shundan iboratki, u jamiyatimizning rivojlanishi, olg'a tomon harakat qilishini osonlashtiradi, millatni, barcha fuqarolarni umumiy maqsad yo'lida birlashtiradi.

Milliy mafkura butun O'zbekiston xalqining ruhini, his-tuyg'usini, milliy g'urur va iftixorini, kuch-qudratini, orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan buyuk g'oyaviy kuchdir.

Mustaqillikning taqdiri, O'zbekistonning kelajagi, birinchi navbatda va asosan, odamlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy etuklik darajasiga, milliy o'zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olishlariga bevosita bog'liq. Mafkurasiz ommani jamiyat taraqqiyotini, mustaqillik bilan bog'liq bo'lgan ulkan vazifalarni bajarishga safarbar etish mumkin emas. Insonning faoliyati uning ilg'or mafkuraga qat'iy amal va e'tiqod qilishiga bog'liq.

Jamiyat manfaati va milliy istiqlol yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini baxshida etishga tayyor turgan etuk insonlar, uddaburon yoshlar, fidoyilar bo'lmasa, O'zbekistonni eng yaqin va oliy kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ana shu va boshqa vazifalarni mafkuraviy ishlarni jonlantirmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Milliy istiqlol mafkurasida kishilarda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy g'urning o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u keng jamoatchilikni xalqimiz va millatimizning kuch-qudrati va imkoniyatlariga, g'oyaviy-siyosiy jihatdan bir butun va yaxlitligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan mahalliychilik, guruhbozlik, qabila-urug'chilik munosabatlariga qarshi murosasiz kurash olib borishga davat etadi.

Mafkura milliy hamkorlik, milliy hamjihatlikning kuchayishiga ko'mak beradi. U etuk milliy ong, milliy g'urur, milliy qadriyatlar, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg'usi zaminida shakllanadigan vatanparvarlikni ham o'z ichiga oladi. Kishilarda ona zaminga bo'lgan muhabbat qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanni sevish, yuksak darajada e'zozlash tobora kuchayib borsa, har bir inson o'z Vatani tarixini, milliy qadriyatlarini, o'z xalqi tili, madaniyati, milliy urf-odatlarini mukammal bilsa, milliy manfaatlarni, millat takdiri va istiqlolini chuqur anglab etgan bo'lsa, jamiyat shunchalik mustahkam va barqaror bo'ladi. Vatanimiz baxt-saodati, xalqimiz, millatimiz kelajagi, istiqbolimiz taqdiri har birimiz uchun muqaddasdir.

Milliy g'oya respublikamiz mustaqilligini mustahkamlash, O'zbekistonni kelajaqda buyuk davlatga aylantirish, inson haq-huquqlarini hironoya qilish, ijtimoiy adolatni, demokratiyani to'la qaror toptirish, millatimiz va mamlakatimiz istiqboli muammolarini hal etishni birinchi o'ringa qo'yish yo'lida aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslangan xilma-xil bilimlar va xulosalarning muayyan tizimidir.

Milliy g'oya xalqning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi va uni o'zida ifoda etadi.

Milliy g'oya xalqimizning milliy qadriyatlarga hamda umuminsoniy qadriyatlariga asoslanadi. Ular mafkuramizning tamal toshini tashkil etadi. Milliy, umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy, badiiy, falsafiy, diniy, huquqiy qarashlar va g'oyalar mafkuramizning insonparvarlik mohiyatini yanada to'ldiradi va boyitadi, zaminini mustahkamlaydi, ta'sirchanligini oshiradi, amaliy ahamiyatini kuchaytiradi.

Milliy g'oyani ishlab chiqish va hayotimizga joriy etishda fan qonunlariga asoslanib ish tutish, to'plangan ijobiy tajribalardan maqsadga muvofiq foydalanish zarur.

Milliy g'oya bir millat – o'zbeklarning manfaati bilangina chegaralangan emas. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, ruslar, ukrainlar, yahudiylar, xullas respublikamizni o'zining jonajon Vatani deb bilgan, u bilan faxrlanadigan barcha millat va elatlarning teng huquqliligini, qadr-qimmatini, or-nomusi va milliy g'ururini, manfaatlarini himoya qilish mafkuramiz mohiyatida katta o'rin tutadi.

Mustaqil O'zbekistonning yangi o'ziga xos va mos bo'lgan mafkurasini xalqimizning hozirgi va kelajaqdagi tub manfaatlarini, istiqbolimizning rivojlanish qonunlarini nazarda tutish fan qonunlariga, ilmiy nazariyaga tubdan zid bo'lgan subyektivizm va volyuntarizmga qarama-qarshi ish tutish demakdir.

Aytilganlardan ko'rinib turganidek, xalqimizning milliy g'oyasini ishlab chiqish shunchaki oddiy bir narsa emas. Uni ishlab chiqishda istiqbolni hozirdanoq aniq belgilab olish, kun tartibida turgan eng yangi vazifalarni to'la hisoblagan holda ish ko'rish talab etiladi.

Milliy istiqloq mafkurasini yaratishga bo'lgan zaruriyatning negizida xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan kurashlari tufayli qo'lga kiritilgan eng buyuk tarixiy voqea – mustaqillik yotganligini sira esdan chiqarmasligimiz kerak.

Mustaqillik jahon taraqqiyotiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi hayotida, jumhuriyatimizda yashaydigan barcha xalqlar tarixida ro'y bergan buyuk voqeadir. Mustaqillik jamiyatimiz tarixida xalqimizning turmushi, madaniyati, ma'naviyati, dunyoqarashi va mafkurasida tub burilishdir. Mustaqillik yangi davrni – mustamlakachilikdan abadiy qutulib, ozodlikka chiqish davrini boshlab berdi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi – bu xalqimiz tarixidagi eng katta burilish, buyuk g'alabadir. «Bu – xalqimizning ko'p asrlik tarixida buyuk voqeadir. Bu tarixiy voqea davlatimiz yilnomasiga zarhal harflar bilan yozib qo'yiladi»<sup>1</sup>.

Biz mustaqillikka tasodifan yoki bo'lmasa osongina erishganimiz yo'q. Uni hech kim bizga hadya etgan emas. Xalqimiz mustaqillikka ko'p yillar davom etgan jiddiy va mashaqqatli kurashlar evaziga erishdi. Bu biz masalaga falsafiy nuqtai nazardan yondashadigan bo'lsak, shuni ochiq-oydin e'tirof etishimiz kerakki, O'zbekiston Respublikasining

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T.: «O'zbekiston», 1992, 4-bet.

davlat mustaqilligi – jamiyatimizning oldingi taraqqiyoti tomonidan tayyorlangan obyektiv va qonuniy jarayondir.

Avlod-ajdodlarimiz azaldan kurash olib bormaganlarida biz hech qachon mustaqillikka erishmasdik. Xalqimizning asl farzandlari yaratib ketgan tagzamin bo'lmaganida, mustaqillik qasrining tamal toshi qo'yi Imaganda orzularimiz ro'yobga chiqmasdi.

Xalqimizning asriy orzusi bo'lgan mustaqillikni ta'minlashda, o'zbek xalqining qadr-qimmatini himoya qilishda, o'lkamiz boyliklarining talon-toroj qilinishiga yo'l qo'ymaslikda Prezidentimiz I.Karimovning xizmatlari buyuk. Yurtboshimizning keyingi bir yuz o'ttiz yil davomida qaram va mute bo'lib kelgan o'zbek xalqini ozodlikka chiqarib, boshini qovushtirib, siyosiy va iqtisodiy inqiroz botqog'idan olib chiqish yo'lidagi sa'y-harakatlarini butun dunyo e'tirof etdi.

Yaqin o'tmishda jamiyatimizda totalitar tuzum manfaatini himoya qilgan yakkayu-yagona kommunistik mafkura hukmron edi. U iqtisodiyot, siyosat va boshqa sohalariga qo'pol ravishda o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Natijada jumhuriyatimiz iqtisodiyoti bir yoqlama rivojlanib, xom ashyo etkazib beruvchi o'lkaga aylanib qoldi. Sho'ro davri mafkurasining salbiy ta'siri natijasida xalqimizning boy tarixi, madaniyati, urf-odati, an'analari oyoq osti qilindi, ijtimoiy adolat mezonini buzildi. Respublikamiz markazning mustamlakasiga aylanib, xalqimiz o'z-o'zini boshqarish huquqidan, vijdon va fikr erkinliklaridan mahrum bo'ldi. Shuning uchun ham istiqololga erishgan kunimizdan boshlab milliy mafkura, O'zbekiston jamiyatining milliy g'oyasini yaratish masalasi dolzarb bo'lib kelmoqda.

Milliy mafkuramizning mazmun-mohiyati, uflari, uning asosiy tamoyillari Prezidentimizning asarlarida o'zining chuqur ifodasini topgan. Islom Karimov jamiyat mafkurasini qanday tushunasiz, degan savolga quyidagicha javob berdi: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'mini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasini deb bilaman»<sup>1</sup>.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, milliy g'oya, milliy mafkura quyidagi talablarga javob berishi kerak:

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. – T.: «O'zbekiston», 1998, 11-bet.

1) milliy o'zligimizni, an'analarimizni, xalqimizning orzu-umidlari, jamiyatimiz oldida turgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi kerak;

2) jamiyatimizda istiqomat qiluvchi barcha kishilarni yagona milliy bayroq atrofida birlashtirib, ularni buyuk maqsadlar sari chorlaydigan g'oya bo'lishi kerak;

3) millatchilik, boshqa xalqlarni mensimaslik kayfiyatidan xoli bo'lib, jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib o'rin, hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor;

4) kishilarni, avvalambor, yosh avlodlarimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashga madadkor bo'lishi zarur;

5) Vatanimizning o'tmishi, bugungi kun va kelajagini bog'laydigan jahon hamjamiyatiga, umumbashariy yutuqlarga eltuvchi g'oya bo'lishi kerak.

Ma'lumki, har bir mafkuraning mazmuni u yoki bu jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari, uning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va boshqa sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar va maqsadlari bilan belgilanadi.

Shunday ekan, o'z-o'zidan biz O'zbekistonda qanday jamiyat barpo etayapmiz, uning mohiyati, asosiy maqsadlari, o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat, degan savol tug'iladi, albatta.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, hozirgi mustaqil O'zbekiston – o'z taqdirini o'zi belgilaydigan, umumbashariy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanadigan, insonparvarlik qoidalarini tan olgan, kuchli demokratik, adolatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan davlat. U inson huquqlari va erkinliklari, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlab beradigan, xalqimizning boy tarixi, urf-odati, an'alarini qadrlaydigan, barqaror bozor iqtisodiyotiga bosqichmabosqich o'tishga harakat qilayotgan har tomonlama faol ichki va tashqi siyosatni amalga oshiradigan, aholi turmushini yaxshilashni oliy maqsad qilib qo'ygan, kelajagi buyuk huquqiy demokratik davlatdir.

«Jamiyatimizning mafkurasi, – deydi I.A.Karimov, – shu jamiyatning tayanchi bo'lmish oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishishi uchun kuch-g'ayrat manbai bo'lishi lozim»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. – T.: «O'zbekiston», 1998, 12-6et.

Mustaqil Respublikamizning milliy istiqlol mafkurasi jumhuriyatimiz ijtimoiy turmushining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalarida ro'y berayotgan jarayonlarni ifodalaydi.

Bir-biri bilan uzviy bog'langan, bir-birini to'ldiradigan yo'nalishlardan tarkib topgan milliy istiqpol mavkuramizning asosiy maqsadlari quyidagilarga qaratilgan.

Siyosiy sohada – o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasi va umuminsoniyat tomonidan e'tirof etilgan qonunlarga asoslangan holda insonparvar xuquqiy demokratik davlatni barpo etish; davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish; fuqarolarning siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirib inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, tom ma'noda amalda qonun ustuvorligini ta'minlashga erishishi; demokratiyaning zaruriy sharti bo'lgan ko'ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish; milliy demokratik davlatchilikni qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga bo'linish borasidagi konstitutsiyaviy tamoyil asosida barpo etish; nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini izchillik bilan rivojlantirish; erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini har tomonlarni rivojlantirish. Ommaviy axborot vositalarini jamiyatimizdagi «to'rtinchi hokimiyatiga» aylantirishga barcha shart-sharoitlarni yaratib berish.

Iqtisodiy sohada – bozor munosabatlariga asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyotni qaror toptirish, uni zamonaviy texnologiya asosida rivojlantirish va samaradorligini oshirish; xususiy lashtirish jarayonini chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish; kichik va o'rta biznes hamda tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qulay shart-sharoit yaratish; odamlarda mulkka egalik hissiyotini tarbiyalash; qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlarni jadallashtirish; iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirib mamlakatimizning eksport salohiyatini mustahkamlash va rivojlantirish; xorijiy sarmoyalarning iqtisodiy tizimda faol ishtirok etishiga erishish; respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini, xalq turmush darajasining izchil va barqaror o'sishini ta'minlash, ularni kuchli ijtimoiy himoya qilish.

Madaniy-ma'naviy sohada – umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olgan holda milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, tilimiz, axloq-odobimiz, dinimizni tiklash, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirish, milliy o'zlikni anglashni yuksaltirib xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish; O'zbekistonda

yashayotgan barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, urf-odati va an'analarini rivojlantirish, ularga yaratib berilgan imkoniyat va shart-sharoitlarni yanada kengaytirish; yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati uchun qayg'uradigan, yangicha fikrlaydigan, iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish; fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at, tibbiy xizmat, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismonan va man'aviy sog'lom avlodni tarbiyalash sohalarida ijobiy natijalarga erishish; ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlarni yaratish, ma'naviy mulkni himoya qilish.

Tashqi siyosat sohasida — davlatimiz daxlsizligini ta'minlab, jamiyatimizda tinchlik, totuvlik, barqarorlik, millatlararo hamjihatlikni saqlab qolish, chet el mamlakatlari, MDH respublikalari bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish va yanada mustahkamlash, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rni egallashiga erishish.

**Mafkura** — bu inson ongiga, uning qalbiga yo'l ochib, dunyoqarashiga ta'sir etuvchi qudratli g'oyaviy kuchdir. Shuning uchun ham, hozirgi vaqtda jahon miqyosida turlicha maqsad-manfaatlarini ifoda etuvchi har xil eski qarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalarning pinxona va oshkora o'zaro kurashlari, tortishuvlari har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda.

Mafkuraviy kurashlar va tortishuvlardan ko'zda tutilgan «asosiy maqsad — inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'sun-dirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatlidir»<sup>1</sup>.

«Jamiyatimiz, mamlakatimiz, — deydi I.A.Karimov, — o'z oldiga qo'ygan ezgu muddao va vazifalarni aniq-ravshan belgilab olmasdan turib millatimizning asriy an'ana va urf-odatlarini, o'zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassam etadigan milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas»<sup>2</sup>.

Prezidentimiz jiddiy ogohlantirganidek, bugungi zamonada mafkura poligonlari yadro poligonlariga nisbatan ham ko'proq kuchga ega. Har xil mafquraning ta'siriga berilmaslik uchun har bir inson, ayniqsa, yoshlar mafkuraviy qurollangan bo'lishi zarur, chunki, «g'oyaga qarshi

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat etsin. — T.: «O'zbekiston», 1998, 5-bet.

<sup>2</sup> «Xalq so'zi», 2000-yil 10-iyun.

faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin»<sup>1</sup>.

O'zbekiston milliy mafkurasi bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shib, xalqimizga kelajagi buyuk davlat qurishimiz uchun mustahkam ishonch bag'ishlab, ruhini tetiklashtiruvchi qudratli kuch. Shuning uchun ham milliy g'oya, milliy mafkuramizning oliyjanob maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda etkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday yangi g'oya singari mafkura ham ommaning ongiga chuqur singsa, hayotda chuqur ildiz otsa, amaliyotda o'zini to'la oqlasagirga real voqelikka, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

Agar odamlarda mustaqilligimiz haqida bilim va g'oya, milliy mafkuramiz to'g'risida tasavvur bo'lsa-yu, ana shu bilim va g'oya iymon-e'tiqodga, dunyoqarashga aylanmasa, bunday mafkuraning zamini bo'sh bo'ladi, amaliy ahamiyati bo'lmaydi.

Mafkura fuqarolarning, yoshlar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning, xullas, keng jamoatchilikning kundalik amaliy faoliyatida o'z ifodasini topa olsa, jamiyat rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ommani uyushtiradi, birlashtiradi, amaliy faoliyatga da'vat etadi.

Milliy mafkura o'z-o'zidan hayotga tatbiq etilmaydi. Bu – ancha murakkab, mas'uliyatli jarayondir. Shoshma-shosharlik qilish, o'ylamasdan ish tutish, o'zibo'larchilik toptirish va tarbiyalashga da'vat etilgan.

Maktabgacha ta'limning vazifasi bola kamoloti asoslarini shakllantirishdan, uning madaniy-axloqiy ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir. Ana shularga e'tibor bermasdan turib, bolalarning murg'ak qalbida Vatanimiz va mustaqillik haqida, davlat ramzlari to'g'risida ilk tasavvurlarni shakllantirib bo'lmaydi. Bu narsa mafkuramiz uchun juda muhimdir.

Mustaqillik sharoitida yoshlarda milliy qadriyatlarining bizga maqbul bo'lgan tomonlarini shakllantirish, ularga tariximiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz va dunyoviy fanlardan puxta bilim berishda hamda milliy mafkuramizdagi asosiy g'oyalarni singdirishda umumiy ta'lim maktablari, kasb-hunar-texnika, o'rta maxsus bilim yurtlari hamda oliy ta'lim alohida o'rin tutadi.

Milliy mafkuramiz g'oyalarini omma ongiga singdirish va amalga oshirishning eng muhim va zarur shartlaridan yana biri – xalqimiz

<sup>1</sup> Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. – T.: «O'zbekiston», 1998, 10-bet



tarixini chuqur va mukammal, uni qanday bo'lsa, shundayligicha xolisona o'rganishni yo'lga qo'yish, buning uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Milliy mafkuramizning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettiribgina qolmay, siyosiy boshqaruv tizimining faoliyatini ham o'zida ifodalaydi. Shuning uchun ham milliy mafkuramizni hayotga tatbiq etishda siyosiy bilimlarni omma o'rtasida keng yoyish, targ'ib-tashviq etish, shak-shubhasiz katta ahamiyatga ega. Siyosiy bilimlar qanchalik mukammal bo'lsa, xalqning ongi shuncha o'sadi, faolligi oshadi. Siyosiy madaniyati, milliy ongi, vatanparvarlik tuyg'usi o'sgan, o'zini-o'zi anglab etgan xalq va millat o'zining istiqboli bilan bog'liq bo'lgan masalalarga hech qachon befarq qaramaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mafkuraviy ishlar umuxalq, umumdavlat ishidir. Mafkuraviy ishlarimizning qo'yilishi, uning ko'lami va mazmuni, ahamiyati, avvalo, ana shu ishga mutasaddi bo'lgan kadrlarning mas'uliyatini qanchalik chuqur his qilishlari, qanchalik boy bilimga ega ekanliklari, amaliy tajribalariga bevosita bog'liq.

Millat ravnaqi, xalqimiz farovonligi, O'zbekistonning porloq kelajagi uchun astoydil ishlaydigan xodimlar bo'lmasa, milliy istiqlob mafkurasidan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin.

Ozodlik, erkinlik, mustaqillik yo'li biz uchun orqaga qaytmaydigan yo'ldir. Shu yo'ldan og'ishmay dadillik bilan borsak, Prezidentimiz atrofiga yaqindillik bilan uyushsak, xalqimiz, millatimiz murodiga etadi, asriy orzularimiz ijobat bo'ladi.

### **Takrorlash uchun savollar**

1. Ma'naviy hayot tushunchasi nimani ifodalaydi?
2. Ma'naviyatning mazmun-mohiyatini ochib bering.
3. Qadriyatlar nima? Ularning asosiy turlari haqida so'zlang.
4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi haqida o'z fikrlaringizni ayting.
5. Mustaqillik tu fayli madaniyatimizning tiklanishi va uning jahon tsivilizatsiyasiga kirishdagi ahamiyati nimalarda ifodalanadi?
6. Mildiy g'oya, milliy mafkura nima? Milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida nimalar deya olasiz?
7. Milliy g'oya, mafkuramizning asosiy maqsad va yo'nalishlari haqida so'zlab bering.

8. Milliy g'oyani hayotga tatbiq etish yo'llari nimalardan iborat?
9. Mafkuraviy immunitet deganda nimani tushunasiz?
10. Hozirgi kunda mafkuraviy kurashlarning kuchayib borayotganligining sabablari va ularning oldini olish uchun nimalar qilish kerak?

### **Tayanch tushunchalar**

**Ma'naviyat** – jamiyat va alohida shaxsning ma'naviy olami, ruhiy holatining ma'no mazmunini ifodalovchi tushuncha.

**Qadriyatlar** – inson manfaatlarini ifodalaydigan, shuning uchun ular tomoni dan qadrlanadigan tabiat va jamiyat hodisalari.

**Madaniyat** – inson faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning majmui.

**Milliy g'oya** – millatning orzu umidlari, maqsadlarini ifodalovchi qarashlar, majmui.

**Mafkura** – nuqtai nazar, fikrlar, e'tiqodlar tizimi, majmui.

**Milliy mafkura** – xalqning, millatning e'tiqodi.

**Mafkuraviy immunitet** – begona g'oya va qarashlarga yon bosmaslik.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: «O'zbekiston», 2000, 5–40-betlar.
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: «O'zbekiston», 1997
3. Tulenov J., G'ofurov S., Qodirov B. Ma'naviy yuksalish sari. T.: «Mehnat», 2000.

---

---

## XVI MAVZU. INSONIYAT ISTIQBOLI

### Reja:

1. Jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish – inson oqilona faoliyatining zaruriy sharti.
2. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ularni hal qilish yo'llari va istiqbollari.
3. Inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi.

### 1. Jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish – inson oqilona faoliyatining zaruriy sharti

Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarishda unda sodir bo'layotgan jarayonlar taraqqiyotining oqibatini oldindan ko'ra bilish katta ahamiyat kasb etadi. Bashorat qilish nima? Inson hayotida ro'y bermagan, fan uchun hozircha noma'lum hisoblangan, imkoniyat tariqasidagina mavjud bo'lgan biron-bir ijtimoiy-siyosiy voqea yoki hodisaning kelajakda qanday ro'y berishini, uning holati, rivojlanish qonunlari va oqibatlarini muayyan ilmiy dalillar, nazariy xulosalar va ma'lumotlarga asoslangan holda oldindan aytib berish – *bashorat* qilishdir.

Inson faqat orqaga, o'tmishga qarab yashay olmaydi, balki o'tmish avlodlar tomonidan yaratilgan barcha ilmiy bilimlarni chuqur o'rganish va o'zlashtirish, ularga ijodiy va tanqidiy yondashish asosida kelajakni oldindan ko'rishga, to'xtovsiz ilgarilab borishga harakat qiladi. O'tmishni, tarixni bilmasdan turib kelajakni bilish, olg'a rivojlanish mumkin emas. Kelajakka umidvorlik bilan qarash, bugun bilmagan narsa va hodisani ertaga mukammal bilishga intilish, orqaga emas, oldinga, kelajakka tomon harakat qilish – insonning eng muhim fazilatlaridan bo'lib hisoblanadi. Inson o'zining kelajagini taxmin va gumonlarga asoslanib emas, balki fan va amaliyotning chuqur ilmiy xulosalariga asoslanib bilib oladi. Fan va amaliyot – kelajakni oldindan ko'rishning eng ishonchli qurolidir. Inson fan yordamida dunyoni ilmiy asosda biladi, undan maqsadga muvofiq tarzda foydalanadi. Biron-bir narsadan foydalanish uchun avvalo, o'sha narsa va hodisani bilish, atroflicha o'rganish kerak bo'ladi.

Ijtimoiy hayot hodisalarini oldindan bilish, rejalashtirish, programmashtirish, loyihalashtirish, boshqarish nazariyalari bilan o'zaro aloqadorlikda amalga oshiriladi. Murakkab jarayonlarni oldindan bilishga ayrim fanlar, mutaxassislarning kuchi etmasligi sababli ilmning barcha tarmoqlaridagi etuk omilarning o'zaro hamkorligi talab qilinadi. Kelajakni, mavjud tarixiy jarayonlarni bashorat qilishning eng qulay usuli ekspert baholashdir. U tarixiy jarayon haqidagi chuqur va aniq ilmiy tasavvurlarga, ilmiy tadqiqot usullarining natijalariga asoslanib ish ko'radi va xulosa chiqaradi.

Jamiyat taraqqiyoti qonunlarini oldindan ko'ra bilishning ekstrapolyatsiya (muayyan bir sharoitda ro'y beradigan qonuniyatlarni hozirgi davr va kelajakka moslash), tarixiy analogiya (o'tmish hodisalariga qarab xulosa chiqarish), ijtimoiy hodisalarni kompyuter orqali namunalashtirish, kelajak hodisalarini tasvirlash, eksperimental baholash (tarixiy ilmiy tajribaga asoslangan ishlarga) baho berish singari asosiy usullari mavjud. Bularning hammasi birgalikda jamiyat taraqqiyotini oldindan qurishga imkon beradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud voqealarning hal qiluvchi yo'nalishlarini faqat ravshan tushina olgan taqdirdagina to'g'ri, ilmiy jihatdan asoslangan siyosat yuritish mumkin. Sodir bo'lyotgan voqealarni uning obyektiv mantiqni chuqur tushunib olish, davr harakatini ifodalovchi to'g'ri xulosalar chiqara bilish oson emas, lekin bu g'oyat zarur ishdir.

Mavjud voqelik, mamlakatimizda, jahon miqyosida muntazam ravishda sodir bo'lib turgan hodisa va jarayonlar, jahon fani va texnikasining, inson aql idroki va tafakkurining xayramuz darajada to'xtovsiz rivojlanib borayotganligi, hozirgi zamon ilmiy-texnika yutuqlari insoniyatning kelajagi haqida mukammal ilmiy xulosalar chiqarish uchun boy material bermoqda.

Mamlakatimizning kelajagi haqida aniq rejalar ishlab chiqarish, ularni amalga oshirishning eng oqilona va maqsadga muvofiq yo'llarini belgilab olish uchun xalq bilan maslahatlashish, uning fikriga quloq solish, madadiga suyanish, uning talab-istaqlarini bajarish zarurligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Hozirgi paytda jahon taraqqiyoti o'ziga xos yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davrning o'ziga xos, oldingi paytlardan farq qiladigan alomatlar, xarakterli belgilari bor. Bular quyidagilardan iboratdir.

Er yuzidagi davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va hamkorlikning kjsalib borishi jahon taraqqiyoti hozirgi bosqichining

o'ziga xos xususiyatidir. Boshqacha aytganda, keng qamrovli integratsiya – (lotincha so'z bo'lib, kirib borish, to'ldirish, o'zaro yaqinlashish ma'nosida ishlatiladi) – butun hozirgi olamshumul jarayon bo'lib, har bir xalq va davlatning porloq istiqboli umuminsoniy sivilizatsiya yo'lidagi barcha kuch-harakatlarini birlashtirishga ko'maq-lashadi.

Ma'lumki, asrimizning bir necha o'n yilliklari mobaynida Yevropa bilan Osiyodagi mamlakatlar, G'arb bilan Sharq bir-biriga dushmanlik nuqtai nazaridan qarab keldi.

Hozirgi paytda jahonda shunday bir vaziyat vujudga keldiki, dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar va o'zlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyot darajalarining har xilligi, rivojlanishning turlicha bosqichlarida ekanliklari, hatto mafkuraviy qarashlardagi farqlarga qaramasdan o'zaro yaqinlashmoqdalar.

Hozirgi paytda o'tmishdagi o'zaro dushmanlik va ixtiloflar siyosatidan hamkorlikka o'tish amalga oshirilmoqda. Bu siyosiy xalqaro munosabatlarda keng qo'llanilmoqda. Dunyodagi bir qancha eng yirik va qudratli boshliqlari (prezidentlar), turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar, korxonalar, konsermlar, ommaviy harakatlar rahbarlari, diniy arboblari, mutaxassislar o'zaro uchrashib bir-birlariga yon berilib xalqaro munosabatlarda yuzaga kelgan eng dolzarb masalalar, muhim hayotiy muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishni bahamjihat kelishi olmoqdalar. Davlatlar va xalqlar o'rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorlikni kuchaytirish to'g'risida ikki tomonlama va ko'p tomonlama o'zaro bitimlar va majburiyatlar qabul qilinib turibdi.

«Jahon miqyosidagi umumiy taraqqiyot, odamlar dunyoqarashi-ning o'zgarishi, kommuni-katsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabat-larning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'siri davlatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro birlashishga intilishni kuchaytirmoqda. Ayni vaqtda milliy xususiyatlar va an'analarni, siyosiy va ma'naviy merosni saqlab qolish tamoyillari ham yaqqol sezilmoqda»<sup>1</sup>.

Insoniyatni qiziqtirib kelayotgan umumbashariy, milliy, mintaqaviy va boshqa muammolarni ilgariydek ixtiloflar yo'li bilan hal qilib bo'lmaydi. Shu jihatdan qaraganda, ixtiloflar emas, sog'lom kuchlarni birlashtirish, qarama-qarshiliklarning birligi yuzaga kelgan muammolarni hal qilishning muhim ornili ekanligini jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichi ko'rsatib va amalda isbotlab turibdi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1995, 59-bet.

Shuning bilan bir qatorda jahonda mulkiy tengsizlik – sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovut va ziddiyatlar kuchaymoqda.

Bu holat jahon resurslarini taqsimlashda yaqqol ko'rinadi. Ya'ni tabiat resurslari aslida rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy boyligi hisoblansa ham, sanoat yuksak rivojlangan mamlakatlar bu boyliklarni nazorat qilishni o'z qo'liga olishga intilmoqdalar.

Qolaversa, ilmiy va texnikaviy bilimlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar sohasida, erkin sarmoyani jalb qilish sohasida ham juda katta tafovutlar mavjud.

Hozirgi zamon tarixiy jarayonlarining asosiy belgilaridan yana biri – dunyodagi aksariyat mamlakatlarning, xususan, yaqinda mustaqillikka erishgan davlatlarning eng kuchli, eng katta xalqaro banklar, nufuzli xalqaro tashkilotlarga teng huquqli a'zo bo'lib kirib kuch-g'ayratlari va iqtisodiy imkoniyatlarini umumiy maqsadlari yo'lida birlashtirayotganliklaridadir. Buni O'rta Osiyo mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi misolida ko'rish mumkin.

Qisqa vaqt ichida respublikamiz ko'pgina nufuzli xalqaro tashkilotlarga, xususan BMT ga, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Yevropa qayta tiklash va taraqqiyot banki, Iqtisodiy hamkorlik Tashkiloti va boshqa shu kabi mashhur xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarga qabul qilindi. Hozirgi davr uchun xos bo'lgan yana bir xususiyat shundan iboratki, fan va texnikaning eng yangi yutuqlariga asoslangan zamonaviy texnologiya – sanoat va qishloq ho'jaligining barcha sohalariga joriy etilmoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyatning ildam odimlar bilan olg'a taraqqiy etishida zamin yaratmoqda.

## **2. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ularni hal qilish yullari va istiqbollari**

Umumbashariy muammolar mazmunan boy va chuqurligi, qamroving kengligi, butun insoniyat hayotiga taalluqliligi, milliy, regional chegaralar bilan cheklanib qolmaganligi va boshqa qator xususiyatlariga ko'ra ayrim xalq va millatga, alohida bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga bevosita tegishli bo'lgan muammolardan keskin farq qiladi. Umumbashariy muammolar insoniyatning hozirgi davri uchungina emas, balki kelajakdagi hayotiy manfaatlari uchun ham juda muhim va katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari – bu

insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan eng muhim va asosiy muammolardir.

Hozirgi zamonda insoniyat tsivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan eng muhim va asosiy muammo – bu Er yuzidagi tinchlikni saqlash, yadroviy urushning oldini olish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlashdir. Biz shuni aniqlab olishimiz zarurki, insoniyat atom energiyasiga, harbiy ahamiyat baxsh etilgan yadroviy qurollar asriga qadam qo'yib, abadiylikdan maxrum bo'lib qoldi. Agar yadroviy urush boshlanib ketsa, Er yuzidagi hamma jonli narsalar yo'q qilib tashlanadi. Mavjud yadroviy aslahaxonalar shundayki, ularda Er yuzida yashaydigan har bir kishi hisobiga uning atrofidagi juda katta mintaqani vayron qilishga qodir bo'lgan zaryadlar jamlab qo'yilgan. Atom energiyasidan harbiy maqsadlar yo'lida foydalanish insoniyatning bunday keyingi taqdirini xavf ostida qoldiradi. Chunki yadro quroli qo'llansa, Er yuzidagi barcha tirik mavjudot qirilib, sivilizatsiya yo'q bo'lib ketadi, bunga hech qanday shak-shubha yo'q.

Hozir dunyoda ilgari davlatlardagig'a nisbatan yadro quroli va ularni tashish moslamalari ancha ko'pdir. AQSh bilan sobiq sho'ro hududidagi yadro quollarining talofat kuchi 60 ming megatonnani tashkil qiladi. Olimlarning taxmin qilishicha, agar urush boshlanib, yadro quollari qo'llaniladigan bo'lsa, bu holda faqat 12 ming megatonnagacha quvvatidan foydalaniladi. Solishtirish uchun ko'rsatish mumkinki, ikkinchi jahon urushida qo'llanilgan barcha portlatish quollarining umumiy quvvati atigi 6 megatonnani tashkil qilgan. Boshqacha aytganda, yadroviy urush bo'ladigan bo'lsa, bunda portlash kuchi besh yil davom etgan ikkinchi jahon urushidagiga nisbatan ikki ming barobar ko'p bo'lib, u faqat bir yoki ikki kunda yuz beradi.

Termoyadro quollarining uchta texnik xususiyati insoniyatni, sivilizatsiyani katta xavf-xatar ostiga qo'yadi.

Birinchidan, termoyadro quroli katta talofat kuchiga ega.

Ikkinchidan, termoyadro quroli ishlab chiqarish qiymati oldingi urushda minglab foydalanilgan harbiy samolyotlarni ishlab chiqarishga sarflangan mablag'ga nisbatan ancha arzon.

Uchinchidan, yadoraketa hujumidan himoyalanihga intilishning amaliy samara bermasligi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra, termoyadro qurolidan foydalanish mumkinligi insonning genotip sifatidagi hamda insoniyat tsivilizatsiyasining mavjudligini katta xavf-xatar ostiga qo'ymoqda. Dunyoda insonning biologik tur sifatida yashashiga bevosita xavf-xatar mavjud.

Demak, butun insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolar – termoyadro qurolining qo'llanilishi va insoniyatning atom yong'ini natijasida halokatga duchor bo'lishi xavfini bartaraf etishdan iborat. Hozirgi paytda tinchlikni astoydil saqlash va mustahkamlashdan ko'ra zarur va muhimroq vazifa yo'q. Tinchlik bo'lmasa taraqqiyot ham, tarixning o'zi ham bo'lmaydi, zero tinchlik insoniyat turmushining tub shartidir.

Yadro urushida g'olib bo'lmagani kabi qurollanish poygasida ham yutib chiqish mumkin emas. Er yuzidagi bunday poygani davom ettirish, ayniqsa, uni kosmosga ham yoyish yadro qurolini takomillashtirish sur'atini yana ham tezlashtiradi. Er yuzidagi vaziyat bundan keyin siyosatchilarga bog'liq bo'lmay qolishi mumkin, u tasodifning «quli» bo'lib qoladi.

Modomiki, yadroviiy urushning oldini olish, tinchlikni saqlash umuminsoniyatning oldida turgan dolzarb vazifa ekan, unga erishish uchun jahondagi hamma kuchlar, harakatlar birlashtirilishi lozim. Insoniyatning o'z-o'zini saqdab qolishi, uning bugungi, ertaga, hamisha baxt-saodatli bo'lishi uchun uning kuch-g'ayratlarini birlashtirishga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Bundan biz bir-birimizga bog'liq ekanligimizni, dunyoning yaxlitligini yaqqolroq ko'ryapmiz. So'nggi davralarda Chernobil, Yaponiya atom stansiyalarida yuz bergan avariyaalar, atom qurollarini sinovdan o'tkazuvchi harbiy tomonlarining atrof-muhitga, aholiga ko'rsatilayotgan salbiy ta'siri, radioaktiv chiqindilarni saqlash va shu kabi muammolar turli mumlakatlarda yashovchi kishilarning taqdiriga daxldor ekanligidan yaqqol dalolat beradi.

Keltirib o'tilgan dalillar urush va tinchlik muammosi hozirgi zamonning har qanday umumbashariy muammosini ijobiy va oqilona echishning zarur sharti va asosi ekanligini ochiq-oydin ko'rsatib turibdi. Shuni e'tiborga olgan holda hozirgi kunda mintaqada barqarorlik va milliy xavfsizlik kafolatlarining shart-sharoitlarini aniklash va ta'minlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz e'tirof etganidek, biz davlatlarning tinch-totuv yashash, xalqaro masalalarni hal qilishda kuch ishlatmaslik, tahdid qilmaslik tamoyilini tashqi siyosatimizga asos qilib olganmiz. O'zbekiston muddati 1995-yilda uzaytirilishi lozim bo'lgan yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomani, yadro qurolini yo'q qilib tashlash to'g'risidagi shartnomaga aylantirish tarafdoridir. Shuningdek, biz xuddi kimyoviy qurollar bo'yicha qabul qilingan shartnoma kabi biologik qurollarni ham ta'qiqlash to'g'risidagi shartnoma qabul



qilinishi tarafdorimiz. Bu O'zbekiston tinchliksevar mamlakat ekanligining yaqqol dalilidir.

Dunyo aholisining to'xtovsiz qo'payib borayotganligi hozirgi davrning eng muhim xususiyatlaridan bo'lib hisoblanadi. Faylasuflar, sotsiologlar, demograflar jahon aholisining soni 2025-yillarga borib 8 milliardga etishini taxmin qilmoqdalar.

Hisob-kitoblarga qaraganda, kelajakda sayyoramiz aholisining teskari ravishdatabiiy boyliklar – neft, toshko'mir, torf, toza suv, unumdor tuproq sekin-asta kamaya boradi. Agar chuqur suv zapaslari bilan qiziqadigan bo'lsak, u unchalik ko'p emas. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, uning hajmi 35 million kub kilometrdir, ya'ni sayyoradagi umumiy suv hajmining 2 foizini tashkil etadi. Mana shu masalalarga oqilona yondashish ham hozir barcha xalqlarning oldida turgan dolzarb umumbashariy muammolar turqumiga kiradi.

Hozirgi davrda butun insoniyatning oldida turgan yana bir muhim muammo – bu, qashshoqlikni tugatishdir. XXI asrning hozirgi bosqichida – fan va texnika gurkirab rivojlanayotgan, koinot o'zlashtirilayotgan davrda uzoq yillar davomida mustamlakachilik hukmronligi ostida kelgan mamlakatlardagi bir milliarddan ko'proq aholi oziq-ovqat etishmasligi, yashash uy-sharoitining yo'qligi, tabobat xizmatining yomonligi tufayli qashshoqliqda hayot kechirmoqdalar. Keyingi o'n yilliklar mobaynida «uchinchi dunyo» deb atalgan mamlakatlarda qashshoqlik shu qadar keng yoyilgan va shu qadar kuchayganki, bu insoniyat uchun sharmandalikdan boshqa narsa emas.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqida quyidagi ko'rsatkichlarni keltirib o'tdilar. Xususan: jahonda ochliq yoki u bilan bog'liq sababalar tufayli har 7 daqiqada 1 bola nobud bo'layotgani, tuyib ovqatlanmaslikdan azob chekayotganlar 5 yoshgacha bo'lgan archa bolalarning 1/3 qismini, har yili to'yib ovqatlanmaslik tufayli dunyodan ko'z yumayotgan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 6 milliondan ortig'ini tashkil qilayotgani, kuniga 1 AQSh dollardan kam mablag' hisobidan kun kechirayotganlar soni 1,3 milliard kishini tashkil qilinishi, Janubiy osiyoda kuniga 1 dollardan kam mablag'ga kun kechirayotganlar soni 522 million kishini, Afrikaning Sahroi Kabirdan janubida qashshoqlikda yashovchi aholi ulushi 46,3 foizni, asosiy xizmatlardan foydalanish va qashshoqlikni kamaytirish uchun zarur mablag' 80 milliard yoki jahon YaIMning 0,5 foizdan kam qismi,

jahondagi eng badavlat 3 oligarxning mablag'i esa eng qashshoq 48 mamlakatning jami YalMdan ancha yuqori ekanligi qayd etilgan<sup>1</sup>.

Qashshoqlikning oldini olish uchun rivojlangan mamlakatlar qashshoq mamlakatlarga yordam berishni kuchaytirishi lozim. Shuning bilan bir qatorda er yuzidagi mavjud resurslardan oqilona foydalanish zarur. Samarali, teng huquqlikka asoslangan, planetaning resurslaridan umuminsoniy bo'lik sifatida oqilona foydalanishni ta'minlab beradigan xalqaro usullar va mexanizmlarga bo'lgan ehtiyoj borgan sari aniq ko'rinmoqda.

Bu shundan dalolat beradiki, hozirgi dunyoda hammamiz borgan sari bir-birimizga bog'liq bo'lib qolayotirmiz, bir-birimizga kerakli bo'lib qolayapmiz. Binobarin, bu dunyoda hozir bizning taqdirimiz bir ekanligini, bitta sayyorada yashab turganligimizni, uning manbalaridan foydalanayotganimizni, bu manbalarni bir-birimiz bilan ayirboshlayotganimizni va ular cheksiz emasligini, ularni saqlash kerakligini qo'rib turgan ekanmiz, bu hammamiz uchun oydin voqelikdir. Taraqqiyot jihatidan orqada qolib ketayotgan mamlakatlar aholisining qashshoqligini tugatishda, ularning kundalik ehtiyojlarini qondirib, kerakli noz-nematlar bilan ta'minlash uchun ekin ekiladigan erlarga mineral o'g'itlar bilan ishlov berish, sug'orish tizimini takomillashtirish, agrotexnikani kuchaytirish, dengiz manbalaridan samarali foydalanish, sun'iy mahsulotlarni yaratish kabi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Bu masalalarni hal etishda rivojlangan mamlakatlarning yordami katta o'rin tutadi.

Inson hayotini saqdashda hozirgi paytda barcha mamlakatlarda keng tarqalib ketayotgan kasalliklar bilan kurashish, uning oldini olish ham katta ahamiyat kasb etadi. Fan-texnika rivojlanishi bilan bir qatorda hozirgi ko'p joylarda yurak va qontomir kasalliklari, saraton, OITS, narkomaniya va shu kabi kasalliklar avj olib ketayapti. Bu o'z navbatida insoniyatning kuch-quvvatlarini to'plab, fan yutuqlaridan foydalanib, yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarni yo'q qilish yo'llarini aniqlash olishni talab qilmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti, jumladan, Butunjahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti (VOZ)ning faoliyatini yanada jonlantirish katta ahamiyatga egadir.

Xalqaro terrorism, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, nashavandlik, alkogolizm, xaritali kasalliklarning (OITS, saraton va hokazolar) oldini olish, ularni tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik,

---

<sup>1</sup> Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqi. // «Xalq so'zi», 2010-yil 20-sentyabr.

shuningdek, maorif va ijtimoiy ta'minot, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlardan oqilona foydalanish kabi muammolar ham jahon mamlakatlarining oldida turgan umumbashariy muammolaridir.

Dunyodagi barcha mamlakatlarga taalluqli bo'lgan umumbashariy muammolardan yana biri – insoniyatning energiyaga nisbatan to'xtovsiz o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish yo'llarini izlab topishdan iboratdir. Energiya xom-ashyosi masalasi shuning uchun ham jahon ahamiyatiga ega bo'lgan muammolardir, inson usiz hayot kechira olmaydi. Energiya insoniyat uchun o'ta zarur hisoblangan materiallarni, tabiat yaratmagan moddiy buyumlarni ishlab chiqarish va yaratish imkoniyatini beradi. Demak, energiyasiz inson taraqqiyotini tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiat energiyaga boy. Fan yutuqlariga suyangan holda shuni aytish mumkin, tabiiy energiya manbalari – ko'mir, neft, yonuvchi slanets, gaz va boshqa tabiat boyliklari er bag'rida har qancha ko'p bo'lgani bilan bitmas-tugunmas manba emas. Shuning uchun respublikamizda ham ulardan oqilona tejab-tergab foydalanish lozim. Tabiat va uning boyliklarini ko'z qorachig'iday saqlash umuminsoniyat-ning eng muqaddas burchidir.

Umuminsoniyat oldida turgan yana bir muhim muammo bu irqchilik, millatchilik, fashistik totalitar tuzumlar xavfi avj olib ketishiga yo'l qo'ymasliqdir, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash, demokratiya, oshkoralikni rivojlantirish yo'li bilan xalqlar o'rtasidagi yangi munosabatni tiklashdir.

Irqchilik, millatchilik avj olgan davlatlarda inson huquqlari va erkinliklari muqarrar ravishda cheklanadi, totalitar tartibot barpo etiladi, natijada inson erki, hayotining o'zi oyoq osti qilinadi. Gitlerizm, stalinizm tizimlarining oqibatida millionlab kishilar halok bo'lganliklari ma'lum.

Hozirgi kunda jahon davlatlari o'rtasida yangicha munosabatlar rivojlanmoqda, ular demokratiya, oshkoralik, insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy aloqalarning rivojlanishi ham ana shu umuminsoniy manfaatlarni qo'llab-quvvatlashga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy mamlakatlarning bir-biridan farqi, ularning taraqqiy darajasi xususiyatlari, eng avvalo, insonning huquq va erkinliklari qanday darajada himoya qilinayotganligi, demokratik jarayonning rivojlanishi bilan belgilanmoqda. Ular o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy aloqalarning rivojlanish istiqbollari ham ana shular bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham inson huquqini va erkinligini ta'minlash,

demokratiyani yanada rivojlantirish barcha inson va insoniyatning oldida turgan dolzarb muammolar bo'lib qolishi ham bejiz emas.

Ma'lumki, insoniyat kelajagi uning fan-texnika yutuqlaridan qay darajada unumli foydalana olishiga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi hech kimga sir emas. Hozirgi zamon fan-texnikasida bir-biriga tubdan qarama-qarshi bo'lgan ikki xil imkoniyat – Er yuzidagi jamiki jonli mavjudotni batamom qirib tashlash hamda insoniyat manfaatlari uchun xizmat qilish imkoniyatlari mavjud. Ana shu imkoniyatlarning qaysi biridan foydalanish masalasi fan-texnika inqilobining o'ziga emas, balki ijtimoiy tuzumning xususiyatiga, fan-texnika yutuklaridan oqilona foydalanishga bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganda, fan-texnika inqilobining maqsad va ijtimoiy oqibatlarini ijtimoiy tuzumning mohiyati va xususiyati belgilaydi. Fan-texnika inqilobi samaralaridan qanday maqsadlarda foydalanish to'g'risidagi masala hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy kurashida asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Zamonamiz fani va texnikasi Er yuzida ne'matlarning mo'l-ko'lligini, jamiyatning ravnaqi uchun, shaxsning kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini beradi. Ammo bu imkoniyatlar uni amalga oshirish borasidagi kamchiliklar sababli insonning o'ziga qarshi qaratilmoqda. Insoniyat XXI asr bo'sag'asida mana shunday dahshatli ziddiyat bilan etib keldi.

Aytib o'tilgan umumbashariy, umumjahon muammolar juda ko'p va xilma-xil, keng miqyosli va o'ta murakkab ekanligi, ayni paytda ulardan har birining insoniyatning bugungi va ertangi hayoti, jahon sivilizatsiyasining, qolaversa, sayyoramizning ham taqdiri uchun naqadar muhim va zarurligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Shuning uchun ham hozirgi paytda butun insoniyat uchun umumbashariy muammolarni hal etishdan ko'ra zarur va muhimroq vazifa yo'q. Umumbashariy muammolar echilmasa, ekologik falokatlar oldi olinmasa, tinchlik bo'lmasa, taraqqiyot ham, tarixning o'zi ham bo'lmaydi.

Butun sayyoramiz miqyosida davlatlar va xalqlarning birgalikdagi amaliy, bunyodkorona o'zaro harakatini yo'lga qo'yishni tarixning borishi, jahon ijtimoiy taraqqiyoti jarayoni tobora qat'iy talab qilmoqda. Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni umumbashariy muammolarni birgalikda amaliy tartibda echishni talab qilibgina qolmay, shu bilan birga buning uchun zarur siyosiy, sotsial, moddiy shart-sharoitlarni yaratib ham bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi O'rta Osiyodagi, shuningdek, Mustaqil Davlatlar hamdo'stligidagi, dunyodagi boshqa davlatlar bilan birgalikda

kuch-g'ayrat sarflab butun insoniyat uchun g'oyat muhim bo'lgan umumbashariy muammolarni hal etishda faol ishtirok etmoqda.

### 3. Inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi

Har bir insonning baxt-saodati, uning kelajak hayoti butun insoniyatning taqdiri bilan uzviy bog'liqdir. Inson biologik va ijtimoiy omilarning majmu'idir. Jamiyat biologik omilarning insonni kamol toptirishdagi ahamiyatini yanada oshirishga qodir emas. Lekin insonni mukammallashtirishda asosiy o'rin tutadigan ijtimoiy omilar rolini oshirish mumkin. Ana shu nuqtai nazardan hozirgi davrda butun insoniyat oldida turgan umumbashariy muammolarni hal qilish, mamlakatlar o'rtasidagi savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalarni mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi tarixiy jarayonlarning rivojlanishi, bir tomondan, har xil davlatlar o'rtasidagi muayyan ziddiyatlarning saqlanib qolishi bilan, ikkinchi tomondan, jahon hamjamiyati davlatlarining o'zaro bog'liqligi tobora kuchayib borishi, turli xalqlarning ijtimoiy hayoti va turmush tarzining baynalmilal tus olib borishi bilan tavsiflanadi. Ana shunday qarama-qarshiliklar kurashi orqali ziddiyatli, ammo o'zaro bog'liq, ko'p jihatdan yaxlit dunyo qiyinchilik bilan tarkib topib bormoqda.

Ayni paytda barcha xalqlar uchun munosib, chinakam insoniy turmushning moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarini yaratish, sayyoramizdagi hayotni ta'minlash, uning boyliklariga, avvalo, eng katta boylik – insonning o'ziga, uning imkoniyatlariga avaylab munosabatda bo'lish – davrimizning dolzarb muammolariga aylanib qolganligi bejiz emas.

Inson taqdirining butun insoniyat istiqboli bilan mushtarak ekanligi xalqimiz ongiga singib ketgan. Shuning uchun ham ular mintaqamizdagi qo'shni mamlakatlar bilan bir qatorda jahon xalqlari bilan ham yaxshi qo'shnichilik va o'zaro hurmat-izzatda bo'lishiga doyamo intilib kelganlar.

O'zbeklar azal-azaldan ko'hna Turkiston zaminida qozoqlar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar bilan elkama-elka, bir tanu bir jon, aka-uka, do'st-birodar, qon-qarindosh bo'lib yashamoqda. O'lkamizdagi moddiy va ma'naviy madaniyatni yaratish va rivojlantirishga ular o'z hissalarini qo'shishgan, mustamlakachilik zulmi va istibdodiga qarshi hamkorlikda kurashganlar. Hamkorlikda yashash, hamkorlikda mehnat va ijod qilish, hamkorlikda kurashish, bir-birini qo'llab-quvvatlash,

yaxshi kunlarda ham, og'ir paytlarda ham birgalikda bo'lish ularning hammasiga xos umumiy fazilatdir. Bu – ularga avlodlar merosi, tarixan xos xususiyatdir. Buni umumiy chegaralargina emas, til va urf-odatlar, an'analarning yaqinligi, dini va dilining birligi, madaniyati va turmush tarzining, ma'ishiy hayoti va ishlab chiqarish faoliyatlarining deyarli bir xil ekanligi belgilab berilgan.

Bir necha ming yillardan beri yagona bir hududda o'zaro do'stlik va hamkorlikda yashab kelgan o'zbek, tojik, qozoq va qirg'izlar sobiq sho'ro tuzumi davrida bir-birlaridan deyarli ajratib tashlangan, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalari uzilib qo'yilgan edi. Shuning uchun ham ular o'zaro uzoqlashib qolishgandi. O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston singari qardosh respublikalar o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar Markaz ijazatsiz amalga oshmasdi.

Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini, xalqlarning xohish-irodasini nazarpisand qilmaslik, turmush voqealari, xalqlarimizning talab-istaqlariga ilmiy, odiloni asosda emas, balki aqidaparastlarcha bo'lish tufayli ko'riladigan moddiy, ma'naviy-ruhiy zarar va boshqa ovorayusarsongarchilikka Markazdagi rahbarlar ahamiyat bermaganlar. Ularning – yagona maqsadi qardosh respublikalar xalqlar o'zaro yaqinlashib birlashib ketmasalar bo'lgani edi.

O'tgan asrning 70-yili davomida o'tkaziladigan tobelik siyosating oqibati sifatida O'rta Osiyoning mustaqillikka erishgan respublikalari va xalqlari oldida o'tmishda yuzaga kelgan qator muammolar ko'ndalang bo'lib turgandi. Bularni davlatlararo va millatlararo munosabatlarning juda ko'plab masalalarida ko'rish mumkin.

Ota-bobolarimiz minglab yillar mobaynida bir-birlari bilan yaqin qo'shni bo'lib yashab, paxta, g'alla, ipak, go'sht, neft, ko'mir, mis, oltin, qumush va boshqa boyliklar yaratgan, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirib kelgan bo'lsalarda, lekin ma'muriy-buyruqbozlik yillarida ana shu masalalarda ham og'ir qiyinchiliklar va qator muammolar yuzaga kelib, keskinlashib ketgan edi.

Mamlakatimizdagi mustaqil respublikalarning tarixan o'zaro chambarchas boglangan va bir-biriga ta'sir o'tkazib kelgan madaniy, ma'naviy, xo'jalik aloqalarini saqlab qolish va mustahkamlashni, yaxlit energetika, transport, irrigatsiya tarmoqlaridan, gaz va suv ta'minoti tizimidan birgalikda foydalanishni yo'lga qo'yish va yaxshilashni hozigipaytda darring o'zi talab qilmoqda. Mineral xom ashyo resurslarini va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida tarkib

topgan ichki, mintaqaviy, respublikalararo munosabatlar haqida ham shunday deyish mumkin.

O'zbeklar, qozoq va qirg'izlar va boshqa turkiy xalqlar o'rtasida azaliy do'stlik va qardoshlikning, iqtisodiy, madaniy-siyosiy aloqadorlikning yo'lga qo'yilganligi, yangi bosqichga kirganligi mustaqillikning buyuk samarasidir. Prezidentlar va huqumat boshliqlarining uchrashuvlarida O'rta Osiyo xalqlari hayotiga oid ko'pgina iqtisodiy, madaniy-siyosiy muammolar muhokama qilinib ularni hal qilish yo'llari moliyaviy asoslari belgilab olinganligi va hozirdanoq ularning amaliy natijalari sezilayotganligi diqqatga sazovordir.

Hozirgi paytda insoniyat oldida shunday dolzarb, o'tkir muammolar turibdiki, ularni hal etish uchun dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar va xalqlarning kuch va imkoniyatlarini safarbar etishga to'g'ri keladi, mamlakatlarimiz xalqlari hayotining hozirgi holati va kelajagi uchun mas'uliyatni his etgan holda, biz teng huquqli hamkorlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro hurmat davlatlarimizning bir-biriga o'zaro munosabatida asosiy tamoyillar bo'lib qolishimuhim.

Mazkur mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlar tarixiy, madaniy taraqqiyotining mushtarakaligi bilan birlashgandir, ularni an'analar va ma'naviy qadriyatlar jiplashtirib turadi. Ular har doim o'zaro hurmat, tinch-totuvlik va yaxshi qo'shnichilik ruhida birgalikda yashab kelishgan.

Umumiy ma'naviy qadriyatlar bilan bir qatorda bizni, shuningdek, energetik, suv va mintaqaning boshqa tabiiy resurslaridan foydalanishga asoslangan an'anaviy savdo, iqtisodiy aloqalar ham birlashtirib turadi.

Prezidentlar mamlakatlarimiz o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy va ijtimoiy sohalarda mustahkam hamkorlik qilish uchun maqbul shart-sharoit yaratib berishga har tomonlama ko'maqlashishga tayyor ekanligini, buyuk ajdodlarimizdan qolgan boy merosni bundan keyin yanada boyitish, bu boyliqdan mamlakatlarimizdagi mavjud iqtisodiy salohiyatni yanada yuksaltirish yo'lida foydalanishga amaliy ishlar bilan ko'maklashamiz, deb bayon qildilar.

O'rta Osiyo mamlakatlari bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, MDH hamda boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zodir. «Biz, – deb aytilgan Qo'shma bayonotda, – tashqi siyosatda xalqaro huquqlarning barcha e'tirof etgan tamoyillariga rioya etgan hamda ularga amal qilgan holda hududiy yaxlitlik va bir-birimizning mustaqilligimizni so'zsiz hurmat qilish, tarixiy shakllaigai chegaralarni tan olish lozimligini e'tirof

etamiz. Biz, shuningdek, har bir davlatning o'z taraqqiyot yo'lini, davlat va jamiyat andozalarini tanlab olish huquqini e'tirof etamiz, o'zimizning bir-birimizga nisbatan maqsadlarimiz birligiga shubha uyg'otuvchi, tashqi kuchlar manfaatlariga xizmat qiluvchi bayonotlardan tiyilib turishga tayyor ekanligimizni bayon etamiz.

Biz bir-birimiz bilan hamda boshqa mamlakatlar bilan ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama, ham teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik qilishga tayyor ekanligimiz, mamlakatlarimiz va xalqlarimizning gullab-yashnashi va ravnaq topishiga erishishning asosi bo'lish va bu tamoyillarga og'ishmay amal qilishimizni ta'kidlaymiz».

Istiqlol O'rta Osiyo mamlakatlari uchun bahamjihat bo'lib jahon hamjamiyatiga qo'shilib demokratik tamoyillarga asoslangan, har tomonlama rivojlangan, kelajagi buyuk davlatni barpo etish uchun barcha imkoniyatni yaratib berdi. Uni qo'ldan boy bermay olg'a siljitish – barchamizning muqaddas, sharafli burchimizdir.

Jahon hamjamiyatiga qo'shilishda jamiyatimizdaga tinchlik-totuvlik, barqarorlik katta vositachilik vazifasini bajarib kelmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Bizni sotsialistik tuzumdan keyingi bir qator mamlakatlardan farqlab turgan, yuksak darajada rivojlangan yuksak madaniy demokratik davlatlari bilan yaqinlashtirib turgan, jahon hamjamiyatiga har tomonlama qo'shilib ketish uchun yo'l ochib berayotgan narsa – fuqarolar tinchligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorliqdir».

Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik xalqimizning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni tashkil etadi, ularni avaylab saqlash va mustahkamlashga intilish azaldan xalqimizning o'ziga xos fazilati bo'lib kelgan va hozirgi vaqtda ham shunday bo'lib kelmoqda. Xalqlar o'rtasida tinchlik-totuvlik, do'stlik va o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish mamlakatimizning ongiga, qoniga chuqur singib ketgan.

O'zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish hamda taraqqiyotga erishishning o'ziga xos yo'lini tanlab olgan. Shuning uchun ham uning jahon jamiyatidagi obro' va e'tibori tobora ortib bormoqda.

Barqarorlik, tinchlik, totuvlik bular davlatimizning yangi binosini barpo qiladigan poydevoridir. Bu bizning ertangi porloq kunimizga olib boradigan to'g'ri yo'ldir.

Ma'lumki, umumjahon xavfsizlikka erishishdan, muayyan mintaqadagi davlatlarning hamjihatligi va birligidagi harakatidan boshlana-



digan jarayon. Shuni e'tiborga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov BMTning 48, 50, 55–sessiya-larida so'zlagan nutqlarida Afg'oniston va Tojikistonda barqarorlik tinchlikka erishish uchun mazkur mintaqalarda joylashgan davlatlarning bir-birini o'zaro anglash va birgalashib harakat qilishlarining zarurligini uqtirib o'tdi va bir necha takliflarni olg'a surdi. «Biz uchun yagona to'g'ri yo'l, – deydi I.A.Karimov, – halokatli ravishda o'z qobig'iga o'ralib qolish emas, balki bu jarayonda ma'lum qiyinchilik va nomukammalliklar mavjudligiga qaramasdan, jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lidir».

Hozirgi o'ta murakkab va ziddiyatli jarayon vaqtida huqumatimiz tomonidan uzoqni ko'zlab olib borilayotgan insonparvarlik siyosati tufayli ekani yurtimizda osoyishtalik, tinchlik va totuvlik fuqarolarning kundalik turmush tarziga aylanib ketgan.

Bu esa, o'z navbatida, respublikamizni jahon hamjamiyatiga qo'shilishga katta zamin yaratmoqda.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'z doirasida chegaralanib qolmasdan, boshqa xalqlar bilan do'stona munosabatda bo'lgan taqdirdagina taraqqiyot yo'liga tusha oladi. Buni biz o'z hayotimizdan yaqqol ko'rib turibmiz.

### **Takrorlash uchun savolar**

1. Sizingcha jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilishning mohiyati nimadan iborat?
2. Hozirgi davr tarixiy jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va ularning namoyon bo'lish shakllari haqida o'z fikr-mulohazalaringizni qisqacha bayon eting.
3. Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ularni hal etish yo'llari va istiqbollari qanday?
4. Inson va insoniyat, ular taqdirining mushtarakligi haqida nimalar deya olasiz?

### **Tayanch tushunchalar**

**Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)** – sobiq ittifoq tarqalib ketgandan keyin tashkil topgan davlatlar aloqalarining yangicha shakli.

**Integratsiya** – kirib borish, to'ldirish, o'zaro yaqinlashish.

**Barqarorlik** – tinchlik, osoyishtalik.

**Xavfsizlik** – biror davlatga yoki kimsaga xavf tug'dirmaslik, o'soyishtalik holati.

**Umumbashariy muammolar** – jahondagi barcha mamlakatlarga taalluqli muammolar.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 3–134-betlar.

2. Yusupov O'. Qo'shning tinch – sen tinch. – T.:«Mehnat», 2000, 3–21-betlar.

## XULOSA

Mazkur darslikda biz falsafaning kelib chiqishi va rivojlanishi, nazariy asoslari, ular yordamida borliqni inson ongida aks etish va bilish qoidalari va shu asosda insonning dunyoqarashini, tafakkurlash madaniyatini yuksaltirish, uni ma'naviy kamol toptirish, mustaqillik sharoitida jamiyatni ilmiy bilish va ilmiy boshqarish, inson va insoniyat istiqboli kabi o'ta dolzarb va murakkab muammolar ustida so'z yuritdik.

Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, falsafa fundamental nazariy fan bo'lsa-da, uning markazida turgan muammolar hayotdan ajralib qolgan mavhum qoidalar emas, balki hayotning o'zidan kelib chiqqan, davrimizning diqqat markazida turadigan va hammani qiziqtiradigan muammolardir.

Falsafa – o'zining mohiyatiga ko'ra insonparvar fandır. U muayyan sinflarning, ijtimoiy guruhlarning, siyosiy partiyalarning ehtiyojlarini qondirishdagina emas, balki insonning baxt-saodati, kamolotini ta'minlashga, jamiyatimiz milliy davlatini mustahkamlab, millatlar o'rtasida hamkorlik, hamjihatlikni rivojlantirishga, shu asosida respublikamizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalarida ro'y berayotgan ziddiyatlarni tinchlik asosida bartaraf etishga va shu kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishga qaratilgan inson-parvar, insonsevarlik ruhi bilan sug'orilgan fandır.

Falsafa fanini azaldan qiziqtirib kelayotgan masalalar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan muammolardir. Inson erki va huquqlarini himoya qilish, Er yuzida tinchlikni saqlash, qurollanish poygasini to'xtatish, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, xavfli kasalliklarni, ocharchilik, irqchilik, millatchilikning oldini olish, atrof-muhitni muhofaza etish, fan-texnika yutuqlaridan insoniyat hayotini yaxshilash yo'lida foydalanish kabi umumbashariy muammolar hozirgi davr uchungina emas, balki kelajak hayot uchun ham juda muhim va katta ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy muammolardir. Ularni chuqur va atroflicha tahlil qilish kishilarning falsafiy fikrlash mahoratini oshirishni talab qiladi.

Falsafa fani qotib qolgan emas, u muttasil rivojlanib boradigan fandır. Buning asosiy sababi hayotning o'zidadir. Chunki hayot murakkab, ziddiyatli, doimiy ravishda o'zgarib turadigan jarayondir. Shu sababli hayot inson uchun eng katta falsafiy maktabdir. Hayotning o'zgarishi bilan falsafaning muammolari ham qonuniy ravishda o'zgarib turadi. Hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyotiga o'tish o'z navbatida

yangicha falsafiy tafakkurni talab etadigan bir qator muammolarni o'rtaga tashlamoqda. «Biz egallashimiz kerak bo'lgan yana bir murakkab masala bor, – deydi Prezidentimiz I.Karimov, – bu odamlar ruhiyatini o'zgartirish, bozor psixologiyasini shakllantirishdir»<sup>1</sup>. Yangi hayotiy masalalarga eskicha yondashib bo'lmaydi. Shunday ekan, falsafa muammolariga o'zgarmas, qotib qolgan qoidalar sifatida qaramasdan, ularni hayot bilan taqqoslab, hayot talablari asosida rivojlantirib, ilmiy bilishva amaliy faoliyatga tatbiq etish kerak. Buning uchun falsafaning ayrim qoidalarini emas, balki uning butun ruhiri chuqur va atroflicha o'zgartirib olish lozim.

Falsafa hozirgi davrimizning buyuk ma'naviy, aql-idrok boyligidir. Uni mukammal egallab olish – davr talabidir. Ushbu darslikda yosh avlodlar qalbida falsafa faniga qiziqish uyg'otib, ularning ijodiy tafakkurlash madaniyatini shakllantirishga hissamizni qo'shgan bo'lsak oldimizda turgan maqsadga erishdik, deb bilamiz.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1995, 44-bet

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>BIRINCHI BO‘LIM</b>	
<b>FALSAFA FANI, UNING PREDMETI VA</b>	
<b>MUAMMOLAR DOIRASI</b>	
<b>I MAVZU: FALSAFA FANI, UNING PREDMETI VA</b>	
<b>XUSUSIYATLARI</b>	
Falsafa fanining predmeti, muammolar doirasi va vazifasi.....	6
Falsafa va boshqa fanlar.....	11
Falsafaning mafkura va siyosat bilan aloqadorligi.....	13
<b>II MAVZU: DUNYOQARASH VA UNING TARXIY TURLARI</b>	
Dunyoqarash tushunchasi va uning xususiyatlari.....	16
Mifologik dunyoqarash.....	18
Diniy dunyoqarash.....	21
Falsafiy dunyoqarash.....	27
<b>IKKICHNI BO‘LIM. FALSAFIY FIKRLAR TARIXI</b>	
<b>III MAVZU: QADIMG‘I SHARQ VA ANTIK DUNYODAGI ILK</b>	
<b>FALSAFIY FIKRLAR</b>	
Sharq xalqlarining ilk falsafiy fikrlari.....	32
Markaziy Osiyoda dastlabki falsafiy fikrlar.....	40
Antik dunyo falsafasi.....	45
<b>IV MAVZU: O‘RTA OSIYODA FALSAFIY FIKRLARNING</b>	
<b>RIVOJLANISHI</b>	
O‘rta Osiyoda o‘rta asr davridagi falsafiy ta‘limotlar.....	54
Tasavvuf falsafasi.....	75
XVII–XX asrlarda O‘zbekiston hududidagi ijtimoiy – falsafiy fikrlar.....	80
Hozirgi davr O‘zbekiston falsafasi.....	87
<b>V MAVZU: G‘ARBIY EVROPA VA RUS FALSAFASI</b>	
O‘rta asr Yevropa madaniyati va falsafasi.....	92
XVII–XVIII asr G‘arbiy Yevropa falsafasi.....	95
XVIII–XIX asr nemis klassik falsafasi.....	104
Rus falsafasi.....	109
XX asr falsafasi.....	113
<b>UCHINCHI BO‘LIM. BORLIK FALSAFASI</b>	
<b>VI MAVZU: BORLIQNING FALSAFIY TALQINI</b>	

Borliq tushunchasi va uning turlari.....	125
Substansiya va materiya, ularning o‘zaro aloqadorligi.....	128
Harakat va rivojlanish tushunchasi. Harakatning asosiy shakllari.....	133
Borliqning fazo va vaqtda mavjudligi.....	139

#### **VII MAVZU: TABIAT – BORLIQNING AJRALMAS QISMI**

Tabiat tushunchasi. Inson – jonli tabiatning oliy mahsuli.....	144
Inson va tabiatning o‘zaro aloqadorligi.....	149
Ekologik muammo va uni bartaraf etish yo‘llari.....	153
Mintaqamizdagi ekologik vaziyat.....	155

#### **TO‘RTINCHI BO‘LIM. ONG FALSAFASI**

#### **VIII MAVZU: ONG, UNING MOHIYATI, KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI**

Ong tushunchasi va uning mohiyati.....	160
Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi.....	162
Yuksak ong — inson bunyodkorlik faoliyatining olmili.....	170

#### **IX MAVZU: OLAMNI FALSAFIY ANGLASH**

##### **USULLARI**

Falsafada usul (metod) muammosi.....	175
Shaklan mantiq fikrlash usuli.....	176
Dialektika usuli va uning olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati.....	182

#### **X MAVZU: OLAMNI FALSAFIY ANGLASH QONUNLARI**

Olamni anglashda falsafiy tafakkurlash tamoyillariga rioya qilishning muhimligi.....	192
Miqdor va sifat o‘zgarishlarining bir-biriga o‘tishi qonunining olamni falsafiy anglashdagi ahamiyati.....	195
Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining falsafiy tafakkurlashda namoyon bo‘lishi.....	201
Olamni anglashda inkomi-inkor qonuni talablariga muvofiq fikr yuritishning zarurligi.....	205

#### **XI MAVZU: OLAMNI FALSAFIY ANGLASH SHAKLLARI**

Falsafiy kategoriyalar olamni anglashida vujudga kelgan tafakkur shakllari.....	212
Kategoriyalarning tizimi va ularning olamni anglashdagi ahamiyati.....	216
Harakatchan, ixcham tushunchalar orqali olamni anglash – falsafiy tafakkurining muhim xususiyati.....	222

#### **BESHINCHI BO‘LIM. BILISH NAZARIYASI**

#### **XII MAVZU: OLAMNI BILISH NAZARIYASI**

Bilishning obyekti va subyekti.....	230
Bilishning bosqichlari. Hissiy va mantiqiy bilish.....	234

Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning obyektivligi. Nisbiy va mutlaq haqiqat. Haqiqatning mezonlari.....	241
---	-----

**XIII MAVZU: ILMIY BILISH, UNING XUSUSIYATLARI VA USULLARI**

Ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari.....	247
Ilmiy bilishning empirik darajasi.....	251
Ilmiy bilishning nazariy darajasi.....	255

**OLTINCHI BO'LIM: JAMIYAT FALSAFASI**

**XIV MAVZU: JAMIYATNI FALSAFIY ANGLASH ASOSLARI**

Jamiyat tushunchasi va uning asosiy jihatlari. Jamiyatning moddiy asosi.....	259
Davlat va siyosiy tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o'rni.....	264
Oila va ijtimoiy-etnik birliklar jamiyat tarkibining muhim qismi.....	266
Jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlar.....	276

**XV MAVZU: JAMIYAT TARAQQIYOTINING OMILARI**

Ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyot.....	280
Qadriyatlar – jamiyat taraqqiyotining poydevori.....	287
Madaniyat jamiyat taraqqiyotining qudratli ma'naviy kuchi.....	295
Milliy g'oyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.....	312

**XVI MAVZU: INSONIYAT ISTIQBOLI**

Jamiyat taraqqiyotini oldindan ko'ra bilish – inson oqilona faoliyatining zaruriy sharti.....	323
Hozirgi zamon umumbashariy muammolari, ularni hal qilish yo'llari va istiqbollari.....	326
Inson va insoniyat taqdirining mushtarakligi.....	333
<b>XULOSA</b> .....	339

**J.TULENOV, G.TULENOVA,  
K.TULENOVA**

# **FALSAFA**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2016**

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	M.Holmuhamedov
Musavvir:	D.Azizov
Musahhih:	N.Hasanova
Kompyuterda sahifalovchi:	Sh.Mirqosimova

**E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 245-57-63, 245-61-61.  
Nashr.lits. AL№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2016  
Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Timez Uz» garniturasini. Ofset bosma usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 21,0. Nashriyot bosma tabog'i 21,5.  
Tiraji 50. Buyurtma №10.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining  
bosmaxonasi» da chop etildi.  
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**